ya'ni olish tizimi osonlashtirilmoqda. Olib borilayotgan siyosat ham mamlakatni yuksaltirishda qilinayotgan ishlarning isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pul, kredit va banklar darslik 2003-yil Moliya Sh.Z. Abdullayeva
 2. Moliya va kredit o'quv-metodik qo'llanma 2008-yil T.P. Nikolayeva
- Internet saytlari
3. www.finance.uz
 4. www.stat.uz

Ilmiy rahbar

dot. Maksumxonova A M.

SUV XO'JALIGI TASHKILOTLARINING IQTISODIYOTINI LIBERALLASHTIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING AHAMIYATI

Usarova M.I. - talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Maqola suv xo'jaligi tashkilotlarining boshqaruvini tashkil etishda qoida, me'yor va andozalardan qay tartibda foydalanish, korporativ boshqaruvning asosiy bo'g'inlari, korporativ huquqning belgilari, korporativ boshqaruv samarasining global miqyosida ta'siri, tendensiyalarini o'z ichiga oladi.

Milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish, investitsion faollikni kuchaytirish asosida jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, uning iqtisodiy qudrati va eksport salohiyatini oshirish hamda barqaror o'sishini ta'minlashning zaruriy shartlaridan biri – bu iqtisodiyot tarmoqlarida xorijiy mamlakatlarning korporativ boshqarish sohasidagi ilg'or tajribalarni keng joriy qilish hisoblanadi.

Shu sababli ushbu vazifalarni amalga oshirish suv xo'jaligi tashkilotlari iqtisodiyoti uchun o'ta muhim vazifadir. Korporativ boshqaruvning institutsional asoslari - bu korporativ boshqaruvning mexanizmlari davlat tartibiga solish organlari, sud organlari va ishbilarmonlar doiralarida ishlab chiqilgan ma'lum bir qoida, me'yor va andozalarni asosi va doirasida ishlaydi. Ushbu qoida, me'yor va andozalarning majmuasi korporativ boshqaruvining institutsional asoslarini tashkil qiladi.

Asosiy bo'g'inlari:

1. Maqomiy huquqning me'yor va qoidalari – davlat tomonidan ishlab chiqarilib, aksiyadorlik jamiyatlar faoliyatlarini tartibga soladi (markazlashgan me'yorlar). Ularga kompaniyalar haqida qonunlari, iqtisodiy nochorlik, soliq qonunchiligi va boshqalar kiradi;

2. Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan kuchga kiritiladigan va uning ichki hayotini tartiblashtiradigan me'yorlar (aksiyadorlik korporativ me'yorlar): korporativ boshqaruvining ixtiyoriy qabul qilingan andozalari haqidagi o'zaro kelishuv va kompaniya darajasida ularni amalga oshirish tartibini belgilaydigan ichki me'yorlar (korporativ qimmatli qog'ozlar listinggiga talablar, kodekslar va korporativ boshqaruv bo'yicha tavsiyalar)

3. Tashkiliy deb nomlanuvchi shartnomalarda, ya'ni boshqa tomonlar bilan ish aloqalarni o'rnatish, davom ettirish, to'xtatish (bir so'z bilan aytganda tashkil qilishga) qaratilgan kelishuvlarda berilgan me'yorlar;

4. Umumjamiyat amaliyoti va biznes yuritish madaniyati.

Korporativ huquq tushunchasi bu - korxonada ishlab chiqilgan qoidalar tizimi bo'lib, manfaatdor tomonlarining ifodasini ifodalaydi va tashkilot faoliyatining turli tomonlarini tartibga soladi.

Korporativ huquqning belgilari:

Korporativ huquq me'yorlardan, ya'ni umumiy xarakterga ega bo'lgan o'zaro munosabatlar qoidalardan tarkib topgan;

- Korporativ huquq o'zi bilan tashkilot faoliyatining barcha tomonlarini tartibga soluvchi me'yorlarni tashkil qiladi;

- Korporativ me'yorlar tashkilotning har bir a'zosi, korxonaning har bir hodimi uchun majburiydir;

- Korporativ me'yorlar, odatda, yozma shaklda ifodalanadi va ularni o'rnatish shakli sifatida korporativ hujjatlar xizmat qiladi;

- Korporativ me'yorlar korxonada qabul qilinadi va alohida mustaqil birlashma jamoasining irodasini ifodalaydi;

- Korporativ me'yorlar buzilganda, majbur qilish yo'li bilan ta'minlanadi.

Ta'kidlash joizki, ayni paytda O'zbekistonda korporativ boshqarish sohasida keng ko'lamli ishlar yuritilmoqda. Iqtisodiyotning globallasuv sharoitlarida korxonalar guruhleri o'rtasidagi boshqaruv munosabatlarini korporativ shaklga kelishi kompaniyaning rivojlantirish strategiyasini yanada takomillashtirish zaruriyatini tug'dirmoqda. Tashqi va ichki muhit korporatsiyasining rivojlantirish strategiyasini belgilab beradi. Korporatsiyalar o'z rivojlanishi yo'lida va ularning jamiyat tomonidan qabul qilinishida fan - texnika, iqtisodiyotning rivojlanishi, aholi malakasi, ma'lumot darajasi bilan bog'liq bir qator bosqichlarni bosib o'tadi. Mazkur bosqichlarning har birida korporatsiyalar vujudga kelishga har bir mamlakatda yuzaga kelgan korporativ madaniyat katta ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda korporativ sektorda mahsulot va xizmatlarning asosiy qismi ishlab chiqarilmoqda.

Iqtisodiy sohada suv xo'jaligining alohida tarmog'ini boshqarish mas'uliyatini siyosiy jihatidan butun bir davlatni boshqarish mas'uliyatidan kam emas. Shunday ekan, korporativ boshqaruvning samarasi ham lokal, ham global miqyosida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ya'ni:

- Suv xo'jaligining alohida tarmog'i miqyosida olib qaralsa korporativ boshqaruv samarasi maksimal darajada foyda olishda ko'zga tashlanadi ;

- davlat miqyosida olib qaralsa, korporativ boshqaruv samarasi iqtisodiy infratizimda xususiy sektor salmog'ining oshishida, fond bozori va iqtisodiyotning yuksalishida ifodalanadi;

- butun jahon miqyosida qaralganda esa, korporativ boshqaruv samarasi moliyaviy inqirozining oldini olishning imkoniyatlarni paydo bo'lishida, umumjahon moliyaviy bozor tashkiliy tuzulmasining tarkib topishida namoyon bo'ladi.

Prognoz qilish, rejalashtirish jarayoni yakunga yetkazilgandan so'ng tashkilot rahbariyati baholash va nazorat mexanizimini belgilashi zarur, u quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- natijalarni baholash uchun mezonlarni aniqlash;

- amaldagi ko'rsatkichlarni ko'zda tutilgan ko'rsatkichlar bilan taqqoslash;

- ular o'rtasidagi farqlarni tahlil qilish;

- zarur holatlarda strategiyaga tuzatishlar kiritish.

Nazorat bunday tizimga teskari aloqa tizimning mavjud bo'lishini nazarda tutadi va natijalarga qarab tashkilot missiyasi, strategik maqsadlar yoki bosh strategiyani qayta ko'rib chiqish uchun xizmat qilishi mumkin. Bu jarayonlarni amalga oshirishda strategik manejment usullari muhim ahamiyatni kasb etadi.

Yuqori maqsadlarga erishishga intiluvchi rahbar tashqi muhitdagi o'zgarishlarni oldindan ko'rish va ularga muvofiq ta'sirlanish, noxush oqibatlarini inobatga olgan holda yo'nalishni to'g'ri belgilashni xohlaydi. Ta'kidlash joizki, ayni paytda O'zbekistonda korporativ boshqarish sohasida keng ko'lamli ishlar yuritilmoqda. Jumladan Germaniya, AQSH, Yaponiya va Koreya kabi xorijiy davlatlardan tajribali mutaxassislar jalb qilib, zamonaviy korporativ boshqaruv sohasidagi seminarlar, tashkil sohasidagi seminarlar tashkil etilmoqda va mutaxassislarimiz xorijga borib tajribaga ega bo'lmoqda.

Hozirgi paytda jahonda xo'jalik sub'yektlari korporativ intergratsiyalashuvining faol jarayoni kechmoqda. Korporativ intergratsiyalashuv tadbirkorlikni tashkil etishning nafaqat samarali, balki jahon xo'jaligidagi zamonaviy o'zgarishlarga tez moslashadigan shakli bo'lib qoldi.

Bugungi kunda yirik intergratsiyalashgan korporativ tuzilmalar iqtisodiyotning turli tarmoq va sektorlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ular ikkita muhim tendensiya bilan tavsiflanadi:

- sanoat va kredit-moliya muassasalari, korporatsiyalar doirasida integratsiyalashuvi, ya'ni banklar va bank bo'lmagan kredit-moliya muassasalarining korporatsiyalar tarkibidagi ishtiroki;
- transmilliylashuv, ya'ni chet elda sho'ba kompaniyalar va filiallar tashkil etib, to'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirgan holda o'z faoliyati sohasini kengaytirishga intilish.

Yirik korporatsiyalar, xoldinglar, moliya-sanoat guruhlar ichki bozorda ham, tashqi bozorda ham iqtisodiy hamkorlikning barqarorligiga ko'maklashadi. Yana shu bilan birga yirik korporatsiyalar faoliyati barqaror va ishonchli bo'lgani sababli tasodifiy omillar ta'siriga kamroq duchor bo'ladi. [1]

Xulosa

Bundan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jahon tajribasi suv xo'jaligi tashkilotlarida korporativ birlashmalarni shakllantirish ularning boshqaruvida, faoliyatini amalga oshirishida turli xildagi tugallangan texnologik zanjirni barpo etish uchun imkoniyat yaratadi. Ular strategik rejalashtirishni amalga oshirish tufayli ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash imkoniyatiga ega bo'lib, xalqaro mehnat taqsimotining ustunliklaridan foydalanishi mumkin. Shu bilan birga mehnatni yanada optimal tarzda taqsimlash uchun shart-sharoitlar yuzaga keladi, bu o'z navbatida, yuqori unumli faoliyat, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilishga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B. Y. Xodiyev, R. X. Karlibayeva, N. I. Akramova "Korporativ boshqaruv", Toshkent-2011, 54 b.

Ilmiy rahbar

ass. Akramova N.A.

RESPUBLIKAMIZDA QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI EKSPORT QILISHNING SAMARALI TIZIMINI TASHKIL QILISH

Xalilova M.R - talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada meva – sabzavot mahsulotlarining eksportini kengaytirish bilan birgalikda dehqon va fermer xo'jaliklarini tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish yer resurslaridan samarali foydalanish, shu jumladan, takroriy ekinlar ekish hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligini oshirishga rag'batlantiradi. Bu esa o'z navbatida, ishlab chiqarilayotgan meva-sabzavot mahsulotlarining narxi va sifati bo'yicha tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish imkoni beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Meva – sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini xarid qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 2520-sonli qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga binoan mamlakatimizga qayta ishlash korxonalarini xom ashyo bilan muntazam ta'minlash, ishchi iste'mol bozorini yil davomida sabzavotlar, kartoshka, meva va poliz mahsulotlari bilan barqaror to'ldirish, shuningdek, tashqi bozorlarda xaridorgir va raqobatbardosh bo'lgan ho'l meva va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmini ko'paytirish va turlarini kengaytirish uchun ularni yetishtirish, ishlab chiqarish va xarid qilish bo'yicha yagona tizim shakllantirildi.

Shu bilan bir qatorda Respublikamizning barcha viloyatlarida ho'l meva – sabzavot, kartoshka, poliz mahsulotlari va uzum mahsulotlarini yetishtirish hamda nes-nobud qilmasdan qayta ishlash muhim vazifa qilib belgilab berildi.

Bundan tashqari Respublikamizning fermer va dehqon xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan ho'l meva-sabzavot, kartoshka, poliz mahsulotlari va uzum mahsulotlarini xorijiy sheriklar bilan to'g'ridan to'g'ri tuzilgan eksport shartnomalari, shuningdek fermer va dehqon xo'jaliklari, agrofirma va qayta ishlash korxonalari o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida eksport qilinishi belgilab berildi [1].

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish muammolari quyidagilar:

1. Minglab fermerlar, dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqaradigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kichik hajmda ishlab chiqarish. Shuning uchun mahsulotlar xarid qilish muammosi.

2. Yig'ilgan qishloq qishloq xo'jalik mahsulotlarini ulgurji savdoga chiqarish uchun mo'ljallangan meva va sabzavot terminallarining yetishmasligi. . Transport yuklarini tashkil etish uchun muzlatgichli logistika markazlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash zarur.

3. Zamonaviy qadoqlashlardan foydalanib, ishlab chiqarish va sotib olish muammolari.

4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda yig'im – terimdan to sertifikatlashtirish, transport va narxlashtirishga qadar bir qator muammolar tug'iladi.

5. Muntazam is'temolchilar va barqaror ta'minotchilarning yetishmasligi.

6. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini oldindan to'lash bo'yicha va fermer xo'jaliklarga fermerlarga qo'yiladigan talablar mavjudligi.

7. Qabul qiluvchilarni mahsulotni o'z joylariga yetkazib berish va xaridorning omborida qabul qilish talablari ko'pligi.

8. Qishloq xo'jaligi mahsulotini yig'ish va sotish jarayonida O'zbekiston va undan tashqarida ulgurji va savdo tizimlarini moliyalash muammolar.

9. Noaniq narx siyosati, tashqi bozor konyukturasini bilmaslik boshqa mamlakatlar raqobat yetkazib beruvchilar bilan taqqoslaganda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini keskin kamaytiradi.

10. O'zagroeksport tomonidan eksport shartnomalarini tuzish uchun tavsiya etilgan narxlar ancha shartli. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarini aniq aniqlash va tuzatish qiyin. Ular doimiy o'zgaruvchan omillarga bog'liq, jumladan:

- Yetkazib berishning mavsumiyligi;
- Boshqa mamlakatlardan ushbu turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini is'temol qiluvchi hududni to'ldirishdan;
- Yetkazib berilayotgan hududdan bir xil sabzavotlar Moskvada turli narxlarda bo'lishi mumkin yoki ehtimol Peterburg [2].

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlari quyidagicha:

1. Niche ulgurji savdosi:

a) Fermer xo'jaliklardan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olgan va o'z mablag'lari uchun eksportni tashkil etuvchi o'zbek ikkinchi dileri. Mahsulotga yetkazilgan zararining barcha xavflari sotuvchi bilan bo'ladi;

b) Fermer o'zi mahalliy yoki eng yaxshi xorijiy xaridorni topadi. Qoida tariqasida, bu holda xaridorning vakili sotib olingan mahsulotning sifati, ularni qadoqlash va joylarda hisob-kitob qilish bilan shaxsan nazorat qiladi;

c) Fermer UzAgroEksportning hududiy bo'limiga o'tadi. Bunday holda ikta variant mavjud. Fermer, xaridorni topib, "UzAgroEksport" orqali bilim tuzadi. Yoki UzAgroEksport vakillarining taklif etishi mumkin bo'lgan xaridor taklif qiladi.

Fermer o'z mahsulotini samarali eksport qildagi to'siqlar:

- U hozirgi faoliyat bilan shug'ullanadi, marketing bilimi yo'q;
- U normativ hujjatlarni yetarli darajada bilmagan holda;

- Bu masalalarni hal qilish uchun fermer hojatdor bo'lgan mutaxassislarni ushlab turishi kerak;

- Ko'plab fermerlar qadoqlash, tashish, sertifikatlashtirish laboratoriyalarining xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirish uchun vositalar va imkoniyatlardan mahrumdir;

- Hatto fermer bu qiyinchiliklarni yengsada, u katta miqdordagi yetkazib berishga aloqador bo'la olmayotgan birdan bir necha vagonlarga o'tishi mumkin.

2. O'rtacha ulgurji savdo mavqei:

Uni hududlarda qishloq xo'jalik mahsulotlari yig'ish va eksport qilish bilan shug'ullanadigan xususiy agrofimlar to'ldiradi. Ushbu tuzilmalar ko'proq mobil aloqa, hududlarga yaqin va mahsulotlarni eksport qilishda amaliy ko'nikmalarga ega.

Bunday tuzilmalar muammolari:

- Xorijiy tovar bozorining konyunkturasi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining iste'molchilarini to'liq bilmagan holda. Natijada ular muayyan hududlarga va is'temolchilarga "yopishadi";

- Mahsulotni saqlash, qayta ishlash, qadoqlash va ishonchli logistika uchun terminallar yo'qligi;

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilishda kreditlash va moliyalash muammolari.

3. Katta ulgurji savdoning mavqei:

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha yirik ixtisoslashtirilgan davlat tuzilmalariga Uztrade va UzAgroEksportni tashish mumkin. Ular xorijda sovutish uskunalari, transport va savdo uylari bilan terimi ombor jalb mintaqaviy tuzilmalar bor.

Tuzilmalar muammolari.

- Yirik ulgurji yetkazib berish uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash uchun terminal maydoni yetishmasligi;

- Chet elga katta chakana zanjirlar talablariga biri katta miqdorda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini muntazam yetkazib tashkil qilish imkoniyati yo'qligi;

- "Targ'ib" natijasida, hatto chet elda savdo uylari huzurida iste'mol bozorini qamrab yo'qligi kabi va (bozorda tovar harakat usullari) yetishmasligi;

Birja eksportini afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini potensial xaridorlarga sotish bo'yicha takliflarni keng va tushunarli ko'rib chiqish (kundalik almashuv byulleteni);

- Ta'minot va talab asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxlarining bozor shakllanishi;

- Mahsulot sotuvchi oldindan to'lov – klering uylar uzatiladi ipoteka sxemalar mahsulot otishdan foydalanish, almashish faqat birja shartnoma tovarlar jo'natilgandan so'ng;

- Chet el fond birjalarining tovar platformalariga o'zbek ishlab chiqaruvchilarning qishloq xo'jalik mahsulotlarini taklif etish imkoniyati;

- Xorijiy sheriklar tomonidan birja bitimlariga yetkazib berish va to'lash kafolati bilan ishonish;

- Birja bitimlar tuzish uchun katta chakana zanjirlar uchun kredit beradi Rossiya birjalarida, Rossiya banklari ishonch [3].

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi, saqlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi sohaga kiruvchi tarmoqlarni rivojlantirish respublika iqtisodiyoti uchun juda zarur. Mamlakatda amalga oshirilgan islohotlarga qaramasdan qishloq joylardagi aholining mahsulotlarini sotib oladigan va ular uchun kerakli tavorlarni yetkazib beradigan tizim yetarli darajada rivojlanmagan Mamlakat aholisining ish bilan ta'minlanishida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlar sotuvchi tarmoqlar va xizmatlarning ahamiyati beqiyos. Bu tarmoqlarni rivojlantirish mamlakatda ishsizlik muammosini yumshatadi va unga barham berish imkoniyatlarini kengaytiradi, yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari nobud bo'lishining oldini oladi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda yetishtirilayotgan ba'zi turdagi qishloq xo'jaligi

mahsulotlarining 30 foizgachasi nobud bo'lmog'da. Buning asosiy sabablaridan biri agrosanoat majmuasi 3-sohasining yetarli darajada rivojlanmaganligidadir. Yuqoridagilarni hisobga olib sohaning ahamiyati va iqtisodiyotdagi o'rnini quyidagilar bilan belgilash mumkin: qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarning nobud bo'lishini oldini oladi va natijada katta iqtisodiy samara beradi;

➤ aholini ish bilan ta'minlashni yaxshilaydi, ijtimoiy masalalarni yechimini optimallashtiradi;

➤ qishloq xo'jaligini imkon darajasida bir me'yorda moliyaviy mablag' bilan ta'minlaydi;

➤ aholining turmush darajasini oshiradi;

➤ qishloq xo'jaligini unga xos bo'lmagan funktsiyalardan (mahsulotni saqlash, tashish va x.z.) ozod qiladi;

➤ mamlakatning eksport salohiyatini oshiradi;

➤ aholini yilning turli fasllarida sifatli mahsulotlar bilan ta'minlashni yaxshilaydi;

➤ qishloq aholisining mehnat malakasini oshiradi;

➤ mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini sifatli ta'minlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirishdan maqsad dehqon va fermer xo'jaliklari daromadlarini oshirish, aholini bo'sh ish o'rinlari bilan ta'minlash, mamlakatimizning qishloq xo'jaligi sohasida raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. www.exchange.uz - internet sayti.

2. Abdug'aniyev A. "Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti" O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti Toshkent, 2004 y, 304 bet.

3. Aybenov X. Mamadaliyev A. Aybenova A. "Qishloq xo'jalik iqtisodiy islohotlar talab darajasida bo'lishi" – O'zbekiston Iqtisodiy Axborotnomasi -2004 yil

Ilmiy rahbar

dots. Do'stmuratov G'.D.

ҚИШЛОҚ ВА СУВ ХЎЖАЛИГИ ТАРМОҚЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШНИНГ МУҲИМЛИГИ

Бердимуродов А. – магистрант, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада қишлоқ ва сув хўжалиги соҳасида инвестициялар жалб этилишининг долзарблигига аҳамият берилади. Ўтган даврда ва бугунги кунда соҳада олиб борилаётган ислохотлар, чора-тадбирлар натижаси таҳлил қилинади. Инвестиция фаолиятини ривожлантириш бўйича таклифлар ва хулоса берилади.

Қишлоқ ва сув хўжалигининг барқарор ривожланиши тармоқда мавжуд бўлган ишлаб чиқариш воситалари оқилона тарзда такрор ишлаб чиқарилишини талаб этади. Бу жараён ишлаб чиқариш воситаларини сотиб олиш, қайта таъмирлаш, қуриш, инновацион ҳамда ижтимоий муносабатлар йиғиндисидан ташкил топади. Бугунги кунда ҳам бу муҳим аҳамия касб этади. Шуни алоҳида қайд этиш жоизки, қишлоқ хўжалиги тармоғи миллий иқтисодиётда муҳим рол ўйнайди. Чунки, у бир вақтнинг ўзида аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминласа, саноат тармоғини ҳам ашё билан таъминлайди. Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, мамлакат иқтисодиётининг, барча

иқтисодий тармоқларининг ривожланиши учун инвестициялар муҳим ўрин эгаллайди. Ҳозирги даврда айти шу соҳага катта эътибор қаратилмоқда. Президентимиз айтганидек “Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, қайси давлат фаол инвестиция сиёсатини юритган бўлса, ўз иқтисодиётининг барқарор ўсишига эришган. Шу сабабли ҳам инвестиция – бу иқтисодиёт драйвери, ўзбекча айтганда, иқтисодиётнинг юраги, десак, муболаға бўлмайди. Инвестиция билан бирга турли соҳа ва тармоқларга, ҳудудларга янги технологиялар, илғор тажрибалар, юксак малакали мутахассислар кириб келади, тадбиркорлик жадал ривожланади. Шу ўринда бир савол туғилади: инвестиция деймиз, ислохотлар деймиз, модернизация, деймиз. Лекин бу ўзгаришлардан кўзланган асосий мақсад нима ўзи? Юртимизда яшаётган ҳар қайси инсон миллати, тили ва динидан қатъи назар, эркин, тинч ва бадавлат умр кечириши, бугун ҳаётдан рози бўлиб яшаши – бизнинг бош мақсадимиздир. Бу йўналишда олдимизда улкан вазифалар турибди. Мамлакатимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлиги биринчи навбатда ижтимоий соҳадаги ислохотларимиз самараси билан чамбарчас боғлиқ. Келгуси йилда тадбиркорлик, бизнес учун янада қулай муҳит яратиш, янги иш ўринлари ташкил этиш, аҳоли даромадларини кўпайтириш, пенсия таъминотини яхшилаш бўйича ҳам кўп ишлар қилишимиз лозим. Шуларнинг барчасини ҳисобга олиб, 2018 йилда бошлаган ишларимизни мантиқий давом эттириш ва юксак босқичга кўтариш мақсадида, мен кириб келаётган янги – 2019 йилга “Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили” деб ном беришни таклиф этаман” айти шу соҳага давлат миқёсида эътиборнинг исботидир. Юқоридаги вазифаларнинг натижасини бугунги кунда амалга оширилаётган ислохотлар самарасида кўришимиз мумкин [1].

Шу билан биргаликда қишлоқ ва сув хўжалигида ҳам ишлаб чиқаришнинг самарадорлиги, мамлакатимизнинг иқтисодий ва озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, нафақат қишлоқ меҳнаткашлари, балки бутун Ўзбекистонимиз аҳолисининг моддий фаровонлигини ошириш бебаҳо бойлигимиз бўлган еримизнинг унумдорлиги, унинг сифатини мунтазам яхшилаб бориш билан узвий боғлиқдир. Қайд этилган фикрларининг ўзи қишлоқ хўжалиги тармоғига ҳам ички ҳам ташқи инвестицияларни жалб этишини тақозо этмоқда. Одатда, инвестициялар қуйидаги йирик иккита манбадан шакллантирилиб, амалга оширилади:

- корхонанинг ўз маблағларидан;
- четдан жалб қилинган маблағлардан.

Корхонанинг ўз маблағларига қуйидагилар киради:

- корхонанинг соф фойдасидан ажратилаётган маблағлар;
- амортизация фондидаги маблағлар;
- асосий воситаларни тугатишдан, сотишдан келиб тушган маблағлар;
- уларни ижарага беришдан тушган маблағлар;

қишлоқ хўжалик корхоналари қимматли қоғозлар чиқариб сотиш, бошқаларникини сотиб олиш натижасида олинаётган дивидентлардан ажратилаётган маблағлар. Юқори рентабелли корхоналар ишлаб чиқариш воситаларини янгилаш мақсадида капитал қўйилмаларни амалга оширишда кўпроқ имкониятга эга бўлади.

Бозор иқтисодиёти шароитида қишлоқ хўжалигида инвестицион сиёсатни шакллантиришда қуйидагиларга алоҳида эътибор бериш лозим:

– тендер асосида рақобатбардош лойиҳаларни танлаш қишлоқ хўжалигида инвестицион лойиҳалар бозори барпо этилишини таъминлайди;

– қишлоқ хўжалиги учун мўлжалланган инвестицияларнинг иқтисодий жиҳатдан асосланганлигига. Қишлоқ хўжалиги табиий-иқтисодий омилларининг хусусиятлари реал ҳисобга олинган ҳолда иқтисодий-ижтимоий натижалари аниқланган бўлиши; чунки, аксарият ҳолларда лойиҳада белгиланган маблағлар кўзда тутилган тадбирларни бажариш учун етмайди, оқибатда кўзланган мақсадга эришилмайди; бу ҳол инвестицион лойиҳалар узоқ муддатга чўзилишига олиб келади;

– чет эл инвесторларини ва уларнинг инвестицияларини қишлоқ хўжалигига жалб этиш; бунинг учун қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқарилаётган барча маҳсулотларга шахсий ва хусусий мулкчиликни ривожлантириш лозим [3].

Ҳозирги даврда республикадаги сиёсий-иқтисодий барқарорлик барча тармоқларга ва қишлоқ хўжалигига инвестициялар жалб этилишига имконият бермоқда. Соҳанинг изчил ривожланишини таъминлаш мақсадида инвестиция сиёсатининг ҳуқуқий асослари ҳам барпо этилганлиги сўнгги йилларда тармоққа маълум миқдорда инвестициялар киритилишини таъминламоқда. 2018 йилнинг январь-декабрь ойларида Ўзбекистон Республикасида иқтисодиёт ва ижтимоий соҳани ривожлантириш учун жами молиялаштириш манбалари ҳисобидан 107333,0 млрд. сўм, (доллар эквивалентида 13,3 млрд. АҚШ долл.) ёки 2017 йилга нисбатан 118,1 % асосий капиталга инвестициялар ўзлаштирилди. 2018 йилда ЯИМ га нисбатан асосий капиталга инвестициялар – 26,3 % ни ташкил этиб, 2017 йилнинг мос давридаги кўрсаткичига нисбатан 3,7 % пунктга кўпайди. Ўтган 2018 йил давомида қуйидаги йирик лойиҳаларнинг амалга оширилиши Ўзбекистон Республикаси Давлат кафолати асосида чет эл инвестициялари ва кредитларининг юқори ўсиш суръатларига эришишига асосий сабаб бўлиб ҳисобланади: 1. “Ангрен” ЭИЗ да конвейер ленталари, қишлоқ хўжалиги ва автомобил шиналари ишлаб чиқаришни ташкил қилиш (II-босқич), 2. Хоразм вилояти Тошсока ирригация тизими магистрал суғориш каналларини қайта тиклаш ва бошқалар. 2018 йилнинг январь-декабрида 31350,0 млрд. сўм (доллар эквивалентида 3,9 млрд. АҚШ долл.) ёки 2017 йилнинг январь-декабрига нисбатан 136,6 % асосий капиталга хорижий инвестиция ва кредитлар ўзлаштирилди. Хорижий инвестиция ва кредитларнинг жами асосий капиталга ўзлаштирилган инвестициялардаги улуши 29,2 % ташкил этди. Албатта юқоридаги кўрсаткичларнинг натижаси қишлоқ хўжалиги соҳасига ҳам албатта ўз таъсирини кўрсатиши ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Натижада, 2018 йилнинг январь-декабрь ойларида қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги маҳсулот(хизмат)ларининг умумий ҳажми 199 537,4 млрд. сўмни ёки 2017 йилнинг мос даврига нисбатан 100,3 % ни, шу жумладан деҳқончилик ва чорвачилик, овчилик ва ушбу соҳаларда кўрсатилган хизматлар – 193 703,3 млрд. сўмни (100,2 %), ўрмон хўжалигида – 4 757,5 млрд. сўмни (103,1 %), балиқ хўжалигида – 1 076,6 млрд. сўмни (113,8 %) ташкил қилди [6].

Шу билан бир қаторда, тармоқда чет эл инвестицияларини жалб этиш учун қулай инвестиция муҳити шакллантирилиб, унинг ҳуқуқий асослари ривожлантирилмоқда. Жумладан, Президентимизнинг 2019 йил 28 январдаги “Инвестиция ва ташқи савдо соҳасида бошқарув тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонида мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги ташкил этилиши ҳам албатта сўзимизнинг исботидир. Натижада ҳар бир тармоққа киритилаётган инвестиция ҳажми ўтган даврга қараганда бугунги кунда сезиларли даражада ошиб бормоқда. Қишлоқ хўжалигига киритилаётган инвестициялар асосан: бино ва иншоотларни қуриш ва капитал таъмирлаш, янги технологияларни олиб кириш, ирригация-мелиорация тадбирларини амалга ошириш, чорвачиликни ривожлантириш, ишлаб чиқаришни модернизациялашга, интеллектуал салоҳиятни ривожлантиришга мақсадли йўналтирилмоқда. Масалан, 2018 йилдан бошлаб тўқимачилик саноати корхоналари ҳамда фермер хўжаликлари ўртасида бозор муносабатларини шакллантириш чора-тадбирларини изчил амалга ошириш доирасида мамлакатимизнинг 20 та туманида пахта толаси ишлаб чиқаришнинг кластерли шакли жорий этилди [6]. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 19 сентябрдаги “Пахта тўқимачилик маҳсулотини янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги қарори билан бугунги кунда ҳам бу ислохотлар тизимли давом эттирилмоқда.

Сарфланадиган инвестициялар натижасида ерларнинг мелиоратив ҳолати яхшиланиб, сув билан таъминланганлик даражаси юксалмоқда, ишлаб чиқаришнинг механизациялаштирилиши, минерал ва маҳаллий ўғитлардан самарали фойдаланиш туфайли экинлар ҳосилдорлиги ошмоқда. Келажакда қишлоқ хўжалигининг моддий-

техник базасини талаб даражасида барпо этиш, меҳнат ишчи кучи ресурсларининг билим ва малакалари, тажрибаларини ошириш учун инвестициялар сарфлашни изчил давом эттириш мақсадга мувофиқдир.

Республикамизда қишлоқ хўжалиги соҳасини инвестициялар киритиш амалиётини такомиллаштириш борасида қатор муаммолар мавжуд. Улардан асосийлари, фикримизча, қуйидагилардан иборат:

1. Мамлакатимиз қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларини минерал ўғитлар билан таъминлаш тизимини инвестициялаш ҳажми ва сифатини ошириш муаммоси.

Маълумки, минерал ўғитлар қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг самарадорлигини таъминлашнинг зарурий омили ҳисобланади. Шу сабабли республикамизда калийли ва фосфорли ўғитлар ишлаб чиқариш ҳажминини кескин ошириш талаб этилади. Бу эса, импорт ҳажмининг камайишига хизмат қилади.

2. Яна бир асосий омил шундаки, қишлоқ хўжаликлари томонидан сотилган товарлар ва кўрсатилган хизматлар бўйича тўловларни ўз вақтида ундириш кечикмоқда.

Бунинг натижасида улар лизинг тўловларини ўз вақтида амалга ошириш имкониятига эга бўлмай қолмоқда. Оқибатда тижорат банклари ва лизинг компаниялари қишлоқ хўжаликлари фаолиятини лизинг асосида молиялаштириш операцияларини таваккалчилик даражаси юқори бўлган операциялар сифатида баҳолашмоқда.

3. Ҳозирги вақтда қишлоқ хўжалигида фаол инвестиция сиёсатини олиб боришда соҳасини малакали кадрлар билан таъминлаш масаласи инвестицияларни жалб этишда муҳим аҳамият касб этади. Инвестицион прогнозлар ва дастурлар, бизнес режалар ишлаб чиқиш ва баҳолаш, инкироз шароитида инвесторлар топиш, рақобат, инфляция, бозор конъюнктурасининг номўтадил шароитларида лойиҳаларни бошқариш учун янги билим ва тажрибалар талаб қилинади. Бунда кадрларнинг билими, малакаси, савияси етарли бўлмаган мутахассислар ҳисобига шаклланганлиги инвестиция бизнеси ривожига салбий таъсир кўрсатади.

Инвестиция сиёсатида соҳани малакали кадрлар билан таъминлаш борасида қуйидаги тадбирларни амалга ошириш лозим:

- иқтисодий, техник ва қурилиш хўжаликлари бўйича олий таълим муассасаларида инвестиция-инновация йўналишлари бўйича мутахассислар тайёрлашни кенгайтириш;

- инвестиция лойиҳалари ва дастурлари бўйича буюртмачилар, раҳбарлар ва менеджерларни мақсадли тайёрлаш;

- қишлоқ хўжалигидаги инвестиция лойиҳалари бўйича шериклар топиш ва бизнес режаларни тўлдириш мақсадида етакчи маҳаллий ва хорижий корхоналарда хўжалик раҳбарларининг малакаларини ошириш.

Хулоса

Хулоса қилиб айтганда Ўзбекистон Республикаси Президенти, юртбошимизнинг 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида сўзлаган нутқларида айтилганидек “иқтисодиётимиз ривожининг муҳим шарт бўлган фаол инвестиция сиёсатини изчил давом эттирамиз. 2019 йилда барча манбалар ҳисобидан қарийб 138 триллион сўмлик ёки 2018 йилга нисбатан 16 фоиз кўп инвестицияларни ўзлаштириш мўлжалланмоқда. Бу борада тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар миқдори жорий йилга нисбатан қарийб 1,5 баробар оширилиб, 4,2 миллиард долларга етказилади. Натижада 142 та замонавий корхона ишга туширилади” шу ислохотлар, вазифаларнинг бажарилишида барча олий таълим муассасалари, ёш олимлар ва биз талаба-ёшлар ҳам ўз ҳиссамизни қўшишимиз лозим [1]. Юқоридаги фикрлардан келиб чиққан ҳолда шунини таъкидлаш лозимки, мамлакатимиз иқтисодиёти қишлоқ хўжалиги тармоғининг жадал ва самарали ривожланишида ҳам ички, ҳам ташқи инвестициялар муҳим аҳамият касб этади. Шунинг учун мамлакатимизда хорижий инвестициялар учун яратилган инвестиция муҳити амалга

ошириладиган иқтисодий сиёсатнинг ҳал қилувчи муҳим омилларидан бирига айланиб қолди.

Фойдаланилган адабиётлар ва интернет сайтлари рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Миромоновичнинг Олий Мажлисга Мурожатномаси. 2018 йил 28 декабрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ–4947-сонли Фармони Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон.
3. А. Абдуғаниев, А.А. Абдуғаниев. “Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти” Тошкент “Адиб нашриёти” 2011 й.
4. Е.И. Эргашев, Ш.А. Анваров. “Қишлоқ хўжалиги тармоқларини ривожланишида инвестицияларни жалб этишнинг замонавий йўналишлари” БМИ – Тошкент. 2016.
5. www.agro.uz – Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги расмий сайти.
6. www.stat.uz - Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий сайти.
7. www.lex.uz

Илмий раҳбар

и.ф.д. Умаров С.

ЯККА ТАРТИБДАГИ ТАДБИРКОРЛАРНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Дадарбаев М. ассистент – ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада тадбиркорлик фаолиятини юридик шахс ташкил этмаган ҳолда, мустақил равишда, ўзига мулк ҳуқуқи асосида тегишли бўлган мол-мулк негизида, шунингдек мол-мулкка эгалик қилиш ва (ёки) ундан фойдаланишга йўл қўядиган ўзга ашёвий ҳуқуқ асосида амалга оширувчи жисмоний шахсларга илмий-услубий, назарий ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилган.

Якка тартибдаги тадбиркор - тадбиркорлик фаолиятини юридик шахс ташкил этмаган ҳолда, мустақил равишда, ўзига мулк ҳуқуқи асосида тегишли бўлган мол-мулк негизида, шунингдек мол-мулкка эгалик қилиш ва (ёки) ундан фойдаланишга йўл қўядиган ўзга ашёвий ҳуқуқ асосида амалга оширувчи жисмоний шахсдир.

Якка тартибдаги тадбиркор Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланган тартибда ходимларни ёллашга ҳақли.

Якка тартибдаги тадбиркор амалдаги қонунчиликка асосан **қатъий белгиланган солиқ** тўловини амалга оширади [7].

Қатъий белгиланган солиқ суммаси солиқ тўловчининг календарь ойида ишлаган кунлари сонидан қатъи назар, солиқ солинадиган баъза ва белгиланган ставкадан келиб чиққан ҳолда аниқланади.

Якка тартибдаги тадбиркорлар якка тартибдаги тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш доирасида қатъий белгиланган солиқ тўлаш билан бир қаторда қуйидагиларни тўлайдилар:

- 1) божхона тўловлари;
- 2) ер қаъридан фойдаланувчилар учун солиқлар ва махсус тўловлар;
- 3) сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ — сув ресурсларидан тадбиркорлик фаолияти учун фойдаланилганда;

- 4) акциз солиғи — акциз тўланадиган маҳсулот ишлаб чиқарилганда;
- 5) бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасига суғурта бадаллари;
- 6) давлат божи;
- 7) автотранспорт воситаларини олганлик ва (ёки) вақтинчалик олиб кирганлик учун Республика йўл жамғармасига йиғим [6].

Қатъий белгиланган солиқни ҳисоблаб чиқариш солиқ бўйича ҳисобга олиш жойидаги давлат солиқ хизмати органлари томонидан амалга оширилади.

Қатъий белгиланган солиқ тадбиркорлик фаолияти амалга оширилган ойнанинг 10-қунидан кечиктирмай ҳар ойда, солиқ тўловчи давлат рўйхатидан ўтказилган жой учун белгиланган ставкалар бўйича тўланади. Агар фаолият амалга оширилган жой учун қатъий белгиланган солиқ ставкалари давлат рўйхатидан ўтказилган жой учун белгиланган ставкалардан фарқ қилса, қатъий белгиланган солиқ энг юқори ставка бўйича тўланади.

Амалдаги қонунчиликка асосан хусусий тадбиркорлар чакана савдо, маиший хизмат кўрсатиш ва бошқа турдаги жами 81 та фаолият билан юридик шахс ташкил этмасдан шуғулланишлари, бу жараёнда бир нафардан уч нафаргача ходимни ёллаб ишлатишлари мумкин. Жумладан, яқка тартибдаги тадбиркор:

- чакана савдо фаолияти билан шуғулланганда бир нафар;
- маиший хизмат кўрсатиш фаолиятлари билан шуғулланганда уч нафаргача;
- фаолиятнинг бошқа турлари билан шуғулланганда икки нафаргача ходимни ёллаб ишлатишига рухсат этилган [3].

Лекин, ўрганишлар натижалари шуни кўрсатдики:

- **биринчидан**, қурилиш материаллари, цемент, шифер, ёғоч ва ёғоч маҳсулотлари ҳажмининг катталиги ва вазнининг оғирлиги сабабли, хусусий тадбиркорлар ушбу маҳсулотларни транспорт воситаларига юклаш, ташиш, тушириш, қадоқлаш, қўриқлаш ва сотишни рухсат этилган бир нафар ёлланма ишчи билан бажара олмаётганликлари сабабли қонунчиликда белгиланганидан ортиқча ходимларни ёллаб норасмий ишлатишга мажбур бўлмоқда.

- **иккинчидан**, алюминий (пластик) профиллардан эшик, дераза ва бошқа буюмларни тайёрлаш йирик ускуналардан фойдаланилган ҳода, саноат усулида амалга оширилиши шунингдек, ҳамда хом-ашё материаллари ва тайёр маҳсулотларни ортиш, ташиш, тушириш ва ўрнатиш учун кўп ишчи кучи талаб этилиши сабабли ходимларни норасмий ёллаб ишлатишга тўғри келмоқда.

2019 йилги солиқ сиёсати концепциясида яқка тартибдаги тадбиркорларнинг ўтган йил якунлари бўйича йиллик ёки жорий йил давомидаги айланмаси (ялпи тушуми)

- 100 млн.сўмгача бўлганда **қатъий белгиланган солиқни**;
- 100 млн.сўмдан 1 млрд.сўмгача бўлганда яқка тартибдаги тадбиркорлик мақомини сақлаб қолган ҳолда **ягона солиқ тўловини**;
- 1 млрд.сўмдан ошганда яқка тартибдаги тадбиркорлик фаолиятини тўхтатиб, юридик шахс сифатида қайта рўйхатдан ўтган ҳолда **умумбелгиланган солиқларни** тўлашлари белгиланди.

2019 йилдан бошлаб, 100 млн.сўмгача товар айланмасини амалга оширувчи яқка тартибдаги тадбиркорлар учун амалдаги қатъий солиқ ставкаси **20-35 фоизгача** камайтирилган ҳолда қатъий суммаларда қатъий белгиланган солиқ жорий этилди.

Масалан, Тошкент шаҳрида чакана савдо фаолиятини амалга оширувчи яқка тартибдаги тадбиркор 2018 йилда ҳар ойда энг кам иш ҳақининг 7 баравари миқдоридан яъни 1 205,6 минг.сўм қатъий белгиланган солиқ тўловини амалга ошириб келаётган бўлса, 2019 йилдан бошлаб, ҳар ойда 800 минг.сўм миқдоридан (33 фоизга камайган) қатъий суммада қатъий солиқ тўловини амалга ошириши белгиланди.

1-жадвал. 2019 йилдан бошлаб якка тартибдаги тадбиркорларни солиққа тортиш тартиби [5].

ЯТТнинг ялпи тушуми миқдори	Солиққа тортиш режими	Ҳисобот тақдим этиш муддати	Солиқ тўлаш муддати
2018 йилда ялпи тушуми 100 млн.сўмгача бўлган ва 2019 йилда янги рўйхатдан ўтган ЯТТлар	Қатъий белгиланган солиқ	Ҳар ой якуни билан кейинги ойнинг 10 санаси	Фаолият ойининг 10 санасига қадар
2018 йилда ҳамда ҳисобот йилида ялпи тушуми 100 млн.сўмдан 1 млрд.сўмгача бўлган ЯТТлар	Ялпи тушумдан ягона солиқ тўлови (қатъий солиқ суммасидан кам бўлмаган миқдорда)	Ҳар ой якуни билан кейинги ойнинг 10 санаси (<i>ўсиб борувчи тартибида</i>)	Ой якуни билан кейинги ойнинг 10 санасига қадар

Ягона солиқ режимига ўтишда қуйидаги талаблар қўйилади:

Товар айланмаси 100 млн.сўмдан ошган ойнинг кейинги ойидан бошлаб ягона солиқ тўлови режимига ўтди. Ягона солиқ тўлови режимига ўтган ойдан бошлаб ялпи тушуми ўсиб борувчи тартибида ҳисобланади. Ягона солиқ режимига ўтгандан сўнг ялпи тушуми миқдоридан қатъи назар, қатъий белгиланган солиқ тўлови режимига ўтказилмайди.

Ўтган йил якунлари бўйича йиллик ёки жорий йил давомидаги реализация қилинган товар (ишлар, хизматлар) айланмаси (ялпи тушуми) 100 млн.сўмдан 1 млрд.сўмгачани ташкил этганлиги сабабли ягона солиқ тўловини тўлашга ўтган якка тартибдаги тадбиркорлар - реализация қилинган товар (ишлар, хизматлар) айланмасининг (ялпи тушум) чегирмасидан ошган суммасига ягона солиқ тўловини тўлаш мажбурияти пайдо бўлади.

Бунда, ягона солиқ тўлови суммаси якка тартибдаги тадбиркор ушбу фаолияти амалга ошириш учун ҳисобланадиган қатъий белгиланган солиқ суммасидан кам бўлмаслиги керак. Бир неча фаолият амалга оширилаётган тақдирда, ягона солиқ суммаси якка тартибдаги фаолияти учун қатъий белгиланган солиқ ставкасининг энг юқориси олинади [1].

2-жадвал. 2019 йилда якка тартибдаги тадбиркорлар томонидан тўланадиган солиқ ставкалари [4].

2018 йилги товар айланмаси 100 млн.сўмгача бўлганлар учун	Қатъий белгиланган солиқ
Йиллик товар айланмаси 100 млн.сўмдан 1 млрд.сўмгача бўлганлар учун	ялпи тушумдан 4 фоиз солиқ
Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 24 майдаги “Электрон тижоратни жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3724-сон қарорига асосан электрон тижорат орқали сотишдан олган даромадлари умумий сотилган товарлар (<i>хизматлар</i>) ҳажмининг камида 80 фоизини ташкил этувчилар учун	ялпи тушумдан 2 фоиз солиқ
Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 17 октябрдаги “Мева-сабзавот маҳсулотларини ташқи бозорларга чиқариш самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3978-сон қарорига асосан мева-сабзавот маҳсулотлари (улгуржи) экспортини амалга оширувчилар учун	ялпи тушумдан 5 фоиз солиқ

Хулоса

Ўрганиш натижалари мазкур соҳани бир маъромда ўсишига, ишбилармонлик ва инвестициявий фаолликни оширишга, соғлом рақобат муҳитини шакллантиришга, шунингдек, солиқлар ва бошқа мажбурий тўловлар йиғилувчанлигининг зарур даражасини таъминлашга тўққинлик қилаётган бир қатор тизимли муаммоларни ўрганади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Мирзиёев Шавкат Миромоновичнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Тошкент 2018 йил 28 декабрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 июлдаги “Солиқ маъмуриятчилигини тубдан такомиллаштириш, солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларнинг йиғилувчанлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ5116-сонли Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 июндаги “Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-5468 сонли Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг 2019 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари ҳамда 2020-2021 йилларга бюджет мўлжаллари тўғрисида”ги ПҚ-4086 сонли Қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасининг “2019 йилда солиқ қонунчилигига киритилаётган ўзгаришлар юзасидан” Ўқув қўлланма. Тошкент-2018 йил.
6. www.soliq.uz
7. www.lex.uz

ИССИҚХОНАЛАР ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ДАВЛАТНИНГ РОЛИ

Дурманов А катта ўқитувчиси, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада иссиқхоналар фаолиятини ташкилий-иқтисодий механизмларини томиллаштиришда бозорлар, корхоналар ва қишлоқ хўжалигик фаолиятидаги мавжуд муаммоларни тадқиқ этишнинг маҳаллий ва хорижий тажрибаларини анализ ва синтез қилиш асосида ҳимояланган майдонларда етиштириладиган сабзавотлар бозорининг барқарор ривожланишига давлат томонидан яратилаётган шароитлардан фойдаланишга оид муаллифнинг назарий ва амалий таклифлари берилган.

Аҳоли сони тобора ўсиб бориши озиқ-овқатга бўлган талабни ҳам ошишига сабаб бўлади. Таҳлилларга кўра, бугунги кунда дунёда 14,3 фоиз аҳолининг озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган эҳтиёжи тўлиқ қондирилмаяпти, 12 фоизи сурункали равишда очликдан азият чекади ва бунинг 827 миллиони ривожланаётган мамлакатлар ҳиссасига тўғри келади.

Ўзбекистонда озиқ-овқат тақчиллиги ҳозирча хавф туғдирмаяпти. Лекин аҳоли сони йилига ярим миллиондан кўпайиб бораётган экан, бу масала мамлакатимиз учун ҳам долзарб бўлиб қолаверади. Чунки нуфус ортса, экин майдонлари ҳам кенгайди, дегани эмас.

Давлатимиз раҳбарининг “Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш халқаро жамғармаси иштирокида “Қишлоқ хўжалигини диверсификация ва модернизация қилиш” лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори мазкур йўналишдаги ишларга жиддий тўртки беради. Яъни қамрови ва ҳажми жиҳатидан ўта йирик ҳисобланган муҳим лойиҳа рўёбга чиқарилади [1].

Лойиҳанинг умумий қиймати 84,8 миллион АҚШ долларига тенг бўлиб, маҳаллий бюджет, кредит линиялари ва грант маблағлари ҳисобидан қопланиши кўзда тутилган. 2018 - 2023 йилларда рўёбга чиқариладиган ушбу лойиҳа Андижон, Фарғона ва Наманган вилоятларида йўлга қўйилади.

Мазкур йўналишда шу пайтга қадар катта миқдорда маблағ ажратилмаган, қолаверса, Андижон, Фарғона ва Наманган вилоятлари бежиз танланмади. Чунки водийликлар азал-азалдан қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш, уларни қайта ишлаш бўйича катта тажрибага эга. Бугун лойиҳа ушбу ҳудудларда синов тариқасида старт олаётган бўлса, келажакда унинг самарасига қараб бошқа вилоятларда ҳам татбиқ этилади.

Лойиҳа доирасида биргина иссиқхоналарни ташкил этишга салкам 15,5 миллион АҚШ доллари миқдоридан маблағ йўналтирилади. Бу мўлжалдаги ишлар учун ажратилаётган улушнинг энг катта қисмини ташкил қилади. Боиси иссиқхоналар республикамиз ва хориж давлатлари бозорлари расталарини қишин-ёзин сархил мева ҳамда сабзавот маҳсулотлари билан таъминлаб туришнинг энг мақбул усулидир.

Аммо замонавий иссиқхоналарни яратишнинг ўзига хос мураккабликлари ҳам бор. Шундан бўлса керак, соҳада ҳамон ҳал этилмаган муаммолар мавжуд. Масалан, иссиқхоналар учун мўлжалланган ускуналарни ишлаб чиқариш йўлга қўйилмаган, улар ҳамон хориждан олиб келинади. Шу каби қатор муаммолар иссиқхона хўжалигини юритиш ва унинг салоҳиятидан тўлалигича фойдаланиш имконини бермаётган эди. Энди эса вазият тубдан ўзгаради [3,4,5].

Айнан шу йўналишнинг ривожига шароит яратиб бериш мақсадида Президентимиз Ш.М. Мирзиёев “Иссиқхона комплексларини ривожлантириш учун қўшимча шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорни имзолади [2].

Хужжат билан иссиқхоналарни ривожлантиришнинг асосий йўналишлари белгилаб берилди. Давлат-хусусий шериклигида мева-сабзавот маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг бутун занжирини ўз ичига олувчи кластер шаклини жорий қилиш, энергия тежамкор технологиялардан фойдаланган ҳолда замонавий иссиқхона комплексларини ташкил этиш каби вазифалар шулар жумласидандир.

2019 йилда мазкур йўналишдаги лойиҳаларни молиялаштириш учун Жаҳон банки, Осиё тараққиёт банки, Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш халқаро жамғармаси, бошқа халқаро молиявий институтлар ва хорижий молиявий ташкилотларнинг 200 миллион АҚШ долларидан кам бўлмаган ҳажмдаги маблағлари жалб қилинади. Бундан ташқари, тадбиркорлар учун преференциялар, солиқ ва божхона имтиёзлари ҳам белгиланган.

Тегишли ҳамкор ташкилотлар билан биргаликда 105 та замонавий иссиқхона комплексини ташкил этишга оид истиқболли лойиҳа шакллантирилди. Ушбу лойиҳаларнинг амалга оширилиши тўлиқ назоратга олиниб, бу борада тадбиркорларга зарур ёрдамлар кўрсатилади.

1 – Жадвал.

Иссиқхоналарда етиштириладиган қишлоқ хўжалиги экинлари бозорини мустаҳкам ривожлантиришни бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизми инструментлари.

Механизмнинг ташкил этувчилари	Элементлари
Ташкилий	Корхонанинг ташкилий-ҳуқуқий шаклларини танлаб олиш, бозорнинг инфратузилмавий ва логистик таъминоти
Маркетинг	Маҳсулот ўтказиш (сотиш) тизими ва лойиҳани илгари суриш стратегиясини, бренд ва тайёр маҳсулотни балансловчи ассортиментли ва баҳолаш сиёсатини ўз ичига олувчи корхонанинг рақобатбардош маркетинг концепциясини ишлаб чиқиш. Бозор вазиятининг мунтазам (регуляр) мониторинги. Тайёр маҳсулотнинг охириги истеъмолчилари билан тўғридан-тўғри алоқа қилишни

	ташқиллаштириш ва истеъмолчилар хоҳиш-истакларининг ўзгариб туришига нисбатан тезкор жавоб реакциясини билдириш.
Кадрларга оид	Фундаментал тайёргарликка эга бўлган инновацион типдаги янги авлод кадрларини тайёрлаш. Соҳа бўйича самарали кадрлар тайёрлаш ва қайта тайёрлашни жорий этиш. Амалдаги мутахассисларни илғор иссиқхона (теплица) хўжаликларидан ва хорижда малакаларини ошириш.
Иқтисодий ташкил этувчилари	Корхоналар фаолиятидаги рискларини суғурталаш. Кредитлаш шарт-шароитларини ўзгартириш. Таннархларни камайтириш элементларини либераллаштириш.
Ишлаб чиқариш	Омборлари қуриш, селеция-генетик марказлар ва селекция-уруғчилик марказлари объектларини қуриш.
Инновацион	Усуналар ва технологиялар, селекциялар қисми бўйича замонавий фан ютуқларидан фойдаланиш. Грантлар эълон қилиш
Давлат томонидан тартибга солиб туриш	Ҳисоб-китоби шартларини мабуллаштириш, бозорни тартибга солиш, етакчи шахсий ёрдамчи хўжаликларни давлат томонидан қўллаб-қувватланиши; инвестицион кредитлар, имтиёзли ажратмалар бўйича кредитлаш

[муаллиф томонидан тузилган]

Хулоса

Юқоридаги маълумотларга кўра иссиқхоналарда етиштириладиган қишлоқ хўжалиги экинлари бозорини бақарорлаштиришда худудий-кластер, кооперацион ёндашувларни ҳисобга олган ҳолда давлат томонидан қўллаб-қувватлаш даражаси, ресурс имкониятлари, рағбатлантириш механизмларидан келиб чиқиб, иссиқхоналарда етиштириладиган сабзавотлар бозорининг истиқболдаги ривожланиши тенденцияларини аниқлаш ва прогнозлаш сценарийларини ишлаб чиқилса мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. 46-б.
2. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон республикасининг бешта устувор йўналишлари бўйича ҳаракатлар стратегияси. 2017 йил 9 февраль.
3. Зуев В.И., Абдуллаев А.Г. Овощеводства защищенного грунта. Ташкент. Укитувчи. 2002 г.
4. Ж.Е. Ядгаров, С. Мухаммедов. Сабазавотчилик ва боғдорчилик экономикаси, уларда ишнинг ташкил этиш. Тошкент. Укитувчи. 2004 г.
5. Li M., Chen S., Liu F. and others. A risk management system for meteorological disasters of solar greenhouse vegetables // *Precision Agriculture*. 2017. Vol.18. Issue 6. Pp.997–1010.
6. Chazova, I.Yu. Forecasting consumer demand for vegetable products of closed ground / I.Yu. Chazova, A.K. Osipov // *AIC: economy, management*. - 2009. - No. 4. - P. 52-57.- 0.83 bp, of which the author. - 0.42 p.p.

ИЖТИМОЙ СОҲАНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КЛАСТЕРЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Ибрагимов.Ш.Э. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Мазкур мақолада мамлакатимизда озик-овқат хавфсизлигини таъминлаш учун кластерларни аҳамияти, кластерларни ташкил этиш учун давлат томонидан яратилаётган имтиёзлар ва кластерлар учун яратилган кўриб чиқилган.

Кириш: Аграр тармоқда иқтисодий муносабатларнинг эркинлаштириш борасида олиб борилаётган кенг қўламли ислохотлар натижасида, қишлоқ хўжалик маҳсулотларини ишлаб чиқариш, уларни қайта ишлаш ижобий томонга ўзгариб бормоқда. Аграр соҳада маҳсулот ишлаб чиқариш хажмининг ортиши билан бирга ечимини кутаётган муаоммолар мавжуд: қишлоқ хўжалик маҳсулотлари рақобатбардошлигини ошириш, аҳолини сифатли маҳсулотлар таъминлаш, қишлоқ хўжалик маҳсулотлари импорт ҳажмига қараганда экспорт ҳажмини ошириш ва янги бозорлар топиш. Жумладан дон маҳсулотларини етиштириш, қайта ишлаш, тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш, сотиш ва ички бозорни дон маҳсулотлари билан тўйинтириш тизимини такомиллаштиришда мавжуд муаммолар ечимини топиш бугунги куннинг долзарб масаласи ҳисобланади.

Кластер - инглиз тилидаги “cluster” сўзидан олинган бўлиб, таржимада гуруҳ, тўп, тўплам, боғ, шода каби маъноларни англатади.

Мазкур атама компьютер муҳандислигида, мусиқа, таълим, астрономия, иқтисодиёт каби соҳаларда қўлланилади ва вазифаси жиҳатидан бир-бирига боғлиқ ва бир “маржон”дек тизилган объектларга нисбатан қўлланилади ва кластернинг келиб чиқишига эътибор қаратсак, кластер атамаси америкалик иқтисодчи, Гарвард мактаби профессори, рақобат имкониятларини ўрганиш бўйича мутахассис бўлган Майкл Южин Портер томонидан илк бор қўлланган эди.

У кластерга географик жиҳатдан қўшни бўлган, бир-бири билан боғланган, муаян бир соҳада фаолият олиб борадиган ҳамда бир-бирининг ишини тўлдирадиган корхона ва ташкилотлар бирлашмаси сифатида таъриф берган.

Унинг фикрича, кластерлар қуйидаги умумий жиҳатларга эга бўлиши даркор:

- илмий-тадқиқот муассасалари мавжудлиги;
- иш ресурслари;
- рақобатбардошлик ҳолати;
- соҳага мансублик;
- махсус ўқув муассасаларининг мавжудлиги;
- махсус хизматларга эгалик имкониятининг мавжудлиги;
- хомашё етказиб берувчиларнинг етарлилиги.

Сўнги йиллардаги инновацион жараёнлар ахборот коммуникацияси, мобил қурилмалар, микроэлектроника, компьютер ва иқтисодий соҳаларида технологик ўсишга олиб келди. Ана шу барча тармоқлар ўзаро боғлиқ бўлиб, у нафақат саноат корхоналарида, балки алоҳида мамлакатлар ҳудудида кластер тизими шакллана бошлашига олиб келди. Ишлаб чиқариш салоҳиятининг бир ерга жамланиши эса инвестиция қўйилмаларини самарали амалга ошириш имконини беради. Мисолларга эътибор қаратсак, Германияда кимё ва машинасозлик соҳаларида, Францияда озик-овқат саноатида, Японияда эса компьютер муҳандислигида кластер йўлга қўйилганини кўришимиз мумкин ва шу қаторга мамлакатимиздаги мавжуд кластерларни киритишимиз мумкин [2].

Кейинги вақтларда кўпгина мамлакатларда хўжаликнинг истикболли соҳаларини ривожлантириш ва модернизация қилиш мақсадида кластер стратегияси қўлланилмоқда. Мазкур стратегия аҳолини ижтимоий соҳасида ҳам мавжуд. Рақобатбардош товарлар ва

аҳоли учун сифатли истеъмол товарларини ишлаб чиқаришда ҳам қўлланилиб келинмоқда. Бунга мисол қилиб, мамлакатимизда ташкил этилган пахта кластерларини келтиришимиз мумкин. Чунки, Биз олдин пахтанинг ўзини чет эл мамлакатларига арзонга сотиб қайта ишланган пахта товарларни чет давлатдан аҳолининг маълум эҳтиёжлари учун қимматроққа сотиб олардик. Кластер ташкил қилиш орқали ярим тайёр пахта маҳсулотларини ўзимизнинг давлатда қайта ишлаш юлга қўйилмоқда.

Республикамизнинг барча ҳудудларида 16-та пахта-тўқимачилик кластерлари ташкил этилди. Ҳар бир пахта-тўқимачилик кластерига 3.5 мингдан 18 минг гектаргача ер ажратилди. Юналиш етакчиси ҳисобланган “Bek cluster” қўшма корхонаси билан бирга ҳисобланганда 17 та пахта кластерига ажратилган ер майдони 140901 гектарни ташкил этди. Бундан ташқари, пахта-тўқимачилик кластерлари пахта сароатини ривожлантириш ва қўллаб-қўвватлаш учун бир қанча имтиёзларга эга, жумладан:

- фермер хўжалиқларига пахта-тўқимачилик ишлаб чиқаришининг тегишли ташкилотлари томонидан контрактация шартномасида назарда тутилган миқдорларда ва шартлар асосида аванс берилади;

- пахта-тўқимачилик ишлаб чиқариши ташкилотчилари пахта хом ашёсини етиштириш ва уларга етказиб беришни молиялаштириш учун Молия вазирлиги ҳузуридаги Қишлоқ хўжалигини давлат томонидан қўллаб-қўвватлаш жамғармаси маблағлари ҳисобидан кредитлар ажратилади;

- пахта-тўқимачилик ишлаб чиқариши ташкилотчиларига кредитлар Жамғарма маблағлари ҳисобидан йилига 3% дан ортик бўлмаган ставкаси бўйича ажратилади [3].

Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг сўзларига кўра, жорий йилда пахта-тўқимачилик кластерига берилган барча имтиёзларни кейинги йилларда ташкил этиладиган кластерларга ҳам татбиқ этиш, кластерлар фаолиятини янада кенгайтириш зарур. 2018-йил 12-сентябр куни давлатимиз раҳбари томонидан ўтказилган йиғилишда президент бу тизимни янада кенгайтириш мақсадида, ишлаб чиқариш қувватлари ва молиявий имконияти мавжуд бўлган қўшимча 44 та ташаббускор танлаб олинганлигини айтиб ўтган эди. 2019-йилда жами бўлиб 61 та кластер томонидан пахта майдонларининг 51% да пахта етиштириш режалаштирилган эди. Янги қўвватларни ташкил этиш ва кластерлар фаолиятини юлга қўйиш натижасида, 2019-йилда ишлаб чиқарилаётган пахта толасининг 78 фоизи мамлакатимизда қайта ишланади. Бу 2017-йилга нисбатан 2 маротаба кўп деганидир. 2020-йилга бориб пахта толасини тўлиқ қайта ишлашга ўтилади. Тайёр маҳсулотларни ишлаб чиқариш улуши 40 фоиздан камида 60 фоизга етказилиши режалаштирилган [1].

Хулоса

Мамлакатимизда кластерларни ташкил этиш аҳолига ҳам иқтисодийтимизга ҳам фойдалидир. Чунки, Кластерлар орқали мамлакатимиз аҳолиси иш билан таъминланади, аҳоли сифатли товарлар билан таъминланади ва мамлакат иқтисодиёти ривожланади. Логистика соҳасида ҳам мазкур стратегия ўз самарасини бера олади. Транспорт ва омборларнинг ҳудудий жойлаштирилиши орқали кластерни шакллантириш юк етказиб бериш ва сақлашни осонлаштиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2017 йил 14 декабрдаги ПФ-5285-сон фармони.
2. Наврўз Мелибоевнинг “Кластер ҳудудларнинг мамлакат иқтисодиётидаги аҳамияти” ҳақидаги мақоласи.
3. www.uz.uz

ИНВЕСТИЦИЯ СИЁСАТИДА МАВЖУД ИМКОНияТЛАрдАН САМАРАЛИ ФойДАЛАНИШ

Исмаилова К. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада инвестиция сиёсатини амалга ошириш жараёнида мавжуд имкониятдан самарали фойдаланишга қаратилган чора-тадбирлар кенг ёритиб берилган. Шунингдек, мақолада инвестиция кириб келишига таъсир этувчи омиллар, юртимизнинг инвестицион соҳадаги ютуқлари ҳам тилга олинган. Мавзуга оид долзарб муаммолар санаб ўтилган ва тегишли тавсия ва таклифлар келтирилган.

Мамлакатни модернизациялаш ва иқтисодиётни барқарорлигини таъминлашда инвестицияларнинг, шу жумладан хорижий инвестицияларнинг бекиёс ўрин тутишини алоҳида таъкидлаган ҳолда шуни айтиш мумкинки, инвестицияларга бўлган эътиборни кучайиши бугунги кунга келиб, мамлакатимиздаги инвестицион фаолиятнинг ривожланишига олиб келди. Бунинг учун биз ўз сармояларимизни ҳам, бевосита инвестициялар ва уларнинг барча манбаларини ҳам ишга солишимиз зарур. Мамлакатимизда инвестиция жараёнларини ривожлантириш капитал маблағларни жамғариш, бу маблағларни иқтисодиётнинг стратегик жиҳатдан устувор соҳаларига йўналтириш, замонавий технологиялардан фойдаланиш имкониятларини яратиш орқали миллий инвестиция бозорларининг шаклланишига кўмаклашди ҳамда товар ва хизматлар бозорининг ривожланишига ҳам катта таъсир кўрсатади.

Инвестициянинг, хусусан хорижий инвестицияларнинг кириб келишига таъсир этувчи омиллар турли адабиётларда турлича ёритилган. Уларнинг барчасини инкор этмаган ҳолда қуйидагиларни алоҳида таъкидламоқчимиз:

- Сиёсий барқарорлик, яъни инқилобий ўзгаришларнинг бўлмаслиги;
- Иқтисодий ўсиш юқорилиги, оқилона иқтисодий сиёсат юритилаётганлиги;
- Валюта муомаласи. Инфляциянинг пастлиги;
- Бозор инфратузилмаси ҳолати (транспорт, электр энергияси, сув таъминоти, телекоммуникация ва ҳ.к.);
- Арзон ва малакали ишчи кучи мавжудлиги;
- Зарурий молиявий инструментлар мавжудлиги, йирик банкларга, инвестиция компанияларига тегишли филиалларнинг фаолият кўрсатиши;
- жаҳон иқтисодиётини трансмиллийлаштирилишининг ўсиб бориши (АҚШ Трансмиллий корпорациялари хорижий филиалларининг маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми АҚШ товар экспортидан 4 маротаба ортиқдир);
- капитал экспорти (импорти)ни эркинлаштириш (Эркин иқтисодий ҳудудлар, оффшор ҳудудлари ва б.қ.);
- халқаро иқтисодий муносабатларнинг фаол ривожланиши ва б.қ.

Шунга кўра, юртимизда инвестиция фаолияти шароитларини мувофиқлаштириш бир қатор тадбир ва чоралар негизида амалга ошириляпти:

- республика иқтисодиётига бевосита капитал маблағни кенг жалб этишни таъминлайдиган ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий ва бошқа шарт-шароитларни тобора такомиллаштириш;
- мамлакатимизга халқаро стандартлар даражасидаги технологияни етказиб бераётган ва иқтисодиётнинг замонавий таркибини вужудга келтиришга кўмаклашаётган хорижий инвесторларга нисбатан очиқ эшиклар сиёсатини юргизиш;
- маблағларни импорт ўрнини қопловчи ва рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлган энг муҳим устувор йўналишда жамлаш;
- халқ истеъмоли ва экспортга мўлжалланган маҳсулотлар ишлаб чиқаришни рағбатлантириш;

- солиқлар тизимини қулайлаштириш, солиқ субъектлари, объектларини ҳамда унинг миқдорларини табақалаш ва енгилликлар бериш;
- монополияга қарши тадбирларини амалга ошириш;
- табиий бойликлардан фойдаланиш шарт-шароитларини аниқлаш;
- инвестиция лойиҳаларини текширувдан ўтказиш.

Таъкидлаш жоизки, жорий йилда инвестиция дастури доирасида 3.7 млрд. долларлик 100та ишлаб чиқариш объекти ишга туширилди. Бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси Инвестиция дастурини амалга оширишда, дунёнинг 25 дан ортик мамлакатлари иштирок этмоқда. Мамлакатимиз иқтисодиётига давлат инвестиция дастури доирасида жалб қилинаётган халқаро сармояларнинг асосий қисми Хитой, Россия, Жанубий Корея давлатлари ташкил этмоқда. Ҳозирги кунда мамлакатимизда хорижий инвестициялар қишлоқ хўжалик маҳсулотларини чуқур қайта ишлаш, минерал хомашё ресурсларини, шу жумладан, нефт ва газни қазиб чиқариш, қайта ишлаш бўйича экологик ишлаб чиқаришни ташкил этиш, транспорт ва телекоммуникация инфратузилмасини ривожлантириш, жаҳон бозорларида рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқаришни ташкил этишга йўналтирилмоқда.

Мамлакатимиз иқтисодиётида таркибий ўзгартириш, тармоқларни модернизация қилиш, техник ва технологик янгилашга доир лойиҳаларни амалга ошириш учун инвестицияларни жалб қилиш борасида бажарилаётган ишлар алоҳида эътиборга лойиқ. 2015-йилда ана шу мақсадларда барча молиялаштириш манбалари ҳисобига 15 млрд. 800 млн. АҚШ доллари миқдорида инвестициялар жалб этилди ва ўзлаштирилди ва бу 2014-йилга нисбатан 9.5% кўп деганидир. Жами инвестицияларнинг 3млрд. 300млн. доллардан зиёди ёки 21%дан ортиғи хорижий инвестициялар бўлиб, шунинг 73%и тўғридан-тўғри чет эл инвестицияларидир. Инвестицияларнинг 67,1% янги ишлаб чиқариш қувватларини барпо этишга йўналтирилди. Бу эса 2015-йилда умумий қиймати 7 млрд. 400 млн. доллар бўлган 158 та йирик ишлаб чиқариш объекти қурилишини яқунлаш ва фойдаланишга топшириш имконини берди. 2016-йил 1- ярмида 2015- йилнинг биринчи ярмига нисбатан ялпи ички маҳсулот ҳажми 7.8 фоизга ўсганлигини, ўзлаштирилган инвестициялар ҳажми эса 2015-йилнинг шу даврига нисбатан 11.8 фоизга ўсганлигини кузатиш мумкин.

Юртимиз ҳар соҳада барқарор ўсиш суръатларига эга бўлиб келаётган бўлса-да, мавжуд имкониятлардан самарали фойдаланишда қуйидаги бир қатор тўсиқ ва муаммоларни учратишимиз мумкин:

- янги банклар тизими вужудга келаётган жараёндаги кредит сиёсатидаги масалалар;
- инвестиция лойиҳаларини экспертизалаш усуллари пухта ишлаб чиқилмаганлиги;
- мулкни давлат тасарруфидан чиқаришдаги муаммолар;
- инвестиция жараёнида иштирокчи томонларнинг ўзаро бир-бирлари тўғрисида етарли маълумотга эга эмасликлари ёки бу маълумотларнинг доимо ҳам тўлиқ ва ишончли бўлавермаслиги;
- тадбиркорларнинг бизнес малакалари етарли даражада эмаслигидир.

Фикримизча, бу каби муаммо ва тўсқинликларни бартараф этиш учун мамлакатимизда қуйидаги чора-тадбирлар тизимини амалга ошириш мақсадга мувофиқдир:

- хорижий инвестицияларни жалб этишда ҳудудларнинг рейтинг кўрсаткичларини ҳисобга олиш;
- иқтисодиётнинг етакчи тармоқ, компания ва ташкилотларининг инвестицион имкониятлари тўғрисидаги маълумотларни кенг тарғиб этиш, таҳлил қилиш, баҳолаш ва тасдиқлаш каби тадбирларни кучайтириш;
- маҳаллийлаштиришнинг самарали дастурларини жадал амалга ошириш;

- инвестицион лойиҳаларни молиялаштиришнинг нокредит усулларида бўлган лизинг, франчайзинг, факторинг кабилардан фойдаланишни янада кенгайтириш;
- қишлоқларда ишлаб чиқариш инфратузилмасини яхшилашга эътибор қаратиш;
- Оролбўйи ва яшаш муҳити оғир бўлган жойларда, экология ва атроф муҳитни яхшилашга қаратилган ишларни янада кучайтириш, иқтисодиётда “яшил иқтисодиёт” технологияларини қўллаш;
- инвестицион лойиҳаларни ишлаб чиқишда тижорат банклари ва бошқа мутасадди ташкилотларнинг амалий ёрдам беришларини кучайтириш ва мунтазам назоратга олиш;
- ишлаб чиқаришни технологик қайта қуриш жиҳатидан тезлаштириш мақсадида марказлашган кредит маблағларининг бир қисмини тез қоплайдиган инвестицион лойиҳаларни молиялашга қаратиш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликка йўналтириш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А. Каримов//Тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар жалб этилишини рағбатлантиришга оид қўшимча чора тадбирлар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Фармони// 2012 йил 10 апрел
2. Президент Ислон Каримовнинг 2015 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2016 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маърузаси// uza.uz интернет сайти.
3. Р.Х. Каралбаева. Инвестицияларни ташкил этиш ва молиялаштириш. ЎзР Олий ва ўртамахсус таълим вазирлиги, - Т.: Чўлпон номидаги нашрёт-матбаа ижодий уйи, 2011

Илмий раҳбар

Закирова Г.С.

ОЗИҚ-ОВҚАТ ҲАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ШОЛИЧИЛИКНИНГ РОЛИ

Хабибуллаева Л. - талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада шоличилик тармоғининг уруғчилик, суғориш, агротехник тадбирлари ва иқтисодий самарадорлигини ошириш муаммоларини ҳал этиб, шולי экинидан юқори ҳосил олишда оптимал мелиоратив тизим ва суғоришнинг янги технологиялари бўйича илмий-услубий, назарий ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилган.

Мамлакатимизда 2018 йилда иқтисодиётни янада ривожлантириш ва либераллаштиришга йўналтирилган макроиқтисодий барқарорликни мустаҳкамлаш ва юқори иқтисодий ўсиш суръатларини сақлаб қолиш, миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини ошириш, қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш ва жадал ривожлантириш, иқтисодиётда давлат иштирокини камайтириш бўйича институционал ва таркибий ислохотларни давом эттириш, хусусий мулк ҳуқуқини ҳимоя қилиш ва унинг устувор мавқеини янада кучайтириш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожини рағбатлантириш, ҳудудлар, туман ва шаҳарларни комплекс ва мутаносиб ҳолда ижтимоий-иқтисодий тараққий эттириш, инвестициявий муҳитни яхшилаш орқали мамлакатимиз иқтисодиёти тармоқлари ва ҳудудларига хорижий сармояларни фаол жалб этиш бўйича улкан ишлар амалга оширилди.

Шу сабабдан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24-майдаги “Қишлоқ ва сув хўжалиги тармоқлари учун муҳандис-техник кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3003-сонли қарори, “2018

йил қишлоқ хўжалиги экинларини оқилона жойлаштириш чора-тадбирлари ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштиришнинг прогноз ҳажмлари тўғрисида»ги 2017 йил 15 сентябрдаги №ПҚ-3281-сонли қарори, 2018 йил 9 декабрдаги Қишлоқ хўжалиги ходимлари кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи, 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисига Мурожаатномаси қишлоқ хўжалиги соҳаси, балки бутун ижтимоий-иқтисодий ҳаётимиз тараққиёти учун янги уфқларни очиб беради, илғор халқаро тажрибани ва қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини ривожлантириш ва модернизация қилишнинг стратегик вазифаларини белгилайди [5].

Республика аграр тармоғида олиб борилаётган иқтисодий ислохотларнинг бош мақсади - тармоқни ҳар томонлама ривожлантиришга қаратилган бўлиб, ҳукуратимиз томонидан қабул қилинаётган ишлаб чиқариш дастурларини амалга оширилиши қишлоқ хўжалигида экин майдонлари таркибини ҳамда маҳсулотлар ҳажмининг ўзгаришига олиб келди.

Манбаларда таъкидланишича, дуккакли-ғалла экинлари, шу жумладан, гуруч, ловия ва нўхатнинг барча турлари арзон ҳамда оқсил ва фойдали микроунсурларга бой маҳсулот ҳисобланади. Улар Лотин Америкаси, Африка ва Осиёда муҳим озиқ-овқат маҳсулоти саналиб, айрим минтақаларда ҳатто аҳолининг асосий истеъмол маҳсулоти ҳисобланади.

Жаҳонда донли экинлар ишлаб чиқаришни кўпайтириш ва аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш вазифаси бугунги куннинг энг долзарб масалаларидан бири бўлиб қолмоқда. Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги бўйича Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг маълумотига кўра, охириги уч йилда асосий истеъмолдаги озиқ-овқат маҳсулотларининг нархи 80 фоизга ошди [1,2,3].

Ривожланган ва ривожланаётган мамлакатларда доннинг асосий қисми эса аксинча, бевосита озиқ-овқат маҳсулотлари сифатида ишлатилмоқда.

Чунки, ҳар бир мамлакат аҳолисининг турмуш даражаси, энг аввало аҳолини яшаши учун зарур бўлган асосий турдаги озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаганлик даражасига кўпроқ боғлиқ бўлади. Бунда донли экинлардан олинadиган ун, гуруч, нон маҳсулотлари, макарон, ёрма ва бошқа маҳсулотлар алоҳида ўрин тутати.

Шоли бутун дунёдаги экин майдонларини ва ялпи ҳосилининг 90 фоизига тўғри келади. 1961 йилдан 2002 йилгача, яъни 41 йилда дунё бўйича ҳар-бир жон бошига гуруч истеъмоли 40%гача ортган бўлса, 2003 йилдан 2018 йилгача, яъни 12 йилда 21%га ошди.

Умуман, Осиё мамлакатларида шоли асосий қишлоқ хўжалиги экин тури ҳисобланади ва гуруч ушбу давлат халқларининг озиқ-овқат рациониди асосий ўринда туради. Кейинги 15 йил давомида бу минтақаларда шоли ҳосилдорлиги 30 фоиздан кўпроққа ошган [4,5,6,7].

1-жадвал. Ер юзида шоли етиштириш ҳолати (ФАО маълумоти)

Давлатлар	Экин майдони, минг га	Ҳосил ц/га	Ялпи ҳосил минг т.
Ер юзида	164700	45,2	749700
Бангладеш	11770	43,7	55500
Бразилия	23489	50,0	11758
Вьетнам	7202	55,7	44039
Ҳиндистон	43500	36,5	159200
Индонезия	13835	51,5	71279
Камбоджо	3100	30,1	9340
Хитой	30226	67,2	203290
Мянмар	7500	37,3	28000
Таиланд	12373	31,3	38787
Ўзбекистон	69,5	17,7	123,5

Ривожланган мамлакатларда жаҳон бўйича шоли майдонининг 3 фоизи жойлашган. Аммо деҳқончилик маданияти юқори бўлганлиги натижасида Хитойдан ташқари, донли экинлардан энг юқори ҳосил оладиган мамлакатлар қаторига Франция - 63,8 ц/га, Буюк Британия - 61 ц/га, Италия - 60 ц/га, АҚШ - 53,2 ц/га каби давлатлар киради [6].

Ривожланган мамлакатларнинг шоли етиштириш бўйича тажрибаларини таҳлил қилиш шуни кўрсатмоқдаки, чет мамлакатларда шолчиликда олиб борилаётган ислохотларнинг асосий мақсади, шоли экиннинг ҳосилдорлигини ошириш, янги юқори ҳосил берадиган, тез пишар навларни яратиш, фан-техника ютуқларини жорий қилиш ҳисобланади. Тармоққа фан-техника ютуқларини жорий этиш пировард натижада қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг ҳосилдорлигини оширишда муҳим аҳамият касб этади.

Дарҳақиқат, Республикамизда гуручга бўлган талабнинг юқорилиги, аҳоли озиқ-овқат таъминотини барқарорлигини таъминлаш зарурияти, маҳаллий ишлаб чиқарувчиларни молиявий қўллаб-қувватлаш нуқтаи назаридан шоли маҳсулотини давлат эҳтиёжи учун харид қилиш тизимини қайтадан жорий қилиниши ижобий натижа бериши мумкин. Бироқ, давлат эҳтиёжи учун харид қилиш тизими илгаригисидан бирмунча фарқ қилган ҳолда харид квоталари шаклида бўлиши мақсадга мувофиқ. Квоталарга эга бўлиш учун ишлаб чиқарувчилар соғлом рақобат тамойиллари асосида рақобатлашиши лозим. Квоталар тизимини жорий қилиш биринчидан, шолчилик хўжаликларини молиявий қўллаб-қувватлаш ва ҳимоялаш дастаги сифатида намоён бўлса, иккинчидан, аҳоли кам таъминланган қатламни ижтимоий муҳофаза қилиш ва республика озиқ-овқат таъминоти барқарорлигига эришишнинг муҳим дастаги бўлиб хизмат қилади, учинчидан, шоли экиладиган ер майдонлари бўйича аниқ ҳисоб-китобини юритиш имконияти яратилади ва тўртинчидан, энг асосийси чекланган сув ресурслари таъминоти даврида сувдан янада самарали фойдаланиш имконияти яратилади.

Хукуматимиз тамонидан қабул қилган турли Дастурларнинг мақсад-вазифаларида Ўзбекистон табиати, бой табиий ресурсларини асраб-авайлаш, улардан ҳозирги ва келгуси авлодлар манфаатлари йўлида оқилона фойдаланилишини таъминлашни қафолатловчи ҳуқуқий ва иқтисодий механизмларни такомиллаштириш, экологик хавфсизлик, айниқса, миллатнинг соғлиги ва генофондини ҳимоя қилишга кўмаклашиш устувор вазифа сифатида белгиланган. Ана шу мақсад-вазифалардан келиб чиқиб жамиятда миллий хавфсизлигимизнинг ажралмас қисми ҳисобланган озиқ-овқат хавфсизликни таъминлаш, хусусан, сув ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш, уларни асраб-авайлаш ва муҳофаза қилиш, умуммиллий бойлигимиздан фойдаланиш маданиятини шакллантиришга хизмат қилиши шубҳасиз.

Расмий маълумотларга кўра охириги йилларда Ўзбекистон республикасида бир гектардан олинаётган шоли ҳосилдорлиги ўртача 30 центнердан ошмаяпти. Бунга асосий сабаблардан бири сув тақчиллиги бўлса, иккинчидан бу экин турини бошқа экин етиштириб бўлмайдиган дарёлар ёнбағирларидаги ер ости суви юзага яқин жойлашган ботқоқ ва унумсиз ерларда узуликсиз экиб етиштирилиши, ундан ташқари минерал ўғитларнинг тавсия этилган турлари ва уларнинг микдорлари билан етарли даражада таъминланмаганлиги ҳамда илғор агротехнологияларнинг кенг миқёсда қўланилмаглигидир.

Ушбу тадбирлар таркибига республикамизда ер ва сув ресурсларининг чекланганлигини ҳисобга олиб, шолчилик самарадорлигини ошириш ҳамда республикада яратилган истикболли навларнинг биологик хусусиятларидан тўлиқ фойдаланишда илм-фан соҳасида ишлаб-чиқилган янги самарали агротехнологияларни амалиётга кенг жорий қилиш, шоли майдонларида сувдан самарали фойдаланиш бўйича асосий ва такрорий экин сифатида шоли экиш учун мўлжалланган майдонларни ва унга мос ўрта ва эртапишар навларни танлаш, сифатли ва сертификатланган уруғлар билан экишни ташкил этиш, кузги бошоқли дон экинларидан бўшаган майдонларга шолени кўчат усулида экишни такомиллаштириш каби ишлаб чиқилган чора-тадбирларни амалга ошириш таъминланмоқда[2,3,4,5,6,7].

Хулоса

Республикамиз аҳолисининг дон маҳсулотларига бўлган талабини тўлиқ таъминлаш мақсадида кузги бугдой майдонлари ортиб бормоқда. Чунки Ўзбекистонда шолчилик ҳам муҳим тармоқ ҳисобланиб, аҳолининг асосий озиқ-овқат ресурсларидан биридир.

Ўзбекистонда иссиқлик ва қуёш энергияси юқорилиги туфайли қишлоқ хўжалик экинларнинг, шу жумладан шолдан юқори ҳосил олиш мумкин. Бироқ бунга эришиш учун шолнинг турли навларини иссиқликка, радиацияга, сув ва менирал озуккага, агротехника ва бошқа омилларга талабини яхши билиш зарурдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг «Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисида»ги қонуни. Қишлоқ хўжалигида ислохотларни чуқурлаштиришга доир қонун ва меъёрий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Шарқ. 1-қисм. 1998.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Фермер хўжалиги тўғрисида»ги Қонуни. Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси ва қишлоқ хўжалигига оид қонун ҳужжатлари. - Т.: «Адолат», 1999.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Мирзиёев Шавкат Миромоновичнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Тошкент 2018 йил 28 декабрь.
4. Чирков В.Н. Рисоводство. 1981. Ташкент. Стр. 116-117.
5. www.lex.uz
6. www.fao.org
7. www.agro.uz

Илмий раҳбар

Дадарбаев М.

ХОДИМЛАР МЕХНАТИНИ БОШҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Холиқулов М. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада бугунги кунда Республикамизда бозор муносабатлари шароитида корхоналарда меҳнат ресурслари бошқарув самарадорлигини оширишдан келиб чиққан ҳолда унинг назарий ривожланиши, меҳнат ресурсларини шаклланиш хусусиятлари, улардан фойдаланиш самарадорлигини аниқлаш услубияти, инсон капиталини шакллантириш, Республикамиз иқтисодчи олимлари ҳам меҳнат ресурсларидан фойдаланишни салоҳиятини ошириш билан боғлиқ бўлган захираларни аниқлаш ва улардан самарали фойдаланиш жиҳатларига урғу берилиб, ушбу муаммоларни ечишнинг асосий вазифалари белгиланган.

Бизга маълумки, кишилар ва ишлаб чиқариш воситалари, ишлаб чиқарувчи кучлар асосини ташкил этади ҳамда ишлаб чиқарувчи кучларнинг энг фаол қисми бўлиб, ишлаб чиқариш тараққиётига ҳал қилувчи таъсир ўтказадиган табиий бойликларни ўзлаштирадидилар. Бу жараёни юзага келтиришда янги техника яратадилар ва ишлаб чиқариш технологиясини такомиллаштириб борадилар. Шу билан бирга меҳнат ҳаракатини ишлаб чиқариш муносабатларини белгилайди, унинг мазмуни эса моддий техника базасини тараққий даражасига боғлиқ бўлиб, сув ва қишлоқ хўжалигидаги машина техникасини муттасил такомиллаштиришга ва ишлаб чиқариш технологиясини индустриаллаштириш, кадрларнинг тегишли таркиби ҳамда малакасини оширади. Демак,

мелиорация ва сув хўжалигининг юқори механизациялашган ишлаб чиқариш шароитида кадрларнинг роли янада ўсади. Биринчидан, сув хўжалигидаги ҳозирги ишлаб чиқариш воситаларини кадрлар ўзлаштириши мумкин. Иккинчидан, мураккаб гидротехник иншоотларнинг яратилиши ҳамда машиналар бирлиги қувватининг ошиши ишлатиш жараёнини мураккаблаштиради. Бу эса ходимлар малакаси даражасини оширишни талаб қилади. Учинчидан, меҳнат воситаларидан фойдаланиш кадрлар малакаси даражаси ва уларни тўғри жойлаштиришга боғлиқ [3].

Кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш, малакасини ошириш, танлаш ва жой-жойига қўйиш сув хўжалигини ташкил этиш ҳамда бошқариш ишларини энг муҳим қисмидир. Чунки, ходимларни (кадрларни) бошқариш мураккаб ва энг кам ўрганилган мавзу. Унинг алоҳида элементлари давлат пайдо булган вақтдан бошлаб шаклланиб келган. XX асрнинг ўрталарида персонал ҳақида фаннинг ривожланишига кибернетика тизимлар назарияси, ҳисоблаш техникаси ва ушбу соҳада амалга оширилган тадқиқотлар катта таъсир кўрсатди. Ҳозирги вақтда гуманитар омилнинг таъсири кучайди. Бу эса ҳар бир ходимнинг ролини оширилиши билан бирга ижодий имкониятларнинг намоён бўлишига зарур шарт – шароитларга бўлган эътиборни оширади [1].

Ходимларни бошқаришнинг янги синфий усулларига ўтилиши менежер ва ходимлар билан шуғулланувчи мутахассисларнинг профессионал тайёргарлигига юксак талаблар қўйишмоқда. Масалан, ходимларни бошқариш бизнес соҳасидан ўсиб чиқиб, давлат аҳамиятига молик даражасига кўтарилди. Бошқарувчи - амалга ошириладиган мақсад ва тартибли таъсир кўрсатишда намоён бўлишдир. Айни вақтда ходимларни бошқариш ташкилий тизим сифатида, ҳам жараён, ҳам тузилма кўринишига эга. У хизматчиларни шакллантириш, ривожлантириш ва улардан фойдаланишда таъсир кўрсатувчи муносабат механизми сифатида намоён бўлади [4].

Ходимларни бошқариш узлуксиз жараён сифатида намоён бўлади, ҳамда уларни меҳнат қилиш, ундан максимал даражада фойда олишни яъни корxonанинг фаолиятида юксак натижаларга эришилганлигини билдиради. Шундай қилиб, бу йўналишни ўзига хос фаолият тури бўлиб бошқарув мақсадини, ижтимоий меҳнатни тартибга солиш ва мувофиқлаштиришдан иборат. Бундай ишларга эришишда албатта корхона ва ташкилотларда инсон ресурсларидан фойдаланишнинг қуйдаги йулларини йўлга қўйишга боғлиқ ҳолда амалга оширилиши мумкин. Энди ходимларни бошқаришда асосий вазифалар нимадан иборат? Улар:

- корxonани олдига қўйган мақсадларига эришишда ёрдам бериш;
- корxonани малакали ва манфаатдор ходимлар билан таъминлаш;
- мавжуд ходимларнинг маҳорати ва қобилиятидан самарали фойдаланиш;
- ходимларнинг асослаш тизимларини такомиллаштириш;
- барча категориядаги ходимларни меҳнатидан қониқиш даражасини ошириш;
- қулай ахлоқий вазиятни сақлаш;
- ташкилотларда ишлашни мароқли қилиш даражасини таъминлаш.

Ходимларни бошқаришда кўпроқ қуйдаги йўналишлар бўйича ривожлантириш мумкин, масалан:

➤ Ишлаб чиқаришни ходимлар билан таъминлаш: ходимларни излаш ва танлаш ҳамда ўқитиш;

➤ Ходимлардан самаралироқ фойдаланиш учун шарт-шароитлар яратиш: ижод ва инновацияни бошқариш; мотивлар билан боғлиқ омилларни бошқариш; ижтимоий ва психологик рағбатлантириш тизимларини яратиш;

➤ Макроиктисодий бошқарув: корпорациянинг оптимал ташкилий дизайнини ишлаб чиқиш; назорат қилиш шаклини танлаш ва уни бошқарув стратегияси билан боғлаш; фойдаланиладиган ходимларнинг психо-ижтимоий хусусиятлари ва бошқа омилларга боғлиқ.

Бугунги кунда ижтимоий турмушни барча соҳаларида мураккаб ва қийин вазифаларни ҳал эта оладиган тажрибали, яхши таёргарликка эга бўлган кўплаб

мутахассислар ўз фаолиятини юргизиш келмоқдалар. Бу жараёнда раҳбар ходимлар ва уларнинг малакасини оширишдан иборат ва уч йўналиш бўйича олиб борилиши;

➤ умумий тайёргарлик; корхонада ташкил этилади ва бошқариш принципларини корхонанинг катта кичиклиги ва ихтисослашувидан қатъий назар ўрганиб чиқиш;

➤ амалий жиҳатдан таълим бериш; бу иш жараёнида бўладиган раҳбар корхона структураси ва топшириқлари ўрганиш (бу йўналиш умуман ишлаб чиқариш топшириқларига эмас, балки корхона бошқариш хусусиятлари ҳақидаги батафсил ахборотларни ҳам ўз ичига олади);

➤ раҳбарлик функцияларини бажаришга тайёр бўлган шахсни янада камол топтириш.

Раҳбарликка номзод хўжаликни бошқариш функцияларини бажаришга қулайлик туғдирадиган тўғри позицияни эгаллашни ўрганишни, жамият манфаатларидан келиб чиқиб бошқариш муаммоларини амалий илмий принциплар билан боғлаб олиб бориши лозим. Бу муносабат билан техника билимлари раҳбарлик ишига доир муайян қобилиятлар билан уйғунлашган бўлиши туфайли, бундай тайёргарлик раҳбарлик лавозимини эгаллайдиган юқори малакали мутахассислар учун ҳам, шуниндек оддий ходимлар учун ҳам зарур ва фойдали бўлади [2].

Шундай қилиб, бошқариш илмини олмасдан ва ўрганмасдан туриб, ҳозирги пайтда ишлаб чиқаришнинг тез ва самарали ўсишини тайминлаш, меҳнаткашларнинг ижодий куч ғайратидан оқилона фойдаланиш мумкин эмас. Ҳаёт халқ хўжалигининг ҳамма соҳаларида бошқаришнинг илмий асосда қурилишини қатъий талаб қилмоқда. Бу эса раҳбарлик даражасининг фан ва техника ютуқлари даражасига мос келиши лозимлигини, бошқаришнинг ўзи фақат янги методларини назарий жиҳатдан асослашга қаратилган фанга эмас, балки бутун меҳнат жамоаларини кундалик фаолиятига бевосита қараб бораётган фанга айланиб бораётганлигини билдиради. Демак, муваффақиятли бошқараётган раҳбар ходим муайян сифатларига эга бўлиши керак. Авалло, унинг сўзи билан иши бир-бирига мос келиши керак. Ёлғон ваъдалар бериши, қосос олиши, димағдорлик қилиши ва лақиллатишлар яхши иллатларга кирмайди, улардан иложи бориша узокроқ юриш керак. Бу ерда раҳбар ва ходимлар фақат ўз ғоявий сиёсий ва профессионал даражасини доимий равишда ошириб қолмасдан, фан ва техникадан эришилган ютуқлардан албатта баҳраманд бўлишлари керак.

Хулоса

Шундай қилиб, бошқарув ходими меҳнатини юқорида келтирилган тадбирларни амалга ошириш жараёнида тўғри қўллаш ва тадбиқ этиш корхонанинг меҳнат самарадорлигини оширишга олиб келади. Тадқиқот олиб борилган ташкилотлардан олинган хулосалар шуни кўрсатадики ундаги иқтисодий маълумотларнинг самарадорлик кўрсаткичлари қониқарли, айнан ходимлар билан ишлаш ва уларга бўлган эътибор бир оз сустлигини кўрсатди. Шу сабабли, юқорида келтирилган тадбирларни тўғри қўллаш олиши ташкилотларда ходимлардан фойдалана олишни яхшилашга имкон беради.

Адабиётлар рўйхати

1. Қодиров А. - Иқтисодиёт назарияси Т.: ТошДТУ 2002.
2. К.Х. Абдурахмонов. Меҳнат иқтисодиёти. Тошкент-Меҳнат. 2004.
3. А.С. Султонов, Ў.П. Умурзоқов, Ж.Х. Рашидов. Сув хўжалиги иқтисодиёти ва менежменти. Дарслик, Т- 2008 й.-272 б.
4. Ш.Ш. Шодмонов, У.В. Ғафуров Иқтисодиёт назарияси. Тошкент-Фан ва технология 2005.

Илмий раҳбар

доц. Миркаримов Б.Г.

ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТДА МЕХНАТ РЕСУРСЛАРИНИНГ ЎРНИ

Маҳмудов Ж. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Республикамызда бозор муносабатлари шароитида қишлоқ хўжалигида меҳнат ресурслари бошқарув самарадорлигини оширишдан келиб чиққан ҳолда унинг назарий ривожланиши, меҳнат ресурсларини шаклланиш хусусиятлари, улардан фойдаланиш самарадорлигини аниқлаш услубияти, инсон капиталини шакллантириш, Республикамиз иқтисодчи олимлари ҳам меҳнат ресурсларидан фойдаланишни салоҳиятини ошириш билан боғлиқ бўлган захираларни аниқлаш ва улардан самарали фойдаланиш жиҳатларига урғу берилиб, ушбу муаммоларни ечишнинг асосий вазифалари Шунингдек, меҳнат ресурсларининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, ўзаро фарқланиши асослаб берилган.

Ўзбекистонда олиб борилаётган иқтисодий ислохотлар бозор муносабатлари шаклланиши мамлакат иқтисодиёти тармоқлари ривожланиши ва мавқеини тубдан ўзгартирмоқда. Турли хил мулк, ҳажми ва фаолияти турлича бўлган корхоналарнинг мавжуд бўлиши янги иқтисодий, ва ҳуқуқий муносабатлар шаклланишига сабаб бўлмоқда. Бу ҳолат инсонлар ўртасидаги муносабатларга ҳам ўз таъсирини кўрсатмоқда, уларнинг мулкка, олинаётган натижа ва унинг самарадорлигига бўлган қараши тубдан ўзгариб бормоқда. Бу жараёнлар аҳолини иш билан таъминлаш ва бу орқали ижтимоий-иқтисодий тараққиётга эришиш, энг аввало, мавжуд меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланишга боғлиқ. Мустақиллик йилларида тўпланган тажриба ва охириги йиллардаги ижтимоий-иқтисодий жараёнларни чуқур илмий таҳлил қилиш асосида унинг объектив қонуниятларини тадқиқ қилиш, шулардан келиб чиққан ҳолда аниқ хулосалар чиқариш ҳамда амалий тадбирлар белгилаш мумкин. Ваҳоланки, барқарор ривожланиб боровчи меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш том маънода ўзига хос тамойилларга асосланган меҳнат ресурсларини ҳудудий тақсимлаш, табиат билан жамиятнинг қонун ва қонуниятларини англаш, ушбужараёнларни чуқур таҳлил қилиш, илмий ишланмалар ишлаб чиқиш ва уларни амалиётга қўллашни назарда тутати. Таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги фармоннинг мақсад-моҳияти ҳам мамлакатимиз меҳнат ресурсларидан самарали ва оқилона фойдаланиш орқали миллий иқтисодиёт тараққиётини таъминлаш, пировардида аҳоли турмуш тарзини янада яхшилашдан иборат [1].

Мазкур стратегия ижтимоий-иқтисодий ҳаётнинг барча жабҳаларини бешта устувор йўналиш доирасида қамраб олганлиги ва “ижтимоий-иқтисодий ривожланишни жадаллаштириш, халқнинг турмуш даражаси ва даромадларини ошириш, ҳар бир ҳудуднинг табиий, минерал-хомашё, саноат, қишлоқ хўжалиги, туризм ва меҳнат салоҳиятидан комплекс ва самарали фойдаланишни таъминлаш”га қаратилганлиги билан амалий аҳамият касб этади. Мамлакатимизда меҳнат ресурслари самарали фойдаланиш бугунги куннинг долзарб вазифаси бўлиб, бу борада илмий-амалий тадқиқотлар олиб бориш заруратини келтириб чиқаради. Илмий манбаларда меҳнат ресурслари ва уларни оқилона шакллантириш ва самарали фойдаланиш юзасидан турли илмий талқинлар ва қарашлар мавжуд. Эътироф этиш керакки, меҳнат ресурслари ўз хусусиятларига қараб ўзаро фарқланади. Бунинг муҳим белгилари қуйидагилардан иборат:

Биринчидан, меҳнат ресурслари маълум ёшдаги инсонлардан иборат. Улар малакаси, ақлий салоҳияти, тажрибаси, билим савияси билан фарқ қилади. Ушбу фарқ уларнинг ишлаб чиқариш (иш бажариш, хизмат кўрсатиш) салоҳиятига таъсир этади;

Иккинчидан, меҳнат ресурслари фақат моддий неъматларни яратишга қолмай, уларни истеъмол ҳам қилади. Истеъмол даражаси унинг меҳнати самарасига боғлиқ.

Чунки қанча самарали ишласа, шунча кўп ҳақ олади ва мос равишда кўп истеъмол қилиш имкониятига ҳам эга бўлади.

Учинчидан, инсонларнинг моддий ва маънавий эҳтиёжлари жихатидан ҳам ўзаро фарқланади. Чунки меҳнат ресурсларининг жинси, ёши, соғлиғи, оилавий аҳволи, маълумот даражаси ва бошқа ижтимоий, рухий-физиологик сифатлари турли бўлганлиги туфайли истеъмол даражаси ҳам турлича бўлади.

Тўртинчидан, меҳнат ресурсларининг яратувчанлик имкониятлари ҳамда эҳтиёжлари чексиз. Шунинг учун улардан самарали фойдаланиш мақсадида турли рағбатларни қўллаган ҳолда фаолият юритиш лозимлигини тақозо қилади. Бу, ўз навбатида, ўта мураккаб жараён. Буни тўлиқ англаш учун ушбу жараёнларни таҳлил қилиш талаб этилади.

Бешинчидан, меҳнат ресурсларининг ўзаро фарқланиши туфайли ҳар бир шахсга индивидуал тарзда ёндашиш лозим. Бунда инсонлар муҳим эҳтиёжларининг рўёбга чиқавермаслигини инobatга олиб, улар меҳнатидан самарали фойдаланиш учун ҳар бирининг шахс сифатидаги талабларини қондиришга ҳаракат қилиш муҳим. Бошқача айтганда, иқтисодиётнинг муваффақиятли ривожланиши мураккаб хўжалик механизмининг самарали фаолият юритишини таъминлаш учун амалга оширилувчи барча жараёнларда инсон ва иқтисодиёт манфаатларининг уйғунлигига эришишни таъминлаш лозим [2].

Мамлакатимиз иқтисодиётида олиб борилаётган изчил ислохотлар бандлик ва меҳнат бозорининг ривожланишига ҳам туртки бўлмоқда. Таҳлилларга кўра 2017 йилда республика бўйича меҳнат ресурслари сони 18 673 минг кишини ташкил этиб, 2000 йилга нисбатан 6 204 минг кишига ёки 49,8 % ўсган. Меҳнат ресурслари таркибида иқтисодий фаол аҳоли сони 14 357 минг кишини ташкил этган (жами меҳнат ресурсларининг 76,9 %) ва бу кўрсаткич 2000 йилга нисбатан 5 339 минг кишига ёки 59,2 % ўсган. Шу жумладан, республикада иш билан банд аҳоли сони 2017 йилда 2000 йилга нисбатан 50,5 %га ёки 4 537 минг кишига ошган ва 13 520 минг кишини ташкил этмоқда. Кўришиб турибдики, таҳлил қилинаётган йиллар мобайнида иқтисодий фаол ва иш билан банд аҳоли сони кескин ўсган. Меҳнат ресурсларининг мамлакатимиз ҳудудлари бўйича тақсимотида кўра, республика бўйича жами меҳнат ресурсларнинг энг юқори улуши Самарқанд (11,1 %) ва Фарғона (10,9 %) вилоятларига тўғри келмоқда. Кейинги ўринларда Қашқадарё (9,6 %), Андижон (9,2 %) вилоятлари ва бошқа вилоятлар эгаллаган. Меҳнат ресурсларининг энг паст улуши Сирдарё (2,5 %) ва Навоий (2,9 %) вилоятларига тўғри келмоқда

Таҳлилларга кўра 2017 йилда республикамиздаги иш билан банд аҳолининг асосий қисми ҳали ҳам қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги соҳасида фаолият юритмоқда. Сўнгги йилларда саноат тармоқлари корхоналарининг модернизация қилиш, техник ва технологик жиҳозлаш стратегиясининг жадал олиб борилиши саноат тармоқларида иш билан банд аҳоли сонининг сезиларли ошишига сабаб бўлмоқда. Жумладан, 2017 йилда республикамиздаги жами иш билан банд аҳолининг 13,5 %и саноат тармоғига тўғри келмоқда. Кейинги ўринларни савдо (11,0 %), қурилиш (9,5 %), таълим (8,2 %) ва бошқа соҳалар эгаллаган

Юқорида келтирилган таҳлиллар кўрсатмоқдаки, республикамизда бандлик ва меҳнат бозорини ривожлантиришда ижобий ўзгаришлар кузатилган. Бироқ шу билан бир қаторда ўз ечимини кутаётган асосий камчилик ва муаммолар мавжуд. Жумладан:

Меҳнат бозоридаги беқарор мувозанат ҳолати;

Республикамизнинг айрим минтақаларида ишсизлик даражасининг ошиб кетиши ва ҳудудлараро кескин тавофутлар;

Ноқонуний меҳнат миграцияси ва норасмий бандлик даражасининг ўсиши;

Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасалари битирувчиларини ишга жойлаштиришга юзаки ёндашувлар;

Аҳоли бандлигини таъминлаш масалаларида жойларда маҳаллий ижро ҳокимияти органлари, давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, таълим муассасалари, фуқароларнинг

ўзини-ўзи бошқариш органлари ва кенг жамоатчилик ўртасида меҳнат интеграцияси яратилмаганлиги ва ҳоказо.

Хулоса

Мамлакат иқтисодиётини модернизация қилиш ва иқтисодиётни тубдан янгилаш шароитида меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланишни куйидаги йўналишларда амалга ошириш мақсадга мувофиқ барқарор ўсиб келаётган меҳнат ресурсларидан янада самарали фойдаланиш учун меҳнат бозорини модернизация қилиш; мамлакат меҳнат бозорини бозор принципларига асосланган ҳолда такомиллаштириш, бунда самарали бандлик ҳамда юқори малакали, юқори иш ҳақи билан таъминланган янги иш ўринларини ташкил қилиш сиёсатига ўтишга алоҳида эътибор бериш; маҳаллий ижро ҳокимияти органлари, давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, таълим муассасалари, фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари ва кенг жамоатчилик ўртасида меҳнат интеграциясини яратиш;

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov IQTISODIYOT NAZARIYASI. Toshkent —Fan va tehnologiyal 2005. 557-558 b.
- 2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли фармони

Илмий раҳбар

Юлдашева И.

КОРХОНА ВА ТАШКИЛОТЛАРДА БОШҚАРУВНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Мусаева М., Ибрагимов Ш. - талабалар, ТИҚХММИ

Аннотация

Бошқарувнинг самарали бўлиши иқтисодиётнинг ҳозирги ҳолати, институционал бошқарувни ташкил этиш даражаси, унинг ижтимоий ва иқтисодий ҳолатидан келиб чиққан ҳолда ривожлантириш, давлатнинг бу йўналишда тутган иқтисодий сиёсати ва менежерларнинг бошқарувни ташкил этиш салоҳиятларига ҳам боғлиқ. Бошқарув тизими бўйича иқтисодиёт назарияси, менежмент, корхона иқтисодиёти фанларида самарадорлик, хусусан, бошқарув самарадорлиги тўғрисида кенг фикр ва мулоҳазалар билдирилган.

Кириш. Ҳозирги вақтда мамлакатимиз иқтисодий тараққиётининг бирдан - бир самарали йўли бу: бозор муносабатларидир. Маданий тараққиёт даражаси юқори бўлган давлатларнинг ва бу йўналишда биринчи қадамлар қўяётган мустақил республикамизнинг бозор иқтисодиётига ўтиш даврини таҳлил қила туриб, бошқарув услубини ташкилий - профессионал хусусиятларини аниқлаб берувчи баъзи бир гуруҳ белгиларини ажратиб кўрсатиш мумкин.

Биринчи гуруҳ белгилари - бу иқтисодий фикр юритишнинг янги тури бўлиб, бозор иқтисодиёти, яъни янгича иқтисодий муносабатлар эркин тадбиркорлик фаолияти вужудга келиши билан боғлиқдир. Бундай шароитда раҳбарнинг кўл остидагилар фаолиятига аралашishi аввалгидан бир оз камроқ бўлади.

Иккинчи гуруҳ белгилари - бу янги услубдаги бошқарувни вужудга келиши билан тавсифланади. Бунга бошқарув меҳнати билан банд ишлабилармон билимдон раҳбарларни киритиш мумкин. Бунинг учун энг аввало ўз соҳасида ўта билимдон, маданий тараққиёт

даражаси юқори бўлган ривожланган давлатларда тўпланган тажрибани ўзлаштирган, бозор иқтисодиётини барча замонавий соҳаларини, жумладан тадбиркорлик, менежмент, маркетинг, банк иши, солиқ ва бошқаларни чуқур ўрганган мутахассис бўлишни тақозо этади.

Учинчи гуруҳ белгилари - бу шерикларга нисбатан тартиблилик, маъмуриятчилик, расмиятчиликнинг йўқлиги, қўл остидагилар ҳақида ғамхўрлик, маданиятлилиқ билан иш юритиш тавсифланади. Ҳақиқий раҳбар ишбилармонлик оламида фақат юқори даромад ҳақида ўйламасдан, балки ишнинг сифати ва корхонадаги ходимларни, уларнинг фаравонлиги ҳақида ҳам ўйлаш зарур.

Бошқарув самарадорлиги ишлаб чиқаришни такомиллаштириш ва ривожлантириш билан узвий боғлиқдир. Бошқарувнинг ташкилий-иқтисодий механизми самарадорлигини таъминлаш учун унинг йўллари аниқ белгилаб олиш зарур. Бошқарув самарадорлигини ошириш қуйидаги вазифаларни бажаришга йўналтирилиши керак:

- ташкилий механизмнинг ривожланганлик даражасига;
- доимий равишда ишлаб чиқариш фаолияти, унинг технологик ривожланганлигини назорат қилишга;
- корпоратив ишлаб чиқаришга корпоратив маданиятни жорий этишга;
- корпоратив бошқарув даражасида ТОП-менежерлар билан функциялар бўйича оқилона алоқаларни таъминлашга;
- корпоратив тараққиёт билан боғлиқ бўлган вазифаларни ТОП-менежер орқали уларнинг зарурлигини эътиборга олишга [1].

Демак, ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш йўллари қидириш, харажат ва натижаларни тўғри солиштириш, мулкчилик шакли, қайси тармоққа тегишлилиги, ҳудудий жойлашиши ва фаолият туридан қатъи назар, ҳар бир корхона учун муҳим вазифа ҳисобланади.

Эркин бозор иқтисодиётига ўтиш чуқур ислохотларни амалга оширишни талаб қилади. Барча корхона ишлаб чиқаришни интенсифлаштирувчи тадбирларни амалга ошириш зарур. Самарали ташкил этилган иқтисодиётга ўтиш ҳар томонлама ривожланган ишлаб чиқариш кучлари ва ишлаб чиқариш муносабатлари билан таъминланган бўлиши лозим.

Хабарингиз бор айни кунларда Ўзбекистан Республикаси Халқ таълими вазирлиги томонидан иккинчи йил «Енг яхши дарс ишланмаси» танлови ўтказилди. Дарс ишланмасига қўшиб жўнатиладиган аннотатсия бўйича кўпчилик педагогларда бир неча саволлар тутилди.

«Аннотатсия» нима дегани? У қай тарзда ёзилади? Аннотатсиянинг қандай турлари бор. Келинг бу саволларга жавоб беришга уриниб кўрсак;

Аннотатсия (лотинчадан аннотатио — мулоҳаза) ёки резюме, қисқа хулоса (франтсузчадан ресюме — «қисқа, қисқартирилган») — китоб ёки бирор бир асарнинг қисқача мазмуни. Шунингдек аннотатсия — нашр (қулёзма, монография, мақола ёки китоб)нинг қисқача тавсифи бўлиши ҳам мумкин. Аннотатсия асарнинг нашр этилган вақти ва жойини, номинатив формасини, ўзига хос ажралиб турадиган жиҳатлари тасвирлайди.

Аннотатсия китоб ёки мақоланинг асосий мавзусини ўз ичига олади. Аннотатсия одатда илмий журналлар, китоблар бошида муаллиф ва сарлавҳадан кейин учрайди [2].

Инглиз тилидаги адабиётларда аннотатсия кўпроқ, «Абстракт» номи билан учрайди. Олдинги текширув тизими синтактик жиҳатдан ҳато ёзилган оддий кодлар масалан C++ дастурлаш тилида маълумотни киритишда син >> х ўрнига син << х кўринишда ёзилса, тизим комплятсида ҳатолик чиқармасдан ўз ишини давом эттира олмай қолар эди. Уни администраторнинг ўзи комплайсияда ҳатоликни қўлда белгилаб, тизимни бошқатдан ишга тушириши лозим эди. Эндиликда бунинг олди олиниб, бундай ҳатоликлар тизимнинг турғун ишлашига тўсқинлик қила олмайди. Буни амалга ошириш учун протсес яратишда максимал кутиш вақти 5 секунд қилиб белгиланиб, агар 5

секундгача бажарилувчи файл яратила олинмаса у ҳолда жараён тўхтатилади ва сомлятсияда ҳатолик жавоби қайтарилади [3].

Дастур ҳар бир 1 секунд вақтдан маълумотлар базасига янги ечимлар тушганлигини текшириб туради. Агар янги ечим жўнатиш бўлса, унинг барча параметрларини ўзига олади ва маълумотлар базасида унинг ҳолатини текширилмоқда (Руннинг) қилиб белгилаб қўяди. Олинган ечим орқали файл яратилади. Яратилган файл асосида бажарилувчи файл яратилади. Бажарилувчи файл C, C++, Паскал дастурлаш тилларида .exe кенгайтмали, Жава дастурлаш тилида .jar кенгайтмали файл бўлади. Кейин тестлар папкасидан жами нечта тест борлигини аниқлайди ва шунча марта жараённи бажартиради. Теслашнинг икки вариант ва мавжуд. Умуман олганда масалалар чиқарадиган жавоб бўйича икки турга бўлинади [4].

Инт маин(инт аргс, чар * аргв[]) функцияси бажартирилганда 3 та аргумент қабул қилади. Биринчи аргумент кирувчи файл адреси, иккинчи аргумент чикувчи файл адреси, учинчи аргумент жавоб файл адреси. Фойдаланувчи ечимининг вариантларидан бирига мос келишини текшириш учун кирувчи файл маълумотлари албатда керак бўлади. Масалан юкоридаги масалада чиқарилган максимал элемент индексини олиб, массивнинг максимал элементини топиб, чиқарилган индексдаги қиймат максималга тенглигини текшириш етарли [4].

инф – кирувчи маълумотлар файли обекти

оуф – чикувчи маълумотлар файли обекти

ансф – жавоб маълумотлар файли обекти

Шу учта файлдаги маълумотлардан фойдаланиш орқали исталган масала учун ечимнинг вариантлардан бирига мос келиш ёки келмаслигини текшириш мумкин.

Кирувчу маълумотлар, яъни массив элементларини қуйидагича киритиб оламиз: Инт н = инф.реадИнт(); – массив элементлари сонини киритамиз. рeadИнт() функцияси бутун сонни киритиш учун фойдаланилади. Ундан ташқари ҳақиқий сонни киритиш учун рeadДоубле(), сатр киритиш учун рeadСтринг() функцияларидан фойдаланиш мумкин.

Массив элементларини эса сикл ёрдамида киритамиз. Киритиш вақтида максимал элемент ва унинг индексини топиб борамиз. [5]

Хулоса

Ижтимоий ишлаб чиқариш самарадорлигини оширувчи энг муҳим омил - бу фан ва техника тараққиёти бўлиб келган. Охирги вақтларгача фан-техника тараққиёти эволюцион тарзда ривожланиб келди. Натижада амалдаги технологиялар такомиллашиб, машина ва ускуналар замонавийлашди. Эркин бозор муносабатларини шакллантиришнинг ҳозирги шароитида фан ва техниканинг охирги ютуқлари асосида халқ хўжалигининг барча тармоқларида янги техника ва технологияларни жорий қилишга қаратилган революцион ва сифатий ўзгаришларни амалга ошириш бугунги куннинг энг долзарб масалаласидир.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

- 1.Ш.М.Мирзиёев. “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз”. – Т.: Ўзбекистон, 2016. 81 б.
- 2.Ш.М.Мирзиёев. “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови”. // “Халқ сўзи”, 2016 йил 8 декабрь. 72 б.
- 3.Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. Шодмонов Ш.Ш. ва бошқалар. -Т.: ТДИУ, 2014. 121 б.
- 4.Герчикова И.Н. Менеджмент М.: ЮНИТИ, 2007, 480 с..
- 5.www.ziyoNet.com

Илмий раҳбар

кат.ўқт., Хужамкулова Х.

КОРХОНА ВА ТАШКИЛОТЛАРДА САМАРАЛИ БОШҚАРУВНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Рўзиев Э., Ибрагимов Ш. - талабалар, ТИҚХММИ

Аннотация

Республикаимизнинг ижтимоий-иқтисодий тармоғини ривожлантиришда ҳукуматимиз томонидан изчил ислоҳатлар олиб борилиб, ўзининг ижобий натижаларини бермоқда. Малакали ва ишбилармон ходимларни шакллантиришга эришиш муҳим ижтимоий – иқтисодий аҳамият касб этади. Ўзбекистондаги ва чет эллардаги ташкилотлар тажрибасини умумлаштириш Корхона ва ташкилотларни бошқариш тизимининг асосий мақсадини, яъни кадрлар билан таъминлаш уларнинг самарали ишлашини касбий ва ижтимоий жиҳатдан ривожланишини шакллантиришга имкон беради.

Кириш. Бошқарув ишлаб чиқариш жараёни самарадорлигини таъминовчи, мураккаб бўғин бўлиб, унинг фаолияти бошқарувни ташкил этиш, унинг қисмлари ўзаро боғлиқлигини таъминлаш асосида умумий мақсадни умумлаштиради.

Ишлаб чиқаришда бошқарув меҳнати ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, у қуйидагилардан иборатдир:

- бошқарув сув хўжалиги ишлаб чиқаришида тўғридан-тўғри ёки бевосита иштирок қилмайди, балки жамоа меҳнатини бошқаради;

- ушбу меҳнатнинг бевосита қуроли бўлиб ахборот ва маълумотлар, воситаси бўлиб эса ташкилий техникалар ҳисобланади;

- бошқарув маъмурияти ишчилари, айниқса раҳбар ва мутахассислари ташкилотларнинг энг фаол ва устун ҳуқуқли қисми ҳисобланади;

- бошқарув маъмурияти ишчиларининг меҳнати асосан ақлий меҳнат бўлиб, айрим жисмоний меҳнат элементларини ҳам ўз ичига олади;

- бошқарув меҳнатининг унумдорлигини фақат техник ходимлар ва доимий қатнашувчи ва меҳнат жараёнлари меъёрлаштирилган ишлар билан боғлиқ бўлган айрим мутахассислар учунгина аниқлаш мумкин [1].

Фан-техника тараққиёти корхоналарнинг ишлаб чиқариш фаолияти самарадорлигини оширишда муҳим омил бўлиб келган ва ҳозирда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган. Мазкур омилдан қуйидаги йўللар билан фойдаланиш мумкин:

- ишлаб чиқариш ва меҳнатни механизациялаштириш, автоматлаштириш ҳамда комплекс равишдаги механизациялаштириш;

- прогрессив, меҳнат ҳамда ресурсларни тежашга йўналтирилган технологик жараёнларни амалиётга киритиш ва улардан кенг фойдаланиш;

- хом ашё ва материаллар (меҳнат предметлари) замонавий турларини яратиш ва улардан фойдаланиш;

- ишлаб чиқаришни ташкил қилиш, режалаштириш ва бошқариш жараёнларида замонавий ахборот технологияларидан, ҳисоблаш техникасидан фойдаланиш;

- ишлаб чиқариш ва меҳнатни илмий ташкил қилиш [2].

Корхоналарнинг ривожланишигава бошқарув самарадорлигига турли омиллар таъсир кўрсатмоқда:

- хусусий мулк эгаллигининг таъминланиш даражаси;

- инновацион ривожланиш даражаси;

- эркин бозор рақобати;

- диверсификацион сиёсат;

- корпоративларнинг бозор ҳолатлари бўйича ахборот билан таъминлаш [3].

Самарадорлик ва сифатли меҳнат туфайли корхона биринчидан, ўзининг иқтисодий барқарорлиги ва бозордаги рақобатчиликка бардош беришини таъминлайди,

иккинчидан, ўз имиджини яхшилайти ва ҳамкорлар билан алоқаларини мустаҳкамлайди, учинчидан, ходимларнинг иқтисодий ва ижтимоҚорхона ишлаб чиқарилган маҳсулотларнинг юқори сифатлиги, уларнинг юқори сифатга эгаллиги уларга бўлган талаб ва эҳтиёжни кескин ошишига олиб келмоқда. Рақобат бозорида мустаҳкам ўз ўрнига эгаллиги ва мавқеини сақлаб қолмоқда [4].

Хулоса

Шундай қилиб қорхонанинг танлаган стратегиясига эришишининг асосий йуналишлари билан бир қаторда қуйидаги вазифаларни бажариши лозим.

1. Ўз маҳсулотларини сотишда бозорларни сегментларга бўлиш.
2. Қорхона маҳсулотига бўлган талабни мақсадли йуналтирилган ҳолда ўрганиш.
3. Истеъмол бозорида мавжуд бўлган рақобатчиларни ўрганиш.
4. Маҳсулотларни сотиш учун мулжалланган савдо уйлари ва маҳсус дуконларни ташкил этиш.
5. Сотишга мулжалланган маҳсулотларни суғурталаш.
6. Қорхона маҳсулотларини ташки ярмарка ва кўрғазмаларда реклама қилиш ва бошқалар.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Каримов И.А. Бизнинг йўлимиз - демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом эттириш йўлидир. 20-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2012. 207-б.
2. Ш.М. Мирзиёев. “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз”. – Т.: Ўзбекистон, 2016. 45 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича “Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисида”ги 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони. 4.4-банди.
4. www.ziyoNet.com

Илмий раҳбар

кат.ўқт., Хужамкулова Х.И.

АГРАР СУБЪЕКТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Ҳакимов Ж. - талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақола, қишлоқ хўжалик қорхоналари фаолиятини диверсификациялаш орқали қишлоқ хўжалигида ер-сув ресурслар чекланганлиги шароитида ишлаб чиқаришнинг доимий ўсиши зарурлигини таъминлашда, аграр соҳа ва иқтисодий ресурслар салоҳиятидан тўла ва самарали фойдаланиш орқали мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, бошқа саноат ва қайта ишлаш тармоқларини хом-ашё билан таъминлаш, қишлоқ хўжалигида оқилона бандликни таъминлаш орқали иш қучларини бошқа тармоқларга жалб этиш ҳамда аҳоли турмуш даражаси ва фаровонлигини янада ошириш имкониятлари кенгайтирилади.

Мамлакатда макроиқтисодий барқарорлик ва иқтисодий ўсишни таъминлаш иқтисодиётнинг барча етакчи тармоқларини жумладан аграр соҳани модернизациялаш, янги техника ва тежамкор технологияларни кенг тадбиқ этиш билан бирга, қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш таркибини тубдан янгилаш уни ўзгартириш ва диверсификациялашни тақозо этмоқда. Маълумки, қишлоқ хўжалик қорхоналари фаолиятини диверсификациялаш орқали қишлоқ хўжалигида ер-сув ресурслар чекланганлиги шароитида ишлаб чиқаришнинг доимий ўсиши зарурлигини таъминлашда,

аграр соҳа ва иқтисодий ресурслар салоҳиятидан тўла ва самарали фойдаланиш орқали мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, бошқа саноат ва қайта ишлаш тармоқларини хом-ашё билан таъминлаш, қишлоқ хўжалигида оқилона бандликни таъминлаш орқали иш кучларини бошқа тармоқларга жалб этиш ҳамда аҳоли турмуш даражаси ва фаровонлигини янада ошириш имкониятлари кенгайди. Шу жиҳатдан қишлоқ хўжалик корхоналари фаолиятини диверсификациялаш уни ташкил этиш борасида республикамиз минтақаларининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда фермерлик фаолиятини ихтисослаштириш борасидаги мавжуд тизимни такомиллаштиришни тақозо этади.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган аграр ислоҳотлар қишлоқ хўжалик корхоналарида ишлаб чиқариш фаолиятини диверсификациялаш яъни замонавий кўп тармоқли фермер хўжаликларини шакллантириш ва уларни ривожлантиришга қаратилган бўлиб, бунда мазкур соҳага давлат аграр сиёсатини ишлаб чиқиш ва амалга оширишнинг устувор йўналиши сифатида қаралмоқда.

Олиб борилаётган иқтисодий ислоҳотлар самараси ўлароқ қишлоқ хўжалигида йил сайин ижобий ютуқлар қўлга киритилиб борилмоқда. Бу борада қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш ва сифатини яхшилаш, ташқи ва ички бозорларда рақобатбардошлигини ошириш, иқтисодий ва ижтимоий муаммоларни ҳал этиш, шунингдек иқтисодиёт барча тармоқларида ишлаб чиқаришнинг барқарор ўсишини таъминлашга дастак бўлади.

Бугунги кунда мамлакатимизда аграр соҳани ривожлантиришга ҳукуратимиз томонидан алоҳида эътибор қаратилмоқда, бу борада 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш ва жадал ривожлантириш, жумладан:

- таркибий ўзгартиришларни чуқурлаштириш ва қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини изчил ривожлантириш, мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини янада мустаҳкамлаш, экологик тоза маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кенгайтириш, аграр секторнинг экспорт салоҳиятини сезиларли даражада ошириш;

- пахта ва бошоқли дон экиладиган майдонларни қисқартириш, бўшаган эрларга картошка, сабзавот, озуқа ва ёғ олинадиган экинларни экиш, шунингдек, янги интенсив боғ ва узумзорларни жойлаштириш ҳисобига экин майдонларини янада оптималлаштириш;

- фермер хўжаликлари, энг аввало, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш билан бир қаторда, қайта ишлаш, тайёрлаш, сақлаш, сотиш, қурилиш ишлари ва хизматлар кўрсатиш билан шуғулланаётган кўп тармоқли фермер хўжаликларини рағбатлантириш ва ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш;

- қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини чуқур қайта ишлаш, ярим тайёр ва тайёр озиқ-овқат ҳамда қадоклаш маҳсулотларини ишлаб чиқариш бўйича энг замонавий юқори технологик асбоб-ускуналар билан жиҳозланган янги қайта ишлаш корхоналарини қуриш, мавжудларини реконструкция ва модернизация қилиш бўйича инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш;

- қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш, ташиш ва сотиш, агро-кимё, молиявий ва бошқа замонавий бозор хизматлари кўрсатиш инфратузилмасини янада кенгайтириш;

- суғориладиган эрларнинг мелиоратив ҳолатини янада яхшилаш, мелиорация ва ирригация объектлари тармоқларини ривожлантириш, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш соҳасига интенсив усулларни, энг аввало, сув ва ресурсларни тежайдиган замонавий агротехнологияларни жорий этиш, қишлоқ хўжалигидаги ислоҳотларни янада чуқурлаштириш, соҳанинг моддий-техник базасини мустаҳкамлашда, энг муҳими, қишлоқ хўжалиги иқтисодиётини янада юксалтиришда, қишлоқ хўжалиги корхоналари фаолиятини диверсификациялашни замон талаб қилмоқда.

Қишлоқ хўжалигини модернизация ва диверсификациялаш бўйича амалга оширилаётган дастурий чора-тадбирлар қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш ҳажмларини 6,6 фоизга, жумладан, мева-сабзавот – 11,2 фоизга, картошка – 9,7 фоизга, сабзавот маҳсулотлари этиштириш 10,4 фоизга ўсишини таъминлади [1].

Бугунги кунда қишлоқ хўжалик корхоналари фаолиятини диверсификациялаш натижасида моддий манфаатдорлик тубдан ўзгарди ва уларда ишлаб чиқаришни бозор талаблари асосида ташкил этиш ва бошқаришни замонавий менежмент тамойилари асосида олиб бориш амалиёти ривожланмоқда.

Қишлоқ хўжалик корхоналари салоҳиятини оширилиши, молиявий-иқтисодий барқарорлиги таъминланиши натижасида улар томонидан этиштирилаётган қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилдорлигини, чорвачиликда маҳсулдорликни ошириш, маҳсулот сифатини яхшилаш ва ассортиментини кўпайтириш бўйича имкониятлари янада ошмоқда.

Жумладан, мева-сабзавотчилик ва узумчилик, ҳамда чорвачилик соҳаларида фермер хўжаликлари томонидан интенсив технологияларни жорий этилиши уларни имкониятларини янада кенгайтирмоқда.

Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг 2012 йил 22 октябрдаги —Ўзбекистонда фермерлик фаолиятини ташкил қилишни янада такомиллаштириш ва уни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПФ-4478-сонли Фармонида асосан Республикада 2013-2015 йиллар давомида 36 мингдан зиёд фермер хўжаликларида кўп тармоқли фаолиятни йўлга қўйиш бўйича 58,5 мингдан ортиқ лойиҳалар амалга оширилган.

Ушбу мақсадда 2 трлн. 47 млрд. сўм, шундан 576 млрд. сўм банк кредитлари ва 1 трлн. 471 млрд. сўм фермерларнинг ўз маблағлар жалб қилиниб қишлоқ жойларда 261 мингдан ортиқ янги иш ўринлари яратилган.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси Президентининг —Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш қишлоқ хўжалиги экин майдонларидан самарали фойдаланиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги 2017 йил 9 октябрдаги ПФ-5199-сон Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг —Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари фаолиятини янада ривожлантириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисидаги 2017 йил 10 октябрдаги ПҚ-3318-сон Қарорларида қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг янги босқичида амалга оширилиши зарур бўлган вазифалар ва устувор йўналишлар аниқ белгилаб берилди.

Бу вазифалар қишлоқ хўжалигининг мавжуд салоҳиятидан тўла фойдаланиш имкониятини ҳамда қишлоқ хўжалик маҳсулотлар этиштирувчилар моддий манфаатдорлигини таъминлашга асос бўлади. Шунинг учун қишлоқ хўжалик ишлаб чиқаришини диверсификациялаш бугунги кун замон талаби эканлигини эсдан чиқармаслигимиз керак. Шу нуқтаи назардан қишлоқ хўжалик корхоналарини диверсификацияламасдан туриб тармоқнинг макроиқтисодий мутаносиблигини таъминлаб бўлмайди. Ўз ўрнида тармоқлараро мутаносиблик мамлакат макроиқтисодий барқарорлигига асос бўла олади. Шунинг учун мазкур тушунчага илмий ёндашган ҳолда категория сифатида аниқлик киритиб олиш лозим бўлади. Бу борада иқтисодий терминологияда ишлаб чиқариш жараёнида янги йўналишни танлаш ёки маҳсулотнинг янги турини яратиш билан боғлиқ жараён диверсификациялашув сифатида талқин қилинади. Диверсификация корхона (бирлашма)ларнинг фаолият соҳалари ва ишлаб чиқарилган маҳсулотлари турларининг кенгайтириши, янгиланиб туришидир. Диверсификация – бир-бири билан технологик жиҳатдан боғлиқ бўлмаган ишлаб чиқариш турларини бир вақтда ривожланиши ва маҳсулот турларининг кўпайишидир. Қишлоқ хўжалигида кўп тармоқли фермер хўжаликларини ташкил этиш ишлаб чиқаришни диверсификациялаш механизмларидан биридир. Бунинг учун кўп тармоқли хўжалик фаолиятида фермер хўжалигининг оладиган фойдаси миқдорини ошириш эса - мавжуд ер ва сув ресурсларидан фойдаланишда замонавий агротехнологияларни жорий этиш, илғор

тажрибалар, аграр илм-фани ютуқларига таяниш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш, сақлаш, ташиш ва бошқа хизматлар кўрсатиш соҳаларига инвестициялар жалб қилиш эвазига амалга оширилади [2].

Хулоса

Хулоса қилиб айтганда, фермер хўжалигининг оладиган фойдаси миқдорини ошириш эса - мавжуд ер ва сув ресурсларидан фойдаланишда замонавий агротехнологияларни жорий этиш, илғор тажрибалар, аграр илм-фани ютуқларига таяниш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш, сақлаш, ташиш ва бошқа хизматлар кўрсатиш соҳаларига инвестициялар жалб қилиш эвазига амалга оширилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1.2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль ПФ-4947 сонли Фармонида 1-илова.

2.Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Мамалакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузасидан.

Илмий раҳбар

Юлдашева И.

YOSHLAR BANDLIGI VA ULARNI TADBIRKORLIKKA JALB ETISH BUGUNNING DOLZARB MASALASI

Alimbayev J.K. – talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Maskur maqolada yoshlar o'rtasida ish bilan bandlikni ta'minlash, barcha mamlakatlarda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi, mehnat qobiliyatiga ega bo'lganlar soni iqtisodiy taraqqiyotga mos ravishda oshib bormoqda. Ushbu holatga qo'shimcha ravishda yoshlarda tadbirkorlik faoliyatini yuritish malakalarining yetishmovchiligi oqibatida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari o'zlariga mos bo'lgan ish o'rinlarini topishda qiyinchiliklarga duch kelishlari ko'rsatib o'tilgan. Shu sababli, yoshlar o'rtasida ish bilan bandlik imkoniyatlarini kengaytirish davlatlar siyosatining ustuvor maqsadlaridan biri ekanligi takidlab o'tilgan.

Atrofga nazar tashlasak yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlarga havas qilasan kishi. Kimdir tadbirkor, kimdir esa jahonni lol qoldirgan sport ustasi, boshqasi ixtirochi, kashfiyotchi va boshqalar. Bugungi yoshlar bitta faoliyat bilan cheklanib qolgani yo'q. Ayniqsa, yosh tadbirkor tushunchasi tobora kengayib bormoqda. Imkoniyatlar ko'lami ham yanada ortgan. Buning uchun yoshlar tadbirkorligidagi imtiyozlar va qonun-qoidalardan kerakli xabardor bo'lib borilsa kifoya.

Yoshlar tadbirkorligi yoshlar iqtisodiy faolligining iqtisodiy manfaatlariga erishish, ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarish, yoshlarning o'zini o'zi namoyon etishga qaratilgan alohida turidan iborat. Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish orqali, ularning ish bilan bandligini ta'minlab, iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, siyosiy vazifalarni amalga oshiradi. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga tizimli yondashish me'yoriy-huquqiy bazani muvofiqlashtirish, davlat va mahalliy tuzilmalar tomonidan yoshlar siyosati doirasida yoshlar tadbirkorligini boshqarish, samarali infratuzilmani yaratishni ko'zda tutadi [1].

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 56,9 foizini tashkil etgan holda, aholini 78,1 foizini bandligini ta'minlaydi. Ushbu statistik

raqamlar tahlili davlat korxonalarida ishlovchilarning soni qisqarib, xususiy sohada bandlikning ortishi ro'y berayotganligini ko'rsatadi. Bu esa pespublikamiz hukumati tomonidan tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilishi, shuning asnosida aholining, jumladan, yoshlarning bandligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarining izchillik bilan amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Xususiy sektor aholi turmush sifatini oshirish uchun zarur bo'lgan innovatsiyalar, texnologiyalar, infratuzilma rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi. Iqtisodiy o'sishni va ish o'rnlari yaratishni ta'minlash uchun kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanishini rag'batlantirish bizning bosh maqsadlarimizdan biri sanaladi. Yuqoridagi ko'rsatkichdan va amalga oshirilayotgan ishlardan shuni xulosa qilish mumkinki, Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka imtiyoz va imkoniyatlar juda katta. Biz bilamizki, O'zbekiston aholisining 60 % dan ko'prog'ini yoshlar tashkil etadi. Xo'sh, ularning ish bilan bandlik darajasi qancha? [3].

Bugungi kunda yoshlar uchun yangi ish o'rnlari ochish, ularning halol mehnat qilib, daromad topishi maqsadida ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, bu borada muommolar ham oz emas. Bunga misol qilib, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarning ko'pchiligi borgan tashkilotida uzoq vaqt ishlay olmasligi, shartnomada ko'rsatilgan joyda faoliyat yuritmasligi yoki umuman ishsizligini ko'rsatishimiz mumkin. Bu borada Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Davlat raqobat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga har bir tuman (shahar) markazida Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etish vazifasi topshiriladi. Ana shu klasterlar faoliyatini yo'lga qo'yish uchun elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv va transport kommunikatsiyasi, aloqa vositalari va Internetga ulanish imkoniyati mavjud bo'lgan hududlarda foydalanishda bo'lmagan davlat ob'yektlari yosh tadbirkorlarga "nol" qiymati bilan ijaraga beriladi. Hamma hududlarda tashkil etilayotgan iqtisodiy zonalarda, shaharlarda esa kichik sanoat zonalarda O'zbekiston yoshlar ittifoqining a'zosi bo'lgan yosh tadbirkorlardan ijara haqi olinmaydigan tartib joriy etiladi. Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda "Hunarmand" uyushmasiga topshiriq: hunarmandlik yo'nalishidagi tadbirkor yoshlar, ayniqsa, qizlarning kasanachilik bilan band bo'lishi uchun qulay sharoit yaratib berilsin. Bu borada bo'sh turgan ob'yektlardan imtiyozli shartlar asosida joy ajratish, mini-texnologiyalar, asbob-uskuna va zarur jihozlar o'rnatib berish ko'zda tutilmoqda. Jumladan, yosh hunarmandlarga xomashyo sotib olish uchun kreditlar berish, o'z biznesini boshlagan yosh tadbirkorlar tomonidan Pensiya jamg'armasiga to'lanadigan sug'urta badalini olingan kreditlarni qoplashga yo'naltirish tizimi joriy etiladi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga topshiriq: sinov tariqasida 11 yillik majburiy o'rta ta'lim tizimiga o'tish munosabati bilan bo'shaydigan kollej ustaxonalari negizida yoshlarni, ayniqsa, uyushmagan yoshlarni 6 oygacha bo'lgan muddatda bepul o'qitish va kasbga qayta o'qitish markazlari tashkil etilsin" degan edilar va bir qancha imtiyozlar joriy etish haqida aytib o'tdilar [2].

Biz yoshlar "Mana shunday yaratilgan imkoniyatlar va berilgan imtiyozlardan nega foydalana olmayman? Nima uchun men o'z biznes rejamni ishlab chiqib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullana olmayman? degan savolni o'zimizga berishimiz kerak. Muommoni chuqur tahlil qilsak yoshlarimizni aksariyat qismi tadbirkorlik faoliyati bilan tanish emas va qanaqa qilib bu faoliyat bilan shug'ullanish kerakligi haqida bilimga ega emaslar. Bundan tashqari yoshlarni ish bilan ta'minlash borasida bir qancha muammolar mavjud.

Jumladan:

-ko'pchilik yoshlar o'zlari hali qanday firma yoki kompaniyada ishlashni ko'z oldiga keltira olmasligi, ya'ni qanday ishni tanlashni aniq bilmasligi;

-yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardosh emasligi natijasida ish beruvchilar ularni ishga yollashni istamasligi, ko'pincha ular 3 yillik ish stajiga ega bo'lgan malakali hodimlarni ishga qabul qilishni xohlashi bularga yaqqol misol bo'la oladi [1].

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki yoshlarni ish bilan bandligini ta'minlash va ularni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun birinchi navbatda yoshlarni

tadbirkorlik faoliyati haqida ularning bilimlarini oshirish, yani bog'cha, maktab yoshidagi yosh o'g'il-qizlar bu faoliyat bo'yicha bilimlarini bosqichma-bosqich oshirib borish zarur. Bu bo'yicha tadbirkorlik bo'yicha fanlar va kurslar joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yani bu sohada chuqur bilim va salohiyatga ega yoshlar qo'rqmasdan o'z biznesini yo'lga qo'yadi. Ikkinchidan yaratilayotgan imkoniyatlardan yoshlarni doimiy xabardor qilib borish. Eng so'nggi chiqqan qaror va qonunga kiritilgan o'zgartirishlar haqida yoshlarni xabardor qilish. Bu nafaqat yoshlarni tadbirkorlik sohasidagi bilimlarini oshiradi va ularning huquqiy bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Biz bilamizki, O'zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida yoshlarni tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, ularning bilim va salohiyatini oshirish maqsadida "Biznes klub" lar tashkil etilgan.

Biznes klub faoliyatining asosiy maqsadi – yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka jalb etish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, tadbirkorlik faoliyatini boshlab olishlari uchun har tomonlama qo'llab-quvvatlash, faoliyatlarini rivojlantirishlariga amaliy yordam berish, o'quv-seminarlar, uchrashuvlar tashkil etish orqali ularning bandligini ta'minlashdan iborat. Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish uchun bu biznes klub faoliyatini kengaytirish ya'ni yurtimizning chekka viloyatlari hududlarida ham klublar faoliyatini yo'lga qo'yish. Qo'shimcha ravishda yosh tadbirkorlar o'rtasida tanlovlar tashkil etish va g'olib yoshlarni munosib taqdirlash zarur. Yoshlarimiz har bir yosh yangi faoliyat bilan shug'ullanishni boshlaganda albatta, muommolarga duch keladi. Shunday vaziyatda ularga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatilsa, kelajada katta yutuqlarga erishishiga katta yo'l ochiladi [1].

Yoshlar tadbirkorligininig rivojlanish darajasi bilan xo'jalik yuritishninig ijodiy innovatsiya turi bir - biri bilan yaqindan bog'liq. Shu bilan bir qatorda, yosh tadbirkorlarda iqtisodiy vazifalar doirasida yangi g'oyalardan foydalanishlari va qo'yilgan maqsadga erishish uchun qulay usullarni ishlab chiqishlari talab etiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularninig ish bilan bandligini qo'llab-quvvatlash orqali yoshlar mehnat bozoridagi keskinlikni yumshatish mumkin. Bu esa mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan izchil rivojlanayotgan iqtisodiyotimizninig barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qobilov Sh.R. Iqtisodiyot nazariyasi, Toshkent 2013y. 561 b.
2. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi, Toshkent, Iqtisod moliya 2005y. 155 b.
3. www.stat.uz
4. www.mineconomy.uz

Ilmiy rahbar

kat., o'qit. Ikromova S.A.

БАЛИҚЧИЛИК ТАРМОҒИНИНГ ЎРНИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Юнусов И. – докторант, ТИҚХММИ

Аннотация

Балиқчилик тармоғида ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва режалаштириш учун тармоқнинг ўзига хос хусусиятларини ҳамда ижтимоий-иқтисодий аҳамиятини билиш муҳим саналади. Шу сабабдан мазкур мақолада балиқчилик тармоғининг ўзига хос хусусиятлари кўриб чиқилиб, уларнинг қишлоқ хўжалиги тармоғи хусусиятларидан фарқлари ва ўхшашлик жиҳатлари баён этилган шунингдек, балиқчилик тармоғининг


ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда тармоқнинг ижтимоий-иқтисодий аҳамиятини янада ошириш бўйича таклиф ва тавсиялар келтирилган.

Мавзунинг асосий мақсади - балиқчилик тармоғининг аҳоли озиқ-овқат таъминотини яхшилашдаги ўрни ва ўзига хос хусусиятларини очиб бериш ҳамда тегишли хулоса ва таклифларни шакллантиришдан иборат.

Мамлакатимизнинг озиқ-овқат таъминотини яхшилаш жараёнида балиқ ва балиқ маҳсулотларини етиштириш самарадорлигини ошириш билан боғлиқ муаммоларни атрофлича ўрганган ҳолда маълум даражада қулай нархлар бўйича аҳолини балиқ маҳсулотлари билан таъминлаш – бу балиқчилик тармоғининг изчил ривожланишига боғлиқ [2].

Республикамизда кейинги йилларда Ҳукуматимиз ва Давлатимиз раҳбарияти томонидан аграр соҳа ва унинг тармоқларида илғор тажриба ва инновацион ишланмаларни жорий этиш ва уни рағбатлантириш борасида яратилган шарт-шароитлар ва амалга оширилаётган чора-тадбирлар натижасида қишлоқ хўжалигини алоҳида тармоқларини ривожлантириш, янги инновацион лойиҳаларни амалиётга тадбиқ этиш, иш жараёнларининг механизациялашганлик даражасини ошириш, маҳсулот ишлаб чиқариш сарф-ҳаражатларини камайтириш орқали нафақат қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини ривожлантириш ва иқтисодий-ижтимоий самарадорлигини ошириш, балки экологик самарадорликни ҳам кўтариш таъминланди.

Навбатдаги вазифа, мамлакатимизнинг озиқ-овқат таъминотида балиқчилик тармоғини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш асосида тармоқни барқарор ривожланишига ва юқори иқтисодий-ижтимоий самарадорликка эришиш ҳисобланади [4].



1-расм. Балиқчилик тармоғининг ўзига хос хусусиятлари (қишлоқ хўжалиги тармоғининг ўзига хос хусусиятлари билан ўхшашлиги ва фарқли жиҳатлари).

2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар Стратегиясида айнан ушбу масалалар алоҳида таъкидланиб, "... энг аввало таркибий ўзгаришларни чуқурлаштириш орқали қишлоқ хўжалигини изчил ривожлантириш, мамлакатимиз озиқ-овқат хавфсизлигини янада мустаҳкамлаш" қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш ва жадал ривожлантиришда устувор вазифа қилиб берилган [1].

Қишлоқ хўжалигининг бошқа соҳаларидан фарқли равишда балиқчилик тармоғининг ҳам ўзига хос хусусиятлари мавжуд бўлиб, улардан энг асосийлари қуйидагилардан иборат (1-расм):

Ушбу вазифалар ижросини таъминлаш кўп жиҳатдан республикаимиз қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда табиий ва сунъий сув ҳавзаларидан оқилона фойдаланиш, шунингдек, балиқ етиштиришнинг илмий асосланган усуллари ва интенсив технологияларини мамлакатимизда изчил тадбиқ этиш орқали мазкур соҳани тубдан ислоҳ этиш ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишнинг муҳим омилларидан бири ҳисобланади. Тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, бугунги кунда ишлаб чиқариш инфратузилмаси тизимидаги, жумладан, ҳовузларни чуқурлаштириш ва таъмирлаш техникаларини ишга яроқсиз ҳолга келганлиги ва техника хизматлари нархларининг мунтазам ошиб бориши шунингдек, балиқ маҳсулотларини қайта ишлаш ва сақлаш масалаларида камчиликлар ҳамда муаммолар мавжудлиги ҳамда қайиқ, овлаш тўрларининг етишмаслиги ва ветеринария хизматининг паст даражадалиги мазкур тармоқдаги муаммоларни атрофлича ўрганиб чиқиб, таҳлил қилиш ва тармоқнинг ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда ривожлантириш бўйича илмий асосланган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишни талаб этади. Шу боисдан, балиқчилик хўжалиги ва унга хизмат кўрсатувчи ишлаб чиқариш инфратузилмаси тармоқларининг ўзига хос хусусиятларини эътиборга олган ҳолда ҳамда мавжуд муаммоларни ҳал этиш орқали улар хизматини бозор талабидан келиб чиқиб ташкил этиш лозим шунингдек, тармоқнинг ҳар бир хусусиятини ўрганиб чиқиб, ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва режалаштириш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Балиқчилик тармоғининг санаб ўтилган хусусиятларини таҳлил қилиб шундай хулоса қилиш мумкинки, бу хусусиятлар қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг умумий хусусиятлари билан ўхшашлигини кўриш мумкин. Балиқчилик тармоғи ҳам қишлоқ хўжалигининг ҳар қандай бошқа тармоғида бўлгани каби ишлаб чиқаришнинг мавсумийлиги, ишлаб чиқариш вақтининг ишчи давр билан тўғри келмаслиги, ишлаб чиқариладиган маҳсулотни узоқ муддат сақлаб бўлмаслиги ва товарлилик кўринишини сақлаш учун аниқ шароитларни талаб этилиши, шунингдек, ишлаб чиқаришнинг натижаси табиий-иқлим шароитларига боғлиқлиги ва бошқа хусусиятларга эгадир.

Лекин балиқчилик тармоғи, қишлоқ хўжалигининг бошқа йўналишларидан фарқли равишда, иқтисодий самарадорликни ошириш эвазига мазкур хусусиятларни тартибга келтириш имкониятига эгадир, аниқроғи ишлаб чиқаришнинг мавсумийлик циклидан йил бўйи циклига ўтказилиши, табиий-иқлим омилларининг таъсирини қисман камайиши ва бундан ташқари озуқа майдонларини ташкил қилиш билан боғлиқ даромаднинг кўшимча манбаларини ишлаб чиқариш жараёнига киритиш орқали ишлаб чиқариш ҳаражатларининг камайишига эришиш мумкинлигида кўриш мумкин.

Қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантириш шароитида балиқчилик тармоғининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ижтимоий-иқтисодий аҳамиятини янада ошириш учун қуйидаги тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ ҳисобланади:

- балиқчилик тармоғида бошқариш тизимини такомиллаштириш, балиқ ва балиқ маҳсулотлари етиштиришнинг самарадорлигини ошириш;
- балиқ маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва қайта ишлаш бўйича моддий-техника базани яхшилаш;
- табиий ва сунъий ҳавзалардан оқилона фойдаланиш;

- балиқ етиштиришнинг илмий асосланган методлари ва илғор интенсив технологияларини кенг тадбиқ этиш;
- товар балиқ етиштиришни кенг йўлга қўйиш, шунингдек, балиқчилик тармоғини худудий жойлаштиришга алоҳида эътибор қаратиш;
- балиқ маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг қиймат занжиридаги ташкилий-иқтисодий муносабатларни тизимли ташкил этиш;
- балиқ чавокларини такрор кўпайтириш ва озуқа базасини мустаҳкамлаш;
- балиқчилик тармоғини ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш бўйича давлат томонидан қўллаб-қувватлаш механизмларини ишлаб чиқиш.

Қисқа қилиб айтганда, озиқ-овқат таъминотини яхшилаш шароитида балиқчилик тармоғининг ўрни жуда муҳим аҳамият касб этиб, тармоқнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда балиқчилик соҳасини ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш билан боғлиқ катта ҳажмдаги чора-тадбирлар мамлакат аҳолисининг балиқ ва балиқ маҳсулотларига бўлган талабини қондириш, уларнинг таннарҳини арзонлаштириш, шунингдек, аҳоли саломатлигини мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар Стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили” да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий-услубий рисола. Тошкент. 2017. 130-бет.
2. Юнусов И.О. Основные аспекты повышения эффективности производства рыбных продуктов. “Иқтисодий ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. №1, январь-февраль, 2017. – 1-6-бетлар.
3. Юнусов И.О. Необходимость производства рыбных продуктов в стране. Плехановские чтения. Москва. 2017. – стр. 81-82.
4. Yunusov I.O. Mamlakatning oziq-ovqat ta'minotini yaxshilashda baliqchilik tarmog'ining o'rnini va ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyati. “Глобаллашув шароитида сув хўжалигини самарали бошқариш муаммолари ва истиқболлари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. Тошкент. -2017. – 566-568-бетлар.

AGRICULTURAL INNOVATIONS THAT COULD BE INTRODUCED IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Botirjonov J.J. - student of TIAME

Abstract

Considering how innovative technologies are developing today, it can be surely asserted that only those countries will come out with the least financial losses that will take timely measures to re-equip production facilities and acquire new technologies, to ensure competitive production among the world's leading producers with minimal costs.

For sustainable development of the agrarian industry in modern conditions, it is necessary to pay great attention to the introduction of innovative activities. And development of this is the only way in the formation of a competitive producer of agricultural products.

The challenges of today's world are bringing many pressures to bear on agriculture: population growth, the impact of climate change, the need to reduce greenhouse gas emissions in agriculture, rapid development of the emerging economies and growing instability associated with land, water and energy shortages. The agricultural innovation means implementing the modern view on the agricultural processes. The concept of innovation systems can be understood in a broad sense and may include a wide variety of sectors, including research, extension and

other functions that promote or implement innovation. This systemic approach, unlike the traditional linear model, posits interactive, holistic flows of knowledge among the different participants. Let`s look at the examples of agricultural innovation technologies.

The case of Product Chains For example, in the framework of the project “Technological Innovation Strategy to Improve the Productivity of Product Chains in Central America and the Dominican Republic” (PRESICA), a diverse group of people carried out a collective process, based on producer needs, to begin using basic grain storage systems (metal silos). These systems use special equipment to strip corn cobs and store the grain, thus extending the useful life of the corn and as a result, overcoming technology problems, improving farmer access to markets and fetching potentially greater income. This technological innovation, promoted by the Dominican Agricultural and Forest Research Institute (IDIAF) in the region of San Juan de la Maguana, Dominican Republic, was designed to strengthen the local seed production system by endowing it with equipment and training. It succeeded in lowering the post-harvest losses that affected members of the local consortium who had no technology of this kind.

The case of the ‘Grupo Trigo’ Institutional or “soft” innovations could involve rewriting an organization’s “rules of the game” that affect the decisions, perceptions or actions of organization members (De Souza et al. 2001). An example of this kind of innovation is the case of the Grupo Trigo (Wheat Group), a strategic alliance of the Uruguayan National Agricultural Innovation Institute (INIA) and the National Consortium of Wheat Seed Producers (CNST), made up of seven large Uruguayan seedproducing cooperatives (Cadol, Calmer, Calprose, Calsal, Copagran, Unión Rural de Flores and Sociedad de Fomento Rural de Tarariras). The purpose is to combine INIA crossbreeding skills for developing genetic improvements in wheat with the capabilities of the country’s largest seed-reproducing and marketing sector. The Grupo Trigo is a forum for dialogue among producers, technical advisors, extension agents, seed marketers and Uruguay’s milling industry as a way to strengthen linkages with different participants in the wheat agro-industrial chain.

The case of the Research Institute for Foresight and Public Policies Another case is Argentina’s new Instituto de Investigación en Prospectiva y Políticas Públicas (IIPYPP) (Research Institute for Foresight and Public Policies) created by the Research and Development Coordinating Office of the National Institute of Agricultural Technology (INTA). It produces inputs for strategic and critical institutional thinking, develops skills among INTA personnel for forward thinking about the future of the Argentine agri-food system and provides INTA decisionmakers with the information and analysis they need for technology innovation processes.

The case of the dynamic rural development model Finally, social innovations are much more comprehensive and entail economic or social changes, and changes in networks or civil participation in a particular area or territory. An example of this type of innovation is the dynamic rural development model with an integrated and territorial approach in the Corporación VallenPaz, developed in Colombia’s Cauca Valley. This model centers around comprehensive development of rural communities through community organization, production organization and building linkages between the business sector and farmers, in territories that were taken over during armed conflict. The first step of the model was to weave a new social fabric by introducing residents into organic farming systems. This built trust among the people as social capital developed and small-scale producers gained credibility. As a result, farm families have boosted their income and improved their living conditions. The case of the local consortium of innovation These are separate examples of the different types of innovation; however, innovation usually results from a combination of technological, institutional and social changes. Another case study is the local consortium of agricultural technological innovation in the green pepper chain, an initiative implemented in the western-central region of Costa Rica. This project promoted all three kinds of innovation – technological, institutional and social – by building synergies and teamwork among the members of the consortium so as to offer the market a new variety of high-productivity, low-cost green-pepper seeds produced locally. The project combined the work of Institute of Agricultural Innovation and Technology Transfer (INTA), the

University of Costa Rica (UCR), the extension agencies of the Ministry of Agriculture and Livestock (MAG), the CoopeZarcero R.L. multi-services cooperative, the Zarcero association of greenhouse farmers (APROINZA), the women's association (AMUSAP), the agricultural center of the Santa Bárbara Canton and the agricultural center of the Alajuela Canton.

Officials of the Republic of Uzbekistan must search the solutions on the republics agricultural problems in experiences of world colleagues. We constantly need to try to implement the innovation process in the agricultural sphere. In the conditions of growing dynamics of social and economic changes and increasing pressure of the world economy, our country must, in the shortest time, implement an accelerated transition to an innovative way of agricultural development, restore this strategically important branch of the economy on a qualitatively new informational-technological basis that meets modern trends. Otherwise, our agricultural sector in Uzbekistan will lose its position among the producers or worse lose its competitiveness in this area and reaching to competitors in the struggle for consumers demand will be extremely problematic.

Conclusion

The usage of innovative technologies is not the only problem on the road to development, it is also necessary to attract resources for training highly qualified personnel to maximize the effectiveness of the use of innovative technologies. Also, the state needs to pay attention to the full support for researchers and scholars from Uzbekistan, since most of the innovations and modern technologies are acquiring from foreign countries, where the most suitable conditions for the development not only in the field of agricultural technology, but in all. Do not forget that financial incentives, benefits and subsidies also affect the frequency of inventions and innovations that increase the motivation for further development.

Innovation is a driver of economic growth and well-being in the countries. It is a dynamic, holistic process that generally occurs inside the agricultural innovation systems. If the work of diverse participants is strengthened – research, agricultural extension and other forms of support for innovation – the agricultural innovation systems can become more efficient and competitive. This can happen if all stakeholders can develop and strengthen their own capabilities, and if relationships among them are bolstered. The tools for achieving this will depend on the context or reality being addressed; this means there are no recipes for promoting a culture of innovation, but that solutions may arise from many different sources, stakeholders or types of innovations.

References:

1. World Bank. 2007a. World development report 2008: Agriculture for Development. Washington, D.C.
2. IICA (Inter-American Institute for Cooperation on Agriculture) and IDB (InterAmerican Development Bank). 2013. Impactful innovations: lessons from family agriculture in Latin America and the Caribbean. San Jose, CR.
3. Akramov Akmal "The role and importance of free economic zones in the innovative development of Uzbekistan's economy".
4. The main directions for further modernization and hanging the competitiveness of the national economy. VII Forum of Economists.
5. www.stat.uz
6. ru.sputniknews-uz.com
7. www.agro.uz/en/

Supervisor

Senior lecturer. Allaeva R.R.

QISHLOQ XO'JALIGIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA INVESTISION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH

Ibroximov U.I. – talaba, TIQXMMI

Аннотатсия

Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va innovatsiyalarni jalb etishda eng kerakli bilimlardan biri chet tillarining nechog'lik ahamiyatli ekanligi yoritilgan.

Insonning kundalik turmush tarzi texnika-texnologiya bilan bog'liqdir. Shu sababli texnika-texnologiya iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning negizidir. Xozirgi davrda yoshlarning bilim darajasi, ta'lim va fan soxalarining rivojlanganligi investitsiyaning samaradorligi, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy etish jamiyat va iqtisodiyot taraqqiyotining zaruriy shartiga aylandi. Qishloq xo'jaligi soxasining mamlakat salohiyatini yuksaltirishdagi o'rni asosiy omillardan biridir. Ta'lim va qishloq xo'jaligi soxasining rivojlanganlik darajasi sotsial-iqtisodiy tizimining o'zaro bog'liq elementlari sifatida bir-biriga ta'sirining kuchayib borishi asosida ta'lim soxasida qilinayotgan xarajatlar mamlakat farovonligining manbaiga aylanganligi ta'lim soxasining mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili ekanligidan dalolat beradi. Bundan ko'rinib turibdi-ki qishloq xo'jaligida ta'limning o'rni muhim sanaladi ya'n ta'lim soxasi qishloq xo'jaligigiga yuksak bilimli va raqobatbardosh kadrlarni yetkazib beruvchi asosiy tashkilot vazifasini bajaradi. Yurtimizda xar bir soxani rivojlantirishga juda katta etibor berilmoqda qishloq xo'jaligi soxasi ham bundan mustasno emas.

Qishloq xo'jaligi soxasi yangi texnika-texnologiyalarni joriy etish ulardan samarali foydalanishda yosh kadrlarning bilim darajasi ayniqsa chet tilini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni qo'llash, investitsiya kiritish hamda ularni amalyotda qo'llash uchun aynan o'sha texnika-texnologiyaning ishlash prinsipini bilish emas balki uni qaysi joyda qo'llasa ko'proq unumdorlikka erishish mumkinligini ham bilish lozim. Buning uchun esa ishlab chiqaruvchi yoki horijiy investor bilan o'zaro muloqot qilishga to'g'ri keladi. Xammamizga ma'kum-ki barcha soxalar kabi qishloq xo'jaligi soxasida ham texnologiyalar chet davlatlardan olib kiriladi. Uni olib kirish va qo'llashda malum yo'riqnoma va qoidalar mavjud bular esa bugungi kunda dunyo tili darajasida hisiblan ingliz tilida yoziladi va o'sha texnika-texnologiyaning funksiyalri ham aynan chet tilida bo'lishi turgan gap agarda biz chet tilini bilmay turib uni qo'llasak jiddiy muommoga duch kelishimiz yoki kutgan natijamizni ololmasligimiz mumkin [2].

Qishloq xo'jaligini yuritishning yangi sharoitlarida malakali ishchi kuchiga qo'yiladigan talablarga o'zgartirish kiritish kerak. Xususan qishloq xo'jaligi soxasidagi xodim bilimlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda ishiga ijobiy yondosha oladigan, ingliz tilidagi zarur axborotlarni sifatli tahlil etishi va umumlashtirishi, olingan axborotlardan samarali foydalana olish lozim. Yurtimizda qishloq xo'jaligi soxasiga katta etibor berilmoqda. Qishloq xo'jaligi istiqboli har jixatdan olib qaraganda malakali kadrlar qo'lida.

Qishloq xo'jaligi soxasining samaradorligini oshirish muommosi muhim va ayni paytda yetarli darajada o'rganilmagan masala bo'lib xisoblanadi. Yaqin 2 yil ichida qishloq xo'jaligi soxasidagi oliy talim muassalari qaytadan tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi prizidentining 2018 yil 8 maydagi qaroriga muvofiq qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlari , ularning ilmiy tadqiqot institutlari oliy va o'rta maxsus talim vazirligiga o'tkazildi.

Qishloq xo'jaligi bozorida ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlarning taxlili natijalarini umumlashtirish asosida ushbu soxadagi kamchiliklar aniqlandi. Mazkur soxadagi asosiy kamchilik bu moddiy texnik bazaning eskirganligi, yangi texnika-texnologiyalar bilan ishlash uchun mutaxassislar bilimining yetarli eamsligi asosiy kamchiliklardan biridir.

Qishloq xo'jaligini kadrlar bilan ta'minlovchi oily o'quv yurtlari o'quv dasturlariga qishloq xo'jaligida innovatsion texnika-texnologiyalar bilan ishlash va faol investitsiyalarni jalb

etish qishloq xo`jaligi soxasini tubdan rivojlantishi bunung uchun esa chet davlatlar tilini bilish muhim ro`l o`ynashini talabalarga singdirishi va ularga chet tillari darslari soatlarini ko`paytirishi lozim. Ze`ro chet el texnologiyasiga talabning mavjudligi o`quv muassasalaridagi resuslarni ushbu talabni qondirishga yo`naltirish imkonini beradi, bu esa qishloq xo`jaligi kadrlari bilim sifatini oshishiga olib keladi.

Keyingi ikki yilda qishloq xo`jaligida tub islohotlar, tarkibiy o`zgarishlar amalga oshirildi. Sohada bozor munosabatlarini joriy etish, qayta ishlash va eksport infratuzulmasini rivojlantirish bo`yicha juda ko`p ishlar amalga oshirildi. Fermer va dehqonlarning daromadini oshirish maqsadida yangicha tizim joriy qilinib, ko`plab dolzarb masalalar hal etilmoqda. Yetarli miqdorda mablag` bilan taminlash bo`yicha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qishloq xo`jaligidagi kompleksidagi eng asosiy masalalardan biri eksportbop meva-sabzavotlar yetishtirish va uni eksport qilishdir. Ammo qishloq xo`jaligi vazirligi, "O`zbekoziqovqatxolding" kompaniyasi hudular rahbarlari bilan tizimli ish olib bormayotgani oqibatida eksport prognozini to`liq ta`minlay olmaslik xavfi mavjudligi qayd etildi. Shu bois har bir hudud bilan eskport va innovatsiya tizimli vazifasi qo`yildi. Shu bilan birga kelgusi ikki yil davomida innovatsion texnologiyalarni va invitsitsiyalarni jalb etish bo`yicha rejalar belgilandi [1].

Xulosa

Xulosa qiladigan bo`lsak O`zbekistonning iqlim sharoiti sifatli mahsulotlar yetishtirish imkonini beradi. Lekin bu imkoniyatlardan unumli foydalanishimiz kerak. Qishloq xo`jaligi tizimidagi muommolarga jiddiy yondoshish vaqti keldi va rivojlangan davlatlarning ilg`or tajribalaridan andoza olgan holda rijonlantirish kerakligi bugungi kunning dolzarb rejaladan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.xabar.uz
2. Qishloq xo`jaligi texnikalarini rivojlantirish - Abdurahmonov S, Toshkent- 2018

Ilmiy rahbar

Xolmurodova E.X

DUNYODAGI SUV TANQISLIGI MUAMMOSINING IQTISODIYOTGA TA`SIRI

Imilov SH. – talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Suv dunyoning barcha mamlakatlari uchun muhim strategik manba bo`lib, ko`plab siyosiy to`qnashuvlarning sababi hisoblanadi. Jahonning taxminan 50 mamlakati, yoki dunyo aholisining uchdan bir qismi suv tanqisligidan aziyat chekmoqda, ulardan 17 tasi har yili tabiiy tsikllardan ko`ra ko`proq suv iste`mol qiladi. Suv dunyoning barcha davlatlari uchun muhim strategik manba bo`lib, istisnosizdir va hozir ko`plab nizolar va siyosiy nizolarning asosiy sababidir.

Suv tanqisligi muammosi dunyodagi har qanday darajada eng jiddiy xatarlardan biri hisoblanadi: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ekologik. Iqlim o`zgarishi o`sib borayotgan aholiga suv etkazib berishga qaratilgan sa'y-harakatlarga putur etkazadi. Tabiiy resursni tegishli infratuzilma bilan barqaror boshqarishda zaruriyatni ta`kidlab, dunyoning alohida qismlarida muammo bo`lib qolmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko`ra, suv er sirtining 71 foizini qoplagan bo`lsa-da, faqatgina 4 foizi toza suv va bu suvning atigi 0,5 foizi inson iste`moli uchun javob beradi. 2.1 milliard kishi hali ham ishonchli boshqariladigan ichimlik suvi va 40 foiz global aholi

suv tanqisligiga uchraydi. Qurg'oqchilikka uchragan mintaqalar, 2016 yilgi Avstraliyadagi suv qashshoqligi va qurg'oqchilik sammitida taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, yalpi ichki mahsulot (GSYH) 2050 yilga kelib 6 foizga kamayganini ko'rishlari mumkin edi. Shu bilan birga, suv resurslarini boshqarishga qodir bo'lganlar, o'sha davrda ularning yalpi ichki mahsuloti 6 foizga o'sganini ko'rish mumkin. Tuzli suvning kamroq mavjudligi va uni ko'proq ishlatish 2050 yilga qadar shaharlar uchun mavjud bo'lgan miqdorni uchdan ikki qismga qisqartirishi mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining taxminan 50% ga oshishi bilan, 2030 yilga borib, suvga talab 40-50 gacha o'sishi mumkin. Suvdan borgan sari intensiv foydalanish 2050 yilga qadar shaharlardagi mavjud suvlarning uchdan ikki qismini qisqarishiga olib keladi. 2030 yilga qadar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 50 foizga oshib, suvga bo'lgan talab 40-50 foizga oshadi. Suv tanqisligi muammosi: Tojikistonda hal qilindi. [1].

Tojikiston prezidenti Imomali Rahmonning U.N. umumiy kengashida xalqaro hamkorlikka - "suvdivilomiya" deb ham ataladi. Uning so'zlariga ko'ra, xalqaro tashkilot o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun faqat mana shu tarzda erishilgan bo'lishi mumkin. Suv tanqisligi uning mamlakati va Markaziy Osiyodagi qolgan muammolardan biridir. Mintaqa uchun eng muhim suv manbai - Orol dengiziga oqib o'tuvchi Amudaryo va Sirdaryo.

Ular taxminan 77 kub kilometr suvga ega, ularning 96 foizi sug'orish uchun ishlatiladi. O'z navbatida daryolar tog'li hududdagi muzliklar tomonidan oziqlanadi. Ammo mintaqaviy yangiliklar saytida aytilishicha, muzliklar 2050 yilgacha globallashtayotgani tufayli daryolarning oqimini pasayishiga olib keladi. Tojikiston kabi sakkiz million aholisi va erining faqat 7 foizi olib keladigan mamlakat uchun bu falokat keltirishi mumkin. U allaqachon fermerlikni qo'llab-quvvatlash uchun suvni to'ydirmoqda va minglab oilalarning har qishda zarar ko'rmasliklarini va ularni nur va issiqlikdan mahrum qilishlarini oldini oladi. [2].

Shuning uchun mamlakat Rog'un to'g'oni Pamir tog'li hududida Vaxsh daryosida qurilayotganiga umid qilmoqda. 335 metr balandlikdagi dunyoning eng baland to'g'onlari nafaqat mamlakat suvini yaxshi boshqarishga, balki energiya ishlab chiqarishni ikki barobarga oshirishga yordam beradi.

Masalan Las-Vegas yaqinidagi Mead ko'li ostidagi tunnelni qazib olish uchun suvni boshqarish ham sabab bo'ldi. Bundan tashqari, Salini Impregilo tomonidan qurilgan suv, ko'lining pastki qismida joylashgan, tunnel bilan oziqlanadigan trubadan chiqariladi va keyin shaharga borishdan oldin tozalash inshootiga yuboriladi. Ko'lining pastki qismidan suv olib, shahar qurg'oqchilik paytlarida ko'lining sirt darajasi kamayib ketganda quruqlashib ketish xavfi yo'q. Bu dunyodagi suv tanqisligi muammosiga duch keladigan hal etishning haqiqiy va samarali misoldir.

Orol dengizi muammolari va Markaziy Osiyo suv resurslari: markaziy Osiyoning 62 million aholisi va yaqin mamlakatlarda yashovchi yaqin tarixdagi eng katta global ekologik falokatlardan biri Orol dengizining ekologik, iqlim, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar oqibatlarida yuzaga kelgan fojia bo'lib, mintaqada barqaror rivojlanishga, sog'liqqa, genofondga va istiqomat qilayotgan odamlarning kelajagiga tahdid qilmoqda. Bir paytning o'zida noyob, chiroyli va dunyodagi eng yirik yopiq suv havzalaridan biri bo'lgan Orol dengizi, umuman yo'q bo'lib ketish ehtimoli bo'lgan va u erda yashayotgan aholi hayotiga misli ko'rilmagan falokatga va tuzatib bo'lmaydigan ziyonga aylandi. Orol dengizining ekotizim va biologik xilma-xilligi. 1960 yilgacha Orol dengizi 68,9 ming kv.km maydonga ega bo'lib, suv hajmi 1083 kub kmni tashkil etdi, uning uzunligi 426 km.ga, kengligi 284 km.ga etdi, eng katta chuqurlik esa 68 m. Orol dengizi mintaqasi turli xil o'simlik va hayvonot dunyosiga ega bo'lgan, 38 ta baliq va Orol dengizi havzalarida yashovchi bir nechta hayvon turlarining hududi bo'lib, sayg'oqlar soni 1 millionga yetdi, floristik tarkib 638 turni tashkil etadi. Bundan tashqari, Orol dengizi mintaqaning iqtisodiyotini, uning ishlab chiqarish tarmoqlarini, aholini ish bilan ta'minlash va barqaror ijtimoiy infratuzilmani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. O'tmishda dengiz dunyoda baliq ovlashning eng badavlat yerlaridan biri edi: Orol dengizining suv omborlarida yiliga 30-35 ming tonna baliq ovlangan. Orol dengizi qirg'og'idagi aholining 80 foizdan ortig'i baliq va baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va tashish bilan shug'ullangan.

Suv omborlari qishloq xo'jaligini rivojlantirishda muhim o'rin egallab, asosan sug'oriladigan dehqonchilik olib boriladigan bizning mintaqada vegetatsiya davrida uchrab turadigan suv tanqisligini bartaraf etib, gidromeliorativ tarmoqqa bir maromda suv etkazib berish muammosini hal etib qolmay balkim gidroenergetika, baliqchilikni rivojlantirish, yirik sanoat korxonalarini va shaharlardagi suv ta'minotini yaxshilash maqsadida foydalanilmoqda. Suv resurslarini boshqarishda suv omborlari muhim rol o'ynar ekan, buning uchun suv omborlari orqali suv iste'molchilari va foydalanuvchilarni uzluksiz suv bilan ta'minlashda suv omborlarida suv zaxiralarini yaratish va samarali ish rejimini ishlab chiqish talab etiladi. Buning uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

- suv omborlarida suv zahirasini yaratish, barcha iste'molchilarni suv bilan ta'minlash va davlat rejasini bajarish maqsadida suv omborining texnik qurilmalarini kundalik tezkor boshqarish;

- suv omborlaridan foydalanish, uni ta'mirlash, rekonstruksiya qilishda xavfsizlik normalari va qoidalariga rioya etilishini ta'minlash;

- inshootlarning holatini kuzatish va nazorat qilish hamda ularni ishchi holatida saqlash;

- suv omborlari inshootlarining holati, ularga tabiiy va texnogen ta'sirlar ustidan nazoratni ta'minlash;

- suv omborlarida ishlovchi xodimlarning malakasi me'yorlarga va qoidalarga muvofiq bo'lishini ta'minlash;

- mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda aholini suv ombori xavfsizligi masalalari to'g'risida xabardor qilib borish;

- suv ombori avariyasining oldini olish masalalari bo'yicha favqulodda vaziyatlar organi bilan hamkorlik qilish;

- suv omborining avariyasi xavfi borligi haqida gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organ, boshqa manfaatdor davlat organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini va suvning (to'g'onning) saqlab turish bosimi yorib o'tishining bevosita xavfi

bo'lgan taqdirda suv ostida qolish ehtimoli bo'lgan zonadagi aholini, korxonalar va tashkilotlarni darhol xabardor qilish; [2].

Xulosa

Suv ombori zaxirasidagi suvdan tejamli foydalanishni amalga oshirishda va iste'molchilarni ishonchli suv bilan ta'minlashda zahiradagi suv miqdorini aniq bilish lozim. Buning uchun esa suv omboridan yo'qotilayotgan suv miqdorlarini, ya'ni bug'lanishga va filtratsiyaga isrof bo'layotgan hamda har yilgi loyqa-cho'kindilar cho'kishi hisobiga to'xtovsiz kamayib borayotgan foydali hajmini aniqlash zarur. Yuqordagi tadbirlarni amalga oshirish orqali mavjud suv omborlari zahirasiidagi suvdan samarali foydalanishga va iste'molchilarini ishonchli suv bilan ta'minlashga erishilib, suv omborlarini suv resurslarini boshqarishdagi roli ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Suv omborlaridagi inshootlar texnik holatini kuzatish va baholashni o'tkazish bo'yicha qo'llanma" TIMI qoshidagi ISMITI-Toshkent-2012.-80 b.
2. F.H.Hikmatov, Z.S.Sirliboeva, D.P.Aytbaev. Ko'llar va suv omborlari. Toshkent "Universitet"- 2000 y, 37-b.

Ilmiy rahbar

kat., o'qit. Yuldasheva I. Z.

SUVDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY NORMALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING IQTISODIY TAHLILI.

Nuraliyev S.R. - talaba, Toshxodjayeva G.S.- asistent, TIQXMMI

Annotatsiya

Bu maqolada "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" qonun, uning bugungi kundagi o'rni hamda suvdan samarali foydalanishdagi say-harakatlarning natijasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari suvdan foydalanish madaniyatini shakllantirish uchun yana qanday ishlar amalga oshirilishi zarurligi yuzasidan takliflar keltirib o'tilgan.

Tabiat boyliklari orasida suv alohida o'rin tutadi. Chunki barcha tirik jonzorlar hayotining asosiy manbai suvdur. Suvsiz hayot bo'lishi mumkin emas. Hattoki ota bobolarimiz suvni toza saqlashga, undan oqilona foydalanishga alohida e'tibor berganlar. Har doim odamlarni suv bilan ta'minlash masalasi muammo bo'lib kelgan. Hattoki, hozirgi paytda ham Gretsiya, Gollandiya, Germaniya, Shveysariya, AQSH va boshqa ko'plab mamlakatlarda ichimlik suvi bilan ta'minlash bosh masaladir.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida va ekologik tanglik bor paytda mustaqil O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tabiatning barcha boyliklari qatori, suv resurslariga ehtiyojlari benihoya katta. Kelajak avlodimizning taqdiri, baquvvatligi, sog'ligi obi-hayotimiz bilan bog'liq ekan, demak, ayni shu kunlarda qabul qilinayotgan suv tog'risidagi qonun, qaror va farmonlar, suv boyliklaridan oqilona foydalanish, uni bulg'anish va ifloslanish hamda kamayib ketishidan saqlash ishiga ko'maklashishi lozim. Asosan suv resurslarini huquqiy ekologik muhofaza qilish maqsadida huquqiy ilmiy yo'nalishni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Yuqoridagi talablar hamda suv resurslaridan foydalanish va ularni huquqiy muhofaza qilish, umuman olganda suv resurslari bilan bog'liq barcha muammolar, O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi 1993-yil 6-mayda qabul qilingan qonunida o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-mayda qabul qilingan "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga asosan, "Suv O'zbekiston Respublikasining

davlat mulki – umummilliy boylik hisoblanadi, suvdan oqilona foydalanish lozim bo'lib, u davlat tomonidan qo'riqlanadi" [1].

Ob-hayotdan foydalanishdagi boshboshdoqlik va mas'uliyatsizlik yomon oqibatlariga olib kelishini O'rta Osiyoda tashkil topgan mustaqil davlatlar hamda Qozog'iston Respublikasi melioratsiya va suv xo'jaligi xizmati rahbarlari obdon mulohaza qilib ko'rdilar. Bu masalaning ahamiyati va murakkabliklarini tushunib yetdilar. 1992-yilning 18-fevralida Qozog'iston Respublikasi poytaxti Olmaota shahrida mintaqadagi davlatlararo suv zaxiralarini birgalikda boshqarish va muhofaza qilish yuzasidan ahdlashuvga kelishildi. Ahdnoma hujjatini O'rta Osiyo respublikalari hamda Qozog'iston Respublikasi Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirlari imzoladilar. Hujjatda suv manbalaridan oqilona foydalanishga, suv zaxiralarini muhofaza etishda mintaqadagi barcha davlatlar teng huquqli hamda baravar mas'uliyatga ega ekanliklari ko'zda tutildi. Har bir respublika o'z hududida ahdnomaga asosan amal qilish majburiyatlarini oldi. Jumladan, ahdlashuvchi tomonlarning manfaatlarini hurmat qilish, suvdan foydalanishda bir-biriga ziyon yetkazmaslik, suvdan foydalanish va uning zaxiralarini ifloslantirmaslik haqida ahdnomada ko'zda tutilgan talablarga og'ishmay amal qilish majburiyatlari nazar e'tiborda tutiladi, deb kelishib olindi. Tomonlar suvni isrof qilmaslik, bu bebaho boylikdan samarali foydalanish xususida, shuningdek, ekologiya muammolari, Orol dengiziga har yili zarur miqdorda suv o'tkazib turish haqida bamaslahat bir fikrga keldilar. 1993-yil 6-mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuni qabul qilinib u suv va suvdan foydalanishga doir munosabatlarni tartibga solishdan, aholi va xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanishdan, suvni bulg'anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlashdan, suvning zararli ta'sirini oldini olish va uni bartaraf qilishdan, suv obyektlarining holatini yaxshilashdan, shuningdek suvga doir munosabatlar sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, dehqon xo'jaliklari va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdan iborat bo'ldi. Mazkur, qonunda birinchi marta yagona davlat suv fondi masalasi ko'rsatib berildi. O'zbekiston Respublikasining yagona davlat suv fondi:daryolar, ko'llar, suv omborlari, boshqa yer usti suv havzalari va suv manbalari, kanal va hovuzlarning suvlaridan; yer osti suvlari va muzliklardan iboratdir. Davlatlararo daryolar – Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryosi, Orol dengizi va boshqa suvlardan foydalanish huquqi davlatlararo bitimlarda belgilab beriladi. (4-modda). Shuningdek, qonunda davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari ham aniqlik ko'rsatildi. Jumladan qonunning 5-moddasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari quyidagicha ko'rsatildi: suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi qonunlarni qabul qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish; suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda suv xo'jaligiga oid strategik davlat dasturlarini qabul qilish [2].

Suvdan foydalanish huquqi tushunchasi asosan ikki holat bilan ko'proq bog'liq. Birinchidan, u suv huquqining asosiy institutlaridan biri bo'lib, suv va suvdan oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish hamda suv bilan bog'liq barcha muammolarni o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, suvdan foydalanish va uni muhofaza etish bilan bog'liq bo'lgan suv foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari bilan bog'liq. Asosan suvdan foydalanish huquqi ko'proq suvdan foydalanish huquqini paydo bo'lishi va bekor bo'lish asoslari bilan ham bog'liqdir. Suvdan foydalanish huquqi bir qator prinsiplarga asoslanadi:

- suv resurslaridan oqilona foydalanish; suv resurslarini muhofaza qilish;
- suv qonunchiligi bilan birga boshqa barcha ekologik qonunlarni o'z vaqtida, kechiktirmay amalga oshirish va bajarish;
- suvdan foydalanish bilan bog'liq xalqaro shartnomalar va konvensiyalarni o'z vaqtida bajarish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonunning 21-moddasiga ko'ra: "Suv obyektlari aholining ichimlik suvga bo'lgan ehtiyojlarini, maishiy davolash; kurort, sog'lomlashtirish, hordiq chiqarish va boshqa ehtiyojlarini, qishloq xo'jaligi, sanoat, energetika, transport, baliqchilik xo'jaligi hamda boshqa davlat yoki jamoat ehtiyojlarini

qondirish uchun qonunlarda ko'zda tutilgan talablar va shartlarga rioya qilingan holda foydalanishga beriladi. Suv obyektlari ayni bir vaqtda bitta yoki bir nechta maqsadlarda foydalanishga berilishi mumkin. Respublikamiz sharoitida foydalanadigan suv resurslarining asosiy qismi qishloq xo'jaligida sug'orish maqsadlarida ishlatiladi. Uning qismidan esa sanoatda hamda maishiy va kommunal maqsadlarda foydalaniladi. Ana shu har uchala yo'nalish ham yildan-yilga ko'proq suv talab qilmoqda. Natijada yurtimizda suv muammosi tobora jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Bunday sharoitda suvni tejab-tergab ishlatish, uning behuda ketishiga yo'l qo'ymaslik, qaytarma va oqava suvlardan unumli foydalanish, eng muhimi – suv manbalarini ifloslanishdan va ortiqcha minerallanishdan saqlash talab qilinadi. Bundan tashqari ushbu qonunning 22-moddasiga asosan, suvdan foydalanish turi ikki xil deb ko'rsatilgan. Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratining vazifasi suvdan foydalanish borasida belgilab qo'yilgan tartibi barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, dehqon xo'jaliklari va fuqarolar rioya qilishlari, suvni muhofaza qilish, suvning zararli ta'sirini oldini olish va bartaraf qilish vazifalarini, suvni hisobga olish qoidalarini, shuningdek suv to'g'risidagi qonunlarda belgilab berilgan boshqa qoidalarni bajarilishini ta'minlashdir. Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi amalga oshiradilar. Suvdan foydalanish ustidan idoraviy nazoratni O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi organlari amalga oshiradilar.

Bundan tashqari, suvdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda jamoat birlashmalari, jamoalar va fuqarolarning ishtiroki ahamiyatlidir. Jamoat birlashmalari, jamoalar o'z nizomlariga muvofiq hamda fuqarolar suvdan oqilona foydalanish va uni muhofaza bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlariga ko'maklashadilar. Bu tadbirlarni o'tkazishda davlat organlari jamoat birlashmalari, jamoalar va fuqarolar takliflarini hisobga oladilar. Xullas, suv resurslaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza etish ustidan davlat boshqaruvi hamda nazoratini olib borish katta ahamiyatga ega bo'lib, suv resurslaridan oqilona foydalanishni, tejab-tergash va uni musaffoligini saqlashni hamda har qanday nojo'ya ekologik huquqbuzarliklarni oldini oladi.

Foydalanilayotgan suvning umumiy miqdori o'tgan asrning 80 yillariga nisbatan yiliga 64 mlrd/ m3dan o'rtacha 51 mlrd/ m3 (o'rtadagi farq — 13 mlrd. metr kub)gacha kamaytirildi;

Jami sug'oriladigan 4,3 mln. gektar yer maydonini suv resurslari bilan ta'minlashda 180 ming km sug'orish tarmoqlari, 160 ming dona suv xo'jaligi inshootlari, shu jumladan 800 dan ortiq yirik gidrotexnik inshootlar, umumiy hajmi 19,2 mlrd/m3 bo'lgan 55 ta suv omborlari, yillik elektr energiyasining umumiy sarfi 8,2 mlrd.kVt quvvatga teng 1614 ta nasos stansiyalari, 4124 ta tik sug'orish quduqlari faoliyat ko'rsatmoqda;

Suv resurslarini ma'muriy boshqaruv tamoyilidan havzaviy boshqaruv tamoyiliga o'tkazilishi suvni samarali boshqarish va adolatli taqsimlash imkonini beradi. Hozirda 10 ta irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, 63 ta irrigatsiya tizimlari va magistral kanallari boshqarmalari faoliyat yuritib kelmoqda. Shuningdek, dehqon va fermer xo'jaliklari o'rtasida suv munosabatlarini tartibga soluvchi 1501 ta Suv iste'molchilari uyushmalari tashkil etildi [3].

Xulosa

Bunday holat o'z-o'zidan mavjud suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni tashkil etish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo'jaligi inshootlari texnik holatini yaxshilash va ularni modernizatsiya qilish, suvni tejash texnologiyalarini keng ko'lamda joriy etish, suv xo'jaligi tashkilotlarining texnik bazasini mustahkamlash, suv iste'molchilari uyushmalari faoliyatini yanada yaxshilash, soha mutaxassislarining malakasini oshirishga qaratilgan islohotlarni taqozo etadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun tegishli

huquqiy asoslar yaratilishi zarur bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, bu borada amalga oshirilgan yangilanishlar mohiyati suv resurslari bilan bog'liq butun jabhani modernizatsiya qilish orqali dunyo taraqqiyotiga uyg'unlashuvi bilan izohlanadi. Bunda xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. www.lex.uz
2. www.uzgidro.uz
3. "O'zsvovloyiha" jamiyati rasmiy veb sayti.

QISHLOQ XO`JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH VA SOTISH TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Nusratov A.S, Saidmurodov Sh.H talabalar TIQXMMI

Annotatsiya

Bu maqolada qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va ularni sotish tarmoqlarini rivojlantirish masalalari, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish yo'llari, yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ushbu sohada yo'l qoyilayotgan muammolar va ularni ijobiy hal etish to'g'risida takliflar bayon etilgan.

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida qishloq xo`jaligida turli mulkchilka asoslangan xo`jalik yurutuvchi subyektlar yuzaga kelib rivojlanmoqda. Agrar sektorda fermer va dehqon xo`jaliklarining miqdori va ishlab chiqarishdagi ulushlari ortib bormoqda. Ayniqsa, iste'mol bozorini sabzavot va turli xil mevalar bilan ta'minlashda ularning hissasi juda kattadir.

Respublikamizda yildan – yilga meva va sabzavotlar yetishtirish ortib bormoqda. Meva va sabzavotlarning sifati, bir tomondan, ularning turi va naviga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan ularni terish va uzish muddatlari ha saralash, tovar holatiga keltirish, joylash, tashish, saqlash usullariga to'liq rioya qilib borishga ham bog'liqdir. Shu sababli ho'l meva, sabzavot va uzumni imkoni boricha yuqori sifatli holda uzoq vaqt saqlash asosiy vazifadir. Bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo`jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qishloq xo`jaligining ishlab chiqarishida yirik tovar xojaliklari qatorida ko'p sonli aholi, fermer va dehqon xo`jaliklarining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi bu sohada mahsulot tayyorlash tizimini ham tubdan yangilanishga undamoqda. Chunki qishloq xo`jaligida mahsulot yetishtirish bilan bir qatorda uni tayyorlash, saqlash, qadoqlash va iste'molchilarga yetkazib berish muhim ahamiyatga egadir. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini saqlashdan asosiy maqsad xom ashyoning pishib yetilgunga qadar to'plagan barcha inson organizmi uchun foydali bo'lgan moddalarni saqlab qolish va iste'molchiga yetkazishdir. Meva va sabzavotlarni saqlash asosiy vazifa ularning fizikaviy va kimyoviy tarkibini, ya'ni tashqi ko'rinishi, rangi, mazasi hamda oziq-ovqatlik qiymati va boshqa xususiyatlarni saqlab qolishdan iborat. Shu sababli meva sabzavotlarni saqlash va qayta ishlashni to'g'ri va ilmiy asosda tashkil qilish umuman olganda aholini yil mobaynida meva va sabzavotlarga bo'lgan talabini qondirishdan iborat. Ayniqsa, tez buziladigan va transportda tashishi noqulay bo'lgan mahsulotlarning qishloq xo`jaligida yetishtirilishi mahsulot bozoriga xizmat ko'rsatish tizimida raqobat muhitini kuchayishini taqozo etadi. Moddiy ishlab chiqarishning eng dastlabki va yirik sohasi – qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdir.

Qishloq xo`jalik mahsulotlarini yetishtirish miqdori ortib brogan sari ularni saqlash va qayta ishlash ham to'g'ri yo'lgan qo'yilishi kerak., buning uchun esa yangi zamonaviy

omborxonalar va qayat ishlash korxonalarini bunyod etilishi, qolaversa bu boradagi fan-texnika va ilg`or texnologiyalarnitadbiq etish, xorij tajribalarini o`rganib ishlab chiqarishga keng joriy etilishi oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Saqlash sohasini rivojlantirish, zamonaviy omborxonalar barpo etish, ularni jihozlashda zamonaviy texnikalar va texnologiyalardan keng foydalanish, yetishtirilgan mahsulotlar nobudgarchiligining oldini olish va sifatining buzilishini kamaytirish orqali mikroiqtisodiyot darajasida fermerga va xizmat ko`rsatish sohasi korxonalariga, makroiqtisodiyot darajasida esa jamiyatga katta miqdorda ijtimoiy-iqtisodiy daromad olish imkoni yaratiladi. Yetishtirilgan mevaning ko`p qismi bozorga yetmay nobud bo`layotgan bir sharoitda, ichki bozorga import qilingan mevalar kirib kelishi kuzatilmoqda. Shu bois bog`dorchilik sohasini rivojlantirishda mahsulot sotish tizimini takomillashtirish zarurati ortmoqda. Bu sanoat tarmoqlari nafaqat aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo`lgan ehtiyojini qondirish va mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi, balki aholining salmoqli qismi uchun ish bilan ta`minlash va daromad olish manbai hamdir. Shuningdek, bu tarmoqlarning izchil va barqaror sur`atlari bilan rivojlanishi mamlakatimiz iqtisodiyotini industrlashtirish asosida yuqori qo`shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni ko`paytirish, iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish va uning raqobatbardoshligini ta`minlash hamda mamlakatimizning eksport salohiyatini mustahkamlashga imkon yaratadi. Hozirgi kunda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va iste`molchilarga yetkazib berish jarayonlarida integratsion aloqalarning kuchayishi kuzatilmoqda. Bu jarayonda agroklasterning alohida o`rni borligini ta`kidlash lozim. Klaster deganda biror turdagi mahsulotni ishlab chiqarishning texnologik zanjirida ma`lum ixtisoslashuv va mehnat taqsimotiga ega hamda yagona maqsad yo`lida uyushgan korxonalar tizimi tushuniladi [2].

Bugungi kunda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini eksport qilish bilan shug`ullanadigan respublika tuzilmalari tarqalib, sinov va xatolardan o`tib kelmoqda. Bu tizimda markaziy rol o`zbek fond birjasi va qishloq xo`jaligi mahsulotlari uchun talab va taklifning kontsentratsiyasi vositasi sifatida mamlakatlar import fond o`ynash kerak. ular birgalikda, uning bozor ishtirokchilarining mavjudligi va oshkoraligini ta`minlash uchun hal etish mexanizmidan foydalanish va almashish kamerasini tozalash tovarlar yetkazib berish va to`lovlarni ta`minlash uchun ishlab chiqaruvchilar va qishloq xo`jaligi mahsulotlarini iste`molchilar o`rtasidagi munosabatlar tizimini qurishga yordam beradi.



1-rasm. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining eksport sanoati

Shu nuqtai nazardan meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va sotish tizimini taraqqiy ettirish davomida sotish sohasini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlab uni sotishda oziq-ovqat bozorlari iste`mol tovarlari bozorlarida muhim o`rin egallaydi.

Xo`sh, oziq – ovqat bozori nima va uning qanday afzalliklari bor?

Oziq-ovqat bozori – bu oziq-ovqat mahsulotlarini ayriboshlash va taqsimlash jarayonida yuzaga keladigan sotuvchilar va xaridorlar o`rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Bu tizim qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, dastlabki va chuqur qayta ishlash hamda chakana va ulgurji savdo tuzilmalari orqali iste`molchilarga yetkazib berishni o`z ichiga oladi. Oziq -ovqat bozorlarida oziq-ovqat tovarlari bilan oldi-sotdi munosabatlari amalga oshiriladi.

Bozorda sifatli va chiroyli mahsulotga talab yuqoriligini hisobga olgan holda aytish mumkinki, ichki va tashqi bozorni o'zlashtirish ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifati va tashqi ko'rinishi bilan bog'liq. Bunda mahsulotlarni navlarga ajratish, o'rash, qadoqlash va iste'molchiga o'z vaqtida yetkazib berish katta ahamiyatga molik.

Ammo, mamlakatimizda bu sohada ulkan salohiyat shart – sharoit bo'lishiga qaramay, bu boradagi imkoniyatlarning juda kam qismidan foydalanilmoqda. Shu o'rinda qishloq xo'jaligi sohasida malakali kadrlarning yetishmasligi hozirgi kun muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2018 yil 12 dekabr kunidagi Murojaatnomasida “ Agrar sohadagi eng katta muammo – fermerlarning qishloq xo'jaligi sohasida yetarli bilimga ega emasligidir. Bizga qishloq xo'jaligi texnologiyalarini mukammal egallagan, zamonaviy ishlab chiqarish va innovatsiya usullaridan xabardor fermerlar suv bilan havodek zarur. Qishloq xo'jaligidagi islohotlardan maqsad – iqtisodiy foyda ko'rish bilan birga, oziq – ovqat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir” deb ta'kidlab o'tgan [0].

Xo'sh, bunday muammolarni ijobiy hal etish uchun nimalarga ahamiyat berishimiz va nima ishlar qilishimiz kerak?

Birinchidan, mahsulotlarni saqlashni tashkil etish paytida bir yo'la saralash, idishlarga joylash jarayoni olib borilishi qator qulayliklar yaratadi. Mahsulotlar sifati va o'lchamlari bo'yicha saralanishi natijasida ulgurji va chakana xaridorlarga o'zlariga ma'qul bo'lgan sifat va hajmdagi mahsulotlarni omborlarning o'zidan xarid qilish va katta miqdordagi vaqtni tejash imkonini beradi. Yirik omborxonalarda yuk ko'tarish, saralash, ortish va tushurish ishlarini mexanizatsiyalash darajasini oshirish imkoni tug'iladi. Ikkinchidan, mevalarni bino ichida havo oqimi boshqariladigan, suniy sovutiladigan, harorat va namlik darajasi kompyuter tizimi orqali nazorat qilinadigan yirik omborxonalar barpo etish lozim. Kichik hajmdagi mahsulotlarni saqlashda va tez buzilmaydigan mevalarni saqlashda tabiiy holda harorat va namlikni saqlash imkonini beruvchi, havo tizimi boshqariladigan kichik omborxonalar qurish imkoniyatlaridan ham foydalanish zarur. Uchinchidan, qayta ishlash sanoatini keng ko'lamda rivojlantirish uchun tarmoqqa yirik investitsiyalar jalb etish va ularni turli imtiyozlar orqali qo'llab – quvvatlash talab etiladi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari sonini ko'paytirishimiz, yuqori darajadagi innovatsion texnologiya va usullarni joriy etishimiz kerak. Masalan, sarimsoqli ishlov beradigan mashinalar, piyozni ajratish va tozalash usullari, Hindiston yong'og'idan yog' mahsulotlarini olish uskunasi va boshqalar. Qishloq xo'jaligi sohasiga katta e'tibor qaratishimiz darkor. Chunki qishloq xo'jaligining taraqqiyoti har bir mamlakat uchun ham iqtisodiy, ham ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega.

Xulosa

Mamlakatimizda meva, uzum, sabzavot mahsulotlarini ko'plab yetishtirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Yetishtirilayotgan meva va sabzavot mahsulotlari hajmi ichki bozor talabiga nisbatan ancha ortiq bo'lib bu bozorda mahsulot bahosining dehqon uchun zararli nuqtaga yaqinlashib qolishiga olib keladi. Shuning uchun ham bog'dorchilik uchun yil yaxshi kelgan davrlarda yetishtirilgan mahsulotlarni yangi uzilgan holda yoki qayta ishlangan holatda respublikadan tashqariga olib chiqib sotishning samarali mexanizmini yaratish hozirgi kunda katta ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga qilgan murojatnomasi. 28. 12. 2018
2. Murtazo Rahmatov "Klaster – integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o'sish"
3. M. S. Yusupov "Agrosanoat integratsiyasi" Toshkent 2015

Ilmiy rahbar

i.f.n., dots. Maksumxonova A

SUV RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

Nuraliyev S.R. – talaba, TIQXMMI

Аннотатсия

Suv resurslarining tanqisligi sezilayotgan hozirgi sharoitda mamlakatimizning har bir fuqarosi suvga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish kerakligi, har qanday suv isrofiga yo'l qo'ymasligi, barcha sohalarida suvdan tejimli foydalanish chora-tadbirlarini qo'llash zarurligi tavsiya etiladi.

Uzoq muddatli istiqbolda ichimlik suvi ta'minoti tizimini rivojlantirish va modernizatsiyalash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar va maqsadli dasturlarni amalga oshirish asosida respublikamiz aholisini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash ijtimoiy siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Keyingi yillarda respublikamizning aksariyat mintaqalarida aholini markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Hozirgi paytda 69 ta shahar, 335 ta posyolka va 2 902 ta qishloq aholi punktlari aholisining ehtiyojlari yer osti suvlari zaxiralari hisobiga qondirilmoqda.

Yer osti suvlaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va ularni hisobga olishni yo'lga qo'yish, samarali monitoring tizimini yaratgan holda ularning zaxiralari yanada ko'paytirish, kamayib ketish va ifloslanishdan muhofaza qilish, shuningdek, respublikamiz aholisini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tomonidan 10 073 ta suv qudug'i xatlovdan o'tkazildi va buning natijalariga ko'ra quyidagilar ma'lum bo'ldi;

Qonunchilik bazasi takomillashtirilmaganligi natijasida 6 679 ta quduqdan yer osti suvlari nazoratsiz olinmoqda va ularning ifloslanishi va zaxiralari kamayishi davom etmoqda;

Yer osti suvlarini hisobga olish va ulardan foydalanish yuzasidan zarur nazoratning mavjud emasligi oqibatida 59 foiz yer osti suvlari belgilangan tartibda tasdiqlanmagan zaxiralardan olinmoqda;

Suv manbalari sathlari ifloslanishining hozirgi sur'atlarida yaqin o'n yillarda chuchuk yer osti suvlari mavjud resurslarining yarmidan ko'pini tiklab bo'lmas darajada yo'qotishning real xavfi mavjud.

Insoniyat oldida turgan umumbashariy muammolardan biri suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish hamda uni muhofaza qilish muammosidir. Qadim zamonlardan buyon mamlakatimiz hududida suv hayot manbai sifatida qadrlangan, u muqaddas hisoblanib, asrab-avaylangan, undan tejab-tergab foydalanishgan. Bu masalaga mamlakatimiz Prezidenti va hukumati tomonidan katta e'tibor berib kelinmoqda. Suvni xalqimiz obi hayot deya ulug'laydi. Suv bor joyda hayot bor. U tufayli qora tuproq gulchechakka, mevali bog'larga aylanadi. Momolarimiz farzandlariga "Tushingni suvga ayt" deya uqtiradilar. Suv dildan g'uborlarni ketkazadi. Ruhiyatni va badanni poklaydi. Sharq falsafasida, jumladan, alloma al-Forobiy asarlarida ham borliqdagi to'rtta unsur – tuproq, havo, suv va olov muqaddasligi ta'kidlanadi. Zero, suvni e'zozlamoq, kelajakni asramoq demakdir. "Tabiatda juda ko'p moddalar, jumladan, jonzotlar ham suvdan paydo bo'lib, suvga qaytadi"-, deb takidlagan edi yunon faylasufi Fales. Yerda hayotning asosini belgilovchi omilar zamirida suv turadi. Maqaddas Qur'oni Karimning ko'pgina suralarida Alloh taolo insonlarga ato etgan ne'matlarini eslatar ekan, suvni ham zikr qiladi: bandalari uchun va ularga musaxxar qilib qo'yilgan chorva va turli nabotot uchun suv eng zaruriy ne'mat ekanini bayon etib, obihayot uchun ham shukr qilishlik aytiladi.

Suvning bu qadar ko'p zikr etilishi bejizga emas. Sababi, inson hayoti va faoliyatida suv eng bebaho, zarur ne'matlardandir. Inson tanasining katta qismi suvdan iborat. Masalan, chaqaloq og'irligining etmish besh foizini suv tashkil etadi. Suv insonning hayot kechirishi uchun asosiy quvvat manbaidir. Inson ovqatsiz uch-to'rt haftagacha yashashi mumkin, ammo

suvsiz uch kunga ham chiday olmaydi. Odam tanasidagi suv agar o'n besh foizga kamaysa, inson halok bo'ladi

Inson o'rtacha umri davomida taxminan ellik tonna ichimlik suvi iste'mol qiladi. Bunga yana uning tozalanib-poklanish va boshqa maqsadlarda ishlatadigan suvini qo'shilsa, insonga suv qanchalik zarur va bebaho ne'mat ekani oydinlashadi. Hayotingizni bir kun suvsiz tasavvur qilib ko'ring—a!? Hattoki tasavvur qilishga ham qo'rqasiz, chunki suvsiz yashash juda qiyin. Suv bo'lmasa - chanqaymiz, suv bo'lmasa - idish-tovoq, kirlar to'planib qoladi, suv bo'lmasa - bog'larimiz cho'lga aylanadi, suv bo'lmasa - qo'l yuvish, cho'milishning imkoniyati yo'qoladi, suv bo'lmasa - tozalik va pokizalik yo'qoladi, shu bilan birga xotirjamligimiz, bu o'z navbatida sog'ligimiz yo'qolishiga olib keladi. Suv - tabiatning bebaho boyligi, hayot manbaidir. Lekin shunga qaramay suv bilan bog'liq muammolar hozirgi kunda talaygina. So'nggi asrlarda insoniyatning suvga bo'lgan e'tiborsizligi, isrofgarchiligi, noshukrligi oqibatida katta muammolar kelib chiqyapti. Hozirgi paytda jami 470 million kishi suv taqchilligi keskinlashgan mintaqalarda, 2,4 milliard kishi esa, suv tozalash qurilmalari va drenaj tizimi orzulgicha qolayotgan o'lkalarda yashaydi. Yana yigirma yildan keyin suv etishmaydigan o'lkalarda yashovchilar soni olti baravarga ko'payib, uch milliard kishiga etishi kutilmoqda. Sifatli ichimlik suvi etishmasligidan jahonda yiliga o'n million kishi kasallanib, nobud bo'layotir. Muammo ko'lami shunga etib keldiki, suv tufayli mamlakatlar o'rtasida katta mojarolar kelib chiqayapti, suv boshida turgan ayrim yurtlar suv etagida bo'lgan o'lkalarga suv bermaslik uchun turli nayranglarni o'ylab topishyapti, bundan o'zlarining g'arazlari yo'lida foydalanishni ko'zlashyapti. Suv zaxiralari bo'yicha uchinchi xalqaro anjumanda mutaxassislar bugungi kunda suv zaxiralari bo'lgan talab nihoyatda ko'payayotganini ta'kidladilar. Biz insonlar suv bilan bog'liq katta fojining guvohi bo'layotgan bir davrda, uning oldini olish uchun o'z hissamizni qo'sha olamizmi? Albatta!!! Buning uchun avvalo biz insonlar o'z aql-u tafakkurimiz, vijdonimiz, fahm-u farosatimiz, odamiyligimizdan kelib chiqib atrof-muhitga bo'lgan etiborimizni yanada kuchaytirishimiz kerak. Ya'ni faqat nazariy, gapda emas amalda joriy etilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ota-bobolarimiz suvning har bir tomchisini avaylab, tejamkorlik bilan foydalanishga harakat qilishgan. Ob-hayot resurslarining miqdori va sifati ko'p hollarda davlatlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilab kelmoqda. SHu nuqtai nazardan qaralganda O'zbekiston taraqqiyotida suv resurslarining alohida o'rni bor. Ma'lumki, respublikamizning ob-hayot ta'minoti asosan Markaziy Osiyoning asosiy suv manbalari – Amudaryo va Sirdaryoga bog'liq. Bugungi kunda asosiy iste'molchi qishloq xo'jaligi hisoblanib, ishlatilayotgan ob-hayotning 88 foizi mazkur tarmoq ulushiga to'g'ri keladi. Umuman, yurtimizda maishiy xizmat sohasida 8 foiz, energetika sohasida 1,5 foiz, sanoatda 2 foiz va baliqchilik tarmog'ida esa 0,5 foiz suvdan foydalaniladi [1].

Qishloq xo'jaligi asosiy suv iste'molchi ekanligini e'tiborga olsak, suvni tejaydigan ilg'or texnologiyalar, jumladan tomchilatib sug'orish, egatga plyonka to'shab va o'qariqlar o'rniga egiluvchan ko'chma quvurlar qo'yib sug'orish usullari keng joriy etish talab etiladi.

Tomchilatib sug'orish usuli ekinning ehtiyojiga mos miqdordagi suvni shlanglar yordamida bevosita uning ildiz qatlamiga yetkazib berishga mo'ljallangan muhandislik sug'orish usulidir. Odatdagi sug'orish usullari qo'llanilganda, dala tuprog'i sug'orishdan oldin haddan ziyod qurib ketsa, sug'orishdan keyin uning namligi keragidan ortib ketadi. Bunday sharoitda ekin avval namlik yetishmasligidan, keyinchalik namlik ko'pligidan aziyat chekadi, ya'ni bir stress holatdan chiqib, boshqa stress holatga tushadi. Bunda u o'z energiyasini ana shu stress holatdan chiqib ketishi uchun sarflaydi. Tomchilatib sug'orilganda esa ekinning ildiz qatlamida doimiy bir xil namlik sharoiti yaratiladi va ekinning stress holatiga tushishi sabablari bartaraf qilinadi. Ekin uchun o'ziga kerak bo'lgan vaqtda suv va oziq moddalarini olish imkoniyati yaratiladi. Natijada ekin o'z energiyasini faqat hosilni ko'paytirish uchun sarflaydi. Tomchilatib sug'orilganda suv butun dalaga emas, balki dalaning ekin yetishtirilayotgan qismiga ekinning ildiz qatlamiga yetkazib beriladi. Bunda suv bilan birga oziq moddalar ham eritilgan holatda beriladi. Bunday sharoitda suv ham, oziq moddalar ham behudaga isrof bo'lmay, ekinga to'liq yetib boradi. Dalaning barcha qismidagi ekinlar bir xilda rivojlanadi va barqaror hosil beradi.

Sug'orishga berilayotgan suv ekinga egatlar orqali yetkazib berilganda, suvning kata qismi egatning ichida tuproqqa behudaga singib ketadi va isrof bo'ladi. Sug'orishdan keyin esa egatning namlangan tuprog'idan ancha miqdordagi suv bug'lanib ketadi. Suvning bunday yo'qotilishini oldini olish yoki kamaytirish uchun egatlar bo'ylab turli materiallarni to'shash maqsadga muvofiq sanaladi. Buning natijasida ekin dalasidagi egatlarning ichiga polietilendan tayyorlanadigan yupqa plyonka to'shab sug'orish tavsiya etiladi. Egat ichiga plyonka to'shab sug'orilganda, suvni isrof qilmasdan ekinning ildiz qatlamiga tezroq yetkazib berish uchun imkoniyat yaratiladi va sug'orishdan keyin namlik bug'lanib ketishining oldi olinadi. Egatga plyonka to'shab sug'orishda qo'llaniladigan plyonka to'plam sifatida "Jizzaxplastmassa" OAJ tomonidan ishlab chiqariladi. Bir gektardagi ekin maydoni egatlarga to'shash uchun sarflanaadigan plyonkaning miqdori o'rtacha 60-65 kg/ga ni tashkil etadi. Mavsum yakunida ekin maydoni egatlariga to'shalgan plyonkani yig'ib olish zarur, aks holda ekin maydonining tuprog'i polimer qoldiqlari bilan ifloslanish holati ro'y berishi mumkin [2].

Ko'chma egiluvchan quvurlar polietilendan yasalgan yumshoq quvur ko'rinishidagi shlanglar tizimi bo'lib, ulardan asosan egatlab sug'oriladigan ekinlarni sug'orishda foydalaniladi. Egiluvchan quvurlar yordamida sug'orishda ekin dalasining suv yetkazib beruvchi va suv tarqatuvchi ariqlari o'rnida yumshoq quvur ko'rinishidagi shlanglar tizimi ishlatiladi. Bunda dalaga yoki dalaning mo'ljallangan qismiga suv yirikroq diametrli shlang yordamida yetkazib beriladi. Dalaning ichida egatlarga nisbatan ko'ndalang joylashgan o'qariqlar o'rnida kichikroq diametrdagi polietilen shlanglardan foydalaniladi. Bu shlanglarning egatlar to'g'risidagi nuqtalarida suv chiquvchi teshiklar ochiladi va ular yordamida sug'orishga berilayotgan suv egatlar bo'ylab taqsimlanadi. Odatda ko'chma egiluvchan quvurlarni egat olib ekiladigan bir yillik, xususan, g'o'za, kuzgi bug'doy, piyoz, lavlagi, kungaboqar, makkajo'xori kabi ekinlarni sug'orishda qo'llash yaxshi samara beradi. Ko'chma egiluvchan quvurlar yordamida sug'orilganda, o'qariq va shohariqlardan suvning tuproqqa shimilib isrof bo'lishi bartaraf qilinadi, suv barcha egatlarga bir xilda taraladi, natijada dalaning barcha qismlari bir xil namlanadi. Ko'chma egiluvchan quvurlar yordamida sug'orishni qo'llash uchun sug'orish arig'i yoki temir beton novdagi suv sathi ekin maydoni yer yuzasining sathiga nisbatan kamida 30 sm va undan baland bo'lishi talab etiladi. Sug'orish manbaidagi suv sathining sug'oriladigan maydon sathidan baland bo'lishi hisobiga egiluvchan quvurda suv ravon oqadi va ma'lum darajada bosim hosil bo'ladi.

Xulosa

Mamlakatimizning asosiy suv iste'molchisi bo'lgan qishloq xo'jaligida tegishli suv o'lchash inshootlarini qurish va suvdan hisob-kitobli foydalanishni yo'lga qo'yish, sug'orishlarni suv tejash texnologiyalari asosida tashkil etish lozim. Sifatli ichimlik suvi taqchil bo'lgan ayrim mintaqalarimizda suvni industrial chuchuklashtirish qurilmalaridan etarli darajada foydalanish, respublikamizda ularni ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish zarur. Sug'orish to'g'ri olib borilsa, tuproqning fizik – kimyoviy va biologik xossalari yaxshi tomonga o'zgaradi. Bu o'zgarishlar natijasida o'simlik tez rivojlanadi va yaxshi hosil beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.K. Muxammedov, A.B. Mamataliyev "Melioratsiya asoslari" Toshkent: 2006 yil. 23-b.
2. www.agro.uz

Ilmiy rahbar

dots. Tabayev A.Z.

ПАХТАЧИЛИК-ТО‘ҚИМАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИ ТАШКИЛ ETISH

Xoshimov S.A., Hasanov J.A. – talabalar, TIQXMMI

Аннотатсиya

Ushbu maqolada paxtachilik-to‘qimachilik sohasida amalga oshirilayotgan yangiliklar, paxtani ekishdan boshlab uni tayyor mahsulot holiga kelishgacha bo‘lgan jarayonlar haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Shu sohada amalga oshirilayotgan ishlar, erishilgan yutuqlar yoritilgan.

Bugungi kunda har bir sohada innovatsiya va izlanish yangi yutuqlarga erishish, mustahkam raqobatni yo‘lga qo‘yishda muhim omil bo‘lmoqda. Xususan, mamlakatimizda agrar sohani isloh qilish, qishloq xo‘jaligida ham zamonaviy usullardan oqilona foydalanish ijobiy samaralar bermoqda.

Masalan, qishloq xo‘jaligida klaster usulining joriy etilishi yerni shudgorlashdan hosilni yetishtirishgacha, xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan jarayondagi ko‘p bosqichli kompleks yondashuv tizimini yaratdi. Ayniqsa, yengil sanoat korxonalarining xom ashyo yetishtirish manbai sanalgan dehqon va fermer xo‘jaliklari bilan hamkorligini yanada mustahkamlashda mazkur usul yaxshi natijalar bermoqda.

So‘nggi o‘n yillikda butun dunyoda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning keng tarqalgan usullaridan biri – klaster usulidan keng foydalanilayotir. Klaster strategiyasi Yevropa ittifoqi tomonidan keng targ‘ib qilinayapti. Yevrokomissiya ittifoq hududida klaster rivojlanishini yanada qo‘llab-quvvatlamogda.

Mutaxassislarining fikricha, klasterlarning tashkil etilishi ishlab chiqarish zanjiri rivojlanishiga, xomashyoni chuqur qayta ishlashni ta‘minlashga xizmat qiladi. Bozor munosabatlari sharoitida faoliyatning bu taxlit yo‘lga qo‘yilishi o‘z navbatida ishlab chiqarilayotgan tovar tannarxi pasayishiga, uning sifati yaxshilanishiga, tarmoqning raqobatbardoshligi yanada oshishiga imkon beradi.

Ishlab chiqarishda o‘ziga xos innovatsion yondashuv deya baholangan bu tuzilma dastlab yurtimiz paxtachilik-to‘qimachilik sanoatida amalga kiritilmoqda. Nega aynan shu soha? Buning ham o‘ziga yarasha sabablari bor.

Ma’lumki, paxtachilik mamlakatimiz qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i sanaladi. Har yili katta-katta maydonlarga g‘o‘za ekilib, mavsumda 3 million tonnadan ziyod paxta xomashyosi yig‘ishtirib olinadi. Yurtimiz hududining serquyosh ekani esa yetishtirilayotgan tolaning a‘lo sifatlariga ega bo‘lishini ta‘minlayapti, har jihatdan pishiq va cho‘ziluvchan tola, undan tayyorlangan to‘qimachilik va tikuvchilik mahsulotlari esa jahon bozorida nihoyatda qadrlanadi. Ushbu mahsulotni tashqi bozorga chiqarmay, to‘lig‘icha o‘zimizda qayta ishlashni tashkil etish esa yuqori iqtisodiy samara beradi. Sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ham ana shu imkoniyatdan unumli foydalanishga qaratilgan. Klasterlar esa bu borada samarali yechim bo‘la oladi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi PQ-3279-sonli “Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxtachilik-to‘qimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra «Bek cluster» MCHJ QK tarkibiga kiruvchi qishloq xo‘jaligi tashkiloti (keyingi o‘rinlarda — qishloq xo‘jaligi tashkiloti) tomonidan paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirish uchun 18,0 ming gektar (shulardan 13,0 ming gektari Mirzaobod tumanida va 5,0 ming gektari — Xovos tumanida) sug‘oriladigan yerlarni ajratib berilgan.

Mazkur zamonaviy majmuada paxta xomashyosi yetishtirish va boshqa turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, ularni chuqur qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilgan. Asosiysi, ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etishga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Mutaxassislarining e’tiroficha, klasterlar negizida bir qancha korxonalar yagona texnologik zanjirga birlashadi. Bunda ilm-fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi kuzatiladi.

Klasterda kechadigan munosabatlarni o'ziga xos kooperatsiyaga o'xshatish mumkin. Haqiqatan, bu tuzilmada yetishtiruvchi, xizmat ko'rsatuvchi va ishlab chiqaruvchi korxonalar mustahkam hamkorlikka kirishadi. Bundan esa hamma birdek manfaatdor. Agar paxtachilikni qiyos oladigan bo'lsak, yetishtiruvchi, ya'ni dehqonga sifatli xomashyo yetkazib berish vazifasi qo'yiladi. Fermer bu talabni bajarsa hamda qancha ko'p hosil yetishtirsa, shuncha ko'p daromad ko'radi. Sodda qilib aytganda, fermer yuzaki, ya'ni faqat shartnomani uddalash uchun emas, manfaatdorligini his etib ishlaydi. Qayta ishlash korxonasi esa endilikda olayotgan xomashyosi ma'qul darajada bo'lishini so'rashga haqli. Klasterda paxta xomashyosi barcha bosqichdan o'tgach, a'lo sifatli, raqobatbardosh, eksportbop mahsulotga aylanadi.

Bir so'z bilan aytganda, klasterlar sohada innovatsiyalarni qo'llashning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi, zamonaviy quvvatlar soni ko'payishi, hududlar raqobatbardoshligi oshishi, iqtisodiy yuksalishiga sharoit yaratadi. Bunday loyihalarni amalga oshirish natijasida pirovard mahsulotning xaridorga etib borishi ham tezlashadi, ishlab chiqarish mahsuldorligi ortadi, aloqador sub'ektlar o'rtasida hamkorlik munosabatlari kuchayadi.

2018-yilda paxta terimidan boshlab tajriba sifatida paxta yetishtirishni mahalliy fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri mahalliy to'qimachilik korxonalarini tomonidan tartibga solish va ilgari surish tizimi joriy etila boshlandi. Bir necha yil mobaynida korxonalar "O'zpxatasanoateksport" monopoliyadan yetkazib beradigan xom ashyo sotib oldi. Yangi buyurtma asosida to'qimachilik korxonalarini paxta xom ashyosini yetishtirish uchun asosiy xarajatlarni moliyalashtirishga kelishib oladilar, bu esa shartnoma qiymatining kamida 60 foizini tashkil etadi. Xom-ashyoni, yetkazib beriladigan barcha paxtani faqat chuqur qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishga sarflash kerak. Korxonalar tomonidan sotib olingan paxta xomashyosi narxi fermer xo'jaliklarining real xarajatlari va rentabelligini tahlil qilish asosida shartnoma asosida o'rnatiladi [2].

Shu bilan birga, u davlat ehtiyojlari uchun sotib olingan paxta narxidan past bo'lmasligi kerak. Shuning uchun prezident 2018 yil 15 yanvargacha 2018 yilga qadar "oq oltin" hosil uchun davlat narxlarini belgilashni hukumatga buyurdi.

To'qimachilik sanoati korxonalarini paxta urug'ini yog'-moy korxonalariga, boshqa mahsulotlarga esa birja savdolari orqali sotadilar. Bu yil O'zbekistonda 2,9 million tonnadan ortiq paxta xomashyosi yig'ildi.

Davlat rahbari "O'ztekstilprom" uyushmasini tuzish bo'yicha to'qimachilik sanoati korxonalarini, "O'zbekengilsanoat" aksiyadorlik kompaniyasining aksiyadorlari va qator boshqa bo'limlarning takliflarini qo'llab-quvvatladi. Ayni paytda "O'zbekyengilsanoat" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi davlatning tartibga solish va xo'jalik vazifalarini birlashtirgan holda tugatildi.

"O'zbekyengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasiga 436 ta korxonalar kiradi, bu ularning umumiy sonining atigi 6 foizini tashkil etadi. Ushbu jamiyatning faoliyati asosan statistikani to'plash, turli uchrashuvlar o'tkazish, ko'rgazmalar tashkil etishga qaratilgan. Uning tashkiliy shakli aksiyadorlik jamiyatining huquqiy maqomiga ham mos kelmaydi [3].

Chet mamlakatlar tajribasi to'qimachilik sanoatining rivojlanishning eng samarali shakllaridan biri klasterlarni yaratish ekanligini ko'rsatdi. Ushbu model paxta xomashyosini yetishtirish, dastlabki qayta ishlash, paxta tozalash korxonalarida qayta ishlash va yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan yakuniy to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan yagona ishlab chiqarish aylanishini tashkil etishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda O'zbekiston paxta yetishtiruvchi 90 mamlakat orasida dunyodagi oltinchi paxta tolasini ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. Mamlakat asosan Xitoy, Bangladesh, Koreya va Rossiyaga paxta eksport qiladi.

O'zbekiston 2021 yilda paxta tolasini to'liq qayta ishlashga kirishishi kutilmoqda. 2020 yilga kelib, mahalliy korxonalarining ishlab chiqarish quvvati O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan paxta tolasini to'liq qayta ishlashni ta'minlaydi, bu esa ushbu mahsulotni eksportga etkazib berish hajmini sezilarli pasayishiga olib kelishi mumkin

Shu bilan birga, 2021 yilga kelib, to‘qimachilik, tikuvchilik va trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish 2017 yilga nisbatan 2,2 baravar, shu jumladan, tayyor matolar - 2,7 barobar, trikotaj matolari - 3,4 martaga, trikotaj mahsulotlari - 3,4 martaga, paypoq mahsulotlari - 3,7 martaga ko‘paydi. Mahsulotni eksport qilish hajmini 2 barobar oshirish ko‘zda tutilgan.

Dunyoning beshinchi yirik paxta eksportchisi bo‘lgan O‘zbekiston siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu – to‘qimachilik sanoatini yanada rivojlantirishdir. Har yili 3,5 million tonna paxta xom ashyosi o‘tib, 1,1 million tonna paxta tolasi ishlab chiqarilmoqda.

O‘zbekiston paxta tolasini qayta ishlash hajmini oshirish bo‘yicha izchil choralar ko‘rmoqda. Xususan, 112 zamonaviy, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, 20 ta ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish, modernizatsiya qilish va texnologik yangilash bo‘yicha ishlar rejalashtirilgan. Bularning barchasi sanoatning eksport salohiyatini yiliga 2,5 milliard AQSh dollarigacha oshiradi va 25 mingdan ortiq ish o‘rinlarini yaratadi.

Tizimda amalga oshirilayotgan texnik va texnologik islohotlar, amaliyotga tatbiq etilayotgan innovatsiyalar natijasida ichki tola sifat ko‘rsatkichlari tubdan yaxshilanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, bugungi kuchli raqobat sharoitida jahon paxta bozorida doimiy o‘rnini egallashda muhim rol o‘ynaydi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal’a tumanida joriy yilda paxta klaster usulida yetishtiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 25 yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida tumanda “Boston Klaster” mas’uliyati cheklangan jamiyati tashkil etildi. Loyiha ko‘lamida joriy yil 11 ming 40 gektar maydonga chigit ekilib, har gektardan o‘rtacha 22 sentnerdan, jami 24 ming 241 tonna mahsulot olish rejalashtirilmoqda. “Boston Klaster” MChJ paxtachilikka ixtisoslashgan 380 fermer xo‘jaligi bilan kontraktatsiya shartnomalari tuziladi. Qarorga muvofiq “Boston Klaster” MChJ fermer xo‘jaliklariga yer, suv va boshqa resurslardan samarali va oqilona foydalanish, olinadigan hosildorlikni oshirish, yetishtirilgan paxtani o‘z vaqtida yig‘ib olishga ko‘maklashadi. Sotib olinadigan paxtaning narxi fermer xo‘jaliklarining rentabelligi hisobga olinib, agrotexnik choralar asosida shakllantiriladigan xarajatlardan kelib chiqqan holda shartnoma asosida belgilanadi va u shu narxdan past bo‘lmasligi kerak. Fermer xo‘jaliklari endi avvalgidek faqat yetishtirgan paxta xomashyosidan emas, balki uning qayta ishlanib, tayyor mahsulot bo‘lib chiqqanigacha bo‘lgan daromaddan tegishli ulushini oladi. Bu fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy poydevorini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni keltirib o‘tish mumkinki, amalga oshirilayotga barcha ishlarning barchasi xalq farovonligi uchun qilinmoqda. Endilikda bu sohani yanada rivojlantirish uchun dunyodagi rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan o‘rganishimiz lozim bo‘ladi. Bu usulni nafaqat paxtachilikda balki boshqa sohalarda ham amalga oshirishimiz maqsadga muvofiqdir. Olaylik ta’lim sohasida yoki qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlarida.

Adabiyotlar

1. Rizq-ro‘zimiz bunyodkori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi xodimlari mehnatini ulug‘lash, soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish – asosiy vazifamizdir/ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2017 yil 9 dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi PQ-3279-sonli “Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxtachilik-to‘qimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

3. Internet saytlari: Azarnews.az, Uza.uz, TDAU.UZ, podrobno.uz

Ilmiy rahbar

dot. Dusmurov G.D.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYA DARAJASI VA UNING OQIBATLARI

Musayev S.S., Anarboyev Sh M. – talabalar, TIQXMMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimiz ichidagi milliy valyuta va narxlarning ko‘tarilishini ifodalovchi inflyatsiyaning oqibatlari keng yoritilgan. Agar inflyatsiyani jilovlamasak, moliya sohasi va valyuta bozorining liberallasuvi moliyaviy resurslarning ishlab chiqarishdan chayqovchilar qo‘liga o‘tib ketishiga olib keladi, bu esa investitsiyalarga va ishlab chiqarish hamda bandlikning o‘shishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Inflyatsiya xavotiri, avvalo, aholi va biznes davlatning inflyatsiyani jilovlay olishiga ishonmasligiga bog‘liqdir.

Mamlakatimizda umumiy hisobda 2018-yil davomida iste‘mol sektoridagi inflyatsiya darajasi 14,3% ni tashkil etdi.

2018-yil davomida INIning o‘rtacha oylik o‘shish sur‘ati 1,1% ni tashkil etib, iqtisodiyotga inflyatsion bosim sentabr oyidan boshlab kuchayib borgan. Jumladan, 2018-yilning oxirgi to‘rt oyi davomida tovar va xizmatlarning iste‘mol narxlari o‘shish darajasi 7,6% ni tashkil etib yil oxrida esa, ya‘ni 2018-yil dekabr oyida tovarlar narxi o‘rtacha 2,3%, yil boshidan esa 13,8% ga qimmatlashgan bo‘lsa-da, ushbu guruh indeksi iste‘mol sektoridagi umumiy yillik inflyatsiya darajasidan birmuncha pastroq darajani tashkil etdi (14,3%).

Oy davomida tovarlar narxi sezilarli darajada qimmatlashishi yanvar (3,0%) hamda dekabr (2,3%) oylarida qayd etilgan. 2018-yilning iyun va iyul oylarida (0,6% va 0,5%) esa aksincha, tovarlarning umumiy narxlar darajasining pasayishi, meva-sabzavot narxlarining sezilarli darajada arzonlashganligi bilan bevosita bog‘liq.

2018-yil dekabr oyidagi xizmatlar tarifi narxlari tovarlar guruhi narxlari darajasiga nisbatan pastroq sur‘atda ko‘tarildi. Xizmatlar tariflari dekabr oyi davomida o‘rtacha 1,3% ga oshdi. Umumiy hisobda 2018-yil mobaynida ushbu sohadagi tariflar narxlarining o‘shish darajasi 15,8% ni tashkil etdi.

Yirik guruhlar bo‘yicha narxlarning oylik tahlillari shuni ko‘rsatmoqdaki, 2018-yil davomida xizmatlar tarifi hamda nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan (ushbu guruhlarning o‘tgan oyga nisbatan INI doimiy ravishda 100,0% dan ortiqni tashkil etgan). Har oydagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlar o‘zgarishi birmuncha keng diapazonga ega bo‘lgan (yanvar oyidagi maksimal o‘shishdan (3,5%) to iyul oyidagi maksimal pasayishgacha (-2,3%).

2018-yil boshidan buyon narxlar o‘zgarishi tahliliga ko‘ra, ushbu guruh narxlari o‘zgarishi bir-biriga nisbatan o‘xshash vaziyatni ko‘rsatadi: 12 oy davomida xizmatlar 15,8%, oziq-ovqat mahsulotlari 14,9% va nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari 12,5% ga oshgan.

2019-yilning fevral oyida O‘zbekiston Respublikasi iste‘mol sektoridagi inflyatsiya darajasi 2019-yilning fevral oyida mamlakat iste‘mol bozoridagi tovarlar va xizmatlar narxi o‘rtacha 1,6 % ga oshdi [1].

2019-yil 28-fevral kuni Milliy matbuot markazida “Inflyatsiya: mohiyati, sabablari va namoyon bo‘lish shakllari hamda iqtisodiyotdagi o‘rni” mavzusida matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi.

U yerda aytilishicha, 2018-yilning yanvar-dekabr oylari davomida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o‘rtacha 14,9% ga qimmatlashdi. Bu esa o‘z navbatida umumiy INIning o‘shishiga 6,4% darajasida (keyingi o‘rinlarda f.d.) ta‘sir etdi. Non (28,5 %), go‘sht (21,7 %), sut (12,9 %) va meva-sabzavot (4,7 %) mahsulotlari narxlarining qimmatlashishi natijasida INI o‘rtacha 5,5 f.d.ga oshishiga olib keldi.

Foiz nisbatida 2019-yil fevral oyidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko‘tarilishi oy davomidagi INI o‘shish sur‘atida 55,7 % ni tashkil etib, 2018 yil fevral oyida ushbu ko‘rsatkich 44,3 % ga teng bo‘lgan. 2019-yilning fevral oyidagi nooziq-ovqat mahsulotlari va aholi uchun

pullik xizmatlar narxlarining ta'siri 2018-yil fevral oyidagi ko'rsatkichga nisbatan pastroq bo'lgan.

Inflyatsiya sharoitida aholi va tadbirkorlar pullarining qadrsizlanishidan xavotirlanib, naqd puldan, plastik kartochkadagi va talab qilib olinguncha omonatlardagi mablag'lardan imkon qadar tezroq qutulib qolishga harakat qiladilar (bu hodisa odatda "puldin qochish" deb ataladi). Natijada pul birliklari muomalasi tezligi ortadi, bu esa, pul massasi ko'paygandek samarani beradi. Bundan tashqari, ko'p hollarda sotuvchilar tovarning bugungi kundagi narxiga ertangi inflyatsiyani kiritadilar, ya'ni mahsulotlarini aslidan qimmatroqqa sotishgagina rozi bo'ladilar. Inflyatsiya xavotiri, avvalo, aholi va biznes davlatning inflyatsiyani jilovlay olishiga ishonmasligiga bog'liqdir. Shu sababli, inflyatsiyaga qarshi kurash qat'iy, izchil va ochiq bo'lishi lozim. Faqat shundagina aholi va biznes inflyatsiya xavotiridan voz kechadi, bu esa narx o'sishiga qarshi kurashning muhim omili bo'ladi.

Inflyatsiyaning kuchayishi belgilangan (ya'ni faqat vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqiladigan) daromadga ega odamlarga zarar keltiradi – ular esa, deyarli barcha yollanma ishchilar, shuningdek ijtimoiy nafaqa oluvchi pensionerlar, talabalardir. Ularning belgilangan daromadlari narxlar o'sishi sababli qadrsizlanaveradi.

Inflyatsiya yuzaga kelishining asosiy sababi – real iqtisodiy o'sish sur'atlariga nisbatan pul massasi o'sish sur'atining oshib ketishidir. Ya'ni, misol uchun, YaIM bir yilda real ko'rsatkichda (narx ko'tarilishini hisobga olmaganda) 5% ga, pul massasi esa – 15% ga o'sgan bo'lsa, o'rtadagi farq ($10\% = 15\% - 5\%$) – bu ortiqcha pul massasining o'sishi, u inflyatsiyaning asosiy manbai bo'ladi [2].

Muomaladagi pul miqdorini nazorat qilish Markaziy bank vazifasiga kiradi. MB pul masasiga uchta asosiy yo'l bilan ta'sir ko'rsatishi mumkin:

– ochiq bozordagi amaliyotlar valyuta va qimmatli qog'ozlarni xarid qilish va sotish orqali (agar MB sotib olsa, milliy valyuta bilan to'laydi va bu bilan muomaladagi pul massasini oshiradi, agar sotsa – aksincha bo'ladi);

– tijorat banklariga kreditlar taqdim etish orqali (kreditlar qayta moliyalash stavkasi bo'yicha beriladi, shu sababli, agar MYu pul massasini qisqartirishni xohlasa, u qayta moliyalash stavkasini oshiradi, bu bilan undan qarz olishga rag'batni susaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklarining o'z kreditlari qimmatlashuviga va biznes hamda aholi tomonidan pulga talab kamayishiga olib keladi; binobarin, pul massasini ko'paytirish uchun qayta moliyalash stavkasini tushirish zarur);

– davlatning ortiqcha xarajatlarini (ya'ni, davlatning byudjet daromadlaridan ziyod xarajatlarini) moliyalashtirish orqali [4].

O'zbekiston boshqa davlatlar o'rtasida inflyatsiyasiga qaraganda ancha yaxshi ko'rsatkichlarda deb o'ylaymiz. Chunki Venesuela davlatining 2017-yilning o'zida inflyatsiya darajasi 2600% ni tashkil qilgan, bu esa misli ko'rilmagan ko'rsatkich desak hato bo'lmaydi. MDH davlatlar o'rtasida esa inflyatsiya darajasi esa (2017-yil) dagi ko'rsatkichlar bo'yicha Belarusiya 104.6%, Qozog'iston 107.1%, Qizg'iziston 103.7%, Rossiya 102.5%, Tojikiston 106.7%, Ukraina 113.7%, O'zbekiston 114.4% kabi ko'rsatkichlarda bo'lgan va bu ko'rsatkichlar hozirgi vaqtda o'zgarib bormoqda [3].

O'zbekiston Moliya vazirligi 2021-yilda O'zbekistonda inflyatsiya darajasi 9,9 foizni tashkil etishi mumkinligini prognoz qildi. Ushbu ko'rsatkich 2019-yil uchun prognoz qilingan 15,5 foizli inflyatsiya darajasidan 5,6 foizga past. 2020-yilda respublikada inflyatsiya darajasi 12,6 foizni tashkil etishi mumkin. Hozirda O'zbekistonda inflyatsiya darajasi 16 foizni tashkil etmoqda [5].

Xalqaro valyuta jamg'armasining (XVJ) Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo bo'yicha departament direktori maslahatchisi Albert Yegerning aytishicha, O'zbekistonda 2018-yil yakunida inflyatsiya 18 foizni tashkil qilishi mumkin. Albert Yegerning fikricha, narxlar liberalizatsiyasi davrida inflyatsiyaning yuqori darajada bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi.

Markaziy bankning pul-kredit siyosati sharhiga ko'ra, 2019-yil va 2020–2021-yillar davriga mo'ljallangan pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarida keltirilgan iqtisodiyot

rivojlanishning bazaviy ssenariyasiga asosan 2019-yil yakunlari bo'yicha inflyatsiya 13,5–15,5 foiz oralig'ida bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Markaziy bank ushbu prognoz ko'rsatkichlarni o'zgarishsiz qoldirdi. Bunda, tartibga solinadigan narxlar oshirilishining ikkilamchi ta'siri ko'lamining kengayishi, ya'ni energiya resurslari uchun xarajatlarning oshishi sababli ichki tovarlar va xizmatlar tannarxining qimmatlashishi bilan 2019-yilning boshida nisbatan o'suvchi inflyatsion muhit kutilmoqda.

Yillik inflyatsiyaning eng yuqori qiymati 2019-yilning I choragida yuzaga keladi. Bundan tashqari, biznes sub'ektlarining soliq to'lashning yangi sharoitlariga moslashishi davrida inflyatsiyaning qisqa muddatli tebranishi kuzatilishi mumkin [6].

Xulosa

Inflyatsiya bilan biz deyarli har yerda duch kelamiz. Aytaylik, yil boshida biz 1 mln. so'm oylik maoshi olamiz. Bunga moslashamiz va bu bizga yetarlidek. Yil oxiriga borib esa maoshimiz, xaridlarimiz o'zgarmagandek, lekin oilaviy byudjetimizda qandaydir yetishmovchilik, tanqislikni sezgandek bo'lamiz. Yoki bo'lmasa ortiqcha jamg'armamizni rejalashtirilmagan xarajatlar uchun sarflab qo'yamiz. Oqibatda jami xarajatlarni, xaridlarni amalga oshirish uchun ko'proq ishlashimish yoki qo'shimcha daromad manbaini izlashimizga majbur bo'lamiz. Bu holat barcha mamlakatlarda, garchi turli hil darajalarda bo'lsada, sodir bo'lmoqda. Chunki biz inflyatsion olamda yashaypmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.Tojiboyeva T.Jo'rayev Iqtisodiyot nazariyasi (Ko'rgazma va tarqatma materiallar). T. <<Fan va texnologiya>> 2015-yil. 396-bet.
2. В.Кизилов, Гр.Сапов. Инфляция и её последствия под ред. Е.Михайловской. – М.: РОО «Центр «Панорама», 2006. – 146с

Foydalanilgan saytlar

- 3.Stat.uz
- 4.Ziyonet.uz
- 5.Daryo.uz
- 6.Spot.uz

Ilmiy rahbar

Abdurahmonova I.Q.

INNOVATIVE DEVELOPMENT - THE WAY TO CREATE A COMPETITIVE AGRICULTURAL SECTOR

Sangirova U.R., - docent, Hafizov B.Z., - master student of TIAME

Abstract

Progressive development of the agrarian economy is possible under the condition of competent realization of innovation policy. The article describes some proposals on innovation renewal of the agriculture.

The development of the national innovation system has become an integral part of the scientific, technical and industrial policy of the Republic of Uzbekistan, the main goal of which is to increase the standard of living of the population based on the sustainable economic development of the republic, due to the effective use of intellectual potential. The main factor determining the standard of living of the population is the agricultural sector, which provides people with vital products.

The main problem of the implementation of the innovation strategy is that the pace of development and the structure of the agrarian research and development sector do not fully meet the needs of agriculture and the growing demand for advanced technologies from individual segments of the business sector. At the same time, the proposed scientific results are not used because of the imbalance of the innovation system, as well as due to the general low susceptibility to innovation of the business sector, its low profitability.

Innovation should play a strategic role in the medium and long-term economic development of agriculture. After all, only with the help of an investment-innovative approach, it is possible to break the shackles of production, resource, and technological constraints, to lay down a model of an agrarian economy that will serve as the basis for a constant increase in the competitiveness of the industry through effective economic growth.

It is obvious that the government should play an active role in solving these problems, developing a comprehensive program for the innovative development of the industry, determining priorities and establishing a system of measures of direct and indirect regulation. Predictive and analytical studies prove that the transition from the traditional paradigm of the development and implementation of agrarian policy to the innovative version is already relevant for the period of 2008-2020. This is due to the fact that by the beginning of this period, we can expect the exhaustion of the existing growth potential of agricultural production based on traditional approaches. At the same time, a logically and structurally innovative program for the development of the agrarian sector should be combined with the priority directions of development of the country's scientific and technological complex.

A comprehensive analysis of the formation of the national innovation system was carried out by the Institute for Forecasting and Macroeconomic Research and the UNDP Project "Support in the Sphere of Innovation Policy and Technology Transfer" in their Program "On the Priorities of Innovative Development of the Republic of Uzbekistan for 2012-2020".

This concept discusses the features of the transition to an innovation-oriented type of development of the economy of Uzbekistan, formulated the most important development priorities, principles of formation and mechanisms for implementing the innovative development of the country in the long term, taking into account the emerging trends in the global scientific and technological development and the existing intellectual and scientific and technical potential. The concept is a document that regulates the sequence of implementation of goals, objectives and stages for modernization and deep reform of the national innovation system, activating innovation activity on this basis in a country in the context of consolidating the efforts of the state, private business and civil society institutions in the medium and long term.

To mobilize the intellectual potential of the republic to address the priority problems of socio-economic and scientific and technological development, it is necessary to define conceptual approaches to innovative development, as well as create a new institutional environment conducive to the effective organization of these processes in the context of modernization.

In order for the innovative development of agriculture to meet its intended purpose and justify the hopes placed on it, the solution of a whole complex of tasks is required:

to form a complex of interconnected industry investment-innovative programs and projects that implement ideas along the entire chain - from basic research to the development of innovative market niches;

– to provide the scientific and technological sphere with financial and material resources. The most important role in resolving issues of financing various projects should be played by a public-private partnership, designed to establish sustainable links between science and the market, to ensure the commercialization of research and development results;

– create an institutional environment for the implementation and implementation of innovations. Both specialized organizations in the form of national and regional sectoral investment and innovation funds, technological and scientific-educational alliances and other structures, and relevant laws and regulations are necessary, since the timeliness of

implementation of research results is extremely important. The institutional environment should also include an information-analytical system and a methodological support system, providing a full range of information, recommendations and instructions to the subjects of the innovation process;

– create competitive knowledge centers by combining agro-universities and research organizations in order to establish flexible, fast and fruitful cooperation in various areas of innovation activity;

–to strengthen the role of the subjects of agrarian business in the innovation process, to stimulate the introduction of development into production by expanding the availability of financial resources, reducing the tax burden and other stabilizers;

– to form a system of training, retraining and advanced training of personnel required for the implementation of specific innovative programs and projects, as well as civil servants involved in the regulation of the innovation process;

–to provide control over the use of innovations in order to determine their relevance and compliance with environmental, technical and other requirements;

– determine the forms of state participation in the control and management of innovations and innovation projects;

– develop methods for taking into account the impact of innovation on the socio-economic parameters of the agrarian system.

Conclusion

When setting such multidirectional tasks related to the transition to an innovative way of structural transformation of agriculture, it is necessary to pay serious attention to the complexity and consistency of their solution. Only in this case is it possible to give the status of a highly efficient, stable and rapidly developing industry to Uzbek agriculture.

References

- 1.Sandu I.S. Problematic issues of innovative development of the agro-industrial complex. - М.: RosAKO APK, 2005.
- 2.I.S. Sandu, A.I. Trubilina I.G. Ushacheva, E.S. Ogloblina Innovative activity in the agrarian sector of the Russian economy”. Moscow, KolosS, 2007.
- 3.Akramov Akmal "The role and importance of free economic zones in the innovative development of the economy of Uzbekistan".
- 4.Shodieva D. Features of state regulation of innovative activity.

TA'LIM SOHASIDA DAVLAT SHERIKCHILIKINING AHAMIYATI

Murodov SH. - katta o'qituvchi, Iskandarov H.-talaba TIQXMMI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim faoliyatini davlat xususiy sherikchilik(DXSH) mexanizmlarini joriy etish orqali rivojlantirishning mamlakat iqtisodiyotida va yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni, shuningdek, mavzuning dolzarbligi, nazariy va uslubiy jihatlari ochib berilgan. Bundan tashqari, DXSH mexanizmini ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi va bu tajribani qo'llash tufayli keladigan samara yuzasidan taklif tavsiyalar bildirilgan.

Kirish: Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi tamoyillarini barcha sohalarga joriy etishda chet el tajribasini, buyuk shaxslar ta'limotini o'rganish, tahlil etish va ulardan foydalanish O'zbekistonning rivojlangan, kuchli va qudratli davlat bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. “ 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor

yo'nalishi bo'yicha "Xarakatlar strategiyasi" ning 1.2 bandida keltirilgan "Mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli xamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sherikchilikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish" yo'nalishiga alohida e'tibor qaratilganligi ayni paytda ushbu yo'nalishning qanchalik dolzarbligidan dalolat beradi. Xozirgi kunda dolzarb masala sifatida maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishi yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda. O'zbekistonda 4893 ta davlat maktabgacha ta'lim muassasasi (MTM) bo'lib, ularning oziq-ovqat, moddiy ta'minoti va ularga tibbiy xizmat ko'rasatishni tashkil etishda byudjetdan 427 ta bog'chada qurilish-ta'mirlash ishlarini bajarish uchun 771 mlrd so'm mablag' ajratish, jumladan, 14 tasini yangidan qurish, 256 tasini rekonstruksiya qilish va 157 tasini kapital tamirlash rejalashtirilgan [1].

Yuqoridagi muammolarning aksariyati DXSH mexanizmini ta'lim tizimiga joriy etish yo'li bilan o'z yechimini topadi xamda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga ershishning muhim sharti xisoblanadi. Shuning uchun Prezidentimiz tomonidan zamonaviy va xammabop maktabgacha ta'lim muassalarini tashkil etish maqsadida maktabgacha ta'lim tizimiga DXSH mexanizmini joriy etish masalasi ko'p bora takidlanib kelinmoqda. DXSH mexanizmini joriy etishning ahamiyati maktabgacha ta'lim muassalarining xarajatlarini rejalashtirish va sarflash shaffofligini oshirish choralarini ko'rish, faoliyatning ochiqligi va ularning mustaqilligining oshirilishi davlat-xususiy sheriklikni yo'lga qo'yish uchun asos bo'lib xizmat qiladi va ularning investitsion jozibadorligini oshiradi. Buning uchun davlatimiz rahbari tashabbusi bilan MTMni tshkil etayotgan investorlarga yer uchastkalari v abo'sh turgan binolarni 50 yil muddatga beg'araz ajratish yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim xizmatini ko'rsatish narxining maqbulligi va arzonligini ta'minlash maqsadida investorlarga keng soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar taqdim etiladi. DXSH asosida yangi turdagi maktabgacha ta'lim muassalarining tashkil etilishi, 2018 yil 1-yanvardan boshlab, 5 yil davomida xususiy bog'chalar tomonidan tabiy gaz va elektr energiyasi uchun sariflandigan mablag'ning yarimi davlat byudjeti xisobidan qoplanishi ko'zda tutilgan. DXSH mexanizmi ta'lim tizimiga samarali joriy etish maqsadida bu borada rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish maqsadga muaofiqdir. V.Radskiy, A.Nabiyeva va U. Mikayilovlar maktabgacha ta'limdan foydalanishni kengaytirishda davlat-xususiy sektor xamkorligining rolini o'rganib, Ozorbayjon ta'limini rivojlantirish maqsadida namuna sifatida Boku shahrida joylashgan ta'lim sohasida innovatsiyalar markazi (TIM)ning "maktabgacha ta'lim modeli" ni keltirgan. Nodavlat notijorat tashkilotlari, maxalliy xokimiyat orgonlari va xususiy biznes o'rtasidagi hamkorlik sifatida ishlab chiqilgan ushbu model butun mamlakat bo'ylab, ayniqsa, qishloq joylarida davlat-xususiy sektor hamkorligiga kirishni kengaytirish imkoniyatini bermoqda . Maktabgacha ta'limning muqobil modellarini milliy miqiyosda joriy etish Ozorbayjonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkinligini ta'kidlashgan [2]. Jandhyala B G Tilak tomonidan rivojlanish strategiyasi sifatida DXSH ning kuchli va zaif tomonlari, o'quv jarayonini rivojlantirishga qaratilgan natijalar va dalillar tanqidiy tahlil qilingan. Xindistondagi ta'limni rivojlantirish uchun DXSH ning mumkun bo'lgan oqibatlarini yoritib mamlakatda va chet elda rivojlanib borayotgan turli xil DXSH modellarining cheklangan tajribasini keng miqiyosda o'rganib ba'zi muammoli masalalarni ko'rib chiqqan[3]. H.Anthony, P.Felipe va J.Guaquetalar ilmiy tadqiqot ishlarida AQSH davlat xususiy sektor hamkorligining ta'lim soxasidagi rolini o'rganish bo'yicha kko'p yillik dasturning dastlabki bosqichi natijalrini tahlil qilishgan. Ta'lim soxasidagi xususiy sektorning rolini oshirish, davlat normativ xuquqiy bazasini yaratish ta'lim xizmatlari tanlovini oshishini va ta'lim natijalari yaxshilashini takidlashgan. Davlatlarga ta'lim maqsadlariga erishishda yordam berishi mumkin bo'lgan DXSH shartnomalari, ushbu tadbirlarni amalga qo'llashning eng yaxshi yo'li va usullari keng yoritilgan. DXSH xamma uchun, ayniqsa chekka joylarda, kam ta'minlangan oilalarda yashovchi kambalg'al bolalar uchun sifatli ta'lim olish imkoniyatini oshirdi. Shu bilan birga, ta'limni

moliyalashtirishning innovatsion vositasi sifatida davlat byudjeti uchun ham foydali bo'lishi mumkin. MTM faoliyatini yaxshilash uchun rivojlanayotgan mamlakatlar xukumatlari xususiy sektor bilan hamkorlikni samarali bo'lishini iloji boricha qo'llab quvvatlashadi. Chunki ular davlat-xususiy sektor hamkorligi ta'lim tizimining sifati va samaradorligini oshirishning bir usuli deb hisoblaydilar. DXSH kelishuvlari bo'yicha xorijiy davlatlar siyosati Buyuk Britaniyada maktablar " jismoniy shaxslar, davlat yoki xususiy biznes tashkilotlari, yoki diniy tashkilotlar yoxud nodavlat tashkilotlari tomonidan moliyalashtiriladi va kapital xarajatlarning 10 % ta'minlaydi qolgan 90 % davlat tomonidan to'lanadi. Ushbu maktablarda o'qituvchilarni ishga joylashtirish, ish xaqi va mexnat sharoitlarini belgilash borasida katta erkinliklar mavjud. Lekin bu maktablarning sifati va samaradorligi davlat tomonidan nazorat qilinadi. Buyuuk Britaniyada yana bir modeldagi maktablar ham xususiy sektor tomonidan ishlab chiqilgan, qurilgan va faoliyat yuritmoqda. Ammo barcha xarajatlar 30 yillik shartnoma asosida davlat tomonidan qollanadi, o'qituvchilik faoliyatini tashkil etish davlat sektori zimmasida bo'adi. Maktabgacha ta'limni tashkil etish muammosi nafaqat O'zbekiston, balki rivojlangan Yevropa mamlakatlari uchun ham dolzarbdir. Yevropa mamlakatlarida davlatga qarashli MTM juda kam, asosiy qismi xususiy bog'chalar uchun har oylik to'lov 12000 dollar turadi. Faqat kambag'al oilalarning bolalari bepul MTMga borishadi. Rossiyada maktabgacha ta'lim muassasalari yetishmaydi. Xozirgi kunda mamlakatda 58 mingta MTM mavjud bo'lib, ularning 2 foizigina nodavlat bog'chalar va davlat bog'chalari narxlari o'rtasida juda katta farq mavjud. Respublikamiz olimalaridan N.Yusupov va F.Qarabayevlar BMT taraqqiyot dasturi doirasida davlat-xususiy sherikchilikning shakillanishi va rivojlanishining nazariy-uslubiy masalalarini tadqiq qilgan bo'lsalar. U.Jumaniyozov DXSH asosida uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish mavzusida ilmiy tadqiqot ishlarida olib borgan. A.Nizamov esa "Ta'lim muassasalarining ijtimoiy hamkorligida davlat-xususiy sherikchilik modeli" ni joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanmoqda. Har bir mamlakat ushbu muammolarni hal qilishda o'z yondashuviga ega. Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganib, ularning ijobiy jihatlari o'zimizning milliy tizimimizga olib kirish maqsadga muvofiqdir. Yevropa komissiya ma'lumotlariga ko'ra, "DXSH kelishuvlaridan atrof muhitni muhofazalashdan tortib tibbiy yordam ko'rsatish va ta'lim xizmatlarigacha keng doiradagi sektorlarga infratuzilma va xizmatlarigacha keng doiradagi sektorlarda infratuzilma va xizmat ko'rsatishga muvofiq qo'shimcha va to'ldiruvchi vosita sifatida foydalanish mumkinligini anglab olish mumkin. MTM faoliyatida davlat-xususiy sherikchilikning milliy modelini shakllantirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- Tijorat yashkilotlari va MTM manfaatlari xisobga olinadigan ta'lim sohasida DXSH mexanizmlari yaratish va faoliyatini ta'minlash mafkurasi va siyosatini ishlab chiqish;
- DXSH mexanizmlarini joriy etish va faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq masalalarni reglamentlovchi hamda ishtirokchilar soni va tarkibi, ularning o'zaro munosabati, davlat-xususiy sherikchilikning qulay shakillari ularni tashkil qilish va faoliyatini to'xtatish munosabati, davlat-xususiy sherikchilikning qulay shakillari, ularni tshkil qilish va faoliyatini to'xtatish talablarini to'liq belgilab beruvchi qonunchilik bazasini shakllantirish;
- Ta'lim sohasida DXSH mexanizmlarini joriy etish jarayoniga risklarni sug'urtalash uslublari va chorlarini ko'rish;
- MTM faoliyatida DXSH faoliyatini boshqarish, monitoringni yuritish, nazorat qilish tizmini yaratish va qo'llab quvvatlash, jumladan, sanksiyalar qo'llash va DXSH doirasidagi noqonuniy hatti –harakatlar asosida yetkazilgan zararni qoplashning amal qiliuvchi mexanizmlarini ishlab chiqish; [4].

Xulosa

DXSH davlat sektotridan foydalanish uchun e'tirof etilgan bir qator afzalliklarini taqdim etadi. U byudjet tanqisligi sharoitida qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini jalb etish, xususiy sektorning xarajatlarini iqtisod qilish va aholi uchun sifatni oshirish kabi operatsion

samaradorligidan hamda infratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirish qobiliyatidan maksimal foydalanishni o'z ichiga oladi.” DXSH tushunchasi ilgariidan mafkuraviy jihatdan noto'g'ri talqin etilgan va bugungi kungacha bu xato davom etib kelmoqda. U biznes va ijtimoiy soha muassasalari o'zaro hamkorligi hayriya tamoyili asaosida amalga oshirilishi sifatida talqin qilingan. Natijada bunday DXSH lar nomigagina tashkil qilinib, rivojlanishga ta'sir qilmagan. Bunday xolatda biznes ham manfaatdorlik bo'lmaganligi sababli sekin-asta mablag' ajratishni rad eta boshlaydi. Shunday qilib, bizning fikrimizcha, ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik ta'limni boshqarish davlat organlari, ta'lim muassasalari va xususiy biznes vakillarining resurslarini birlashtirish va risklarning, daromad hamda xarajatlarning majburiyatga muvofiq taqsimlanishiga asoslangan ta'lim loyihasini amalga oshirish borasidagi teng huquqli muddatli sheriklik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi qarori. Lex.uz
- 2.Radskiy V., Nabieva A., Milayilova U. Exploring Public-Private Partnership in Prechool Educatoin Provision:
- 3.Yusupov N.A va Qarabaev F.E. Теория и практика государственно-частного партнерства. Учебный модуль. Под. Редак.А.Э. Шайхонова.. Т.:2013.-113С
- 4.A.B.Nizamov. “ Ta'lim muassasalarining ijtimoiy hamkorlikda davlat-xususiy sheriklik modeli” Monografiya. Т.: O'MKHTTKMO va UQT instituti. 2017. -110 В

Ilmiy rahbar

Umarov S.

OZIQ – OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA PARRANDACHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING YO'NALISHLARI

Xalilova M.R. – talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Ushbu maqola qishloq xo'jaligida yetakchi tarmoqlardan biri parrandachilikning tuyaqushchilik sohasi haqida bo'lib, bu qushdan qanday qilib yuqori daromad olish mumkinligi ko'rsatgan. Hozirgi kunda mamlakatimizda ushbu soha unchalik ommalashgani yo'q. Shuning uchun yurtdoshlarimizni ushbu soha bilan chuqurroq tanishtirish maqolamizning bosh maqsadi hisoblanadi.

Parrandachilik chorvachilikning asosiy sohalaridan hisoblanadi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida go'sht, tuxum mahsulotlarini yetishtirishda parrandachilikni o'rni beqiyosdir. Qishloq xo'jalik parrandalari yuqori sifatli oziq – ovqat mahsulotlari – tuxum, go'sht, yog' va yengil sanoat uchun xom ashyosi par va pat yetishtirishda foydalaniladi. Dunyoda hozir 100dan ortiq tovuqlar zoti, 20 o'rdak va kurka va tuyaqushning 40 dan ortiq zotlari bor. Respublikamizda ham tarqalgan tovuq va boshqa qishloq xo'jalik parranda zotlari issiq iqlim sharoitiga moslashtirilganlari mavjud. Mamlakatimizda 4 tuxum yo'nalishidagi tovuqlar, 5 go'sht yo'nalishidagi, 17 go'sht - tuxum, 11 o'rdak, 18 g'oz, 16 kurka va boshqa turlar ko'paytirilmoqda. Ko'p sonli parranda zotlarini qo'lga o'rgatilishi orqali parrandachilik sohasini takomillashtirib borilmoqda. Misol uchun hamyurtlarimizning yangi daromad manbai sifatida kirib kelgan tuyaqushchilik tamog'i [1].

Nega aynan tuyaqush? Bu jonivor haqida gap ketganda “Xarajati qushdek, daromadi tuyadek” degan ibora ko'p ishlatiladi. Hozir bu sohaga butun dunyo qiziqyapti, chunki buning aniq sabablari bor. Tuyaqush antiqa jonivor hisoblanib, o'rtacha 70 yil umr ko'radi va umri davomida 40 – 45 yil tuxum qo'yib nasl beradi. Issiqqa ham, sovuqqa ham chidamli. Ovqat

tanlamaydi. Eng muhimi shundaki 12 – 14 oyda 100 – 120 kg vazn to'playdi, shundan 70 foizi toza go'sht mahsuloti bo'ladi. Go'shti ko'rinishidan mol go'shtiga o'xshasada, aslida undanda mazali, xolesterinsiz, ko'pgina kasalliklarda foydali – jumladan, qandli diabet, saraton, yuqumli kasalliklar kabilarni yengishda inson immun tizimini yaxshilaydi. Tanasining qolgan 30 foiz qismidan ham xom ashyo olinadi.

Tuyaqushning birinchi navbatda terisini alohida aytib o'tishimiz kerak bo'ladi. Terisi dunyoda qimmatligi va chidamligi bo'yicha timsox terisidan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Bir yoshli tuyaqushdan 1,5 – 1,8 metr kvadrat teri olinadi. Jahon bozoriga nazar soladigan bo'lsak uning terisidan chiqayotgan tayyor mahsulotlar haqiqatdan ham chidamliligi va qimmatligi bilan alohida ajralib turadi. Masalan uning terisidan tayyorlangan bitta poyafzal jahon bozorida 300 – 350\$ baholanyapti. Endi hisob kitob qilib ko'rsak bitta tuyaqush terisidan bemalol 4 -5ta oyoq kiyim chiqadi. Bu esa 1500\$ degani. Bundan tashqari uning terisidan ayollar uchun qimmatbaho sumkalar, qishki kiyimlar, qimmatbaho mebellar tayyorlasa bo'ladi.

Agar biz yaqin kelajakda nafaqat terisini eksport qilishni yo'lga qo'ysak, balki o'zimizda shu terini to'liq qayta ishlab tayyor mahsulotlarni ham eksport qilishni yo'lga qo'ysak bu vatanimizga qanchadan qancha valyutalarni olib kelishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari mamlakatimizda ishsizlik darajasini pasaytirib, ish bilan bandlik oshadi. Bitta oilaning 10 dona tuyaqushi bor deb misol qilsak. Oila yiliga kamida 40 -50 million so'm sof daromad ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buni \$ga aylantiradigan bo'lsak 6000\$ga yaqinlashib qoladi degani.

Tuyaqushning yana bir afzallik taraflaridan biri uning hech bir a'zosi chiqitga chiqmasligidadir. Masalan, tuyaqush kipriklaridan ayollar uchun ulama kipriklar tayyorlanadi. Patlari bo'lsa sovuqni ham, issiqni ham o'tkazmasligi bois ulardan qishki ust – boshlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Ichidan chiqadigan moyidan tibbiyotda foydalaniladi. Tuxumining puchog'i esa tabiiy kalsiy hisoblanadi, bundan tashqari undan har xil suvenerlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Tuyaqush go'shti dunyo oziq – ovqat bozorida mazali va xolesterini kam, parxezbop mahsulot sifatida qadirlanadi. Inson organizmi uchun tuyaqush tuxumlari tovuq tuxumlariga nisbatan foydaliroq bo'lishi aniqlangan. Tuyaqush tuxumining bir donasidan butun oila uchun taom tayyorlasa bo'ladi. Bu tuxum shuningdek sayyoramizdagi eng katta qush tuxumi bo'lib, yuqori ozuqaviy qiymatga ega. O'lchamlaridan kelib chiqib 1 dona tuyaqush tuxumi 20 – 30 dona tovuq tuxumining o'rnini bosa oladi. O'tacha qattqlikdagi tuyaqush tuxumining kalloriyalik darajasi 2000 kkal gacha yetadi tuyaqush tuxumlari A va E vitaminlari, karotinoid, B guruhi vitaminlari (B, B1, B2), aminokislotalarga boy mahsulot hisoblanadi[2].

Tongda tuyaqush tuxumidan bir dona omlet (quymoq) tanavvul qilgan kishi bir sutkalik oqsil miqdoriga ega bo'ladi va anvha paytgacha ochlikni his qilmaydi. Bu turdagi tuxumlarda xolesterin miqdori kamligi sababli muntazam tanavvul qilish semirib ketishga asos bo'lmaydi.

Tuyaqush tuxumlarining foydali jihatlari:

- Yurak – qon tomiri tizimini mustahkamlaydi;
- Sochlar, tirnoqlar va teri holatini yaxshilaydi;
- Ko'z ravshanligini oshiradi;
- Muskullar chiqarish uchun vazn to'plashga yordam beradi.

Terisi pishiqligi va egiluvchanligi bo'yicha timsoh terisidan keyin turadi. Patidan karnaval liboslari yoki turli kiyimlar tayyorlanadi.

Xisob – kitob: 1 dona tuyaqush jo'ja(35 -37 kunlik)si 1.800.000 so'm. bir yil davomidagi ozuqa sarfi o'rtacha 2.200.000 so'm. Demak umumiy hissobda 1 dona tuyaqushni 12 oy davomidagi sarf xarajati bizga 4.000.000 so'mga tushadi. Bir yoshlik tuyaqush 90 – 120 kg atrofida tirik vazn egallaydi. Endi bitta o'rtacha 100 kg tirik vazn beradi deydigan bo'lsak, sizning mahsulotingiz 90.000 so'mdan baholanganda 9.000.000 so'm. agar 80.000 so'mdan baholansa 8.000.000 so'm bo'ladi. Demak sof daromad 4 -5 million so'mni tashkil qiladi. Yana shuningdek, tuyaqushlar yiliga o'rtacha hisobda 80ta tuxum berishadi va albatta o'zlari ham tuxumlarini bosib jo'ja chiqara olishadi. Bu shunday noyob parrandaki 42 kunda tuxumidan jo'ja chiqadi. Asosiysi tuxumlarni erkagi va urg'ochisi almashlab bosib jo'ja chiqaradigan yagona parranda hisoblanadi. Tuyaqush 3 yoshda, urg'ochisi esa 2 yoshdan keyin voyaga yetadi. Eng

muhimi tuxum quyish mavsumi asosan joyning iqlimiy shart – sharoitlariga bog'liq bo'lib, O'zbekiston sharoitida bu sentyabr – oktyabr oylariga to'g'ri keladi. Tuyaqushlarni so'yish yoshi 10 – oyligidan (vazni 95 kg dan oshgach) boshlanadi. Bunda 35 – 55 kg go'sht, 95 – 120 dm kvadrat teri olinadi.

Agarda siz tuyaqush naslchiligiga qiziqib qolgan bo'lsangiz, tasavvur qiling sizda 3ta makiyon va 1ta erkak tuyaqushlaringiz va asosiysi sizda inkubator ham bor deylik. 3ta makiyonni har biri yil davomida 80tadan tuxum qo'ydi deylik $80 \times 3 = 240$. Shu 240 dona tuxumdan deylik o'rtacha 200 dona jo'ja ochib chiqartirishga muvofiq bo'lsangiz, jo'jalarning hozirgi kundagi narxi 1.800.000 so'm. $200 \times 1.800.000 = 360.000.000$ so'm. Bu bitta oddiy oila uchun daromad manbai bo'lishi mumkin [3].

Xulosa

Ma'lumki, jahonda go'sht mahsulotlari orasida yetishtirish va iste'moli bo'yicha parranda go'shti ikkinchi o'rinda turadi. Ekspertlarning fikricha, 2020 – yilga borib jahonda parranda go'shti birinchi o'ringa chiqib oladi. Shu sababli parranda go'shtining xavfsizligiva samaradorligini ta'minlashga va uni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda parrandachilikning tuyaqushchilik sohasini rivojlantirishga harakat qilinmoqda. Davlatimiz tuyaqushchilik bilan shug'ullanyotgan tadbirkorlarga chet mamlakatlardan tuyaqush olib kirish uchun bojxona imtiyozi berilmoqda. Bu imtiyozga ko'ra: O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, belgilangan tartibdashakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha olib kiriladigan maxsus texnika, asbob – uskuna, butlovchi buyumlar, ehtiyot qismlar, qurilish materiallari, metal konstruksiyalar uchun 2020–yil 1–yanvariga qadar bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruvchiyig'implaridan tashqari) to'lashdan ozod etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdig'aniyev A., Abdig'aniyev A.A. - “Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti” T.:TDIU, 2010 – 283 bet;
2. www.UzA.uz – O'zbekiston axborot agentligi;
3. www.Agro-Olam.uz – internet sayti.

Ilmiy rahbar

Sangirova U.

YERLARNI MELORATIV HOLATINI YAXSHILASHDA IQTISODITOTNING TUTGAN ROLI

Xonimqulov U.B - talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan iqtisodiy chora tadbirlar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bugungi kunda Respublikamiz iqtisodiyotining rivojida qishloq xo'jaligi muhim o'rnini egallaydi. Qolaversa, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning optimal yechimi ham tabiiy mahsulotlarni yetishtirish ekanligini inobatga olsak, yerning ahamiyati yanada oshadi. Modomiki yer ko'paymas va qayta tiklanmas ekan, yerlarni melioratsiyalash muhim ahamiyat kasb etib qolaveradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi agrar tarmoqdagi ko'plab resurslardan foydalanish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular ichida eng muhim va almashtirib bo'lmaydigan resurslar ham borki ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish agrar iqtisodiy munosabatlarning asosini tashkil qiladi. Ammo, uzoq yillar davomida qishloq xo'jaligida yerdan samarasiz foydalanish, yo'l qo'yilgan kamchiliklar natijasida qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yomonlashishi, suv resurslaridan foydalanishda ilmiy

asoslanganme'yorlarga va tavsiyalarga e'tiborsizlik natijasida sho'rlanish tuproq unumdorligini pasayishiga olib kelmoqda. O'zbekiston ulkan agroiqtisodiy salohiyatga ega mamlakat bo'lib, suv va qishloq xo'jalik muammolari, shu jumladan tuproq – yer muammosining maqbul yechimi qishloq xo'jaligiga va iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir etishi tabiiydir. Zero qishloq xo'jaligi ekinlarining mahsuldorligi va ulardan qayta ishlangan maxsulotlarning yuqori sifati tuproq va yer muammosining samarali yechimiga bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotning barqaror yuksalishiga olib keladi [1].

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada barqaror rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish va shu asosda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini ko'paytirish, shuningdek melioratsiya ishlarini tashkil qilish va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish uchun zarur shart sharoitlar yaratish maqsadida o'tgan davr mobaynida aynan ushbu masalada mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan qator prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining

qarorlari qabul qilindi va ijrosi ta'minlanmoqda. Qishloq xo'jaligida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, tuproq unumdorligini oshirishda Respublika birinchi Prezidentining 2007-yil 29-oktyabridagi PF-3932 sonli "Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni buning yorqin misolidir. Ushbu farmon amaliyotga tadbiriq etilishi natijasida mamlakatimizning minglab gektar yerlarning meliorativ holati yaxshilandi pirovardida qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini yanada oshishiga erishildi. 2015-yilda 7500,0 ming tonnadan ziyod g'alla, 3350,0 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi. Mamlakatimizda bug'doydan gektaridan o'rtacha 55 sentner hosil oldi, ayrim tumanlarda bu ko'rsatkich 60-77 sentnerni tashkil etdi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligining meva-sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik vachorvachilik kabi tarmoqlari ham jadal sur'atlarda rivojlandi. O'tgan yili 12 million 592 ming 140 tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva yetishtirildi. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan 4307,8 ming gektar sug'oriladigan yermaydonlari 1365,4 ming (31,7 %) gektari kam sho'rlangan, 611 ming (14,2 %) o'rta darajada va 117,6 ming (2,7 %) gektar kuchli sho'rlangan yer maydonlarini tashkil etilishini hisobga olsak, bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirish, meliorativ tadbirlarni sifatini yaxshilashnitalab etadi.

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligini isloh qilish, ishlab chiqarish va bozor infara tuzilmasini barpo etish uchun amalgam oshirilgan chora-tadbirlar qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfini shakillantirish, qishloq axolisi daromadlarini ko'paytirish imkonini berdi. Meliorativ sohadagi tadbirlarning loyihalarini, shuningdek ularni moliyalashtirishning aniq manbalarini shakillantirishda tizimli ravishda kompleks yondashilmayotgani, suv xo'jaligi tuzilmalari va suvdan foydalanuvchilar uyushmalarining sust ishlashi keyingi yillarda melioratsiya ishlari hajmlarining kamayishiga, sizot suvlarining darajasi ko'tarilishiga va minerallashuvi oshib ketishiga olib keldi. Buning oqibatida hozirgi vaqtda sug'oriladigan yerlarning yarmidan ko'prog'ini turli darajada sho'r bosgan, ayni vaqtda fermer xo'jaliklariga qarashli sug'oriladigan yerlarning 16 foizdan ortig'i qoniqarsiz holatda.

Birinchi Prezidentimizning mamlakatimizni "2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlari"ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maruzasida takidlab o'tganlaridek bajarilgan ishlar natijasida respublika bo'yicha 1 mln. 700 ming gektardan ortiq sug'orish yerlarining meliorativ holati yaxshilandi. Kuchli va o'rta sho'rlangan maydonlar 100 ming gektarga kamaytirildi.

Bu ishlarning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "2013-2017-yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2013-yil 19-apreldagi PQ-1958-sonli qarori qabul qilindi va mazkur qaror asosida davlat dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi [2].

Bugungi kunda Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan O'zbekistonni 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da barcha sohalar qatori qishloq xo'jaligini ham modernizatsiya qilish borasida eng muhim vazifalarni aniq belgilab, ularni izchil amalga oshirib borayotganligi sohadagi ulkan muvaffaqiyatlarga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bunga yorqin misol qilib shuni aytib o'tish lozimki 2017-yilning o'zida qishloq xo'jaligi sohasiga oid 5 ta qonun, 20 dan ortiq farmon va qarorlar qabul qilindi, 2 ta yangi qo'mita va 3 ta uyushma tuzildi. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyati tubdan takomillashtirildi. Buning natijasida esa mamlakatimizda keyingi yillarda 160 mingdan ortiq fermer xo'jaliklari shakllanib, ular bugungi kunda 10 dan ortiq yo'nalishlarda samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Shu jumladan 12 mingdan ziyod fermer xo'jaligi rahbarlarini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etsa, 6 mingdan ortiq fermer xo'jaligiga xotinqizlar rahbarlik qilmoqda. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari oxirgi 2 yilda 45 foizga ko'payib, bugungi kunda ularning soni 75 mingtaga yetdi. Faqat shuning hisobidan joylarda, uzoq-uzooq qishloqlarda yuz minglab yangi ish o'rinlari yaratildi. Olib borilgan iqtisodiy islohotlar, fermerlik harakatining rivojlanishi natijasida o'tgan yil hisobida mamlakatimiz bo'yicha 8 million 377 ming tonna g'alla yetishtirildi. Bundan tashqari 2 million 930 tonnadan ziyod paxta hosili, 12 ming 450 tonna pilla, 318 ming tonna sholi, 23 million tonna meva-sabzavot, 13-millon tonna go'sht va sut mahsulotlari olishga erishildi. G'allada bo'shagan qariyb, 1 million gektar maydonga sabzavot, kartoshka, poliz va dukkakli ekinlar ekildi va 5,5 million tonnadan ortiq mahsulot yetishtirildi [3].

Qishloq xo'jaligini devirsifikatsiya qilish, yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali dehqonlarning daromadini oshirish borasida olib borilayotgan tizimli ishlar ham asta-sekin o'z samarasini bermoqda. Masalan, 96 ming gektar hosildorligi past yerlarga paxta va g'alla o'rniga 32 ming gektar yerda karam, turli sabzavot va ko'katlar ekildi va bu maydonlardan olingan minglab tonna mahsulotlar eksport qilindi. Shuningdek, 11 ming gektarda intensiv bog' va yangi tokzorlar, 1 ming 500 gektarda issiqxonalar barpo etildi.

Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini suv bilan kafolatli taminlash maqsadida har yili davlat byudjetidan 2 trillion so'mdan ortiq, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun 400 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratilmoqda. Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta yetishtiradigan fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat byudjetidan mablag' ajratish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Agar 2008-yilda ushbu maqsadlar uchun 80 milliard so'm mablag' yo'naltirilgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich 300 milliard so'mni tashkil etdi [4].

Keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash kerakki, qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolarni yechimini topishda tarmoqda amalga oshirilayotgan meliorativ tadbirlar samaradorligini aniqlash va baholash, qishloq xo'jaligi rivojidadagi o'rnini, meliorativ ishlarga sarflangan mablag'larning iqtisodiy samaradorligini hisoblash usullarini takomillashtirish, moliyalashtirish manbaalarini kengaytirish, shu maqsadlar uchun xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, kelajakka mo'ljallangan strategik yo'nalishlarni ishlab chiqish va joriy etish soha rivojini ta'minlash imkonini beradi.

Ma'lumki, davlatimiz iqtisodiyotini rivojlanishida qishloq xo'jaligining ahamiyati katta. Bu esa, qishloq xo'jaligidagi kichik muammolar ham iqtisodiyotga salbiy tas'ir ko'rsatishini isbotlaydi. Bunday muammolardan biri bu sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatining yomonlashishidir. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, yerning sho'rlanishi hosildorlikni 80 foizgacha kamaytiradi. Binobarin, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, sug'oriladigan maydonlarning meliorativ holatini barqaror saqlash mo'1 va sifatli hosil olishning muhim omilidir. Shu sababli hozirda yerlarni meliorativ holatini yaxshilashga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda investitsiyalar qishloq xo'jaligida tarkibiy va sifat o'zgarishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, fermer xo'jaliklarining rivojlanishi uchun qishloq

xo'jaligidagi investitsiyalarning ahamiyati katta. Chunki yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davriy ravishda moliyalashtirishni taqozo etib boradi.

Xulosa

Yuqoridagi ko'rsatkichdan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda yerning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan e'tibor yuksak darajadadir. Mamlakatimiz istiqbolda yuksak natijalarga erishishda sanab o'tilgan loyihalarning ahamiyati katta. Davlatimizning har bir fuqarosi bu loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashsa, tez orada mamlakatimiz hududidagisug'oriladigan yerlarning ko'pgina qismining meliorativ holati yaxshiladi. Umid qilamizki, davlatimiz qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hajmiva sifati yildan-yilga oshib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Umurzaqov O'P., Abdurahimov I.L. "Suv xo'jaligi menejmenti". Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2008-yil 37-bet
2. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "2013-2017-yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish choratadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2013-yil 19-aprel
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" 2017-yil 7-fevral
4. www.stat.uz

Ilmiy rahbar

Toshxodjayeva G.S.

QISHLOQ XO'JALIGIDA SUVDAN TO'G'RI FOYDALANISHNI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

Xonimqulov U.B - talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Bu maqolada suv taqchil bo'lgan sharoitda sug'oriladigan yerlarda suvdan iqtisodiy-ekologik foydalanish sug'orish ta'sirida agroekotizimda ro'y beradigan iqtisodiy va tabiiy-xo'jalik jarayonlarni o'rganishni talab qiladi va tuproq unumdorligini saqlash orqali o'simliklarni suv va boshqa resurslar bilan ta'minlash natijasida yuqori mahsuldorligiga erishish mumkinligi keltirib o'tilgan.

O'zbekiston mustaqillik yillarida, iqtisodiy reformalar tamoyillari va tanlangan rivojlanish yo'llaridan kelib chiqib, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiga o'tishning qonuniy va tashkiliy asoslarini yaratdi va milliy iqtisodiyot ishonch bilan rivojlantirib bormoqda. Mamlakat iqtisodiyotida hozirgi kunda xususiy sektor ustunlik qilmoqda, tarmoqlar, xo'jaliklar, butun iqtisodiyotni boshqarish shakli va usullari o'zgardi.

Qishloq xo'jaligida bosqichma-bosqich o'tkazilayotgan islohotlar mulkchilikning yangi shakliga asosan shakllantirilgan. Qishloq-xo'jaligida ishlab chiqarishini boshqarishning asosiy shakli fermer xo'jaliklari hisoblanib, iqtisodiyotning agrar sektorida yetakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. So'nggi yillar mobaynida xo'jalik yuritishning yangi sharoitlarida korxonalar samaradorligini baholash muammolariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlar chop etilgan. Ularning taxlili shuni ko'rsatadiki, bozor sharoitida foydani oshirish xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning asosiy maqsad funksiyasi hisoblanadi. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida bo'lgani kabi qishloq xo'jaligida ham foyda darajasi asosiy samaradorlik ko'rsatkichi bo'lib, unga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi natijalari asosan ob-havo sharoitlarining ta'siri ostida shakllanadi. Shuning uchun foyda darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'zaro bog'liqligini

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, бюджет ташкилотларида самарали ички аудит хизматини ташкил этиш учун назорат қилишни пухта режалаштириш, режага асосан текширишнинг бюджет ташкилотларига мўлжалланган услубиётини ишлаб чиқиш лозимлигини кўрсатади. Ички аудит ўтказиш услубиётини пухта ишлаб чиқилиши нафақат ички аудиторга, балки молиявий назорат ходимларига ҳам иш жараёнида катта ёрдам беради. Чунки самарали ташкил қилинган ички аудит маълумотлари ишончли ҳисобланади. Давлат молиявий назоратида ички аудит маълумотларидан кенг фойдаланилади. Чунки ички аудитор ташкилотда доимий фаолият олиб бориб, иш фаолиятини қандай ташкил қилинганлиги, хато ва камчиликлар мавжуд бўлган бўлимларни иш жараёнини таҳлил ва назорат қилиб боради. Жаҳон амалиётини олиб қарайдиган бўлсак ички аудит тизимига, унинг ташкил қилинишига ва юритилишига жуда катта эътибор берилганини кўрамыз. Чунки ички аудит ташкилотни доимий таҳлил қилиб борганлиги боис, самарадорлик кўрсаткичларининг юқорилигини кўришимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Н.Санаев “Аудит”, Тошкент – 2014, 126 б
2. www.lex.uz
3. www.nauka-rastudent.ru
4. www.ZiyoNet.uz

Илмий раҳбар

доц. Табаев А.З.

МЕВА-САБЗАВОТ ЭКСПОРТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИНГ ТАРАҚҚИЁТИ.

Махмудов Ж. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экспортини кенгайтириш ҳамда деҳқон ва фермер хўжаликларини ташқи бозорларда талаб юқори бўлган маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳажмини кўпайтириш, қишлоқ хўжалигини ривожлантириш, маҳаллий мева-сабзавот маҳсулотларини ташқи бозорларга чиқариш учун чет элда қабул қилинган меъёр ва стандартларга маҳсулотларнинг мувофиқлигини таъминлаш бўйича тизимли ишларни амалга ошириш бўйича таклифлар келтирилган.

Мамлакатда макроиқтисодий барқарорлик ва иқтисодий ўсишни таъминлаш иқтисодиётнинг барча етакчи тармоқларини жумладан аграр соҳани модернизациялаш, янги техника ва тежамкор технологияларни кенг тadbик этиш билан бирга, қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш таркибини тубдан янгилаш уни ўзгартириш ва диверсификациялашни тақозо этмоқда. Маълумки, қишлоқ хўжалик корхоналари фаолиятини диверсификациялаш орқали қишлоқ хўжалигида ер-сув ресурслар чекланганлиги шароитида ишлаб чиқаришнинг доимий ўсиши зарурлигини таъминлашда, аграр соҳа ва иқтисодий ресурслар салоҳиятидан тўла ва самарали фойдаланиш орқали мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, бошқа саноат ва қайта ишлаш тармоқларини хомашё билан таъминлаш, қишлоқ хўжалигида оқилона бандликни таъминлаш орқали иш кучларини бошқа тармоқларга жалб этиш ҳамда аҳоли турмуш даражаси ва фаровонлигини янада ошириш имкониятлари кенгайди. Шу жиҳатдан қишлоқ хўжалик корхоналари фаолиятини диверсификациялаш уни ташкил этиш борасида республикамиз минтақаларининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда фермерлик фаолиятини ихтисослаштириш борасидаги мавжуд тизимни такомиллаштиришни тақозо этади.

Мамлакатимиз иқтисодиётининг йирик тармоқларидан бири қишлоқ хўжалиги ҳисобланиб, иқтисодий ва ижтимоий барқарорликни таъминлашда муҳим роль ўйнайди. Хорижий мамлакатлар тажрибасидан маълумки, ҳар қайси мамлакат ижтимоий ҳаётида аҳолининг бирламчи эҳтиёжи бўлган озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига бўлган талабини қондириш, бу борада энг самарадор тўғри йўлни белгилаб олиш халқ фаровонлигини таъминлашнинг муҳим омили ҳисобланади. Давлатимиз раҳбари томонидан ушбу соҳада белгилаб берилган йўналишлар, айниқса, бозор муносабатлари талабларига мос равишда қишлоқ хўжалигини ислоҳ қилиш ҳамда таркибий ўзгартиришларни амалга ошириш ушбу соҳада эришилаётган натижалар мисолида қанчалик самарадорли, тараққиёт йўли эканлигини кўрсатиб турибди. Бинобарин, бу борадаги ислохотлар аҳолининг озиқ-овқат маҳсулотларига нисбатан талабини қондириш, халқимизнинг турмуш даражасини ошириш, бозорларимизда нарх-наво барқарорлигини сақлашдек муҳим ижтимоий масалаларни ҳал этиш имконини бермоқда.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган аграр ислохотлар қишлоқ хўжалик корхоналарида ишлаб чиқариш фаолиятини диверсификациялаш яъни замонавий кўп тармоқли фермер хўжаликларини шакл-лантириш ва уларни ривожлантиришга қаратилган бўлиб, бунда мазкур соҳага давлат аграр сиёсатини ишлаб чиқиш ва амалга оширишнинг устувор йўналиши сифатида қаралмоқда. Олиб борилаётган иқтисодий ислохотлар самараси ўлароқ қишлоқ хўжалигида йил сайин ижобий ютуқлар қўлга киритилиб борилмоқда. Бу борада қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш ва сифатини яхшилаш, ташқи ва ички бозорларда рақобатбардошлигини ошириш, иқтисодий ва ижтимоий муаммоларни ҳал этиш, шунингдек иқтисодиёт барча тармоқларида ишлаб чиқаришнинг барқарор ўсишини таъминлашга дастак бўлади.

Таъкидлаш жоизки, ўтган тарихан қисқа даврда юртимиз озиқ-овқат маҳсулотларининг четдан олиб келинишига барҳам беришга муваффақ бўлди, албатта, қўлга киритган натижаларимиз жаҳон бозорининг бугунги мураккаб талаблари шароитида республикамизнинг қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экспорт салоҳиятини кенгайтиришга пухта замин яратмоқда. Шу маънода, давлатимиз раҳбарининг яқинда эълон қилинган —Мева-сабзавот, картошка ва полиз маҳсулотларини харид қилиш ва улардан фойдаланиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги қарори кўзда тутилган вазифаларни амалга оширишни мантиқан янги босқичга олиб чиқади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 21 июндаги ПҚ-3077 сонли «Маҳаллий экспорт қилувчи ташкилотларни янада қўллаб-қувватлаш ва ташқи иқтисодий фаолиятни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорини эълон қилиниши, бу борада олиб борилаётган ишларининг тўғри эканлигини исботлаб туради [1].

Қабул қилинган қарорнинг муҳим жиҳатларидан бири, нафақат маҳсулот ишлаб чиқарувчиларга, балки маҳсулотларни чет элга экспорт қилишда маҳаллий ишлаб чиқарувчиларга кўмаклашадиган ташқи савдо ташкилотларига ҳам экспорт фаолиятини амалга оширишда тенг шароитлар яратиб беради. Бундан ташқари, ишлаб чиқарувчи-экспорт қилувчилар учун қўлланиладиган амалдаги қонунчиликда кўзда тутилган имтиёз ва қулайликлар эндиликда маҳаллий ишлаб чиқарувчиларнинг маҳсулотлари экспорти билан шуғулланадиган барча тадбиркорлик субъектларига татбиқ этилади. Бу экспорт билан тегишли тажриба ва зарур маблағларга эга, доимий равишда жаҳон бозори конъюнктурасини кузатиб борадиган ҳамда ташқи бозорларда ишончли ҳамкорлари бор ихтисослашган компанияларнинг маҳсулотлар экспорти билан шуғулланиши халқаро амалиётга тўлиқ мос келади. Ўзбекистонда етиштирилаётган мева-сабзавот маҳсулотлари иқлим шароитининг жуда қулайлиги туфайли мана шундай ноёб бўлганлиги учун ҳам жаҳон қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари бозорида юқори даражада рақобатбардошдир. Масалан, Ўзбекистонда етиштириладиган узум навлари таркибидаги шакар моддаси 18-30 фоизни ташкил этади, помидор таркибидаги қуруқ моддалар миқдори эса 5,5 фоиздан ошади [2], бу эса европа мамлакатларидаги ишлаб чиқарувчиларнинг шундай маҳсулотларидагидан анча юқори бўлиб, шуниси билан харидорларни ўзига тартади. Бугунги кунда Ўзбекистон мева-сабзавоти маҳсулотининг ўта қимматли навларини етиштириш ва қайта ишлаш, уларни экспорт қилиш соҳасида катта салоҳиятга эга.

Аграр секторда экспортга мўлжалланган маҳсулот ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш ва уни қайта ишлайдиган саноатни етакчи ўринга кўтариш қишлоқ хўжалигида барқарор иқтисодий ўсишни таъминлайди. Маҳсулотларни экспорт қилиш қиймати унинг ҳажмига нисбатан ўсганлиги мамлакатимизда ишлаб чиқарилаётган мева-сабзавот маҳсулотига талаби жаҳон бозорида ортиб бораётганлигидан дарак беради. Бундай аҳвол қишлоқ хўжалиги маҳсулотини қайта ишлаш, консервация ва қадоклаш бўйича мавжуд корхоналарнинг қувватларидан янада тўлароқ фойдаланишниталаб қилади. Жаҳон қишлоқ хўжалиги маҳсулоти бозорининг талабини ҳисобга олган ҳолда қишлоқ хўжалиги экинларининг янги серҳосил ва рақобатбардош, минтақаларнинг тупроқ-иқлим шароитларига мос навларини яратиш, замонавий агротехника усуллари жорий этиш, узум, мева-сабзавот маҳсулотлари ва бошқаларни етиштириш учун мамлакатимизда қишлоқ хўжалигини мунтазам равишда ривожлантириб, такомиллаштириб боришимиз зарур. Экспорт қилинаётган қишлоқ хўжалиги маҳсулотининг сифатини самарали назорат қилиш масалаларида бир қатор қийинчиликлар бор, халқаро талабларга жавоб берадиган синов марказлари ва лабораториялар етишмаслиги сезилмоқда. Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотини ишлаб чиқариш тузилмасини диверсификация қилиш, маҳсулотни етиштириш, ташиш, унга ишлов бериш, уни қайта ишлаш, қадоклаш, ҳам ички бозорда, ҳам ташқи бозорда истеъмолчиларга сотишнинг ресурсларини тежайдиган технологияларини жорий этиш, шу асосда озиқ-овқат маҳсулотларининг экологик хавфсизлигини таъминлаш керак бўлади .

Хулоса

Хулоса ўрнида таъкидлаш жоизки, ушбу чоралар мева-сабзавот маҳсулотларининг экспортини кенгайтириш билан биргаликда деҳқон ва фермер хўжаликларини ташқи бозорларда талаб юқори бўлган маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳажмини кўпайтириш, ер ресурсларидан самарали фойдаланиш, шу жумладан, такрорий экинлар экиш ҳисобига қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ҳосилдорлигини оширишга рағбатлантиради. Бу эса ўз навбатида, ишлаб чиқарилаётган мева-сабзавот маҳсулотларининг нархи ва сифати бўйича ташқи бозорларда рақобатдошлигини ошириш имконини беради. Энг муҳими, деҳқон ва фермер хўжаликлари етиштирган маҳсулотларининг ҳақиқий эгаси сифатида улардан ўз ихтиёрига кўра фойдаланиш, мустақил экспорт қилиш, даромадларини ошириш, оиласининг моддий фаровонлигини кўтаришлари мумкин бўлади, кўшимча валюта тушумлари эса қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришни кенгайтириш ва уларни чуқур қайта ишлаш бўйича янги лойиҳаларни инвестициялаш учун имконият яратиб беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 21 июндаги ПҚ-3077- сонли «Маҳаллий экспорт қилувчи ташкилотларни янада қўллаб-қувватлаш ва ташқи иқтисодий фаолиятни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори.

2. Мева-сабзавот маҳсулотларини қайта ишлаш ва сақлаш шартлари, усуллари, хўл ҳамда қайта ишланган маҳсулотлар ички ва ташқи бозорлар маркетинги бўйича қўлланма, Тошкент-2016.

Илмий раҳбар

Табаев А.

ИНВЕСТИЦИИ В ЗЕЛЕНОЕ БУДУЩЕЕ: ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ (ВИЭ) И ПЕРСПЕКТИВА В УЗБЕКИСТАНЕ.

Примова С. – магистрант, ТГЭУ

Аннотация

В данной статье рассматривается тенденции развития альтернативных возобновляемых источников энергии в лидирующих странах по использованию ВИЭ, глобальное состояние инвестиции в чистую энергию, рекомендации для развития ВИЭ в Республике Узбекистан.

Современные условия глобализации имеют широкий спектр возможностей рационального использования ограниченными ресурсами. При этом проблемы глобальной энергетической политики остаются актуальными и требуют решения в первую очередь, относительно экологии и охраны окружающей среды из-за выброса вредных элементов в атмосферную среду, также зависимость стран от энергоносителей является негативным экономическим показателем при том что ограниченность используемых энергоресурсов требует рационального использования и альтернативного управления. Более того, существует ряд задач касательно развития инфраструктуры топливно-энергетического комплекса, повышения эффективности функционирования глобальной энергетической системы, взаимодействия стран-производителей и потребителей энергоресурсов и другие.

Справочно: Возобновляемые источники энергии (ВИЭ) - источники энергии, непрерывно возобновляемые за счет естественно протекающих природных процессов, включающие в себя следующие виды: энергия солнечного излучения, энергия ветра, гидродинамическая энергия воды, геотермальная энергия - тепло грунта, подземных вод, рек, водоемов, а также антропогенные

источники первичных энергоресурсов - биомасса, биогаз и иное топливо из органических отходов, используемые для производства электрической и (или) тепловой энергии. (источник: приложение к постановлению Кабинета Министров №908 от 13 ноября 2017 г.) .


На сегодняшний день 173 из 194 государств мира приняли программы по развитию ВИЭ, из них 146 провели политику поддержки сектора. При этом за последние 15 лет наибольшее развитие в отрасли получили ветровая и солнечная генерация (используется более 75% инвестиций ВИЭ). На их долю приходится 80% мирового производства энергии из возобновляемых источников.

Страны ЕС являются лидерами по использованию ВИЭ в мире, стимулирующим проектом является инновационные меры Европейской Комиссии (ЕК) в рамках проекта «Чистая энергия для всех европейцев 2030». Для реализации данной программы разработаны законодательные нормы в области развития биоэнергетики, расширения прав потребителей чистой энергетики, улучшение инфраструктуры для инвесторов и модернизации экономики ЕС путем обеспечения новых рабочих мест для населения Европы. По оценкам экспертов ЕК ожидаемый результат от реализации данной стратегии довести долю производства электроэнергии из возобновляемых источников до 50% от общего объема к 2030 году.

Германия (используется 40% ВИЭ от общей доли энергии страны), в 2018 г. возобновляемая энергия впервые превзошла производство энергии чем уголь как часть энергетического элемента страны, на сегодня немецкая комиссия предпринимает меры по закрытию оставшихся угольных электростанций до 2038 г., с государственной поддержкой в размере 40 млрд.евро для немецких регионов зависимых от угля. Инвестиционная поддержка в данный сектор в стране ежегодно около 25 млрд. долл. Для дальнейшего развития и привлечения инвестиций разработаны государственные программы: налоговые льготы и кредиты для организаций использующих ВИЭ, «зеленые тарифы» и сертификаты, выплаты в размере 2,5% за использование электричества.

Великобритания в 2017 г. достигла рекордного использования чистой энергии (ВИЭ превзошли производство энергии чем уголь на 90% времени по сравнению с 2017 г.). Ветряные электростанции произвели больше электроэнергии чем традиционные источники (более чем на 75% дней в году). По сообщениям представителя отдела энергетики, Великобритания сокращает выбросы быстрее чем страны G7.

США активно внедряет чистую энергию и применяет налоговые льготы на предприятия использующие ВИЭ, также регулярно поддерживает различными субсидиями, в результате цена за 1квт электрической энергии составляет 5 центов. Основным толчком для развития альтернативной энергии является проект «Climate Action Plan» благодаря которому выбросы углекислого газа сократились на 2,2%, развитие сектора выросло на 20%, и были созданы более 400тыс. новых рабочих мест.



Глобальные инвестиции в чистую энергию

Источник: BloombergNEF

На сегодняшний день затраты на использование ВИЭ значительно снизились создавая экономичную инвестиционную привлекательность . В 2018 году общий объем

глобальных инвестиций в ВИЭ составили \$332,1 млрд (снизились на 8% по отношению к 2017г.)

По докладу BloombergNEFв 2017 году половина мировой инвестиции в ВИЭ вложил Китай с рекордной суммой 279,8 млрд. долл., в 2018 г. Китай остался лидером с инвестицией 100,1 \$ млрд. Второе место по вкладу в сектор зеленой энергии занимает США, в 2018 году его доля выросла на 12% составив 64,2млрд. долл. Инвестиции Европы выросла на 27 % до \$74,5млрд. что привело к созданию пяти оффшорных ветроэнергетических проектов. Также наблюдается значительное улучшение на рынке солнечной энергетики Испании с выраженными снижениями затрат что привело к продолжению строительства крупных ветряных электростанций в Швеции и Норвегии.

По вкладам в секторы ВИЭ наблюдается повышение доли инвестиции в оффшорную ветроэнергетику (14%), в солнечной энергетике наблюдается спад на 24%, но тем не менее она остается лидером в 2018г. По прогнозам в 2019 году объем строительства солнечных электростанций существенно превысит нынешний показатель (109ГВт).

Возобновляемые источники энергии в Узбекистане являются одной из ведущих отраслей, в развитие которой обращается большое внимание, ключевым фактором выступают благоприятные климатические условия страны. Как отметил в Послании Олий Мажлису (22 декабря 2017 г.) Президент Республики Узбекистан Шавкат Миромонович Мирзиёев «Для повышения эффективности использования энергоресурсов нам необходимо реформировать энергетическую отрасль страны, а также разработать в этом направлении конкурентную среду».

В Узбекистане около 99% энергии приходится на солнечную энергию, потенциал солнечной энергии страны составляет 50,9 млрд. тонн. нефтяного газа. Ветровая энергия обладает потенциалом на 0,5 млн. т.н.э.. Протекающие по территории Узбекистана 650 рек обеспечивают высоким потенциалом для внедрения альтернативной энергетики. На сегодняшний день доля ВИЭ в Республике Узбекистан составляет 1%.

В 2017-2021 годах, Узбекистан планирует реализовать проекты по строительству пяти солнечных фотоэлектрических станций. Стоимость проектов по ВИЭ составит 1,88 миллиарда долларов.

Для эффективного использования перспективный энергетический потенциал страны следует в первую очередь, совершенствовать правовую базу в данном секторе, создавая максимально благоприятные условия и выгодные налоговые и другие льготы для инвесторов и предприятий использующих чистую энергию. Благоприятно создавать правительственные проекты направленные на привлечение иностранных инвестиций в отрасль зеленой энергетики. Также следует повысить научный потенциал в альтернативной энергетике, привлечь опытных зарубежных специалистов, внедрить соответствующие предметы в ВУЗы, повышать квалификацию кадров ВИЭ путем организации научных поездок, грантов и других образовательных систем. Эффективным будет изучение и внедрение мирового опыта успешного использования и внедрения альтернативной энергетики в таких странах как ЕС, США и другие в Республику Узбекистан.

Как показывает мировая практика, инвестиции в зеленую энергетику это вклад в развитие страны, одновременно являющимся решением глобальных экологических, экономических и энергетических проблем, это выход для правильного и эффективного использования ограниченными ресурсами, для решения экономических вопросов в области энергетической импорт-зависимости, также для перехода на новый инновационный уровень, для создания новых рабочих мест и самое главное для защиты окружающей среды и исключения использования углекислых газов.

Список использованной литературы

1. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан №908 от 13 ноября 2017 г.

- 2.Экономическое обозрение №-7, 2018 «Наступающая альтернатива традиционным источникам»
Ф.Абдуллаева
- 3.Рыбальченко И. С. Налоговые льготы как инструмент стимулирования «зеленой энергетики» // Молодой ученый. — 2017. — №19. — С. 156-160
- 4.review.uz «Энергетика нуждается в стратегии»
- 5.<https://dronr.ru/news/2018/01/23/velikobritaniya-postavila-rekord-po-ispolzovaniyu-zelenoj-elektroenergii-v-2017-godu/>
- 6.<http://sreda.uz/rubriki/resc/solnechnye-yenergetika-v-uzbekistane/>
- 7.GISMETEO
- 8.BloomberNEF

МЕВА-САБЗАВОТЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА БОШҚАРИШ МАСАЛАЛАРИ

Розиқов Ж. - таянч докторант, ТДАУ

Аннотация

Мақолада озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда мева-сабзавот маҳсулотларининг аҳамияти ҳамда мева-сабзавотчилик кластерларини ташкил этиш ва уларни самарали бошқариш, давлат ва кластер корхонаси ўртасидаги ижтимоий-иқтисодий муносабатларни такомиллаштириш, кенг имкониятлар яратиш масалаларига эътибор қаратилган.

Ўзбекистонда барча соҳа ва тармоқлар каби қишлоқ хўжалигини жадал ва барқарор ривожлантиришга стратегик вазифа сифатида қаралмоқда. Қишлоқ хўжалигини жадал ва барқарор ривожлантириш зарурати объектив бўлиб, уни таъминлаш мақсадидатармоқда кенг қамровли ислохотлар амалга оширилмоқда. Жумладан, мулкый муносабатлар бозор муносабатларига мослаштирилмоқда, ер муносабатлари ривожлантирилиб, ундан фойдаланиш ҳуқуқи ва ерга эгалик қилиш ҳуқуқлари тартибга солинмоқда. Тармоқнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, ишлаб чиқаришни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш ва тартибга солиш бўйича туб ислохотлар амалга оширилмоқда. Мамлакатда қишлоқ хўжалигини жадал ва барқарор ривожлантиришга қаратилган тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Тармоқда ишлаб чиқаришни ташкил этишнинг энг мақбул ва самарали шакллари вужудга келтириш бўйича жиддий изланишлар олиб борилмоқда.

Ўзбекистон қишлоқ хўжалигининг муҳим тармоқларидан бири мева-сабзавотчилик ҳисобланади. Мева-сабзавотчиликнинг мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашдаги, экспорт салоҳиятини оширишдаги аҳамиятини инобатга олиб, соҳани ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Мамлакатда мева-сабзавот маҳсулотлари етиштириш ҳажмини ошириш, унинг сифатини ва экспорт салоҳиятини яхшилашга қаратилган қатор чора-тадбирлар ишлаб чиқилмоқда ва улар узвий такомиллаштирил- моқда. Олиб борилаётган ислохотлар натижасида йилдан-йилга юртимизда мева-сабзавот маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми ошиб бормоқда.

1-жадвал. Республикада мева-сабзавот ва узум маҳсулотлари ишлаб чиқариш

Маҳсулот тури	1995	2000	2015	2016	2017	2018
Сабзавотлар, минг тонна	2724,7	2644,7	10 128,1	11 275,8	11 433,6	9 635,1
Мевалар ва резаворлар, минг тонна	602,3	790,9	2 746,2	3 042,8	3 076,3	2 589,7

Полиз, минг тонна	472	451,1	1 853,1	2 044,9	2 094,8	1 904,9
Узум, минг тонна	621	624,2	1 579,0	1 735,8	1 748,9	1 564,5

Манба: Ўзбекистон Республикаси Статистика қўмитаси маълумотлари

Жалвал маълумотларидан кўриниб турибдики ўрганилаётган даврда мева-сабзавот маҳсулотлари ишлаб чиқариш барқарор ўсиш тенденциясига эга бўлган. 1995-2017 йиллар ичида сабзавот ишлаб чиқариш 4,2, мева ва резаворлар 5,1 ва узум 2,8 мартага кўпайган. 2018 йилга келиб мева-сабзавот маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми 2017 йилдагига қараганда бир оз камайган. 2018 йил кўрсаткичларининг нисбатан паст бўлишининг сабабини изоҳлаб, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2018 йилнинг 8 декабридаги Қишлоқ хўжалиги хоимлари куни муносабати билан байрам табригида “...халқимиз бу йилги мавсум қандай оғир ва мураккаб кечганини яхши билади. Ҳақиқатан ҳам, табиат инжиқликлари – баҳорнинг қуруқ келгани, кутилмаган жала ва бўронлар, ёз фаслидаги кучли сув танқислиги, жазирама иссиқ, турли хашорат ва касалликлар экин-тикинга катта хавф туғдиргани, кузда эса ёғин-сочинларнинг барвақт бошлангани мамлакатимиз қишлоқ хўжалиги ходимларини яна бир бор жиддий синовдан ўтказди.” – дея таъкидлади.

Кейинги даврларда мева-сабзавот маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини оширишнинг энг мақбул ва самарали йўналиши кластер усули эканлиги таъкидланмоқда. Шу сабабли мева-сабзавот кластерларини ташкил этиш ва ривожлантириш мева-сабзавот маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини оширишнинг, тармоқ самарадорлик даражасини юксалтиришнинг, соҳани жадал ва барқарор ривожлантиришнинг муҳим стратегик йўналиши сифатида қаралмоқда.

Кластер - бирор турдаги маҳсулотни ишлаб чиқаришнинг технологик занжирида маълум ихтисослашувва меҳнат тақсимотига эга ҳамда ягона мақсад йўлида уюшган корхоналар тизими тушунилади [3].

Ривожланган давлатлар тажрибаси қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантиришнинг йўналишларидан бири соҳада ишлаб чиқаришнинг замонавий шакллари, жумладан, маҳсулот етиштиришнинг кластер усулида ташкил этиш мумкинлигини кўрсатмоқда.

Мева-сабзавотчилик тармоғида амалга оширилаётган туб иқтисодий ислохотлар ва таркибий ўзгаришлар натижасида тармоқнинг асосий иқтисодий кўрсаткичларини ошириш мақсадга мувофиқ. Тармоқни жадал ва барқарор ривожлантириш, иқтисодий самарадорлигини ошириш мақсадида қатор фармон ва қарорлар қабул қилинмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 мартдаги “Ўзбекистон Республикасида мева-сабзавотчиликни жадал ривожлантиришга доир кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5388-сон Фармони соҳани ривожлантиришга қаратилган муҳим стратегик ҳужжат ҳисобланади.

Унга кўра 2018 йилда ҳар бир ҳудудда 1-2 та мева-сабзавот кластерлари ташкил этилиб, 2019 йилдан бошлаб мева-сабзавот етиштиришга ихтисослашган барча туманларни қишлоқ хўжалик ишлаб чиқаришини ташкил этишнинг кластер шаклига ўтиши назарда тутилган бўлиб, ушбу кластерларга кўчатзорлар, жумладан логистика марказлари (музлатгич, омбор, қайта ишлаш қувватлари, лаборатория, машина-техник станциялари учун инфратузилма бинолари)ни ташкил қилиш учун ер майдонлари ажратиш тўғрисида қарорлар қабул қилиниши кўрсатиб ўтилган [1].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 декабрдаги “Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5285–сонли Фармони, ижроси юзасидан биргина мисол Республиканинг Бухоро вилоятида “VST Cluster” корхонаси ташкил этилди. Корхона учун 123,1 миллион АҚШ доллариллик инвестиция йўналтирилиб, дунёнинг етакчи давлатларида ишлаб чиқарилган замонавий, калава, уни бўяш ва тўқув-трикотаж фабрикалари ташкил этилмоқда.

Лойихага кўра, мазкур кластер тизимида жами саккизта компания фаолияти йўлга қўйилади. Пахта экиш агрокомплекси, пахтани қайта ишлаш ва тозалаш заводи, бешта

фабрикани ўз ичига олган тўқимачилик мажмуаси, ёғ-мой заводи, 12 минг бош қорамол парваришлагга мўлжалланган чорвачилик фермаси, биогаз ишлаб чиқариш заводи, тежамкор технологияларга асосланган 20 гектарлик иссиқхона, 25 турдан ортиқ сут ва гўшт маҳсулотлари тайёрланадиган корхона шулар жумласидандир. Матони бўяшда ишлатиладиган қимматбаҳо табиий бўёқ олинадиган индиго-ферум ўсимлиги ҳам айнан кластер ҳудудида экиш мўлжалланмоқда.

Республикамизда мева-сабзавотчилик кластерларини ташкил этиш соҳани янги ривожланиш босқичига олиб чикувчи омил сифатида эътироф этилмоқда. Ишлаб чиқаришни ташкил этишнинг янги шакли сифатида юзага чиқаётган мева-сабзавотчилик кластерларида бошқариш тизимини такомиллаштириш зарурати мавжуд. Мева-сабзавотчилик кластерлари самарали фаолият юритишлари, юқори пировард натижаларга эришиши учун, уларни бошқариш тизимининг функциялари, вазифалари нималардан иборат бўлиши лозим?, кластер иштирокчиларининг манфаатлари қандай уйғунлаштирилади?, кластер билан давлат ўртасидаги иқтисодий муносабатлар қандай ва қайси механизмлар устиворлигида амалга оширилади? деган қатор саволларга самарали ечим топиш талаб қилинади. Бу ўз навбатида қишлоқ хўжалиги, жумладан мева-сабзавотчиликни ривожлантиришнинг стратегиясини илмий асослашни талаб қилади.

Мамлакат аҳоли сонининг ўсиб бориши, озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ва мустаҳкамлаш, тармоқнинг экспорт салоҳиятини ошириш зарурати мева-сабзавот маҳсулотларини кластер усулида етиштиришни йўлга қўйиш ва ривожлантиришни талаб қилади. Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида 60 дан ортиқ мева-сабзавот кластерлари ташкил этилди ва йил охирига бориб, уларнинг умумий сони 100 тадан ортиши белгилаб қўйилган.

Бу масалаларга эътибор қаратиб, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида “... қишлоқ хўжалиги соҳасини бошқариш тизимини ислоҳ қилиш, ер ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш борасидаги илғор технологияларни жорий этиш, озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш энг муҳим вазифамиздир. Шу билан бирга, ғалла ва мева-сабзавот кластерлари фаолиятини ҳар томонлама ривожлантириш керак. Бу соҳа биз учун нисбатан янги эканини инобатга олиб, уни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, жумладан, кредит тизимини соддалаштириш, харажатларни субсидиялаш, ер ажратиш билан боғлиқ тартибларни қайта кўриб чиқиш талаб этилади.” [2] – деб таъкидлади. Бу стратегик вазифалар мева-сабзавотчиликда кластер тизимини шакллантириш ва уни ривожлантиришга қаратилган масалаларни ечимини топиш борасидаги тадқиқотлар кўламини кенгайтириш мақсадга мувофиқ эканлигини белгилаб беради.

Бизнинг фикримизча мева-сабзавотчилик кластерларини самарали ташкил этиш ва уни самарали бошқариш масалаларини такомиллаштириш борасида қуйидаги йўналишларда илмий тадқиқотлар олиб бориш ва аниқ таклифлар ишлаб чиқиш энг муҳим вазифалардан саналади:

- мева-сабзавотчилик кластерлари иштирокчиларининг манфаатларини тўлиқ инобатга олувчи, уларни ҳамкорликда ривожини таъминлашга қаратилган рағбатлантирувчи ва кластер тизимида қўшилган қийматни оширишга хизмат қилувчи чора-тадбирлар дастури ишлаб чиқиш;

- мева-сабзавотчилик кластерларини бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш;

- мева-сабзавотчилик кластерларини бошқариш компанияси (бош корхонаси)нинг таркиби, унинг асосий вазифалари ва функциялари аниқ белгилаш;

- мева-сабзавот кластерлари иштирокчилари ўртасидаги шартномавий муносабатларни такомиллаштириш;

- мева-сабзавотчилик кластерларининг давлат билан иқтисодий алоқаларини кенгайтириш, хусусан, солиқ, кредит, божхона, экспортни қўллаб-қувватлаш механизмларини такомиллаштириш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 мартдаги “Ўзбекистон Республикасида мева-сабзавотчиликни жадал ривожлантиришга доир кўшимча чора тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5388 сон Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи, 29.12.2018 й.
3. М.С.Юсупов Агросаноат интеграцияси. Т.: 2015й.

Илмий раҳбар

доц. Хақимов Р.

ЎРМОН ХЎЖАЛИГИДА ТАРКИБИЙ ЎЗГАРИШЛАР ВА ТАРМОҚДА ИҚТИСОДИЙ ТАДҚИҚОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ.

Холиёров У.Э. докторанти ТИҚХММИ

Аннотация

Мақолада республикамиз ўрмон хўжалигида таркибий ўзгаришлар, тармоқда мавжуд бўлган айрим муаммо ва камчиликлар таҳлил этилиб, ўрмончилик тизимидаги мавжуд ресурслар салоҳиятидан самарали фойдаланиш, тармоқни ривожлантиришда иқтисодий тадқиқотларнинг ўрни ва аҳамияти баён қилинган. Иқтисодий характердаги илмий тадқиқот ишларининг асосий йўналишлари таклиф этилган.

Ривожланган бозор муносабатлари шароитида иқтисодий қонунлар ва категорияларнинг амал қилиши тамойиллари иқтисодиётнинг барча соҳалари, тармоқлари ва бўғинлари учун умумий бўлсада, улардаги ижтимоий-иқтисодий ва табиий шарт-шароитларга боғлиқ ҳолда ўзига хос бўлган хусусиятлар ҳам муҳим аҳамият касб этади. Бундай ўзига хослик айниқса аграр соҳа тармоқларида яққол номоён бўлади. Чунки аграр соҳада ишлаб чиқариш ва табиий ресурслардан фойдаланиш жараёнлари, ишлаб чиқариш кучлари ва ишлаб чиқариш муносабатлари ўртасидаги ҳамоҳангликни таъминлаш ҳамда кенгайтирилган такрор ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш кўп жиҳатдан табиий иқлим шароитлар, тупроқ унумдорлиги, тирик организмлар (ўсимлик, ҳайвонот ва бошқа табиий омиллар) билан бевосита боғлиқдир.

Бундай ҳолат ҳар қандай ижтимоий-иқтисодий тизимда ҳам такрор ишлаб чиқариш жараёнларининг таркибий қисми ҳисобланиб, барқарор, узоқ муддатли иқтисодий ўсишнинг асосий омили бўлиб қолаверади.

Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви, халқаро меҳнат тақсимотидаги тадрижий ўзгаришлар, жаҳон иқтисодиётида юз бераётган интеграцион ривожланишлар ҳар бир давлат олдида ишлаб чиқаришнинг узлуксиз равишда тикланиб боришини таъминлаш учун мавжуд ресурслар салоҳиятидан самарали фойдаланиш, уларни доимий равишда такрор ишлаб чиқариш, тиклаш, хусусан қишлоқ хўжалиги тармоқларида тупроқ унумдорлигини ошириш ва ўрмонларни тиклаб бориш, сув ва ҳаво ҳавзаларини тоза сақлаш зарурлиги нафақат бугунги куннинг долзарб вазифаси балки узоқ истиқболда ҳам ижтимоий-иқтисодий ишлаб чиқариш узлуксизлигини таъминлаш, тобора чекланиб бораётган ресурсларга бўлган талаб ва унинг қондирилиши даражасидан келиб чиқади. Бундай ҳолатни ҳозирги вақтда жамиятда такрор ишлаб чиқариш жараёнининг ўзи борган сари кўпроқ экологик-иқтисодий характерга эга бўлиб бораётганлиги билан ҳам изоҳлаш мумкин.

Умуман ишлаб чиқариш, тақсимот, айирбошлаш ва истеъмол жараёнларида амал қиладиган умумиқтисодий қонун ва категориялар табиий, ишлаб чиқариш, молиявий, моддий ва меҳнат ресурсларидан фойдаланишда ўзига хос талаб ҳамда ёндашувларини белгилаб беради. Ушбу жараёнларда табиат қонунлари таъсири ҳам кучли бўлади. Зеро

моддий неъматларни яратиш, улардан оқилона ва самарали фойдаланиш жамиятдаги ижтимоий-иқтисодий муносабатларнинг қай даражада шаклланганлиги ва ўрнатилганлигига бевосита боғлиқдир.

Маълумки бизнинг мамлакатимиз ҳам ишлаб чиқариш ва табиий ресурсларга ниҳоятда бой бўлган давлатлар сирасига киради. Улар ичида ёқилғи энергетика, углеводородлар, металл-минерал хом ашё ресурслари, қаторида асрлар мобайнида шаклланган ўрмон фонди ва улардаги мавжуд табиий ресурслар ҳам муҳим ўрин эгаллайди.

Шу ўринда алоҳида таъкидлаш лозимки мамлакатимиз Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ- 4947 сонли Фармонининг “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устивор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси” баён этилган биринчи иловасида “...таркибий ўзгартиришларни чуқурлаштириш ва қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини изчил ривожлантириш, мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини янада мустаҳкамлаш, экологик тоза маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кенгайтириш, аграр секторнинг экспорт салоҳиятини сезиларли даражада ошириш” масаласи алоҳида стратегик вазифа сифатида қайд этилганлиги ўрмончилик тармоғида ҳам таркибий ўзгаришларни чуқурлаштириш, ўрмон хўжалиги корхоналарида қишлоқ хўжалиги шу жумладан экологик тоза маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва иқтисодий самарадорлигини ошириш масалаларига ҳам жиддий эътибор қаратишни талаб этади.

Тадқиқот ишимизнинг мақсад ва вазифаларидан келиб чиққан ҳолда айтиш мумкинки ўрмонлар республикамизда мавжуд табиий ресурсларнинг салмоқли қисмини эгаллаши билан бирга ўзига хос катта ишлаб чиқариш салоҳиятига ҳам эгадир. Энг катта ва қимматли ресурслардан бири бўлган мамлакатимиз ўрмон фонди ерлари бугунги кунда 10566,3 минг гектарни ёки республикамиздаги жами ер фондининг 25,2 фоизини ташкил этади. Мавжуд ўрмон фонди ерларидан 4043,9 минг гектари ўрмонзорлардан иборатдир. Республика бўйича ўрмонзор ва бутазорлар майдони жами ер майдонинг 7,3 фоизини ташкил қилмоқда. Таъкидлаш лозимки 2017 йилнинг август ойи ҳолатига давлат ўрмон фонди ерларида 55 та давлат ўрмон хўжаликлари, 7 та қўриқхона, 5 та ўрмон ва овчилик хўжаликлари, 2 та миллий боғ, 1 та ўрмон биосфера резервати, 5 та доривор ўсимликлар етиштиришга ихтисослашган ўрмон хўжалиги, 6 та ўрмон тажриба станцияси, 5 та ишлаб чиқариш корхони, 4 та ирригация ўрмон хўжалиги ва 2 та экопитомниклар мавжуд бўлган. Бундан ташқари ўрмон хўжалиги тизимидаги сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳам бебаҳо табиий ресурс сифатида миллий иқтисодиётимизни ривожлантиришда катта аҳмиятга эга бўлиб, улардаги мавжуд ресурс салоҳиятидан самарали фойдаланишни талаб этади. Лекин ҳозирги вақтда ўрмон хўжалиги тизими ва унинг таркибига кирган ўрмончилик хўжаликларидаги мавжуд бўлган айрим муаммо ва камчиликларни бартараф этиш, тармоқда амалга оширилаётган таркибий, ташкилий-иқтисодий йўналишлардаги ислохатларни янада чуқурлаштириш, ўрмон ресурсларининг бой салоҳиятидан тўла-тўқис ва оқилона фойдаланишни таъминлаш, ўрмон хўжалигини республика, ҳудудий ва корхоналар кесимида бошқарув тизимини янада такомиллаштириш, ўрмон фонди ерларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, соҳага илм-фан ютуқларини жорий этиш, ўрмончилик хўжаликларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ва модернизациялаш, хорижий инвестицияларни янада фаол жалб этиш ҳамда экологик туризмни ривожлантириш масалаларидаги айрим камчилик ва муаммолар республика ўрмончилик тизими самарадорлигини оширишда мавжуд ресурслар ва ишлаб чиқариш салоҳиятидан самарали фойдаланишга маълум даражада салбий таъсир кўрсатмоқда.

Юқорида қайд этилган ҳолатлардан келиб чиққан ҳолда ва ўрмончилик тармоғидаги имконият ва ресурслардан фойдаланиш жараёнларини янада ривожлантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 11 майдаги “Ўзбекистон Республикаси ўрмон хўжалиги давлат қўмитасини ташкил этиш тўғрисида” ги ПФ-5041-

сонли ва 2017 йил 11 майдаги “Ўзбекистон Республикаси Ўрмон хўжалиги давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” ги ПҚ – 2966 –сонли қарори ўз мазмуни ва моҳияти жиҳатидан мамлакатимиз ўрмончилик тизимини комплекс тарзда ривожлантиришда дастурий аҳамиятга эга бўлган тарихий ҳужжат бўлди. Чунки мухтарам Президентимизнинг мазкур Фармон ва қарорида ўрмончилик тармоғида чуқур таркибий ислоҳатлар амалга оширилши, барча даражада тармоқни бошқариш тизими самарадорлигини ошириш, республика ўрмон фондини муҳофаза қилиш, такрорий кўпайтириш, қайта тиклаш ва маҳсулдорлигини ошириш, ундан фойдаланишнинг ҳуқуқий асосларини янада такомиллаштириш ҳамда давлат ўрмон фонди ерларидан самарали фойдаланишда ягона давлат сиёсатини юритишнинг асосий йўналишлари белгилаб берилган. Таҳлил ва тадқиқот натижалари кўрсатишича ўтган давр мобайнида мамлакатимизда ўрмончиликни ривожлантиришнинг илмий таъминотини яхшилаш мақсадида ўрмон экинлари селекцияси, уруғчилик, кўкаламзорлаштириш, агроўрмон мелиорацияси ва ҳимоя ўрмонларини барпо этиш каби бир қатор ихтисосликларда олимларимиз томонидан катта ва кенг қамровли илмий-тадқиқот ишлари амалга оширилганлиги ва уларнинг натижаларини амалиётга жорий этилиши натижасида республикамизда ўрмончилик илмини ва албатта ўрмон хўжаликлари фаолиятини ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга эканлигини эътироф этиш зарур деб ҳисоблаймиз.

Лекин таъкидлаш лозимки бевосита агросаноат мажмуаси доирасида хусусан қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти ихтисослиги бўйича амалга оширилган илмий изланишларда бевосита ўрмон хўжалигини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий муаммолари ечимига бағишланган илмий-тадқиқот ишлари деярли амалга оширилмаган. Бу ўз навбатида ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот муассасаларининг иқтисодиёт йўналишидаги олий таълим муассасалари ва илмий-тадқиқот институтлари билан ўзаро ҳамкорлик муносабатларини ривожлантириш заруратини келтириб чиқаради.

Шу нуқтаи назардан бугунги кун ва яқин истиқболда мамлакатимиз ўрмон хўжалиги тизимини модернизациялаш, таркибий ўзгаришларни янада такомиллаштириш, тармоқда мавжуд бўлган катта ресурс салоҳиятидан фойдаланишни яхшилаш, ўрмончилик хўжаликлари фаолиятининг ишлаб чиқариш ва иқтисодий самарадорлигини ошириш бўйича илмий-тадқиқот ишларини ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Фикримизча бундай илмий изланишлар дастлабки босқичда қуйидаги йўналишларини қамраб олиши мақсадга мувофиқ бўлади. Жумладан:

- Ўрмон хўжалигида таркибий ўзгаришлар самарадорлиги, тармоқда интеграцион жараёнларни ривожлантириш;

- Ўрмон хўжалиги тизимида ресурс салоҳияти шаклланиши ва ундан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг илмий-услубий ва назарий асосларини такомиллаштириш;

- Ўрмончилик хўжаликларида доривор ўсимликлар етиштириш ва уларнинг фармацевтика саноати корхоналари билан интеграцион асосда ҳамкорлик алоқаларини такомиллаштириш;

- Ўрмон хўжалиги ресурс салоҳиятидан самарали фойдаланиш бўйича хорижий тажрибалар ва уларни республикада қўллаш имкониятларини аниқлаш;

- Ўрмон хўжалиги корхоналарида хомашё етиштирувчи ва уларни қайта ишлаш корхоналари фаолиятини кластер усулида ташкил этиш асосида қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштириш ва хизматлар кўрсатишнинг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш;

- Республикамиз ҳудудларида янги ўрмонларни барпо этиш, кўчатчилик хўжаликлари фаолиятининг иқтисодий самарадорлигини ошириш, ўрмон хўжалиги корхоналарида халқ истеъмоли товарлари ишлаб чиқаришни ривожлантириш;

- Ўрмончилик хўжаликларида ер ва сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш;

- Ўрмон хўжалиги тизимида маҳсулот ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатиш жараёнларини ўрта ва узоқ муддатли режалаштириш ва прогнозлаштиришнинг илмий услубий ва амалий асосларини такомиллаштириш;

- Ўрмон хўжалиги корхоналари ўртасида иқтисодий муносабатларни такомиллаштириш, тармоқда маркетинг тадқиқотларини ривожлантириш, мавжуд экспорт салоҳиятидан самарали фойдаланиш имкониятларни аниқлаш ва ривожлантириш;

- Республика ўрмон хўжалиги тизимида экологик тоза маҳсулотларни ишлаб чиқарувчи органик қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш;

- Мамлакатимизда ташкил этилган эркин иқтисодий ҳудудлар доирасида тармоққа ички ва ташқи инвестицияларни жалб этиш орқали экологик туризмни ривожлантириш йўналишларида илмий ва амалий тадқиқот ишларини олиб бориш;

- Тармоқни ишлаб чиқариш ва иқтисодий ривожлантириш бўйича давлат-хусусий шерикчилик муносабатларини такомиллаштириш, ўрмон хўжалигини давлат томонидан бошқариш ва қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш.

Хулоса

Фикримизча иқтисодиёт ихтисосликлари бўйича юқорида қайд этилган йўналишларда фундаментал, амалий ва инновацион характердаги илмий-тадқиқот ишларини ташкил этиш ва ривожлантириш мамлакатимиз иқтисодиётининг етакчи тармоқларидан бири бўлган ўрмончиликни янада ривожлантириш тармоқ корхоналари фаолиятини модернизациялаш, ишлаб чиқариш ва иқтисодий самарадорлигини ошириш баробарида тизимнинг барқарор ривожланишини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947 сонли Фармонининг “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устивор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси” деб номланган биринчи иловаси учинчи бўлими 3.3 банди биринчи хат боши.

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 11 майдаги “Ўзбекистон Республикаси ўрмон хўжалиги давлат қўмитасини ташкил этиш тўғрисида” ги ПФ-5041-сонли ва 2017 йил 11 майдаги “Ўзбекистон Республикаси Ўрмон хўжалиги давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” ги ПҚ – 2966 –сонли қарори.

3.Программа КГМСХИ по устойчивому развитию сельского хозяйства в центральной Азии и Закавказье. Отдел по развитию Программы КГМСХИ Ташкент, Узбекистан. 2005г-11с.

4.А. Эргашев “Барқарор тараққиёт ва табиатшунослик асослари” Тошкент. “Бактрия Пресс”-2016 й. 252б.

Илмий раҳбар

проф. Бахретдинова Х.А.

МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ СТАБИЛЬНОСТЬ, ВНЕДРЕНИЕ ИНВЕСТИЦИЙ И РАЗВИТИЕ ПЕРСПЕКТИВНЫХ ИННОВАЦИЙ

Уткина К. – студентка, ТИИИМСХ

Аннотация

В век инноваций и научно-технического прогресса, когда усиливается конкуренция на мировом рынке, наша Республика также не стоит на месте и требует от

нас нового мышления и развития, чтобы тоже вывести Узбекистан на высокий уровень. Поэтому была принята стратегия действий Республики Узбекистан на 2017-2021 года.

Согласно Постановлению Кабинета Министров №П-5155 «Об организационных мерах по разработке проекта Государственной программы по реализации Стратегии действий в «Годе поддержки активного предпринимательства, инновационных идей и технологий», также, в соответствии с Постановлением №П-178 от 6 марта 2018 года для поддержки научных исследований молодых экономистов, широкого внедрения проводимых исследований, 28 мая 2018 года в Ташкентском государственном экономическом университете совместно с Банковско-финансовой академией Республики Узбекистан проведена научно-практическая конференция на тему: «Стратегия действий Республики Узбекистан: макроэкономическая стабильность, инвестиционная активность и перспективы инновационного развития», [1].

На конференции участвовали ведущие специалисты в области экономики из России, Центральной Азии и зарубежных стран, в частности, академики Академии наук России, Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана, ректоры высших учебных заведений и экономисты из-за рубежа, Германии, Великобритании, Австралии и Индонезии, представители международных организаций, дипломатического корпуса и иностранных компаний и академики Академии наук Республики Узбекистан, директора научно-исследовательских институтов, специалисты-практики, а также ректоры и профессора-преподаватели престижных вузов.

Можно отметить, что были представлены лекции и презентации академиков, учёных и практиков по реализации реформ по третьему пункту Стратегии действий – «Развитие и либерализации экономики», также в 2017 году был обеспечен свободный обмен национальной валюты — сумами, участникам конференции были приведены прогнозные показатели, связанные с обеспечением экономического роста, в результате снижения ставок таможенных платежей в два раза для создания эффективной рыночной экономики и либерализации внешней торговли.

Стоит отметить, что основными целями являются, *во-первых* постепенный переход нашего государства на следующий этап развития, который будет выводить нашу страну на мировой уровень.

Во-вторых, изменения в подходе к странам-партнерам в финансовых отношениях, что доказывает подписание двусторонних межправительственных соглашений о развитии инвестиционных и торгово-экономических отношений.

Таблица 1. [1].

Китайская Народная Республика	23 млрд. долл
Российская Федерация	16 млрд. долл
Республика Южная Корея	10 млрд. долл
Турция	3,5 млрд. долл
Казахстан	2,2 млрд. долл
Кыргызстан	455 млн. долл. США

В-третьих, восстановлены полноценные отношения с Европейским банком реконструкции и развития, которые предоставили кредитную линию в размере 190 миллионов долларов для малого бизнеса и частного предпринимательства. Были разработаны более 20 проектов в разных направлениях. Установлено сотрудничество с Европейским инвестиционным банком и Французским агентством развития. Узбекистан стал равноправным членом недавно созданного Азиатского банка инфраструктурных инвестиций. Также, стоит отметить, что были устранены все искусственные барьеры для внешней торговли, в частности, введена процедура экспорта без предоплаты и гарантийных обязательств. Были отменены избыточные и устаревшие лицензионные требования. Были упрощены механизмы экспорта сельскохозяйственной продукции [2].

Таблица 2. [3]. Оборот внешней торговли РУз (за январь- декабрь 2018 года)

	Млн.дол. США	В % к январю-декабрю 2017 г.	Удельный вес, %
Внешнеторговый оборот	33809,1	127,3	100
Страны СНГ	12431,5	136,9	36,8
Другие страны	21377,6	122,3	63,2
Экспорт	14253,9	113,5	100
Страны СНГ	5292,5	129,7	37,1
Другие страны	8961,4	105,8	62,9
Импорт	19555,2	139,6	100
Страны СНГ	7139,0	142,7	36,5
Другие страны	12416,2	137,8	63,5
Сальдо	-5301,3	х	х
Страны СНГ	-1846,5	х	х
Другие страны	-3454,8	х	х

Вывод: на основе всех изложенных выводов на конференции, были подготовлены дальнейшие шаги к развитию нашей страны, которые были предложены не только учёными из Узбекистана, а также наших зарубежных специалистов для рекомендаций правительству. Таким образом, завершилось первое пленарное заседание конференции.

Список использованной литературы

- 1.http://kultura.uz/view_2_r_11554.html
- 2.<http://uza.uz/ru/programs/25-years/ispolnenie-strategii-deystviy-i-ekonomicheskikh-reform-28-05-2018/>
- 3.Государственный комитет РУз по статистике. «Социально-экономическое положение РУз»

Научный руководитель

Аллаева Р. Р.

РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКЕ СТРАНЫ

Химматов Э. – студент, ТИИИМСХ

Аннотация

В данном тезисе рассматриваются взаимосвязь между потреблением, сбережением и инвестициями, главные факторы производства, обеспечивающие рост в экономике и такое свойство инвестиционных ресурсов, как “эффект мультипликатора”.

Макроэкономический подход выявляет парадокс между тенденцией к увеличению потребления, что вызывает уменьшение накопления, т. е. инвестированных источников, и, с другой стороны, снижением производимого общественного продукта и, тем самым, уменьшением потребления. Снижение производственных инвестиций, т. е. будущих средств производства, ведет к спаду самого производства, произведенного национального продукта и национального дохода, из которого образуется потребление.

Производственные инвестиции - это будущие основные средства производства, основной капитал, [1].

Тот факт, что основной капитал является определяющим фактором производства, давно признан ведущими учеными - экономистами мира, т. е. объем произведенного продукта зависит от основного капитала (объема инвестиций) и занятых в производстве

трудовых ресурсов, и растет при увеличении факторов производства. Следовательно, для увеличения объема производства, обеспечения экономического роста необходимо увеличивать либо капитал, либо трудовые ресурсы, либо оба фактора одновременно. Так как возможности увеличения трудового фактора ограничены, то главным источником роста становится капитал, увеличить который можно, наращивая инвестиции. Подобная двухфакторная модель несколько упрощена, она не учитывает в явном виде такие факторы, как научно-технический уровень производства. Но даже и при таком подходе ясно, что для масштабного использования этих факторов нужны вложения в науку, технику, технологию. Наращивание трудовых ресурсов и повышение их отдачи также не представляется возможным без вложений в человеческий капитал. Активность инвестиционных ресурсов как экономического фактора предопределяется также их уникальным свойством, “эффектом мультипликатора”. Вложения в одну из отраслей вызывают необходимость вложений в отрасли, смежные с ними. В итоге возникает неизбежный вторичный поток инвестиций в производство смежных отраслей. Волны, порождаемые первичными инвестициями, конечно, затухают, вторая волна слабее первой, а третья волна слабее второй. Но, в целом, эффект мультипликатора приводит даже в течение года примерно к удвоению первоначальных инвестиций, что подтверждается хозяйственной практикой ряда стран. Этот эффект имеет и обратное действие: отток инвестиций из одной отрасли вызывает со временем дополнительный отток их из смежных отраслей, [2].

За отчетный период 2018 года в Республике Узбекистан наблюдался высокий уровень инвестиционной активности с ростом 18,1 % по сравнению с прошлым годом. В динамике инвестиции в основной капитал в 2005 году составили 2,0 трлн. сум, или увеличились на 12,0 %, 2010 – 10,8 трлн.сум, или возросли на 9,0%, 2015 году достигли 28,5 трлн.сум, или на 8,1 %.

Отношение объема инвестиций в основной капитал к ВВП составило 26,3 %, что на 3,7 п.п. больше, чем по сравнению с аналогичным периодом 2017 года, [3].

Таблица 1 [3].

Распределение инвестиций в основной капитал по источникам финансирования (за январь-декабрь 2018 года)

	Млрд.сум	Темпы роста, %	в % к итогу
Инвестиции в основной капитал	107333,0	118,1	100,0
<i>в том числе:</i>			
Централизованные инвестиции:	34448,4	159,9	32,1
бюджетные средства	4124,1	88,7	3,8
средства государственных целевых фондов	5468,7	170,6	5,1
средства Фонда развития детского спорта	271,2	129,0	0,3
средства Фонда реконструкции и развития	7894,8	103,7	7,4
иностранные инвестиции и кредиты под гарантию правительства	16689,6	2,8 п.	15,5
Нецентрализованные инвестиции:	72884,6	105,3	67,9
средства предприятий	30062,9	106,5	28,0
средства населения	12127,8	104,1	11,3
прямые иностранные инвестиции и кредиты	14660,4	85,8	13,7
кредиты коммерческих банков и другие заемные средства	16033,5	131,3	14,9

Вывод: таким образом, для увеличения объема производства, обеспечения экономического роста роль инвестиций в экономике поистине неопенима.

Список использованной литературы

1. Мэнкью Н.Г. Принципы макроэкономики. 4-е изд./Пер. англ. - СПб.: Питер, 2012
2. Селищев А.С. Макроэкономика. Открытая экономика, причины экономического роста, динамика рынков. - М.: Питер, 2009
3. www.stat.uz

Научный руководитель

Аллаева Р.

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ СФЕРЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Ходжимухамедова Ш.И, Бобонарова К.У. ТИИИМСХ

Аннотация

В статье рассматривается современное состояние и развитие социальной сферы Республики Узбекистан, а также проблемы и решения задач по развитию социальной сферы.

Обновление в социально-экономической, общественно-политической, гуманитарной и других сферах обеспечивает интеграцию нашего государства в международное сообщество. Республика привлекает внимание всего мира, переходя от закрытости к открытой прагматичной политике. Эти действия, безусловно, требуют реформирования действовавших ранее правил и порядков, их соответствия мировым стандартам.

В настоящее время определены конкретные меры по таким вопросам, как повышение занятости населения и усиление их социальной защиты, поднятие на новый уровень работы по охране здоровья граждан, развитие и модернизация дорожно-транспортной, инженерно-коммуникационной и социальной инфраструктур, улучшение обеспечения населения, особенно жителей отдаленных территорий электроэнергией, природным газом, обеспечение доступности дошкольных образовательных учреждений, повышение качества и развитие общего среднего образования, среднего специального и высшего образования.

В частности, в течение 2018 года было осуществлено 5440 проектов в сфере промышленности, на основе которых был создан 131 000 новых рабочих мест, в сельском хозяйстве - 8430 проектов с организацией 55 800 рабочих мест, в сфере оказания услуг - 11 000 новых проектов, благодаря чему было создано 69 500 рабочих мест. В обеспечении развития этих сфер предусмотрены меры, направленные на усиление деятельности областных, районных и городских хокимиятов. Также определены задачи по разработке около десяти законов и постановлений, предусматривающих улучшение системы трудоустройства кадров [1].

В 2019 году будет реализован комплекс мер по поддержке пожилых людей, совершенствованию порядка выдачи социальных пособий и пенсий, осуществлению важных задач по повышению эффективности деятельности органов самоуправления граждан, превращению института махалли в самую близкую структуру по отношению к населению, дальнейшему укреплению их материально-технической базы.

В стране человеческий фактор является высшей ценностью. Это подтверждается и выдвинутым Президентом Шавкатом Мирзиёевым принципом «Люди не завтра, не в далеком будущем, а именно сегодня хотят видеть позитивные изменения в своей жизни», и преобразованием этого принципа в приоритетное направление нынешней политики страны [2].

В ходе реализации этого принципа проводимая в стране гуманная политика вносит новое содержание в жизни людей. В частности, принятия с учетом потребностей людей программа строительства в сельской местности доступного жилья по обновленным типовым проектам изменила взгляды людей на жизнь и работу. В соответствии с программой в 2017 году в городах и селах построены типовые и многоэтажные дома общей площадью более 3,5 миллиона квадратных метров. Разработана программа строительства в городах в 2017-2020 годах 945 многоэтажных жилых домов. В Ташкенте, Республики Каракалпакстан, областных центрах и крупных городах для малообеспеченных семей будет построено 50 тысяч доступных квартир в многоэтажных домах. В 2017 году возведены и сданы в эксплуатацию многоквартирные дома общей площадью более 800 тысяч квадратных метров. Строительство и сдача в эксплуатацию только в Ташкенте жилых домов общей площадью 420 тысяч квадратных метров указывают на масштаб начатой работы. Однако неверно считать, что обеспечение благосостояния населения ограничивается лишь решением жилищных вопросов. На протяжении многих лет в социальной сфере накопились десятки другого рода проблем, препятствовавших нормальной жизни людей [3].

Одной из актуальных задач, особенно в сельской местности, является реализации программ по расширению и модернизации водопроводных сетей. В настоящее время в рамках специальной программы проводится работа по прокладке водопроводных сетей протяженностью девять тысяч километров, строительству и реконструкции 1 400 колодцев и 3 600 водных сооружений. Это дополнительно обеспечит чистой питьевой водой 3,2 миллиона человек в Республике Каракалпакстан, Андижанской, Джизакской, Навоийской, Сырдарьинской, Самаркандской, Ташкентской и Хорезмской областях и увеличит показатель удовлетворенности населения в стране с 64 до 84 процентов. Для решения этих задач в стране образовано Министерство жилищно-коммунального обслуживания, при Министерстве финансов налажена деятельность фонда «Соф ичимлик суви» («Чистая питьевая вода»).

Ещё одна многолетняя проблема - дороги. Этот вопрос тоже решается на государственном уровне. На основе программы развития дорожно-транспортной системы производится строительство и реконструкция автомобильных дорог общего пользования протяженностью 1,7 тысяч километров, капитальный и текущий ремонт межхозяйственных сельских дорог протяженностью 10,4 тысячи километров, дорожных покрытий улиц городов, районных центров, поселков городского типа, сельских населенных пунктов.

Важными задачами являются и расширение системы подготовки востребованных на рынке труда кадров, профессиональное обучение безработных, широкий охват трудоспособного населения повышением квалификации и переподготовкой. Исходя из этого можно сделать следующие выводы, что социальные гарантии и деятельность в сфере социальной защиты трудящихся направлена на:

- реализацию предусмотренных законодательными документами мероприятий по поддержке и социальной защите нуждающихся слоев населения;
- сотрудничество с государственными органами, работодателями в реализации системных мероприятий по социальной поддержке одиноких пожилых граждан, пенсионеров, инвалидов, детей с ограниченными возможностями, малообеспеченных и многодетных семей;
- разработку и реализацию мер социальной защиты лиц, занимающихся нетрадиционными формами занятости (работающие в неофициальном секторе, временные и сезонные работники и другие), и членов их семей;
- социальную защиту пенсионеров, инвалидов, несовершеннолетних, одиноких пожилых, других категорий граждан, особо нуждающихся в социальной защите;
- разработку и широкое применение концепций «Корпоративно - социальная ответственность» и «Социальное ответственное предприятие».

В процессе реализации этих задач на основе коллективных договоров и соглашений будут применяться меры материальной поддержки малообеспеченных семей, многодетных семей, пенсионеров, ветеранов войны и труда.

Федерация профсоюзов Узбекистана в 2019 году реализует ряд адресных программ, направленных на социальную защиту малообеспеченных слоев населения. В частности, на основе списков, составленных соответствующими рабочими группами, выданы процентные льготные кредиты малообеспеченным семьям, желающим заниматься ремесленничеством, предпринимательством, приобрести личные приусадебные земли, разводить крупный рогатый скот или домашнюю птицу для экономической поддержки семьи. Проведен ремонт домов сотен нуждающихся семей, тысячи семей обеспечены бытовой техникой, оздоровлены сотни граждан, нуждающихся в медицинской помощи. В нынешнем году работа в этом направлении продолжается.

В своей деятельности федерация не ограничивается лишь трудовыми отношениями между работодателем и работником. Федерация непосредственно участвует в социальных реформах. И в этом смысле Узбекистан готов пропагандировать среди мировой общественности накопленный опыт, обсуждать важнейшие проблемы мирового сообщества, делиться эффективными наработками при их решении.

В настоящее время актуальными для республики представляются следующие задачи:

- совершенствование трудового законодательства по упорядочению труда и социальных отношений;
- расширение основополагающих принципов и прав в сфере труда путем введения 40 - часовой рабочей недели, годового оплачиваемого отпуска, защиты материнства и основных прав трудящихся – мигрантов;
- соблюдение принципа равной оплаты труда работников транснациональных корпораций;
- восстановление научно обоснованного нормирования труда;
- улучшить доступ к профессиональному образованию на протяжении всей жизни;
- точное разграничение сферы действий государственных органов, профсоюзов и трехсторонних институтов в управлении сферой труда;
- строгий контроль за минимальными стандартами оплаты труда, нормами рабочего времени и отдыха;
- распространение социальной защиты на все формы нетрадиционной занятости;
- пересмотр роли социального партнерства в сфере управления трудом с целью решения проблем законного представительства профсоюзов и ассоциаций работодателей в трехсторонних структурах.

Заключение

Президент Республики Узбекистан неоднократно повторяет, что наша главная цель — удовлетворение потребностей людей. Эти искренние слова очень точно отражают нашу национальную социальную политику. Благодаря историческим преобразованиям государство стало ближе к народу, стало, наконец, работать на народ. Деятельность Виртуальной и народных приемных Президента страны — в центре внимания и изучения всего мирового сообщества. Их работа направлена на осуществление реформ в сферах образования, здравоохранения, социального сектора, надежд и чаяний всего народа. Создание Министерства дошкольного образования стало новым механизмом в системе государственного управления нашей республики. Параллельно развиваются системы высшего и среднего образования, что создает прочный фундамент для дальнейшего развития Узбекистана, занятия своего достойного места в мировом сообществе. Словом, преобразования можно наблюдать во всех сферах.

Список использованной литературы

1. Стратегия и действия развития Узбекистана в 2017-2021 годах. Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947.
2. Мирзиёев Ш.М. «Стратегия действий и сильная социальная политика: международная практика и опыт Узбекистана». Конференция от 5 июня 2018 года «Народное слово».
3. К. Рафиков «Стратегия действий и сильная социальная политика: международная практика и опыт Узбекистана». Конференция от 5 июня 2018 года журнал «Народное слово».

QIŞHLOQ XO'JALIK IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGI

Djamalova X. - assistent, Murodova A - talaba, TIQXMMI

Аnotatsiya

Maqolada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini raqobatbardoshligini oshirish uchun qishloq xo'jalik erlaridan, suv resurslari va zamonaviy innovitson texnologiyalarni keng qo'llash yuqori samaraga erishish masalalari bayon etilgan.

2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, jumladan, «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili» Davlat dasturida ham raqobatbardosh iqtisodiyotni barpo etish iqtisodiy faoliyatdagi eng muhim vazifa etib belgilangan.

«Raqobatbardosh iqtisodiyot» deganda maqbul sur'atlar va mutanosiblik bilan o'sib boradigan milliy iqtisodiyot, unda xususiy mulkchilikka asoslangan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yaratilgan kerakli sharoitlar, aholi turmush darajasini doimiy yaxshilanib borishiga xizmat qiladigan bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida ishlab chiqilgan xo'jalik mexanizmi, ishlab chiqarish resurslari erkin harakatlanadigan va bozor mexanizmi yordamida tartibga solinadigan ochiq iqtisodiy tizim tushuniladi [1].

Jaxonda moliyaviy iqtisodiy inqiroz asoratlari to'raligicha bartaraf etilmagan bir sharoitda bunday oliy maqsadga erishish uchun aynan bizning mamlakatimizda asosli imkoniyatlar mavjud. Faqat avval bir narsani aniqlab olishimiz lozim: jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, jumladan, uning ikkinchi bosqichi (2014–2015 yillar) O'zbekiston iqtisodiyotiga qay darajada o'z ta'sirini o'tkazdi, uning asoratlarini bartaraf etish uchun qaysi chora-tadbirlarni va qanday ketma-ketlikda amalga oshirish lozim?

Mamlakatimiz iqtisodiyoti jaxon xo'jaligining tarkibiy qismi ekanligi va boshqa mamlakatlar iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'langanligini tushunish uchun iqtisodchi-olim bo'lish shart emas.

Global moliyaviy inqiroz jahon bozorida shakllangan muvozanatni buzdi, uning holati o'zgarishida yuz bergan o'zgarishlar O'zbekiston eksport qiladigan strategik tovarlarga bo'lgan talab hajmini kamaytirib, ularning narxlari tushib ketishiga olib keldi. Bunga tabiiy gaz, yengil avtomobillar, paxta tolasi va mineral o'g'itlarni misol keltirish mumkin. Natijada, mamlakatimizga kelayotgan valyuta tushumlari kamayib, oltin-valyuta zaxirasining qisqarishi yuz berdi.

Mehnat muhojirlari tomonidan jo'natiladigan pul o'tkazmalarining kamayishi ichki bozor sig'imining qisqarishi, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarining katta qismida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasining pasayib ketishiga, tomorqalarda ishlab chiqariladigan qishloq xo'jalik mahsulotlari miqdorining keskin kamayishiga olib keldi. Pirovard natijada, mamlakatimiz iqtisodiyotida bir qator murakkab nomutanobliklar vujudga keldi, bu esa iqtisodiy-ijtimoiy masalalar yechimini murakkablashtirmoqda. Bunga quyidagilarni misol keltirish mumkin.

Oilalar daromadining asosiy qismi (65 foizdan ko‘prog‘i) oziq-ovqat mahsulotlari sotib olishga sarflanmoqda. Agar tegishli choralar ko‘rilmasa va bu jarayon shunday davom etaversa, nooziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish va boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun yo‘naltiriladigan mablag‘lar ulushining kamayib borishi, bu esa bandlik masalasini tez hal etishga xizmat qiladigan tikuvchilik, charm-poyabzal va boshqa mehnat sig‘imi yuqori bo‘lgan soha korxonalarining rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi aniq.

Natijada, 2017 yilda ham amalga oshirilgan keng ko‘lamli makroiqtisodiy chora-tadbirlarga qaramasdan, o‘tgan yillarga o‘xshab, mehnatga layoqatli yoshga kirgan aholining katta qismi iqtisodiyotning tashkiliy sektori doirasidan chetda qolib ketdi va mehnat bozoridagi, ayniqsa, qishloq joylardagi keskinlik saqlanib qoldi. 9 million kishidan ko‘proq iqtisodiy faol qishloq aholisining ko‘pi bilan 10 foizi fermer xo‘jaliklari tomonidan qamrab olingan bo‘lib, taxminan 70 foizi esa 400 ming gektardan iborat tomorqalarda faoliyat ko‘rsatmoqda. Albatta, bu raqamlarning qanchalik aniq ekanligini bilish uchun mamlakatda 27 yildan beri o‘tkazilmagan aholi xatlovini amalga oshirish lozim. Faqat shu yo‘l bilan joylardagi iqtisodiy-ijtimoiy ahvolga obektiv baho berish va ushbu masalalarni hal etishga qaratilgan har tomonlama asoslangan dasturlar ishlab chiqish mumkin.

Mamlakat iqtisodiyotida yuzaga kelgan ahvolga chuqur tahlillar yordamida xolisona baho berish va yuzaga kelgan nomutanosibliklarni bartaraf etish borasida muayyan ketma-ketlikka amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish — bugungi kunning eng dolzarb vazifasi ekanligini hamma yaxshi tushunadi. Raqobatbardosh iqtisodiyotni barpo etish masalasining eng murakkab tomoni — bu kelajakda mamlakat iqtisodiyotida lokomotiv rolini bajaradigan sohalarni tanlab olishdan iborat[2].

Asossiz stereotiplar va eskicha fikrlashlar chetga surilib ish tutilsa, mamlakatimizni qiyin iqtisodiy holatdan chiqib ketishini ta‘minlashi mumkin bo‘lgan soha — bu qishloq xo‘jaligi bo‘lib chiqadi. Iqtisodiyot nazariyasidan ma‘lumki, agrar sohani rivojlantirish uchun boshqa sohalarga nisbatan kamroq iqtisodiy resurslar talab etiladi. Agar yaqin besh yilda mamlakatimiz sanoatiga 10–15 milliard AQSh dollariga teng investitsiyalar jalb etish yo‘li bilan uni 1,5 baravarga o‘stirish mumkin bo‘lsa, shu vaqtning o‘zida bir necha baravar kam, asosan, ichki moliyaviy resurslar yordamida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ikki baravar ko‘paytirish mumkin.

Buning isboti tariqasida shunday misol keltirish mumkin: bir gektar yerdan 40 sentner bug‘doy olinsa — daromad jahon bozori narxlarida 800 dollarni tashkil etadi. Shu maydondan olinishi mumkin bo‘lgan 7–8 tonna uzumning qiymati taxminan 8 ming dollarga teng. Farq — 10 baravar. G‘allani o‘rniga 300 ming gektarda yuqorida ko‘rsatilgan ekinlar joylashtirilsa, 5 yildan keyin eksport hajmi qo‘shimcha 10 milliard dollarga ko‘payadi. Suv resurslari, mineral o‘g‘itlar, yoqilg‘i sarfining kamayishini inobatga olsak, eksport hajmini aynan uzum, meva va poliz mahsulotlari hisobiga maksimal darajada, ikkilanmasdan kengaytirish kerakligiga hech qanday shubha qolmaydi. Global moliyaviy inqiroz ta‘sirida ushbu mahsulotlarning jahon bozoridagi narxlari pastga tushmaganligi shu yo‘nalishga ustunlik berilishining yana bir asosidir.

Shu borada, eng dolzarb va birinchi navbatda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan masala — bu mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o‘ringa ega bo‘lgan to‘qimachilik korxonalari, paxta va g‘alla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining moliyaviy monitoringi va rahbar kadrlarni attestatsiyasini tashkil etish, ularni zamonaviy mutaxassislar bilan kuchaytirish, barchasi samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun manfaatdorlikni ta‘minlaydigan va ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqishdir.

Bunday yondashuvni to‘qimachilik korxonalarini klasterlar tashkil etish yo‘li bilan xomashyo ta‘minoti bo‘yicha yangi tizimga o‘tishi ham taqozo etmoqda. Innovatsion texnologiyalarni maxsus bilimga ega bo‘lmagan, eskicha dunyoqarashga ega bo‘lgan kadrlar bilan amalga oshirish mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi. Nega deganda, har qanday iqtisodiy eksperimentni amalga oshirishdan avval, uning salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ham inobatga olish zarur [1].

2016 yilning oxirida soha rivojiga tegishli qabul qilingan hukumat qaroriga ayrim qo‘shimchalar kiritilsa, yuqori maqsadlarga erishish kafolati oshadi. Jumladan, yuzga yaqin

korxonaning hammasi ham xalqaro bozorlarda mustahkam oʻrnashib olgan Turkiya va Xitoy kompaniyalari bilan raqobatga dosh berolmasligini inobatga olish lozim. Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishni faqat katta xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalar tajribasiga ega, samarali korporativ boshqaruvi va muqim mehnat jamoalari shakllangan kompaniyalarimiz zimmasiga yuklash maqsadga muvofiq emasmi? Eksportni ragʻbatlantiruvchi choralar faqat sanoat korxonalarining manfaatlariga xizmat qilmasdan, xomashyo yetishtiruvchi fermer xoʻjaliklarining manfaatlarini ham inobatga olgan holda tuzilishi kerak. Shunday qilinsa, xalqaro bozorlarga tezroq kirib borish imkoniyati kengayadi va kreditlarning oʻz vaqtida qaytarilishi kafolatlanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida vujudga kelgan nomutanosibliklar inflyatsiya jarayonining tezlashishiga olib kelgani, bu esa jamiyatimizda ijtimoiy keskinlik ehtimolini kuchaytiradigan asosiy sabab ekanini tushunish qiyin emas, albatta. Shundan kelib chiqib, mamlakatimiz hayotida kechiktirib bulmaydigan masala, bu aholini hamyonbob narxlarda, aholi sarf-xarajatlari ichida eng katta ulushga ega bulgan goʻsht va sut mahsulotlari bilan taʼminlashning zamonaviy tizimini tashkil etishdir. Bu ishni toʻgʻri yoʻlga qoʻyish uchun konvertatsiya ham, xorijiy investitsiyalar ham kerak emas.

Innovatsion iqtisodiyotni barpo etish ishlari bugun boshlanayotgani yoʻq, albatta. Birinchi qadamlar anchadan beri qoʻyilib kelmoqda, lekin mamlakatimiz aholisi uchun eng katta ahamiyatga ega boʻlgan masala, yaʼni raqobatbardosh un ishlab chiqarish masalasi ushbu jarayonlardan chetda qolib ketgani hech kinga sir emas. Oʻzbekiston 1,3 million gektar sugʻoriladigan yerlarga gʻalla ekib, 7 million tonnadan ortiq bugʻdoy yetishtiradi. Shunga qaramasdan, mahalliy unning xususiyatlariga bogʻliq holda chetdan juda katta miqdorda ushbu mahsulotni import qilishga majburmiz. Muayyan qoʻshimcha chora tadbirlar amalga oshirilsa, aholimizning unga bulgan talabi asosan oʻzimizda ishlab chiqariladigan mahsulot evaziga qondirilishi mumkin, bu esa oilalar byudjeti uchun juda muhim. Shu yildan boshlab non zavodlarida mahalliy undan ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorini (sifatga eʼtiborni qaratgan holda) koʻpaytirish va assortimentini kengaytirish ishlari kuchaytirilsa ijobiy natijalarga tezroq erishish mumkin. Bu yoʻl bilan ham xufyona iqtisodiyotning koʻlami qisqaradi, ham aholining katta qismi tashkiliy sektor bilan qamrab olinadi. Innovatsion texnologiyalar yordamida ushbu masalani hal etib, mamlakat ichidagi raqobat kurashida yengib chiqsak, xalqaro bozorlarga mahsulot chiqarish koʻlamini kengaytirish ancha oson kechadi.

Aholi oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish uchun qancha kam mablagʻ sarflasa, shunchalik boshqa tovarlar va xizmatlarga nisbatan toʻlovchanlik qobiliyati oshib boraveradi.

Xulosa

Mahsulot tannarxini pasaytirish, energiya tejamkorligiga erishish, mehnat unumdorligini oshirish hisobiga yukori rentabelli mahsulotlar ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish, jahon bozorining oʻzgaruvchan holatiga tez moslasha oladigan texnologiyalarni joriy etish, shularga va tashqi savdodagi ijobiy saldogga erishishni taʼminlaydigan xoʻjalik mexanizmini yaratish — bir soʻz bilan aytganda, marketingni islohotlarning bayrogʻi sifatida baland koʻtarish — bugungi kunning eng muhim vazifalaridandir. Shunday yoʻl tutsak murakkab masala, yaʼni jahon moliyaviy inqirozi taʼsirida vujudga kelgan nomutanosibliklarni bartaraf etish va Oʻzbekiston milliy iqtisodiyotini raqobatbardosh milliy iqtisodiyotlar qatoriga qoʻshish masalasini tez surʼatlar bilan hal eta olamiz. Bu yuksak marraga erishish davlat boshqaruv organlari, olimlar va tadbirkorlarning uygʻunlikda harakat qilishini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mirziyoev Sh.M. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T. // Xalq soʻzi, 2017 yil 23 dekabr.
- 2.2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi

3.Salimov B.T., O‘raqov N. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti (o‘quv qo‘llanma). –T.: TDIU. 2004 –B. 21-22, 186 b.

4.www.strategy.uz

5.www.norma.uz

Ilmiy rahbar

Djamalova X.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA STANDARTLARNI ISHLAB CHIQUISH AMALIYOTI

Turayeva M.M. – talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Maqolada, O‘zbekiston Respublikasida standartlarni ishlab chiqish amaliyoti va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish haqida ma‘lumotlar berib o‘tilgan. Standart uni tasdiqlagan tashkilotning qarori bilan tasdiqlanadi va joriy qilinadi. Standart muddati cheklangan yoki cheklanmagan tarzda tasdiqlanadi.

Xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar va xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari, shuningdek xalqaro qoidalar va normalar O‘zbekiston Respublikasi ishtirok etgan shartnoma yoki bitimlarga muvofiq qo‘llaniladi. Ushbu standartlar, qoidalar va normalarni respublika hududida qo‘llash tartibini "O‘zstandart" va davlat boshqaruvining boshqa organlari o‘z vakolatlari doirasida belgilaydilar. Ular xalqaro savdo-sotiq uchun ortiqcha to‘sqinliklarni vujudga keltirmasligi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini o‘tkazishning umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini tartibga solib turuvchi davlat standartlashtirish tizimi faoliyat ko‘rsatadi. O‘zRST 1.1-92 "O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. O‘zbekiston Respublikasining standartini ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi" standartiga binoan O‘zbekiston Respublikasi standarti bundan keyin standart deb yuritiladi. Standartlashtirish bo‘yicha texnikaviy qo‘mitalar (TQ) standartlashtirish bo‘yicha tayanch tashkilotlar, vazirliklar, idoralar, uyushmalar, davlat, shirkat, pudratchi, aksioner, qo‘shma korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladi. Standart har xil tashkilotlar mutaxassislarining ishchi guruhlari tomonidan ishlab chiqishga yo‘l qo‘yiladi.

Standartning bir nechta tashkilot tomonidan ishlab chiqilishida yetakchi ishlab chiquvchi tashkilotlar ijrochilar ro‘yxatida birinchi o‘rinda turadi, hamkorlikda ish bajaruvchi har bir tashkilot bilan ish ko‘lamini va muddatlarini aniqlaydi [1].

Standart respublika xududida kimga qarashli ekanligi va mulk shaklidan qat‘iy nazar, maxsulotlarni chiqaradigan va iste‘mol qiladigan hamma korxonalar va tashkilotlar uchun majburiydir. Standartga kiritiladigan o‘zgarish asosiy standart uchun belgilangan tartibda majburiy kelishib olinishi, tasdiqlanish va ro‘yxatdan o‘tkazish lozim.

Standartlarni ishlab chiqish tartibi. Standartni ishlab chiqishda tashkiliy-uslubiy birlikka erishish maqsadida hamda standartni ishlab chiqish bosqichlari bajarilishini nazorat qilish uchun **4 bosqich** joriy etiladi.

1-bosqich Zaruriyat tug‘ilganda standartni ishlab chiqishda texnikaviy topshiriq ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

2-bosqich Standart loyihasini ishlab chiqish (birinchi tahriri) va uni fikr-mulohazalar olish uchun yuborish.

3-bosqich Fikr mulohazalar ustida ishlash ,standart loyihasini (oxirgi tahririni) ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlashga taqdim etish.

4-bosqich Standartni tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish. Standartlarni ishlab chiqish bosqichlarini bir-biri bilan qo‘shib olib borishga yo‘l qo‘yiladi.

Standartni ishlab chiqish bosqichlari. Standartlarni ishlab chiqish bosqichlarini bir-biri bilan qo'shib olib borishga yo'l qo'yiladi. Standart loyihasi texnik qo'mitalar ish rejasiga, tasdiqlangan standartlashtirish jadvaliga, yangi mahsulot turlarini yaratish rejasiga, manfaatdor tashkilotlar taklifi va ishlab chiquvchi korxonalarining tashabbusiga binoan ishlab chiqiladi.

Standart loyihasini ishlab chiqish bilan bir vaqtda standart loyihasiga tushuntirish xati ham tuziladi va lozim topilsa standartni joriy qilish bo'yicha asosiy tashkiliy-texnikaviy tadbirlar rejasining loyihasi ishlab chiqiladi. Standart loyihasi tushuntirish xati va asosiy tadbirlar rejasini loyihasi bilan birgalikda ko'paytiriladi va ro'yxati bo'yicha hamma manfaatdor tashkilotlarga fikr-mulohazalar olish uchun yuboriladi. Standart loyihasi korxonalar va tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilganidan so'ng o'z fikr-mulohazalarini tuzib, standartlarni ishlab chiquvchi tashkilotga qabul qilgan kundan boshlab 15 kun ichida kechiktirmasdan yuboradilar. Fikr-mulohazalar ustida ishlash, standart loyihasini ishlab chiqish kelishish va uni tasdiqlashga taqdim etish.

Korxonalar va tashkilotlar tomonidan yuborilgan standart loyihasi bo'yicha fikr-mulohazalar qayta ishlanib, ular asosida fikr-mulohazalar majmui tuzuladi. Yetakchi ishlab chiquvchi tashkilot tuzgan fikr-mulohazalar majmuiga binoan standart loyihasining so'nggi tahririni ishlab chiqadi hamda tushuntirish xatini va asosiy tadbirlar rejasining loyihasini aniqlaydi. Ishlab chiquvchi tashkilot bilan boshqa manfaatdor tashkilotlar orasida standart loyihasi yoki asosiy tadbirlar rejasini loyihasi bo'yicha kelishmovchiliklar bo'lsa, yetakchi ishlab chiquvchi tashkilot kelishmovchiliklarni muhokama qilish uchun kengash o'tkazadi. Kengashga ko'rib chiqilgan standart loyihasi bo'yicha va qaror qabul qilish vakolati berilgan asosiy manfaatdor tashkilotlarning va buyurtmachilar (asosiy iste'molchilar) ning vakillari taklif etiladi. Ushbu kengashda ko'rib chiqilayotgan masalalarning har taraflama muhokama qilinishi va bu masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilinishini ta'minlash lozim bo'ladi. Yetakchi ishlab chiquvchi tashkilot kengash qatnashchilariga munozarali masalalar bo'yicha fikr-mulohazalar majmuyidan ko'chirmalar yuboradi. Kengash taklifnomalarini uning qatnashchilariga kengash boshlanishiga kamida 10 kun qolganda oladigan qilib yuboriladi [2].

Kengashda qabul qilingan qarorga binoan, standart, loyihasining so'nggi tahriri tuziladi hamda tushuntirish xati va asosiy tadbirlar rejasining loyihasi aniqlanadi. Bundan tashqari, agar standart loyihasida Davlat nazorati, kasaba uyushmasi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyati doirasiga taalluqli talablar qo'yilgan bo'lsa, loyiha ushbu idoralar bilan ham kelishib olinishi kerak. Chet elga chiqariladigan mahsulotlar standartlari esa GOST 122-85 bo'yicha kelishib olinadi. Standart loyihasi yuzasidan tashkilotlar o'rtasida davom etayotgan kelishmovchiliklar bo'yicha O'zstandart Agentligi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Davlat Arxitektura va qurilish qo'mitasi, sog'liqni saqlash vazirligi o'zlariga yuklatilgan faoliyat turlari to'g'risida so'nggi qarorni qabul qiladi. Standartga o'zgartirish kiritilganda agar u ilgari kelishib olingan tashkilotlarning manfaatlariga monelik qilmasa o'zgartirish faqat buyurtmachi (asosiy iste'molchi) bilan kelishiladi. Standartni bekor qilish yoki joriy etish vaqtini cho'zish bo'yicha faqat buyurtmachi (asosiy iste'molchi) bilan kelishiladi.

Standartni tasdiqlash davlat ro'yxatidan o'tkazish. O'zbekiston Respublikasi davlat standarti, Davarxitektqurilishqum, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi standart loyihalarini ko'rib chiqadi va uni tasdiqlash yoki kam-ko'stini to'ldirib qayta ishlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi standartlarni davlat ro'yxatiga olishni O'zstavstandart amalga oshiradi. Davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun standart 4 nusxada topshirilishi lozim: asl nusxasi, ikkinchi nusxasi va ikkita ko'chirmasi.

Standartni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun joy band qilib, muqovalab topshirish lozim. Standart 5 kundan oshmagan muddatda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Standart qaysi tashkilot tomonidan tasdiqlanishidan qat'iy nazar, standartga raqamli belgini o'zstavstandart beradi.

Belgi o'z navbatida:

Xujjatning ko'rsatkichidan O'zRST (O'z DST) ; ro'yxatning tartib raqamidan va tasdiqlangan yilning oxirgi ikki sonidan iborat bo'ladi.

Korxonalarda standartlarni joriy qilish katta tayorlov ishini talab qiladi. Agar o'rnatilgan muddatda tayorlangan texnik hujjatlar standart talablariga mos kelsa standart joriy qilingan hisoblanadi, mahsulotlar esa ushbu hujjatlarga qat'iy mos ravishda ishlab chiqariladi. Agar korxonada kiritilgan mahsulotlar o'rnatilgan ishlab chiqarilmasa yoki standart talablarini va ko'rsatkichlarini buzgan holda ishlab chiqarilsa, shuningdek sifatning doimiyligi buzilsa, standart joriy qilindi deb hisoblanadi. Standartni joriy qilinmasligining asosiy sabablariga quyidagilar kiradi:

- 1) Tashkiliy-texnik tadbirlarning bajarilmasligi.
- 2) Texnik hujjatlar va namunalar (etalonlar) holatining qoniqarsizligi
- 3) Asbob-uskunalar va texnologik jihozlanish holatining qoniqarsizligi.
- 4) O'lchash va sinash texnikaari xolatining qoniqarsizligi.
- 5) Xomashyo, materiallar, yarim fabrikalar va to'plovchi buyumlar holatining qoniqarsizligi.
- 6) Mahsulotlarning markalanishi, idishlarga joylashishi, tashish va saqlanishining standart emasligi [3].

Yuqorida keltirilgan asosiy sabablar o'z navbatida bir qator ya'ni davlat, idora va ishlab chiqarish nazorati jarayonida aniqlangan va sinchiklab tahlil qilingan boshlang'ich sabablar bilan shartlab qo'yilgan

Xulosa

Maqolada asosiy ilgari surilayotgan fikr bu O'zbekiston Respublikasidagi standartlashtirishning bosqichlari ko'zda tutilgan. Bunda mahsulotning sifatiga katta e'tibor qaratiladi. Yaxshi sifatli mahsulot ishlab chiqilsa, u iste'molchiga ham namuna bo'la oladi. Standartlashtirishga doir normativ hujjatlar vatanimiz hamda chet el fan va texnikasining zamonaviy yutuqlariga asoslangan va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Ular xalqaro savdo-sotiq uchun ortiqcha to'sqinliklarni vujudga keltirmasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.P. R. Ismatullayev, A. N. Maqsudov, A. X. Abdullayev, B. M. Axmedov, A. A. A'zamov "Metralogiya Standartlashtirish va Sertifikatlashtirish". Toshkent 2001y. 360b.
- 2.Lifits N.M. "Standartizatsiya Metralogiya i Sertifikatsiya". 2002y.
3. A. A. Abduvaliyev. "Metralogiya Standartlashtirish va Sertifikatlashtirish". 2018y.
- 4.www.smsiti.uz
- 5.www.standart.uz

Ilmiy rahbar

Turkmenov X. I.

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA CHORVACHILIK TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH VA QORAMOLCHILIK SOHASIDAGI BA'ZI MUAMMOLAR

Turdiqulov Sh.S., Saidov D.O.- talabalar, TIQXMMI

Annotatsiya

Maqola mazmuni shundan iboratki mamlakatimizda asosiy tarmoqlardan biri bo'lmish chorvachilikni rivojlantirish, mavjud shart sharoitlardan oqilona foydalanish, chetdan faol investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish va tarmoqdagi ayrim muammolarga ijobiy yechim topishdan iborat.

Chorvachilik-qishloq xo'jaligining asosiy tarmoklaridan biri. Chorvachilikning taraqqiy etishi va mahsuldorligi dehqonchilikning rivojlanishi, yerdan intensiv foydalanish bilan

chambarchas bog'liq. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari: qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, yilqichilik, tuyachilik, parrandachilik, asalarichilik, cho'chqachilik, quyonchilik, darrandachilik, bug'uchilik, itchilikdan iborat. Qoramolchilik - chorvachilikning asosiy sohalaridan biri, aholini go'sht, sut mahsulotlari hamda yengil sanoatni teri va boshqa xom ashyo bilan ta'minlaydi. qoramol chiqindisi bo'lgan go'ng dehqonchilikda yerlar unumdorligini oshirishda keng qo'llaniladi (ba'zi mamlakatlarda qoramoldan ish hayvoni sifatida foydalaniladi). Qoramolchilik xo'jalik tarmog'i sifatida yovvoyi qoramol turlari xonakilashtirilgan paytdan paydo bo'lgan. Dastlab qoramoldan go'shti uchun hamda ish hayvoni sifatida foydalanilgan. Sut iste'mol qilina boshlagach, odamlar undan yog', pishloq va boshqa mahsulotlar tayyorlashni o'rgandilar, natijada sut xo'jaligining ahamiyati oshdi, sut sanoati shakllandi. Hozirgi kunda sohani yanada rivojlantirish uchun muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ko'plab say-harakatlari natijasida bir qator yutuq va ijobiy natijalarga erishganimiz ham hech kinga sir emas[1]. Jumladan: 2019 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 12 726,6 ming boshga, shu jumladan sigirlar - 4 522,2 ming boshga, qo'y va echkilar - 21 287,4 ming boshga, parrandalar - 81 538,9 ming boshga etdi. 2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 255,6 ming boshga (2,0 % ga), shu jumladan sigirlar - 185,7 ming boshga (4,3 % ga), qo'y va echkilar - 646,5 ming boshga (3,1 % ga), parrandalar - 6 668,8 ming boshga (8,9 % ga) ko'paydi. 2019 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,0 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,4 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga shiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 10,9 % fermer xo'jaliklariga, 84,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,0 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 14,1 % fermer xo'jaliklariga, 58,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 27,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Prezidentimizning 16.09.2017 yildagi PQ-3283-son qarori bilan «O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sektorini rivojlantirish» loyihasini amalga oshirish tartibi belgilandi. 38,08 mln AQSh dollari ekvivalentida – loyiha ishtirokchilarining hissasi (benefitsiarlar). Loyihani amalga oshirish davri – 2017 yildan 2022 yilga qadar. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidagi “Chortut” fermer xo'jaligi tomonidan Germaniya davlatidan 4,1 mlrd. so'm kredit mablag'lari hisobiga 400 bosh “Golshtin” zotli naslli qoramollari olib kelish bo'yicha import shartnoma imzolani, 196 bosh olib kelindi va shu yilning oktabr oyiga qadar yana qolgan 204 bosh naslli qora mollar to'liq olib kelish ishlari amalga oshiriladi. Xorazm viloyati Urganch filiali tomonidan «To'maris nur chorva» fermer xo'jaligiga ajratilgan 7 mlrd. 400 mln. so'm miqdoridagi kredit mablag'i hisobiga Germaniya davlatidan 319 bosh «Simmental» va «Golshtin» zotli naslli qoramol olib kelindi va 15 ta yangi ish o'rni yaratildi. Har bir soha tarmoqda bo'lganligi kabi chorvachilikda ham qator muammo va yechilishi kerak bo'lgan masalalar mavjud. Chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish aynan shu muammolarni ijobiy yechimini topish orqali boshlanadi. Mustaqillik yillaridan beri o'z sohasiga bee'tibor va o'z ishini suiste'mol qiladigan kadrlarni mas'uliyatsizligi sabab hali hanuz ba'zi kamchiliklar o'z yechimini topmadi [2]. Jumladan:

- a. Chorvadorlar faoliyati davomida yuz beradigan qiyinchiliklar, yem xashak mahsulotlarini yetishmasligi, ulardagi narx navoning balandligi
- b. Investirlarni kamligi, investitsiya yetishmovchiligi
- c. Ko'k bandli o'simliklarni chorva mollari uchun ozuqa sifatida tayyorlashdagi qiyinchiliklar, ularni maydalash uchun ixcham texnologiyalarni yo'qligi
- d. Tabiiy sharoitdagi yaylovlarni yuqolib borayotganligi qishloq xo'jaligi uchun ajratilgan yerlarda shahar tipidagi turar va noturar joylarning qurilayotganligi
- e. Chorva mollarda turli xil kasalliklarni avj olayotganligi va ularni davolashda yetarlicha dori darmonlarning yo'qligi asosiy sabablardan bo'lib kelmoqda

Bu muammo va masalalar doirasida ko'plab muhokama va muzokaralar olib borilayotgan bo'lsada hozirgacha eng maqul yechimlar harakatga keltirilmagan. Endilikda bizning vazifamiz shu tarmoqdagi barcha muammolarni yechish masalan:

- Chorvadorlar faoliyatidagi ko'plab keraksiz tekshiruvlar qog'ozbozliklarni yo'qotish
- Katta hajmdagi investitsiyalarni sohaga jalb qilish chet el investorlarini tarmoqqa bo'lgan qiziqishlarini oshirish
- Ho'l holatdagi ko'k o'simliklarni maydalash , ozuqa sifatida tayyor holatdagi mahsulotni uy sharoitida tayyorlash uchun yangi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish
- O'zbekiston qishloq xo'jaligi asosida qurilgan davlat bo'lganligi sababli hozircha shahar tipidagi turar joylar qurish uchun yaylovlarni yo'q qilinishini to'xtatish
- Chorva mollaridagi kasalliklarni yo'q qilish uchun dori darmon , tez ta'sir qiluvchi emlamalar , ularni o'sishi uchun kerakli vitaminlar va surunkali kasalliklarni oldini olish va davolash uchun samarador licheniyalar [3].

Xulosa

Xulosa qilib shuni ayishimiz joizki shu kabi yechim va takliflarni amalda sinab ko'rish lozim. Shu boradagi usullarni tajribada sinab ko'rsak ishonamizki ko'zlagan maqsadimizga yetamiz va mamlakatimizdagi bu soha iqtisodiy ko'rsatkichlarini yanada oshiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga qilgan murojatnomasi. 28.12.2018
- 2.2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy – uslubiy risola
- 3.Murtazo Rahmatov "Klaster – integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o'sish".
- 4.Sh.M. Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faolyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Toshkent: O'zbekiston, 2017
- 5.S.Ochilova, Sh.Ergasheva "Qishloq va suv xo'jaligi statistikasi".
- 6.Xabar.uz, Kun.uz, Ziyonet.uz, Stat.uz.

Ilmiy rahbar

dots. Maksumxanova A.M.

ASRIMIZNING DOLZARB MUAMMOSI YOXUD INFLYATSIYAGA QARSHI KURASH

Abduraxmonov J. – talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada inflyatsiya haqida ma'lumotlar keltirilib uning salbiy oqibatlarini tahlil qilindi va inflyatsiyadan qutilish chora tadbirlari ko'rib chiqildi.

Iste'mol tovarlari va xizmat ko'rsatish, xom ashyo va butlovchi qismlar, ishchi kuchi, moliya, valyuta bozorlarining samarali va birgalikda ishlashini nazarda tutadi. Shuningdek, hukumatning iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish uchun turli xildagi pul va budjet siyosati vositalaridan foydalanishini taqozo etadi. Lekin, bu bozorlar yaxshi, to'xtovsiz ishlashi, hukumat esa, bozor iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatish vositalaridan samarali foydalana olishi uchun, juda muhim shartni bajarish – **kuchli inflyatsiyani yo'qotish kerak.**

Inflyatsiya – bu nima?

Inflyatsiya – bu mamlakat ichida milliy valyuta xarid qobiliyatining pasayishi jarayoni bo‘lib, avvalo narxlarning umumiy darajasi ko‘tarilishida ifodalanadi. Inflyatsiya narxlar indeksi yordamida o‘lchanadi (eng mashhuri – iste‘mol narxlari indeksi, INI).

Ba‘zida inflyatsiyani **devalvatsiya** – boshqa milliy valyutalar (asosan yetakchi jahon valyutalari)ga nisbatan milliy valyuta qiymatining pasayishi bilan adashtiradilar. inflyatsiya va devalvatsiya bir-biriga faol ta‘sir ko‘rsatsada (qanday ta‘sir ko‘rsatishi haqida pastroqda so‘z yuritimiz)boshqa-boshqa hodisalardir.

Sust inflyatsiya (rivojlangan davlatlar uchun yillik 3–5%, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun – 6–10%) qattiq zarar keltirmaydi, aksincha, iqtisodiyot uchun foydali hamdir. Lekin bundan kuchliroq inflyatsiya xavf tug‘diradi.U iqtisodiy taraqqiyot uchun jiddiy to‘siq bo‘ladi. Yillik 20%dan yuqori inflyatsiya “katta odimlovchi” inflyatsiya deyiladi va, odatda, hukumatlar uni sust inflyatsiya darajasiga tushirish uchun kurashadilar.

Qayd etish o‘rinliki, so‘mning qora bozorda keskin tushib ketishidan keyin (bu Rossiya rubli va uning ketidan qozoq tengesi kursi tushib ketishining oqibati), ayniqsa keyingi yarim yil-bir yilda, mening sezishimcha, mamlakatimizda inflyatsiya kuchaydi (afsuski, inflyatsiyaning rasmiy ko‘rsatkichlari,aniqroq aytganda, ishonch uyg‘otmaydi va ular asosida tekshirish ilojisiz ko‘rinadi). Bu – iqtisodiy taraqqiyotga nisbatan juda kuchli tahdid, u o‘tkazilgan va amalga oshirilayotgan islohotlarni yo‘qga chiqarishi mumkin.

Inflyatsiya jadallashuvining zarari nimada?

1. Inflyatsiyaning kuchayishi belgilangan (ya‘ni faqat vaqti-vaqti bilan ko‘rib chiqiladigan) daromadga ega odamlarga zarar keltiradi – ular esa, deyarli barcha yollanma ishchilar, shuningdek ijtimoiy nafaqa oluvchi pensionerlar, talabalardir. Ularning belgilangan daromad narxlar o‘sishi sababli qadrsizlanaveradi.

2. Katta odimlovchi inflyatsiya **ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanish va investitsiya kiritishga qiziqishni susaytiradi**. Ishlab chiqarish bilan shug‘ullanish, ayniqsa uzoq muddatli investitsiya loyihalariga aralashish mutlaqo foydasiz bo‘ladi: ishlab chiqarishda mablag‘ juda sekin aylanadi va o‘zining xarid qobiliyatini yo‘qotadi. Shu sababli faol tadbirkorlik faoliyatining bosh sohasi tovarlar bo‘lib qoladi, u turli mahalliy bozorlardagi narxlar o‘rtasidagi farqda (turli bozorlarda narxlar turlicha sur‘atda o‘zgaradi) va vaqt o‘zgarishida pul ishlab olish imkonini beradi. Shu sababli, agar inflyatsiyani o‘z qo‘limizga olmasak, moliya sohasi va valyuta bozorining liberallashuvi moliyaviy resurslarning ishlab chiqarishdan chayqovchilar qo‘liga o‘tib ketishiga olib keladi, bu esa investitsiyalarga va ishlab chiqarish hamda bandlikning o‘shishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Agar inflyatsiyani o‘z qo‘limizga olmasak, moliya sohasi va valyuta bozorining liberallashuvi moliyaviy resurslarning ishlab chiqarishdan g‘arazli kimsalar qo‘liga o‘tib ketishiga olib keladi, bu esa investitsiyalarga va ishlab chiqarish hamda bandlikning o‘shishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

3. Katta odimlovchi inflyatsiya **moliyaviy bozorlarning me‘yordagi faoliyatini izdan chiqaradi**. Qanday foizda kredit berish va qarz olish, qimmatli qog‘ozlardan qancha daromadlilikni kutish kerak – bularning barchasi kutilayotgan inflyatsiya sur‘atlariga bog‘liq bo‘ladi. Ammo katta odimlovchi inflyatsiya sur‘atlarini oldindan aytish ilojisizdir. Natijada, qarz beruvchilar ham, qarz oluvchilar ham zarar ko‘rishlari mumkin. Shu sababli foiz stavkalari osmonga ko‘tarilib ketadi, uning ketidan inflyatsiya sur‘atlari va ularning tezlashib ketishi ehtimoli bilan bog‘liq xatarlar ham kuchayadi. Depozitlarga yoki boshqa moliyaviy aktivlarga pul qo‘yishga qiziqish ularning qadrsizlanishidan xavotir tufayli so‘nadi. Shuning barobarida, jamg‘arma uchun ishonchliroq vosita sifatida, xorijiy valyutaga talab ortadi. Buning natijasida moliyaviy bozorlar yomon ishlaydi: jamg‘armalarni investitsiyalarga aylantirish va ishlab chiqarish tarmog‘ini maqbul pul resurslari bilan ta‘minlash funksiyasini talab darajasida bajarmaydi. Bu esa iqtisodiyotning rivojlanishiga o‘ta noxush ta‘sir ko‘rsatadi.

Narxlarning umumiy o‘shishini to‘xtatishni istasak, quyidagicha xulosa chiqarishimiz lozim:

1. Markaziy bank ochiq bozorda amaliyotlar o'tkazish va tijorat banklariga arzon kreditlar berish orqali **pul emissiyasini cheklashi** zarur. Shu jihatdan, yaqinda amalga oshirilgan qayta moliyalash stavkasini 9%dan 14% ga ko'tarish to'g'ri tanlov bo'ldi. Boz ustiga, bank tizimi liberallashtirishda qayta moliyalash stavkasini yana ham yuqoriroq ko'tarishga to'g'ri keladi. Lekin bu vaqtinchalik, inflyatsiyani jilovlash uchun ko'rilgan chora bo'ladi. Moliyaviy barqarorlik ta'minlanganidan keyin stavkani kamaytirish, kreditlarning biznes va aholi uchun hamyonbop qilish mumkin bo'ladi.

2. Ortiqcha budjet xarajatlarini cheklash kerak bo'ladi. Ular (imtiyozli kreditlar bilan birga) bugungi kunda pul massasi ortiqcha o'sishining asosiy manbai bo'lib kelmoqda. Davlat xarajatlarini (budjetdan tashqari fondlar xarajatlarini (YaIMning 35%)ni ham) iqtisodiyotimizning imkoniyatlariga muvofiq holga keltirish kerak! Ha, xarajatlarni qisqartirish (yoki o'sishini cheklash) – unchalik ham yaxshi chora emas. Biroq ortiqcha xarajatlarni faqat ortiqcha pul emissiyasi (bu inflyatsiya va bozor mexanizmlarining barbod bo'lishiga olib kelishi mumkin) yoki soliqlarni ko'tarish (bu biznesning raqobatbardosh bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, soliq islohotlarini yo'qqa chiqaradi) evazigagina qoplash mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kuchli inflyatsiya xususiy tashabbusni va resurslarni ishlab chiqarish faoliyatidan salbiy tomonga burib yuboradi, moliyaviy tizimning omonatlarni investitsiyalarga aylantirish imkoniyatlarini kamaytiradi, bozor kuchlarining iqtisodiyotimiz samaradorligini oshirishiga yo'l qo'ymaydi. Shu sababli inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi va kuchaytiruvchi turli-tuman omillarning barchasini hisobga olgan holda kurashishga kuch tashlash nihoyatda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Vahobov A. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. T.: Sharq 2005. 136 b.
- 2.Malikov T., Xaydarov N. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma, T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007.72 b.
- 3.Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: O'quv qo'llanma A.E.Ishmuxamedov va boshq.-T.: TDIU, 2006. 56 b.
- 4.www.LexUz
- 5.www.ziyonet.uz

Ilmiy rahbar

Djamalova X.

MAMLAKATIMIZDA AGROSANOAT VA AGROBIZNESNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Turdiqulov.Sh.S., Saidov D.O.- talabalar, TIQXMMI

Annotatsiya

Biz ushbu maqolamiz bilan qishloq xo'jaligida yuzaga kelgan bazi muammolarni tolaqonli yechilmayotganini nazarda tutgan holda o'z takliflarimizni bildirib o'tdik. Sohada erishilgan yutuqlar bilan birgalikda ba'zi muammlarga ham atroflicha to'xtalib o'tdik.

Kirish: Har bir davlat o'z iqtisodiy imkoniyatlarini va rivojlanish yo'llarini o'zi tanlaydi.O'zbekiston Respublikasining rivojlanish yo'llarini ham birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tanladi.Shungga monad xalqimiz ham ularga hayrihoq bo'ldi.Hozirgi kunda esa birinchi prezidentimiz boshlagan ishlarini Shavkat Miromonovich Mirziyoyev jadallik bilan olib bormoqdalar.So'nggi yillardagi o'zgarishlar har bir insonni shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonga dahldorlik hissini orttiradi.Muhtaram prezidentimizning "Har bir oila –

tadbirkor”, “Yoshlar –kelajagimiz” kabi dasturlar doirasida 2 trillion soʻmga yaqin mablagʻ ajratib, joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalar amalga oshirildi”. Oxirgi yillarda mamlakatimizda ishlab chiqarish, qayta ishlash va exportga keng koʻlamda ishlar amalga oshirilmoqda [1]. Xususan Fermer xoʻjaliklarining qishloq xoʻjaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi boʻyicha eng kam koʻrsatkich Navoiy viloyatida (19,4 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklarining eng kam ulushi Samarqand viloyatida (60,7 %), qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Andijon viloyatida (1,0 %) qayd etildi. Dehqonchilik 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 102 495,1 mlrd. Soʻmni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 95,3 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 53,2 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 53,2 % ni tashkil qildi. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklarda 6 375,4 ming tonna (87,5 %) don ekinlari ishlab chiqarildi, 2 750,1 ming tonna (98,4 %) kartoshka kavlab olindi, 9 635,1 ming tonna (94,3 %) sabzavotlar, 1 904,9 ming tonna (93,8 %) oziqbop poliz, 2 589,7 ming tonna (99,0 %) mevalar va rezavorlar, 1 564,5 ming tonna (96,2 %) uzum yigʻib olindi. Jami ishlab chiqarilgan don ekinlari tarkibi tahlil qilinganda don ekinlarining asosiy qismini yoki 86,1 foizini boshqoli don ekinlari tashkil qilishi kuzatildi. Shuningdek jami don ekinlari tarkibining 5,9 foizi makkajoʻxori, 3,5 foizi sholi, 3,4 foizi dukkakli don ekinlari va 1,1 foizi boshqa don ekinlari hissasiga toʻgʻri keladi [1].

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2018 yilda Oʻzbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi joriy narxlarda 407 514,5 mlrd. Soʻmni tashkil etdi va 2017 yil bilan taqqoslaganda 5,1 % ga oʻsdi. YaIM deflyatori indeksi 2017 yildagi narxlarga nisbatan 128,1 foizni tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblangan. YaIM 12 365,6 ming soʻmni tashkil etdi va bu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga yuqoridir. Iqtisodiy oʻsish surʼati iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy dinamika bilan bogʻliqdir.

1 – rasm. PLC Dasturlanuvchi mantiqiy kontroller va uning asosiy komponentlari.

Rele-diagramma dasturlash tili ingliz tilidan Ladder Diagram – Narvon diagramma deb tarjima qilinadi. LD dasturlash tili o‘zi bilan qulay va oson qo‘llanililigi bilan qolgan dasturlash tillaridan ajralib turadi. Bu dasturlash tili asosida rele-kontaktli sxema yotadi shuning uchun uning elementlariga quyidagilar: rele chulg‘amlari, rele kontaktlari, gorizonta va vertikal tutashtirgichlar kiradi.

LD dasturlash tilining asosiy mantiqiy o‘zgaruvchilari - rele kontaktlari va knopkalari hisoblanib, o‘zgaruvchilar holati esa kontaktlarning holatidan boshqa narsa emas: ochiq yoki yopiq [5].

LD dasturlash tilida yozilgan programmaning o‘zi releli sxemaning analogi sifatida ishlaydi va ko‘plab funksional bloklarni o‘z ichiga olishi mumkin. Umuman olganda, LD tilida releli texnika uchun mantiqiy sxemalarni tuzish juda oson.


Ozgina tarixdan. Shunday qilib, rele-sxema tili Tomas Edison davrida ham mavjud edi va 1970-yillarning boshlarida birinchi PLC lar uchun moslashtirila boshlagan. Eng birinchilardan bo‘lib ushbu til Modicon va Allen-Bradly kompaniyalarining PLC dasturiy paketlarida paydo bo‘ldi. Bu ramziy ma’nodan elektr muhandisligi sohasida dasturlash tili hisoblana boshladi[2].

LD dasturlash tili aslida sanoat korxonalarida ishlaydigan avtomatika muhandislari uchun mo‘ljallangan. Dasturlash interfeysi Kontroller mantiqiy ishini ochiq oydin ko‘rsatib turadi,

ishga tushirish vazifalarini hal qilishni osonlashtiradi, shuningdek PLC ga ulangan uskunadagi muammolarni tezda topadi. Standartni ishlab chiqaruvchilar releli avtomatika sohasida ishlovchi muhandislar ishini maksimal tarzda yengillashtiradigan maxsus shaklini yaratishdi.

Masalan, AQSHda PLC larni dasturlash uchun eng keng tarqalgan tillardan biri – LD dasturlash tili hisoblanadi. Bundan tashqari butun dunyo bo‘yicha eng qulay tillardan ham hisoblanadi. LD tilida yozilgan programma intuitiv ravishda chunarli hisoblanadi, shunday ekan har qanday elektr muhandis osongina o‘qishi va tushunishi mumkin, chunki bu yerda mantiqiy operatsiyalar ochiq va yopiq kontaktlarga ega bo‘lgan elektr sxema sifatida namoyon bo‘ladi.


Mantiqiy operatsiya natijasi sifatida “YOLG‘ON” yoki “ROST” olinadi. Umuman olganda elektr zanjirda tok oqib o‘tsa – “ROST”, “TRUE”, yoki tok oqib o‘tmasa – “YOLG‘ON”, “FALSE” [3].



2 – rasm. LD tilida tuzilgan dastur va uning elektr sxemada ko‘rinishi.

LD dasturlash tilining avzalliklari va kamchiliklari. Tilning eng asosiy avzalligi – shubhasiz soddaligidir. Dastur elektr oqim sifatida namoyon bo‘ladi, elektr muhandislari buni bir ko‘rishda tushunishadi. Qoidalar oddiy, faqat bu yerda Boolean ifodalari ishlatiladi, kod osongina qo‘lda optimallashtirish mumkin.

Shunga ko‘ra asosiy kamchilik operatsiyalar faqat ikkilik tizimida yoziladi. Shuning uchun tizim diskret holatda tekshiriladi, uzluksiz boshqaruv esa deyarli yo‘qoladi. Bundan tashqari, relelar soni ko‘payishi bilan, elektr sxema o‘qilishi va tushunilishi qiyinlashadi.



3 – rasm. LD tilida tuzilgan dastur va uning elektr sxemada ko‘rinishi.

Ikki vertikal yo‘nalishdagi chiziqlar bir juft manba shinalarini ifodalaydi. Shinalar orasida gorizontal zanjirlar mavjud bo‘lib, unda rele chulg‘ami va kontaktlari yotadi. Zanjirda kontaktlar ketma-ket va paralle ulanishi mumkin. Agar zanjirda tok oqishini ta‘minlash kere bo‘lsa rele kontaktlari ketma-ket ulanadi. Shu bilan birga rele chulg‘ami ham ishlaydi. Bir nechta rele chulg‘ami paralle ulanishi mumkin, ammo ketma-ket emas.

Har bir kontakt uchun LD tilida kontaktning holatini belgilaydigan mantiqiy o‘zgaruvchi mavjud. Normal ochiq kontakt o‘zgaruvchisi kontakt yopilganda “ROST”-“TRUE” ifodasini qabul qiladi. Yoki kontakt ochiq bo‘lganda “YOLG‘ON”-“FALSE” ifodasini qabul qiladi.

Kontaktning yuqorisidagi yozuv – o‘zgaruvchining nomi va ayni paytda kontaktning nomi sifatida ishlatiladi.

Bir nechta kontaktlar ketma-ketlik bilan ulanganda, mantiq “VA”-“AND” operatoriga teng bo‘ladi. Parallel ravishda bog‘langan kontaktlar mantiqiy operatori “YOKI”-“OR” bilan tenglashadi. Zanjir ulanganda “ON”, uzilganda “OFF” ifodasini beradi buni anglatadiki, “YOLG‘ON” yoki “ROST” rele chulg‘ami holati va mantiqiy o‘zgaruvchini mos ravishda ifodalaydi.

- -|/- normal ochiq kontakt;
- -|/- normal yopiq kontakt;
- -()- rele chulg‘ami;
- -(/)- teskari rele chulg‘ami.

Ko‘rinib turibdiki, LD dasturlash tilida grafik belgilar juda tushunarli qilib berilgan. Ammo ular elektr sxemalarda qabul qilingan belgilardan ozgina farq qiladi. Biroq haqiqat, bu simbolikalar dasturlash tilining soddaligini ta‘minlab beradi. Ya‘ni bu simvollar yordamida bemaol elektr sxema qurish shu bilan birga parallel tarzda dastur ham qurish mumkin.

Teskari kontakt (normal yopiq -|/-) uchun o‘zgaruvchi quyidagi ifodani qabul qiladi “ROST” qachonki kontakt ochilsa, agar normal yopiq kontakt yopiqligicha qolsa, demak mantiq o‘zgaruvchisi o‘ziga “YOLG‘ON” ifodani qabul qiladi. Bunday kontakt ishi “YO‘Q”-“NOT” mantiqiy operatori bilan tenglashtiriladi. To‘g‘ri va teskari kontaktlar kombinatsiyasi almashinuvchi kontaktor hosil qilinadi.

Bundan tashqari ko‘rinib turibtki rele chulg‘amlari ham teskari bo‘lishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, mantiqiy o‘zgaruvchi zanjir holatiga qarab o‘z ifodasini topadi. Masalan, zanjirda tok bor – “YOLG‘ON”, tok yo‘q – “ROST” [4].

Xulosa

Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (IEC) 61131-3 standartiga muvofiq PLC qurilmalariga dasturlar tuzayotganda bo‘lajak elektr muhandis eng soda, qulay, tushunarli dasturlash tilini tanlab olishi zarur. Aks holda butun bir tizim ish holatidan chiqib noto‘g‘ri ishlaydi va bu qurilmani nosoz ahvolga olib keladi. Bu ilmiy maqoladan shuni xulosa qilsa bo‘ladiki, yuqorida sanab o‘tilgan 5 ta dasturlash tillaridan LD rele diagramma tili samarali dasturlash tili hisoblanib, amaliyotda keng qo‘llanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.K. Thramboulidis and G. Frey, “Towards a Model-Driven IEC 61131-Based Development Process in Industrial Automation”, Journal of Software Engineering and Applications, vol. 4, no. 4, pp. 217-226, 2011.
- 2.B. Vogel-Heuser, S. Braun, M. Obermeier, K. S., and K. Schweizer, “Usability evaluation on teaching and applying model-driven object oriented approaches for PLC software”, 2012 American Control Conference (ACC), pp. 4463-4469, 2012.
- 3.Петров, И. В. Програмируемые контроллеры. Стандартные языки и приемы прикладного проектирования/ И. В. Петров; под ред. проф. В. П. Дьяконова. – М.: СОЛОН-Пресс, 2004. – 256 с.
- 4.Руководство пользователя по программированию ПЛК в CoDeSys V2.3. – Смоленск: ПК "Пролог", 2004. – 423 с.
- 5.Христенсен, Дж. Х. Знакомство со стандартом на языки программирования PLC: IEC 1131-3 (МЭК 1131-3) [Электронный ресурс]/ Дж. Х. Христенсен. – [2004].

Ilmiy rahbar

t.f.n., dots. Adilov Y.T.

Wi-Fi DAN Li - Fi GACHA BO'LGAN DAVR

Obidova D.G. - katta o'qituvchi, TQKK-HK , Rasulova Z.Sh.– talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Maqolada Wi-Fi texnologiyasining xususiyatlari, islatilish sohalari, WLAN, WiMAX va Li-Fi texnologiyalari ularning afzalliklari va kamchiliklari haqida ma'lumot keltirilgan.

Wi-Fi(Wireless Fidelity) — ingliz tili so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, «simsiz vafolik» ma'nosini anglatadi. Wi-Fi texnologiyasi hozirgi kunga kelib komp'yuter olamida eng jadal rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Wi-Fi texnologiyasi - bu mahzilga raqamli ma'lumotlarni radiokanallar orqali jo'natish texnologiyasidir. Ushbu texnologiya yaratilishida avvalo korporativ foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, kabelli tarmoqni o'rni egallashi maqsad qilingan. Ma'lumki, kabelli kompyuter tarmog'ini yaratish uchun bir necha ming kabel tugunlarini qo'lda o'rnatish hamda maxsus tarmoq topologiyasidan foydalanish kerak bo'ladi. Wi-Fi —qisqartirilgan radiochastotasida ishlovchi simsiz ma'lumot almashinishning standartlashtirilgan texnologiyasidir. Odatda Wi-Fi tarmog'i orqali WLAN(Wireless Local Area Network — Simsiz Lokal Tarmoq) tarmoqlari yaratiladi. Ushbu tarmoqda uzun radioto'lqinlar orqali aloqa tashkil qilinadi hamda ma'lumot almashinishini amalga oshiriladi. Bu tarmoq kabel orqali bitta bino yoki bir nechta binolar hududida ishlatiladi. Wi-Fi texnologiyasi minglab kabel uchun sarflanadigan xarajatni tejash bilan birga vaqtni iqtisod qiladi va tarmoqdan foydalanish sohasi kengayadi. Simsiz tarmoqlarda radioto'lqinlar bino yoki shunga o'xshash boshqa to'siqlardan ham o'tib ketaveradi va umuman hech narsa unga to'siq bo'la olmaydi(masofadan tashqari albatta!). Simsiz tarmoqlar o'z-o'zidan kabelli tarmoqlardan ishonchliroq hisoblanadi. Ko'pchilik WLAN tarmoqlarining diapazoni 160 metrni tashkil qiladi, bu albatta uning yo'lidagi to'siqlarning qanaqaligiga va qanchaligiga bog'liq bo'ladi. [1] Ushbu tarmoqning ishlash tezligi kabelli tarmoqqa nisbatan bir necha barobar yuqori bo'lishi mumkin. Bu tarmoqning qaysi standartidan foydalanishga ham bo'g'liq bo'ladi. Xuddi oddiy tarmoqlar kabi WLAN tarmog'ida ham ma'lumotlarning o'tkazuvchanlik qobiliyati uning topologiyasidan, yuklanishidan, yuklanish nuqtasining masofasiga va shu kabi parametrlarga bog'liq bo'ladi. Ushbu tarmoqni eng qulay tomonlaridan biri uni oson o'rnatilishida bo'lsa, ikkinchisi Wi-Fi tarmog'ini kengaytirishdagi muammolarni umuman yo'qligidadir. WLAN tarmog'ini kengaytirish uchun amaliy jihatdan yondoshib qaraganda yangi ulanish nuqtalarini yaratishning o'ziga kifoya. Wi-Fi qurilmasini sotib olayotgan foydalanuvchi o'zini bemalol quyidagi imkoniyatlarni egasiligiga deb hisoblashi mumkin:

1. Ko'p funksional multiservisli simsiz aloqa bilan birgalikda qo'shimcha qurilmalar bilan ishlovchi maxsus qurilma;
2. Yuqori tezlikda uzoq masofalarga ma'lumot almashinish imkoniyatiga ega bo'lasiz ;
3. Tarmoqni kengaytirish uchun deyarli hech qanday ishni amalga oshirishni keragi yo'q:yangi foydalanuvchi tarmoqqa ulanish uchun tarmoqqa ulanish parolini bilishi yetarli hisoblanadi;
- 4.Foydalanuvchi internet texnologiyalari hamda telekommunikatsiya sohasining eng oxirgi yutuqlaridan foydalanayotgan bo'ladi.

WiMAX (ingl. Worldwide Interoperability for Microwave Access) — texnologiyasini rivoji hamda ko'tarilishi uchun 1999-yili IEEE 802.16 bazasi qoshida WiMAX-forum tashkil qilingan edi. Forumga Nokia, Harris Corporation, Ensemble, Crossspan hamda Aperto kabi mashhur kompaniyalar qo'shilishgan. 2005-yil may oyiga kelib ushbu forumda 230 dan ortiq qatnashchilarni birlashtirgan. O'sha yiliyoq WSIS (World Summit on Information Society) tomonidan WiMAX texnologiyasiga quyidagi maqsad va vazifalarni qo'ygan. WiMAX yordamida kichik qishloqlar, uzoq regionlarda information hamda kommunikatsion texnologiyalarni rivojlantirish imkoniyati mavjud (ko'pgina chekka hududlarda telefon hamda kabel tarmoqlarning umuman mavjud emasligini hisobga olgan holda). WiMAX yordamida yer

sharining butun aholisi uchun informatsion hamda kommunikatsion texnologiyalarga yo‘l ochiladi. WiMAX texnologiyasi ishlash prinsiplari: WiMAX sistemasi ikki asosiy qismdan iborat. WiMAX baza stansiyasi (yuqori qavatli binolar yohud maxsus ustinga o‘rnatilishi mumkin). WiMAX qabul qilgich (qabul qilgichli antenna, PC card yoki tashqi kartalar form faktori asosida). Baza stansiya hamda foydalanuvchi qabul qilgich qurilmasi oralig‘idagi bog‘lanish past chastotali diapason (2–11 GHz) orqali amalga oshiriladi. Bunday bog‘lanish eng yaxshi sharoitlarda 20 Mb/s tezlikda ma‘lumot uzatishga imkon beradi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri signal ko‘rishni talab etmaydi. Shuni yodda tutish lozimki, WiMAX texnologiyasi nafaqat „so‘nggi milya“, balki regional tarmoqlar (ofis hamda rayonlar)ni bir biri bilan bog‘lashda bemalol qo‘llash mumkin. Qo‘shni baza stansiyalari bilan OYCh (o‘ta yuqori chastota 10–66 GHz) to‘g‘ridan-to‘g‘ri radioaloqa rejimida doimiy bog‘lanish o‘rnatiladi. Bunday bog‘lanishlar 120 Mb/s tezlikda ma‘lumot almashish imkonini beradi. Albatta baza stansiyalarining to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rish orqaligina bir biri bilan ma‘lumot almashinishi bu WiMAX ning minus tomoni. Lekin yuqori qavatli binolarda joy olgan baza stansiyalariga nima ham yuqorida bir-biri bilan bog‘lanishga orada to‘siq bo‘la olardi. Har bir baza stansiyasi yuqori polosali tezkor bog‘lanish orqali (T3 va shunga o‘xshash) provayder bilan doimiy bog‘lanib turadi. Bu bilan yuklanmani uyali aloqa topologiyasi asosida teng baza stansiyalariga taqsimlash mumkin [2].

LI-FI – yuqori tezlikka ega Internet texnologiyasi. Britaniya olimlari yangi LI-FI texnologiyasi ya‘ni yorug‘lik nuri orqali simsiz aloqa yordamida ma‘lumotlarni uzatish tezligi 10 Gbit/s ga yetkazganlarini ta‘kidlashmoqda. Li-Fi — ingliz tilidagi «light» — yorug‘lik, «fidelity» — aniqlik so‘zlardan olingan bo‘lib, maxsus yorug‘lik diodlari orqali ixtiyoriy joydan Internet tarmog‘iga arzon va ishonchli ulanishni ta‘minlovchi texnologiya. Axborotlarni ultraparallel nurlar orqali yuborish bo‘yicha ishlab chiqilayotgan bu loyiha Edinburg, Oksford va Kembridj universitetlari tomonidan tashkillashtirilyapti. Li-Fi texnologiyasida uzatkich sifatida oddiy yorug‘lik diod lampalari ishlatiladi. Maxsus chiplar orqali yuborilayotgan ma‘lumotlar yorug‘lik nuriga aylantiriladi. Bu 1 vatt quvvatga ega bo‘lgan diod lampa nuri o‘rtacha kattalikdagi ofis xonada joylashgan komp‘yuterlarni bog‘lash uchun yetarli. Bundan tashqari Li-Fi tarmog‘i foydalanuvchisi sifatida yorug‘lik signallarini qabul qiluvchi kameralarga ega bo‘lgan smartfonlar, planshet kompyuterlar va boshqa portativ qurilmalar kirishi mumkin. Tadqiqotchilar bir soniyada 3,5 Gb axborotni yubora oladigan mikro yorug‘lik diodidan foydalanishdi. Undan taralayotgan yorug‘lik qizil, yashil va ko‘k rangli nurlarning yig‘indisidan hosil bo‘lgan. Bundan kelib chiqadiki, kanallardan umumiy hisobda 10 Gb/s tezlikda axborot uzatiladi [2].

Li-Fi texnologiyasi quyidagi afzalliklarga ega:

1. Wi-Fi texnologiyasiga nisbatan yuqori tezlikka ega;
2. Radiochastota spektridan 10 marta ko‘p;
3. Nisbatan xavfsiz, chunki ma‘lumotlarni yorug‘lik to‘liq ko‘rinarli bo‘lmaguncha olib bo‘lmaydi;
4. Qo‘shni tarmoqdan bo‘ladigan aralashuvni oldini olish;
5. Radio to‘siqlardan erkin o‘ta oladi;
6. Ta‘sirchan elektron qurilmalarda to‘siqlarni hosil qilmaydi. Bu esa Li-Fi texnologiyasidan kasalxonada, samolyot muhitlarida ham foydalanish imkonini beradi.

Li-Fi texnologiyasi Wi-Fi ga nisbatan ba‘zi kamchiliklarga ega. Foydalanuvchi qurilmasi lampaning ko‘rinish sohasida bo‘lishi kerak. Bunda maxsus lampalar shart emas, uy yoki ish joyidagi oddiy lampalar yordamida ham Internetga ulanish mumkin. Ammo uning Wi-Fi dan farqi, yorug‘lik diodli lampa bo‘lmagan xonada tarmoqqa ulanishni amalga oshirib bo‘lmastir. Li-Fi texnologiyasini Oledcomm kompaniyasi muhandislari tajribadan o‘tkazishdi. Fudan universiteti jamoasi esa to‘rt kompyuterni bir lampaga ulash bo‘yicha sinov ishlarini olib bormoqdalar [1].

Bunday kamchiliklarga qaramay, Li-Fi texnologiyasidan aholi zich joylashgan tumanlarda, radio signallarni minimumga yetkazish kerak bo‘lgan joylarda, masalan kasalxonalarda, yoki radio signallar ishlamaydigan muhitlarda foydalanish ancha qulay. LED

lampa vositasida axborotning uzatilish jarayoni. Ma'lumotlar oqimi global tarmoqdan lampaga uzatiladi. Qabul qilingan ma'lumotlar esa foto detektor orqali kuchaytirilgan va qayta ishlangan holatda qurilmaga yo'naltiriladi. Mobil vosita (planshet, smartfon) ma'lumotlarni kamera orqali qabul qiladi va o'qiy oladi. Yorug'lik diodlari birinchi marta 2008-yilda AQSH'da qo'llanilgan bo'lib, Wisconsin shtati soat ishlab chiqaruvchi korxonada o'rnatilgan. Keyinchalik esa archa chiroqlari, ko'chalarni yoritishda ham foydalanilgan.

Xulosa

Keltirilgan ma'lumotlar asosida Wi-Fi, WLAN, WiMAX va Li-Fi texnologiyalari haqida tushunchaga ega bo'ldik, ularning o'xshash va farqli tomonlarini, qo'llaniladigan sohalarini afzallik va kamchiliklarini bilib oldik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aripov M.M. "Informatika, Informatsion texnologiyalar" 2005-yil
2. www.soft.ru

Ilmiy rahbar

Aynaqulov SH. A.

SUV TAQSIMOTI MASALASINING MATEMATIK MODELI

Karimova M., Xayrullayeva D. – talabalar, TIQXMMI,

Annotatsiya

Maqolada suv manbalaridan xo'jaliklarga suvni optimal taqsimlash masalasi qaralib, shu masalaning matematik moeli tuzilgan. Tuzilgan model Excel dasturida yechilib, natijasi tahlil qilingan.

Suv manbalaridan xo'jaliklariga suv taqsimlash masalasini qaraymiz. Shartli ravishda suv manbalarini a_1, a_2, a_3 deb, xo'jaliklarni esa b_1, b_2, b_3, b_4 deb olamiz.

a_1 suv manбайдan b_1 xo'jalikka $1m^3$ suvni yetkazishdagi suv isrofini $c_{11} = 0,07$, b_2 xo'jaligiga $1m^3$ suvni yetkazishdagi suv isrofini $c_{12} = 0,06$, b_3 xo'jaligiga $1m^3$ suvni yetkazishdagi suv isrofini $c_{13} = 0,05$, b_4 xo'jaligiga $1m^3$ suvni yetkazishdagi suv isrofini $c_{14} = 0,03$ deb olamiz va shu kabi qolgan suv manbalaridan xo'jaliklarga $1m^3$ suvni yetkazishdagi suv isroflarini mos ravishda $c_{21} = 0,02$, $c_{22} = 0,03$, $c_{23} = 0,06$, $c_{24} = 0,06$,

$c_{31} = 0,01$, $c_{32} = 0,03$, $c_{33} = 0,04$, $c_{34} = 0,05$ deb olamiz. a_1 suv manбайдagi suv zaxirasi $30000m^3$, a_2 suv manбайдagi suv zaxirasi $40000m^3$, a_3 suv manбайдagi suv zaxirasi $20000m^3$ bo'lsin. b_1 xo'jaligidagi suvga bo'lgan talab $8000m^3$, b_2 xo'jaligidagi suvga bo'lgan talab $7000m^3$, b_3 xo'jaligidagi suvga bo'lgan talab $6000m^3$, b_4 xo'jaligidagi suvga bo'lgan talab $8000m^3$ bo'lsin [1].

Suvni shunday taqsimlash kerakki, suv manbalaridagi suv sarfi suv zaxirasidan oshib ketmasligi, xo'jaliklardagi suvga bo'lgan talab to'liq qondirilishi, umumiy suv isrofi minimal bo'lishi kerak. Masalani quyidagi jadval ko'rinishida ifodalaymiz:

Xo'jaliklar Suv manbalar	b_1	b_2	b_3	b_4	Suv manbalaridagi suv zaxirasi
a_1	0,07 x_{11}	0,06 x_{12}	0,05 x_{13}	0,03 x_{14}	30000

a_2	0,02 x_{21}	0,03 x_{22}	0,06 x_{23}	0,05 x_{24}	40000
a_3	0,01 x_{31}	0,03 x_{32}	0,04 x_{33}	0,05 x_{34}	20000
Xo'jaliklardagi suvga bo'lgan talab	8000	7000	6000	8000	

Jadvalda $x_{ij}, (i=1,2,3; j=1,2,3,4)$ - i-suv manбайдan j- xo'jalikka yuboriladigan suv miqdorini bildiradi va ularning qiymatlari noma'lum bo'lib, shu qiymatlarni topish talab etiladi [2].

Masalaning shartiga ko'ra, suv manbalaridagi suv isrofi suv zaxirasidan oshib ketmasligi kerak, ya'ni quyidagi munosabatlar bajarilishi kerak:

$$\begin{aligned} x_{11} + x_{12} + x_{13} + x_{14} &\leq 30000 \\ x_{21} + x_{22} + x_{23} + x_{24} &\leq 40000 \\ x_{31} + x_{32} + x_{33} + x_{34} &\leq 20000 \end{aligned} \quad (1)$$

Xo'jaliklardagi suvga bo'lgan talab qondirilishi kerak. Buni quyidagicha ifodalaymiz:

$$\begin{aligned} x_{11} + x_{21} + x_{31} &= 8000 \\ x_{12} + x_{22} + x_{32} &= 7000 \\ x_{13} + x_{23} + x_{33} &= 6000 \\ x_{14} + x_{24} + x_{34} &= 8000 \end{aligned} \quad (2)$$

Suv isrofi minimal bo'lishi kerak, ya'ni

$$z = \sum_{i=1}^3 \sum_{j=1}^4 c_{ij} x_{ij} \rightarrow \min \quad (3)$$

Suv manbalaridan xo'jaliklarga yuboriladigan suv miqdorlari nomanfiy qiymatlarni qabul qilishi kerak, ya'ni

$$x_{ij} \geq 0, i=1,2,3; j=1,2,3,4. \quad (4)$$

Yuqoridagi (1),(2),(3),(4), munosabatlarni birlashtirib berilgan masalaning quyidagi matematik modelini hosil qilamiz

$$\begin{aligned} z &= \sum_{i=1}^3 \sum_{j=1}^4 c_{ij} x_{ij} \rightarrow \min \\ x_{11} + x_{12} + x_{13} + x_{14} &\leq 30000 \\ x_{21} + x_{22} + x_{23} + x_{24} &\leq 40000 \\ x_{31} + x_{32} + x_{33} + x_{34} &\leq 20000 \\ x_{11} + x_{21} + x_{31} &= 8000 \\ x_{12} + x_{22} + x_{32} &= 7000 \\ x_{13} + x_{23} + x_{33} &= 6000 \\ x_{14} + x_{24} + x_{34} &= 8000 \end{aligned} \quad (5)$$

$$x_{ij} \geq 0, i=1,2,3; j=1,2,3,4.[3]$$

Berilgan masalani tuzilgan model asosida Excel dasturi yordamida yechamiz. Buning uchun berilgan masalani Excel dasturiga quyidagicha kiritamiz:

	A	B	C	D	E	F	G	H	I
1		b1	b2	b3	b4				
2	a1	0,07	0,06	0,05	0,03				
3	a2	0,02	0,03	0,06	0,05				
4	a3	0,01	0,03	0,04	0,05				
5									
6									
7		b1	b2	b3	b4				
8	a1	0	0	0	0	0 <=		suv zaxirasi	30000
9	a2	0	0	0	0	0 <=			40000
10	a3	0	0	0	0	0 <=			20000
11		0	0	0	0	0 <=			0
12	=	=	=	=	=				
13	suvga talab	8000	7000	6000	8000				
14	z=	0							
15									

B2:E4 diapazonda suv manbalaridan xo'jaliklarga 1m^3 suvni yetkazib berishdagi suv isroflari berilgan. B8:E10 diapazonda esa suv manbalaridan xo'jaliklarga yetkaziladigan suv miqdorining boshlang'ich qiymatlari 0 ga teng deb olingan. B11:E13 diapazonda (3) munosabatlar, F8:H10 diapazonda (2) munosabatlar, B14 katakda esa (1) funktsiya ifodallangan. Ushbu ma'lumotlarni kiritishda funktsiya ustasi yordamida "Сумма", "Суммпроизв" funktsiyasidan foydalandik. Yuqoridagi ma'lumotlarni kiritib bo'lgandan keyin menyuning "Сервис" bo'limidagi "Поиск решения" buyrug'ini tanlaymiz. Xosil bo'lgan muloqot oynasida kerakli parametr va munosabatlarni belgilab, "Поиск решения" buyrug'ini ishga tushiramiz va quyidagi natijani olamiz:

	A	B	C	D	E	F	G	H	I
1		b1	b2	b3	b4				
2	a1	0,07	0,06	0,05	0,03				
3	a2	0,02	0,03	0,06	0,05				
4	a3	0,01	0,03	0,04	0,05				
5									
6									
7		b1	b2	b3	b4				
8	a1	0	0	0	8000	8000 <=		30000	
9	a2	0	5396,382	0	0	5396,382 <=		40000	
10	a3	8000	1603,618	6000	0	15603,62 <=		20000	
11		8000	7000	6000	8000	29000 <=		29000	
12		=	=	=	=				
13	сuvga talab	8000	7000	6000	8000				
14	z=	770							
15									
16									

Rasmdan ko'rinib turibdiki, masalada berilgan barcha shartlar bajariladi va masalaning yechimi quyidagicha bo'ladi[4]:

$$x_{11} = 0, x_{12} = 0, x_{13} = 0, x_{14} = 8000, x_{21} = 0, x_{22} = 5396,382, x_{23} = 0, x_{24} = 0,$$

$$x_{31} = 8000, x_{32} = 1603,618, x_{33} = 6000, x_{34} = 0. z_{\min} = 770.$$

Xulosa

Masalaning yechimidan ko'rinadiki, minimal suv isrofi 770 m^3 bo'lib, bunda 1 –suv manбайдan 1,2,3 - xo'jaliklarga suv yuborilmasligi, 4- xo'jalikka 8000 m^3 suv yuborilishi; 2 – suv manбайдan 1,3,4- xo'jaliklarga suv yuborilmasligi, 2- xo'jalikka $5396,382\text{ m}^3$ suv yuborilishi; 3 –suv manбайдan 1- xo'jalikka 8000 m^3 , 2- xo'jalikka $1603,618\text{ m}^3$, 3- xo'jalikka 6000 m^3 suv yuborilishi, 4- xo'jalikka suv yuborilmasligi kerak. Bunda masala shartidagi barcha talablar qondiriladi, ya'ni xo'jaliklarning suvga bo'lgan talablari to'liq qondiriladi, suv manbalaridagi suv sarfi suv zaxirasidan oshib ketmaydi va suv isrofi minimal bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.К.С. Сафаева «Математик программалаш» фанидан масалалар тўплами. Т.Ибн Сино, 2004.
- 2.Eshmatov X., Yusupov M., Aynaqulov Sh., Xodjayev D. Matematik modellashtirish, O'quv qo'llanma, TIMI, 2010.
- 3.Эшматов Х., Верлань А.Ф., Лукьяненко С.А. Численные методы в моделировании. – Т., «Узбекистан», 2010. – 280 с.
- 4.Полунин И.Ф. «Курс математического программирования», Минск, «Высшая школа», 1975.

Ilmiy rahbar

Aynakulov Sh. A.

SUV RESURLARINI IQTISODI VA ULARNI MUHOFAZA QILISHNI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI TAHLIL QILISH

Tursunxo‘jayeva D.D. - talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Mazkurmaqola MS Excel dasturining imkoniyatlari yordamida suv resurslari iqtisodiy va ekologik jarayonlarini ekonometrik tahlilini ochibberishga bag‘ishlangan. Suv resurslaridan foydalanishda ekologik xavf-xatarlarni oldini olish maqsadida ekonometrik modellashtirish va AKT imkoniyatlarini o‘rni ochib berilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan sayyoramiz tabiatini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish masalasiga xalqaro hamjamiyat e‘tiborini ko‘proq jalb etish, ekologik tizim va noyob tabiat ob‘yektlarini saqlab qolish yo‘lidagi harakatlarni birlashtirish maqsadida qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Xalqaro me‘yorlarga asoslangan holda O‘zbekiston suvdan foydalanishda ustuvor yo‘nalishlarni aniq belgilanishi tarafdori.

Ekologik jarayonlarni tahlil qilish va xavf-xatarlarni oldindan ko‘ra olish maqsadida MS Excel dasturining imkoniyatlari mavjud. Quyidagi masalani statistik tahlilini ko‘ramiz va ekonometrik modelni tuzamiz [1,2].

Ekologik nazoratni mahalliy stansiyasi oxirgi 50 yillik kuzatish ma‘lumotlarini e‘lon qilganida sanoat markazining jamoasi juda ham qattiq havotirga tushdi. Antropogen faktorlarni ta‘sir ostida (industrial o‘sish, urbanizatsiya, tabiiy muhitni ifloslanishi) yildan yilga daryodagi suv sathi kamayib bormoqda. Quyidagi jadvalda daryodagi yil bo‘yicha o‘rtacha suv sathi va shahar aholisi yil mobaynida suv resurslari iste‘mol qilish hajmi o‘rtasidagi bog‘lanishlar tasvirlangan.

Ko‘rsatkichlar	Kuzatish natijalari								
Yillar	970	980	985	990	995	000	005	010	015
Suv iste‘moli (m ³ ming/yil)	200	500	500	800	2400	4000	2000	9000	0000
Suvsathi	15	90	84	71	58	37	11	02	74

1-Rasm. Suv sathi Ху.лоса

Iqtisodiy va ekologik jarayonlarni tahlil qilib, ulardagi xavflarini ibashorat qilib, oldini olish soniyatni vazifasidir. Ekologik suv muammolarini o‘zvaqtida haletib borish, nafaqat kishilarga sog‘lom hayot kechirish va farovon yashash imkoniyatini yaratadi, balki yashash uchun yaroqsiz bo‘lib qolish xavfini ham bartaraf etadi. Bunday ham ichki, ham xalqaro muammolarini hal qilishda model lashtirish va axborot texnologiyalari yordam bermoqda. Demak, bugungi kunda har qanday sohada mutahassisning o‘z faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash bilimiga va ko‘nikmasiga ega bo‘lishi uning professional tayyorgarligining asosiy komponenti bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Левин и др. Статистика для менеджеров. – М.: Вильямс, 2004. – с. 937–981
2. Shadmanova G. Iqtisodiy matematika usullar va modellar-TIMI-2013. 145-170 b.
3. http://uzgeolcom.uz/uz/press_center/news/dunyo-yangiliklari/22-aprel-xalqaro-yer-kuni/

Ilmiy rahbar

Shadmanova G.

СУВДАН ФЙДАЛАНИШНИ БОШҚАРИШНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАР ОРҚАЛИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ

Алимова З.Н.-мустақил тадқиқотчи, ТИҚХММИ

Аннотация

Мақолада суғорма деҳқончилик билан шуғулланувчи фермер хўжалигида сувдан фойдаланишни иқтисодий усуллардан фойдаланиб бошқаришни таҳлил қилиш кўрсатилган.

Фермер хўжалигида бозор муносабатларининг шаклланишининг ўзига хос хусусияти шундан иборатки, бу ерда ишлаб чиқаришнинг бош воситаси жонли табиатнинг қисми бўлган-ер ва сув, умумхалқ мулки бўлиб, улар хусусий мулк бўла олмайди ва олди-сотди предмети ҳам бўла олмайди. Сув ва бошқа ресурсларни сақлаш ва улардан оқилона фойдаланишни режалаштириш сўнгги пайтларда фермер хўжаликларини бошқаришнинг энг интенсив ривожланаётган бўлимларидан биридир. Унинг асосини табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш ва табиатни муҳофаза қилиш бўйича олиб борилаётган илмий текшириш ишлари ташкил қилади. Суғорма деҳқончилик билан шуғулланувчи фермер хўжалигида сув ва суғориш режими асосий лимитланган фактор бўлиб, табиатни муҳофаза қилишни ва энг муҳим муҳофаза талабларини ҳисобга олган ҳолда оптималлаштириш экологик сувдан фойдаланишнинг биринчи даражали иқтисодий масаласи ҳисобланади. Ҳозирги шароитда иқтисодиётни либераллаштиришнинг алоҳида аҳамияти сувдан фойдаланишни бошқаришнинг илмий асосига тегишлидир.

Сўнгги йиллар мобайнида хўжалик юритишнинг янги шароитларида корхоналар самарадорлигини баҳолаш муаммоларига бағишланган кўплаб ишлар чоп этилган. Уларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, бозор шароитида фойдани ошириш хўжалик юритувчи субъектларнинг асосий мақсад функцияси ҳисобланади. Иқтисодиётнинг бошқа тармоқларида бўлгани каби қишлоқ хўжалигида ҳам фойда даражаси асосий самарадорлик кўрсаткичи бўлиб, унга кўплаб омиллар таъсир кўрсатади. Қишлоқ хўжалиги натижалари асосан об-ҳаво шароитларининг таъсири остида шаклланади [1]. Шунинг учун фойда даражасига таъсир кўрсатувчи омилларнинг ўзаро боғлиқлигини аниқлаш, бозор шароитида фермер хўжаликлари фаолияти самарадорлигини баҳолашнинг асосий шарт ҳисобланади.

Ирригация мелиорация соҳасида, корхоналар томонидан унинг туманлардаги сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш, сув ресурсларини тежаш ва тўғри тақсимотини амалга ошириш, сув иншоотлари, бетон қопламали каналлар ҳамда ариқларнинг сув ўтказиш қобилиятини таъминлаш ва яхшилаш, томчилатиб суғориш усулларидан фойдаланиш каби тадбирлар амалга оширилмоқда. Экин майдонларига сув етказиб беришда навбатма-навбат суғориш тартиби қўлланиб, хўжаликлар узлуксиз сув билан таъминланади. Сувдан оқилона фойдаланиш натижасида бу усул қишлоқ хўжалик экинларидан юқори ҳосил етиштиришда кўл келмоқда. Бугунги кунда суғорма деҳқончилиكنинг ривож халқ хўжалигида катта аҳамиятга эга ва бу албатта суғориладиган майдонларда олиб бориладиган ирригация-мелиорация тадбирлар билан боғлиқ. Мелиоратив тадбирларнинг асосий ҳамда самарали усули бўлиб, коллектор-дренаж тизимларини куриш ва бу орқали сизот сувлари сатҳини меъёр даражасида тутиб туриш, суғоришда ва шўр ювиш ишларида бериладиган сувларни майдондан ташқарига чиқариб юбориш орқали ерларнинг иккиламчи шўрланишини олдини олиш усули ҳисобланади. Бунга асосий сабаб суғориш тармоқларининг техник ҳолати, суғориш майдонларига суғориш ва шўр ювиш мақсадларида сув кўйиш жараёнида лойиҳа талабларига амал қилинмаслик ва асосан мавжуд коллектор-дренаж тизимларининг ҳолати қониқарли эмаслиги ва бунинг натижасида коллектор-дренаж тизимларининг

лойихада назарда тутилган юкламаларни, яъни талаб қилинадиган миқдорда коллектор-дренаж сувлари ва оқова сувларни олиб чиқиб кетиш имконияти чекланганлигидир.

Сувни тақсимлаш жараёнларини оптимизациялаш суғориладиган майдонлардаги намлик захирасини ҳисоблашнинг қай даражада аниқлигига боғлиқ. Ҳосилдорликни ошириш миқдорини сув билан таъминланганликни оширишдан боғлиқлигини бир қатор экинлар ҳосилдорлигини кўп йиллик таҳлиллар натижасига асосланади. Иккинчи босқичда суғориш тизимлари оптимал параметрлари аниқланади. Бунинг учун турли даражадаги таъминланишнинг суғориш тартиблари берилади ва натижада бир неча ҳисоб вариантлари топилади. Ҳар бир фермер хўжалиги муваффақиятли иш юритиши учун мавжуд ресурслардан рационал фойдаланиш асосида ўз фаолиятини самарадорлигини оширишга ҳаракат қилиши керак [2].

Фермер хўжалигида бозор муносабатларининг шаклланишининг ўзига хос хусусияти шундан иборатки, бу ерда ишлаб чиқаришнинг бош воситаси жонли табиатнинг қисми бўлган-ер ва сув, умумхалқ мулки бўлиб, улар хусусий мулк бўла олмайди ва олди-сотди предмети ҳам бўла олмайди. Сув ва бошқа ресурсларни сақлаш ва улардан оқилона фойдаланишни режалаштириш сўнгги пайтларда фермер хўжаликларини бошқаришнинг энг интенсив ривожланаётган бўлимларидан биридир. Унинг асосини табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш ва табиатни муҳофаза қилиш бўйича олиб борилаётган илмий текшириш ишлари ташкил қилади.

Суғорма деҳқончилик билан шуғулланувчи фермер хўжалигида сув ва суғориш режими асосий лимитланган фактор бўлиб, табиатни муҳофаза қилишни ва энг муҳим муҳофаза талабларини ҳисобга олган ҳолда оптималлаштириш экологик сувдан фойдаланишнинг биринчи даражали иқтисодий масаласи ҳисобланади. Ҳозирги шароитда иқтисодиётни либераллаштиришнинг алоҳида аҳамияти экологик сувдан фойдаланишни бошқаришнинг илмий асосига тегишлидир.

Иқтисодиёт ва экология ўзаро боғлиқ омиллар ва ресурслар орқали бир-бири билан боғланган. Шулардан бири сув ресурси ва унинг етишмовчилиги-лимитланган фактор эканлигидадир. Бу ҳодисалар фермер хўжаликларида сувга талаб жуда юқори бўлган суғорма деҳқончилик шароитида яққол кўзга ташланади. Бундан келиб чиқадики, замонавий ишлаб чиқариш экология талабларини ҳисобга олиши ва сувни тежайдиган шундай технологиядан фойдаланиши керакки, натижада у мавжуд биосфера, гидросферага органик суратда қўшилсин. Фермер хўжалигида табиий ресурсларни баҳолаш пайтида улардан фойдаланишдан иқтисодий самарани ҳисоблаш маълум аҳамиятга эга. Лекин кўп ҳолларда ресурслардан фойдаланишдан иқтисодий самарани ҳисоблаш қонунга ғилоф ҳисобланади. Агар баҳоланаётган табиий ресурслар қишлоқ хўжалигида ишлатилаётган бўлса, ресурслардан фойдаланишдан иқтисодий самара миқдорини аниқлаш етарлича аниқ бўлади [3]. Истикболда етарли даражада табиий ресурслардан фойдаланишдан кутилган прогнозли самаранинг яхши таърифи, ҳамма вақт ҳам амалга ошавермайди, бундан иқтисодий баҳолашнинг мумкин эмаслиги олдиндан маълум бўлади.

Фермер хўжаликларида табиий ресурсларнинг иқтисодий баҳоси табиатдан фойдаланиш ҳуқуқий, қонуний аспектларини шунингдек айрим ҳолларда унинг норматив базаларини аниқлаши, улар билан узвий боғлиқ бўлиши ва уларга муҳим таъсир ўтказиши керак.

Табиий, меҳнат, моддий ва молиявий ресурсларнинг чекланганлик шароитида моддий ишлаб чиқариш соҳасидаги олди олинган иқтисодий зарарни фойда миқдорининг пасайиши ёки соф маҳсулот ҳажми; моддий ишлаб чиқариш соҳасида фойда миқдорининг пасайиши ёки соф маҳсулот ҳажми билан; ноишлаб чиқариш соҳасида-ишлар ва хизматларни ишлаб чиқаришга харажатларнинг ўсиш миқдори билан ўлчаш афзалроқдир.

Суғориш сувларини иқтисодий баҳолаш фермер хўжалигини ривожлантириш, қишлоқ хўжалик экинларини жойлаштириш, суғориш тизимларини реконструкция қилишда инвестиция йўналишини танлаш ва янги ерларни ўзлаштириш учун

прогнослаштиришга асос бўлади. Иқтисодий баҳолаш жамиятда ижтимоий-иқтисодий муносабатларни ташкил қилиш, сув хўжалигини бошқариш тузилмасини такомиллаштириш учун фойдалидир.

Сув тақчил бўлган шароитда суғориладиган ерларда сувдан иқтисодий-экологик фойдаланиш суғориш таъсирида агроэкологизмда рўй берадиган иқтисодий ва табиий-хўжалик жараёнларни ўрганишни талаб қилади ва тупроқ унумдорлигини сақлаш орқали ўсимликларни сув ва бошқа ресурслар билан таъминлаш орқали уларнинг юқори маҳсулдорлигига эришиш учун бу тизимни бошқаришнинг оптимал йўлларини топишдан иборат. Интенсив деҳқончилик шароитида агроэкологизмда бўлиб ўтадиган жараёнлар оптимал қийматидан чекланиш маҳсулдорлигининг пасайишига, суғориш сувларидан норационал фойдаланиш, тупроқ қатламларидаги, дарё ва ер ости сувларининг ифлосланишига олиб келади. Агроэкологизмнинг амал қилиш омили сифатида қатнашувчи суғориш сувлари тупроқнинг сув-туз, ҳаво, илиқлик ва озучавий режимларини ташкил қилиш орқали ривожлантиришга ёрдам беради.

Суғориш режимига суғориш манбасининг сув билан таъминланганлиги, бу манбанинг миқдорий ва сифат жиҳати характеристикаси муҳим таъсир кўрсатади. Суғорма деҳқончилик асосида, экологик нуқтаи назардан сув ресурсларининг экинлар экишга мақбул на фақат миқдорий балки сифатли кўрсаткичлари ётади. Сувдан фойдаланиш нуқтаи назаридан бу ерда на фақат гидроэкологик жиҳатдан, балки уларнинг ҳаёт муҳити мажмуини сақлаш бўйича сувни муҳофазалаш тадбирларини қўлга киритиш муҳим аҳамият касб этади. Суғорма деҳқончиликда экинларнинг сув омилдан ташқари ҳаётий муҳим бошқа ташқи муҳит омилларга талабини ҳам қондириш керак.

Сув ресурсларидан энг самарали фойдаланиш масаласи шундан иборатки, энг кам харажатлар сарф қилиб энг кўп маҳсулот етиштиришдир. Сувдан фойдаланиш самарадорлигини баҳолаш унинг нархи бўйича эмас, балки сув истеъмол қилувчи олган самара билан ўлчанади. Бундан келиб чиқадики, сувдан фойдаланишни оптимал режалаштириш экологик нуқтаи назарни ҳисобга олган ҳолда сувнинг маҳсулдорлигини оширишдан иборат бўлиши керак. Тошкент вилояти фермер хўжаликларида суғориладиган ерлардан интенсив фойдаланишга турли омилларнинг таъсирини миқдорий ифодасини аниқлаш мақсадида EXCEL дастуридан фойдаланиб, таҳлил ўтказилган.

Хулоса

Натижада шу маълум бўлдики, суғориладиган ерлар маҳсулдорлиги даражасига қишлоқ-хўжалиги учун асосий ишлаб чиқариш фондлари, шу жумладан гидромелиоратив, меҳнат харажатлари, минерал ўғитлар солиш, хўжаликка сув узатиш ва ишлаб чиқариш харажатлари таъсири катта экан. Экологик сувдан фойдаланишни прогнослаштирганда энг бирламчи, ресурсларни тежаш бўлиб, бусиз экологик ҳолатни соғломлаштириш мумкин эмас. Сувдан фойдаланиш тизимида бошқаришнинг илмий асоси табиий ресурсларга юқларни камайитиришга имкон беради, ресурсларни эҳтиёт қилиш ва экологик ҳимоя жараёнларини биргаликда олиб боради.

Адабиётлар

- 1.Рамазанов А.Р. и др. Современное состояние орошаемого земледелия в Узбекистане // Аграрная наука.-Ташкент, 2002.- №10. - С.42-43.
- 2.Беркинов Б.Б. Моделирование систем ведения сельского хозяйства. Фан, Ташкент,1990. – 127с.
- 3.Кравченко Р.Г. Математическое моделирование экономических процессов в сельском хозяйстве.- М.:Колос,1978.- 424с.

Илмий раҳбар

доц. Шадманова. Г.

ЧИЗМА ГЕОМЕТРИЯ ВА МУХАНДИСЛИК ГРАФИКАСИ ФАНИДАН МУСТАКИЛ ИШЛАРИНИ БАЖАРИШДА АХБОРОТ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИНИНГ ЎРНИ

Ёрлоков Ш.Л – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Маколада электрон дарсликлар учун чизма геометрия фанига оид метрик ва позицион масалалар ечишда Power Point график дастури, унда анимация эффектларини яратиш тартиби ABC текисликнинг хақиқий катталигини устма-уст қўйиш усули билан аниқлашда ечиш алгоритми ёритилган.

Кириш: Чизма геометрия фанини ўрганиш жараёнида кўпчилик талабалар фазовий объектларнинг ўзаро вазияти ва муносабатларини тасаввур қилишда қийинчилик сезишади. Бунга албатта, турли сабаблар бор. Улардан бири сифатида чизма геометриядан кўпчилик метрик ёки позицион масалаларни ечиш жараёнида бир неча қуйи амалларни кетма-кет бажариш заруриятдан чизмада чизиқларнинг кўпайиб кетиши чизмани ўқиш ва таҳлил қилиш мураккаблашиб кетиши, натижада талабаларнинг чизмада тушунмай қолишига олиб келади. Бу албатта, профессор ўқитувчилардан чуқур билим ва педагогик маҳорат, чизмани доскада яққол, иложи борича тушунарли, сифатли чизиш техникасини талаб қилади.

Кўп йиллик тажрибадан келиб чиққан холда айтиш мумкинки, геометрик ва техник объектларнинг ранги, юкори сифатли геометрияга эга бўлган, ҳамда, ўрганилаётган жараёнларни, қолаверса, геометрик, конструкторлик масалаларнинг ечилиши намойиш қилувчи ҳаракатдаги, бошқариладиган текис ва фазовий тасвирлар (анимациялар) талаблар учун жуда қизиқарлидир. Шунинг учун маъруза ва амалиёт машғулотларида иложи борича компьютер технологиялардан, электрон қўлланмалардан, электрон маъруза матни ва электрон дарсликларидан самарали қўллаш зарурияти туғилади.

Илмий жихатдан электрон нашрларни фойдаланувчининг ёзма графикавий, овозли, мусиқали, видео, фото ва бошқа шунга ўхшаш ҳужжатлар ахборотлар тўпламидан иборат дарслик сифатида қараш мумкин. Агар соддалаштирилиб қаралса, электрон дарслик ўзига яраша репититор бўлиб, у керакли мавзуни расмларда, схемаларда агар зарур бўлса қисқача мазмун кўринишида тушинтира олади, ҳамда талаба мавзуни қанчалик яхши ўзлаштирганини текшириб, нималарни такрорлаш кераклигини ҳам кўрсатиши мумкин.


Дунёнинг етакчи давлатларда ўқитишнинг масофавий таълим тизими ташкил этилган. Шу сабабли республикамизда ҳам масофавий таълим тизимида, умуман олий таълим муаммоларини ҳал этиш бўйича етакчи олимлар раҳбарлигида ишлар олиб борилмоқда. Мавжуд электрон дарсликлар рус ва инглиз тилларда Microsoft Front Page, Power Point, Prezi, Flash ва бошқа дастурларда яратилган. Биз чизма геометрия фанидан электрон дарсликлар яратиш учун Power Point презентация дастуридан фойдаланиши таклиф этмоқдамиз. Power Point презентация дастурида чизма геометрия масалаларининг шартли ва ечимлари билан киритилиши ўқувчи томонидан ўқитувчи иштироксиз ўрганилишини кафолатлайди. Компьютер технологияларидан маъруза, амалий машғулотлар ўтиш жараёнида мультимедия (уч ўлчамли график кўринишида, овозли, видео, ҳаракат)дан фойдаланиш талабаларнинг ўзлаштириш кўрсаткичларини юкорилигини, фанга бўлган қизиқишини тургунлашишига олиб келади. Электрон дарсликлардан фойдаланишнинг энг ахамиятли томони талабаларнинг онгидаги чизма геометрия фани қийин деган фикрлардан тозалайди.

Электрон дарсликларни яратиш учун Power Point презентация дастури ишга туширилиб чизма геометрия масалалари ечилиш тартибига қабътий риоя қилинган ҳолатда киритилади. Microsoft Word дастурида график ишлар қандай бажарилса, Power Point


презентация дастурида ҳам шундай бажарилади. Келинг бир аниқ масalani Power Point дастурида анимация эффектларини беришни кўриб чиқайлик. Масала: ABC текисликнинг проекциялари берилган. ABC текисликнинг хақиқий катталигини устма-уст қўйиш усули билан аниқлансин.

Power Point презентация дастури ишга туширилгач менюлар сатридан “Главная” вкладкасида “Создать слайд” ёки Ctrl+M тугмалар ёрдамида янги слайд яратилади. Слайдни расмийлаштириш макети танланади 1-расм. Масалани номи, унинг шарти ҳамда ечиш алгоритмини ёзиш учун “Вставка” менюсининг “Иллюстрации” панелидаги “Фигуры” дан “надпись” танланади. График объектларни ҳам шу панелдан оламиз. “Дизайн” вкладкаси яратилган слайдга қайта ишлов беришда керак


2-расм. “Показ слайдов” тушувчи менюдан “Настройка анимация” пункти танланади ва “настройка анимации” дарчаси очилади мавжуд. Ушбу “Объекты для анимации”, ёрдамида объектлар танланди (масалан, масала номи ва шарти учун матн). “Порядок и время” орқали эса слайдларнинг курилиш тартиби белгиланади, “видеоизменение” дан объектларга эффектлар (“возникновение”, “жалюзи”, “шашки” ва бошқалар) дан “возникновение”, “по щелчку” ёки “автоматически” пунктдан бири ва “звук” (автогонки, бластер, барабан, аплодисменти ва бошқалар) пунктдан “автогонки” овоз эффектлари танланади. ОХ ўқини чизиш учун “линия” танланиб унинг ўлчамлари “формат объекта” нинг “размери” пунктга киритилади, қолган анимация эффектлари олдинги ишда қилинган ишлар каби бажарилади. Масаланинг ечими (1-расм) тўлиқ киритилиб бўлгандан сўнг кўрсатилган натижани қизил рангда ва “аплодисменту” қарсақлар остида берилиши ўқувчини рухлантириши ва фанга бўлган қизиқишини кучайтиради. Хар бир примитивлар учун алоҳида эффектлар танланади. Бу эффектлардан ташқари суҳандон овози ёрдамида масалани ечилишини тушунтириб борилиши мумкин.



1-расм Слайдни расмийлаштириш макети



2-расм “Дизайн” вкладкаси



3-расм Анимация панели

Power Point презентация дастури ишга туширилади ва керакли файл очилади (1-расм). Power Point презентация дастури ишга туширилганда “Показ слайдов” тушувчи менюдан танланиб, “начать показ” пункти танланади ва экранда стрелка пайдо бўлади. Сичқонча ёки клавиатуранинг йўналишларни кўрсатувчи стрелка тугмаларини босиш билан масаланинг шарти ва чизмаси экранда анимация эффектлари ёрдамида пайдо бўлади. Сўнгда масалани ечиш ишлари бошланади. Бунда хар бир примитивлар (нукта, кесма, полилиния, айлана, ёй, стрелка ва бошқалар) масаланинг ечилиш шартига кўра примитивлар навбати билан курилади бошлайди. Бу жараёни ўқувчи бевосита бошқаради.

Хулоса

Power Point график дастури унда анимация эффектларини енгил ва тез яратиш, уни кайта тахрирлаш имконияти билан қулай воситадир. Таълимда ундан нафакат ургатувчи восита, балки талабаларнинг билимларини назорат қилса ҳам бўлади. Тест ва саволлар ёки масалалар орқали ўз билимларини текшириш имконини яратиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Тўхтаев А.Т. “О необходимости создания электронного учебника”. Республика илмий анжумани мақолалар тўплами. ТДТУ 2016-й.
- 2.Муродов Ш.К, ва бошқалар. “Чизма геометрия курси”. “Ўқитувчи”, Тошкент. 2008-й.
- 3.2D animation Power Point Slideshow Effect <http://youtu.be/sz4pplpzoQ8>

Илмий раҳбар

асс. Едилбаев У.Д.

ЖАРАЁНЛАРНИ ЎРГАНИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФЙДАЛАНИШ


Вахобов Ж.А, Хатамов А.Р. – талабалар, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақола технологик жараёнда реакторда борадиган кимёвий реакцияларнинг математик модели ва бу жараённи Mathcad 15 воситасида ўрганишга бағишланган. Бунда Mathcad 15 дастурининг қулайлиги ҳаётий мисоллар билан ёритиб берилган.

Биз яшаётган атроф муҳитнинг (ҳаво, сув ва ҳоказоларнинг) мусаффолиги, тозаллиги кўп жихатдан кимёвий заводлар реакторларида ўтадиган реакциялар билан узвий боғлиқдир. Чунки реакциянинг ўтиши давомида ҳосил бўладиган фойдали модда (маҳсулот)дан ташқари атроф муҳитга зарар етказувчи моддалар ҳам ажралиб чиқади. Шунинг учун ҳам кимёвий реакторларда кечадиган реакцияларнинг кинетикасини ўрганиш муҳим амалий аҳамиятга эгадир.

Мақолада кимёвий технологияга оид жараённинг математик модели замонавий ахборот технологиясини қўллаб ечиш масаласи қаралган.



1-расм. Кимёвий реакция
структураси

Турбасимон реакторда борадиган бир нечта босқичдан иборат реакцияни кўрайлик. Ушбу реакциянинг бориш механизми кетма-кет ва параллел босқичларни ўз ичига олади (1-расм). Бу ерда A – берилган модда (маҳсулот); B – реакция натижасида ҳосил бўладиган оралик маҳсулот; C – реакция натижасида олиниши кўзда тутилган асосий модда (маҳсулот); D – кўзда тутилмаган (зарарли) модда.

Ҳар бир босқичда реакциянинг бориш тизимини характерловчи ўзгармасларнинг хароратга боғлиқлиги Аррениус қонунига бўйсинади деб фараз қилинади ва қуйидагича аниқланади [1]:

$$K_i(T) = K_{0i} e^{-\frac{E_i}{RT}} \quad (1)$$

Бу ерда E_i – активация энергияси; R – универсал газ ўзгармаси; T – харорат (температура), Келвинда; K_{0i} – реакциянинг бориши билан боғлиқ ҳолда бериладиган ўзгармаслар.

Реакция натижасида олинадиган C маҳсулот дастлаб B моддадан шакилланишини кўриш мумкин (2-расм). Демак, реакция массасини кимёвий реакторда бўлиш вақти қанча кичик бўлса, у ҳолда чиқаётган оқимда C модданинг концентрацияси ҳам шунчалик кам бўлади.

Кимёвий реакция массасини реакторда бўлиш вақтини ортиши билан олинадиган C маҳсулотнинг концентрацияси ҳам ортади. Лекин, кузатиш натижалари шуни кўрсатдики, реакция массасининг реакторда бўлиш вақти ортгани билан маълум вақитдан сўнг C модданинг концентрацияси реактордан чиқишда камайиб борар экан (3-расм).

Бундан шу келиб чиқадики, реакция аралашмасининг аппаратда бўлиш вақти учун шундай бир оптимал қиймат мавжуд эканки, бу қийматда C модда концентрацияси чиқаётган оқимда максимал қийматга эришар экан. Вақитдан ташқари температура ҳам чиқаётган маҳсулотнинг миқдори бўйича реакторнинг меҳнат унумдорлигига салмоқли таъсир кўрсатади. Шунинг учун ҳам турбасимон реакторда узунлик бўйича температура тарқалганда шундай оптимал қийматни топиш муҳим амалий аҳамиятга эга бўлади.

Қаралаётган жараённи содда математик модели қуйидаги оддий дифференциал системаси учун Коши масаласига келтирилади:

$$\begin{cases} \frac{dy_1}{dt} = -(k_2 + k_3) \cdot y_1, \\ \frac{dy_2}{dt} = k_1 \cdot y_1 - k_4 \cdot y_2, \\ \frac{dy_3}{dt} = k_4 \cdot y_2 - k_5 \cdot y_3, \end{cases} \quad (2)$$

$$y_1(0) = y_{01}, \quad y_2(0) = y_{02}, \quad y_3(0) = y_{03}, \quad (3)$$


Бу ерда k_i ($i = \overline{1,5}$) ўзгармаслар (1) тенгликдан аниқланади; y_{01}, y_{02}, y_{03} ўзгармаслар берилган бошланғич шартлар; A, B, C турдаги маҳсулотларнинг концентрациясини мос равишда $y_1(t), y_2(t), y_3(t)$ каби белгиланган.

Сонли ҳисобларда температуранинг трубадимон реакторда узунасига тарқалиш қонунияти қўйидаги чизиқли тенглама шаклида олинган:

$$T(t) = a_1 - a_2 \cdot t \quad (4)$$

бу ерда a_1 – масса оқимининг реакторга киришдаги температураси; a_2 – температуранинг пасайиш тезлиги; t – оқим қисмининг аппаратда бўлиш вақти.

Масаланинг математик модели сифатида олинган (2) ва (3) кўринишдаги Коши масаласини берилган бошланғич шартлар ва сонли маълумотлар асосида Mathcad 15 дастур муҳитида [2] ечиш алгоритми ҳамда олинган натижалар қўйида берилган (2-3 расмлар).



2 - расм. Реакция натижасида олинган маҳсулотни кўриш.

$$\begin{aligned} & \underline{\text{ORIGIN}} := 1 \\ & \underline{C} := (211000 \quad 41700 \quad 37200 \quad 6890 \quad 8090)^T \quad \underline{E} := (1600 \quad 14000 \quad 15000 \quad 10000 \quad 15000)^T \\ & a1 := 760 \quad a2 := 60 \quad \underline{R} := 1.9865 \quad h := 0.02 \quad a := 0 \quad b := 1 \quad \underline{T}(t) := a1 - a2 \cdot t \\ & k1(t) := C_1 \cdot \exp\left(\frac{-E_1}{R \cdot T(t)}\right) \quad k2(t) := C_2 \cdot \exp\left(\frac{-E_2}{R \cdot T(t)}\right) \quad k3(t) := C_3 \cdot \exp\left(\frac{-E_3}{R \cdot T(t)}\right) \\ & k4(t) := C_4 \cdot \exp\left(\frac{-E_4}{R \cdot T(t)}\right) \quad k5(t) := C_5 \cdot \exp\left(\frac{-E_5}{R \cdot T(t)}\right) \end{aligned}$$

Given


$$y1'(t) = -(k1(t) + k2(t) + k3(t)) \cdot y1(t) \quad y1(0) = 1$$

$$y2'(t) = k1(t) \cdot y1(t) - k4(t) \cdot y2(t) \quad y2(0) = 0$$

$$y3'(t) = k4(t) \cdot y2(t) - k5(t) \cdot y3(t) \quad y3(0) = 0$$

$$t := a, a + h .. 1$$

$$\begin{pmatrix} y1 \\ y2 \\ y3 \end{pmatrix} := \text{Odesolve} \left[\begin{pmatrix} y1 \\ y2 \\ y3 \end{pmatrix}, t, 1 \right]$$



3 - расм. Модданинг концентрациясини реактордан чиқиш жараёни.

Адабиётлар

- 1.С.Н. Саутин ва А.Е. Пунин. Мир компьютеров и химическая технология. –Л.: Химия, 1991. -144 с.:ил.
- 2.Е.Г. Макаров. MathCAD: Учебный курс (+CD). СПб.: Питер, 2009. -384 с.:ил.
- 3.www.mathcad.com

Илмий раҳбарлар

доц. Атамйрзаев М., Йўлдошев Н.

КУБИК ТЕНГЛАМАЛАРНИ ЕЧИШ УСУЛЛАРИ

Матякубова М – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада кубик тенгламаларни ечишнинг геометрик ва алгебраик усуллари ёритишда, араб олимларидан кимлар ўз ҳиссасини қўшгани ҳақида маълумотлар келтирилган, ҳамда кубик тенгламаларни ечишнинг баъзи усуллари келтирилган.

Тенгламалар ва шу қаторда кубик тенгламалар математикада муҳим ўрни бор. Ҳар қандай алгебраик ва геометрик масалаларни ечиш учун авало тенгламаси тузиб олинади. Чизиқли тенгламаларни ўқувчилар мактабнинг қуйи синфларида ўрганиб олишади. Кубик тенгламалар ечиш мактаб программаси асосида юқори синфларида ўргатилади. Кубик тенгламаларни ечиш асосан график ёки тенгламаларни кўпайтувчиларга ажратиш

усулларидан фойдаланилади. Биз қуйида кубик тенгламаларни аналитик усулда ечишда қандай формулалар мавжудлиги ва уни қачон ким томонидан кашф этилганлиги билан билан танишамиз. Бунинг учун биз ўз олдимишга қуйидаги вазифаларни қўямиз:

- Кубик масалаларни ечиш таърихи билан танишамиз;
- Кубик масалаларни ечиш усуллари билан танишамиз;

Кубик тенглама қандай тенглама?

Кубик тенгламалар қуйидаги кўринишга эга бўлади:

$$ax^3 + bx^2 + cx + d = 0, \quad a \neq 0.$$

Бу келтирилмаган кубик тенглама, келтирилган кубик тенглама қуйидаги кўринишга эга;

$$x^3 + px + q = 0.$$

Вавилон ва қадимга Ҳиндистон математиклари квадрат тенгламаларни ечишни билишган, лекин кубик тенгламаларни ечиш улар учун қийинчилик туғдирган [2].

Араб олимлари ва уларнинг кубик тенгламаларни ечиш услублари:

Биринчи бор кубик масалаларни ечиш масаласи [2], Архимеднинг “шар ва цилиндр” назариясига тақалади. Масалада сфера ва текислик кесишиш натижасида ҳосил бўлган кесим, сферанинг бўлинган икки қисмининг ҳажмларнинг нисбатига тенг эканлиги аниқланган. Масаланинг геометрик ечими [3], Евтокию Аскалонскийга тегишли бўлиб, у Архимед кулёмасида кўрсатилган ечимга таянган. Архимед масалани ечилишини тўлиқ таҳлил қилган. Кўпчилик, кубик тенгламаларга келтирадиган масалаларни ечиш учун, тенгламанинг систематик ечиш назарияси яратилиши зарурлигини билишар эди.

Бу назария математик Умар Хайёмга тегишли бўлиб, [3] Умар Хайём “Рисола” асариде: алгебра бу тенгламалар назарияси бўлиб, тенгламани ўнг ва чап томони кўпхадлардан иборат бўлишини изоҳлаб берган. Номаълум катталиклар аниқ сонларга ва ўзгарувчан катталикларга тенг бўлиши мумкин, уларни топишда ҳам алгебраик ва геометрик усулларда фойдаланиш талаб этилади. Умар Хайём кубик тенгламаларни ечишда ўз ташаббусининг мувоффақиятсизлигини тан олиб, келажакда кимдир бу масалани ечиш усулини топишига ишонар эди. Лекин геометрик жиҳатдан ечишда каноник кесимлар назариясига таяниш кераклигини, Евклид назарияси етарли эмаслигини айтиб ўтган. Умар Хайём рисоласида тенгламаларни таснифлашда гуруҳларга бўлиш, илдизларнинг геометрик тасвирлаш ёрдамида мусбат илдизларни сонини аниқлаш кўрсатилган. Тенгламалар умумий ҳолатда таҳлил қилиниб, ифодалар назария орқали ифодаланган.

Умар Хайём $x^3 + ax = b$ кўринишдаги тенгламани, $x^2 + y^2 = qx$ айлана ва $x^2 = py$ параболани кесишиши орқали ечган. Эгри чизиклар абсциссада ўқида кесишган нуқтаси, координата боши билан устма уст тушмаса, тенгламани ечими бўлади. Шу усул $x^3 = ax + b$ тенгламани ечишда [1], ҳам қўлланилган.

Кубик тенгламалари ечиш:

Агар $ax^3 + bx^2 + cx + d = 0$, $a \neq 0$ кўринишдаги кубик тенглама берилган бўлсин. Бу тенгламада тенгликни ҳар иккала томонини $a \neq 0$ бўлсак, x^3 олдидаги коэффициент 1 га тенг бўлади. Ҳосил бўлган тенглама қуйидаги (1) кўринишга эга бўлади:

$$x^3 + Px^2 + Qx + R = 0 \tag{1}$$

квадрат тенгламани ечими квадратларнинг формуласи йиғиндисига асосланганидек, кубик тенгламаларнинг ечими ҳам кубларнинг йиғиндисига асосланади:

$$(a + b)^3 = a^3 + 3a^2b + 3ab^2 + b^3$$

Бу тенгликда a ни x билан алмаштирамиз ва қуйидаги (2) кўринишдаги тенгликни ҳосил қиламиз:

$$(x + b)^3 = x^3 + 3x^2b + 3xb^2 + b^3 \tag{2}$$

Бу тенгликда b ни $b = \frac{P}{3}$ орқали ифодалаб, формуланинг ўнг тарафи (1) тенгламанинг чап тарафидан фақат x ва озод ҳади билан фарқ қилишга эришамиз. (1) ва (2) тенгламаларни ҳадма-ҳад қўшиб қуйдагини тенгламани ҳосил қиламиз:

$$(x+b)^3 + (Q-3b^2)x + R - b^3 = 0.$$

Бу тенгламада $y = x+b$ алмаштириш олсак қуйидаги кубик тенгламага эришамиз:

$$y^3 + py + q = 0$$

Демак, (1) кўринишдаги тенгламада юқоридаги каби алмаштириш ёрдамида, квадрат ҳад қатнашган ифодадан қутулиш мумкин экан. Шунинг учун кубик тенгламани ечиш деганда қуйидаги кўринишдаги тенглама назарда тутилади.

$$x^3 + px + q = 0 \tag{3}$$

Энди кубик тенгламалар ечишга мисоллар келтирамиз:

Мисол-1. $x^3 + 4x^2 + 6x + 3 = 0$ тенгламани график усулда ечинг.

Тенгламани қуйидаги кўринишга келтирамиз.

1-усул: $x^3 = -4x^2 - 6x - 3$. Қуйидаги функцияларнинг графикини чизамиз: $y = x^3$, $y = -4x^2 - 6x - 3$ Чизмада кўришиб турибтики тенглама ягона $x = -1$ ечимга эга экан. (икки функция графикини кесишган нуктаси)

2-усул: Юқори даражали тенгламаларни ечишда озод ҳаднинг бўлувчилари ҳақидаги теоремадан фойдаланамиз [4], Ҳар қандай тенгламанинг рационал илдизлари озод ҳаднинг бўлувчиларидир. Озод ҳаднинг бўлувчиларини топамиз: ± 1 ; ± 3 , тенгламага қўйиб текшириб кўрсак, фақат $x = -1$ ечим бўлади. $x^3 + 4x^2 + 6x + 3$ кўпҳадни $x+1$ бўламиз. $x^2 + 3x + 3 = 0$ тенглама ҳақиқий илдизга эга эмас. Демак тенглама ягона ечимга эга экан.

Хулоса


Хулоса, қилиб шуни айтиш мумкинки, кубик тенгламани ечиш усуларини ўрганишда, жумладан: кубик тенгламани ечишнинг геометрик усулида Архимед ва Умар Хайёмларнинг ҳиссалари катта эканлигини эътироф этиш мумкин. Шунингдек кубик тенгламаларни ечишнинг алгебраик усули эса неча йиллар давомида таҳлил қилиниб эрамининг 16 чи асрга келиб кашф этилганлигини фанда маълум. Бундан ташқари, ғарб мамлакатлари олимлари ҳам ушбу тенгламаларни ечишнинг айрим усуларини фанга киритишган. Умуман, олганда кубик тенгламаларни ечиш усуларини ўрганиш, математикани ўрганишда муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. “Ёш Математик” қомусий луғати. // Т. ўқитувчи, 19 йил
2. К.Рибников, “История математики.” // М., изд. МГУ, 1974 г.
3. История математики. 3-том. Под. Ред. А.Юшкевича, М., Наука, 1970 г.
4. А.У. Абдухамидов, Н.А. Насимов, У.М. Носиров, Ж.Н. Хусанов. “Алгебра ва математик анализ асослари”. // I қисм, Академик лицейлар учун дарслик. Т. ўқитувчи 2006 йил.

Илмий раҳбар

Холтўраев Х.Ф.



1-чизма

МAТLАВ-SIMULINK ДАСТУРИДА ҲАЖМИЙ ГИДРОУЗАТИШЛАРНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШ

Нематов Н.С. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада доимий айланиш тезликли юритмаларни тезлигини бир маромда сақлашда қўлланиладиган ҳажмий гидроузатишларни ҳисоблаш формулаларини MATLAB дастурининг SIMULINK пакети ёрдамида математик моделлаштириш имкониятлари кўриб чиқилган.

Гидростатик тизимларини замонавий ишлаб чиқилиши тизимни статик ва динамик ҳолатида ўрнида эга бўлган ҳодисаларни тўла ўрганишни ўз ичига олади. Бу ерда муайян қийматлар симуляцион тест кўринишда берилиб улар экспериментал тестлар билан солиштирилганда жуда тезкор ва арзон ҳисобланади. Бироқ, кўп ҳолларда симуляцион тестлар ўта қийин соддалаштирилади ва аниқ математик моделни ҳисобга олмасдан қабул қилинмайди. Симуляцион тестлар жуда фойдали бўлиб, агар тизмини реал моделини ташкил этиш жуда мураккаб бўлса ва вақтни катта ҳаражатларини талаб этади. Сўнгги йилларда тизимни статик ва динамик характеристикаларини аниқлаш борган сари кўпроқ симуляцион тестлар ёрдамида амалга оширилади. Ўта кучли компьютерлар ва математик моделлаштириш ва симуляция учун дастурий таъминотлардан фойдаланиш имконияти ҳатто жуда мураккаб тизимларни учун симуляцион тестлар куришга олиб келади [1].

MATLAB-Simulink кўпинча қуйидаги устунликка эгалиги сабабли симуляцион тестлар учун фойдаланилади:

- сезиларли соддалаштирилган процедура, дастурлаш тили ёрдамида математик моделни тақдим этишдан ишлаб чиқувчини халос қилади;

- Simulink кутубхоналарида ва комбиналашган йиғиладиган базавий математик моделлардан фойдаланиш имконияти;

- гидравлик тизимларда, хусусан кенг диапазон коэффициентли тизимни моделларини тадқиқ этиш имконияти;

- назарий ва экспериментал натижаларни тадқиқ этиш имконияти.

Ҳажмий гидроузатишларни (ХГО) асосий элементларини моделлаштириш

1) Ростланадиган гидравлик насосларни математик модели

Симуляцион тестларда насосларни идеал узатиш учун формулалардан фойдаланамиз (1.1).

$$Q_H = e \cdot n \cdot V_{H \text{ МАКС}} \quad (1,1)$$

Бу ерда: Q_H – насосни идеал узатиши ($\text{м}^3/\text{с}$); e – ростлаш параметри, $V_{H \text{ МАКС}}$ – максимал ишчи ҳажм ($\text{м}^3/\text{айл}$); n – айланиш тезлиги ($\text{айл}/\text{сек}$)

MATLAB-Simulink да насосни идеал узатишини математик тасвири 1.1 расмда кўрсатилган.


2) Ростланмайдиган гидромоторни математик модели

Ростланмайдиган гидромотор одатда иккита формула билан ёзилади. Биринчиси суюқлик сарфи билан, бошқаси эса электр мотори ҳосил қиладиган момент билан ёзилиши мумкин. Гидромотор талаб этадиган идеал суюқлик сарфи [4] формула билан ёзилади (1.2).

$$Q_M = n_M \cdot V_M \quad (1,2)$$


Бу ерда: Q_M - идеал моторлар талаб этиладиган сарф, n_M - моторни айланиш тезлиги, ($\text{айл}/\text{сек}$), V_M - моторни ишчи ҳажми ($\text{м}^3/\text{айл}$).

MATLAB-Simulink да гидромоторни идеал сарфини математик моделини тасвири 1.2 расмда келтирилган [2].



Расм 1.1. Насосни идеал узатишни математик модели.

Киришда: 1- ростлаш параметри, 2 - айланиш тезлиги, 3- ишчи ҳажм. Чиқишда: 1 - насосни идеал узатиши.




Расм 1.2. Моторни идеал сарфи

Киришда: 1 – гидромоторни айланиш тезлиги, 2 – ишчи ҳажм. Чиқишда: 1- идеал ҳажм.

Гидромотор томонидан юзага келадиган идеал момент (1.3) формула бўйича ҳисобланади.

$$T_{\text{ИДЕАЛ}} = \frac{V_M}{2\pi} P \quad (1,3)$$



Расм 1.3. Гидромотор ҳосил қилган идеал момент

Киришда: 1 – ишчи ҳажм, 2 – босим. Чиқишда: 1 – момент

Бу ерда: $T_{\text{ИДЕАЛ}}$ – идеал момент (Н/м), V_M – ишчи ҳажм, P – тизимдаги босим. MATLAB-Simulink да бундай ифодалар куйидаги кўринишда ёзилиши мумкин (расм 2.3):

3. Сақлагич клапанини математик модели


Одатда клапанни статик характеристикалари каталог спецификацияларидан олиниб таҳлил қилинади [3]. Бу ҳолатларда иккита турли ҳолатлардаги клапанлар учун иккита формулалардан фойдаланишимиз мумкин – қачонки клапан очик бўлса (1.4) ва қачонки клапан ёпиқ бўлса (1.5).

$$Q_{\text{КЛ}} = K_{\text{КЛ}} (p - p_{\text{КЛ}}) \text{ бўлганда } p > p_{\text{КЛ}} \quad (1,4)$$

$$Q_{\text{КЛ}} = 0 \text{ бўлганда } p > p_{\text{КЛ}} \quad (1,5)$$

Бу ерда: $Q_{\text{КЛ}}$ - сақлагич клапани орқали сарф, $K_{\text{КЛ}}$ - клапанни статик характеристикаларини қиялик коэффициенти, $p_{\text{КЛ}}$ - клапанни созлаш босими.

Айланиш тезлиги доимий юритмаларни чиқиш валидаги юклама юклама ошиши билан юритмани характеристикасини ўзгаришини кўрсатиш мақсадида поғонали қилиб танланган. Юритмани чиқиш валидаги юкламани ўзгариш графиги 1.5 расмда келтирилган.



Расм 1.4. Сақлагич клапани орқали сарф

Киришда: 1- тизимдаги босим, 2 - клапанни созлаш босими. Чиқишда: 1- клапан орқали сарф

Бу ерда: $T_{\text{ИДЕАЛ}}$ – идеал момент (Н/м), V_M – ишчи ҳажм, P – тизимдаги босим. MATLAB-Simulink да бундай ифодалар куйидаги кўринишда ёзилиши мумкин (расм 2.3):

3. Сақлагич клапанини математик модели


Одатда клапанни статик характеристикалари каталог спецификацияларидан олиниб таҳлил қилинади [3]. Бу ҳолатларда иккита турли ҳолатлардаги клапанлар учун иккита формулалардан фойдаланишимиз мумкин – қачонки клапан очик бўлса (1.4) ва қачонки клапан ёпиқ бўлса (1.5).

$$Q_{\text{КЛ}} = K_{\text{КЛ}} (p - p_{\text{КЛ}}) \text{ бўлганда } p > p_{\text{КЛ}} \quad (1,4)$$

$$Q_{\text{КЛ}} = 0 \text{ бўлганда } p > p_{\text{КЛ}} \quad (1,5)$$

Бу ерда: $Q_{\text{КЛ}}$ - сақлагич клапани орқали сарф, $K_{\text{КЛ}}$ - клапанни статик характеристикаларини қиялик коэффициенти, $p_{\text{КЛ}}$ - клапанни созлаш босими.

Айланиш тезлиги доимий юритмаларни чиқиш валидаги юклама юклама ошиши билан юритмани характеристикасини ўзгаришини кўрсатиш мақсадида поғонали қилиб танланган. Юритмани чиқиш валидаги юкламани ўзгариш графиги 1.5 расмда келтирилган.



Расм 1.5. Юритмани чиқиш валидаги юкламани ўзгаришини графиги

Хулоса

Ҳажмий гидромеханик узатиш асосида айланиш тезлиги доимий юритмаларни ҳисоблаш формуллари MATLAB-SIMULINK дастури ёрдамида математик моделлаштирилди. Жараён моделлаштириш йўли орқали чиқиш графикалари аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Непейн Л. П. Автоматическое управление приводом постоянной частоты вращения, МБИ, Балтийский государственный технический университет, Санкт-Петербург. 2013. 123с.
2. Дьяконов, В. П. Matlab 6.5 SP1/7 + Simulink 5/6 в математике и моделировании. Серия «Библиотека профессионала» / В.П. Дьяконов, М.: СОЛОН-Пресс, 2005. 576 с.
3. Гейер, В.Г. Гидравлика и гидропривод: Учеб для вузов. - 3-е изд., перераб. и доп / В.Г. Гейер, В.С. Дулин, А.Н. Заря, М.: Недра, 1991.

Илмий раҳбар

Эркинов Б.Н.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФЙДАЛАНИШ МУАММОЛАРИ ВА АФЗАЛЛИКЛАРИ

Холова С.О. – магистрант, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада таълим жараёнини ривожлантириш борасида республикамызда олиб борилаётган комплекс чора-тадбирлар, замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш жараёни муаммолари ва афзалликлари ҳақида фикр мулоҳазалар келтирилган.

Ўқув жараёнида замонавий инновацион таълим технологияларини тадбиқ этиш талабаларнинг интеллектуал салоҳияти, билимлар кенглиги, ижодий ташаббус, фикрни мақсадга мувофиқ йўллай олиш, фаразлар яратиш қобилияти, танқидий фикрлаш, тегишли маълумотлар ва ҳолатларни таҳлил қилиш асосида мураккаб муаммоларни ҳал этиш, альтернатив фикрларни тарозига солиш, пухта ишланган қарорларни қабул қилиш каби хусусиятларининг ошишига сабаб бўлади.

Ҳозирги кунда мамлакатимиз таълим тизимини тубдан ислоҳ қилиш, унинг ҳуқуқий базасини такомиллаштириш, моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, таълим-тарбия мазмуни, шакл ва усуллари самарадорлигини ошириш борасида муҳим чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Республикамызда таълим тизимини такомиллаштириш орқали ҳар томонлама етук, баркамол, мустақил фикрлайдиган ва халқаро стандартлар даражасига жавоб берадиган кадрларни тайёрлашга катта эътибор берилмоқда. Бу борада кадрлар тайёрлаш ва узлуксиз таълим тизимини ислоҳ қилишнинг ҳуқуқий асослари яратилиб, босқичма-босқич амалга оширилмоқда. Жумладан, Республикамыз Президенти

Ш.Мирзиёев Олий Мажлисга қилган Мурожаатномасида шу борада қуйидагиларни таъкидлаб ўтдилар: “Олий таълим тизимини янада такомиллаштириш борасида ҳам кўплаб ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, 2017-2021 йилларда олий таълим тизимини комплекс ривожлантириш дастури қабул қилинди”.

Ҳозирги шароитда мамлакатимизда халқаро стандартлар даражасига мос олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш учун зарур шароитлар яратилишини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори қабул қилинди. Мазкур қарорда белгиланган муҳим вазифалардан бири сифатида “таълим жараёнини, олий таълимнинг ўқув режа ва дастурларини янги педагогик технологиялар ва ўқитиш усулларини кенг жорий этиш, магистратура илмий-таълим жараёнини сифат жиҳатидан янгилаш ва замонавий ташкилий шаклларни жорий этиш асосида такомиллаштириш” қилиб белгиланганлиги таълим жараёнида янги педагогик технологиялар ва ўқитиш усулларини кўллашнинг аҳамияти бениҳоя катта эканлиги билан ифодаланади.

Ҳозирги кунда таълим жараёнига ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) шиддат билан кириб келиши билан бирга, у таълимнинг самарадорлигини оширишда энг қулай омиллардан бири бўлиб қолмоқда. Шунинг учун ҳам илғор мамлакатлар таълим тизимида компьютер техникасидан, замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан унумли фойдаланишга қаратилган изланишлар тўхтовсиз кечмоқда [1].

Талабанинг билимини қисқа вақт мобайнида аниқлаб, уни тўғри йўналтиришида ўқитувчи олдида қулай имконият яратилади. Бундан ташқари, талаба олиши керак бўлган ахборотни ҳали давр талабига мос вақтидаёқ, ўз долзарблигини йўқотмасданок олиш имконияти мавжудлиги ва топшириқларнинг мураккаблик даражасини тўғри баҳолаш шароити яратилади.

Талабалар компьютерда масалаларни ечиш, жадвал ва график ечимларни тузиш, чизмалар чизиш, матнлар яратиш, расмлар чизиш каби кўплаб имкониятларга эга бўладилар. Бу эса — талабалар ижодий тафаккури ривожланишига замин бўлиб хизмат қилади. Шундай бўлсада, ўз касбининг маҳоратли соҳиб бўлган ўқитувчи томонидан ўзининг чуқур билими, катта тажрибасига таянган ҳолда, АКТдан фойдаланиб ўтказилган дарс машғулотлари, талабалар кўз олдида намойиш этилган медиа-маҳсулотлари, кўргазмалари материаллари асосида янада қизиқарли бўлиб, осон ўзлаштирилади ва уларда мустақил фикрлаш ҳамда ўз устида ишлаш малакаларини мустаҳкамлайди.

Керакли файлларни ахборот ташувчи қурилмалар – дискета, компакт-диск, флешка ва ташқи хард-дисклардан ташқари, ҳозирда «булутли» сервисларда сақлаш кенгрок тарқалмоқда. Худди шу турдаги хизматларни таклиф этувчи, аммо бир қанча қулайликлари билан ажралиб турувчи FileCloud.uz сервисини ҳам мавжуд. Булутли технологиялар (инглиз тилида cloud services, cloud technologies) – ҳозирги кунда кенг қамровли атама бўлиб, унинг асосий мазмуни – бирор-бир дастур ёки дастурлар мажмуасини фойдаланувчи қурилмасида эмас, балки интернет тармоғи орқали хизмат кўрсатувчи қурилмасида ишлатган ҳолда маълум турдаги дастурий хизматларни тақдим этиш [2].

Одатда Grid ресурсларни ва ресурсларни алмашадиган корхоналар ва жисмоний шахслардан ташкил топган глобал тарқалган виртуал ташкилотлар доирасида тегишли ресурсларга умумий кириш усулини назарда тутати. Ҳар бир виртуал ташкилот ўз иштирокчиларининг хатти-ҳаракатлар сиёсатида эга, улар белгиланган қоидаларга риоя қилиши керак. Виртуал ташкилот динамик тарзда шаклланиши ва чекланган вақт учун мавжуд бўлиши мумкин. Grid технологияларининг салоҳияти жуда юқори: мутахассислар бу стратегик хусусиятга эга деб ҳисоблашади ва яқин келажакда Grid кўплаб инсон фаолияти соҳасидаги технологияларни ривожлантириш учун худди шахсий компьютерлар ва Интернет каби ҳисоблаш воситаси бўлиши мумкин [3].

Бироқ таълим муассасаларида ўқитувчиларнинг маълум бир қисми замонавий компьютер техникасидан ўқув жараёнида етарли фойдаланиш малакасига эга эмас.

Моддий-техник база ва мультимедиа дастурларидан дарс жараёнларида, амалий машғулотларда фойдаланишни билмаслик – барча ишларнинг самарасиз кетгани ҳисобланади. Шунинг учун таълим муассасасидаги ўқитувчиларни компьютерда мукамал ишлашни билишлари, унинг имкониятларидан ўқитиш жараёнларида унумли фойдаланишлари жуда муҳим аҳамият касб этади.

Ҳозирги кунда бир қатор кенг тарқалган CAD/CAE/CAM тизимлари мавжуд, хусусан, CATIA, Solid Works, AutoCAD, NX Nastran, MSC ADAMS, Inventor and mechanical Desktop, Pro/Engineer, Parasolid, Solid Edg ва бошқалар бир қанча қулайликларга эга бўлсада, бироқ улардан фойдаланувчи кадрларнинг етишмаслиги машинасозлик ва бошқа қатор соҳаларда муаммоларга олиб келади.

Хулоса

Ахборот-коммуникация технологиялари(АКТ) таълим жараёнига ва таълим олувчини тарбиялашга тезлик билан таъсир қилади, яъни билим бериш ва таълим усулини ўзгартиради. Шу билан бирга таълим тизимида АКТнинг қўлланилиши нафақат таълим технологиясига таъсир кўрсатади, балки бу соҳага янгиликларни киритади. Булар ахборот ва алоқадан фойдаланиш имкониятларини кескин кенгайтиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- 1.Шадманова Г., Мирзаев С.С. “Замонавий ахборот-коммуникация технологиялари” ТИҚХММИ, 2018й.
- 2.Электрон университет. Масофавий таълим технологиялари. Олий таълим муассасалари учун/ А.Парпиев, А.Марахимов, Р.Ҳамдамов, У.Бегимкулов, М.Бекмурадов, Н.Тайлоқов. ЎзМЭ давлат илмий нашриёти.-Т.: 2008, 196 б.
- 3.Бегимкулов У.Ш. Замонавий ахборот технологиялари муҳитида педагогик таълимни ташкил этиш.// “Педагогик таълим” жур, № 1, 2004 .

Илмий раҳбар

проф. Шодмонова Г.

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАХСУЛОТЛАРИНИ ЯЛПИ ҲОСИЛИ УЧУН КОРРЕЛЯЦИЯ КОЭФФИЦИЕНТИ ВА ЧИЗИҚЛИ РЕГРЕССИЯ ТЕНГЛАМАСИ

Айнакулов Ш. А., Гуламова А., Шотўраев Б. - талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Мақолада фермер хўжалигидаги ялпи ҳосил ва ишчилар сони боғлиқлиги масаласи ва мавжуд маълумотлар асосида ушбу боғлиқликни прогнозлаш масаласи қаралган.


15 та фермер хўжаликлари учун 100 га экин майдонидаги қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш (минг сўм) ва ишчи кучи (одам) билан таъминланганлик ўртасидаги боғланишни кўриб чиқамиз. Бу маълумотлар қуйидаги жадвалда берилган [1].

№	100 га экин майдонидаги ялпи ҳосил, минг сўм, (y)	100 га экин майдонидаги ишчиларнинг ўртача сони, одам ҳисобида, (x)
1	409	7,9
2	698	16,1
3	505	10,7
4	380	6,8
5	459	9,5
6	490	11,7
7	395	8,9

8	498	10,1
9	312	7,8
10	273	4,8
11	285	6,4
12	593	12
13	710	17,6
14	551	14,6
15	242	5,8


Махсулот ишлаб чиқариш хажмининг ўсиши ишчи кучи билан таъминланганлика боғлиқ бўлади. Шунинг учун 100 га экин майдонидаги ишчиларнинг ўртача сонини эрки ўзгарувчи (x) деб, 100 га экин майдонидаги ишлаб чиқарилган ялпи махсулот нархини натижавий ўзгарувчи (y) деб оламиз [2].

Натижавий ўзгарувчи ва эрки ўзгарувчи ўртасидаги боғлиқликни ифодаловчи 15 та нуқтани Excel дастурида ифодалаймиз (1-расм).



1-расм.

Расмдаги нуқталар жойлашуви шуни кўрсатадики, эрки ва натижавий ўзгарувчилар ўртасидаги боғланиш чизикли функция орқали ифодаланиши мумкин. Буни чизмада акс эттирамиз (2 - расм)[2].



2-расм.

Бу ерда $a=36,65$ бўлиб, бу кўрсаткич 100 га экин майдонидаги ишчилар сонининг бир кишига ошиши шу майдондан олинadиган ялпи ҳосилнинг 36,65 минг сўмга ошишини билдиради. Регрессия тенгламасига эркили ўзгарувчининг қийматларини қўйиб, ҳар бир корхона учун олинadиган ялпи ҳосил қийматини аниқлашимиз мумкин. $R^2=0,9137$ детерминация коэффициенти дейилиб, эркили ўзгарувчи ўзгаришининг 91,37% ҳолатида натижавий ўзгарувчида ўзгариш содир бўлади. $R = \sqrt{R^2} = \sqrt{0,9137} = 0,9559$ корреляция коэффициенти дейилиб, унинг қиймати 1 га яқин бўлганлиги учун 100 га ерда ишлаётган ишчи кучлари сони ва 100 га ердан олинadиган ялпи ҳосил миқдори ўртасида кучли боғланиш борлигини билдиради.

Хулоса

Мавжуд маълумотлар асосида фермер хўжаликлардаги ишчи кучи ва ҳосил ўртасидаги боғлиқликни келгусида қандай ташкил этиш прогнозларини дастур ёрдамида бериш мумкин эканлигини аниқлаш мумкин экан.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Годин А.М., Дашков И. К. Статистика: Учебник, • 2015 год, М.
2. Проява С.М., Гусаров В.М., Общая теория статистики: Учебное пособие, Юнити-Дана. 2012 год
3. <https://vk.com/club17953287>

ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ОБЪЕКТОВ

Юлдашева Н.И. – студент, ТИИИМСХ

Аннотация

В данной работе рассмотрены математические методы и инструментальные средства, используемые для принятия проектных и управленческих решений, непосредственно связанных с экологической безопасностью окружающей среды.

Экологическая безопасность - это проблема взаимоотношений общества и природы, сохранение окружающей природной среды. Ее целью является обеспечение устойчивого и оптимального на длительном периоде времени равновесия между природными и антропогенными системами, техносферой и обществом. Основными антропогенными объектами, функционирование которых во многих случаях приводит к нарушению состояния равновесия природной среды, являются промышленные предприятия. Одним из основных средств исследования взаимодействия производственных технических систем с природной и социальной средой является математическое моделирование. Оно позволяет прогнозировать возможные изменения физических, химических и биологических состояний окружающей среды, вызванные деятельностью производственных технических систем. Предусмотренные на ближайшие годы увеличение выпуска и расширение номенклатуры промышленной продукции, обуславливающие значительное увеличение объема проектных и конструкторских работ - с одной стороны и необходимость решения экологических проблем - с другой, требуют: разработки новых принципов и методов расчета; использования комплексных критериев оценки принимаемых проектных решений, составляющими которых являются экономические затраты и экологическая безопасность проведения технологических процессов, что особенно важно в современных рыночных отношениях. В свою очередь,

это требует создания специального математического и программного обеспечений, позволяющих решать задачи промышленной экологии, связанные с проектированием и эксплуатацией производственных технических систем и обеспечением экологической безопасности включающих их природно-промышленных систем. Решение проблемы обеспечения экологической безопасности природно-промышленных систем является важным и актуальным научно-техническим направлением устойчивого развития субъектов, однако, оно сдерживается отсутствием прикладных автоматизированных информационных систем поддержки принятия проектных и управленческих решений, использующих современные информационные технологии: ГИС-технологии, SQL-ориентированные инструментальные системы. В связи с этим в работе рассматриваются математические методы и инструментальные средства, используемые при принятии проектных и управленческих решений, непосредственно связанных с экологической безопасностью окружающей среды.

На основе анализа литературных источников, посвященных математическим методам решения задач промышленной экологии при проектировании и эксплуатации производственных технических систем, а также традиций выполнения проектно-конструкторских работ, задачу обеспечения экологической безопасности природно-промышленных систем при размещении новых и функционировании действующих производственных технических систем, следует рассматривать как совокупность задач, решаемых на региональном и локальном уровнях. К особенностям принятия решений в сфере экологической безопасности следует отнести: сложность и большую размерность природно-промышленных систем; неопределенность поведения экосистем, входящих в природно-промышленных систем; открытый характер; действие случайных факторов; отдаленные последствия принятых решений; множество критериев оценки различной природы [1].

При изучении процессов функционирования природно-промышленных систем был сделан вывод о том, что всю совокупность задач, решаемых на разных этапах принятия проектных и управленческих решений нужно рассматривать с позиций теории сложных иерархических систем.




Рис.1 Комплекс задач автоматизированных информационных систем (АИС)

Наличие множества различных критериев оптимальности при принятии решений задач обеспечения экологической безопасности природно-промышленных систем привело к необходимости использования методов многокритериальной оптимизации. При этом в каждом конкретном случае должны решаться проблемы выбора альтернативных

вариантов, метода решения задачи с учетом оценки качества вариантов по всем рассматриваемым критериям; принципа нормализации, приводящего все критерии к единому масштабу измерения и позволяющего производить их сопоставление; принципа учета приоритета, позволяющего отдавать предпочтение более важным, по мнению экспертов, критериям.

Специфика многих задач промышленной экологии состоит в том, что они относятся к классу задач дискретного программирования. Для получения прогнозов изменения количественных показателей состояния компонент окружающей среды (качества воды, воздуха и т. д.) в результате строительства или модернизации производственных технических систем, необходимо построение экспериментально-аналитических моделей процессов, протекающих в отдельных типах основного и вспомогательного технологического оборудования промышленных объектов и компонентах окружающей среды, которые учитывают гидродинамические особенности потоков в них, кинетические закономерности процессов и вероятностный характер их протекания. При разработке математических моделей предложен подход [2], согласно которому пользователь, на основе своих знаний об особенностях ПТС, осуществляет генерацию модели с помощью модулей АИС. При решении задачи идентификации математических моделей объектов природно-промышленных систем в большинстве случаев используется неполная экспериментальная информация детерминированного и вероятностного характера по объекту исследования. В связи с этим разработана схема статистического испытания модели, позволяющая создать на базе имеющихся экспериментальных данных модель, адекватную исследуемому объекту.

Нахождение областей допустимых значений параметров модели осуществляется в ходе имитационного испытания. Исходя из известных или правдоподобных диапазонов изменения начальных состояний, параметров и входных переменных генерируются их комбинации. Решение уравнений модели с этими значениями позволяет вычислить реакцию модели и проверить выполнение ограничений, известных на основе экспериментальных данных.

Заключение

Пути решения, непосредственно связанных с экологической безопасностью окружающей среды с использованием информационных технологий - это полная поддержка процессов производственного экологического контроля, планирование и контроль выполнения природоохранных мероприятий, внешних и внутренних проверок, взаимодействие предприятия с органами государственной власти и общественными организациями, управление платежами и штрафами, прогнозирования состояния окружающей среды, картографического обеспечения.

Список литературы

1. Беркинов Б.Б. Моделирование систем ведения сельского хозяйства. Фан, Ташкент, 1990. – 127с.
2. Шадманова Г., Мирзаев С.С. Экономико-математические методы и модели. Т. 2011г.
3. <https://www.fundamentalnaya.ekologiya.ru/article/viewed=35696>

Научный руководитель

Каримова Х.Х.

СОЦИАЛ ТАРМОҚЛАР ЯРАТИШДА ПР ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА ТАЪСИРИ

Якупбекова З. Ч. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ҳозирги замон ахборот – техник тараққиёти шахс, жамият, давлат ҳаёти ва фаолиятига борган сари таъсири кучайиб бориши билан белгиланади. Ахборот соҳаси, яъни ахборотлар мажмуоиси, маълумот ва ахборотни йиғувчи, тарқатувчи воситалардан иборат тизим, шак – шубҳасиз ижтимоий муносабатларни бошқарувчи ва йўналтирувчи муҳим тармоқ саналади.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2006 йил 22 сентябрдаги № 203 – сонли «Давлат ва хўжалик бошқаруви органларининг жамоатчилик билан алоқаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» қарори бу борада қўйилган муҳим кадам бўлди. Қарорда: «Давлат ва хўжалик бошқарув органлари фаолиятининг ошкоралигини таъминлаш, кенг жамоатчилик ва аҳолининг Ўзбекистонда амалга ошириладиган сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ислохотларнинг бориши тўғрисида мунтазам хабардор қилиш мамлакатни демократик янгилаш ва модернизациялашнинг, ошқора фуқаролик жамияти куришнинг муҳим йўналиши ҳисобланади ПР – коммуникациянинг шахсий бўлмаган шакллари ифодаладиган, ахборот узатишнинг пулли тарқатувчилари воситасида амалга ошириладиган замонамиз омилларидан биридир. Унинг мақсади - оммавий ёки шахсий онга кучли таъсир ўтказиш йўли билан ҳосил бўлган, улар томонидан тўланган ахборотни тарқатиш йўли билан ҳиссиётларга таъсир қиладиган, танлаб олинган истеъмолчилар аудиториясига зарурий жавоб таъсирини қўзғатадиган, ишга нисбатан ижодий ёндашув ва ахборот тўплаш, ҳамда режалаштиришда касбий маҳоратни талаб қиладиган маиший ёки бошқа хил ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш ва жамоат ташкилотларининг вазифаларини амалга оширишдир.

Шу ўринда, ушбу соҳанинг назарий асосларидан бири сифатида қуйидаги таърифни келтириб ўтаемиз. «ПР - бу муайян фикр, шахс, гуруҳ, ижтимоий институт, хизмат, маҳсулот ва шу кабиларнинг имижини шакллантириш мақсадида мутахассислар томонидан махсус тайёрланган муомилабоп, мулоқотбоп ахборотни тайёрлаш ва рўёбга чиқаришдир.»

Шу ўринда, қарор мазмун-моҳиятидан келиб чиққан ҳолда унинг ижросини таъминлашга бевосита алоқадор бўлган омил – бу соҳа мутахассисларини тайёрловчи «Социология» ва «Жамоатчилик билан алоқалар» фанларига тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқдир, деб ҳисоблаймиз.

Ишнинг мазкур қисмининг вазифаси – ПР ҳақида бирламчи тасаввур ҳосил қилиш, бошланғич тушунча беришдан иборатдир. Энг аввало шуни таъкидлаш лозимки, ПР нинг асосий фарқли сифатий жиҳати ПР –бу ахборотни бошқариш, унинг устидан ҳукмронликдир.

Лекин, бошқариш ким томонидан, қандай ахборотлар, қандай асосга кўра, қандай мақсадда, қандай усуллар билан, кимни ёки қандай воситаларни жалб этиб, бунда коммуникаторлар ва аудитория қандай рол ўйнайди – мазкур иш шу ва шу каби саволларга бағишланади.

Бозор шароитларида ўсиб ривожланаётган, шаклланаётган бугунги ёшларга(ва катталарга ҳам) ривожланган мамлакатлардаги замонавий ПР ҳақида билиш қизиқарли бўлса керак.

И.В.Алёшиннинг чоп этилган китобидан фикр келтирамиз: «ПР кўпмиллионли бизнесга, минглаб шахслар ва ташкилотларнинг машҳур номлари ва имижларини яратувчи бутун бошли бир саноатга айланди. Сейтел маълумотларига кўра фақатгина 1990 йилларнинг ўрталарида АҚШ да йиллик маблағ айланмаси юзлар миллион долларларни,

PR бизнесида банд мутахассислар салмоғи эса 200 мингдан ортиқ PR фирма ва агентликлари фаолият юритган.. 1990 йиллар ўрталарида 20 та энг йирик америка PR агентликлари ҳар йили ўз хизматлари эвазига бир миллиард доллардан ортиқроқ даромад олишган. 1990 йиллар ўрталарида АҚШ да PR– мутахассисларининг ўртача йиллик даромадлари 49 минг долларни ташкил этган. Йирик корпорацияларнинг PR – топ менежер(бошқарувчи)лари учун бу кўрсаткич юз, икки юз ва ундан ортиқроқни ташкил этган. Шу каби, PR функциясига раҳбарлик қилувчи, Бостон (АҚШ) FidelityInvestment компанияси вице-президенти йилига 500 минг доллар даромад олар эди.»

TimeWarnerкомпанияси PR бўйича раҳбар учун компенсация пакети (бонус акциялари ва бошқа имтиёзларни ҳам ўз ичига олади) бир миллион долларни ташкил этади [1]. Бундай мисолларни кўплаб келтириш мумкин. Шу ўринда эслатиб ўтамиз, АҚШ да энг юқори ҳақ тўланадиган давлат хизматчиси – мамлакат президентининг маоши йиллик 200 минг долларни ташкил этади.

Питирим Сорокин фикрича: «Социология – бир томондан одамларнинг бир-бирлари билан муносабатларини, бошқа томондан айна шу жараённинг бошқа шу каби жараён билан муносабатини, ўзаро таъсирини ўрганади.»-бу ҳам нисбатан кам тушунарли тавсиф. Биз социология тушунчаси ортида ижтимоий муносабатлар, ижтимоий ўзаро таъсирлар ва ижтимоий фактлар, уларнинг келиб чиқиши ва мазмуни, шунингдек, ижтимоий муносабатларнинг миқдорий ва сифатий ўлчовлари ҳақидаги фанни тушунамиз.

Мазкур нуқтаи назарга кўра, социология қонунлар ва тушунчалари PR кундалик амалиётида қўллайдиган, асосли ишлаб чиқилган фан сифатида намоён бўлади.

Социология турли ижтимоий бирликларнинг ўзаро муносабатларидаги умумий ва хусусий тизим қонуниятларини ўрганади. PR эса муайян «фикр бурчаги», нуқтаи назарга кўра ишлаб чиқилган, сараланган ва тайёрланган ахборот ёрдамида маълум аудиторияга ижтимоий-психологик таъсир ўтказиш билан қизиқади, шуғулланади [2].

Бугунги кунда социология PR га нисбатан бирмунча «етилганроқ» фан ҳисобланиб вашу тушунча таъсири остида PR социологияга нисбатан хусусийроқ фан ҳисобланади. Ҳар қандай ҳолатда ҳам шу нарса аниқки, PR социология томонидан ишлаб чиқилган илмий тушунчалардан, таснифлар ва методологиядан фойдаланади.

Ахборот асрининг ўйин қоидалари ўтмишдагига қараганда ўзгача тус олди. Ишлаб чиқариш етакчилари четга ўтиб, уларнинг ўрнига истеъмолчилар етакчилари келишди. Булар актерлар, режиссерлар ва бошқалар, яъни улар бўш вақтимизнинг ҳақиқий етакчиларидир. Бу чизмага мослашишга улгурмаганлар нобуд бўляпти. Ҳаммадан олдин буни ўзларини актердек тутишни бошлаган сиёсатчилар тушиниб етишди. Энди уларнинг вазифаси жиддий таҳлил ёки чуқур мулоҳазалар самараси бўлмай, уларнинг вазифаси – экранда чиройли кўриниш, чиройли гапириш, кулдира олиш ва жозибadorликдир.

АҚШдаги биринчи телевизион «жозибали» президент Жон Кеннеди эди, шу сабабли унга Куба инкирозини кечириб юборишди. Лекин худди шу америкаликлар Линдон Жонсга Вьетнам уришини кечири олишмади, чунки у тингловчиларни маҳлиё қила олмасди. Мана шу ердан актер – президент Рейганнинг пайдо бўлиши, охириги йилларда АҚШ, айниқса ҳукумат фаолияти соҳасида кучайтирган имиж-мейкерларнинг қудратли қуролининг маҳсулидир. Юксак касбий асосда бу услублар Никсон давридаёқ тайёрланган эди, гап шундаки, Никсоннинг матбуот билан алоқаси яхши эмасди, Кеннеди билан телемузокараларни бой бергани учун сайловларида ютқазиб қўйди. Матбуотни «енгиш» учун у билан ишлашнинг турли хил усуллари таклиф қилинган эди ва улар Америка президентларининг кейинги барча авлодларида ўзгармай келяпти.

PRўзи нима? Барча таърифлар (уларнинг сони 500га етади) турли хусусиятларни алоҳида таъкидлаб ўтади, лекин уларнинг ҳаммаси битта соҳадан – бу ташкилот ва жамоатчилик ўртасидаги ўзаро алоқалар. Шунинг учун биз PRни баъзан «жамоатчилик билан алоқалар», баъзан «жамоатчилик билан коммуникациялар» тарзида таржима қиламиз. Бунда таърифнинг ҳақиқий моҳиятини яшириш тез-тез қўлланади. Масалан,

«Алоқаларни уйғунлаштириш» каби сўзлар. Лекин ҳеч ким ким бўлишидан қатъий назар афсонавий муваффақият учун пул тўламайди. ПР мижозлар билан коммуникатив стратегиялар яратиш ва мақсадли аудиторияларга хабарлар тарқатиш мақсадида уни мижозлар учун қулай қилишга ишонтириш учун фаолият кўрсатади деб берилган таърифлар анча аниқ ва равшандир[3]. Бундай вазиятда ПРга хос бўлган вақт ва пулни сарф қилиш тушунарлидир. Тез-тез учраб турадиган паблик рилейшнзнинг шиорига аҳамият бермасликнинг иложи йўқ: Паблик рилейшнз – саноат маҳсулотлари ва хизматларини амалга оширишнинг самарали воситасидир. Бу ҳақида кўпчилик билмайди. «Паблик рилейшнз» атамасини аксарият жуда тор маънода тушунишади, у фақат алоҳида бир инсон ёки фирманинг ижобий обрў-эътиборини яратишдан иборат деб ўйлайдилар. Бир вақтнинг ўзида паблик рилейшнз асосий вазифаларидан бири саноат маҳсулотлари ва хизматларини бозорда сотишни тезлаштиришдан иборатдир. Шунинг учун «Бозел энд Жекобс» фирмасининг катта мутахассиси паблик рилейшнзга шундай таъриф берди: «у - меҳнат ва тижорат матбуотидаги маълумотларнинг режали нашридир». «Режали» сўзи яққол бир ҳатти-ҳаракатни кўрсатяптики, уни режалаштириш керак, у тадқиқот, режа-жадвал тузиш, касбий тажриба ва малакани, шунингдек ҳисоб-китоб механизмдан фойдаланишни талаб қилади. Шундан кейин режага мувофиқ сиз ёки сизнинг буюртмангиз бўйича зарурий маълумотлар тайёрланади, уларни меҳнат ва тижорат матбуотида чоп этиш муҳимдир. Дарҳақиқат, саноат ва техник маҳсулотлар учун паблик рилейшнз маълумотларини муайян бир минтақа ёки жаҳонда фирманинг ижобий обрў-эъборини яратиш мақсадида оммавий ўқувчига мўлжалланган баъзан журнал ва газеталарга юборишади. Аммо амалиётнинг кўрсатишича, бу маълумотларни ишбилармон кишилар учун қизиқиш уйғотадиган нашриётларга жойлаштириш самаралироқдир, чунки шу кишилар охир оқибат сизнинг маҳсулотларингиз ва хизматларингизни сотиб олиш ёки олмаслик ҳақида қарор қабул қилади. АҚШда, масалан, меҳнат ва тижорат матбуоти туркумига мансуб 3000 мингдан ортиқ нашриётлар мавжуд.

Хулоса

Бутун дунёда, ҳоҳ у очиқ жамият бўлсин, ёки ёпиқ Интернет тармоғининг ривожланиши билан инсонлараро мулоқот соҳаси янги даражага чиқди. Интернет бугунги кунда оммалашган social networking тушунчасини дунёга келтирди. Бу инсонларга бир-бирлари билан ўзаро яқинроқ танишиш, янги алоқа ва муносабатларни ўрнатишда ёрдам беришга қаратилган махсус веб-порталларни ривожланишига туртки берди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Муминов Ф. «Паблик Рилейшнз: история и теория(учебное пособие)» Тошкент. Издательство ЎзГУМЯ, 2003г
2. Алёшина И.В. Паблик Рилейшнз для менеджеров. Учебник. М.: ИКФ «ЭКМОС», 2002. С. 59-60.
3. Алёшина И.В. Паблик Рилейшнз для менеджеров. Учебник. М.: ИКФ «ЭКМОС», 2002. С. 59-60.

Илмий раҳбар

Шермухамедова О.

UMUM TEXNIK FANLARNI O'QITISHDA FSMU METODINING O'RNI

Erkinov Z.SH., Abdunabiyev J.I., Qurbonova M.T. – talabalar, TIQXMMI

Annotatsiya

Zamonaviy dars_jarayonida yangi_pedagogik texnologiyalarning o'zni bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaraadorligini oshirishni, tez taraqqiy etib ta'lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari, ta'limni borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qiladi.

Kirish. Bu o'rinda texnik servis ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi va qo'llanishi davr talabi bilan bevosita bog'liqdir. Yangi pedagogik texnologiya ta'limning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan shakli, usuli va vositalarining mahsulidir. Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda texnik servis o'qituvchisi dars jarayonida faqat o'zi ishlaydi, o'quvchilar esa kuzatuvchi bo'lib qolaveradilar. Ta'limning bunday ko'rinishi o'quvchilarning aqliy tafakkurini o'stirmaydi, faolligini oshirmaydi, ta'lim jarayonidagi ijodiy faoliyatini so'ndiradi.

FSMU texnologiyasi

(F) - Fikringizni bayon eting.

(S) - Fikringizni bayoniga biron sabab ko'rsating.

(M) - ko'rsating sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

(U) - fikringizni umumlashtiring.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, baxs- munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminar yakunida (tinglovchilarning o'quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchi va talabalarning, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatini o'rgatadi.

O'tkazish texnologiyasi

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich.

-trening tinglovchilar bilan birga baxs mavzusini yoki muhokama etilishi

kerak bo'lgan muammoni, yoki o'rganilgan bo'limni belgilab oladi;

-trening o'quv mashg'ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo'lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma'lumot beradi:

-mashg'ulot davomida har bir tinglovchi o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o'tiladi.

2-bosqich.

Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F- fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayon etishga sabab ko'rsating.

M - ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

3 -bosqich.

-Har bir tinglovchi o'z qog'ozlarini to'latib bo'lgach, trener ularni kichik guruhlariga bo'linishlarini iltimos qiladi yoki o'zi turli guruhlariga bo'lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlariga bo'lib yuboradi:

-Trener har bir guruhda FSMU texnologiyasining 4 bosqich yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi:

-Trener kichik guruhlarga har birlari yozgan qog'ozlardan fikr va dallillarni katta formatdagi umumlashtirgan holda 4 bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi.

4-bosqich.

-Kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o'zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi. Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi:

-Guruh a'zolari FSMU ning 4 bosqichini har biri bo'yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radilar:

-Fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o'z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5-bosqich.

-Kichik guruhlarda umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar: Guruh vakili har bir bosqichni alohida o'qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba'zi bo'limlarni isbotlash ya'ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o'tishi mumkin.

6- bosqich.

-Trener mashg'ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi;

-Quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojat qiladi:

-Ushbu trening nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o'rgandingiz?

-Ushbu texnologiyani o'quv jarayonida qo'llanilishi qanday samara berdi?

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki texnik servis ta'limda pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi esa o'qitish tizimida o'quvchini dars jarayonining markaziga olib chiqish, o'quvchilarni o'quv materiallarini shunchaki yod olishlaridan, avtomatik tarzda takrorlashlaridan uzoqlashtirib, mustaqil va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, darsning faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Shundagina o'quvchilar muhim hayotiy yutuq va muammolar, o'tiladigan mavzularning amaliyotga tatbiqi bo'yicha o'z fikriga ega bo'ladi, o'z nuqtai nazarini asoslab bera oladi. Chunki texnik servis o'qitishda ta'lim va barkamol shaxs tarbiyasi bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayondir. Mazkur jarayonda mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish, bilish faoliyatini rivojlantirish kabi jihatlar muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Ziyamuhamedov, M.Tojiev Pedagogik texnologiya. Zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009 y.
2. L.V. Golish, D.M.Fayzullayeva Pedagogik texnologiyalarni loyixalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma/ Ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyasi seriyasi.-T.: 2010.
3. Yu.K.Babanskiy Hozirgi zamon umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qitish s. metodlari.-Toshkent: O'qituvchi, 1990.
4. N.Sayidaxmedov, A.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiya moxiyati va zamonaviy loyixasi. Toshkent, RTM, 1999.

Ilmiy rahbar

dots.v.b. Yunusov R.F.

A FRAMEWORK OF INFORMATION TECHNOLOGY FOR WATER RESOURCES MANAGEMENT

Isroilova D.A. - student, TIAME

Abstract

The use of the information technology in internet GIS, Remote Sensing data and World Wide Web in most of the research works relating geosciences and public is indispensable. As the nodal data banks and public utility are ever evolving along with the technological advancements, it is necessary to have an interoperable linked geospatial infrastructure for surface as well as underground water resources. WML (Water-resources Markup Language) is proposed for the monitoring of surface and subsurface water resources data of different regions. WML works on Asynchronous java Script and Extensible Markup Language (XML) and image tiling can improve the performance and response time of Internet GIS application significantly. Water information integration with web GIS, Google, and Satellite will improve the user's ability to integrate, plan, manage and design more holistically the water resources systems.

Many Government Institutes as well as Private Sector Organizations have been generating data bases and collaborating with each other in need to arrive at a conclusion and share the result. Many a time, data acquisition or data generation, analyses or processing and their presentation are to be done individually instead of sharing their data spreads. This is due to improper maintenance of existing information and not channelized. Geographic Information System (GIS) software is for managing the information resources, better understanding and utilization of the data sets. GIS provides a framework for integration of information, connect users of data to the sources, provides methods for analysis and collaboration and making them widely accessible and decision support

The use of GIS in water resources has a rich heritage. Some of the key contributions include: base maps of water features of the landscape, digital elevation models delineating watersheds and stream networks, geospatial data preprocessors supporting water resources simulation models, floodplain maps built using automated hydrology and hydraulics and precisely measured land surface elevation

GIS can be implemented in multiple patterns that are evolving with new and good technology. New technology like faster computers, high bandwidth internet, huge storage and cloud computing are creating new environments sharing and authoring geographic information

Monitoring of Surface water and Groundwater resources is dependent on dynamic and static parameters of these water systems as well as meteorological data sets. All this information is large in volume and spatial as well as temporally varying in nature. Judicial usage and timely alert of these resources need to have a common platform (infrastructure) to store the information in a systematic format and link up geospatial and temporal data and not only make available to the end users but also to provide other utilities like processing, synthesis and visualization in 3D and projecting on the spatial and temporal coordinates (Figure1).




Figure 1. Sharing water data through the Internet

Internet GIS applications and Web-based mapping tools suffer from the slow response because of the limitation of image sizes and network issues. In a simple view, the web consists of three levels of operations which include, the database tier, the application tier and the client tier

This creates a new geospatial infrastructure supporting a large community of users and applications – linking government, business, citizens and education. New technology like faster computers, high bandwidth internet, huge storage and cloud computing are creating new environments for sharing geographic information.

The Service Oriented Architecture (SOA) is popular as web services implementation model. The SOA is realized by a “publish-bind-find” pattern, in which the service-provider “publishes” a service in the catalog, then the service-client “finds” the necessary service and at the same time service provider “binds” the service with the service-client (Figure 2).




Figure 2: The vision of service oriented architecture (SOA)

In SOA, a single service cannot perform a complete job. For this the client needs a “service composition”. As a part of standard for web services, World Wide Web Consortium (W3C) defines a software application identified by a Uniform Resource Locator (URL) whose interfaces are provided for binding and capable of being defined, described and discovered by Extensible Markup Language (XML) which supports direct interaction with any other software applications. Internet based protocols supports XML based applications for binding user required data. The web service can require a set of instructions in any of web support applications like XML. XML code will access data over the web. This SOA specify three layer/tier architecture as shown in Figure 3

This architecture provides online water resources information at a single location. It provides the information which includes water flow level, level in surface water bodies, ground water levels, and some other related to meteorology department such as different types of reports for water resources and daily reservoir operations. All of these information sources are accessed through some of the web applications.




Figure 3: Three tier architecture

In any application the back bone is back end. In this process the back end application stores huge amount of spatial data. Any of the relational database (e.g. Oracle, MySQL etc.) is used for spatial data. Mostly Oracle supports spatial data, which can be accessed through Structure Query Language (SQL). Water data are stored in distributed tabular databases, each

having its own output data format. Commonly measured variables/fields are labeled differently from one organization to another organization. These tabular databases independently maintained by organizations are not spatially enabled. In larger water agencies or water boards, the data for different geographic regions are managed independently from one regional office to another local office. Therefore, standardized/normalized database are to be maintained across the water boards. This will provide proper storage of database.

It includes new technology in the Internet GIS market by implementing AJAX (Asynchronous Java Script and Extensible Markup Language) and image tiling techniques for Web based 3D visualization. AJAX is common for building mashups for enabling user interaction and other technologies focused on specification of data and visual encoding for feeding mapping mashups. It enables communication between the tiers and processes system inputs and outputs. XML is a communication language of the architecture

AJAX generates all features including data layers, models and attribute data and the styling of all features. AJAX application acts as a buffer to avoid the start stop nature of interaction on web by introducing an intermediary layer between the user and the server.

An AJAX engine is in between user and the server. The browser loads an AJAX engine with java script code and allows user interaction with the application in asynchronous mode. AJAX engine works on the principle that it sends user's requests to the web server to retrieve only the data needed by the request

The user interacts with the application software through user interface. As interfaces are medium for communication with distributed information spread across the web thus their designing is crucial for Internet GIS and other web based applications. The usual process is that user hit query, the application tier access the database and answer user request. These information displays need to meet guidelines of usability and accessibility of W3C. In this regard, impetus from Human Computer Interaction is crucial for designing and developing interfaces and geospatial web services.

Conclusions

There is a need to integrate world water resources information. Internet GIS provides a platform to integrate the available technology with users and data sources. It is necessary to store the data by all the public domains in specified formats and update the information timely. Web services have to provide convenient architecture with sophisticated tools which will give situational awareness and local analyses and presentation. It is necessary to have an interoperable linked geospatial infrastructure for surface and subsurface water resources data of the world. Vision of such architecture, WML, is proposed.

References

1. Mauree, V. 2010. ICT as an Enabler for Smart Water Management. ITU-T Technology Watch Report, ITU Telecommunication Standardization Bureau, pp. 23.
2. Tsou, M.H. 2005. Recent developments in Internet GIS. GISdevelopment.net, pp. 6.
3. Dangermond, J. and Maidment, D. 2010. Integrating Water Resources Information using GIS and the WEB. 2010 Spring Specialty Conference Orlando, Florida, pp. 1-10.
4. Granell, C., Diaz, L., and Gould, M. 2008. Geospatial Web service integration and Mashups for water resource applications. The International archives of the photogrammetry, Remote sensing and spatial information sciences, Vol. XXXVII part B4 pp. 661-666.
5. Cetin, C., Deniztan, U., Halil, A., and Gulden, K. 2010. Semantic Web Services for implementing National Spatial data infrastructures. Scientific Research and Essays, Vol.5(7), pp. 685-692.
6. Henry, A. 2009. Using Google Earth for Internet GIS. M.Sc. Dissertation. Institute of Geography, School of GeoSciences, University of Edinburgh, pp. 24.
7. Price, J. 2007. Oracle Database 11g SQL, Oracle Press, pp.690.

8. Deepprasertkul, P. and Chitradon, R. 2009. Time Dimension on the Internet GIS Application. Proceedings of MAP Asia - Connecting Geospatial Communities-Creating New Dimensions, Singapore.

9. Brett, M. 2001. Java & XML, 2nd Edition, O'Reilly, pp.428.

Scientific advisor

Kendjaeva D. Kh.

**ГРАФИК DASTURLAR, ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI
OSHIRISH OMILI SIFATIDA (AUTOCAD VA ARCHICAD DASTURLARI
MISOLIDA)**

Mirzabekova Sh.U.–talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tashkil etishda qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdan iboratdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan yani ishlab chiqarish jarayonida muhim bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakillantiradi.

Hozirgi davrda ta'lim va tarbiya jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Ma'lumki, kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonning intellektual va ma'naviy–axloqiy jihatdan tarbiyalashga bog'liq. Eng asosiysi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasb bo'yicha mehnat qilish huquqi kafolatlanadi.

Keyingi vaqtlarda respublika oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnikaviy bazalarini mustahkamlash, axborot bilan ta'minlash darajasini rivojlantirish maqsadida ular ta'limining zamonaviy texnik vositalari, yangi dasturlar, qo'llanmalar, darsliklar, ko'rgazmali o'quv qo'llanmalari va qurollari hamda boshqa turdagi o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlanmoqda. Ta'lim jarayonida qo'llanib kelinayotgan ta'lim berish va tarbiyalashning mazmuni, vosita hamda uslublari tizimiga xalqimizning o'ziga xos xususiyatlarini, tarixiy an'analari, qadriyatlarini va ma'naviyat durdonalarini kiritish, interfaol ta'lim, zamonaviy dars mashg'ulotlarini tashkil etish, grafik ta'limla grafik dasturlardan foydalanish hamda oliy ta'lim muassasalarida o'qitish samaradorligini oshirish, uni takomillashtirish, sharqona tarbiya nazariyasini talabalar ongiga singdirish imkonini bermoqda [1].

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslari belgilab berilishi bilan birga har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga ham keng o'rin berilgan.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilingandan keyin fanlar bo'yicha Davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv fanlarining yangi mazmuni ishlab chiqildi. Bunda har bir o'quv fanining tarixiy negizlari, ilmiy-nazariy qadriyatlarini hamda an'analari alohida e'tibor qaratildi. Ular amaliyotga joriy etilib, endilikda ularni modernizatsiyalash jaryoni kechmoqda. Respublikamizdagi mavjud 60 dan ortiq oliy o'quv yurtlarining 20 taga yaqinida arxitektura qurilish chizmachilikfani o'qitiladi.

SHuningdek, kasb-hunar kollejlari 500 dan ortiq yo'nalish bo'yicha kasb-hunar o'rgatilib, ularning 60 dan ortig'ida arxitektura qurilish chizmachilik fani o'qitiladi. Kasb-hunar kollejlari arxitektura qurilish chizmachilik fanini o'qitilishi bu fanning naqadar hayotiy zarurligidan dalolat beradi. O'quvchilarning grafikaviy mustahkam savodga ega bo'lishi ularning fikrlash qobiliyatlarini va tasavvurlarini rivojlanishiga, ijodkorlik iqtidorlarini o'stirishga ko'maklashadi va kelajakda ilmiy va texnik ijodkorlik, ularning ixtirochilik qobiliyatlarini

shakllantiradi. Oliy ta'limda talabalarining fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish bu jabhadagi ta'limiy jarayonlarni yangi sifat bosqichiga ko'tarishni pedagogik jihatdan kafolatlaydi. Zero, grafikaviy ta'limda grafik dasturlardan foydalanish muhim ta'limiy ahamiyatga molik.

O'zbekistonda barcha sohalariga yuqori texnologik jarayonni tatbiq etish mamlakatni rivojlantirishda arxitektura qurilish chizmachilikni o'qitishning ham o'ziga xos o'rni bor. SHu bois ham o'quv yurtlarda ixtisosligi bo'yicha chuqur nazariy bilimga hamda mustahkam amaliy tajribaga ega bo'lgan malakali kadrlar va mutaxassislar tayyorlash hozirgi kunning muhim pedagogik muommosidir. Kadrlar tayyorlash sifatini hozirgi zamon ishlab chiqarish, fan va texnikaning talablarini, shuningdek, ularning kelajakda rivojlanish istiqbollarini nazarga olgan holda muntazam takomillashtirib borish talab etilmoqda. Bu jarayonda grafik dasturlardan ta'limiy jarayonlarda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq hozirgi kunda mavjud grafik darsturlardan bevosita arxitektura qurilish chizmachilik darslarida qanday foydalanish maqsadga muvofiq bo'lishi yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan, dasturlar, metodik ko'rsatmalar hamda didaktik materiallar ko'rsatkichi juda ozdir.

Oliy ta'lim muassasalarida arxitektura qurilish chizmachilik darslarini grafik dasturlar vositasida ta'lim samaradorligini oshirish.

Kompyuter grafikasi fan sifatida shakllanganiga hali ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsada, qisqa vaqt ichida rivojlanganining asosiy sabablaridan biri bu, kam vaqt sarflash evaziga yuqori natijalar olishga erishish mumkinligi, fanni rivojlanishiga, ommalashishiga olib keldi. Bugungi kunga kelib, kompyuter grafikasi fani faqatgina informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishi uchungina emas, balki boshqa keng miqyosdagi mutaxassisliklar uchun ham qulay va samarali bo'lib qolmoqda. Masalan: bino inshootlar qurilishi, arxitektura va dizayn, aloqa va axborotlashtirish, gidrotexnik inshootlar qurilishi, avtomobil va temir yo'llar qurilishi va boshqa rivojlangan yo'nalishlar uchun juda kerakli soha sifatida o'rganilmoqda. Kompyuter grafikasi fanida grafik ishlar va masalalarni kompyuterda modellashtirish imkoniyatlaridan foydalaniladi. Kompyuter grafikasi fani bevosita chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanining keyingi bosqichi bo'lib, chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanini o'zlashtirmasdan turib bu fanni o'rganib bo'lmaydi. Kompyuter grafikasi fanini o'rganishda eng rivojlangan va ommabop AutoCAD grafik dasturi aynan chizma geometriya va muhandislik grafikasi fani asosida yaratilgan bo'lib, Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanidagi o'lcham qo'yish qoidalari, standartlar, chizmaning ikkita ko'rinishiga ko'ra uchinchi ko'rinishini topish, qirqim va kesim berish, chiziq turlari hamda shu kabi asosiy qonuniyatlarni bilmasdan turib rejalashtirilgan loyihalash ishlarini bajarish mutlaqo noto'g'ri hisoblanadi[3].

Bizga ma'lumki kompyuter grafikasi fanini o'qitishda turli xildagi grafik dasturlardan foydalanamiz ularning barchasida ham grafik tasvirlarni modellashtirish imkoniyatlari mavjuddir. Talabalar muhandislik grafikasiga doir topshiriqlarni bajarish davomida ularni yaqqol tasvirini ko'z oldilariga keltirishga ya'ni fazoviy tasavvur qilishga qiynalgan paytlarida anasha detal chizmasini bitta ko'rinishi orqali uni mdelini qurish orqali ularda ushbu detalga nisbatan to'la tasavvur paydo bo'ladi va fanga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Modellashtirish imkoniyatini turli grafik dasturlar orqali amalga oshirish mumkin. Ularning hammasi o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

Masalan: AutoCAD – grafik dasturi orqali muhandislik masalalarini tez va qulay usullar yordamida yechish imkoniyatini borligi; ArchiCAD – dasturi arxitektorlarning ishonchli dasturi bo'lib, qurilish inshootlarini loyihalashda qo'llanilishi; 3dMax, Corel Draw, Adobe Illustrator – Vektorli uch o'lchovli va ikki o'lchovli modellashtirish dasturi bo'lib, harakatli tasvirlar yaratish imkoniyatlarining mavjudligi va hokazo dasturlarni misol keltirish mumkin.

Ushbu grafik dasturlardan ta'lim jarayonida mavzularning berilishiga qarab eng optimal bo'lganlarini tanlash va ularning imkoniyatlaridan pedagogik texnologiya sifatida foydalanish talabalarni fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiribgina qolmay, bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda eng yaxshi vosita sifatida hizmat qiladi.

M.V. Matveevaning izohiga ko'ra: talabalar tayyor grafik, animatsion va videolavhali o'quv materiallarini o'zlashtirish vaqtida kompyuter grafikasining illyustrativ funksiyasi

bajariladi. Ular bilimni o'rganilayotgan ob'ektning matematik modelini tuzish orqali o'zlashtirsalar kompyuter grafikasining kognitiv funksiyasi bajariladi. Kompyuter grafikasining illyustrativ va kognitiv funksiyalari shartli ravishda farqlanadi. Bir tomondan, ba'zida oddiy grafik tasvir ham talabada yangi g'oya tug'ilishiga yoki unda yangi qirralarning ochilishiga sabab bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan, kognitiv funksiyasi har doim ham to'liq amalga oshmaydi, masalan, talaba o'rganilayotgan ob'ektning allaqachon ma'lum bo'lgan xususiyatlarinigina aks ettirganda, shunchaki illyustrativ funksiyasi bajariladi [2].

Amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili OTM larda kompyuter grafikasi fanini o'qitishda turli grafik dastur imkoniyatlaridan foydalanib talabalarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish muammosi tadqiqot ishi sifatida tadqiq etilmaganligini ko'rsatdi. Bu boradagi muammolarning ilmiy- pedagogik jihatdan o'z yechimini topmaganligi OTM larda talabalar kompyuter grafikasi fanini o'qitilishining maqsad va mazmunini to'la anglay olmasligiga, o'z mutahassisligiga oid masalalarni turli grafik dasturlarning imkoniyatlaridan foydalanib modellashtirishda bilim va ko'nikmalarini yetishmasligi, muhandislik grafikasi fanini uzviy davomi bo'lgan kompyuter grafikasi fanida masalalarni kompyuterda loyihalash talab darajasida emasligi, respublikamizga kirib kelayotgan kompyuter grafikasi bilan bevosita bog'liq sohalarni mutahassislar bilan ta'minlashda bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida kompyuter grafikasi fanini o'qitishda quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

- ❖ OTM larida kompyuter grafikasi fanini o'qitish tizimining ma'ruza, amaliy va tajriba mashg'ulotlarini standart tizimga solinmagani;
- ❖ talabalarni kompyuter grafikasi fanidan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda grafik dasturlarning imkoniyatlaridan talab darajasida foydalanilmayotganligi;
- ❖ kompyuter grafikasi fanidan ilmiy- metodik qo'llanma va darsliklarning yetishmasligi;
- ❖ fanni o'qitishda zarur bo'lgan o'quv qo'llanmalar va o'rgatuvchi dasturlarning yo'qligi ;
- ❖ grafik topshiriqlarning umumlashgan metodik tizimi talab darajasida emasligi.[4,3.-5].

Shu bois, kompyuter grafikasi fanini bugungi kundagi muammolarini tadqiq qilish, grafik dasturlarning imkoniyatlaridan foydalanib talabalarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish muammosi muhim ahamiyat kasb etadi. OTM larda mutaxassislarni tayyorlash jarayonida har bir sohaga o'ziga xos grafik dasturlarning imkoniyatlaridan to'la foydalanishni amalga oshirishni pedagogik asoslarini ishlab chiqish, bu jarayonning psixologik- pedagogik sharoitlarini aniqlash va uning sifatini belgilovchi mezonlarini asoslash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib, tadqiqot mavzusi «Modellashtirish vositasida kompyuter grafikasi fanidan talabalarni bilim va ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi» deb nomlandi. Bularni hisobga olib talabalarning kompyuter grafikasi fanidan bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda takomillashgan AutoCAD grafik dasturining modellashtirish imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish orqali ta'lim jarayonida yangi bir burilish yasash va buning natijasida talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yuqori pog'onalarga ko'tarishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Karimov I.A. "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li". -T.: "O'zbekiston". 1992-y.
- 2.Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiyosyatining ustivor yo'nalishlari". -T.: "O'zbekiston". 1993-y.
- 3.Mirhamidov J.X., Ermatov I.T. "Kompyuterda loyihalash". -T.: "TAQI". 2007-y.

4. Qosimov J.A. “Muhandislik grafikasi va kompyuter grafikasi”. –T.: TDPU 2017-y
5. Nig'monov B.V. v/b “Arxitektura qurilish chizmachiligi”. –T.: “TDPU rizografi”. 2012-y.
6. Adilov P.O., To'rayev H.A., Karimova S.Z. “Geometrik almashtirishlar orqali talabalarning fazoviy tasavvuri va konstruktorlik qobiliyatlarini shakllantirish”. “Pedagogik ta'lim”. 2013-yil, 3-son.

Ilmiy rahbar

ass. Qosimov J.A.

TUPROQNING G'OVAKLIGINI QATTIQ, SUYUQ, GAZSIMON HOLATINI ANIQLASHDA MS EXCEL DASTURIDAN FOYDALANISH

Karimova D.F – talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Ushbu maqolaning asl mohiyati shundan iboratki tuproqshunoslik va dehqonchilik fanidan o'tilayotgan ko'plab laboratoriya ishlarini Ms Excel dasturida ishlab chiqish yanada oson hamda har bir talabaga qulaylik tug'diradi.

Mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va aholining munosib hayot kechirishin ta'minlashda fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, ularning yer maydonlaridan samarali foydalanish masalasi alohida o'rin tutadi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa egalarning huquqiy hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni ana shunday muammolarni hal qilish va 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivot yo'nalishi Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish maqsadida qabul qilindi [1,2].

Ushbu farmonga muvofiq fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa egalari uchun zrrur bo'lgan texnik qurilmalarni ta'minlashda, tuproqdan laboratoriya sharoitida olinadigan tuproqning namligi, hajm massasi, solishtirma massalari, go'vakliligi, suyuq, qattiq, gazsimon holarini suv o'tkazuvchanlik xususiyatini, suv ko'tarish xususiyatini va tuproqning ko'plab analizlarini olishda Amaliy Axborot Texnologiyalari fani juda qo'l keladi.

Tuproq tarkibidagi mehanikaviy zarrachalar struktura bo'lakchalari oralig'i, ildiz, qurt-qumursqa yo'llari hisobiga hosil bo'lgan bo'shliqlar yig'indisi tuproqning g'ovakligi deyiladi.

Tuproqning g'ovakligini qattiq, suyuq, gazsimon holatini aniqlashda Ms Excel dasturida quyidagi formulalardan foydalanib 1-rasmda hisoblab ko'rsatilgan.

Turli tuproq kesimi	Tuproq qatlamining qalinligi, sm	Xajm massasi d, g/sm	Solishtirma massa d, g/sm	Massaga % hisoblashning namlik miqdori	Xajm namligi Ow	Umum g'ovaklik Rum	Aeratsiya Raer	Tuproq qattiq, suyuq holatining g hajmi
1.	0-16	1,23	2,75	12,4	15,252	76	61	24
2	16-30	1,32	2,77	14,3	18,876	73	54	28
3	30-55	1,31	2,75	15,2	19,912	72	52	28
4	55-100	1,27	2,74	16,4	20,828	74	53	27
5	100-155	1,29	2,75	17,5	22,575	73	50	27
6	155-200	1,27	2,75	18,2	23,114	74	51	26

1-rasm. Tuproqning g'ovakligini qattiq, suyuq, gazsimon holatini aniqlashda Ms excel dasturidan foydalanish ko'rsatilgan.

Ko'pchilik tuproqda g'ovaklikning umumiy hajmi 40-50% bo'ladi. G'ovaklik turli tuproqlarda va ularning ayrim qavatlarida xar hil bo'ladi.

G'ovaklik tuproq qatlamida suv va havoning harakat qilishida shunga qarab bir qancha fizik, kimyoviy va biologik protseslarning o'zgarib turishida katta ahamiyatga ega. Umumiy g'ovaklik hajm massasi (d_v) va solishtirma massa (d) ko'rsatgichlari yordamida hisoblanadi.

$$P_{um} = \frac{d - d_v}{d} * 100\% \quad (1)$$

Bu ko'rsatgichni barcha qatlamlar bo'yicha jadvaldan foydalanib hisoblaymiz. Jadval natijalaridan foydalanib tuproqning qattiq holatdagi hajm (TBT) 0-16sm li qatlam uchun:

$$P_{aer} = P_{um} - O_w \quad (2)$$

Hajm namligi massaga nisbatan foiz hisobidagi namlikni hajm massaga ko'paytirish yo'li bilan topiladi.

$$O_w = w * d_v \quad (3)$$

Tuproqning qattiq holdagi hajmi quyidagicha ifodalanadi:

$$(TQXX) = 100\% - P_{um} \quad (4)$$

Xamma olib borilgan hisoblashlar bo'z tuproqning 0-16 sm qatlamiga tegishlidir.

Xulosa

Talabalar va muhandislar, barcha injenerlar zamonaviy texnologiya, kompyuterlardan foydalanishni afzallik tomonlarini korsatish lozim. Kompyuterni qulaylik tomonlari juda kop. Bizga ham vaqt ham harajat kam sarf bo'ladigon tomonlarini korib chiqishimiz kerak, albatta zamondan chetda qolmagan holda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qabul qilingan Harakatlar Strategiyasi, 2017 y., 7 fevral.
2. "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasini "Ta'lim tog'risida"gi Qonun. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.:SHarq, 1998
4. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.:SHarq, 1998
5. Z.C.Abdullaev, S.C.Mirzaev, G.Shodmonova, N.B.Shamsiddinov Informatika va axborot tehnologiyalari, T., 2012y.

WIFI TEXNOLOGIYASI TUSHUNCHASI VA UNING ASOSIY ISHLASH PRINSIPI

Uzganboyeva M. – talaba, TIQXMMI

Аннотатсия

Ushbu maqolada, **WiFi** tushunchasining yaratilish tarixi va mohiyati, bu texnologiyaning vazifasi, bajaradigan funksiyasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. WiFi simsiz aloqa o'rnatish texnologiyasi IEE802.11 standarti asosida ishlaydi. Bunda ushbu texnologiya IEE802.11 standartga to'g'ri keladigan qurilmalar bilan ishlay oladi, hamda WiFi texnologiyasining asosiy qismi bu **router** hisoblanishi yoritilgan.

Wi-Fi tushunchasi (texnologiyasi) ancha rivojlanib ketdi, u haqida hammada har xil fikrlar, baxslar bo'lmoqda. Hatto ba'zilar bu terminni noto'g'ri tushunishi yoki noto'g'ri joyda ishlatilishini siz ham sezgan bo'lsangiz kerak. Bu tushuncha internet tushunchasi bilan sinonim bo'la olmaydi. Bu bir texnologiya, ya'ni simsiz aloqa o'rnatish texnologiyasi bo'lib, internet, tarmoq qurish uchun vosita hisoblanadi. Wi-Fi dastlab "Wireless Fidelity" ya'ni, "simsiz aniqlik" deb yuritilish odat tusiga kirgan, texnologiya yaqin kunlarda ommalashgan bo'lishiga qaramasdan, uning tarixi 1991-yilga borib taqaladi. Bu simsiz aloqa o'rnatish texnologiyasi bo'lib, **IEEE802.11** standarti asosida ishlaydi. Shu standartga to'g'ri keluvchi qurilmalar Wi-Fi texnologiyasi bilan ishlay oladi. O'z navbatida simsiz aloqa texnologiyasi ma'lum bir tashuvchisiga ega bo'lishi kerak, bu tashuvchi chastota deb yuritiladi, chastota orqali har xil signallar uzatiladi va qabul qilinadi. Signallarning bir biriga halaqit bermasligi uchun umumiy standart bo'lib, bu standartda qaysi signal qaysi chastotada uzatilib, qabul qilinishi belgilab qo'yilgan[1]. Wi-Fi texnologiyasi orqali uzatiladigan signallar, o'rtacha 2.4 GGts chastotada uzatiladi. Wi-Fi texnologiyasini ishlatish uchun, uzatuvchi va qabul qiluvchi qurilma kerak bo'ladi. Bular o'rtacha 2.4 GGts chastotadagi signallarni qabul qilib, uzatadi. Bu yerdan texnologiyaning dastlabki kamchiligi paydo bo'ladi, ya'ni bu chastotada boshqa qurilmalar ham ishlaydi (bluetooth), demak bir biriga biroz halaqit berishi mumkin.



1,a-rasm. WiFi qurilmasining 1,b-rasm. WiFi texnologiyasi bilan ishlay oladigan (korpussiz) ichki ko'rinishi. qurilmalar.

WiFi uzatuvchi sifatida WiFi routerdan foydalaniladi, bunday router chiqaradigan firmalar soni yetarlicha, misol uchun TP-LINK, ASUS, Linksys, ZyXEL.


Router- bu ikki va undan ortiq turli xildagi tarmoqni bir-biri bilan bog'lab beruvchi qurilmadir. Router (Marshurtizator) dastur va qurilma ko'rinishida bo'ladi. Eng soddaroqda, kamida ikkita port mavjud bo'ladi. Bular, WAN port va LAN port hisoblanadi. WAN portga turli texnologiyalarga mansub tarmoq – xDSL, Frame Relay, ATM va boshqa kabilar ulanishi mumkin. LAN portga Ethernet texnologiyasiga tegishli tarmoq ulanadi. Router marshrutizatsiya jadvaliga asoslangan holda ishlaydi[2]. U ikki xil ko'rinishda bo'ladi: dinamik va statik marshrutizatsiyalar. Dinamik marshrutizatsiya, ko'rinishidan qulay, uni sozlash shart emas. U o'ziga ulangan barcha qurilmalar to'g'risida ma'lumotni saqlaydi, vaqti- vaqti bilan tarmoqqa paketlar jo'natib turadi va ulardan qaytgan javob orqali tarmoqni xotirasida quradi. Ammo bu routerni ko'proq ishlashiga sabab bo'ladi (yuklama ko'payadi). Xavfsizlik jihatdan ham mukammal deb bo'lmaydi. Statik marshrutizatsiya esa tarmoq xavfsizligining barcha talablariga

javob beradi. Unda tarmoq marshruti avvaldan yozib qo'yiladi. Barcha paketlar ushbu router bo'yicha harakat qiladi.

Demak, routerdan chiqqan signalni qabul qilish uchun, qabul qiluvchi mikro qurilma kerak bo'ladi, bu qabul qilgich zamonaviy telefonlar ichida, noutbuk, netbuk ichlarida joylashgan bo'ladi, yoki bo'lmasa, alohida jihoz sifatida ham bo'ladi. Odatda statsionar kompyuterlarda qabul qilgich qurilma bo'lmaydi, ya'ni WiFi router orqali jo'natilgan signallarni qabul qila olmaydi, bu muammoni yechish uchun USB, PCI portlarga ulanadigan WiFi signallarni qabul qiluvchi, IEEE802.11 standarti asosida ishlaydigan jihozlar ulanadi. Umumiy oladigan bo'lsak, WiFi texnologiyasini, bitta uzatuvchi qurilma, atrofida bir necha qabul qiluvchi qurilma shaklida tasavvur qilish mumkin. Uzatuvchi va qabul qiluvchi bo'lgandan so'ng, bu texnologiyani internetga chiqish, lokal tarmoq qurish maqsadlarida ishlatish mumkin. Hozirda ko'p insonlar WiFi texnologiyasi asosida tarmoq qurib, o'yinlar ham o'ynashadi, demak, WiFi tushunchasida faqat internet tushunilmas ekan. WiFi texnologiyasi orqali har xil ishlarni amalga oshirish mumkin ekan, internetga chiqish esa shu imkoniyatlardan biri[3].



2-rasm. WiFi qurilmasining tashqi ko'rinish modellari



3-rasm. WiFi texnologiyasining ishlash tezligi IEEE802.11 standartining bir necha turiga ko'ra

IEEE802.11 standartining bir necha turiga quyidagilar kiradi:

- IEEE802.11a;
- IEEE802.11b;
- IEEE802.11c;
- IEEE802.11g;
- IEEE802.11n.

Bularning farqi signal uzatish tezligi va uzoqligidadir[4]. Qanchalik tezlik katta bo'lsa, masofa qisqaradi, bu fizika kursidan eslatma.

Demak, bu texnologiyani biz robotatexnika va mexatronika sohalarida ham sinab ko'rsak bo'ladi. Unda robotlarni uzoq masofadan boshqarish, u bilan aloqalar o'rnatish mumkin bo'lar edi. Mamlakatimizda hozirda yuqoridagi ikki sohaga katta e'tibor qaratilgan, jumladan, Innovatsion G'oyalar Vazirligining tashkil etilishi kelajakda bizning yoshlar tomonidan bu sohada yangiliklar va ixtirolar yaratilishi uchun zamin bo'ladi. Ishlab chiqarishda esa inson faktorining roli kamayadi.

Xulosa

Maqolamda WiFi haqida umumiy tushuncha, bu texnologiyaning asosi bo'lgan router haqida ham ko'proq ma'lumot berishga harakat qildim. Bu qurilma yigirma birinchi asr texnologiyasi bo'lib, internet tarmog'i va ko'plab shu kabi sohalarda aloqalar yaratish, ma'lumot olish uchun foydalanilmoqda. Masalan, ayni hozirda, ko'p kafe, restoran, katta binolar, ofislar va do'konlarda WiFi texnologiyasining emblemasini ko'rishingiz mumkin. Bu belgi shu joyda (binoda) WiFi asosida ishlaydigan internet mavjud deganidir, ya'ni qabul qiluvchi router mavjud, qabul qilgich bo'lsa bas. Shuni ham hisobga olish lozimki, WiFi routerga parollangan

bo‘lishi ham mumkin, bunda sizning qabul qiluvchi qurilmangiz, uzatuvchi qurilmaga ulana olmaydi (agar parol sizga noma’lum bo‘lsa).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Edward Halpin., Philippa Trevorrow., David Webb and Steve Wright., “Syberwar, Netwar and the Revolution in Military Affairs” 2006.,136-bet.
2. United States: US Navy’s Unified Atlantic Region Network Operations Centre (UARNOC)(n.d., probably July 1998). Available at http://www.chips.navy.mil/archives/98_jul/c_ews3.htm (Accessed 26 April 2003).
3. www.ziyo.uz.
4. www.google.uz

Ilmiy rahbar

ass. Kimsanov Sh.

TA’LIM SOHASIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI

Maxmudova N.D. - talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada texnika – texnologiyalarning rivojlangan davrida zamona talabiga mos, malakali, yetuk kadrlarni tayyorlashda ta’lim tizimini yanada rivojlantirish yo‘llari va ta’lim sohasida axborot - texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari to‘g‘risida ko‘rib chiqilgan va fikr mulohazalar bildirilgan.

Hozirgi kunda Respublikamizda yuksak malakali va yangicha dunyoqarashga ega bo‘lgan milliy kadrlarni tayyorlash, xayotimizda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masalalar qatoridata’lim- tarbiya tizimini tubdan islox qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazish dolzarb masala bo‘lib qoldi. “XXI asr – axborot texnologiyalari asri” deb bejiz aytilmagan. Bugungi kun ta’limining asosiy maqsadlaridan biri zamonaviy ta’lim tizimida yuqori sifatli texnologiyalarni joriy etib, ta’lim samaradorligini oshirish va ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim jarayoniga axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko‘lamda joriy etishdan iborat. Ta’lim sifatini oshirishda amalga oshirilayotgan ishlar xaqida gap ketganda, ta’lim berish jarayonini ezgulik ko‘prigiga o‘xshatamiz, bu ko‘prikdan o‘quvchilarimizni bilimli, dunyoqarashi keng qilib olib o‘tish ustozni, ya’ni o‘qituvchilarni vazifasi deb bilamiz.

Mamlakatimizda zamonaviy axborot - kommunikatsion va pedagogik texnologiyalari o‘qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Axborot kommunikatsion texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llash jahon amaliyotida keng qirrali bo‘lib, unga pedagogik, psixologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtai nazarlaridan yondashish lozim. Dars jarayoni murakkab ijodiy mashg‘ulotdir. Uning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchilarning faolligiga bog‘liq. Ularni faollashtirish uchun axborot texnologiyalari, o‘yin, bahs, suhbat, musobaqa, sayohat, konferensiya, davra suhbat, rolli o‘yinlarni qo‘llash, kitob bilan ishlash, kompyuter mashg‘ulotlariga ko‘proq vaqt ajratish kerak. Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o‘rinli qo‘llanilishi, mashg‘ulotlarning qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelishi bilan o‘quv materiallarining chuqur o‘zlashtirilishiga keng imkoniyat yaratib beradi. O‘quvchi bilimlarni narsa va hodisalarni bevosita kuzatish orqali, sezgilar vositasida bilib oladi. Buni Kamenskiy ta’limning oltin qoidasi deb atagan. Sezgilar vositasida mukammal idrok qilingan narsalar, hodisalar xotirada uzoq va mustahkam saqlanadi. Inson o‘quv axborotlarini ko‘z va qulog‘i yordamida qabul qiladi. Quloq 15500 ta sezgir elementlarga, ko‘z esa 126 million sezgir

elementlarga ega ekan. Pedagog olimlarning ta'kidlashicha, agar ta'lim jarayoni axborot texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar bilan o'quvchining shaxsiy ishtiroki, faolligida kechsa, o'zlashtirish sifati va samaradorligi 90%ni tashkil etar ekan. Bugungi kunda ta'lim tizimini rivojlantirishni axborot texnologiyalarsiz tasavvur qilish mumkin emas, chunki bu texnologiyalarning fanlar bo'yicha turli mavzularni ko'rgazmali va tushunarli shaklda bayon qilish imkoniyatlari juda katta desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Ta'limning sifati oshirish uchun, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarni takomillashtirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni keng joriy etish taqozo etiladi. Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning bugungi kundagi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona va to'g'ri foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyatini yaratib berish zarur va shartdir. O'qitish sifati oshirish uchun esa, o'qitish metodikasini tubdan takomillashtirishni va rivojlantirishni taqozo qiladi. O'qitish metodikasining takomillashtirish esa o'qituvchining turli-tuman texnikaviy vositalardan foydalanishiga bog'liq.

Umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'limni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ta'limni boshqarishni takomillashtirishni taqozo etadi. Ilg'or o'qituvchilar faoliyati o'rganilganda, o'quvchi va talabalarga nisbatan ishonch, mustaqil fikrlashga imkon yaratish, hamkorlik qilishga intilish yaqqol ko'zga tashlanadi. Ta'lim jarayonida tashkil etilayotgan turli tadbirlarni tayyorlashga noan'anaviy yondashuv tadbir jarayonini qiziqarli qiladi. Ta'lim berish jarayonida yangi texnik vositalar, kompyuter va boshqa axborot texnologiyalarining jadal sur'atlarda kirib kelayotgan hozirgi davrida fanlararo uzviylikni ta'minlash maqsadida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalalardan biridir Respublikamizda keng ko'lamli islohotlar natijasida zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish va ularni xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'llash, shu jumladan o'quv jarayoniga zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini keng joriy etishga ham keng imkoniyatlar yaratilgan. Ta'lim jarayonida texnik vositalardan foydalanish juda muhim o'rinni egallaydi. Ushbu vositalar yordamida mashg'ulotlarni zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda olib borish hamda ta'lim oluvchilarning diqqatini jalb etishda keng foydalanish mumkin. Ta'lim beruvchi texnika vositalari, ya'ni kompyuterlar, elektron darsliklar, internet tizimi va boshqa vositalar o'quv axborotini o'zlashtirilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni ta'lim oluvchilarga yetkazib beruvchi texnik vositalardir. Axborot beruvchi texnika vositalariga turli elektromexanik asboblari, mashg'ulotda ko'rgazmali tasvirlarni ko'rsatishga mo'ljallangan demonstratsion ossillograflar va ularning o'lchov asboblari, shuningdek, televizor, videoprojektor, smartfon mobil aloqa vositalari, tovushli multimedia texnologiyalari va boshqa vositalar kiradi.

Hozirgi kunda multimedia, kompakt disklar orqali ta'lim jarayonida texnik vositalardan foydalanib dars o'tilmoqda. Jumladan, multimedia-ma'lum bir soatga mo'ljallangan, ovoqli, dasturli, rejali, DTS ga mos keladigan dars shaklidir. Undan foydalanish uchun mavzuga oid bo'lgan ma'lum bir soatga mo'ljallangan holda mutaxassislar tomonidan multimedia yaratiladi. Matndagi mavzuni ekrandagi multimedaning o'zi mazmunli, sifatli qilib yaratib beradi. Texnik vositalardan foydalanib dars o'tishda ilg'or ish tajribali o'qituvchilar va mutaxassislar amaliy holda dars mazmuniga kiritish jarayonlarini video tasmlarga yoki disklarga ko'chirilib tarqatilsa, bu vositalar o'quvchilar tomonidan qayta ko'rilib, mavzuni chuqur o'zlashtirilishiga katta hissa qo'shadi, tahsil oluvchilar faolligi oshadi, mustaqil, ijodiy ishlaydilar, erkin fikr yuritadilar, darsda zamonaviy usul bilan ishlashga o'rganadilar, kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonlikka ega bo'ladilar, darsni texnik vositalar yordamida tashkil etishni o'rganadilar, tahsil oluvchilarning dunyoqarashlari o'sadi, faolligi yanada, oshadi, qiziqishlari oshadi, ta'lim jarayonida elektron ma'lumotlar bazasidan foydalanish, ekspert tizimlarni qo'llash, elektron kutubxonalardan kerakli adabiyotlarni qidirish va kitobning elektron variantidan foydalanish, videoaloqalar yordamida dars jarayonlarini tashkillashtirish, telekonferensiyalarni uyushtirish va jamoa bo'lib ta'lim olishni tashkillashtirish, internet

texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash ishlarini amalga oshirish mumkin, ixtiyoriy fanni o'qitish jarayonida taqdimotlardan foydalanib ta'lim berishni tashkillashtirish, videomateriallardan foydalanish, tovushli taqdimotlarni tayyorlash, videoma'ruzalarni tashkillashtirish, virtual laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish, fanga tegishli videosayohatlarni uyushtirish ta'lim jarayonida o'quv materiallarini chuqur o'rganishga, ko'rgazmali dars usullaridan foydalanib, ta'lim olish hamda ta'lim berish samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Zamonaviy pedagogik kontseptsiyalarda ta'lim berish faqatgina o'qituvchidan - o'quvchiga bilimlarni berish jarayoni sifatida qaralmaydi. Ta'lim berishni zarur bo'lgan mahorat va ko'nikmalarni ishlab chiqish jarayoni sifatida qarash ham uncha to'g'ri bo'lmaydi. Yangi axborot texnologiyalari vositalari ta'lim oluvchilarni turli xil zamonaviy o'qitish vositalari bilan ta'minlaydi. An'anaviy o'quv qo'llanmalari va konspektlardan tashqari ta'lim oluvchilarga zamonaviy o'qitish vositalari ham taklif etiladi. Masalan, o'tkaziladigan seminar – treninglarda, o'rta va oliy ta'lim muassasalaridagi dars mashg'ulotlarida dars o'tishning zamonaviy metodlaridan, brain storming, case, zigzag, cluster, project kabilardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1-rasm



Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ta'lim sohasida pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan, internet axborot ta'lim resurslaridan hamda konferensiya usulidan foydalanish o'quvchi talabalarning olayotgan bilimlarni yuqori saviyada bo'lishida samarali yordam beradi va ularning kelgusida malakali mutaxassislar bo'lib chiqishiga imkoniyat yaratadi. Fan sohalari bo'yicha lozim materiallar bilan didaktik portfelni to'ldirish bilan bir qatorda ta'lim muassasasining pedagog - o'qituvchilari haqida umumiy ma'lumotlar pedagogik tajribasi, ma'lumoti, malaka oshirganligi haqida ma'lumot, yutuqlari, chop qilingan o'quv-uslubiy materiallarini ham kiritish muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muassasasida Internet-muhitni yaratishning bir e'tiborli jihati shuki, u ham bo'lsa talabalarni psixologik-pedagogik quvvatlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Другов А. Проблемы и направления модернизации высшего образования в Украине/ А.Другов /Вестник КНЕТУ-2007-№5- с 127-134
- 2.Tulenov J. Gafurov Z. Falsafa. T. «O'qituvchi» 1997 y. 382 b
- 3.Айдрус И.А., Филиппов В.М. Мировой рынок образовательных услуг: Учеб. пособие. – М.: РУДН, 2008. – с 66.
4. www.president.uz
5. www.lex.uz
6. www.ZiyoNet.uz

Ilmiy rahbar

dots. Tabayev A.Z.

STEREOMETRIYA MASALALARINI YECHISHDA ZARUR BO‘LGAN SINUSLAR ORASIDAGI BOG‘LANISHLAR

Musayev S.S.– talaba, TIQXMMI

Annotatsiya



Ushbu maqolada geometriyaning stereometriya bo‘limidagi ikki yoqli burchaklarga doir masalalarni yechishda, sinuslar orasidagi bog‘lanishlardan foydalanish usullari ko‘rsatilgan.

Asosiy maqsadi: Stereometriya bo‘limiga oid masalalarda ikki yoqli burchaklar qatnashgan masalalarni yechishda optimal variantlardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ko‘pgina stereometriya masalarini yechishda ikki yoqli burchak bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi holatlar nafaqat o‘quvchilarda, balki o‘qituvchilarda ham bir oz qiyinchiliklar tug‘diradi. Har bir masalani yechishda o‘ziga xos topqirlik, ayrim yondashuv talab qilinadi. Shu sababli biz bir nechta masala orqali burchaklar sinuslari orasidagi murakkab bo‘lmagan bog‘liqlikdan samarali foydalanish mumkinligini ko‘rsatib o‘tmoqchimiz [1].

Buning uchun avval ikki yoqli burchak to‘g‘risida to‘liq tushuncha hosil qilish uchun, ikki yoqli burchakka ta’rif beramiz.

Ixtiyoriy kesishuvchi ikkita tekislik berilgan bo‘lsin. Ularning kesishgan to‘g‘ri chizig‘iga perpendikulyar tekislik o‘tkazamiz. Bu tekislik berilgan tekisliklarni ikkita to‘g‘ri chiziq bo‘yicha kesadi. Bu to‘g‘ri chiziq orasidagi burchak berilgan *tekisliklar orasidagi burchak* yoki *ikki yoqli burchak* deyiladi.




Kesishuvchi ikkita tekislikning kesishgan to‘g‘ri chizig‘iga perpendikulyar bo‘lgan uchinchi tekislik ularni perpendikulyar to‘g‘ri chiziq bo‘yicha kesib o‘tsa, bu ikki tekislik *perpendikulyar tekisliklar* deyiladi.

Agar tekislik boshi bir tekislikka perpendikulyar to‘g‘ri chiziq orqali o‘tsa, bu tekisliklar perpendikulyardir.


α va β tekisliklar bir-biri bilan o‘tkir burchak ostida kesishsin. CD – ularning kesishish chizig‘i, φ – tekisliklar orasidagi burchak, α tekislikdagi A nuqtadan β tekislikkacha bo‘lgan masofa AF , A nuqtadan tekisliklar kesishish chizig‘igacha bo‘lgan masofa OA bo‘lsa, ΔOAF dan $AF=OA \cdot \sin \alpha$ o‘rinli bo‘ladi. (1-chizma).

φ burchakli ikki yoqli burchakning ichki qismida M nuqta olingan bo‘lib, M nuqtadan ikki yoqli burchakning α tomonigacha bo‘lgan masofa MN , β tomonigacha bo‘lgan masofa MP , M nuqtadan ikki yoqli burchakning qirrasigacha bo‘lgan masofa MD (2-chizma) [3].



D α


1-chizma.



F

2-chizma.

1-masala. α ga teng bo'lgan ikki yoqli burchakning bir yog'ida ikki yoqli burchak qirrasi bilan β burchak tashkil qiluvchi to'g'ri chiziq o'tkazilgan. Shu to'g'ri chiziqning ikki yoqli burchakning boshqa yog'i bilan tashkil qilgan burchagini toping.




Yechilishi. Aytaylik, yoqlari δ va σ bilan belgilangan ikki yoqli burchakning $\angle ABC$ chiziqli burchagi α va AB to'g'ri chiziq δ ga tegishli bo'lsin. Shartga ko'ra, $\angle ADC = \gamma$ va $\angle ADB = \beta$. Shuningdek, $AC \perp \sigma$ bo'ladi va $\angle ADC$ – qidirilayotgan burchak. Endi, $\angle ADC = \gamma$ va $AD = x$ deb olamiz. ADB , ABC va ADC to'g'ri burchakli uchburchaklardan $AB = x \sin \beta$, $AC = x \sin \beta \sin \alpha$, $\sin \gamma = AC : AD = \sin \alpha \sin \beta$ larga ega bo'lamiz. Demak, $\sin \gamma = \sin \alpha \sin \beta$ (1) bog'lanish yuqorida ta'kidlangan bog'lanishni ifodalaydi.

Yuqorida berilgan ikki yoqli burchakning o'tkir burchak bo'lgan holi ko'rildi.

Ikki yoqli burchak o'tmas bo'lganda ham keltirilgan munosabat o'rinli bo'ladi. Agar ikki yoqli burchak to'g'ri bo'lsa ($\alpha = 90^\circ$), geometrik mulohazalardan va (1) formuladan $\gamma = \beta$ ekanligi kelib chiqadi.

(1) tenglikning masala yechishdagi qo'llanilishini ko'rib chiqamiz [2].

2-masala. Asosining tomonlari a va yon qirralari bilan α burchak tashkil qiluvchi uchburchakli to'g'ri piramidaning hajmini toping.



Yechilishi. Shunga ko'ra, $SABC$ uchburchakli to'g'ri piramidada $AC = a$ va AC bilan SBC tekislik orasidagi burchak α ga teng. Ikki yoqli burchakning BC qirradagi chiziqli burchagini β deb olamiz. U holda piramidaning hajmi

$$V = \frac{1}{3} \cdot \frac{a^2 \sqrt{3}}{4} \cdot \frac{a \sqrt{3}}{6} \operatorname{tg} \beta = \frac{a^3 \operatorname{tg} \beta}{24} \text{ ga teng bo'ladi.}$$


β burchakni topish uchun (1) tenglikdan foydalanamiz va unga mos ravishda γ o'rniga α , α o'rniga β va β o'rniga $\frac{\pi}{3}$ larni qo'yib:

$$\sin \alpha = \sin \beta \cdot \frac{\sqrt{3}}{2} \text{ va } \sin \beta = \frac{2}{\sqrt{3}} \sin \alpha \text{ ni topamiz. Endi}$$

$$\operatorname{tg} \beta = \frac{\frac{2}{\sqrt{3}} \sin \alpha}{\sqrt{1 - \frac{4}{3} \sin^2 \alpha}} = 2 \sqrt{\frac{\sin^3 \alpha}{\sin 3 \alpha}}$$

ni hisoblab, izlanayotgan to‘g‘ri piramidaning hajmi $V = \frac{a^3}{12} \sqrt{\frac{\sin^3 \alpha}{\sin 3 \alpha}}$ ga teng ekanligini keltirib chiqaramiz.

3-masala. ABCD kvadrat tekisligi bilan ixtiyoriy T tekislik orasidagi burchak α , shu tekislik bilan AB tomon orasidagi burchak β ($\beta < \alpha$) ga teng. AD tomon bilan T tekislik orasidagi burchakni toping.



Yechilishi. ABCD kvadrat tekisligini o‘z ichiga oluvchi δ tekislik T tekislik bilan ikki yoqli burchak tashkil qiladi va bu berilgan shartga ko‘ra α ga teng. U holda kvadratning A uchi qaralayotgan ikki yoqli burchakning qirrasida yotadi. BFB_1 va DED_1 burchaklar bu ikki yoqli burchakning chiziqli burchaklari va shuning uchun $\angle BFB_1 = \angle DED_1 = \alpha$, AB_1 va AD_1 kesmalar AB va AD tomonlarining T tekislikdagi proyeksiyalari. Shartga ko‘ra, $\angle BAB_1 = \beta$, bunda $\beta < \alpha$. $\angle BAF = \varphi$ va $\angle DAD_1 = \gamma$ bo‘lsin. Masalada γ ni topish talab qilinadi.

AD tomonga bog‘liq bo‘lgan burchaklarga (1) tenglikni qo‘llaymiz va $\angle DAE = 90^\circ - \varphi$ ni e‘tiborga olib,

$$\sin \gamma = \sin \alpha \sin(90^\circ - \varphi) = \sin \alpha \cos \varphi$$

ni hosil qilamiz. Endi AB tomonga bog‘liq bo‘lgan burchaklarga (1) tenglikni qo‘llab

$$\sin \beta = \sin \alpha \sin \varphi \text{ yoki } \sin \varphi = \frac{\sin \beta}{\sin \alpha} \text{ ni topamiz.}$$

$\cos \varphi$ ning qiymatini hisoblab, so‘nggi natijani olamiz:

$$\sin \gamma = \sqrt{\sin(\alpha + \beta) \sin(\alpha - \beta)} = \sqrt{\sin^2 \alpha - \sin^2 \beta}$$

$$\text{yoki } \gamma = \arcsin \sqrt{\sin^2 \alpha - \sin^2 \beta}.$$

Xulosa

Geometriyaning stereometriya bo‘limida ikki yoqli burchaklar bilan ishlashda, keltirilgan mulohazalardan foydalanish, masalaning yechimiga tushunarli va aniq olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ш. Курбанов. Национальная модель по подготовке кадров. Тошкент «Маърифат». 1999.
2. А.С. Границкая. Научить, думать и действовать. Москва. Просвещение. 1991.
3. М. Usmonov “Geometriya+” ma’lumotnoma 2-qism.

Имий rahbar

Safarboyeva N.M.

QISHLOQ XO'JALIGI QO'LLANILADIGAN MATEMATIKANING AHAMIYATI

Vahobov J.A. – talabasi, TIQXMMI

Аннотатсија

Мақоллада бугунги кундаги қишлоқ хо'жалигидаги математиканинг о'рни, аhamiyati, qo'llanish soxalari va usullari haqida fikr yuritilgan. Aniq hayotiy misollar orqali matematik formula va metodlar yordamida turli masalarni yechish usullarini ko'rsatishga harakat qilingan.

Matematika - dunyodagi eng eski va eng elementar ilmlardan biridir. Matematika turli sohalarda keng qo'llaniladi, biroq sanoat, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi sohasida alohida ahamiyatga ega. Matematika turli sohalarda va hayotdagi turli funksiyalarda muhim o'rin tutadi. Matematika ikkita toifaga kiradi: nazariy matematika va amaliy matematika. Ishlab chiqarish sohasida ishlayotgan matematiklar tez-tez nazariy va amaliy matematikani o'zlarining ishlarida birlashtirish kerakligini juda yaxshi biladilar. Matematika ko'p jihatdan qo'llaniladi: boshqaruv, operatsiyalar, ishlab chiqarish sohalarida. Ayniqsa, qishloq xo'jaligida matematika muhim ahamiyatga ega. Fermerning muvaffaqiyat qozonishi uchun matematik tadqiqotlar va bilimlarning boyligi talab qilinadi.



Аgar siz matematika kerak emas deb hisoblasangiz, siz qishloq xo'jaligidan voz kechishingizga to'g'ri keladi! Аgar ushbu sohalar bilan yaqindan tanish bo'lsangiz va sinchiklab o'rganib chiqsangiz sohada qancha matematik raqamlar borligiga hayron bo'lishingiz mumkin. O'zingizning bilimingizni, malakangizni va iqtidoringizni maydonlarda o'simlik o'stirish ishlarida yoki turli dunyo mamlakatlarida dehqonchilik hosildorligini maksimal darajada oshirishga qaratgan professional bo'lsangiz ham, o'z maydoniga ega bo'lib dehqonchilikni boshlamoqchi bo'lgan yangi fermer bo'lsangiz ham, sizdan matematikani bilish talab qilinadi.

Keling, matematika, qishloq xo'jaligi va fermerlik sohalarida ishlaydigan, tadqiqot qilayotgan insonlarning qishloq xo'jaligida matematika bilan erishish va hal qilinishi mumkin bo'lgan 7 ta sabab va usullarni ko'rib chiqamiz.

1. Matematika sizga yaxshi iqlimiy modellarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Qishloq xo'jaligida aniq ob-havo prognozlarini mavjud. Turli matematik modellar tufayli havo namunalarini to'g'ri loyihalashtirish orqali bizning imkoniyatlarimiz yillar davomida asta sekinlik bilan yaxshilandi.

2. Matematika tuproq tahlilining aniqligini oshiradi.

Matematik ko'nikmalar tuproqning kislotalik darajasini va namlik miqdorini tahlil qilish uchun foydalidir. Olingan o'lchov va monitoring fermerlarga tuproqdagi o'simliklar turlarini va bu jarayon uchun ishlatilishi kerak bo'lgan o'g'itlar turini aniqlash imkonini beradi.

3. Matematika o'g'itlar uchun kimyoviy tarkibni tahlil qilishni yanada aniqroq qiladi.

O`g`itlar odatda turli xil kimyoviy tarkibiy qismlardan tashkil topgan. Dehqonlar qaysi ekinlar uchun va kerakli miqdordagi mahsulot olish uchun zarur bo`lgan kimyoviy ozuqalarni aniqlashlari kerak. O`g`itlarni kerakli miqdorda qo`llash kerak. Aks holda rentabellikga olib kelishi mumkin va bu daromadga jiddiy ta`sir qiladi. Fermerlar kimyoviy moddalar va o`g`itlarni ekinlarga qo`llashda matematikadan keng foydalanadilar. Bir dehqon, taxminan 160 gektar maydonda gektariga 8 L dan jami 1280 (8x160) L kimyoviy moddani ishlatishi mumkin va buning uchun sotib olinishi kerak bo`lgan kimyoviy moddalarni bilishi kerak. Vegetatsiya davrida turli xil ekinlar uchun turli xil miqdorlarda turli kimyoviy moddalar qo`llaniladi. Ba`zi kimyoviy preparatlar stavkalari yuqoridagi misolda bo`lgani kabi L / gektarida beriladi. O`g`it bilan ishlashda fermerlar muayyan ozuqa uchun ma`lum bir ozuqa moddasining qancha miqdorda kerakligini aniqlab olishlari va o`g`itni shunga mos ravishda qo`llashlari kerak.

Quyidagi formula qishloq xo`jaligida maxsus purkaluvchi kimyoviy o`g`itlar mutaxassislari tomonidan yerning ma`lum bir qismini buzadigan zarralar uchun galon sonini topishda ishlatiladigan hisob-kitobning misolidir:

$$\text{galon} = \frac{\text{Akr uchun: } 1 \text{ uchun)} \cdot 5 \text{ daqiqada } 940 \cdot \text{galon (bo`yi basti)}}{\text{km soat} \cdot \text{qator oralig`i (metrlarda)}}$$

4. O`lchov birliklari qishloq xo`jaligida deyarli har kuni ishlatiladigan zaruriy matematik ifodalardir.

Qishloq xo`jaligiga aloqador birliklar gektar, litr, tonna va gektar maydonlarni o`z ichiga oladi. Bularning barchasi matematik ko`nikma va bilimlarni talab qiladi. Misol uchun, yerlar gektar bilan o`lchanadigan bo`lsa, hosil tonna bilan o`lchanadi. Bu birliklarni tushunish va ularni real hayotda qo`llash qishloq xo`jaligi uchun zarurdir.

5. Rejalashtirish, uchastkalash va uchastkaning o`lchamlari va o`lchamlarini joylashtirish matematika, ayniqsa geometriyaga oid bilimlarni talab qiladi.

Yer uchastkasi ekinlarni ekish jarayonini hisobga olishda muhim omil hisoblanadi. Fermer xo`jaliklarining yillik hosilni o`zgaruvchan iqlim va ob-havo sharoitlari tufayli oldindan aytishlari qiyin bo`ladi. Shuning uchun fermerlar ba`zi-ba`zida hosildorlikni uchastkaning kvadrat tasvirini baholash yo`li bilan aniqlashlari kerak. Bu mavjud bo`lgan yer kattaligi bilan bog`liq rentabellikni taxmin qilish imkonini beradi. Geometriyani yaxshi bilish sug`orish paytida fermerlar uchun juda muhim qobiliyatdir.

Fermerlar dalalarda kimyoviy birikmalar bilan purkash ishlarini olib borishlari kerak. Kimyoviy mahsulotlar turli konsentratda xarid qilinadi va suv bilan aralashtirib tayyorlanishi kerak. Ko`pgina kimyo korxonalarini oldindan aralashmalar qanday tayyorlanishi haqida ko`rsatmalar beradi. Shunday bo`lsada, ko`p hollarda dalalarning maydoni, shakliga qarab ular qancha kimyoviy moddalar kerakligini, suvga qancha miqdorda aralashtirilishi va qancha miqdorda suv kerak bo`lishini aniqlash va bu jarayon qancha davom etishi kerakligini bilishlari kerak.

O`rim-yig`im tugaganidan keyin dehqonlar o`z urug`lari uchun qancha joy kerakligini aniqlashlari kerak. Fermerlar shoxobchada hosilni saqlash uchun qancha konteyner kerakligini formuladan foydalanib topishadi. Bunda hosilni hajmini (kub metrda) topish va chiqqan natijani konteyner o`lchamiga aylantirish orqali aniqlanishi mumkin. Bunda 1 barrel 1,244 kub futni tashkil qiladi. Bu jarayon ko`pincha chet elda qo`llaniladi. Fermerlar, shuningdek, qutichada saqlanadigan donning hajmini aniqlashni xohlashlari mumkin. Buni amalga oshirish uchun ular quyidagi formuladan foydalanadilar:

$$\text{Quti ichidagi don miqdori} = 0.8036 * x \text{ (uzunlik)} * y \text{ (kenglik)} * z \text{ (o`rtacha chuqurlik)}$$



1-rasm. Don konteynerlari.

6. Harajatlar va daromadlarni baholashni takomillashtirish

Narxlar tezlik va vaqt o'rtasidagi matematik munosabatni ko'rsatadi. Matematika yordamida qishloq xo'jaligi xodimlari daromadlarini nazorat qila oladi va ular turli jarayonlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni ham hisoblab chiqishlari mumkin. Buning uchun matematik ko'nikmalar zarur, chunki bu bilan fermerning barcha sarflangan mablag'ini hisoblab chiqish imkoni bor.

Fermerlar mashinalarni va sug'orish nasoslarini kalibrash uchun yanada ilg'or matematikadan foydalanishadi. Asosiy geometriya, nisbatlar, ko'paytirish va o'lchash ko'nikmalari fermerlar tomonidan har kuni ishlatiladi.

7. Matematika qishloq xo'jaligi usullarida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Barcha eng muhim yangiliklar negizida matematika mavjud. Bu qishloq xo'jaligi dunyosiga ham tegishli faktdir. Ilg'or matematika natijasida yaratilgan yangi innovatsion usullar fermerlarga qanday o'simliklarni qayerga ko'proq ekish kerakligini, qanday qilib yig'ib olishni ko'rsatadi. Bu bilan yordam qishloq xo'jaligida samaradorlik yanada oshadi.

Xulosa

Bularning barchasi qishloq xo'jaligidagi matematikaning muhimligi haqidagi sabablarning faqatgina 7 tasidir. Aslida matematika umuminsoniy bilimlar majmuasidir. Biz matematikadan har kuni, har lahzada o'zimiz anglamasakda foydalanamiz. Hech qanday shubha yo'qki, matematikani o'rganish va uni o'rgatish doim dolzarb mavzudir. Chunki, matematikaga jiddiy e'tibor berishimiz - qishloq xo'jaligimizdagi kelajagimizni hal qilargan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гатаулин А.М., Харинтова Л.А., Гаврилов Г.В. Экономика – математические методы в планировании сельскохозяйственного производства. –М.:Колос,1986;
2. Зайцев И.А. Высшая математика. –М.: «Высшая школа» 1991

Ilmiy rahbar

Komilova X.M.

МЕТОД ПОСТРОЕНИЯ ТОЧКИ В РАЗЛИЧНЫХ ОКТАНТАХ ПО СОВРЕМЕННЫМ ПЕДАГОГИЧЕСКИМ ТЕХНОЛОГИЯМ

Батирова А. – студентка ТИИИМСХ

Аннотация

Статья посвящена одному из разделов начертательной геометрии – ортогональной плоскости проекции точки расположенных в восьми октантах. Показана методика построения точки в пространственной координатной системе и в плоскостной проекции эпюры H , V и W .

Цель работы – совместными усилиями группы студентов проанализировать ситуацию – кейс, возникающую при конкретном положении точки A во всех восьми октантах и выработать практическое решение.

Данная работа является продолжением предыдущей темы, то есть выбираем первую тему и показываем методику построения точки A расположенных в восьми октантах в пространственной и плоскостной проекции плоскости.

На рисунках 1 и 2 показаны примеры проектирования точек, расположенных в различных октантах:




Рисунок 1. Проектирование точки A расположенных в I-IV октантах.

1. Точка **A** находится в первом квадранте (рисунок 2, а, б). Здесь горизонтальная проекция a' точки **A** расположена под осью OX , вертикальная проекция a'' – над осью OX , а профильная проекция a''' над осью OY_1 . При совмещении плоскостей проекций надо иметь в виду, что ось OY как бы распадается на две прямые, из которых одна остаётся на горизонтальной плоскости $H(OY)$, а другая – на фронтальной плоскости $W(OY_1)$. И между этими двумя осями OY и OY_1 образуется разрывная или нулевая плоскость, где не приводится ортогональные проекции точки, а используется для вспомогательной части чертежа, т.е. проводятся дуговые линии. Поэтому в эюре (рисунок 1, б) используется из имеющихся четырех плоскостей только три плоскости: $V; H; W$, а четвертая плоскость используется как вспомогательная плоскость, поэтому коэффициент использования плоскостей эюры будет $K = 1,0$.




Рисунок 2. Проектирование точки **A** расположенных в V-VIII октантах.

2. Точка **A** находится во втором квадранте (рисунок 1, в, г). Проектируя точку **A** на плоскости H и V , получим её проекции: горизонтальную a' – на задней полуплоскости H_1 , вертикальную a'' – на верхней полуплоскости V , а профильная a''' – также на задней полуплоскости W . При совмещении плоскости H с V задняя полуплоскость H_1 плоскости H перемещается вверх, а задняя профильная полуплоскость перемещается влево x фронтала V и ось проекции a' , a'' и a''' расположатся выше оси OX и на одном

перпендикуляр к ней, т.е. все точки a' , a'' и a''' располагаются в одной четверти плоскости эпюры, а остальные три четверти плоскостей не используются, поэтому коэффициент использования плоскостей эпюры будет $K = 0,25$.

3. Точка A находится в третьем квадранте (рисунок 1, д, е). Горизонтальная проекция a' будет лежать на задней полуплоскости H_1 , а вертикальная проекция a'' – на нижней полуплоскости V_1 , также профильная полуплоскость W_1 будет лежать на горизонтали H при совмещении плоскостей задняя полуплоскость H_1 перемещается вверх, потому горизонтальная проекция a' расположится выше оси OX , а вертикальная проекция a'' – ниже оси OX , также профильная проекция a''' – ниже оси OX . Здесь проекционные точки a' , a'' и a''' используются в двух четвертях плоскости, а остальные две четверти плоскости не используются, поэтому коэффициент $K = 0,5$.

4. Точка A находится в четвёртом квадранте (рисунок 1, ж, з) при совмещении плоскостей горизонтальная и вертикальная проекции a' и a'' расположатся ниже оси OX , так как нижняя полуплоскость V_1 и передняя полуплоскость H на эпюре лежат ниже оси OX , также в нижней части расположатся и профильная проекция a''' , только в правой части эпюры – ниже OY_1 . Здесь также проекционные точки a' , a'' и a''' используются в двух нижних четвертях плоскости эпюры, а остальные две верхние четверти не используются, коэффициент использования плоскостей эпюры, $K = 0,5$.

5. Точка A находится в пятом квадранте (рисунок 2, а, б), а ортогональная проекция a' лежит на передней полуплоскости H горизонтальная её проекция a' расположится под осью $O(-X)$, а вертикальная a'' над осью $O(-X)$, так как проектирующий луч лежит в плоскости V . Также профильная проекция a''' лежит в плоскости V над осью OY_1 . Здесь используются в двух четвертях с правой стороны эпюры, а остальные две четверти плоскости с левой стороны эпюры не используются, поэтому коэффициент будет $K = 0,5$.

6. Точка A находится на верхней полуплоскости эпюры (рисунок 2, а, б) вертикальная также проекция a'' располагается над осью $O(-X)$, а горизонтальная проекция a' расположится над осью $O(-X)$. Профильная проекция a''' расположится над осью $O(-Y)$. Здесь используются в двух четвертях верхней части, а остальные две четверти в нижней части не используются, поэтому коэффициент будет $K = 0,5$.

7. Точка A находится в седьмом квадранте (рисунок 2, в, г), а ортогональная проекция a' лежит на задней полуплоскости H_1 , горизонтальная её проекция a' расположится над осью $O(-X)$ и лежит выше оси $O(-X)$, вертикальная проекция a'' – расположится под осью $O(-X)$, а профильная проекция a''' расположится под осью $O(-Y)$. Здесь, $K = 1,0$.

8. Точка A находится в восьмом квадранте (рисунок 2, д, е), а ортогональная проекция a' лежит на нижней полуплоскости V_1 , вертикальная проекция a'' точки расположится ниже оси $O(-X)$, а горизонтальная проекция a' будет также лежать ниже оси $O(-X)$, также как и профильная проекция a''' – ниже оси $O(-X)$. Здесь все ортогональные точки a' , a'' и a''' располагаются в одной четверти плоскости эпюры, а остальные три четверти плоскости эпюры не используются, поэтому $K = 0,25$.

Все вышеизложенное позволяет сделать следующие выводы:

1. Имея две ортогональные точки, всегда можно построить по ним и третью её ортогональную проекцию.

2. Студентам наглядно видно, что из восьми октантов эпюры плоскостей наиболее благоприятным октантом является первый октант, так как коэффициент использования плоскостей эпюры является $K = 1,0$.

3. Из пространственной и плоскостной модели координатных плоскостей проекций для чтения чертежей приемлемым является плоскостная модель координатных плоскостей проекций – эпюра.

Литература

1. Фролов С.А. Начертательная геометрия. // Учебник. – М.:, 1998. 240 с.

Научный руководитель

доц. Алимов Б.М.

БАЪЗИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНЛАРИНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАРИ

Фарходов О. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Юқори малакали мутахассислар тайёрлашда табиий фанларнинг роли каттадир. Бу эса, бўлгуси мутахассислардан техника, медицина, иқтисодиёт, қишлоқ хўжалиги ва бошқа соҳаларга оид турли жараёнларнинг математик моделларини тузиш ва улар ёрдамида назарий ҳамда амалий масалаларни еча билишликни таққазо этади.

Мазкур мақола қишлоқ хўжалиги жараёнларини математик моделларига бағишланган бўлиб, тажриба маълумотлари асосида яратилган моделлар ва уларга доир мисоллар келтирилган.

Математик модел – реал ишлаб чиқариш жараёнини акс эттирувчи формал муносабатлар мажмуидир. Албатта реал ҳаётда учрайдиган жараёнларни муқобил математик моделлини яратиш ғоятда мураккаб вазифа. Шу сабабли баъзи шартлар билан тузилган математик модел асл ҳолдаги моделдан биров фарқ қилиши мумкин. Модел бирор жараён учун тузилаётганда қанча кўп таъсир этувчи факторлар эътиборга олинса, шунча тузилган модел аниқроқ бўлади (кўп ўзгарувчи функция шаклида қараганда). Шу сабабли, қишлоқ хўжалигидаги ишлаб чиқариш жараёнини математик моделини яратиш шу жараённи ривожлантириш қонуниятларини ўрганишда муҳим рол ўйнайди. Бу борада кўплаб илмий ва амалий тадқиқотлар ўтказилган. Масалан, XIX асрнинг ўрталаридаёқ немис олими Юстус Либих томонидан тупроққа солинган ўғит миқдори билан экин ҳосилдорлиги орасидаги боғланишни чизиқли модели,

$$y = y_0 + ax$$

атрофлича таҳлил қилиниб, тажрибалар асосида унинг параметрларини баҳолади. Бу ерда y_0 – ўғитсиз етиштирилган ҳосилдорлик миқдори (контрол), a – тайин бир ўғитни шу экин ҳосилдорлигига таъсирини характерловчи сон, x – солинган минерал ўғит миқдори, y – олинган ҳосилдорлик миқдори.

Кейинчалик Эвальд Вальни 1869 йилда қишлоқ хўжалик экини ҳосилдорлигига қуёш нури, сув ва минерал ўғитларни таъсирини ўрганиб, унинг математик моделини яратади.

XX асрни бошларида Митчерлик-Спилиан 15 йиллик тажриба натижасига асосланиб, солинган ўғит билан ҳосилдорлик орасидаги боғланишни юқорида ўрганилган чизиқли моделга қараганда қуйидаги модел яхшироқ характерланишини кўрсатади:

$$y = y_0 + A(1 - 10^{-kx}) \quad (1)$$

Бу ерда y_0 – ўғит солинмасдан олинган ҳосилдорлик ($x = 0$ да);

A – ўсимликнинг шу ўғитга энг юқори (максимал) талаб миқдори;

K – маълум бир ўғитнинг экин хосилдорлигига таъсирини характерловчи ўзгармас миқдор.

Масалан, бу сон $K = 0,8$ фосфор учун, $K = 1,1$ азот учун, $K = 0,4$ маҳаллий ўғит учун бўлади.

Айтайлик, бирор ишлаб чиқариш жараёнининг етиштирилган маҳсулоти миқдори y , n та ўзгарувчи x_1, x_2, \dots, x_n миқдорларга боғлиқ бўлсин,

$$y = \varphi(x_1, x_2, \dots, x_n)$$

Бу умумий кўринишдаги маълум бир қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш жараёнининг функциясини аниқ кўринишини ва уни параметрларини тажриба натижалари асосида энг кичик квадратлар усули билан топилади.


Қишлоқ хўжалиги жараёнларининг математик моделларига мисоллар келтирамиз.

1-мисол. Маълум вақт ичида сарфланган озуқа бирлиги x кг бўлса, y ҳолда маълум бир хайвоннинг тирик вазни y кг учун қуйидагича математик моделдан фойдаланишимиз мумкин:

$$y = \frac{ax}{b+x} - c \quad (2)$$

Бу ерда a, b, c – параметрлар.

Bu bog'lanish geometrik shaklda quyidagicha ifodalaniladi:



Бу ерда x – кундалик бериладиган озуқа миқдори кг ҳисобда.

(2) муносабатдан кўриниб турибдики, агар x – бериладиган озуқа миқдори 0 га тенг бўлса, y ҳолда хайвоннинг тирик вазни $y = -c$ бўлиб, y озикланишини билдиради. Агар $x \rightarrow \infty$ интилса, y ҳолда хайвоннинг тирик вазни $y \rightarrow a - c$ га интилади. (Албатта аслида x чекли сон бўлади).

Бу статистик моделнинг асосий камчиликларидан бири вақтга боғлиқ эмаслигидир.

Вақтга боғлиқ равишда ўзгарувчи моделга динамик модел дейилади.

2-мисол.

$$W = W_0 + bt \quad (3)$$

W – хайвон (ўсимликнинг) оғирлиги (узунлиги);

t – вақт;

W_0 – бошланғич оғирлиги(узунлиги)

b – параметр.

Динамик моделлар дифференциал тенглама кўринишида ҳам ифодаланади:

$$\frac{dw}{dt} = b \quad (4)$$

Моделдан кўринадики, хайвон (ўсимликнинг) ўсиш тезлиги ўзгармас бўлиб, $y = b$ га тенг бўлиши мумкин экан.

3-мисол. Қишлоқ хўжалик экинларини (Ўзбекистонда) алмашлаб экиш жараёнидаги ҳосилдорлигини ишлаб чиқариш функцияси қуйидагича аниқланади:

$$y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_{11}x_{11} = a_0 + \sum_{i=1}^{11} a_i x_i \quad (5)$$

Бу ерда, y – алмашлаб экилган экиннинг ҳосилдорлиги;

a_0 – асосий параметер;

a_i – регрессия коэффициенти ($i=1,11$);

x_1 – тупроқдаги гумис миқдори;

x_1, x_2, x_3 – азот, фосфор, калий миқдори;

x_5 – тупроққа солинадиган ўғит миқдори(нормаси);

x_6 – меҳнат сарфи (нормаси) миқдори;

x_7 – сув қуйиш нормаси;

x_8 – вегацион ишлов сони (такрорланиши);

x_9 – тупроқ бонитети, бали;

x_{10} – об-ҳаво шароити бали;

x_{11} – агрорелеф бали;

4-мисол. Италиялик иқтисодчи Парето капиталистик жамиятда даромадни тақсимланишини ўрганган. Агар y билан камида x сўм даромадга эга бўлган одамлар сонини белгиласак, y ҳолда қуйидаги қонуният ўринли эканлигини топган

$$y = \frac{a}{xm} \quad (6)$$

Бу ерда a , m ўзгармас сонлар.

Кейинг илмий изланишлар шуни кўрсатадики, Парето қонуни асосан юқори даромадли одамлар учун яхши натижа берар экан.

Масалан, $a = 24$ млрд. сўм ва $m = 1,5$ бўлса, $y = \frac{24 \text{ млрд. сўм}}{x^{1,5}}$ бўлади. (7)

Фараз қилайлик, бирор вилоятдаги одамларни даромад тақсимооти юқоридаги Парето қонуниятига эга бўлсин. Қуйидагиларнио топиш талаб этилсин:

- 1) 100 000 сўмдан кўп пули бўлган одамлар;
- 2) 100 та бойлардан энг кам даромадлисининг пул миқдори.

Ечиш.

$$1) \lg y = \lg(24 \times 10^9) - \lg 10^{5 \times 1,5} = \lg 24 + 9 + 7,5 =$$

$$= 1,5 + 1,3002 = 2,8002 \text{ ёки } y = 10^{2,8002} = 759 \text{ киши демак, тахминан } 759 \text{ кишида}$$

100 000 сўмдан ортиқ пул бор экан.

3) $y = 100$ бўлганда,

$$100 = \frac{24 \times 10^9}{x^{1,5}}, \quad 100x^{1,5} = 24 \times 10^9$$

$$1,5 \lg x + 0,2 = 9 - \lg 24, \lg x = 4,92 \quad x = 83180 \text{ сўм}$$

Демак, 100 та бойни ичида энг кам даромадлисини пули 83180 сўм бўлади.

5-мисол. Маккажўхорилардан олинадиган ҳосилдорлик 3 (гектарига центнердан), унга солинадиган ўғит учун сарфланадиган харажат X (сўмдан гектарига) ва уруғлик учун сарфланадиган харажат Y (сўмдан гектарига) га боғлиқ бўлиб қуйидаги ишлаб чиқариш функцияси,

$$Z = 15.63 \times x^{0.372} \times y^{0.159} \quad x > 0, y > 0 \quad (7)$$

тажриба маълумотлари асосида топилган. Бу ишлаб чиқариш функциясига доир наъмунавий масала келтирамиз.

Масала. Айтилик 1 гектар маккажўхори майдонидан фермер хўжалиги оладиган фойда,

$$P = MZ - x - y - k$$

бўлсин. Бу ерда М-1 центнер маккажўхорини баҳоси, k-х ва у га боғлиқ бўлмаган доимий харажатлар (суғориш, ишлов бериш ва х.к)

Маккажўхори ҳосилидан олинadиган фойда максимал (энг юқори) бўладиган Х ва У ларни топиш талаб этилсин. Икки ўзгарувчи функция экстрими мавжудлигини зарурий шартга кўра,

$$\frac{\delta p}{\delta x} = M \frac{\delta z}{\delta x} - 1, \quad \frac{\delta p}{\delta y} = M \frac{\delta z}{\delta y} - 1$$

Бу хусусий ҳосилларни нолга тенгласак,

$$\begin{cases} \frac{\delta z}{\delta x} = \frac{1}{M} \\ \frac{\delta z}{\delta y} = \frac{1}{M} \end{cases} \quad \text{система ҳосил бўлади.} \quad (8)$$

$$Z = 15.63 x^{0.372} \cdot y^{0.158}$$

функцияни $\frac{\delta z}{\delta x}$ ва $\frac{\delta z}{\delta y}$ хусусий ҳосилларини топиб (8) га қўямиз, натижада:

$$\begin{cases} \frac{15.63 \times 0.372 \times y^{0.158}}{x^{0.628}} = \frac{1}{M} \\ \frac{15.63 \times 0.158 \times x^{0.372}}{y^{0.842}} = \frac{1}{M} \end{cases} \quad (9)$$

ёки

$$\begin{cases} \frac{z}{x} \times 0.372 = \frac{1}{M} \\ \frac{z}{y} \times 0.158 = \frac{1}{M} \end{cases} \quad (10)$$

Охири системадан $x = 3,354$ келиб чиқади. Буни (9) га қўямиз:

$$\frac{5,8 \times y^{-0.470}}{2,35^{0.628}} = \frac{1}{M}, \quad 2.47 \cdot (2.35)^{0.372} \cdot y^{-0.470} = \frac{1}{M}$$

Бундан,

$$= 3.4^{2.13} \cdot M^{2.13} = 13.5M^{2.13}, x = 2.35y = 2.35 \times 13.5 \times M^{2.13} = 31.8M^{2.13} \quad y$$

Демак, ўғит ва уруғлик учун кетадиган харажатлар 1 центнер маккажўхорини баҳосига боғлиқ бўлиб, ўғит учун кетадиган харажат уруғлик учун кетадиган харажатдан 2.35 марта кўп бўлар экан.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Гатаулин А.М., Харинтова Л.А., Гаврилов Г.В. Экономика – математические методы в планировании сельскохозяйственного производства. –М.:Колос,1986;
2. Боярский А.Л. Математика для экономистов. –М.:1957г.;
3. Зайцев И.А. Высшая математика. –М.: «Высшая школа» 1991

Илмий раҳбар

доц. Вахобов В.

ТАРМОҚ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ АСОСИДА МУТАХАССИСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ

Абдикайимова Г.А. - ТДТУ., Тошпулатов Б. -талаба,ТИҚХММИ

Аннотация

Мақолада тармоқ технологиялари асосида мутахассислик фанидан ўқув жараёнини сифатли ташкил этишда тармоқ хизматларидан фойдаланиш ва улар асосида дарсни ташкил этиш ҳамда ўқувчиларни билим самарадорлигини ошириш методикаси ёритилган.

Президентимизнинг раҳномалигида олиб борилаётган ислохотларнинг биргина йўналиши, олий таълим тизимидаги ислохотларга назар ташлайдиган бўлсак, “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 29 апрелдаги ПҚ-2909-сонли қарори, “Олий маълумотли мутахассисларни тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 27 июлдаги ПҚ-3151-сон қарори, 2017 йил 24 майдаги “Қишлоқ ва сув хўжалиги тармоқлари учун муҳандис техник кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3003 Қарори, 2018 йил 8 майдаги “Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институтида олий маълумотли кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3702 Қарори, Президентнинг 2017 йил 7 февралда қабул қилинган 2017-2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устивор йўналишлари бўйича Харакатлар Стратегиясини ҳолатда муҳим аҳамиятга эга бўлиб, соҳада кадрлар тайёрлаш сифатини тубдан ўзгартириш ва замон талабларига мос баркамол мутахассисларни тайёрлаш борасида долзарб вазифаларни белгилаб берди [1,2,3,4].

Таълим тизимини ислоҳ қилиш, ўқув жараёнига ахборот технологиялари воситаларини олиб кириш ва ундан унумли фойдаланиш орқали дарс машғулотини самарали ўтишни таъминлаш каби кўплаб масалалар “Кадрлар тайёрлаш Миллий Дастури”да ҳам ёритилган. Унда “*Замонавий ахборот технологиялари, кампьютерлаштириш ва кампьютерлар тармоғи негизда таълим жараёнини ахборот билан таълим ривожланиб баради*” деган жумла келтириб ўтилган. Бундан кўриниб турибдики, кампьютер тармоқлари воситаларидан таълим жараёнида фойдаланиш, улардан таълим тизимида ахборот маконини вужудга келтириш ва шакллантириш кўзда тутилган.

Тармоқ технологияси – бу ҳисоблаш тармоғини етарли даражада ташкил этиш учун стандарт баённомалар ва техник–дастурий воситалар(масалан, тармоқ адаптери, драйвер, кабел ва разёмлар)нинг мослашган тўпламидир. Тармоқ технологиясининг махсус коммуникацион ускуналари кабелари, конденцаторлар, йўналтиргичлар, кўприклар, шлюзлар ва трансверлар асосида ўқувчилар кампьютерларда ахборотни узатиш ва қабул қилиш амалларини бажаришади.

Тармоқ технологияси асосида мутахассислик фанларидан таълим беришда фан ўқитувчилари ўқув хонада техник қурилмаларни ўз ўрнида қўллаш олиш, ўқувчиларга топшириқларни беришда мавжуд тармоқ технологияси имкониятларидан фойдалана олиш таълим сифатига ўз таъсирини кўрсатади. Тармоқ технологияси асосида ишлайдиган кампьютер синифларида куйидаги тармоқ хизматларидан фойдаланиб, ўқув жараёнини ташкил этиш мумкин. Буларга файл-сервер, прокси-сервер, бошқарув хизматлари ва бошқаларни келтириш мумкин (1-расм).



1-расм. Ўқув жараёнида тармоқ технологиясининг хизмат турлари.

Бу тармоқ хизматларидан фойдаланиб ўқишни таҳлил этадиган бўлсак, файл-серверли тармоқнинг ўқув жараёнида бир қатор имкониятлари мавжуд бўлиб, ўқувчилар мижоз компьютерлар орқали ажратилган сервердан маълумотлар базасидан фойдаланиши мумкин. Талаба сервер орқали мижоз компьютер билан алоқани ўрнатиш имкониятларидан фойдаланади

Прокс-сервер хизматида эса тармоққа уланган барча компьютерлар хизмат жорий қилинган компьютер бошқаруви орқали бир вақтда интернет ёки бошқа хизматлардан тақдим этилади.

Ўқув жараёнида компьютер синфларида талабаларнинг компьютерларида бажараётган амалий ишлари ўқитувчи томонидан кузатишда, яқка тартибда керакли амалий билим ва тушунчаларни беришда тармоқнинг бошқариш хизматларидан фойдаланиш мумкин. Компьютер синфларини бошқарув хизматидан фойдаланишнинг дастурий ва техник тизимлари мавжуддир. Компьютер синфларини бошқариш тизимларига қуйидаги Radmin, E-Learning Class, NetOp School, iTALC, Inspirus Classroom, Landesk Classroom Manager, SMART Classroom, Aser Classroom Manager дастурий воситаларни мисол сифатида келтириш мумкин. Техник хизматларга Net Class II, Net Class Lite, HI Class, Rinel-Lingo C100 Видеолар сингари воситалар асосида шакллантирилган компьютер синфларини мисол қилинади.

Компьютер синфларда бошқарув тизимлардан фойдаланган ҳолда ўқув жараёни самарали ташкил этиш ва кампьютер қурилмаларидан фойдаланишда ўқитувчига катта имконият яратиш бериш мумкин. Ўқитувчи мавзуга оид ўқув материалларни ўқувчиларга бош компьютер орқали узатиш ва уни ўргатишда бошқарувчи тизимларнинг техник ва дастурий воситаларидан фойдаланади. Техник ва дастурий воситалари ёрдамида қисқа вақт ичида ўқувчиларга амалий тушунчалар бериш, шу билан бирга замонавий педагогик технологияларни қўллаш орқали дарсни сифатли ташкил этиш мумкин.

Тармоқ технологияси асосида “ААТ” фанидан “Замонавий операцион тизимлар” мисолида педагогик технологиялардан дарс машғулотларининг бирор қисмида масалан, уйга берилган вазифани сўраш, дарсни мустаҳкамлаш ва назорат ишларида қўллаш орқали ўқувчиларни ўқув жараёнида дарсга бефарқ бўлмасликка, фикрлаш, ижод қилиш, изланишга ҳаракат этишига ва гуруҳбилан ҳамкорликда ишлашга чорлайди. Шундай технологияларга “Тушунчалар таҳлили”, “Чархпалак”, “ФСМУ”, “Кластер” ва бошқа инновацион методларни айтиб ўтиш мумкин. Мазкур методлардан “Тушунчалар таҳлили” услуги ўтилган (чорак, семестр ёки ўқув йилида тугаган) ўқув предмети ёки бўлим барча мавзуларни талаба (ёки ўқувчи)лар томонидан ёдга олиш, бирон-бир мавзу бўйича ўқитувчи томонидан берилган тушунчаларга мустақил равишда ўз изоҳларини бериш, шу орқали ўз билимларини текшириб баҳолашга имконият яратиш ва ўқитувчи томонидан қисқа вақт ичида барча ўқувчиларни баҳолай олишга йўналтирилган[6].

Тармоқ технологияларидан фойдаланиш учун дарс бошланишидан олдин ўқитувчи компьютерларда мавзу юзасидан олдиндан тайёрланган тақдимот материални тайёрлаб

кўяди. Мавзуни мустаҳкамлаш учун “Тушунчалар таҳлили” технологияси ёрдамида топшириқларни тайёр ҳолатга келтиради.

Ўқувчилар билан саломлашиб, даволат аниқланади. Ўқитувчи талабалардан ўтилган мавзуни аниқлаб, уйга вазифани сўрайди. Талабалар тайёргарлик кўриб келганлиги учун уйга вазифани ўқитувчига кампьютер орқали тушунтириб беради.

Ўқитувчи янги мавзуни доскага ёзиб, мавзу юзасидан маълумот беради.

Ўқитувчи мавзу бўйича асосий тушунчаларни тушунтириб бўлгач, ўқувчиларни билимини мустаҳкамлаш учун “Тушунчалар таҳлили” услуги асосида қуйидаги амалларни бажаради. Ўқитувчи “Замонавий операцион тизимлар” мавзуси бўйича топшириқни бажариши бўйича тушунча беради.

Хулоса

Ўқитувчи талабаларни кичик гуруҳларга ажратиб, топшириқларни беради. Бунда ўқитувчи локал тармоқ орқали кичик гуруҳ талабаларига бажариш учун кўрсатма беради. Компьютер синфларда бошқарув тизимлардан фойдаланган ҳолда ўқув жараёни самарали ташкил этиш ва кампьютер қурилмаларидан фойдаланишда ўқитувчига катта имконият яратиб бериш мумкин. Ўқитувчи мавзуга оид ўқув материалларни ўқувчиларга бош компьютер орқали узатиш ва уни ўргатишда бошқарувчи тизимларнинг техник ва дастурий воситаларидан фойдаланади. Техник ва дастурий воситалари ёрдамида қисқа вақт ичида ўқувчиларга амалий тушунчалар бериш, шу билан бирга замонавий педагогик технологияларни қўллаш орқали дарсни сифатли ташкил этиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ш.М. Мирзиёев “2017-2021 йилларда Ўзбекистонни янада ривожлантиришнинг устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси”, Тошкент ш., 2017 йил 7 феврал.
2. “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909 сонли Қарори, 2017 й. 29 апрел.
3. “Олий маълумотли мутахассисларни тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3151-сонли қарори, 2017 йил 27 июл.
4. “Қишлоқ ва сув хўжалиги тармоқлари учун муҳандис техник кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3003 қарори, 2017 йил 24 май.
5. “Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институтида олий маълумотли кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3702 қарори, 2018 йил 8 май.
6. Азизхўжаева Н.Н. “Педагогик технология ва педагогик маҳорат”. – Т.: 2003

Илмий раҳбар

и.ф.н., доц. Раҳманкулова Б.О.

ТАҚРИБИЙ ҲИСОБЛАШЛАРДА ДИФФЕРЕНЦИАЛДАН ФОЙДАЛАНИШ

Жумабоев Х.М. – талаба, ТИҚХММИ.

Аннотация

Ушбу мақолада дифференциалнинг баъзи бир тақрибий ҳисоблашларга, жумладан ҳарқандай даражали илдиз чиқариш, тригонометрик ва логарифмик ёки бошқа функциянинг қийматларини тақрибий ҳисоблаш мумкин. Қуйида ана шундай баъзи бир функцияларнинг қийматларини ҳисоблаш келтирилган.

Функциянинг дифференциалини топиш масаласи ҳосилани топишга тенг кучли, чунки ҳосилани эркин ўзгарувчи орттирмасига кўпайтириб функция дифференциалига эга бўламиз. Шундай қилиб ҳосиллага тегишли теоремалар ва формулаларнинг кўпчилиги дифференциаллар учун ҳам тўғри бўлиб қолаверади [1].

$y = f(x)$ функциянинг x_0 нуктадаги орттирмаси Δy нинг аргумент орттирмаси Δx га нисбатининг Δx нолга интилгандаги лимити мавжуд бўлса, бу лимит $y = f(x)$ функциянинг x_0 нуктадаги ҳосиласи дейилади.

Ҳосиланинг белгиланиши:

$$y' \text{ ёки } f'(x_0) \text{ ёки } \frac{dy}{dx} \text{ ёки } \frac{df}{dx}.$$

Ҳосиланинг таърифига асосан $y = f(x)$ функциянинг x_0 нуктадаги ҳосиласи:

$$f'(x_0) = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{f(x + \Delta x) - f(x_0)}{\Delta x} \quad (1)$$

кўринишда бўлади [2].

Таъриф. Агар $y = f(x)$ функция x_0 нуктада чекли ҳосиллага эга, яъни $f'(x_0) = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x}$ чекли сон бўлса, бу функция шу нуктада ҳосиллага эга дейилади [1].

Таъриф. Агар $y = f(x)$ функция $[a, b]$ интервалнинг ҳар бир нуктасида ҳосиллага эга бўлса, у шу интервалда дифференциалланувчи дейилади [1].

$y = f(x)$ функция $[a, b]$ кесмада дифференциалланувчи бўлсин. Бу ҳар қандай $x \in [a, b]$ учун

$$f'(x_0) = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} \quad (2)$$

чекли ҳосила мавжуд эканини билдиради.

$f'(x_0) \neq 0$ деб фараз қилайлик, у ҳолда (2) тенгликдан

$$\frac{\Delta y}{\Delta x} = f'(x_0) + \alpha \quad (3)$$

экани келиб чиқади, бунда $\Delta x \rightarrow 0$ да $\alpha \rightarrow 0$.

(3) тенгликнинг иккала томонини Δx га кўпайтирсак

$$\Delta y = f'(x_0)\Delta x + \alpha\Delta x$$

ёки

$$\Delta y = f'(x_0)\Delta x + \beta \quad (4)$$

тенгликка эга бўламиз.

Бунда $\beta = \alpha\Delta x$ (шу билан бирга $\Delta x \rightarrow 0$ да $\alpha, \beta \rightarrow 0$). $f'(x_0)\Delta x = dy$ эканлигини ҳисобга олсак, ушбу тенгликка эга бўламиз;

$$\Delta y = dy + \beta \quad (5)$$

Функциянинг Δy орттирмаси ва функциянинг dy дифференциали эквивалент чексиз кичик миқдорлар бўлганлиги учун

$$\Delta y \approx dy.$$

Уни ёйиб қуйидагича ёзишимиз мумкин:

$$f(x_0 + \Delta x) - f(x_0) \approx f'(x_0)\Delta x$$

Ёки

$$f(x_0 + \Delta x) \approx f(x_0) + f'(x_0)\Delta x \quad (6)$$

(6) формулалар содда тақрибий ҳисоблашлар учун асосий формула ҳисобланади [1].

x нинг қиймати нолдан етарлича кичик фарқ қилганда $\sqrt[n]{x+1}$ ни тақрибий ҳисоблаш учун формула чиқарамиз.

Бунинг учун

$$f(x) = \sqrt[n]{x+1}, \quad x_0 = 0$$

деб фараз қиламиз. У ҳолда

$$\Delta x = x - x_0 = x, \quad f(x_0) = f(0) = 1;$$

$$f'(x) = \frac{1}{n}(1+x)^{\frac{1}{n}-1}, \quad f'(x_0) = f'(0) = \frac{1}{n}$$

бўлгани учун (7) формулага асосан x нинг нолга етарлича яқин қийматларида

$$\sqrt[n]{x+1} \approx 1 + \frac{1}{n}x \quad (7)$$

формулага эга бўламиз.

Энди $\sqrt[n]{a^n + x}$ ($a > 0$) ни тақрибий ҳисоблаш масаласини кўрайлик. (7) тақрибий тенгликдан фойдаланиб,

$$\sqrt[n]{a^n + x} = a^n \sqrt[n]{1 + \frac{x}{a^n}} \approx a^n \left(1 + \frac{1}{n} \cdot \frac{x}{a^n} \right) = a + \frac{x}{na^{n-1}}$$

Яъни

$$\sqrt[n]{a^n + x} \approx a + \frac{x}{na^{n-1}} \quad (8)$$

формулага эга бўламиз. Бу ерда $|x|$ нинг қиймати a^n дан етарлича кичик деб фараз қилинади.

Хусусий ҳолда, (8) формулада $n = 2$ десак, куйидагига эга бўламиз:

$$\sqrt{a^2 + x} \approx a + \frac{x}{2a} \quad (9)$$

1-мисол. $\sqrt{5}$ ҳисоблансин.

Ечиш. (9) формулани қўлласак,

$$\sqrt{5} = \sqrt{2^2 + 1} = 2 + \frac{1}{2 \cdot 2} = 2,25.$$

2-мисол. $\sqrt{34}$ ҳисоблансин.

$$\text{Ечиш. } \sqrt{34} = \sqrt{6^2 - 2} = \sqrt{6^2 + (-2)} \approx 6 + \frac{-2}{2 \cdot 6} \approx 5,833.$$

3-мисол. $\sqrt{120}$ ҳисоблансин.

$$\text{Ечиш. } \sqrt{120} = \sqrt{11^2 - 1} \approx 11 - \frac{1}{22} \approx 10,955$$

Энди ушбу

$$\sqrt[n]{x_0 + \Delta x} \approx \sqrt[n]{x_0} + \frac{\sqrt[n]{x_0}}{nx_0} \Delta x \quad (x_0 \neq 0) \quad (10)$$

тақрибий формулани исбот қиламиз.

Бунинг учун

$$f(x) = \sqrt[n]{x}$$

функцияни қараймиз. Бу ерда

$$f(x_0) = \sqrt[n]{x_0}, \quad f(x_0 + \Delta x) = \sqrt[n]{x_0 + \Delta x}, \quad f'(x_0) = \frac{1}{n} x_0^{\frac{1}{n}-1} = \frac{\sqrt[n]{x_0}}{nx_0} \quad (x_0 \neq 0).$$

(6) формулага асосан

$$\sqrt[n]{x_0 + \Delta x} - \sqrt[n]{x_0} \approx \frac{\sqrt[n]{x_0}}{nx_0} \Delta x$$

ёки

$$\sqrt[n]{x_0 + \Delta x} \approx \sqrt[n]{x_0} + \frac{\sqrt[n]{x_0}}{nx_0} \Delta x$$

бўлиб, (11) формула ҳосил бўлади.

4-мисол. $\sqrt{4,01}$ ҳисоблансин.

$$\text{Ечилиш. } \sqrt{4,01} = \sqrt{4+0,01} \approx \sqrt{4} + \frac{\sqrt{4}}{2 \cdot 2^2} \cdot 0,01 = 2,0025.$$

5-мисол. $\sqrt[3]{27,03}$ ҳисоблансин.

$$\text{Ечилиш. } \sqrt[3]{27,03} = \sqrt[3]{27+0,03} \approx \sqrt[3]{27} + \frac{\sqrt[3]{27}}{3 \cdot 27} \cdot 0,03 = 3,0011.$$

Тригонометрик функциялар, логарифмик функциялар ва бошқа функцияларнинг тақрибий қийматларини ҳисоблашда (6) формуладан фойдаланилади.

Масалан. $\sin 31^\circ$ ни тақрибий ҳисоблаш учун $y = \sin x$ функцияни (6) формуладан фойдаланиб тақрибий ҳисоблаш формуласини келтириб чиқарамиз [2].

$\sin(x + \Delta x) \approx \sin x + \cos x dx$. Бу формулада $dx = \Delta x = \alpha$ деб оламиз у ҳолда:

$$\sin(x + \alpha) \approx \sin x + \alpha \cdot \cos x,$$

$$\sin 31^\circ = \sin\left(\frac{\pi}{6} + \frac{\pi}{180}\right) \approx \sin \frac{\pi}{6} + \frac{\pi}{180} \cdot \cos \frac{\pi}{6} = 0,5 + 0,0174 \cdot 0,8652 = 0,5151$$

Худди шу каби бошқа функцияларни ҳам тақрибий ҳисоблаш мумкин.

Хулоса

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки функция ҳосиласи ёки функция дифференциали ёрдамида фан ва техниканинг ривожланишида айрим соҳадаги бир қанча муаммоли масалаларини ҳал қилиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Соатов Ё.У. Олий математика 1-қисм, Тошкент “Ўқитувчи” 1992 й. 179 б.
2. Файзибоев Э.Ф., Сулейменов З.И., Худуёров Б.А. Олий математикадан мисол ва масалалар тўплами, Тошкент “Ўқитувчи” 2005 й. 111 б.

Илмий раҳбар

асс. Жувонов Қ.Р.

ИНФОРМАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ В ОБЛАСТИ УПРАВЛЕНИЯ ВОДНЫМИ РЕСУРСАМИ

Исмаилова К.Г. - студент, ТИИИМСХ.

Аннотация

В последние годы в областях, связанных с водным хозяйством, управлением водными ресурсами и экологическим планированием, происходят значительные изменения и появляются новые проблемы. Для оценки происходящих изменений, а также для определения степени воздействия на окружающую среду необходимо разрабатывать и применять новые инструменты. Новые технологии необходимы для более качественного решения существующих экологических проблем.

Информационные системы (ИС) применяются для управления распределенными во времени и пространстве данными, и для разработки имитационных систем на основании полученной информации. Геоинформационная система (ГИС) позволяет лучше распределять ресурсы данных, уменьшать избыточность данных и согласовывать их содержимое. ГИС поддерживает различные пользовательские приложения, характеризуется высокой гибкостью в поиске, анализе и составлении отчетов.

Степень взаимодействия между человеческим обществом и биосферой, гидросферой и атмосферой значительно увеличилась за последнее время. Взаимосвязь общества и природы можно охарактеризовать возрастающей сложностью и разнообразием антропогенного воздействия на окружающую среду, активным и ненадлежащим использованием природных ресурсов. Происходящие в результате антропогенного воздействия климатические изменения оказывают сильное влияние на водные ресурсы. В процессе изменения климата, классический гидрологический режим может значительно поменять свой характер. Экологическое планирование и управление водными ресурсами, связывает гидротехнические мероприятия, оказывающие влияния на окружающую среду, и другие виды деятельности, связанные с водными ресурсами.

Сложные программные системы необходимы для анализа взаимодействия человека и окружающей среды, и для прогнозирования будущих изменений. Антропогенное воздействие на водную среду заключается в строительстве гидрологических сооружений, искусственном регулировании стока, создании дренажных систем (снижает уровень грунтовых вод) и влиянии на качество воды.

В программные системы входят базы данных и информации, модельные системы. Информационные системы включают в себя экологические базы данных и геоинформационные системы (ГИС).

Геоинформационная система – это ценный инструмент для получения и отображения больших объемов пространственных и временных данных. Использование ГИС широко применяется для управления, обработки и визуализации данных с географической привязкой. Существует тесная взаимосвязь между геоинформационными технологиями и моделированием окружающей среды

Геоинформационные системы применяются для мониторинга динамических процессов, проведения сравнительного анализа и оценки текущих условий, для выявления произошедших изменений, прогноза будущего развития, определение источника проблем и планирования ответных действий

Геоинформационная система является ценным и незаменимым инструментом для управления водными ресурсами и экологического планирования. ГИС может быть использована для целей документирования, управления, хранения и визуализации пространственных данных.

При применении информационных систем для целей водоснабжения становится возможным получение актуальной, достоверной и комплексной информации по объектам городской инфраструктуры. В геоинформационной системе происходит учет водных ресурсов, регистрация имущественных прав и отношений, проведение информационного обмена данными с органами государственной власти. Применение ГИС в гидрологии способствует улучшению методов районирования, а также структурированию моделей, при уменьшении трудозатрат. Особенно важно учитывать изменения в пространственно-распределенных параметрах, таких как землепользование и водопользование.

В информационную систему включены программное обеспечение, технические средства, картографические базы данных и каналы информационного обмена. Основные характеристики информационных систем, способствующие их активному использованию в областях, связанных с водными ресурсами приведены на рисунке 1.



Рис. 1. Характеристика информационной системы.

При использовании в областях управления водными ресурсами, в информационную систему могут включаться различные виды подсистем:

- картографическая подсистема: стандартные геоинформационные операции с пространственными объектами, сервисные картографические операции, операции над объектами технического учета, управление данными, определение протяженности трубопроводов и площадей покрытий водохозяйственных и иных зон, определение положения водозаборных, водоочистных и других сооружений;

- подсистема учета имущества: ведение реестров зданий и сооружений, земельных участков, учет количества и протяженности сетей, объектов движимого имущества и объектов централизованного водоснабжения;

- подсистема технического учета: ведение реестров учета изменений (строительство, реконструкция, списание) инженерных сетей и сооружений; сопровождение работ по подготовке сетей к кадастровому учету; ведение тематических реестров (по объектам водоснабжения и канализации, по выпускам, водомерным узлам и водозаборным скважинам); обеспечение проведения исследования качества проб воды, инвентаризации; информационное сопровождение работ по контролю качества воды, планированию работ по реконструкции и промывке канализационных сетей;

- подсистема моделирования: формирование участков отключения водопроводной сети с обеспечением анализа возможности их оптимизации: оперативное формирование участков фактического отключения (для системы централизованного водоснабжения) [6];

- подсистема мониторинга: обеспечение глобального (просмотр основной информации), локального (просмотр принципиальных схем) и детального (просмотр отдельных элементов и технических спецификаций) контроля;

- подсистема администрирования: ведение списков пользователей, управление учетными записями пользователей;

- подсистема сопровождения: комплексное обследование водопроводных сетей и водозаборных, водоочистных сооружений, формирование планов комплексного обследования систем и оборудования; отображение реестра выполненных работ.

- подсистема интеграции с внешними ИС: взаимодействие с системами предприятий, обновление объектно-адресных систем для определения координат объекта; формирование и передача актуальных моделей инженерных сетей, получение результатов выполнения расчетов с последующим их отображением.

Выводы

Широкий спектр возможностей информационных систем позволяет использовать их для решения различных задач, связанных с водными ресурсами:

- Обеспечение пользователей актуальной, комплексной технической и пространственной информацией;
- Ведение баз данных об инженерных сетях, сооружениях и установках;
- Ведение учета плановых и аварийных работ;
- Создание и ведение баз данных по очистке канализационных сетей, планирование работ по промывке и реконструкции канализационных сетей;
- Проведение автоматических измерений и учет объемов водоснабжения, распределение объектов водопотребления;
- Создание математических моделей для проведения гидравлических расчетов.

Информационные системы обеспечивают сбор, хранение, обработку и поиск информации. С помощью информационных систем можно проводить качественный анализ проблем и принимать взвешенные решения. ИС способны значительно повысить эффективность, производительность и качество работы при снижении издержек. Надежная информация поступает пользователю своевременно, при этом доступ к информации может быть получен из любой точки мира, без привязки к конкретному месту работы.

Использованная литература

1. Бугаевский Л.М., Цветков В.Я. Геоинформационные системы // Москва. – 2000 г. – 222с.
2. Якубайлик О.Э. Попов В.Г. Технологии для геоинформационных интернет-систем // Вычислительные технологии – 2009. – 14(6). – С. 116-125.
3. Кадочников А.А., Попов В.Г., Токарев А.А., Якубайлик О.Э. Формирование Гео-Информационного Интернет-портала для задач мониторинга состояния природной среды и ресурсов // Журнал Сибирского федерального университета. Серия: Техника. и технологии. – 2008. – 1(4). – С. 377-386.
4. Семенов Ю. В., Борисенко А. Н. Применение геоинформационных технологий в сфере управления имуществом предприятия // Водоснабжение и санитарная техника. – 2008. – № 9, с. 58-65.
5. Чуваков А.В. Разработка системы поддержки принятия решений для управления региональной инвестиционной программой водообеспечения // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук – 2013. – №9 – С. 55-58.
6. Исаев В.Н., Давыдова А.А., Питьевое и хозяйственное водоснабжение // Вестник МГСУ / 2009 / № 2 / С. 148-150.
7. Архипова О.Е. Информационно-аналитическая среда оценки качества поверхностных вод речного бассейна // Известия высших учебных заведений. Северо-Кавказский регион. Серия: Естественные науки – 2006. – №6. – С. 3-12.
8. Машкин А.А., Загоруйко А.Е. Опыт создания системы управления развитием территорий Санкт-Петербурга // Управление развитием территорий. – 2012. – №2. – С. 41-46.
9. Кантор Л. И., Гилев И. П., Скочило Д. Б., Хатыпов А. Ф., Галиахметов А. А. Информационные технологии при эксплуатации системы подачи и распределения воды // Водоснабжение и санитарная техника. – 2008. – №3(2) – С. 15-22.

Научный руководитель

Кенджаева Д.Х.

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ – СОҲА ВА ТАРМОҚЛАРДА ИҚТИСОДИЙ САМАРАГА ЭРИШИШНИНГ ИННОВАЦИОН УСУЛИ

Каримов А.Х - талаба, ТИҚХММИ

Аннотация


Ушбу мақолада уй хўжалиklarининг рақамли иқтисодиёт янгиликларидан хабардорлик даражаси, интернет тармоғидан фойдаланиш имконияти ривожланган мамлакатлар ҳамда Қозоғистон мисолида ўрганилган. Соҳа ва тармоқларнинг самарадорлигини оширишда уй хўжалиklarининг рақамли иқтисодиёт янгиликларидан хабардорлик эканлиги муҳим аҳамият касб этиши очиб берилган ва изоҳланган.

Глобаллашув жараёнида мамлакатлар рақобатбардошлигини белгилашда иқтисодиётда рақамли иқтисодиётнинг ўрни муҳим аҳамият касб этади. Иқтисодиётнинг қайси бир тармоқ ёки соҳасига назар ташламайлик, барчасида рақамли технологияларнинг ўрнини кўрамиз. Мамлакат банк тизимидаги хизматлардан тортиб, давлат хизматлари даражасида ҳам инновацион рақамли технологияларнинг улушини кўришимиз мумкин. Аммо дунё мамлакатларининг барчасида ҳам рақамли технологияларнинг ривожланиши учун яратилган шароитлар бир хил эмас. Жумладан, ривожланаётган ҳамда ўтиш иқтисодиётидаги мамлакатларда интернетга уланиш сифатининг юқори эмаслиги ҳамда интернет нархларининг баландлиги рақамли иқтисодиётнинг ривожланишига тўсқинлик қилаётган асосий муаммолардан бири ҳисобланади. Шунингдек, аҳолининг рақамли технологиялардан фойдаланишга тайёр эмаслиги, билим даражасининг юқори эмаслиги, алоҳида эътибор талаб қиладиган муаммолардан асосийси ҳисобланади. Ўзбекистонда ҳам бу борада чуқур ислохатлар олиб бориляпти. Бунинг яққол мисоли сифатида президентимизнинг олиб бораётган сиёсатларини айтиб ўтишимиз мумкин. Президентимиз Ш.Мирзиёев 2018йил 21-декабр куни Олий мажлисга қилган мурожаатномаларида шу масалага алоҳида эътибор берганлар. Мурожатномада куйидагилар таъкидлаб ўтилди: “Иқтисодиётнинг барча соҳаларини рақамли технологиялар асосида янгилашни назарда тутадиган Рақамли иқтисодиёт миллий концепциясини ишлаб чиқишимиз керак. Шу асосда “Рақамли Ўзбекистон-2030” дастурини ҳаётга татбиқ этишимиз зарур. Рақамли иқтисодиёт ялпи ички маҳсулотни камида 30 фоизга ўстириш, коррупцияни кескин камайтириш имконини беради. Нуфузли халқаро ташкилотлар ўтказган таҳлиллар ҳам буни тасдиқламоқда. Шунинг учун Ҳукуматга икки ой муддатда рақамли иқтисодиётга ўтиш бўйича “йўл харитаси”ни ишлаб чиқиш топширилади. Бу борада ахборот хавфсизлигини таъминлашга алоҳида эътибор қаратиш зарур. Иккинчидан, иқтисодиётимиз ривожининг муҳим шарт бўлган фаол инвестиция сиёсатини изчил давом эттирамиз. 2019 йилда барча манбалар ҳисобидан қарийб 138 триллион сўмлик ёки 2018 йилга нисбатан 16 фоиз кўп инвестицияларни ўзлаштириш мўлжалланмоқда. Бу борада тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар миқдори жорий йилга нисбатан қарийб 1,5 баробар оширилиб, 4,2 миллиард долларга етказилади. Натижада 142 та замонавий корхона ишга туширилади.” Рақамли иқтисодиёт – бу ишлаб чиқариш комплекси, инсон учун ҳаёт ва қулайликни таъминлайдиган маҳсулот ва хизматларни яратадиган ишлаб чиқариш тизими бўлиб, у ерда маълум бир кибер-жисмоний (киберфизическая) тизим пайдо бўлади. Бошқача айтадиган бўлсак рақамли иқтисодиёт бу ишлаб чиқариш комплекси инсонлар учун қулайликларни таъминлайдиган маҳсулот ва хизматларни яратадиган виртуал муҳит бўлиб, рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда иқтисодий ишлаб чиқариш тизимидир.

Колин Кларк ва бошқалар томонидан қурилган миллий ҳисоблар тизими XX асрнинг иккинчи ярмининг фаровонлигига оид ҳужжатларга катта ҳисса қўшди ва ёрдам берди. XXI асрда ахборотнинг кадр-қимматини ҳисобга олиш ҳал қилувчи масала ҳисобланади. Ахборотни табиий равишда ишлаб чиқариш жамоат манфаатларига қарамай,

қиммат туради. Бундан ташқари, XX аср бошланғич иқтисодиёти, масалан, бошланғич, иккинчи даражали ва учинчи тармоқлар ўртасида, уй хўжаликлари ва бозор иқтисодиёти ўртасидаги фарқлар тобора аҳамиятсиздир. Ушбу ўзгаришлар янги сиёсий муаммоларни келтириб чиқаради. Рақамли иқтисодиётнинг ривожланишидаги иккинчи муҳим омил реал иқтисодиёт сектори билан биргаликда уй хўжалиқларининг ҳам интернет тармоғига улунганлиги ҳам муҳим ўрин эгаллайди


1-жадвал



1-жадвал. Ривожланган мамлакатларда уй хўжалиқларининг интернетдан фойдаланиш даражаси: 2018 йил Цифровая экономика. Краткий статистический сборник. Москва 2018.

Жумладан, Корея Республикасида уй хўжалиқларининг интернетдан фойдаланиш даражаси 2018 йилда 99 фоизни, Японияда 97, Францияда эса 86 фоизни ташкил этишини кўрамиз. Ривожланаётган мамлакатларда бу кўрсаткич ўртача 55-60 фоизни ташкил этади. Уй хўжалиқларининг интернет тармоғига улунганлик даражаси мамлакатда рақамли иқтисодиётнинг ривожланганидан далолат беради.

2-жадвал



2-расм. Аҳоли ўртасида интернетдан фойдаланмаслик сабаблари

Манба: Цифровая экономика. Краткий статистический сборник. Москва 2018 йил маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Ривожланаётган мамлакатлардан бири бўлган Қозоғистонда АКТ ҳамда рақамли иқтисодиётнинг ривожланиш даражасига назар ташласак. Қозоғистонда «Электрон ҳужжат ва рақамли имзо тўғрисида», «Ахборотлаштириш тўғрисида», «Ахборот ва ахборот ҳимояси тўғрисида» ги қонунлар ва ахборотнинг тенгсизлигини камайтириш бўйича давлат дастурлари сингари кўпгина қонунчилик ва меъёрий ҳужжатлар; саноатни инновацион ривожлантириш; ахборот-коммуникация технологиялари жорий этилди. «Глобал ахборот технологиялари бўйича 2010-2011 йилдаги ҳисобот» халқаро жамоатчиликнинг миллий рақобатбардошлиги учун АКТнинг аҳамияти ва бу соҳадаги тараққиёт стратегияси миллий тараққиётни мониторинг қилиш воситаси бўлиб хизмат

қилди. Қозоғистон Озарбайжонни Ҳамдўстликнинг энг яхши ижрочиси деб топди. Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги (МДХ) мамлакатлари орасида Қозоғистон ҳозирги пайтда рейтингнинг юқори қисмида ягона МДХ вакили ҳисобланади ва у 70 ўринни эгаллаб турибди. Қозоғистон ҳукумати Интернетдаги мавжудлиги (24-чи) ва унинг фуқаролари билан ҳамкорлик даражаси (18-чи) сифати диққатга сазовордир.

Хулоса

Жаҳон хўжалигида инновацион иқтисодиётнинг асосий омили бўлган рақамли иқтисодиётни ривожлантириш учун қуйидагиларга эътибор беришни талаб этади:

–Ривожланаётган мамлакатларда интернет тезлигини ошириш ҳамда нарҳини оптималлаштириш;

–аҳолининг компьютер ҳамда компьютер дастурлари билан ишлаш билим ва кўникмасини ошириш. Жумладан, текин компьютер курсларини ташкил этиш;

–электрон савдо майдончалари фаолиятини ривожлантириш, электрон ҳужжат алмашиш тизимини такомиллаштириш,

–ривожланган мамлакатларда эса аҳолига инновацион рақамли технологиялар: крепто валюталар, давлат хизматларининг инновацион турлари (е ҳукумат) ҳақида кўпроқ ва кенгроқ маълумот бериш;

Юқоридагиларни амалга ошириш жаҳон хўжалигида рақамли иқтисодиётнинг ўрнини оширишга, ахборот алмашинув тизимини тезлаштиришда муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, уй хўжалиқларининг интернет тармоқларидан кенг фойдаланиши тармоқ ва соҳаларнинг самарадорлиги ошишида ҳамда вақт сарфининг қисқариб, иқтисодиётда инновацион технологияларнинг улушиши ошишида муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Криптографические протоколы в системах с ограниченными ресурсами / Р.В. Мещеряков *и др.+ // Вычислительные технологии. 01.12.2007. С. 51
- 2.Цифровая экономика: мифы, реальность, перспектива В.В. Иванов, Г.Г. Малинецкий. Российская академия наук, Москва, 2017. С. 3
- 3.Калужский М.Л. Маркетинговые сети в электронной коммерции: институциональный подход / М.Л. Калужский. – М.; Берлин: Директ-Медиа, 2014. с 402.
- 4.Цифровая экономика. Краткий статистический сборник. Москва 2018. С. 18
- 5.John Quiggin. National accounting and the digital economy. Economic Analysis and Policy. Volume 44, Issue 2, 2014, Pages 136-142
6. www.president.uz
7. www.tengrinews.kz
8. www.ZiyoNet.uz

Илмий раҳбар

доц. Ходжимухамедова Ш

ИККИ ФАЗАЛИ СУЮҚЛИК ОҚИМИНИ ТРАНСПОРТИРОВКА ҚИЛУВЧИ ҚУВУР ТЕБРАНИШИНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШ

Комилова Х.М - мустақил тадқиқотчи, ТИҚХММИ,

Аннотация

Мақолада икки фазали суюқлик транспортировка қилувчи қувур тебраниш жараёнининг тадқиқот натижалари келтирилган. Ичидан газ-суюқлик аралашмаси оқаётган қувур тебранишини ўрганишда ковушқоқ-эластик балка назарияси ва асосни Винклер модели ёрдамида татқиқ қилинган. Больцман-Вольтерр наслий ковушқоқ-

эластиклик назарияси асосида қувур материали ва грунтли асоснинг қовушқоқлик хусусияти ҳисобга олинган. Материал ва грунтнинг қовушқоқлик хоссалари ҳамда Винклер модели бўйича асос параметрларининг газ ва суюқлик оқим тезлигига таъсири ўрганилган. Икки фазали суюқлик оқимининг критик тезликлари аниқланган.

Ҳозирги вақтда дунёдаги кўплаб мамлакатларининг иқтисодий ривожланишида қувур транспорти муҳим аҳамиятга эгадир. Суюқлик транспортировка қилувчи қувурлар кўплаб муҳандислик иншоотлари конструкцияларининг элементларини ташкил қилади. Қувурлар нефт-газ тармоғи, химия саноати корхоналари, газни қайта ишлаш заводлари, атом энергетикаси ва бошқа соҳаларда қўлланилади. Қувур транспортировкаси бошқа транспортировкалардан қулайлиги, иқтисодий тежамкорлиги ва белгиланган объектга узлуксиз етказиб бериш имконияти билан фарқланади. Бироқ қувурлардаги тасодифий рўй берган авариялар экологияга жиддий зарар етказиш ва инсонлар ҳаётига хавф туғдириши мумкин. Ичидан суюқлик оқаётган қувур қисмининг вибрациясини ўрганиш мураккаб муаммо ҳисобланади. Бугунги кунда ушбу муаммони ҳал этиш бўйича кўплаб динамик моделлар яратилган. Бу моделлар ичидан суюқлик оқаётган қувурлардаги бошланғич жараёнларни акс эттиради. Қувурларнинг тебраниши ва динамик турғунлиги ҳақидаги чизиқли ва чизиксиз масалаларга бағишланган кўплаб мақолалар чоп қилинган [1,2,3,4].

Ҳозирги вақтда қишлоқ хўжалиги, нефт-газ саноати ва уй-жой коммунал хўжалиги турли ташқи факторлар таъсирида рўй берадиган қувурлардаги авариялар, уларни реконструкция қилиш, тиклаш ва таъмирлаш муаммоларига дуч келади. Бу муаммоларни замонавий ресурстежамкор ва экологик хавфсиз технологияларни, яъни полимер композицион материаларни қўллаш орқали ечиш мумкин [5,6]. Шу сабабли наслий эластиклик назарияси муаммолари ва методлари кўплаб тадқиқотчилар эътиборини тортмоқда. Қовушқоқ-эластик қувурларни татқиқ қилишга бағишланган кўплаб мақолалар чоп этилган [7,8,9].

Юқорида келтирилган таҳлилдан хулоса қилиш мумкинки, ушбу тадқиқотнинг асосий мақсади бўлган қовушқоқ-эластик грунтли асос ҳисобга олинган икки фазали суюқлик оқиб ўтаётган қувур тебраниши масаласининг адекват моделларини яратиш етарлича мураккаб ва долзарб тадқиқот масаласи ҳисобланади.

Масаланинг қўйилиши. Винклер моделига биноан қовушқоқ-эластик грунтли асос ҳисобга олинган ва икки учи шарнирли маҳкамланган тўғри чизиқли балка кўринишидаги қувур тебраниш масаласини ўрганамиз. Тўғри бурчакли координата системасини $x = 0$ ва $x = L$ координаталарга мос келувчи таянчдаги қувур кесими оғирлик маркази орқали ўтказамиз. Қувур ўқидаги нуқталарнинг y ўқи бўйлаб кўчиши номаълум $w(x,t)$ эгилиш функциясидан иборат. U – суюқлик оқимининг қувур ўқи бўйлаб тезлиги. Қувурнинг бўйлама тебраниши қаралмайди. Қувур горизонтал ва ҳаракат эса (ясси) текис деб ҳисобланади. Оқимнинг кўндаланг кесим юзи ўзгармас деб қаралади.

Суюқлик-газдан иборат икки фазали оқим транспортировка қилувчи қувур 1-расмда келтирилган. Қувурда бир нечта кетма-кет келувчи “снаряд” оқим қисмларини кузатиш мумкин. 2-расмда узунлиги L_1 бўлган газ пуфакчали бўлак ва узунлиги L_2 бўлган суюқлик фазаси бўлак қисми келтирилган. Қувур узунлиги $L(L=L_1+L_2)$ га тенг.




Рис.1. Суюқлик ва газдан иборат оқим транспортировка қилувчи қувур схемаси.




Рис.2. Қувурнинг “снаряд” оқим қисми.

Конструкция материали ва грунтли асоснинг қовушқоқ-эластиклик хусусияти ҳисобга олинган икки фазали суюқлик оқимини транспортировка қилувчи қувур ҳаракат тенгламаси қуйидаги кўринишга эга:

$$EI(1-R^*)\frac{\partial^4 w}{\partial x^4} + 2(m_L U_L + m_g U_g)\frac{\partial^2 w}{\partial t \partial x} + (m_L U_L^2 + m_g U_g^2)\frac{\partial^2 w}{\partial x^2} + (m_L + m_g + m_p)\frac{\partial^2 w}{\partial t^2} + k_1(1-R_1^*)w - \left[N_0 + \frac{E(1-R^*)A_0}{2L} \int_0^L \left(\frac{\partial w}{\partial x} \right)^2 dx \right] \frac{\partial^2 w}{\partial x^2} = 0. \quad (1)$$

Бу ерда E -материалнинг эластиклик модули; I -қувур кесими инерция моменти; L – таянчлар оралиғидаги қувур узунлиги; m_L , m_g ва m_p – мос равишда бирлик узунликдаги қувурдаги суюқлик, газ ва қувурнинг массаси; A_0 – қувур кўндаланг кесим юзи; U_L , U_g – суюқлик ва газ оқими тезлиги; k_1 -қовушқоқ-эластик грунтли асос коэффициентини; N_0 - сиқувчи (тортувчи) кучлар; R^* , R_1^* – интеграл операторлар: $R^* \varphi(t) = \int_0^t R(t-\tau)\varphi(\tau)d\tau$; $R_1^* \varphi(t) = \int_0^t R_1(t-\tau)\varphi(\tau)d\tau$; $R(t-\tau)$ ва $R_1(t-\tau)$ – Колтунов-Ржаницыннинг релаксация ядроси.

Дискрет модел ва ечиш усули

(1) тенгламанинг тақрибий ечимини қуйидаги кўринишда излаймиз:

$$w(x, t) = \sum_{n=1}^N w_n(t) \varphi_n(x) \quad (5)$$

бу ерда $w_n(t)$ - изланаётган функция, $\varphi_n(x)$ функция шундай танланганки, (5) формуладаги йиғиндининг ҳар бир ҳади чегаравий шартларни қаноатлантиради. Шарнирли маҳкамланган қувур учун (5) формулада Бубнов-Галеркин методига асосан эгилиш функциясини қуйидагича излаймиз:

$$\varphi_n(x) = \sin \frac{n\pi x}{L}. \quad (6)$$

(5) функцияни (1) тенгламага олиб бориб қўямиз ва Бубнов-Галеркин методини қўллаймиз. Қуйидаги ўлчовсиз параметрларни киритамиз

$$\frac{x}{L}, \frac{w}{L}, \frac{t}{L^2} \sqrt{\frac{EI}{m_L + m_g + m_p}}$$

ва w_n га нисбатан интегро-дифференциал тенгламалар системасини ҳосил қиламиз:


$$\begin{aligned} & \sum_{n=1}^N \Delta_{kn} \ddot{w}_n + 2 \sum_{n=1}^N (\gamma_{Lkn} \beta_L u_L + \gamma_{gkn} \beta_g u_g) \dot{w}_n - \\ & \sum_{n=1}^N \alpha_{0n} (\delta_{Lkn} u_L^2 + \delta_{gkn} u_g^2) w_k + \alpha_{0n} \bar{N}_0 w_k + k_w (1 - R_1^*) w_k + \\ & \gamma_1 \alpha_{0k} \sum_{n,i=1}^N \phi_{ni} w_k (1 - R^*) w_n w_i + \alpha_{0k}^2 (1 - R^*) w_k = 0. \\ & w_n(0) = w_{0nm}; \quad \dot{w}_n(0) = \dot{w}_{0nm}; \quad k = 1, 2, \dots, N. \end{aligned} \quad (7)$$

Қувур тебраниши масаласининг дискрет моделини ифодаловчи (7) системага сонли усулни қўллаймиз [10-12]. Бу усулга асосан (7) системанинг сонли ечиш алгоритми яратилди. (7) системани t бўйича икки марта интеграллаймиз ва рационал алмаштириш ёрдамида R^* ва R_1^* интеграл операторлардаги махсусликни йўқотамиз. $t=t_i, t_i=i \cdot \Delta t, i=1, 2, \dots$ ($\Delta t = const$) ўрнига қўйиш ҳамда $w_{ik} = w_k(t_i)$ ни ҳисоблаш учун интегралларни трапеция квадратур формулаларига алмаштирамиз. Натижада уч параметрли Колтунов-Ржаницын ядроси $\left(R(t) = A \cdot \exp(-\beta t) \cdot t^{\alpha-1}, 0 < \alpha < 1 \right)$ учун ҳисоблаш алгоритми ҳосил бўлади.


Шундай қилиб, сонли усулга биноан номаълумларга нисбатан алгебраик тенгламалар системасини ҳосил қиламиз. Бу системани ечиш учун Гаусс усулини қўллаймиз. Яратилган алгоритм асосида компьютер дастури ишлаб чиқилди. Олинган сонли натижалар 3,4-расмларда график кўринишда келтирилди.

Сонли натижалар

Материал қовушқоқлик хусусиятининг таъсири татқиқ қилинди. Татқиқот натижасига кўра, материалнинг қовушқоқлиги оқим критик тезлигини эластик ҳолга нисбатан 40% га камайтиради.



3-расм. Қовушқоклик параметрининг турли қийматларида қувур эгилиши w нинг t вақтга боғлиқлиги: $A=0$ (1-эгри чизик); $A=0.05$ (2-эгри чизик); $A=0.1$ (3-эгри чизик);
 $\alpha=0.25$; $\beta=0.05$;
 $k_w = 3.5$; $\bar{L}_1 = 0.3$; $\gamma_1 = 0.005$; $A_1 = 0.01$; $\alpha_1 = 0.25$; $\beta_1 = 0.05$; $N_o = 0.01$;
 $u_L = 0.3$; $u_g = 0.5$.



4-расм. Оқим суюқлик фазаси тезликларининг қувур эгилиши $w(t)$ га боғлиқлиги:
 $u_L=1.4$ (1-эгри чизик); $u_L=2.92$ (2-эгри чизик); $A=0.01$; $\alpha=0.25$; $\beta=0.05$;
 $k_w = 3.5$; $\bar{L}_1 = 0.3$; $\gamma_1 = 0.05$; $A_1 = 0.01$;
 $\alpha_1 = 0.25$; $\beta_1 = 0.05$; $N_o = 0.01$; $u_g = 1.5$.

Материалнинг қовушқок-эластиклик хусусиятининг қувур тебранишига таъсири ўрганилди. 3-расмда материалнинг қовушқок-эластиклигини ҳисобга олган ҳолда қувур эгилиши қонуниятларининг вақт бўйича ўзгариши кузатилди. Эластик қувур учун тебраниш амплитудаси даврий характерга эга. Расмдан кўринадики, конструкция материалининг қовушқок-эластик хусусияти тебраниш амплитудасининг тезда сўнишига олиб келади. Қувур материали қовушқок-эластиклиги хусусиятининг бошланғич жараёндаги ($0 \leq t \leq 0.2$ вақт диапазонида $w(t)$ эгри чизикқа) таъсири камдир. $t \geq 0.2$ вақтдан бошлаб материал қовушқок-эластиклиги хусусияти қувур тебраниш жараёнига сезиларли таъсир кўрсатади. Татқиқот натижаларидан маълумки, A -қовушқоклик параметри тебраниш жараёнини сўндиришга олиб келади. Бу натижалар ва хулосалар хусусий ҳолда қуйидаги [9, 13, 14] тадқиқот ишлари натижалари ва хулосаларига мос келади.

u_L суюқлик фазаси оқим тезлигининг қувур тебранишига таъсири ўрганилди. 4-расмда материалнинг ($A=0.01$) ва грунт асосли асоснинг ($A_1 = 0.01$) қовушқоклик хусусиятини ҳисобга олган ҳолда суюқлик фазаси оқимининг $u_L=1.4$ (1 эгри чизик);

$u_L=2.92$ (2 эгри чизик) турли тезликлардаги қувур эгилиш функциясининг графиги келтирилди. Оқим суюқлик фазасининг $u_L=1.4$ қийматдаги тезлигида қувур тебраниш амплитудаси сўнади. Оқим суюқлик фазасининг тезлигини $u_L=2.92$ гача оширилганда, тебраниш амплитудаси вақт бўйича ўсишини кузатиш мумкин. Суюқлик фазасининг тезлиги оқим критик тезлигидан каттадир. Натижалар асосида хулоса қилиш мумкинки, амплитудаси вақт бўйича ўсувчи тебранма ҳаракат конструкцияни зўриқишга олиб келади.

Хулоса

Ичидан икки фазали суюқлик ўтувчи қовушқоқ-эластик қувур тебраниш жараёнининг математик модели ишлаб чиқилди ва ҳисоблаш алгоритми яратилди. Яратилган ҳисоблаш алгоритми асосида ичидан икки фазали суюқлик ўтувчи қовушқоқ-эластик қувур тебраниш жараёнини татқиқ қилиш учун амалий компьютер дастури ишлаб чиқилди.

Адабиётлар

- 1.Velmisov, P.A., Korneev, A.V. (2015). Mathematical modeling in the problem of dynamic stability of a pipeline. Automation of control Processes. Journal of science, 1(39), 74-81.
- 2.Paidoussis M.P. and Issid N. T. (1974). Dynamic stability of pipes conveying fluid .Journal of Sound and Vibration. 33(3), 267–294.
- 3.Paidoussis, M., Moon, F. (1988). Nonlinear and chaotic fluidelastic vibrations of a flexible pipe conveying fluid. J. Fluids Struct. 2, 567–591.
- 4.Tkachenko, O. (2016). Construction of the mathematical model of complex pipeline with variable geometry. 15th International scientific conference “Underground urbanization as a Prerequisite for Sustainable Development”. Procedia Engineering, 165, 1261-1274.
- 5.Anoshkin, A.N., Zuyko,V.Yu., Ivanov, S.G. (2007). Calculation of Stress-strain State and Prediction of the Strength of Polymer Reinforced Gas Pipes.Bulletin of the Samara State University. Natural science series, 6,419-426.
- 6.Yagubov, E.Z., Tskhadaya, N.D., Yagubov, Z.Kh. (2013). Multichannel Pipelines for of Oil and Gas Transportation and Recovery of Worn out Oil and Gas Pipelines.Scientific papers, 1, 57-63.
- 7.Mohamed Amine Guidara, LamjedHadjTaieb, Christian Schmitt, EzzeddineHadjTaieb, Zitouni Azari. (2018). Investigation of viscoelastic effects on transient flow in a relatively long PE100 pipe. Journal of Fluids and Structures, 80, 370-389.
- 8.Urbanowicz, K., Firkowski M., Zarzycki, Z. (2016). Modelling water hammer in viscoelastic pipelines: short brief. Journal of Physics: Conference Series, 760(1) 012037.
- 9.Khudayarov, B.A., Turaev, F.Zh. (2019).Mathematical Simulation of Nonlinear Oscillations of Viscoelastic Pipelines Conveying Fluid. Applied Mathematical Modelling, 66, 662-679.
- 10.Badalov, F.B. (1987). Methods for Solving Integral and Integro-differential Equations of the Hereditary Theory of Viscoelasticity. Tashkent: Mehnat.
- 11.Badalov, F.B., Eshmatov, Kh. Yusupov, M. (1987). Some Methods of Solution of Systems of Integro-differential Equations Encountered in Problems of Viscoelasticity. Applied Mathematics and Mechanics, 51, 867-871.
- 12.Badalov, F.B., Khudayarov, B.A., Abdugarimov, A. (2007). Effect of the hereditary kernel on the solution of linear and nonlinear dynamic problems of hereditary deformable systems.Journal of Machinery Manufacture and Reliability, 36, 328-335.
- 13.Matyash, V.I. (1971). On the Dynamic Strength of a Hinged Supported Elastic-Viscous Rod. MechanicsofPolymers, 2, 293-300.
- 14.Мирсаидов М., Султанов Т. З. Использование линейной наследственной теории вязкоупругости при динамическом расчете грунтовых сооружений, Основания, фундаменты и механика грунтов, 2012, №6. 30-34.

ОПЫТ РАЗРАБОТКИ И ВНЕДРЕНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНОГО УЧЕБНОГО КУРСА ПО ГРАФИЧЕСКИМ ДИСЦИПЛИНАМ

Абдуллаев М.К.– Студент, ТИИИМСХ.

Аннотация

Современная подготовка специалистов с высшим техническим образованием ставит новые задачи в преподавании графических дисциплин, а также выдвигает новые требования к конкурентоспособности выпускников на рынке труда.

В настоящее время в жизни современного общества возрождается значимость инженерного образования. Требования, предъявляемые сегодня к качеству профессиональной подготовки современного специалиста технического вуза, вынуждают пересмотреть структуру профессиональной подготовки инженерных кадров, в том числе и его геометро-графическую составляющую.

Технические вузы Узбекистане в настоящее время находятся на этапе перехода к системе обучения бакалавр-магистр. Отлаженная десятилетиями система подготовки инженерных кадров подвергается коренной реконструкции: в учебный процесс внедрены новые ГОСТЫ, учебные планы, дисциплины, учебные программы. Реализовать требования государственных стандартов по специальностям в рамках отведённых на изучения курса часов становится все сложнее и сложнее. Это заставляет преподавателей по-новому выстраивать учебный процесс, пересматривать содержание читаемых курсов, переделывать рабочие программы, календарные планы, менять методики преподавания, что требует больших временных затрат.

В свете изменения учебных планов с переориентацией учебного процесса преимущественно на самостоятельную работу студентов разработка дидактического комплекса является актуальной [1].

Образовательный процесс по графическим дисциплинам реализуется в различных видах учебной работы: лекциях, практических занятиях и самостоятельной работе студентов. Существуют определенные особенности использования современных мультимедиа технологий при проведении учебных занятий по графическим дисциплинам.

Лекции основная форма обучения студентов теоретическим основам курса начертательной геометрии сопровождаются объемными графическими построениями, сложны для зрительного восприятия студентов, поэтому выполнение чертежей на доске традиционным способом с помощью линейки, циркуля и мела является малоэффективным. Значительно облегчают подачу нового учебного материала современные мультимедийные технологии.

Структура разработанного мультимедийного учебного курса содержит:

- 1) теоретические разделы;
- 2) практические разделы;
- 3) элементы учебных курсов, требующие наглядной визуализации;
- 4) элементы учебных курсов, требующие расширенной учебно-методической поддержки.

Для каждого из перечисленных элементов были определены наиболее приемлемые и эффективные мультимедиа формы:

- 1) мультимедиа лекция,
- 2) учебная презентация;
- 3) видеоролик, демонстрирующий способ решения задач и основные приёмы работы в графических программах;
- 4) интерактивные методические и учебные пособия;
- 5) электронные альбомы заданий и методические указания к их решению;

6) виртуальные практикумы или тренинг-задания, предназначенные для самостоятельного освоения приёмов работы в различных технических приложениях (AutoCAD, Solid Works, КОМПАС и др.);

7) наглядные пособия в виде электронных плакатов или 3d-моделей пространства, тел, пересекающихся поверхностей, деталей конструкций, сборочных единиц;

8) электронные справочники, позволяющие оперативно получить необходимую справочную информацию в компактной форме.

Все разработанные мультимедийные учебные пособия содержат иллюстративный материал, отличающийся высокой степенью наглядности решения геометрических задач и пошаговой инструкцией для их решения.

ГОСТЫ, определяющие минимальные требования к уровню подготовки выпускников различных направлений и специальностей, ставят перед преподавателями вузов сложнейшую задачу сформировать необходимые компетенции в условиях максимально сжатых сроков. Таким образом, наибольшая доля учебных часов приходится на самостоятельную работу студентов, и задача преподавателя организовать эту работу наиболее эффективным образом.

Современная образовательная система предоставляет множество высокотехнологичных способов организации самостоятельной работы студентов. Это дистанционные учебные курсы, электронные текстовые видео- и аудио лекции, онлайн и офлайн системы тестирования [2].

Учебную ценность подобных материалов в решающей степени определяют соответствие их содержания программам конкретных дисциплин, наличие точек доступа и качество учебных ресурсов. Создание и развитие высококачественной методической базы, отвечающей учебным планам и рабочим программам дисциплин, представляет собой сложную, трудоёмкую задачу. Для её решения педагог должен обладать целым комплексом специфических компетенций: умением использовать специальное программное обеспечение, предназначенное для записи аудио и видео файлов, и их обработки; умением создавать веб ресурсы, размещать их в сети и организовывать доступ к ним; умением использовать средства создания презентаций, гипертекстов и пр. Приобретение таких навыков требует значительных временных затрат, а потребность в подобных ресурсах есть уже сейчас. Современная подготовка специалистов с высшим техническим образованием ставит новые задачи в преподавании графических дисциплин, а также выдвигает новые требования к конкурентоспособности выпускников на рынке труда. К таким требованиям относится не только теоретическое знание инженерных дисциплин и его практическое использование, но и владение некоторыми графическими компьютерными программами.

В качестве графических редакторов для изучения начертательной геометрии, инженерной, компьютерной и машинной графики на кафедре «Инженерная графика и методики его преподавания» ТГПУ были выбраны AutoCAD отличительной чертой современной графической подготовки является использование твердотельного моделирования. К преимуществам технологии трехмерного моделирования относятся:

✓ улучшенное зрительное восприятие (трехмерная модель для конструктора более удобна при воспроизведении замысла);

✓ автоматизация чертежей (одним из главных преимуществ программ трехмерного моделирования является их способность быстро создавать точные 2D-чертежи из твердотельной модели), возможность изменения чертежей [3].

Преподавание графических дисциплин с использованием современных информационных технологий существенно повышает качество инженерного образования и формирует профессионально значимые качества у будущих специалистов.

Использование мультимедийных технологий обязано своей эффективностью всестороннему влиянию на системы восприятия человека.

Интерактивные системы мультимедийного типа одновременно передают:

- звук;
- видео;
- анимацию;
- графику;
- тексты.

Особо результативны виды уроков с использованием такого подхода, когда студенту отводится не пассивная роль наблюдателя, а главного участника, непосредственно влияющего на ход событий. Впрочем, мультимедийными являются и те занятия, в которых преподаватель использует, как минимум, проектор с презентацией или аудиозапись важной информации [4].

Основная задача мультимедийного учебного курса по графическим дисциплинам: формирование базы учебных пособий и подготовка образовательной среды к внедрению дистанционной формы обучения. Созданный электронный учебно-методический комплекс это мультимедиа продукт учебного назначения, построенный на принципах интерактивности и информационной открытости. Он включает: электронные версии учебников и учебно-методических пособий, учебные презентации, электронные наглядные учебные пособия (чертежи, 3D-модели, электронные плакаты, рисунки), практикумы и электронные задачки; практические пособия и пошаговые инструкции; учебные видеоролики; дополнительные информационные ресурсы (справочники, ссылки на базы данных, выписки из стандартов и т.п.). И Отдельно стоит выделить активное развитие совершенно нового подхода к образованию, в котором полностью используются возможности мультимедийных технологий [5].

Заключение

Внедрения мультимедийного учебного курса по графическим дисциплинам является перспективным и высокоэффективным инструментарием, позволяющим предоставить преподавателю массивы информации в большем объеме, чем традиционные источники информации. Наглядно в интегрированном виде включает не только текст, графики, схемы, но и звук, анимацию, видео и дает отбирать виды информации в той последовательности, которая соответствует логике познания и уровню восприятия конкретного контингента обучающихся. На данном этапе мы находимся на стадии внедрения мультимедийного курса в учебный процесс. Но уже сейчас можно констатировать, что использование адресно разработанных специальных мультимедиа ресурсов позволяет значительно сократить время, отведенное на изучение тем и разделов учебного курса, расширить круг рассматриваемых проблем и вопросов, повысить общую эффективность обучения. И мы можем безусловно сказать, что разработка мультимедийного учебного курса в настоящее время является актуальным направлением в развитии информационных технологий, направленных на помощь преподавателю и студенту в образовательном процессе.

Список использованной литературы

1. Бархин Б.Г. “Методика архитектурного проектирования”. –М.: “Стройиздат”, 1982 г – 224с.
2. Михайленко В.Е. и др. “Инженерная геометрия с элементами теории параметризации”. - К.: “УМК ВО”, 1989 – 84с.
3. Михайленко В.Е., Обухова В.С., Подгорный А.Л. “Формообразование оболочек в архитектуре”. –К.: “Будивельник”, 1972 – 205с.
4. Ис.: <https://www.reklama-expo.ru/ru/articles/2016/multimedijnye-tehnologii-obrazovaniia/>
5. Ис.: <https://cyberleninka.ru/article/n/multimedia-kurs-nachertatelnaya-geometriya-inzhenernaya-i-kompyuternaya-grafika-opyt-razrabotki-i-vnedreniya>

АХБОРОТ ХУРУЖИНИНГ ЁШЛАР ОНГИГА ТАЪСИРИГА ҚАРШИ КУРАШ ОМИЛЛАРИ

Холмуродова М.-талаба, ТИКХММИ

Аннотация

Маколада Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг устивор йўналишлари янги даврни бошлаб берган даврда бугунги кун ёшларининг дунё қарашлари, улар ҳаётида ахборот жамияти тушунчаси ва ахборот хуружи, унга қарши кураш омиллари ҳақида гап юритилади.

Инсониятнинг ахборотга, уни олиш, фойдаланиш ва тарқатишга бўлган эҳтиёжи мислсиз суръатларда ортиб борапти. Маълумки, ахборотга нисбатан талаб қанчалик кучайса, уни тарқатувчилар ҳам мос равишда кўпайишади. Хўш, тарқатилаётган ахборотлар уни талаб қилаётган шахсларнинг манфаатларига мос келяптими? Шахс, жамият, давлатнинг ахборот хавфсизлигига таҳдидлар бўлса, уни олдини олиш, ундан муҳофазаланиш мумкинми? Бу каби саволлар глобаллашув жараёни шароитида энг муҳим масалалардан бирига айланиб бормоқда. Уларни тўғри ҳал қилиш учун эса ахборот хавфсизлиги тушунчасини англаб олиш ва ахборот хавфсизлигини ҳар томонлама таъминлаш, хусусан, ҳуқуқий таъминлаш йўллари излаш лозим. Ахборот хавфсизлигини оддий қилиб тушунтирадиган бўлсак, бу ахборот муносабатлари субъектларининг манфаатлари муҳофазаси дейиш мумкин. Таҳдид – хавфсизликни муайян равишда бузишга қаратилган ҳаракат. У ошқора ёки яширин бўлиши мумкин.

Асосий қисм. XX аср бошларига келиб эса “ахборот инқилоби” юз бера бошлади. Дунёда умумий ахборотлашган жамият шаклланмоқда. Натижада, XXI аср – “ахборотлашган жамият асри” деб эътироф этилмоқда. Яъни, ахборотнинг тез ва сифатли айланишини таъминлаш мамлакат тараққиёти ва равнақининг бош мезонига айланмоқда.

Ҳозирги замон иқтисодиёти ва жамиятнинг муваффақиятли ривожига ахборотлашув ва телекоммуникация технологиялари гаров бўлмоқда.

Инсоният ахборотлашган жамиятга қадар ўз тараққиёти давомида узоқ тарихий йўлни босиб ўтди.

Бугунги кунда оммавий ахборот воситалари инсон турмушининг ажралмас қисмига айланиб улгурди. Бу эса оммавий ахборот воситаларининг ахборот хуружи кучайиб, манипулацион жараённинг кенг ёйилишига сабаб бўлмоқда. Бу каби таҳдидлардан ўз вақтида огоҳ бўлиш, унга қарши курашиш замон талабидир. Ахборот хуружи шундай жараёнки, ундан чеккада турган инсонлар ҳам, мамлакатлар ҳам унинг таъсирига учраб қолиши мумкин [2].

Дунёда бўлаётган урушлар, бузғунчиликлар, инқилобий ҳаракатлар ва террорчиликни ахборот хуружи орқали амалга ошириш нафақат мамлакат, балки дунё миқёсида жиддий муаммоларни келтириб чиқаради.

Инсоннинг ахборот хуружи олдидаги хавфсизлигини таъминлаш учун фуқароларнинг ахборотга бўлган маданиятини юксалтириш, яъни уларга ахборотни саралаш ва ундан онгли равишда фойдаланиш кўникмаларини шакллантириш зарур. Ахборотни танлаш ва ундан унумли, тўғри фойдаланиш эса инсоннинг онг даражаси билан боғлиқ.

Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёев 2017-2021 йилларда Ўзбекистонни янада ривожлантириш бўйича “Ҳаракатлар стратегияси” лойиҳасини кенг муҳокама қилиш давомида келиб тушган таклифларни инобатга олган ҳолда, - “Таълим-тарбия ва илм-фан, давлатнинг ёшларга доир сиёсатини амалга ошириш, таълим-тарбиянинг янги, замонавий усуллари, жумладан, ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш соҳасидаги ишлар таҳлили ва бу борадаги вазифалар”га

катта эътибор қаратилиши лозимлигини таъкидлаб ўтди[1,3]. Ҳақиқатан ҳам, замонавий технология жамиятнинг ўсиши ва ривожланиши учун жуда аҳамиятли. Лекин бундан оқилона фойдаланиш, уни тўғри йўлга қўйиш ва энг асосийси миллатимизнинг урф-одат, қадрият, анъаналарини ота-боболаримиздан бизгача етиб келган барча бойликларни асраб-авайлаб, уни келажак авлодга ҳам етказиш кераклиги ҳеч қачон ёддан чиқармаслигимиз лозим.

Шундай экан, ахборот майдонида ўз манфаатини кўзлаб ахборотни ноҳолис, ноаниқ етказилиши ахборот хуружининг бошланиши деса бўлади. Шунинг учун ахборотни ахборот етказувчи ҳолисона, аниқ, тезкорликда етказилиши, ахборот олувчи эса олган маълумотларни ҳолисона таҳлил қилиши, олган ахборотининг хавфсизлигига ишонч билдириши зарур.

Юқоридагилардан ўз фикримизни ҳаракатга келтирувчи, шиддат билан ўз кўламини кенгайтириб бораётган Интернет ва вертуал олам ҳақидаги тушунчаларимизга тўхталиб ўтамиз. Умуман олганда бугунги кунда Интернет, ахборот – коммуникацион технологиялар – инсон тафаккури, ақли ва билимининг маҳсулидир.

Бугунги кунда глобал тармоқ афзалликларини инкор этмаган ҳолда, унинг инсон маънавиятига туғдирадиган хавф-хатарлари, етказадиган зарарлари ҳақида сўз юритишга тўғри келади. Бугунги кун ёшлари Интернетни маълумот олишнинг асосий манбаи ҳамда телекоммуникациянинг бош манбаи деб қарайдилар. Ўзбекистон ёшлари ҳам дунёдаги тенгдошлари каби онлайн тарзда кун янгиликларини ўқиши, курс ишлари ва рефератлар учун керакли маълумотлар қидириши, янги дўстлар ортириш, улар билан мулоқот қилиш ва кенг миқёсдаги ахборотлар олиш учун Интернетдан фойдаланадилар. Давлат ва фуқароларнинг интерфаол мулоқоти воситасида биргаликдаги сиёсий ҳаракатлар механизмларининг ўзгариши натижасида сўз ва ахборот эркинлиги, давлат бошқарувида қарорларнинг жамият учун шаффофлиги имкониятлар янада ортади.

Интернетда жамиятнинг маънавий тараққиёти, ҳали онги шаклланиб улгурмаган, вояга етмаган ёшларнинг дунёқарашига, ғоявий тарбиясига ўта салбий таъсир кўрсатувчи манбаалар ҳам оз эмас.

Мамлакатимиз ёшларини ҳам, бу каби хавф-хатарлар четлаб ўтаётгани йўқ. Мафкуравий иммунитетнинг тўлиқмаслиги туфайли кўплаб ёшлар ва хатто катталар ҳам турли ғоявий оқимларга тушиб қолмоқда.

Ҳозирда Ўзбекистон Ёшлар Иттифоқи томонидан ёшларга оид давлат сиёсати кенг кўламда амалга оширилмоқда. Жумладан, таълим муассасасида ўқувчи ва талаба ёшларни қамраб олиш, уюлмаган ёшлар билан ишлаш, уларни маълум йўналишларга жалб этиш кабилар.

Хулоса

Умуман олганда, юртимизда ҳам Интернет халқаро ахборот тармоғини миллий ахборотлар билан тўлдириш энг долзарб муаммолардандир. Биз ёшлар онгида ахборот олиш маданиятини юксалтирсак, миллий ғоямиз ва миллий урф-одатларимизга таянган ҳолда фаолият олиб борсак, таҳдидлардан ўз вақтида огоҳлантира оласак, ахборот хуружларига қарши кураша оладиган иммунитетни ҳосил қилсак, ахборот хуружига қарши курашнинг самарадорлигига эришган бўлардик.

Шуни айтиш мумкинки, ҳозирги кунда мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламдаги ислоҳотлар ҳеч бир фуқарони четлаб ўтаётгани йўқ. Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёвнинг куйидаги сўзлари бунга далилдир, “Инсон ислоҳот учун эмас, ислоҳот инсон учундир”[1]. Қабул қилинаётган барча қонунлар халқ ҳаёт тарзини янада яхшилаш, уларни қийнаётган муаммоларни ечишда, жумладан, бугунги кун ёшлари учун ҳам хизмат қилмоқда. Бу эса мамлакатимизнинг халқаро нуфузини янада ошишига, ёшларимиз келажagini таъминлашга замин бўлмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Ш.М.Мирзиёев “2017-2021 йилларда Ўзбекистонни янада ривожлантиришнинг устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси”, Тошкент ш., 2017 йил 7 феврал.
- 2.И.А.Каримов Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари-Т.: Ўзбекистон 2000.
- 3.Каримов И.А. Энг асосий мезон – ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. –Т.: Ўзбекистон, 2009.

Илмий раҳбар

и.ф.н., доц. Раҳманкулова Б.О.

СУНЪИЙ ЙЎЛДОШ МАЪЛУМОТЛАРИНИ ЮКЛАБ ОЛИШ МЕТОДИКАСИ

Атакулов Д.Е. – магистрант. Жумабоев Х., Рўзиёев Д. – талабалар, ТИҚХММИ

Аннотация

Ҳозирги кунда инсонлар турмуш тарзини яхшилаш, уларнинг маълум муаммоларини ҳал этиш мақсадида фазода 300 дан ортиқ сунъий йўлдошлар фаолият юритмоқда. Уларнинг барчаси маълум бир босқичга мўлжалланган бўлиб, самога учирилгандан сўнг имкониятлар бошқа соҳаларда ҳам синаб кўрилмоқда. Шундай соҳалардан бири илм фан соҳасидир. Ушбу соҳада сунъий йўлдош тасвирларини кўллаш ва соҳанинг бирон муаммосини ҳал этиш бугунги кунда шиддат билан ривожланиб бормоқда. Мақолада ушбу сунъий йўлдош маълумотларини юклаб олиш усули келтирилган.


Кириш. Кўплаб олимлар сунъий йўлдош тасвирлари орқали қишлоқ ва сув хўжалигининг маълум муоммоларини ҳал этишмоқда. Жумладан Cristopherd Conrad MODIS ва SPOT тасвирлари орқали SEBAL моделини ишлаб чиқди ва Хоразм вилоятида қишлоқ хўжалиги ерларининг сув балансини масофадан туриб сунъий йўлдош тасвирлари орқали бошқаришга эришди. Edlinger ва Dubovuk эса баъзи вилоятлар учун ер ва сувдан фойдаланиш назорат қилишнинг сунъий йўлдош тасвирларига асосланган дастурий таъминотини ишлаб чиқишди. Шунга қарамай Республикамизда Ер сунъий йўлдошлари тасвирлари имкониятлари тўлиқ ўрганиш изланишлари хали давом этмоқда [1,2].

Асосий қисм. Бугунги кунда ГАТ ҳамма соҳада ривожланиб бораётган бўлсаларда, унда ишлаш учун керакли маълумотларни юклаб олиш ҳаммага маълум эмас. Маълумотларни юклаб олиш учун аввал интернет орқали <https://earthexplorer.usgs.gov/> сайти очилади. Бунда google chrome интернет браузеридан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Юқоридаги интернет саҳифаси очилганда иш столида ўнг тамонда харита чап тамонда эса иш панели ҳосил бўлади (1-расм).

Сайтимиз тўлиқ очилгандан сўнг иш панелидан Search Criteria устунни танланади ва Adres деб ёзилган устунга бизга керакли манзил (яъни тасвир олишимиз керак бўлган худуд) номи ёзилади, ёки Coordinates деб ёзилган устунга жой координатлари киритилади (2-расм, а). Шунда ўнг тамондаги харитада биз излаётган манзил белгиланади. Қайси вақтдаги маълумот керак бўладиган бўлса search from/to устунни тўлдирилади [3].


Кейинги босқичда устуннинг Data Set қисмига ўтилади Устуннинг Data Set қисмидан таҳлиллар учун керакли сунъий йўлдош тасвирини танлаймиз (2-расм, б).

Кейинги босқичда Additional Criteria устунига ўтилади (2-расм, в). Additional Criteria устунда оладиган тасвиримизнинг сифат кўрсаткичлар ва бошқа критерияларини танлашимиз мумкин бўлади. Масалан тасвирлар таҳлилида халақит қилувчи булутлар қопламини камайтириш ва бошқалар.



1-расм. Сайтга кириш


Кейинги босқич ишчи панелдан Results устунига сичқончани чап томони босилади ва панелда бизга керакли тасвирлар каталоги пайдо бўлади (2-расм, г). Тасвирлардаги оёқ белгисини босиш орқали биз тасвирнинг қандай худуни эгаллаганини, ёки расм белгисини босиш орқали унинг кўринувчи диапазонда харитада ифодасини кўришимиз мумкин.



2-расм. а - Search Criteria ишчи панели, б - Data Set ишчи панели, в - Additional Criteria ишчи панели, г - Results ишчи панели

Тасвирлар каталогидаги кўчириб олиш тугмачасини босганимизда иш столида Download Options панели пайдо бўлади унда биз ўзимизга керакли формат ва хажмдаги тасвирларни рўйхатини кўришимиз мумкин бўлади, аммо уни кўчириб олиш тугмачаси фаоллашмаган бўлади. Уни фаоллаштириш учун Log In тугмачасини босиш (3-расм).

Сайтга ўз логин паролимиз билан киришимиз лозим бўлади. Шунда кўчириб олиш тугмачалари фаоллашада ва биз исталган тасвирни кўчириб олишимиз мумкин бўлади[4]. Масалан биз таҳлилларимиз учун GeoTIF маълумотларни юклаб олдик. Агарда юкоридаги сайтдан LogIn очилмаган бўлса Create New Account ёзувини босиш орқали янги акаунт очишингиз мумкин бўлади.



3-расм. Download Options панели

Хулоса

Юқорида айтиб ўтилган сунъий йўлдош маълумотлари орқали кўплаб илмий ишлар фан соҳасида янгиликлар қилиш имкони мавжуд. Бу маълумотлар орқали ҳозирги кунда геодезия, картография, навигация, қурилиш ва ҳарбий соҳаларида жуда кўплаб фойдаланмоқдалар. Бу имкониятлар орқали вақт ва ресурс тежамкорлигига эришилади. Ҳозирги кунда юқоридаги маълумотлардан фойдаланиш соҳаси ортмоқда, айниқса Республикаимизда.

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Арифжанов А.М., Акмалов Ш.Б. Анализ изображений на основе географических объектов и дистанционное зондирование в окружающей среде. «Повышение эффективности, надежности и безопасности гидротехнических сооружений» Сборник статей международной научно-практической конференции. Том II. Ташкент - 2018. С.24-29
- 2.Арифжанов А.М., Акмалов Ш.Б. Анализ изображений на основе географических объектов и описание алгоритма с помощью eCognition. «Повышение эффективности, надежности и безопасности гидротехнических сооружений» Сборник статей международной научно-практической конференции. Том II. Ташкент - 2018. С. 29-33
- 3.Alsubaie, N.M. (2012). The Potential of Using Worldview-2 Imagery for Shallow Water Depth Mapping. Université de Calgary. Alberta, Pp. 85.
- 4.Akmalov Sh.B., Blanpain O., Masson E. Study of ecological changes in Syrdarya province by using the Remote Sensing GEOBIA analysis method. Irrigatsiya va melioratsiya jurnali, Vol N02 (8). ТПАМЕ. Tashkent, 2017. Pp.15-19 (05.00.00; №22).

Илмий раҳбар

т.ф.д., проф. Арифжанов А.М.

АЛ-ХОРАЗМИЙ ИЖОДИ ВА УНИНГ МАТЕМАТИКА ФАНИНИ РИВОЖИГА ҚЎШГАН ХИССАСИ

Маликов Ш – талаба, ТИКММИ

Аннотация

Ушбу мақолада Ал-Хоразмий ижоди билан қисман танишамиз ва математикага қўшган хиссасидан намуналар келтирилади.

Ўзининг шавкатли тарихи билан фахрланмоқ кўхна дунёнинг анчайин халқларига насиб этган эмас. Бу борада ўзбек деган қадимий миллат шону шавкатли ота – боболари, шарифа момолари, буюк алломалари билан қиёматгача ифтихор қилишга минг, минг карра ҳақлидир. Тарихдан маълумки, илм-фан, маданият ва санъат ривожланган жамиятда ҳар жихатдан тараққий этиш, юксалиш бўлган. Бу жараёнда ўз иқтидори, билими ва илмий, бадиий ижоди билан илм хазинасини кашфиёт дурлари билан бойитган Шарку олимларининг хиссаси беқиёсдир. Улар яратган асарлар айни кунда ҳам оламни англаш, инсон ва борлиқ ўртасидаги муаммоларни ҳал этиш, диний ва дунёвий билимларни бойитишда дастуруламал вазифасини ўтаб келмоқда [3].

Шундай улуғ олимларидан бири Мухаммад ибн Мусо ал-Хоразмий (780-850йй) бўладилар. Ал-Хоразмий табобат илмининг султони, математика фанининг асосчиси, география, тарих ва астрономия каби фанларнинг ривожланишига катта ҳисса қўшган. Ҳиндларнинг ўнли системасини биринчи тадбиқ қилган, алгебра фанига асос солган буюк олим. У Бағдод расадхонасига ва Бағдод Маъмун академиясига раҳбарлик қилган. У бутун дунё илм оламини забт этган қомусий олимдир. Ал-Хоразмий хоразм тилидан ташқари, турк, араб, форс, яҳудий тилларни пухта билган. Ал-Хоразмий ижоди ҳақидаги маълумотларига кўра, унинг ўндан ортиқ асарлар муаллифи бўлган. Афсуски бизгача ҳаммаси ҳам етиб келмаган. Олимнинг таъриҳда қолдирган асарларидан бири – «Ал жабр ва муқобил» рисоласидир. Асар икки қисмдан иборат бўлиб: 1- қисм назарий, 2-қисм амалий. Иккинчи қисмида турли хўжалик-турмуш, савдо ва юридик масалалар (ер ўлчаш, мерос бўлиш) га алгебра методларини жорий қилиш кўрилади, янги алгебраик усул баён қилинган [2]

Хоразмий ўша пайтларда амалда учрайдиган барча чизиқли ва квадрат тенгламаларни жамлаб, уларни ҳозирги кунда математик белги (символ) орқали ифодалаш мумкин бўлган қуйидаги олтига кўринишга келтирган:

$$ax^2 = bx \quad (1) \quad ax^2 = c \quad (2)$$

$$bx = c \quad (3) \quad x^2 + bx = c \quad (4)$$

$$x^2 + c = bx \quad (5) \quad x^2 = bx + c \quad (6)$$

Хоразмий бу тенгламаларни ечиш учун «ал-жабр» ва «ал-муқобала» («тиклаш» ва «қиёслаш») амалларини киритди. Бу амалларнинг моҳияти тенглама ҳақларининг ишорасини ўзгартирган ҳолда, уларни бир томондан иккинчи томонга ўтказиш ва йиғишдан иборат. «Ал-жабр» кейинроқ математикани алоҳида бўлимига айланиб, алгебра деб аталадиган бўлди. Шу асар туфайли «Ал-Хоразмий» номи «Алгоритмус» ҳозирги замон ҳисоблаш математикасининг асосий атамаси «алгоритм»га айланди.

Хоразмий берган дастлабки алгоритмлардан бири қуйидагича:

Масалан $x^2 + 6x = 16$ тенгламани топиш талаб этилсин. Хоразмий ёзади:

1. Илдиз олдидаги сонни иккига тақсимла ($6:2=3$);
2. Уни ўзига қўпайтир ($3^2=9$)
3. Унга тенгламадаги сонни қўш ($9+16=25$)
4. Ундан квадрат илдиз чиқар $\sqrt{25} = 5$

5. Бундан илдиз олдидаги соннинг ярмини айир $(5-3=2)$ [1].

6. Бу эса сен қидирган илдиздир $x=2$

Кейинчалик Хоразмий учта тенгламани $ax^2 + bx = c$; $x^2 + c = bx$ ва $ax^2 = bx + c$ бир тенглама $ax^2 + bx + c = 0$ билан ифодалаб, бир ечимга келтирилган.

Хоразмий алгебрасининг геометрия бўлимида геометрик шаклларни ўлчаш қоидалари жамланган. Учбурчак, тўртбурчак, доира, кўпбурчак, пирамида, конус ва бошқа шаклларни кўриб чиққан. Масалан: доиранинг юзи диаметри ярмини айлана узунлигини ярмига купайтирилганига тенг, яъни Мухаммад ал-Хоразмийнинг «Китоб сурат ал-ард» («Ернинг сурати») номли географияга оид ноёб қўлезма асари 1878 йилда Коҳирада топилди. Хоразмий бу асарни яратишда Птоломейнинг «Географиядан қўлланма» асарига асосланган. Асарда 637 та муҳим жойлар, 209 та тоғнинг географик тафсилотоари берилган, дарёлар, денгизлар ва океан ҳавзаларининг шакли, уларда жойлашган оролларнинг муҳим координаталари билан баён қилинган.

Бугунги кунда, таълим муассасаларида математика фанининг турли мавзуларини ўқитишда ал-Хоразмийнинг бой меросидан фойдаланиш мумкин. Ана шундай мавзулардан бири — Санок системалари билан боғлиқдир. Бунинг сабаби шуки, дастлаб Хиндистонда тарқалган ўнлик санок системаси ва у ёрдамида амалларни бажариш қоидалари айнан ал-Хоразмий томонидан Ўрта Осиёлик олимлар орасида биринчи бўлиб талқин қилиниши бу системанинг Ўрта Осиёда кенг ёйилишга сабаб бўлган. Ўнлик позицион системаси узок йиллар мобайнида Хиндистондан четга чиқа олмаган ва айнан бобомиз ал-Хоразмийнинг илмий ишлари орқали аввал яқин ва узок Шарқда, кейинчалик Европада жорий этилган. Позицион санок системаси барча сонлар маълум бир рақамлар ёрдамида ифодаланади. Бу рақамларнинг ҳар бирининг англатиши мумкин бўлган қиймати унинг турган ўрнига боғлиқ бўлади. Биз одатланган ушбу системада ҳар бир сонни қуйидаги кўринишда ёзиш мумкин: $a_k \cdot 10^k + a_{k-1} \cdot 10^{k-1} + \dots + a_1 \cdot 10 + a_0$, бу ерда $a_k = 0, 1, 2, \dots, 9$. Шунинг эътибордан четда қолдирмаслик керакки, a_k бирни ҳам, мингни ҳам ифодалаш мумкин [1].

Ал-Хоразмий нафақат катта сонларни ёзиш усулини кўрсатган, балки уларнинг ўқишиш ҳақидаги маълумотларни ҳам келтирган. Аммо бундай ўқиш бугунги кунда амалда қўлланилмайди. Масалан 1 180 703 051 492 863 сони қуйидагича ўқилган: мингдан беш марта минг, мингдан тўрт марта ва яна саксонмигдан тўрт марта, етти юз мингдан уч марта ва яна уч мингдан уч марта, эллик бир мингдан икки марта, тўрт юз тўқсон икки мингдан икки марта ва саккиз юз олтмиш уч.

Ал-Хоразмий сонларни қўшиш ва айириш қоидаларини келтирган. Бу усулни қуйидагича изоҳлайди: “Агар сен сонни сонга қўшмоқчи ёки айирмоқчи бўлсанг, уларнинг ҳар иккисини иккита сафга, бирининг остига иккинчисига ёз. Бунда биринчи соннинг бирлар разрядига иккинчи соннинг бирлар разряди тўғри келсин. Агар сонларни қўшмоқча бўлсанг, бирлар разрядига бирлар разрядини, ўнлар разрядини ўнлар разрядини ва ҳ.к.қўш. Агар бунда ўнликлар ҳосил бўлса, уни кейинги разрядга сур”.

Мазкур қоида бугунги кунда математика фанида кенг қўлланиладиган устунлар шаклида қўшиш қоидасига тўғри келади.

Ал-Хоразмий айириш амалини юқори разрядлардан бошлаб бажарилишини алоҳида таъкидлаб ўтган. Бу амални мисоли тариқасида Ал-Хоразмий 12025-3604 ни келтиради ва ҳисоблаш жараёнини батафсил изоҳлайди. Бу сонлар қуйидаги кўринишда

ёзилади: $\begin{array}{r} 12025 \\ -3604 \\ \hline \end{array}$ айириш юқори разряддан бошланади. 3 сони иккидан катта бўлган учун

ўн минглар хонасидан қарз олинади ва 12 ҳосил қилинади ва ундан 3 ни айирилади.

Кейинги қуйидаги ёзув пайдо бўлади: $\begin{array}{r} 9025 \\ -604 \\ \hline \end{array}$. Энди минглар разрядидан бир қарз олинади

ва 10 дан 6 айирлади: минглар хонасида эса 8 қолади: $\frac{8425}{4}$ ва 5 дан 4ни айриб, якуний
натижага келамиз: $8421 [2]$

Хулоса

Ватанамиз мустақиллиги бизнинг олдимизга аллома боболар руҳини шод этиб, буюк тарихий ҳақиқатларни тиклаш учун ниҳоятда катта истиқболларни очиб бермоқда. Алломаларимизнинг илмий мероси уларни ўрганиб, илмий мўъжизалардан баҳраманд бўлиш, руҳни кўтариш, амалиётда қўллаш ва бойитиш учун, бебаҳо илм хазинамизга таяниб янги-янги кашфиётларни яратиш учун катта манбаа ҳамдир. Шу маънода тарих зарварақларида ўз номларини қолдиришга эришган барча алломаларимизнинг қилган кашфиётлари ва илмий ишлари бугунги ва келажак авлодларнинг тафаккур оламига олтин қанот бўлиши шубҳасиз.

Адабиётлар

1. С.Х.Сирожиддинов, Г.П.Матвиевская “Ал-Хоразмий ўрта асрнинг улуғ математики ва астрономи”
2. Юшкевич А.П. “Ўрта асрларда математика таърихи”
3. Абдулаҳатов Н. –Буюк аллома. –Фарғона газетаси 1998 й. апрель сони.

Илмий раҳбар

Хидоятова М.

ЭКОЛОГИК ЖАРАЁННИНГ ДИФФЕРЕНЦИАЛ МОДЕЛИ

Норкулов Д.Ў- талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Экология - инсоннинг умуман олгандатирик организмларнинг атроф - муҳит билан ўзаро муносабатини ўрганади. Экологиянинг асосий объекти популяция жараёнидир.

Қуйида популяция жараёнининг дифференциал модели ҳақида тўхталиб ўтамиз. Унга кўра бирор турнинг кўпайиши ёки қирилиб кетиши, шунингдек жараёнда турли турга мансуб хайвонларнинг биргаликдаги ҳолатларни ўрганамиз.

Табиатда бирор турнинг кўпайиши ёки қирилиб кетиши албатта озуқа занжиридаги бошқа бир турнинг миқдорига узвий боғлиқдир. Бундай жараёнлардан бирига “йиртқич - ўлжа” моделини[1] мисол қилиш мумкин.

Бирор t вақт momentiда популяцияда иштирок этаётган жонзодлар сони $x(t)$ бўлсин. Унда бирлик вақт momentiда популяциядан туғилаётган жонзодлар сони A , нобуд бўлаётганлар сони B бўлсин. Унда жонзодлар сонининг вақтга боғлиқ ўзгариш тенгламасини қуйидагича ифодалашимиз мумкин:

$$\frac{dx}{dt} = A - B \quad (1)$$

Энди A ва B ларни x нинг функциялари сифатида қараймиз. Энг содда ҳол бу

$$A = \alpha x, \quad B = \beta x. \quad (2)$$

Бу ерда α ва β вақт бирлиги ичида жонзотларнинг мос равишда кўпайиш ва нобуд бўлиш коэффициенти. (2) ифодани (1) тенгламага қўйсақ у қуйидаги кўринишга келади:

$$\frac{dx}{dt} = (\alpha - \beta)x \quad (3)$$

$t = t_0$ вақт моментида популяциядаги жонзодлар сонини $x = x_0$ деб олиб, (3) тенгламани қуйидаги кўринишга келтирамыз

$$x(t) = x_0 e^{(\alpha - \beta)(t - t_0)}$$

Ҳосил бўлган тенгламадан $\alpha > \beta$ бўлганда, $t \rightarrow \infty$ да жонзодлар сони $x \rightarrow \infty$ бўлади, агарда $\alpha < \beta$ бўлса, унда $x \rightarrow 0$ бўлади.

Келтирилган модель содда ҳол бўлсада, кўпгина ҳолларда тўғри натижа беради. Амалда ҳақиқий ҳодиса ва жараёнларни ифодаловчи моделлар нозиклиги бўлади ва (3) – дифференциал тенглама ўрнига қуйидаги тенглама қаралади:

$$\frac{dx}{dt} = f(x),$$

Бу ерда $f(x)$ - чизикли бўлмаган функция, масалан қуйидагича берилган бўлсин

$$\frac{dx}{dt} = f(x) = ax - bx^2$$


Бу ерда

$$a > 0, b > 0$$

$t = t_0$ вақт моментида $x = x_0$ деб олиб, охириги тенгламадан қуйидагини ҳосил қиламыз:

$$x(t) = \frac{x_0 \cdot \frac{a}{b}}{x_0 + \left[\frac{a}{b} - x_0 \right] e^{-a(t-t_0)}} \quad (4)$$

Бу ердан $t \rightarrow \infty$ да популяцияда жонзодлар сони $x(t) \rightarrow \frac{a}{b}$ бўлишини кўриш мумкин. Бунда иккита ҳолат кузатилади: $\frac{a}{b} > x_0$ ва $\frac{a}{b} < x_0$. Бу ҳоллардаги фарқни қуйидаги жадвалда кўришимиз мумкин:



Таъкидлаш жоизки, (4) формула мева зараркундалари ва баъзи турдаги бактерияларни популяциясини ҳам ифодалайди. Энди бир неча турларнинг, масалан: катта ва кичик хилдаги балиқларни қарайлик бу ерда кичик балиқлар катта балиқлар учун озуқа вазифасини ўтайди. Ҳар бир тур учун популяциянинг тегишли дифференциал тенгламасини тузиш орқали дифференциал тенгламалар системасига келамиз:

$$\frac{dx_i}{dt} = f_i(x_1, x_2, \dots, x_n), \quad i = 1, 2, \dots, n.$$

Икки турдан иборат «Йирткич - ўлжа» моделини қараб чиқамиз. Бу модель биринчи болиб Вольтерра томонидан, денгиздан бир хил даврий оралиқларда овланаётган балиқлар сонини ўзгариш частотасини баҳолаш учун тузилган.

x – катта «йирткич» балиқлар сони бўлсин. Улар учун озуқа ҳисобланган кичик балиқларни еса y орқали белгилаймиз. Унда катта балиқлар сони токи озуқа ҳисобланган кичик балиқлар сони етарлича кўп бўлган давргача кўпайиб бораверади. Қандайдир моментдан бошлаб озуқа етишмовчилиги туфайли катта балиқлар сони камайиб боради. Бу эса қандайдир моментдан бошлаб кичик балиқлар сони ортиб боришини англатади.

Бундан яна катта балиқларнинг сонининг ошиши кузатилади ва бу жараён даврий равишда яна такрорланаверади. Бу жараённи ифодаловчи Вольтерра томонидан тузилган модель кўриниши куйдагича: [2]

$$\frac{dx}{dt} = -ax + bxy, \quad (5)$$

$$\frac{dy}{dt} = cy - dxy \quad (6)$$

Бу ерда a, b, c, d - мусбат ўзгармас сонлардир.

(5) – тенгламадаги bxy катта балиқлар сонини ўсиш даражаси кичик балиқлар сонига боғлиқ эканлигини англатади. (6) - тенгламани $-dxy$ кичик балиқлар сони катта балиқлар сонининг ортиб бориш натижада камайиб боришини англатади.

Охирги икки тенгламани ечиш учун куйидаги белгилашларни киритамиз.

$$u(\tau) = \frac{d}{c} x, \quad v(\tau) = \frac{b}{a} y, \quad \tau = ct, \quad \alpha = \frac{a}{c}$$

Натижада (5) ва (6) тенгламалар куйидаги кўринишга келади:

$$u' = \alpha u(v - 1), \quad v' = v(1 - u) \quad (7)$$

Бу ерда $\alpha > 0$, штрих еса τ бўйича дифференциални англатади.


Вақтнинг бирор $\tau = \tau_0$ momentiда ҳар иккала турнинг жон сони маълум бўлсин:

$$u(\tau_0) = u_0, \quad v(\tau_0) = v_0 \quad (8)$$


Бизни фақат мусбат қийматли ечимлар қизиқтиради. u ва v функциялар орасида боғлиқлик ўрнатамиз. Бунинг учун (7) тенгламалар системасидаги биринчи тенгламани иккинчисига бўламиз ва ҳосил бўлган дифференциал тенгламани интеграллаб куйидаги ифодани ҳосил қиламиз:

$$\alpha v + u - \ln v^\alpha u = \alpha v_0 + u_0 - \ln v_0^\alpha u_0 = H$$

Бу ерда H - (8) бошланғич шартлар ва α параметр ёрдамида аниқланадиган ўзгармас сон.



Куйидаги расмда H нинг турли қийматлари учун u функциянинг v га боғлиқ графиги тасвирланган. Расмдан кўришиб турибдики, функция графиги (u, v) текислигида фақат ёпиқ егри чизиқлардан иборат. u_0, v_0 – бошланғич шартлар $H = H_3$ га мос келувчи A нуқта орқали берилган деб фараз қиламиз. $u_0 > 1, v_0 < 1$ бўлгани учун (7) системадаги биринчи тенглама u ўзгарувчининг аввалига камайишини кўрсатади. Худди шунга ўхшаш тасдиқни v ўзгарувчи учун ҳам келтиришимиз мумкин. u ўзгарувчи бирга тенг қийматни қабул қилганда $v' = 0$ бўлади ва τ вақт давомида v ўзгарувчи ўсиб боради. $v = 1$ қийматга эришганда $u' = 0$ ва шу моментдан бошлаб u ўзгарувчи ўсиб боради. Кўришиб турибдики



u ва v ўзгарувчилар ёпиқ траекториялар бўйича ҳаракатланишади, бу эса уларнинг даврий функция эканлигини англатади.

Бунда u максимуми v нинг максимуми билан устма уст тушмайди, яъни популяция тебраниши турли фазаларда кечади. u ва v нинг τ вақтга боғлиқ намунавий графиги куйидаги жадвалда келтирилган. ($u_0 < 1, v_0 > 1$ хол) [3]

Хулоса

Турларни ўзаро боғлиқ равишда ўрганиш янада қизиқарли натижалар беради. Масалан икки тур битта озуқа манбаасига (учинчи тур) нисбаттан ўзаро рақобатлашишсин, шунда битта турнинг йўқолиб кетишини кўрсатиш мумкин. Агарда озуқа манбаи бўлмиш тур қирилиб битса, қолган икки турни ҳам худди шундай тақдир кутади.

Адабиётлар рўйхати

- 1.Амелькин В.В. Садовский А.П. Математические модели и дифференциальные уравнения . –Минск: Высшая школа, 1982г. -272с.
- 2.Т.Н. Қори-ниёзий тошкент 1968
- 3.Ё.У. Соатов тошкент “уқитувчи” 1992

Илмий раҳбар

Абдуллаев А.А.

ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ДАРС ЖАРАЁНИДА ҚўЛЛАШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЎРНИ

Раҳмонова М. - талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада ўтиладиган дарсларнинг самарадорлигини оширишда ва дарсларда таълим технологияларини қўллашда ахборот технологияларининг ўрни қай даражада эканлиги ёритиб берилган. Қолаверса ахборот технологияларни қўллаш ўқитувчининг ўз устида ишлашига олиб келиши ҳам айтиб ўтилган.

2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича қабул қилинган ҳаракатлар стратегиясида таълим ва фан соҳасини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилган. Бунда кўзда тутилган асосий мақсад узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш йўлини давом эттириш, сифатли таълим хизматларига имкониятларни ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мувофиқ юқори малакали кадрларни тайёрлашга қаратилган [1]. Таълим муассасаларини замонавий ўқув ва лаборатория ускуналари, компьютер техникаси ва ўқув-методик қўлланмалар билан жиҳозлаш бўйича ишларни амалга ошириш орқали уларнинг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш юзасидан аниқ мақсадга қаратилган чора-тадбирларни кўриш мумкин. Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20-апрелдаги ПҚ-2909-сонли қарори чиқарилди. Бу орқали Президентимиз бўлажак кадрларни етук савияли, халқни келажакка етакловчи билимдон ва жонқуяр инсонлар бўлиб етиштишларига бел боғлаганлар [2].

Жамиятнинг ҳар томонлама раванқ топиши, тараққий этиши таълимнинг ривожланишига ва мазмунан такомиллашиб боришига боғлиқ.

Бугунги кунда таълим сифат самарадорлигини ошириш энг долзарб масалалардан бири бўлиб ҳисобланмоқда. Таълимнинг глобаллашуви, инновацион технологияларнинг жорий этилаётгани, айни пайтда кенг қўламли ахборотлар оқими таълим мазмунини мунтазам янгилаб, такомиллаштириб боришни тақозо этади.

Таълим соҳасидаги давлат сиёсатини рўёбга чиқариш, кадрлар тайёрлашда ягона давлат талаблари асосида ўқув-тарбия жараёнини такомиллаштириш, ўқув-адабиётлари билан таъминлаш, педагогларга узлуксиз методик хизмат кўрсатиш вазифасини амалга ошириш муҳим вазифалардан биридир. Бугунги тез ўзгарувчан иқтисодий, ижтимоий ва маънавий ҳаёт ўқувчи ёшлар дунёқарашини шакллантириш янги педагогик интерфаол

методлардан кенг фойдаланишни тақозо қилади. Анъанавий машғулотлар олиб бориш аста секин ўз ўрнини интенсив ва интерфаол методларга, ноанъанавий дарс ўтиш ишларига бўшатиб бермоқда. Билим қанчалик мустаҳкам бўлса, ўқувчи дунёқароши, интеллектуал салоҳияти шунчалик ривожланади ва камол топади. Узлуксиз таълим тизимининг ўрта бўғини бўлган умумий ўрта таълим мактаблари олдида қўйилган давлат талабларига мувофиқ, мазкур таълим муассасалари таълим – тарбия жараёнининг самардорлигини ошириш, илм – фаннинг сўнги ютуқларини амалиётга жорий этиш орқали ижодкор, ижтимоий фаол, юксак маънавиятли, касб – ҳунарли, Она Ватанга садоқатли, миллий ва умуминсоний қадриятларни ардоқлайдиган, ижодий ва мустақил фикр юрита оладиган, давлат, жамият ва оила олдида ўз бурчи ва жавобгарлигини ҳис этадиган баркамол шахсни камолга етказиш, уларнинг онги ва қалбига миллий истиқлол ғоясини сингдириш каби муҳим вазифаларни амалга ошириш назарда тутилади.

Ушбу вазифаларни муваффақиятли ҳал этиш таълим – тарбия жараёнида замонавий таълим технологияларидан фойдаланишни тақозо этади. Таълим – тарбия жараёнида замонавий педагогик технологияларни қўллаш, аввало, педагогик муносабатларни инсонпарварлаштиришни талаб этади. Чунки уни амалга оширмай туриб қўлланган ҳар қандай технология кутилган самарани бермайди. Бу кундаги ўқитувчи тайёр электрон ресурслар ёрдамида дарс ўтиш билан чегараланмасдан балки, таълимий ресурсларни яратиш ҳамда уни амалда қўлловчи ўқитишнинг замонавий технологиялар имкониятларидан самарали фойдаланиш фан ва унинг таркибига кирувчи билимлар мазмунини ўқувчиларга етказиш малакасига эга шахс сифатида фаолият олиб бориши лозим [3].

Таълим тизимини модернизациялашда таълимнинг барча бўғинларида тобора фаол қўлланилаётган илғор педагогик технологияларнинг турли йўналиши ўқувчиларнинг маънавий кучи, қобилиятларини очиш учун мақбул шароит яратиб бермоқда. Таълим тизимида йил сайин ривожланиб бораётган ахборот-коммуникация технологиялари, таълим жараёнини сифат ва мазмун жиҳатдан янада юқори босқичга кўтаришга хизмат қилаётганлиги барчамизга маълум. Айниқса, таълим жараёнини мазмунли ташкил этиш учун замонавий техник воситалардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Жумладан, технология, ахборот, компьютер, мултимедиа, интернет, масофали ўқитиш, ягона ахборот муҳити ва шунга ўхшаш ахборот-коммуникацион технологияларнинг замонавий воситаларидан фойдаланиш ўзининг самарасини бермоқда. Шу ўринда ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражасини ошириш, берилаётган билимларни тушуниш даражаси, хотирада сақлаш ва уни қўллаш имкониятларини юксалтириш мақсадида интерфаол электрон доскалардан фойдаланиш таълим самардорлигини оширишда кўл келади[4]. Бунда фойдаланаётган технологияларни барча имкониятлари мужассамланади.

Таълим-тарбия жараёнининг доимий равишда оптималлашиб бориши дарс бериш жараёнида қўлланилаётган янги ва такомиллашиб бораётган педагогик технологияларни турли йўналиш ва мақсадларда қўлланилаётганлигига боғлиқ. Хозирги кунда ишлаб чиқариш технологиялари тезлик билан ривожланаётган бир даврда таълим соҳаси ҳам бошқа ишлаб чиқариш муассасалари каби илмий, асосланган янги педагогик технологиялар, инфорацион маълумотларни қўллаган ҳолда малакали мутахассислар фаолият юритадиган рақобатбардош, илмли, билимли кишиларни Ватан равнақи учун тайёрлаб берадиган соҳа сифатида ривожланиб бормоқда [5].

Педагогик технологияларни қўллашда ўқувчининг ноёб шахсий ривожланиши, унинг ўзига ҳос қобилиятларини ва психологик йўналишларини ҳисобга олган ҳолда шакллантирилади.

Ўқитувчи дарс жараёнида ўқувчилар тафаккурини ривожлантиришга хизмат қилувчи усуллар (муаммоли-изланиш, тадқиқот, диалог, эвристик суҳбат, мунозара, гуруҳларда ишлаш) дан фойдаланиб, шундай шарт-шароитларни таркиб топтириши лозимки, натижада ўқувчи учун дастлаб нейтрал бўлган объект кутилмаганда субъектив хусусият касб этсин.

Бунинг учун ўқув материаллари мазмуни ўқитувчи томонида ўқувчини қизиқтирадиган, унинг шахсий тажрибасига мос келадиган, фикрлашга ундайдиган, ижодий ёндошган ҳолда қайта ишланади.

Бугунги ахборотлашган, технологиялар жадал суръатлар билан ўсиб бораётган замонда таълим, тарбия соҳасида замонавий ахборот технологияларини, электрон дастурий воситаларни тўғри қўллаш шахснинг мукамал шаклланишига ижобий таъсир кўрсатади.

Таълимда замонавий ахборот ва коммуникация технологияларини кенг жорий этилиши:

- фаннинг барча соҳаларини ахборотлаштиришни;
- ўқув фаолиятни интеллектуаллаштиришни;
- интеграция жараёнларини чуқурлаштиришни;

- таълим тизими инфратузилмаси ва уни бошқариш механизмларини такомиллаштиришга олиб келади. Бунинг натижасида талабанинг касбий билимларни пухта эгаллашига, ўрганилаётган ҳодиса ва жараёнларни моделлаштириш орқали фан соҳасининг чуқур ўзлаштирилишига, ўқув фаолиятининг хилма-хил ташкил этилиши ҳисобига талабанинг мустақил фаолиятини кенгайтиришига, ўрганилаётган жараён ва ҳодисаларни компьютер технологиялари воситасида тақдим этиш, талабаларда фан асосларига қизиқишни ва фаолликни оширишга олиб келади.

Бундай ёндашув ўқувчи шахсини педагогик жараён марказига қўйиб, уни ривожлантиришга, табиий имкониятларини рўёбга чиқаришга ва шу асосида унинг фаоллигини оширишга шарт – шароит яратади. Таълим жараёнида техник воситалардан фойдаланиш жуда муҳим ўринни эгаллайди. Ушбу воситалар ёрдамида машғулотларни замонавий талабларга жавоб берадиган тарзда олиб бориш ҳамда таълим олувчиларнинг диққатини жалб этишда кенг фойдаланиш мумкин. Таълим берувчи техника воситалари, яъни компьютерлар, электрон дарсликлар, интернет тизими ва бошқа воситалар ўқув ахборотини ўзлаштирилиши керак бўлган маълумотларни таълим олувчиларга етказиб

берувчи техник воситалардир. Ахборот берувчи техника воситаларига турли электромеханик асбоблар, машғулотда кўرғазмалар тасвирларни кўрсатишга мўлжалланган демонстрацион осциллографлар ва уларнинг ўлчов асбоблари, шунингдек, телевизор, видеопроектор, смартфон мобил алоқа воситалари, товушли мултимедиа технологиялари ва бошқа воситалар киради. Электрон педагогик дастурий воситалар – компьютер технологиялари ёрдамида ўқув жараёнини қисман ёки тўлиқ автоматлаштириш учун мўлжалланган дидактик восита ҳисобланади. Улар таълим жараёнини самарадорлигини оширишнинг шаклларида бири бўлиб, бугунги кунда замонавий технологияларнинг ўқитиш воситаси сифатида таълим жараёнида ишлатилмоқда.

Хулоса

Хулоса қилиб айтганда, ҳар бир педагогик технологиянинг асосий мақсади пировард натижага эришиш йўллари бандма-банд аниқлаш ва унга сўзсиз эришишдан иборат. Педагогик технологияни ҳар томонлама пухта ўйланган педагогик лойиҳалаштириш, таълим жараёнини ташкил қилиш ва албатта ўқувчи ва педагог учун эркин, қулай шарт-шароит яратиш орқали ҳамжиҳатликда ишлаб чиқилган модел десак бўлади. Педагогик технологиянинг яна бир муҳим тарафи таълим жараёнидаги боланинг ўрни ва унга катталарнинг муносабатидир. Педагогик технологияни лойиҳалаштиришда ўқувчи шахсининг индивидуал ҳамда ёш хусусиятлари, унинг тайёргарлик даражаси ҳисобга олиниши муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А. “Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори”. – Т.: Шарқ, 1998 98-100-бет

2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Т.: Шарқ, 1998. 21-23-бет
3. “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Т.: Шарқ, 1998. 16-17-бет
4. Азизхўжаева Н.Н. “Педагогик технология ва педагогик маҳорат”. – Т.: 2003. 39-42-бет
5. www.ziyounet.uz (интернет тармоғи)

Илмий раҳбар

и.ф.н., доц. Раҳманкулова Б.О.

ҲОСИЛАНИНГ СУВДАГИ ҲАРАКАТЛАНУВЧИ ЖИСМЛАР ҲАРАКАТИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ЕЧИШГА ТАДБИҚИ

Норкулов Д - талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Мақолада энг катта ва энг кичик қийматларни топиш орқали сувда ҳаракатланувчи жисмларнинг тезлиги қандай бўлганда ёқилғи сарфи энг кичик бўлиш масаласи қаралган.

Қўйидаги масалаларни ечишда энг аввал масалаларнинг шартига қараб функция тузишга ва ундан кейин тузилган функцияларнинг максимум ва минимумни излашга тўғри келади.

Агарда $x = a$ да $f(a)$ қиймати учун шу қийматига етарли даражада яқин бўлган ҳамма қўшни қийматлардан катта бўлса, бу ҳолда $f(x)$ у функциянинг максимуми (энг катта қиймати) дейилади.

Агарда $x = a$ да $f(x)$ функциянинг $f(a)$ қиймати унинг шу қийматига етарли даражада яқин бўлган ҳамма қўшни қийматларидан кичик бўлса, бу ҳолда $f(a)$ у функциянинг минимуми (энг кичик қиймати) дейилади. Бу тарифни аналитик усулда қўйидагича ифода қилиш мумкин.

Агарда h ни етарли даражада кичик бўлган бирор (мусбат ёки манфий) сон фараз қилинса, бу ҳолда x нинг a га жуда яқин бўлган қўшни қиймати $a + h$ равишда ёзиш мумкин. Функциянинг a га қўшни бўлган қиймати бу ҳолда $f(a + h)$ бўлади. Шунинг учун агарда [1].

$$f(a) > f(a + h) \text{ еки } f(a + h) - f(a) < 0$$

бўлса, бу ҳолда $f(x)$ функция $x = a$ қийматда максимумга эга бўлади ва

$$f(a) < f(a + h) \text{ еки } f(a + h) - f(a) > 0$$

бўлса, бу ҳолда функция $x = a$ қийматда минимумга эга бўлади.

Агарда эгри чизиқни $f(x)$ функциянинг геометрик тасвири фараз қилинса, бу ҳолда берилган таърифга мувофиқ унинг A , C ва E нукталаридаги қийматлари унинг минимумлари бўлади. Натижада функциянинг максимум ва минимумларини топиш учун ушбу қоида чиқади:

1) $f(x)$ функциянинг $f'(x)$ ҳосиласини топамиз,

2) x нинг ҳосиласини нолга айлантирадиган ҳамма қийматларини топамиз. Бунинг

учун топилган ҳосилани нолга тенглаб,

$$f'(x) = 0$$

тенгламани ҳақийқий илдизларини топамиз. Агарда x ҳосиласини чексизликка айлантирадиган қийматлари бўлса, уларни ҳам топамиз.

3) $f'(x)=0$ тенгламанинг ҳақиқий илдизларидан ёки $f'(x)$ ни чексизликка айлантирадиган қийматларидан бири a бўлсин: ε ни етарли даражада кичик бўлган бирор мусбат сон фараз қилиб, $f'(a - \varepsilon)$ ва $f'(a + \varepsilon)$ ларнинг ишораларини текшираамиз. [2]

Агарда:

$f'(a - \varepsilon) > 0$ ва $f'(a + \varepsilon) < 0$ булса, $f(a)$ максимум.

$f'(a - \varepsilon) < 0$ ва $f'(a + \varepsilon) > 0$ булса, $f(a)$ минимум.

Агарда $f'(a - \varepsilon)$ ва $f'(a + \varepsilon)$ нинг ишоралари бир хил, бўлса у холда $f(a)$ на максимум ва на минимум бўлади. Агарда $f'(x)=0$ тенгламанинг хақиқий илдизларидан биринчи a фараз қилинса, бу холда чиқарилган коидани ушбу жадвал билан тасвир қилиш мумкин:

Мисол 2. Ушбу функциянинг максимум ва минимум қийматлари топилсин. $f(x) = x^x$ ечиш йўли

$$f(x) = x^x(1 + \ln x) \quad (1)$$

$$1 + \ln x = 0 \text{ дeмак, } x = \frac{1}{e} \quad (2)$$

$$f'(x) = x^{x-1} + x^x(1 + \ln x)^2 \quad (3)$$

$$f''\left(\frac{1}{e}\right) = e\left(\frac{1}{e}\right) > 0 \quad (4)$$

Демак, $x = \frac{1}{e}$, бўлганда, функция минимумга эга бўлади ва у $f\left(\frac{1}{e}\right) = \sqrt{\frac{1}{e}}$ бўлади.

Мисол1. Параходнинг юришга сарф бўлган қувват унинг тезлигининг кубига пропорционал сағалади. Параходнинг юриши сувнинг оқишига қарши бўлиб, сувнинг ўз тузлиги соатига α километр бўлган холда, пароходнинг тезлиги қандай бўлса, энг катта экономия бўлади?

Ечиш йўли: Параходнинг ўз тезлиги (кўл сувда) v фараз қилинса, унга бир соатда сарф бўладиган қувват $k v^3$, бўлади (k – пропорционаллик коэффиценти). Пароходнинг бир соатда юрган ҳақиқий йўли $\vartheta - \alpha$ бўлган учун бир километр йўлга $\frac{k v^3}{\vartheta - \alpha}$ қувват сарф бўлади. Шунинг билан изланган функция қуйидаги кўринишда бўлади:

$$f(\vartheta) = \frac{k v^3}{\vartheta - \alpha}$$

Бу функцияни текшириш учун умумий қоида бўйича давом этамиз:

$$f'(\vartheta) = \frac{(\vartheta - \alpha)3k v^3 - k v^3}{(\vartheta - \alpha)^2}$$

$$(\vartheta - \alpha)3k v^3 = 0$$

$$\text{бундан} \quad \vartheta = \frac{3}{2}\alpha$$

($\vartheta = 0$ тўғри келмагани учун тенгламанинг биринчи илдизи ташланади) ; ϑ нинг қиймати $\frac{3}{2}\alpha$ бўлганда функция минимумга эга бўлади. Демак, пароход сувнинг оқишига қарши

юрганда, унинг ўз тезлиги сув оқиши тезлигининг $\frac{3}{2}$ сига тенг бўлса, энг катта тежамли бўлади.

Мисол2 Сувнинг $t(C)$ температурадаги с иссиқлик сиғимини аниқлаш учун ушбу формула қўлланилади: [3]

Хулоса

Ушбу масалаларни куриб чиқиб шундай хулосага келиш мумкинки функция катта ва кичик қийматларни топиш орқали ҳаракатланувчи жисмларнинг ҳаракати қандай бўлганда ёқилғи сарф энг кичик бўлиши ҳақида хулоса қилиш мумкин бўлади.

Адабиётлар

- 1.Т.Н. Қори Ниёзий танланган асарлар II (асосий математик анализ курси) Тошкент 1976й.
- 2.Ё. У. Соатов Олий математика Тошкент 1992й.
- 3.Архив.уз

Илмий раҳбар

Камолов Э.Р.

МЕТОД ПОСТРОЕНИЯ ДВУХ ТОЧЕК В РАЗЛИЧНЫХ ОКТАНТАХ ПРОСТРАНСТВЕННОЙ И ПЛОСКОСТНОЙ СИСТЕМЕ КООРДИНАТ

Садриддинов Х. – студент, ТИИМСХ

Аннотация

В работе приведен метод построения двух точек в 8-ми октантах в пространственной системе координат и в плоскости – эпюры. Описана схема построения данных по численным значениям двух точек. Приведены графические примеры построения этих точек.

Цель работы – показать методику построения двух точек в различных октантах для второй группы студентов по интерактивному методу обучения по кейс-стади.

Задаём в различных октантах по две точки, например, $A(a', a'', a''')$ и $B(b', b'', b''')$. Одну точку A задаём постоянной величиной координат, например, точку $A(25; 15; 20)$, которая располагается в пространстве над плоскостями H, V, W системы, а другую точку $B(30; 0; 10)$.

На рисунке 1 и 2 показаны примеры проецирования двух точек A и B в различных октантах пространственной системы координат и в эпюре, например:

1. По заданным численным значениям находим точку $A(25; 15; 20)$, которая находится в первом октанте (рисунок 1, а, б), здесь горизонтальная проекция a' точки A расположена под осью OX , вертикальная проекция a'' – над осью OX , а профильная проекция a''' над осью OY_1 . Все точки $A(a', a'', a''')$ и $B(b', b'', b''')$ равномерно расположены во всех трех четвертях проекции эпюры. Поэтому в эпюре (рисунок 1, б) используется из имеющихся четырех плоскостей только три плоскости: $V; H; W$, а четвертая плоскость используется как вспомогательная плоскость, поэтому $K = 1,0$.

2. Точка A находится во втором октанте (рисунок 1, в, г). Проектируя точку A на плоскости H и V , получим её проекции: горизонтальную a' – на задней полуплоскости H_1 , вертикальную a'' – на верхней полуплоскости V , а профильная a''' – также на задней полуплоскости W . Численные значения точки $B(30; -10; 0)$ заданы и по ним можно определить, что точка B принадлежит горизонтальной H плоскости, тогда одна проекция

точки B – горизонтальная b' будет расположена над осью OX , а две другие проекции – фронтальная b'' и профильная b''' будут лежать на оси OX , здесь $K = 0,25$.

3. Точки $A(a', a'', a''')$ и $B(b', b'', b''')$ находятся в третьем октанте и изображаются в эпюре по двум четвертям проекции (рисунок 1, д, е). Горизонтальная проекция a' расположена над осью OX , а фронтальная a'' и профильная a''' под осью OX . Точка $B(35; 0; -10)$ также располагается по двум четвертям проекции, но фронтальная b'' и профильная b''' проекции расположены на оси OX , здесь $K = 0,5$.

4. Точки $A(a', a'', a''')$ и $B(b', b'', b''')$ находятся в четвертом октанте пространственной системы и также в эпюре располагаются по двум четвертям плоскости, только в нижней части эпюры (рисунок 1, ж, з). Горизонтальная a' и фронтальная проекции расположены под осью OX , а профильная a''' проекция расположена под осью OY_1 . Точка $B(30; 20; 0)$ здесь также располагаются по двум четвертям плоскости эпюры в нижней части, при этом фронтальная b'' проекция точки расположена на оси OX ; профильная b''' проекция расположена на оси OY_1 , а горизонтальная b' проекция расположена под осью OX , здесь $K = 0,5$. 3.




Рисунок 1. Проецирование точек A и B в I-IV октантах.

5. На рисунке 2, и, к показана эпюра пятого октанта пространственной системы. Точки $A(a', a'', a''')$ и $B(b', b'', b''')$ в эпюре располагаются в двух четвертях плоскости

проекции, только с правой стороны. Фронтальная a'' и профильная a''' проекции точки A располагаются над осью OY_1 , а горизонтальная a' проекция под осью OY_1 . Точка B принадлежит фронтальной V плоскости и проекции точки $B(-35; 0; 10)$ также располагаются по двум четвертям плоскости эюры с правой стороны; горизонтальная b' проекция лежит на оси OY_1 , а фронтальная b'' и профильная b''' проекции точки расположены над осью OY_1 , здесь $K = 0,5$.

6. На рисунке 2, л, м приводится эюра шестого октанта пространственной системы. Точки $A(a', a'', a''')$ и $B(b', b'', b''')$ в эюре располагаются по двум четвертям плоскости проекции, которые находятся в верхней части эюры. Горизонтальная a' и фронтальная a'' проекция располагается над осью $O(-Y)$. Проекции точки $B(-30; -20; 0)$, также располагаются по двум четвертям и находятся в верхней части эюры, фронтальная b'' проекция точки лежит на оси $O(-X)$; профильная b''' – на оси $O(-Y)$, а горизонтальная b' проекция – над осью $O(-X)$, здесь $K = 0,5$.

7. Точки $A(a', a'', a''')$ и $B(b', b'', b''')$ находятся в седьмом октанте и в эюре (рисунок 2, н, о) располагаются по трем четвертям плоскости проекции. Горизонтальная a' проекция точки расположена над осью $O(-X)$; фронтальная a'' – под осью $O(-X)$, а профильная a''' проекции точки под осью $O(-Y)$. В эюре используется из имеющихся четырех плоскостей только три плоскости: $V; H; W$, здесь $K = 1,0$.




Рисунок 2. Проецирование точек A и B в V-VIII октантах.

8. На рисунке 2, n , p приводится эпюра восьмого октанта пространственной системы. Все точки $A(a', a'', a''')$ и $B(b', b'', b''')$ в эпюре располагаются в одной четверти. Горизонтальная a' , фронтальная a'' и профильная a''' проекции точки расположены под осью $O(-X)$, здесь $K = 0,25$.

Вышеизложенное позволяет сделать следующие выводы:

1. В эпюре видно, что используется три плоскости ($V; H; W$), а четвертая плоскость является вспомогательной, для проведения дуговой линии.

2. Наглядно видно, что из восьми октантов эпюры плоскостей наиболее благоприятным октантом является первый октант, так как коэффициент использования плоскостей эпюры равно $K = 1,0$.

3. Из двух пространственной и плоскостной модели координатных плоскостей для лучшего чтения чертежей приемлемым является плоскостная модель – эпюра.

Литература

1. Фролов С.А. Начертательная геометрия. // Учебник. – М.:, 1998. – С. 240.

Научный руководитель

к.т.н., доц. Алимов Б.М.

ПРИЛОЖЕНИЕ ОПРЕДЕЛЕННОГО ИНТЕГРАЛА ПРИ ВЫЧИСЛЕНИЯ ПЛОЩАДИ И ОБЪЕМА ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ ФИГУР

Ражапов О – студент, ТИИИМСХ

Аннотация

В статье приведены основные понятия интегрального исчисления и применения определенного интеграла при решении прикладных задач, в частности приведены задачи на вычисления площади и объемы геометрических фигур.

Одним из важнейших разделов математики, используемых для описания и решения прикладных задач, является интегральное исчисление. Язык производной и интеграла позволяет строго формулировать многие законы природы. В курсе математики с помощью интегрального исчисления исследуются свойства функций, строятся их графики, решаются задачи на наибольшее и наименьшее значения, вычисляются площади и объемы геометрических фигур. Рассмотренные в данной статье примеры практических задач, дадут нам ясное представление о значимости определенного интеграла. Так в процессе выполнения рассмотрим примеры практических задач в области геометрии, решаемые с помощью определенного интеграла.

Пример -1. Найти объем тела, ограниченного цилиндром $z = 4 - x^2$ координатными плоскостями плоскостью $2x + y = 4$ ($x > 0$) [1]

Боковой поверхностью изучаемого тела является цилиндр $z = 4 - x^2$ образующей, параллельной оси Oy . Поэтому необходимо найти проекцию тела на координатную

плоскость $y = 0$. Сначала исключим y из системы $\begin{cases} y = 0 \\ 2x + y = 4 \end{cases} \Rightarrow x = 2$. Значит, проекция

\bar{D}_{zx} тела определяется соотношениями $\begin{cases} z = 4 - x^2 \\ x = 2, x \geq 0 \end{cases}$ и представлена на рис. 1

Сверху рассматриваемое тело ограничено плоскостью $z = 4 - x^2$ следовательно

$$V = \int_0^2 (4-2x) dx \int_0^{4-x^2} dz = \int_0^2 (4-2x)(4-x^2) dx = \int_0^2 (16-4x^2-8x+2x^3) dx = \left(16x - \frac{4}{3}x^3 - \frac{8}{2}x^2 + \frac{2}{4}x^4\right) \Big|_0^2 = 32 - \frac{32}{3} - 16 + 8 = \frac{40}{3}$$




рис.1

Пример -2. Найти объем тела, ограниченного конической поверхностью $z = \sqrt{xy}$ цилиндром $\sqrt{x} + \sqrt{y} = 1$ и плоскостью $z = 0$ (1)

Рассматриваемый цилиндриод показан на рис. [3] Его боковой поверхностью является цилиндр $\sqrt{x} + \sqrt{y} = 1$ с образующей, параллельной оси Oz, который отсекает в первом квадранте криволинейный треугольник. Переменная y изменяется от $y=0$ до $y = (1-\sqrt{x})^2$ при изменении x от $x=0$ до $x=1$.

Следовательно объем тела равен

$$\begin{aligned} V &= \int_0^1 \sqrt{x} dx \int_0^{(1-\sqrt{x})^2} \sqrt{y} dy = \int_0^1 \sqrt{x} \frac{2}{3} y^{\frac{3}{2}} \Big|_{y=0}^{y=(1-\sqrt{x})^2} dx = \frac{2}{3} \int_0^1 \sqrt{x} (1-\sqrt{x})^3 dx = \\ &= \frac{2}{3} \int_0^1 \left(\sqrt{x} - 3x + 3x^{\frac{3}{2}} - x^2 \right) dx = \frac{2}{3} \left(\frac{2}{3} x^{\frac{3}{2}} - \frac{3}{2} x^2 + \frac{6}{5} x^{\frac{5}{2}} - \frac{x^3}{3} \right) \Big|_0^1 = \\ &= \frac{2}{3} \left(\frac{2}{3} - \frac{3}{2} + \frac{6}{5} - \frac{1}{3} \right) = \frac{2}{3} \cdot \frac{1}{30} = \frac{1}{45} \end{aligned}$$




рис.2

Пример-3. Найти площадь S поверхности тела, ограниченного двумя цилиндрами: $x^2 + z^2 = a^2$ и $y^2 + z^2 = a^2$

• На рис. 3 изображена та часть поверхности тела, которая расположена в первом октанте. Эта часть поверхности состоит из двух кусков одинаковой площади. Один из этих кусков является цилиндрической поверхностью, которая задаётся уравнением

$z = \sqrt{a^2 - x^2}$ и проецируется на плоскость Oxy в треугольник $T = \begin{cases} 0 \leq x \leq a \\ 0 \leq y \leq x \end{cases}$ площадь S

этого куска поверхности в соответствии с формулой $S = \iint_T \sqrt{1 + (z_x)^2 + (z_y)^2} dx dy$, где

следовательно, $z_x = \frac{-x}{\sqrt{a^2 - x^2}}$, $z_y = 0$, $\sqrt{1 + (z_x)^2 + (z_y)^2} = \frac{a}{\sqrt{a^2 - x^2}}$

$$S = a \int_0^a \frac{dx}{\sqrt{a^2 - x^2}} \int_0^a dy = a \int_0^a \frac{xdx}{\sqrt{a^2 - x^2}} - a\sqrt{a^2 - x^2} \Big|_0^a = a^2 \Rightarrow$$

$$S = 16s = 16a^2$$




рис.3

Заклучение

Таким образом, в целом решая, прикладные задачи у студентов воспитывается умение самостоятельно решать поставленную задачу, проявлять творческий подход к её решению, умение творчески обобщать конкретные результаты, развивается активное и инициативное отношение к делу. Таким образом, мы узнали, математика нужна инженеру для прогрессирующего развития науки и техники, для обеспечения и функциональности окружающего нас мира, позволит глубже понять и систематизировать знания об определенном интеграле и возможностях его применения в различных областях науки

Список литературы

1. Ильин В.А. Основы математического анализа Ч. 2. В.А.Ильин, Э.Г.Позняк. 7-е изд. М.:Физматлит.2009г.
2. Задачи и упражнения по математическому анализу для втузов: учебное пособие для студентов высших технических учебных заведений. Под ред. Демидовича Б. П. М.:физматлит, 2001 г.
3. Худояров Б.А. Олий математикадан мисол ва масалалар туплами. 2015 й.

Научный руководитель

ХидоятоваМ.

“LAND ANALIZ” АГРОТЕХНИК ҚУРИЛМАСИНИ ЭЛЕКТРОН ДАСТУРИНИ ЯРАТИШ

Хамроева Ш. талаба - ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада “ LAND ANALIZ “ агротехник курилмасининг электрон дастурини яратиш бўйича ишлар кетма - кетлиги баён этилган. Дастурий махсулнинг қишлоқ хўжалиги соҳасида қўлланилиши ҳақида қисқача тавсифланган.

Ер қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг асосий воситаси ҳисобланади. Шу маънода, аграр тармоқда самарадорликка эришиш, кўп жиҳатдан, заминга эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлиш, унинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш ва тупроқ унумдорлигини оширишга бевосита боғлиқ. Сўнгги пайтларда дунё микёсида фойдаланишга яроқли ҳамда унумдор ерлар камайиб бораётганлигини инобатга олсак, бу жуда долзарб вазифадир.

Маълумотларга кўра, айти пайтда дунё бўйича 13,5 миллиард гектар фойдаланиладиган ер мавжуд. Шундан 1,4 миллиард гектари маданий, яъни экин экиладиган майдон ҳисобланади. Шу билан бирга, 1,1 миллиард гектар ер яроқсиз ҳолга келиб қолган бўлса, 4,4 миллиард гектари эса чўл, чала чўл ва музликлардан иборатдир.

Республикамиз минтақаларининг тупроқ-иқлим шароитларидан келиб чиқиб, кузги-қишки агротехник тадбирларга алоҳида эътибор бериш мақсадга мувофиқ. Бунда ҳар бир агротехник тадбир, жумладан, шудгорлаш, шўр ювиш, ерларни текислаш, пушта олиш, чуқур ишлов бериш каби тадбирларни ўтказиш зарур [1].

Кузги шудгор сифати келгуси йил экинлардан мўл ҳосил етиштириш гаровидир. Шу боис ерларни сифатли шудгорлаш, ҳайдовни бир текис ва белгиланган чуқурликда ўтказиш ҳамда талаб этиладиган минерал ва маҳаллий ўғитларни қўллашга алоҳида эътибор бериш лозим.

Кузги шудгор олдидан фосфорли ўғитлар йиллик меъёрининг 70 фоизини (соф ҳолда фосфор 100–120 кг/га ёки аммофос 200–250 кг/га), калийли ўғитнинг 50 фоизини (соф ҳолда калий 50–60 кг/га ёки калий хлор ўғити 90–110 кг/га) ҳамда маҳаллий ўғит (гўнг 20–30 т ёки компост 30 т/га миқдорда) солиш тавсия этилади [2].

Тупроқни органик ва минерал ўғитлар билан тўйинтириш транспирация коэффициентини камайтиради, ўсимлик сувни бефойда йўқатишини пасайтиради, суғориш махсулдорлигини оширади. Масалан, САНИИРИни институтининг ўтказган тажрибалари барча агротехник тадбирларни ўз вақтида ўтказиш, минерал ўғитларни ўз вақтида керакли меъёрга бериш ҳосилдорликни 1,6 баробар, суғориш махсулдорликни 0,36 т/1000 м³ дан 0,96 т/1000 м³ гача, ёки 2,6 баробар ошириш мумкин эканлигини кўрсатди.

Шунинг учун тупроққа ҳақиқий талаб этилаётган ўғитларни бериш учун унинг таркибини аниқлаш ва чуқур таҳлил этиш талаб этилади. Шунинг учун “LAND ANALIZ” дастурини таклиф этамиз.

Статистик маълумотларга қараганда, дунё бўйича йилига 20–40 млн.дан ортик киши очликдан ҳалок бўлади. Бунинга асосий сабаби озик-овқат етказиб берувчи манбаларнинг қониқарсиз аҳволда эканлигидир.

Инсоният зарур озик-овқатнинг 88% ини доимий равишда ишлов бериладиган ерлардан, 10% ни табиий яйловлар ва ўрмонлардан, 2% қисмини эса океандан олади. Шу билан бирга дунё бўйича киши бошига тўғри келадиган экиладиган ер майдони йил сайин камайиб бормоқда [2,3].

Тупроқнинг физик хоссалари (ғоваклиги, ҳаво ўтказувчанлиги, зичлиги сув сиғими, намлиги, капиллярлик хоссаси, массаси, солиштирма ҳажми) ўсимликлар ҳаётида муҳим

Ўрин тугади, кечадиган кимёвий ва биокимёвий жараёнлар, айниқса, сув, ҳаво ва иссиқлик режимлари унинг физик хусусиятларига бевосита боғлиқ.

Инсоният фаолияти туфайли ерларнинг ниҳоят даражада шўрланиб кетиши , чўлланиши, хусусан, Республикамиз учун ҳам улкан экологик муаммодир.

Тупроқнинг физик хоссалари деганда — унинг тузилиши, сув, ҳаво, иссиқлик, умумий физик, физик-механик хусусиятлари тушунилади. Умумий физик хоссаларига тупроқнинг зичлиги, каттик фаза зичлиги ва ғоваклиги киради.

Зеро, табиат биз яшаб турган жамият билан чамбарчас боғлиқдир. Табиат ресурслари, жумладан, тупроқ ҳам инсоният ҳаётида асосий ўринни егаллайди. Тупроқ сифатининг пасайиб бориши, емирилиши, чўлланиши ёки эрозияга учраши инсоният келажаги учун улкан хавф туғдиради.

Инсониятнинг глобал экологик инкирози, хусусан, унумдор тупроқ қатлами бузилишининг белгиси сифатида экологик мувозанатнинг кескин ўзгариши ва инсоният ҳаётининг ўзи вужудга келтирган муҳит билан мувофиқ келмаслиги ҳар бир инсон олдида атроф-муҳит билан доимий ўзаро таъсирда бўлган ҳаётини бошқаришта мойилига ега бўлиши, табиатдан ратсионал фойдаланиши ва Ер шарида ўзининг ўрни, ролини англаб етиши каби масалаларини қўяди.

Менинг ушбу ғоям асосида яратиладиган дастур деҳқончилик соҳасида бир мунча ютуқларга ҳамда иш самарадорлигига ёрдам беради. Бизга маълумки маҳсулотнинг сифатли , тўйимли , мўл-кўл бўлиши бевосита об-ҳаво ва тупроқ ҳолатига боғлиқ.

Дастурнинг афзаллиги ортиқча ҳаражат ва бесамар вақтга ўрин қолмайди. Қаровсиз қолган ҳамда ўзлаштирилмаган ерлар ўзлаштирилади Ердан максимал даражада фойдага эришсак бўлади [3].

Бу дастур Гигрометр Модул (тупроқ намлигини ўлчовчи асбоб), РН тестер (тупроқ РН ҳолатини аниқловчи асбоб) Рақамли термометр (тупроқ ҳароратини ўлчовчи асбоб) Детектор минерала (тупроқ таркибидаги минералларни аниқловчи асбоб) асносида ишлайди . аппаратларга ўрнатилган датчиклар улар олган маълумотлар ҳақида ҳабар беради

Xulosa

Мутахассисларнинг фикрича, тупроқ унумдорлигининг пасайишига, асосан, минераллашган сизот сувлари сатҳининг кўтарилиши натижасида юзага келаётган шўрланиш, эрозияга қарши тадбирлар тўлиқ амалга оширилмаслиги, органик ва минерал ўғитлар қўллашда меъёрларга риоя қилмаслик каби ҳолатлар сабаб бўлмоқда. Шундай экан, ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш юзасидан кўрилаётган чора-тадбирлар нафақат ундан оқилона фойдаланиш ёки қишлоқ хўжалигида юқори ҳосилдорликка эришишга қаратилганлиги, айти пайтда турмушимиз янада фаровон бўлишига хизмат қилиши билан аҳамиятлидир.

Адабиётлар

- 1.Б.Ҳолиқов, Б.Ниёзалиев, Ф.Хасанова, С.Исаев. Кузги-қишки агротехник тадбирларни ўтказиш бўйича тавсиялар. <http://agro.uz/uz/services/recommendations/4652/>
- 2.Д.Бойназаров. Мелиорация ва агротехник тадбирлар тупроқ унумдорлигини оширишда алоҳида аҳамиятга эга. <http://old.xs.uz/index.php/homepage/i-tisodijot/item/407-meloratsiya>
- 3.Б.Матякубов. Сувни тежаш бўйича агротехник тадбирлар тизими. <https://dehqon.uz/uz/useful/page/888>

ДИНАМИК ТИЗИМЛАРНИНГ ТАВСИФЛАРИНИ ЧИЗИҚЛАНТИРИШ

Отабеков М.А - талаба, ТИҚХММИ


Аннотация

Турли элемент ва тизимларнинг динамик характеристикаларини солиштириш учун кириш катталиклари ўзгаришнинг намунали қонунлари ишлатилади. Динамик характеристикалар аналитикусуллар билан ҳам аниқланади. Динамик хусусиятлар аналитик равишда дифференциал тенгламалар орқали тавсифланади. Агар тизим ёки бир бўғиннинг ҳаракати мустақил ўзгарувчиларнинг якуний қийматига боғлиқ бўлса, у параметрлари мужассамланган объект бўлади. Бундай объектларнинг эркинлик даражаси қиймати тизимнинг мустақил ўзгарувчилари қийматига тенг. Бу тизимларнинг динамик хусусиятлари. Тизимнинг мувозанат ҳолатидаги чиқиш ва кириш катталиклари нинг туташган қийматларини аниқлаб, тизимнинг динамик хусусиятларига кўраунинг статик хусусиятларини аниқлаш мумкин.

1. Амалдаги элемент ва тизимларнинг математик модели, кўпинча, чизикли бўлмаган тенгламалар билан тавсифланади, уларнинг таҳлили эса кўп қийинчиликлар туғдиради. Шунинг учун, ҳисоблашларда чизикли бўлмаган математик моделлар чизикли моделлар билан алмаштирилади. Аниқлик бир оз йўқолишига қарамай, чизикли моделлар содда ва мукамал усуллар бўйича таҳлил қилишга имкон беради. Чизикли бўлмаган математик моделларни чизикли моделга тақрибий алмаштириш операцияси тўғри чизикқа келтириш дейилади. Агар раван ўзгараётган эгри чизик шаклидаги график статик характеристика мавжуд бўлса, график тўғри чизикқа келтириш усулидан фойдаланиш мумкин.

Бунинг моҳияти статик характеристиканинг иш тармоғини объектнинг берилган иш режими нуктасидаги бошланғич статик характеристикасига уринма тўғри чизик билан алмаштиришдан иборат. График тўғри чизикқа келтириш жараёни 1-расмда кўрсатилган.

2. График тўғри чизикқа келтиришдан ташқари чизикли бўлмаган боғланишларни тўғри чизикқа келтириш усули, яъни функцияни Тейлор қаторига кириш сигналининг кичик орттирмалари бўйича ёйиш усули мавжуд. Автоматик ростлаш тизими учун ростланувчи катталиққа нисбатан чизикли бўлмаган дифференциал тенглама ўринлидир. Унинг умумий кўриниши кууйидагича:



1-расм. Чизик статик характеристикасининг графикавий тўғри чизикқа келтириш

$$F\left(x, \frac{dx}{dt}, \frac{d^2x}{dt^2}, \dots, \frac{d^m x}{dt^m}, y, \frac{dy}{dt}, \frac{d^2y}{dt^2}, \dots, \frac{d^n y}{dt^n}\right) = 0 \quad (1)$$

у ерда, x -кириш катталиги, y - чиқиш катталиги.

АРТ статик характеристикасини топиш учун (1) тенгламадаги барча ҳосилаларнинг x ва y вақтидаги қийматларини нолга тенглаштириш керак:

$$f(x, y) = 0 \quad (2)$$

(1) тенгламани «у» га нисбатан ечсак, (2) статик характеристиканинг чизикли бўлмаган тенгламасини оламиз:

$$y = f(x) \quad (3)$$

Бу чизикли бўлмаган боғланиш (2) доимий x қийматлари (1-расм) тармоғига тегишли бўлган x нукта атрофидаги Тейлор қаторига ёйилиши мумкин. Бу тармоқдаги бошланғич (3) узлуксиз ҳосилалик узлуксиз функциядир. Агар ёйилишнинг чизикли аъзолари билан кифояланилса, функция ва ҳосилаларнинг узлуксизлиги тўғри чизикқа келтиришнинг муайян пайтидаги зарур ва етарли шарт бўлади.

(3) функцияни x_0 нукта атрофида Тейлор қаторига ёямиз:

$$y = f(x) = y_0(x_0) + \frac{y'(x_0)}{1!} \Delta x + \frac{y''(x_0)}{2!} x \Delta x + \dots \quad (4)$$


Δx нинг қиймати кичик бўлганда эса: $y = f$

$$(x) \approx y_0(x_0) + K \Delta x; \quad K = const(5)$$

Энди координаталар тизимининг бошланиши A ни нуктага кўчирсак 1-расм боғланиш янада соддалашади (2-расм):

$$\Delta y = K \Delta x; \quad (6)$$

бу ерда, K - кучайтириш коэффициентини. Бу коэффициент ўлчамга эга. Бу коэффициентнинг ўлчамини йўқотиш операцияси-ростланувчи бўлишдан иборат.



2-расм. $y = f(x)$ чизикли бўлмаган узлуксиз боғланишни Δx кириш сигналинини Тейлор қаторига орттирмалари бўйича тўғри чизикқа келтириш усули.

3. Тўғричизикқа келтиришдан сўнг (1) тенгламанинг ўлчамсиз кўриниши қуйидагича бўлади:

$$a_0 \frac{d^n y}{dt^n} + a_1 \frac{d^{n-1} y}{dt^{n-1}} + \dots + a_{n-1} \frac{dy}{dt} + a_n y = b_0 \frac{d^m x}{dt^m} + b_1 \frac{d^{m-1} x}{dt^{m-1}} + \dots + b_{m-1} \frac{dx}{dt} + b_m x(7)$$

бу ерда, m ва n - ихтиёрий мусбат бутун сонлар (одатда $m \leq n$);

$a_0, a_1, \dots, a_n; b_0, b_1, \dots, b_m$ -тизим параметрларига боғлиқ бўлган доимий коэффициентлар.

Хулоса

Амалда биз элемент ватизмларнинг динамик характеристикаларини солиштириш мақсадида кириш катталиклари ўзгаришини намунали конунлар ишлатиб топамиз. Бумақолаорқали биз шу катталикларни кириш характеристикаларини фақатгина шу конунларга боғлиқ эмаслигини, балки функция орқали топилган графиклардаги характеристик чизикларини шакли ва кесишиш нукталарига ҳам боғлиқ эканлигини кўрсатдик. Бу эса албатта элемент ва тизмларнинг динамик характеристикаларини солиштириш вақтини камайтиради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Кабильджанов А.С., Юнусова Д.Х., Умеров Х.У. Алгоритмические и программные аспекты автоматизации моделирования динамических систем // Журнал «Вестник» ТашГТУ. - Ташкент, 2004. - №1. - С. 25-32.
2. А.С. Кабильджанов, Ч.З. Охунбабаева, А.А. Авазбаев Методика выбора оптимальных значений параметров мелиоративной техники в условиях многокритериальности. Журнал «Вестник аграрной науки Узбекистана», Ташкентский Государственный аграрный университет, №4, 2017

3.A.S.Kabildjanov, Ch.Z.Okhunboboyeva. Synthesis of optimization models of multidimensional objects in conditions of inhomogeneity of statistics experimental data. Sustainable Agriculture Jurnal

Ilmiy rahbar

Oxunboboyeva Z.

O`ZBEKISTONDA MOBIL ALOQA SIFATI VA INTERNETNING SIFATSIZLIGIGA SABAB BO`LAYOTGAN TEXNIK TALABLAR.

Shermuhammedov X.P. - katta o`qituvchi, Vahobov J.A. - talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Bugungi kunda mobil aloqa va internet sifatini oshirish tezlik bilan bajarilishi kerak bo`lgan muhim vazifalardan biri ekanligini barcha his qilmoqda. Maqolada bu vazifani bajarishga to`siq bo`layotgan texnik va sanitarik normalarni o`zgartirish kerakligi ko`rsatib o`tilgan.

Bugungi kunda mobil telefonlar nafaqat asosiy aloqa vositasi, balki deyarli barcha holatlar uchun ko`p funksional yordamchi hamdir. Ushbu asbob-uskunalar odamlarning kundalik hayotida ortib borayotgan ro`li mobil aloqa sifatini vaqt talablariga muvofiq yanada yaxshilashni talab qiladi. Shubhasiz, bu jarayon asosan mobil aloqa tayanch stansiyalarining soni va joylashuviga bog`liq. So`nggi paytlarda ana shunday tayanch stansiyalarning zararli oqibatlari haqidagi haqiqiy vaziyat qanday?

Yaqinda Farg`onaning Buvayda tumanida bo`ldim. Telegramda yozgan SMSim Toshkentga yetib kelganimdan keyin egasiga yetib borgani bugungi kundagi aloqa siafti haqida o`ylab ko`rishga majbur qildi. Internetku mayli, menga qo`ng`iroq qilmoqchi bo`lganlaru, men qo`ng`iroq qilmoqchi bo`lganlar bilan bir birimizni topa olmay rosa xunobimiz oshdi. Antenna umuman talab darajasiga mos kelmaydi. Nega shamol essa, devori sal qalinroq uyga kirsak yoki shaxardan sal chekkaroqqa chiqsak sifatli aloqa bizni tark etadi? Xullas mobil aloqa va internet sifatining pastligi haqida jiddiy o`ylab ko`rishga va nega bunday ekanligini yoritishga ushbu maqolada harakat qilindi.

Texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida mobil aloqa uchun talab o'sib bormoqda. Xalqaro elektroaloqa ittifoqining ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yil oxiriga kelib jahon bo'ylab mobil aloqa foydalanuvchilari soni 4,5 milliardga yetgan.

Agar 2016 yilda mamlakatimizda 16,2 mingta bo`lsa, 2017 yilda 18 690 mobil aloqa bazasi mavjud edi. O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasida belgilangan rejaga muvofiq 2017-2021 yillar mobaynida 1 843 bazaviy stansiya qurish rejalashtirilgan. O'zbekistonda hozirda 13 ming aholi punkiti bor bo`lib, ularning 90 % qismi aloqa tarmog`i bilan qamrab olingandir. Hozir yurtimizda 21 million mobil aloqa abonentlariga 23955 ta baza stansiyalari faoliyat ko`rsatmoqda.

2018-yil oxirigacha yurtimizda 4 mingta baza stansiya qurib bitkazildi. Bitta baza stansiya qurish uchun 6-9 oy ketadi. Bizda shunchalik ko`p baza stansiyalari faoliyat ko`rsatayotgan bo`lsada nega aloqa sifati pastligi ko`pchilikni o`ylantirishi tabiiy.

Stansiyalar soni o`z yo`liga, mavjudlarini aloqa uzatish quvvatini va xizmat ko`rsatish geografiasini kengaytirsam bo`lmaydimi? Ya`ni, kuchliroq signal uzatuvchi qurilmalar o`rnatsam yaxshimasmi? Buni aloqa kompaniyalari ham maqullashi aniq. Shunda foydalanuvchilarga hamda aloqa kompaniyalariga arzonroq tushishini bilish uchun mutaxassis bo`lish shart emas. Lekin bizning asosiy muammo **me`yoriy xujjatlarimizdagi texnik talablarda.**



1- a) va b) mobil aloqa baza stansiyalari.

Masala shundaki, Sanitariya-Epidemologiya nazorati markazi o`zining me`yoriy-xuquqiy xujjatlarini ko`rsatib, baza stansiyalarga elektromagnit to`lqinlariga keskin norma qo`ygan. Ya`ni odamlar yashaydigan joylarda baza stansiyalarning elektromagnit quvvat oqimi zichligi **2,5 mkvtt/sm²** dan oshmasligi kerak ekan. Biz aloqa sifati va internet sifati yuqoriligi bilan na`muna qilib ko`rsatadigan davlatlarda ushbu norma qandayligini keltirib o`tamiz:

- Isrolida belgilangan norma: **400 mkvtt/sm²**;
- AQSHda: **100 mkvtt/sm²**;
- Skandinaviya(Finlandiya, Norvegiya, Shvetsiya) davlatlarida : **100 mkvtt/sm²**;
- Rossiya, Qozog`iston, Tojikiston, Belorussiya, Qirg`izistonda esa: **10 mkvtt/sm²**;

Narxlar qimmat bo`lib ketishining bizdagi sabablaridan biri ham mana shunda. Ya`ni kompaniyalar aloqa qamrovini kengaytirish uchun ko`proq stansiya qurishga majbur bo`ladi. Qurganidan keyin esa qurish harajati katta miqdorni tashkil etgani uchun, ta`riflarga juda qimmat narxlarni qo`yib oladi va odamlarning cho`ntagi bundan zarar ko`radi.

Bizning SESchilar nega past bunday normaga yopishib olgan degan savolga aholining salomatligini o`ylab, deb javob berishlari mumkin. Lekin unda rivojlangan davlatlar o`z aholisining sog`ligini o`ylamaydimi?

Mobil aloqa tayanch stantsiyalarining salomatlikka ta`siri bo`yicha ekspertlar ishonchli tekshiruv ma`lumotlariga asosanib quyidagilarni qayd qilishdi: baza stantsiyalari inson salomatligiga tahdid solmaydi. Jahon sog`liqni saqlash tashkiloti, Radiologiya himoyasi bo`yicha xalqaro komissiya, Elektr va Elektron muhandislar instituti kabi nufuzli tashkilotlar elektromagnit to`lqinlarning inson salomatligiga ta`sirini ko`p yillar mobaynida o`rganishmoqda. Bunday tadqiqotlar natijalari asosida milliy va sanoat standartlari hamda me`yorlarini ishlab chiqishda foydalanish uchun elektromagnit nurlanish chegaralari bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Butun Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2006 va 2011 yilgi rasmiy bayonotlariga ko'ra, uyali baza stansiyalari va mobil qurilmalardan elektromagnit nurlanishning inson sog'lig'iga ta'siri **tasdiqlanmagan**. 2011 yilda Butun Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bayonot bergan.

Unda:

- elektromagnit maydoni baza stansiyalari mobil telefonlaridan taralayotgan to'liqlarning inson salomatligiga ta'siri o'z isbotini topmagani qayd etilgan ekan!

- Butun Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining judayam ko'p xujjatlarida yozilishicha: antennalar sizga qanchalik yaqin hududda joylashgan bo'lsa, aloqa sifati yaxshi bo'lar ekan va shuncha zararli to'liqlar kamroq ajralar ekan. Agar telfoningiz antenna qidirib, baza stansiyasi uzatgichlari bilan zo'riqib bog'lanadigan bo'lsa, elektromagnit nurlanish ko'rsatgichi oshib ketar ekan.

Bir paytlar odamlar radio va televizordan ham shunday qo'rqishgan. Nurlanamiz degan gaplar moda bo'lganini aaholimizning kata yoshdagi qismi yaxshi eslashsa kerak. Oradan 50-60 yil o'tib ketdi, lekin, hozircha insoniyat bu borada tinchligi faktdir. Shunday ekan, binolarimizning tepasiga katta antenna qo'ydi, deya havotir olishga hojat yo'q. Chunki, aloqalar radio chastotasidan nurlanish ehtimoli judayam pastligini Butun Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti e'tirof etmoqda. Xullas, SES xizmatiga taklif: me'yoriy xujjatlardagi stansiyalarning elektromagnit quvvat oqimi zichligi normasini oshirish kerak. Biz ham, sifatli aloqa va internetdan bahramant bo'ladigan vaqt keldi.

Xulosa

Ko'rib o'tilgan ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, davlatimiz faqat texnik amaliy-chora tadbirlar(yangi baza staniyalarni qurish va h.k)ni amalga oshirishi bilan bu muammoga chora topa olishi qiyindir. Bu muammoni hal qilish uchun bugungi kun talablariga javob bermaydigan normalar va reglamentlarni zamon talablariga mos holatga keltirishdan boshlashi kerak. Bunda butun dunyo tajribasi va ular to'plagan ma'lumotlarni tan olib, o'zimizga ehtiyotkorlik bilan tadbiriq etish, bu muammolarga uzil-kesil nuqta qo'ya oladi. Misol uchun baza stansiyalarning elektromagnit quvvat oqimi zichligini hech bo'lmaganda 4 barobarga oshirib, xuddi MDH davlatlaridagi kabi **10 mkvtt/sm²** ga yetkazish kerak. Davaltimizning me'yoriy-xuquqiy xujjatlarida ko'rsatilgan ba'zi normalarni, masalan, Sanitariya-Epidemologiya nazorati markazining me'yoriy-xuquqiy xujjatlarini qaytadan ko'rib chiqib, zamon talablariga javob bermaydigan texnik reglamentlardan voz kechish, ba'zilarini oshirish kerak. Bu bilan davlatimiz ko'p sohalarni rivojlanishiga katta turtki bergan bo'lar edi.

Foydalanilgan internet saytlari

- 1.www.google.com
- 2.www.translate.google.com
- 3.www.wikipedia.uz
- 4.www.lex.uz
- 5.www.uza.uz
- 6.www.who.int – Butun Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti web sayti.

Ilmiy rahbar

prof. Abduvaliyev A.A

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЎРНИ

Мирзаева Л.Ш., Зайниддинова Н. Ш. - талаба, ТИКХММИ

Аннотация

Мақолада мамлакат қишлоқ хўжалиги тармоғини ривожлантиришда ахборот технологияларининг роли очиб берилган ва унинг ташкил этиш бўйича муаллифлар варианты тавсия этилган. Замонавий ахборот технологияларини қўллашда эришиладиган натижалар ёритилган.

Маълумки, қишлоқ хўжалиги фаолияти турли билим ва кўникмаларни талаб қилиб, уларсиз қишлоқ аҳолиси етарлича ер, меҳнат ва капитал ресурслари мавжуд бўлса ҳам самарали ишлаб чиқаришни таъминлай олмаслиги мумкин. Бозор иқтисодиёти шароитида хўжалик юритишнинг жамоа тизими ҳар бир ходим ишининг юқори даражадаги ихтисослашганлиги билан характерланади. Бугунги кунда қишлоқ хўжалиги соҳасидаги ислохотлар даврида яъни, йирик қишлоқ хўжалиги корхоналарининг фермер ва деҳқон хўжаликларига айлантирилишида деҳқоннинг ўз хўжалигини ташкил этиш ва бошқариш соҳасида, ҳамда у ёки бу маҳсулот ишлаб чиқариш технологиясини танлашда билим ва ахборотлар етарли эмаслиги кўринмоқда.

Шу нуқтаи назардан Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони билан тасдиқланган 2017- 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш ва жадал ривожлантириш жараёнида замонавий бозор хизматлари кўрсатиш инфратузилмасини янада кенгайтириш масаласи ҳам белгиланган бўлиб, бу ўз навбатида қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларининг ахборот-маслаҳат хизматидан фойдаланиш заруриятини келтириб чиқармоқда [1]. Бу хизматнинг асосий мақсади - қишлоқ хўжалик товар ишлаб чиқарувчиларига ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этиш ва бошқаришда энг муҳим қарорлар қабул қилишда қўмаклашишдир. Қишлоқ хўжалигининг ривожини самарали технологиялар, сифатли уруғ, ўғит ва бошқа агрокимёвий воситалар ҳамда механизация агрегатларидан самарали фойдаланишга; технологияларини бошқаришни такомиллаштиришга; механизациянинг рентабелли даражасини танлай билишга; хўжалик юритиш тизими ихтисослашувидаги ижобий ўзгаришларга баъзан йирик хўжаликларни бир мунча кичикларига айлантиришга; моддий-техник ресурслар ва кредитлар билан таъминлашни такомиллаштиришга; хизмат кўрсатишни ва маҳсулотни қайта ишлашни яхшилашга; қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари бозор баҳосида ишлаб чиқарувчилар улушини оширишга; маҳсулотларни сақлаш, ташиш ҳамда суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини янада яхшилаш, дренаж ва ирригация тармоқлари аҳолини яхшилашга; давлатнинг аграр сиёсатидаги ислохотларига боғлиқдир.

Бу ўзгаришлар қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларидан яқка тартибда ёки жамоа бўлиб асосланган бошқарув қарорларини қабул қилиш қобилиятини оширишни талаб этади. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларининг барча соҳада муносиблигини такомиллаштириш марказнинг муҳим масаласидир. Айни пайтда ўз хўжалиги маҳсулдорлигини секин-асталик билан ошириб бораётган ишлаб чиқарувчилар мамлакатимизда ҳам, хорижда ҳам, рақобатда жиддий тўсиқларга дуч келишмоқда. Бу соҳада ҳам хизмат ходимларининг маслаҳатлари зарур бўлади [2]. Одатда, маслаҳат марказлари зарурий қарорни қабул қилишда ахборотнинг бир қисмини бера олади. Қолган қисмини эса қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларидан олиш керак. Билим ва ахборотга меҳнатнинг махсус бир кўриниши сифатида қарасак, у хўжаликнинг рақобатбардошлигини таъминловчи омилдир. Агросаноат мажмуидаги ахборот соҳаси уч асосий тармоқни: илмий-техник ахборотни ишлаб чиқариш; ахборотларни тайёрлаш, ишлатиш, йиғиш, сақлаш ва узатиш; унинг истеъмолчиларини бирлаштиради. Бу ахборот

жараёнлари ахборот марказлари доирасида компьютерлаштириш объекти ҳисобланади [2].

Аграр соҳа фани ривожига ва ахборот марказларини ташкил этишга инвестиция қилиш қишлоқ хўжалиги ривожланишининг ўзига инвестиция қилишга қараганда яхши натижа бериши мумкин. Ахборот марказлари бир томондан қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларини ўқитса, бошқа томондан, уларга зарурий билим ва ахборотларни топишга ёрдам бериб, коммуникацияни таъминлаши керак ҳамда илмий-тадқиқотчиларга қишлоқ хўжалик ишлаб чиқарувчиларига зарур бўлган янги билимлар тўғрисида ахборот бериши лозим. Айнан шу туфайли ахборот-маслаҳат хизматининг барча бўғинларида компьютер ва компьютер алоқа тизимига асосланган замонавий ахборот технологияларини қўллай олиш муҳимдир. Марказнинг барча хизмат бўлимлари ўз вазифаларига эга ва ташқи тузилмалар билан алоқани ташкил этади. Қишлоқ хўжалиги корхоналаридан келган ахборотлар марказ ичида автоматлаштирилган иш жойлари ва ҳисоблаш марказида йиғилади, таҳлил этилади ҳамда қайта ишланади. Катта агрофирмаларнинг, фермер ва деҳқон хўжаликларининг самарали фаолияти кўп жихатдан товар ишлаб чиқарувчилар қанчалик янги технологиялар, ресурслар баҳоси ва уларни сотиб олиш имкониятлари, ўзлари ишлаб чиқарган маҳсулот баҳоси ва уларни сотиш каналлари, олди-сотди амалларининг ҳуқуқий ҳимояланганлиги, бозор конъюктураси ривожининг истикболи ва бошқалар ҳақидаги ахборотларга боғлиқдир. Бугунги ахборот технологиялари қарор қабул қилишда аълумотларга тезкор мурожаатни таъминлайди.

Ахборот марказларида қўлланувчи коммуникациянинг кўпгина турлари (нашр, телевидение ва ҳақозалар) катта гуруҳдаги истеъмолчиларни умумий маслаҳатлар кўринишидаги ахборот билан таъминланса, информацион технологиялар ихтиёрий миқозни сўрови бўйича конкрет ва яқка тартибда ахборот билан таъминлайди. Албатта, бунда компьютер хизматларининг йиллар давомида арзонлашишини ва ходимнинг жонли меҳнати қимматлашаётганини кўздан кочирмаслик зарур. Шунинг учун ахборот марказларининг ривожини стратегиясини ишлаб чиқишда анъанавий усулда бажарилувчи яқка тартибдаги маслаҳатлар беришни компьютерда мавжуд маълумотлар базасига мурожаат билан алмаштиришни кўзда тутиш лозим. Замонавий ахборот технологияларининг муҳим жиҳати миқозларнинг турли информацион ва компьютер тизимларидан мурожаат қилиш вақтида ахборотлар янгиланишининг тезкорлиги ва доимийлигидир. Бундан ташқари, анъанавий усулларда мавжуд бўлмаган ахборотлар йиғиш, тўплаш ва излашни ҳам таъминлашидир. Шундай қилиб, қишлоқ хўжалигида замонавий ахборот технологияларини қўллаш қуйидагиларни таъминлайди:

- бутун қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришига инновацион тус бериш;
- қишлоқ товар ишлаб чиқарувчиларининг ахборот марказлари ёрдамида муҳим тезкор ахборотларга мурожаатини амалга ошириш;
- қишлоқ хўжалик ишлаб чиқарувчиларига экинларининг касаллик ва зараркунандаларга чидамли янги селекция навлари ҳамда маҳсулдорликка эга, маҳаллий ер-иқлим ва экологик шароитга мос чорва моллари ҳамда ушбу фаолиятдаги илғор хорижий тажрибалар тўғрисида ахборот ва билимларни тарқатиш;
- қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сотишнинг янги бозорларини шакллантириш ва рақобатлашувчанлик қобилиятини ошириш ҳисобига эски бозорларда ўз улушини кўпайтириш;
- молиявий турғунлик ва қишлоқ хўжалигини модернизациялаш асосида қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари рақобатбардошлигини ошириш;
- ер унумдорлигини ошириш ёки сақлаш ҳисобига қишлоқ хўжалигининг фаолият юритиш умумий шароитларини яхшилаш;
- қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришдаги турли таваккалчиликларни (сифатсиз маҳсулот ишлаб чиқариш, экиш ва ҳосилни ўз вақтида йиғиш, маҳсулотни сақлаш даврида маълум қисмини йўқотиш ва ҳақозаларга боғлиқ) бошқариш;

- ўсиш нуқтасига тезроқ эришиш, қишлоқ хўжалигининг устувор ва қуйи тармоқлари ривожини жадаллаштириш, чорвачилик ва паррандачиликни ривожлантириш;
- қишлоқ хўжалиги ривожини қўллаб-қувватлаш учун ахборот марказлари ва аграр сиёсатдаги турли воситалар ўртасида координациясини ўрнатиш[2,3,4,5].

Хулоса

Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларининг ахборот хизмати фаолиятида йўналишнинг истиқболини ҳисобга олишда техник мутахассислар (тизим ва амалий дастурчилари, маълумотлар базаси маъмурлари, маҳаллий ва минтақавий тармоқ лойиҳачилари) янги замонавий ахборот-коммуникация тизимлари қўлланадиган масала ва соҳалар тўғрисида тўлиқ тасаввурга эга бўлиши зарур.

Шундагина қишлоқ хўжалигини ривожлантиришда замонавий ахборот технологиялари ўз самарасини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. 4-бўлим.
2. Алимов Р.Х., Ходиев Б.Ю., Алимов Қ.А. ва бошқалар. Миллий иқтисодда ахборот тизимлари ва технологиялари. Ўқув қўлланма / С.С.Ғуломовнинг умумий таҳрири остида. –Т.: “Шарқ”, 2004 . – 320 б.
3. З.С.Абдуллаев, С.С.Мирзаев, Г.Шодмонова, Н.Б.Шамсиддинов Информатика ва ахборот технологиялари, Т., 2012й. - 442б.
4. www.ziyounet.uz (интернет тармоғи)
5. lex.uz.

Илмий раҳбар

Ахборотни эшитгач, аввалдан олинган билим ва тажрибага мувофиқ, юзага келган вазиятдан келиб чиққан ҳолда ҳаракат қилиш ва жабрланганларга биринчи ёрдам кўрсатиш зарур. Иложи борича кўшниларни ҳам огоҳлантириш керак, чунки улар бу сигнални эшитмаган бўлиши мумкин. Уйни тарк этаётган вақтда албатта кийимларни олиш ва ёш болалар ва қарияларни кийинтириб олиш керак. Бундан ташқари ўзлари билан маҳсус ҳимоя воситалари-противагаз (респератор) маҳсус плаш, биринчи ёрдам кўрсатиш учун анжомлар (бинт, пахта) маҳсус дори қутиси АИ-2, дори-дармон, шу билан бирга озик-овқат маҳсулотлари захираси ва тегишли ҳужжатларни олишлари лозим.

Яширин иш жойларига жонзотлар ва портловчи моддалар-ёқилғи ва ноҳуш ҳидли суюқликларни ўзи билан олиб кириш мумкин эмас.

Агар сигнал аҳоли гавжум жойларда чалинса, (магазин, театр, бозорларда) у ҳолда сиз маъмуриятнинг кўрсатмасини қунт билан эшитинг. Маъмурият томонидан асосан аҳолини қулай, тез ва мукамал беркиниш жойлари яқин атрофдаги метро, пана жойлар ҳақида маълумот берилади. Хабарни эшитгач, тез, ва шовқин қилмасдан кўрсатилган жой томон ҳаракат қилмоқ лозим. Агар маъмурият томонидан эшиттириш берилмаса, у ҳолда бинодан ташқарига чиқиб, яқин атрофдаги пана жойга яшириниш керак.

Агар сигнал берилган вақтда болалар мактабда бўлишса, дарҳол дарс тўхтатилиши ва болаларни пана жойга олиб чиқиш ишлари ташкиллаштирилиши керак. Хар бир бола назорат остига олиниб, уларни ўзлари уйга кетишларига руҳсат берилмайди. Юқори синф ўқувчилари бошланғич синф ўқувчиларини хавфсиз ва пана жойларга олиб чиқиш ишларига жалб қилинади. Уларни шовқин қилмасдан, тартиб билан тез ҳаракат қилишлари талаб қилинади. Ўқитувчи ва мураббийлар хар бир ўқувчига шахсий ҳимоя воситаларидан фойдаланишни яъна бир бор эслатиб, улардан пана жойларда фойдаланиш керак эканлигини тушинтириши керак. Бундан ташқари захарланган жойларга бормаслик ва пана жойларга ўқувчиларни олиб чиқиш усуллари айтилади ва улардан тартиб билан юриши ва ўзини тутиб олишлари учун рухий тетик бўлишлари эслатилади.

Агар сиз қишлоқда яшасангиз, агар сигнал қишлоқ аҳолиси уйларида эшитилса, улар ҳам шаҳар аҳолиси сингари чора кўришлари керак. Аҳоли ҳимоя жойлари сифатида подваллар ёки бошқа чуқур пана жойлардан фойдаланишлари мумкин. Сигнал эшитилган пайтда иш жойида бўлган аҳоли очиқ жойда, дала шийпонлари ҳамда олдиндан тайёрлаб қўйилган оддий бошпана жойларга беркинишлари керак. Техника асбоблари ҳамда трактор, комбайн ва бошқа механизмларни яқин орадаги маҳсус очиқ жойларга беркитишлари ва албатта уларни моторларини ўчиришни унутмаслик керак.

Хулоса

Хавф туғулган пайта хабар берилган вақтда аҳолини ваҳимага тушиши ва тартибсиз ҳаракати оқибатида талофатлар кўпайишига сабаб бўлади. “Диққат Барчага” сиренанинг узлуксиз сигнали берилган пайтида аниқ, тартиб билан қилинган ҳаракатлар,

пана ва беркиниш жойлари жойлашувини билиш ва ўзини тутиш қоидаларига риоя қилиш инсонларни ҳаётини сақлаб қолади, талофатларни камайтиради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси "Аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида"ги қонуни. 20 август 1999 й
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 8 августдаги 601-сон Қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 24 августдаги 242-қарори.

Илмий раҳбар

доц. Хожиёв А.

АҲОЛИНИ ЗИЛЗИЛА БИЛАН БОҒЛИҚ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДА ҲАРАКАТ ҚИЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ КОММУНИКАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ АФЗАЛЛИГИ

Йўлдошев Э. - магистрант, Норқўзиева Н. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу илмий мақола замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда аҳолини зилзила билан боғлиқ фавқулодда вазиятларга тўғри ҳаракат қилишга тайёрлашга урғу берилади. Бундай қарор зилзилалар билан боғлиқ фавқулодда вазиятларда жабрланганлар сонининг кескин камайишига олиб келади ва аҳолининг тайёргарлигини сезиларли даражада ошириши мумкин.

Дарҳақиқатан ҳам айтиш жоизки, кундалик турмушимизда инсоннинг хавфли ҳолатларга тушиб қолиши эҳтимолдан йироқ эмас албатта. Бу ҳолат турмушдаги ўзининг ҳатти-ҳаракатларига боғлиқ бўлади ёки табиий тусдаги фавқулодда вазиятлар рўй бериши мумкин. Мисол учун оладиган бўлсак, инсон қўли билан яралган, бунёд этилган бирор корхонада эҳтиётсизлик сабабли портлаш юз бериши, натижасида ёнгин юзага келиши, транспорт ва бошқа кўплаб авариялар содир бўлиши ва табиий тусдаги фавқулодда вазиятлар яъни зилзила, кўчки, ўпирилиш, сув тошқини, сел келиши, бўрон, тўфон ва бошқа ҳолатлар юзага келади. Шуларнинг барчаси зилзила оқибатида ҳам юз бериши мумкин бўлади, чунки зилзила келтирадиган зарарига кўра табиий офатлар ичида биринчи ўринни эгаллайди десак муболаға бўлмайди. Зилзила бу - Ер ички ҳаракатлари натижасида унинг юзасида пайдо бўладиган тебранма ҳаракатга айтилади. Ер силкинишларининг пайдо бўлган жойи зилзила ўчоғи, унинг маркази эса гипоцентр дейилади. Гипоцентрнинг ер юзасидаги проекцияси эпицентр дейилади. Гипоцентр ва эпицентр оралиғидаги масофа зилзиланинг чуқурлиги дейилади [1].

Зилзиланинг иккиламчи оқибатларига назар ташлайдиган бўлсак, зилзиладан сўнг юзага келиши мумкин бўлган табиий ва техноген тусдаги фавқулодда вазиятлар рўй бериши мумкин. Жумладан тарихга назар ташласак ҳаммага маълумки 2011 йил 11 март куни Японияда юз берган 9 –баллик ер силкиниши оқибатида цунами пайдо бўлиб Фукусима АЭСда кетма-кет портлаш юз берди ва бутун шаҳар ёнгин ичида қолди. 16 000 га яқин инсон ҳалок бўлди, 180 000 киши уй жойларидан айрилди, 16 000 уй вайрон бўлди, 220 миллиард доллр иқтисодий талофат кўрилди ва экологияга жиддий зарар етганлигини кўришимиз мумкин [2]. Бундан кўриниб турибдики зилзила ўздан сўнг иккиламчи оқибатларини юзага келтириб аҳолининг турмуш тарзини издан чиқишига ва одамларнинг қурбон бўлишига сабаб бўлмоқда.

Шунинг учун ҳам ҳар бир фуқаро ва аҳолининг барча қатлами Зилзиладан муҳофазаланиш чора- тадбирларини пухта эгаллаган ва керакли билмларга эга бўлиши,

қолаверса ўзи ўрганиши ва бошқаларга ўргатиши талаб қилинади. Агар биз шу табиий ва техноген тусдаги фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва ундан муҳофазаланиш чора – тадбирларини аҳолимизнинг онгига сингдирсак ўйлаймизки биринчи навбатда қурбонлар сонининг кескин камайишига ва талофтларнинг олдини олишга эришган бўламиз десак тўғри бўлади.

Республикамизда аҳолини ҳаракат қилишга тайёрлашга қўлланилаётган услубиётларни айтиб ўтадиган бўлсак жуда кўплаб ишларни амалга оширилаётганлигини кўришимиз мумкин: Жумладан Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлигига аъзо давлатлар орасида биринчи бўлиб, 2014 йилда Фуқаро муҳофазаси институтининг ўқув-моддий базасини такомиллаштириш борасида жиддий ишлар олиб борилди. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Тараққиёт дастури (ПРООН) ва Европада Хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилоти (ОБСЕ) кўмагида “Зилзилани симуляция қилиш маркази” ташкил қилинди. Институтда зилзилани симуляция қилиш қурилмаси, яъни сунъий равишда зилзилани юзага келтирувчи қурилма ўрнатилиб, амалий ҳаракатлар ўргатиб келинмоқда[3].

Марказда симуляция қурилмаси ёрдамида тингловчиларни ер силкинишлари вақтида тўғри ҳаракат қилишга ўргатиш ва психологик тайёргарликдан ўтказиш мумкин. Зилзилани симуляция қилиш қурилмасида исталган кучланишга эга бўлган ер силкинишлари сунъий равишда юзага келтирилиши мумкин. Бундай амалий тайёргарликдан ўтган инсон фавқулодда вазиятлар шараоитида тезда ўзини қўлга ола биледи, вазиятга осонлик билан баҳо бериб, зудликда хулоса чиқаради ҳамда ўзини қай тарзда муҳофаза қилиш тўғрисида оқилона қарор қабул қила олади. Режалаштирилган тадбирлар амалий машғулотлар кўламини кенгайтириш имконини беради десак адашмаган бўламиз. Ундан ташқари марказда Экспозиция зали мавжуд бўлиб унда зилзила вақтида вайрон бўлган бинолар, уйлар ва хавфли кимёвий объектларнинг макетлари, зилзила вақтида ва ундан сўнг керакли авариявий захира намуналари, аҳолини фавқулодда вазиятларда ҳаракат қилишга тайёрлаш тартиби кўрсатиб ўтилган.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, аҳолининг барча қатламини зилзила билан боғлиқ фавқулодда вазиятларда тўғри ҳаракат қилишга тайёрлаш тизимини такомиллаштиришда хорижий тажриба муҳим аҳамиятга эга.

Японияда эса содир бўлган ҳар бир зилзиладан сўнг идоравий ҳужжатларга тегишли ўзгартириш ва кўшимчалар киритилади. Зилзилалар хавфи Япония Метеорология агентлиги (ЈМА)нинг 9 та минтақавий штаблари томонидан, сейсмоанализаторлар ёрдамида кузатиб борилади. Зилзила хавфи пайдо бўлганда, давлат даражасида J-ALERT (Япония-автоматик хабар бериш тизими), локал даражада L-ALERT (локал-автоматик хабар бериш тизими) орқали аҳоли хабардор қилинади. Мазкур хабар бериш тизими ёрдамида зилзила содир бўлишидан 90 сония олдин аҳолини тўлиқ огоҳлантириш имконияти яратилган. Шуни таъкидлаш керакки, Японияда ёшларни сейсмик хавфдан муҳофазаланишга тайёрлашда “Ўзини, ўзаро бир-бирини ва ўзгани қутқариш” йўналишлари бўйича жисмоний ва руҳий жиҳатдан тайёрлашга эътибор қаратилган. Жумладан ёшларни зилзила, ёнғин, цунами, йўл-транспорт ҳодисаси каби хавфлардан муҳофазаланишга ўргатиш мақсадида, ҳар куни телевидения орқали мультфильм, бадиий фильм, ўйинлар, машғулотлар намойиш этиб борилади. Хёго префектураси Таълим бошқармаси томонидан мактаб, лицей ва коллеж ўқувчилари учун мўлжалланган “Living for Tomorrow” “Эрта учун яшамок” номли ўқув қўлланмаси ишлаб чиқилиб, мазкур префектура ҳудудидаги табиий офатлар ва улар содир бўлганда ҳаракат қилиш йўллари, усуллари ёритиб берилган.

Маълумки, вақтида тайёргарликдан ўтган инсон ўз ақл-заковати билан ҳар қандай табиий офатга қарши тура олиши мумкин. Тайёргарлик масаласи долзарб мавзуга айланган экан, уни гўдаклик чоғидан олиб бориш муҳим аҳамият касб этади. Арманистонлик мутахассис Р.Алавердяннинг фикрича хавфсизлик қоидаларига ўргатишни ёшлиқдан ўқитиб бориш зарур. Болалар 3-5 ёшлариданоқ турли хавфли

шароитларда ўзларини муҳофаза қилишнинг аниқ бир ҳаракатларини бажара олиш қобилиятига эга бўлади. Болаликдан тўғри тарбиялаш орқали унинг фавқулдда вазият соҳасидаги билимларини бойитиб бориш, мукаммаллаштириш учун мустаҳкам асос, негиз яратиш мумкин.

Ҳозирда замонавий ахборот – коммуникация технологиялари ривожланиши билан бир вақтда аҳолини зилзила билан боғлиқ фавқулдда вазиятларда ҳаракатланишга тайёрлашда инновацион технологияларидан фойдаланиш талаб этилади. Замонавий ахборот технологиялари (ЗАТ) – бу маълумотларни олиш, сақлаш, қидириш, қайта ишлаш ва ахборот узатишдир. ЗАТларни кўйидагиларга ажратиш мумкин: аудио – видео, компьютер, мультимедия, компьютер – конструктор ва ҳаказолар.

Хулоса

Хулоса ўрнида айтишимиз мумкинки аҳолини фавқулдда вазиятлар вақтида тўғри ҳаракат қилишга ўргатиш, фавқулдда вазиятлар вақтида жабрланганлар сонининг кескин камайишига, кучли зилзилалар оқибатида келиб чиқадиган фавқулдда вазиятларга аҳолининг тайёргарлигини оширишга, худудда сейсмик хавфсизликни таъминлашга, юзага келиши мумкин жиддий талофотларни минималлаштиришга олиб келади. Бу эса олдимизга қўйилган вазифаларга қисман эришганлигимиздан далолат беради. Шунинг учун биз аҳолини табиий ва техноген тусдаги фавқулдда вазиятларда тўғри ҳаракат қилишни ва керакли билим кўникмаларга эга бўлишни замонавий ахборот коммуникацион технологияларидан фойдаланган ҳолда тўлиқ ва мукаммал қилиб етказишимиз даркор. Яъни, зилзила пайтида тўғри ҳаракат қилишни видео ролик қилиб, анимацион кўринишда тайёрлаб ёки слайд кўринишида телевизорда, радиода, интернет тармоқларида, уйали алоқа воситаларида мунтазам равишда етказишимиз мумкин бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Абдуллабеков Қ.Н., Ильясова З.Ф. //Фавқулдда вазиятлар тарихидан: //Зилзила // Тошкент – 2016 .
- 2.Ҳикматуллаев С.Ю.// Аҳолини зилзилар оқибатида юзага келган фавқулдда вазиятларда ҳаракат қилишга тайёрлашда зилзилани симуляция қилиш тренажёрининг аҳамияти. //Зилзила оқибатида юзага келган Фавқулдда вазиятларда аҳолининг хавфсизлигини таъминлаш мавзусидаги илмий-амалий семинар материаллари. //Тошкент - 2014. -19 б.
- 3.Абидова Ф.А.. //Аҳолини фавқулдда вазиятларда тўғри ҳаракат қилишга тайёрлаш тизимини самарадорлигини ошириш йўллари. //"Зилзилаларни мониторинг қилишнинг истиқболлари ва ривожлантириш асослари" мавзусидаилмий-амалий семинар тўплами.- Тошкент, –2018. -89 б.

Илмий раҳбар

Қурбонов Б.

KORXONALARDA MEHNAT SHAROITLARINI YAXSHILASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI ANIQLASH USULLARI

Rasulova M. - talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ishlab chiqarish korxonalaridagi baxtsiz hodisalar natijasida ishchi-xodimlarning yo‘qotgan ish kunlari, ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan mahsulotning yalpi qiymatlarini hamda mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun sarflangan mablag‘larni inobatga olgan holda mehnat sharoitlarning yaxshilashning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usullari bayon etilgan.

Respublikamizda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhim vazifalardan hisoblanadi, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo‘nalishida “ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish, “xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhda tashqi siyosat yuritishga yo‘naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash” masalalar ustuvor vazifa qilib belgilangan [1].

Mehnat muxofazasi ishchilarni sog‘liqlarini saqlash, hayotini muhofaza qilish, baxtsiz hodisalarning oldini olish va ish unumdorligini ko‘tarish maqsadida amalga oshiriladi. Shuning bilan birgalikda bu tadbirlar sh sharoitlarini yaxshilaydi, hamda ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini ko‘taradi.

Mehnat muxofazasi tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini hisoblash, ularning ish unumdorligiga ta‘sirini aniqlash va joriy qilingan tadbirlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun olib boriladi [2].

Iqtisodiy samaradorlik mehnat muxofazasi tadbirlarini joriy qilishdan oldingi va keyingi mavjud me‘yorlarni taqqoslash yo‘li bilan va quyidagi ketma-ketlikda aniqlanadi.

Mehnat sharoitlarini yaxshilash natijasida erishiladigan yillik iqtisodiy samara quyidagicha aniqlanadi[3]:

$$\mathcal{E}_{y.s.} = \mathcal{E}_{y.s.} + M - \frac{K}{t_0} \quad (1)$$

bu erda:

$\mathcal{E}_{y.s.}$ -mehnat sharoitlarini yaxshilash natijasida ish unumdorligining ko‘tarilishi hisobiga erishiladigan yillik iqtisodiy samara, so‘m;

M - material sarf-xarajatlarning kamayishi, so‘m;

K - mehnat sharoitlarini yaxshilash tadbirlarini amalga oshirishga sarflanadigan qo‘shimcha kapital qoplamalar, so‘m;

t_0 - xarajatlarni qoplashning me‘yoriy muddati (3...6 yil).

2. Mehnat sharoitlarini yaxshilash natijasida ish unumdorligining ko‘tarilishi hisobiga erishiladigan yillik iqtisodiy samara quyidagicha aniqlanadi, sum;

$$\mathcal{E}_{y.s.} = \frac{\Delta\Pi \cdot A \cdot P}{100} \quad (2)$$

bu erda:

$\Delta\Pi$ - mehnat sharoitlarini yaxshilash tadbirlari joriy qilingandan keyin ish unumdorloigining ko‘tarilishi, %;

A - mehnat sharoitlari yaxshilangandan keyin keyin bitta ishchining yillik o‘rtachaish xajmi, so‘m;

P - ishchilarning yillik o‘rtacha soni.

Material sarf-xarajatlarning kamayishi quyidagicha aniqlanadi, so‘m

$$M = M_b + M_n \quad (3)$$

bu erda:

M_b - jaroxatlanish va kasallanishlarning kamayishi natijasida erishiladigan mablag‘ iqtisodi, so‘m;

M_n - ish unumdorligining oshishi natijasida ta‘mirlash, elektr energiyasi va boshqalar sarf-xarajatlarning kamayishi hisobiga ustama xarajatlarning shartli o‘zgarmas (doimiy) qismida mablag‘larning iqtisod qilinishi, so‘m;

Jaroxatlanishlar va kasallanishlarning kamayishi natijasida olinadigan mablag' iqtisodiy quyidagicha aniqlanadi:

$$M_b = (D_1 - D_2) \cdot P_n \quad (4)$$

bu erda:

D_1, D_2 - mos ravishda mehnat sharoitlarini yaxshilash tadbirlarini joriy qilishdan oldin va keyin yil davomida ish vaqtining yo'qotilishi, kun;

P - jaroxatlanishlar va kasallanishlar natijasida ishlab chiqarishda ko'riladigan kunlik Kunlik o'rtacha zarar miqdorini quyidagicha aniqlaymiz:

$$P_n = P_{n1} + P_{n2} + P_{n3} + P_{n4} + P_{n5} + \dots + P_b \quad (5)$$

bu erda:

P_{n1} - vaqtinchalik ish qobiliyatini yo'qotganlarga to'lanadigan mablag' miqdori, so'm;

P_{n2} - ishlab chiqarishda jarohatlangan yoki kasallangan shaxslarning regressiv davolarizalariga korxonadan hisobidan qilinadigan to'lovlar, so'm;

P_{n3} - nogironlik bo'yicha nafaqa to'lovlari, so'm;

P_{n4} - mahsulot ishlab chiqarish xajmining kamayishi sababli yo'qotishlar, so'm;

P_{n5} - kadrlarni qayta tayyorlashga ketgan xarajatlar, so'm;

P_{n6} - qo'shimcha ishchilarni ushlab turishga sarflangan xarajatlar, so'm;

P_6 - boshqa xarajatlar, so'm.

Ish unumdorligini ko'tarilishi ($\Delta\Pi$) quyida keltirilgan 6-ifoda orqali berilgan statistik ma'lumotlardan foydalanib aniqlash mumkin, yoki NIIT metodikasi bo'yicha aniqlash mumkin:

$$\Delta\Pi = \Pi_1 - \Pi_2 \quad (6)$$

bu erda:

Π_1 - tadbirlarni amalga oshirishdan oldingi ish unumdorligi, %

Π_2 - tadbirlar amalga oshirilgandan keyin ish unumdorligi, %

Jaroxatlanishlar natijasida korxonadan tomonidan ko'riladigan yillik iqtisodiy yo'qotishlar quyidagicha aniqlanadi [4]:

$$\mathcal{E}_i = (0,6T + 1,28D)C + 8T + 1,86D \quad (7)$$

T - yil davomida yuz bergan jaroxatlanishlar soni, ta;

D - jaroxatlanishlar natijasida vaqtincha ish qobiliyatini yo'qotilgan kunlarning yil davomidagi yig'indisi, kun;

C - jaroxatlangan ishchilarning o'rtacha kunlik ish maoshi, so'm;

$$C = \frac{C_a + C_b + \dots + C_n}{T} \quad (8)$$

bu erda:

$C_a, C_b, C_y, \dots, C_n$ - jaroxatlangan har bitta ishchining kunlik ish maoshi, so'm;

Nogironlik va o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar natijasida ko'riladigan shartli material yo'qotishlar quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathcal{E}_m = M_s K_s + M_i K_i \quad (9)$$

bu erda:

M_s - baxsiz hodisa natijasida halok bo‘gan ishchining o‘rtacha oylik ish maoshi, so‘m;

K_s - halok bo‘lganning qarilik nafaqasi olishgacha qolgan oylar soni, ta;

M_s - baxsiz hodisa natijasida nogiron bo‘lib qolgan ishchining o‘rtacha oylik maoshi, so‘m;

K_i - nogiron bo‘lib qolgan qarilik nafaqasi olguncha qolgan oylar soni, so‘m;

Baxsiz hodisa natijasida ish qobiliyatini 1...3 kungacha yo‘qotishlar tufayli ko‘riladigan iqtisodiy zarar quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathcal{E}_{y.z.} = 0,3D_3(C + 6,2) \quad (10)$$

bu erda:

D_3 - ish qobiliyati yo‘qotilgan kunlar soni, kun[3].

Xulosa

Insonning jamiyat taraqqiy ettirish ham ishlab chiqarishni boshqarishda asosiy kuch ekanligini hisobga olib, uning xavfsizligi va sog‘ligini saqlash ijtimoiy taraqqiyot yo‘lidagi muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonida mehnat sharoitini yaxshilash, ishlab chiqarishda jaroxatlanishlar va kasb kasalliklarining kelib chiqish manbalarini yo‘qotish, shuningdek ish faoliyatini inson uchun charchash, toliqish va kasallanish manbai bo‘lmasdan, kuvonch va baxt keltiruvchi faoliyat bo‘lishini ta‘minlashga harakat qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mirziyoev Sh.M. O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Xarakteristik strategiyasi. T.: O‘zbekiston,2017.
- 2.E.Ibragimov.va boshq. Mehnat muxofazasining maxsus kursi.T.: 2015y, 542 b.
- 3.G‘oyipov H. E. Mehnat muhofazasi. Toshkent, „Mehnat“, 2008, 224 b.
- 4.Yormatov G‘.Yo., Isamuhamedov Yo.U. Mehnatni muhofaza qilish. Darslik. O‘zbekiston nashriyoti. Toshkent 2000,186 b.
- 5.www.strategy.uz

Ilmiy rahbar

ass. Djamalova X.

FAVQULODDA VAZIYATLARNING IQTISODIY ZARARLARINI HISOBLASH METODLARI

Abduqahhorov Sh. - talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Maqolada favqulodda vaziyatlarning ta‘sir qilish xususiyati va keltiridigan oqibatlariga qarab yetkazadigan zarar talofatlari keltirilgan. Shuningdek, sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni zararini hisoblashda ob‘yektning balans qiymati, amortizatsiya qiymatlari va qoldiq qiymatlari inobatga olish metodlari bayon etilgan.

Mamlakatimiz milliy davlat siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biri aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilishi, xavfsizlikni ta‘minlash, barqaror iqtisodiy rivojlashga erishishdan iborat. Bu esa favqulodda vaziyatlarni oldindan aniqlash va aholini bu xavfdan ogohlantirish borasida samarali tadbirlar o‘tkazish, favqulodda vaziyat ro‘y berganda tezkor harakat qilish, insonlarning qurbon bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaslik, iqtisodiy zarar kam bo‘lishini, xavfsizlikni o‘z vaqtida ta‘minlashni taqazo etadi.

Bu borada Prezidentimiz boshchiligida hukumatimiz tomonidan bir qator xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan aholini turli favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilishning huquqiy asoslarini belgilovchi qonun va qarorlar keng miqyosda hayotga tadbiiq etilmoqda.

Respublikamizda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muhim vazifalardan hisoblanadi, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishida "ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, "xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash" masalalar ustuvor vazifa qilib belgilangan [1].

Mamlakatimiz aholisini, iqtisodiyot tarmoqlari inshootlari va sohalarini tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar muhofaza qilishni yuqori darajalarga ko'tarish hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa turli favqulodda vaziyatlarni oldindan bashoratlash va aholini bunday vaziyatlardan ogohlantirish, talofat yuz bergan taqdirda kechiktirib bo'lmas qidiruv-qutqaruv ishlarini olib borish hamda talofatlar oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish bilan bir qatorda, aholiga bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar, ularni kelib chiqish sabablari, oqibatlari va bartaraf etish chora-tadbirlari hamda favqulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilish yo'l-yo'riqlari, fuqaro muxofazasining huquqiy asoslari, iqtisodiy omillari, muxofaza tizimi, uning kuch va vositalari to'g'risida tushunchalar berishni taqozo etadi.

Favqulodda vaziyatlar nafaqat tabiiy hodisalar oqibatida, balki texnologik jarayonlarni tashkil qilishda yo'l qo'yiladigan kamchiliklar, ayrim mutaxassislarning malakasi etishmasligi, ehtiyotsizliklari, befaqliklari oqibatida ham vujudga kelishi mumkinligini e'tiborg olsak, masalaning naqadar dolzarbligi oydinlashadi. Albatta tinchlik va osoyishtalik jamiyat uchun bebeho ne'mat taraqqiyotning ana shu omiliga, osoyishta hayotimizga tahdid solayotgan ayrim omillar borki, ularga mutlaqo befarq qarab bo'lmaydi. Bularga tabiiy ofatlarni jumladan, zilzilani, suv toshqinlarini, er ko'chkilarini, metrologik hodisalarni va favqulodda vaziyatlarni vjudga keltiradigan boshqa tabiiy hodisalarni keltirish mumkin.

Favqulodda vaziyat - odamlar qurbon bo'lishi, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar etishi, jiddiy moddiy talofatlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa yoki boshqa tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.

Favqulodda vaziyatlarni ta'rifidan kelib chiqsak, unda keltiriladiki favqulodda vaziyat o'zining oqibati bilan havflidir.


Favqulodda vaziyat sodir bo'ldimi, demak uning albatta zarari va oqibati bo'ladi. Agar uning zarari yoki oqibati bo'lmasa bilinki u favqulodda vaziyat emas. Masalan, Quyoshda har kuni yuz dan ortiq portlashlar sodir bo'ladi, lekin uning jamiyatga va insoniyatga zarari yo'qligi sababli biz uni favqulodda vaziyat sifatida baholamaymiz.

Iqtisodiy zarar – favqulodda vaziyatlar yuz berishi oqibatlarini bartaraf etish uchun aniq kapital mablag'larini talab etadigan yoki favqulodda vaziyatlarning to'g'ridan to'g'ri moddiy boyliklarga (binolarning buzilishi, qishloq xo'jalik ekinlarning, bog'larning, zavod-korxonalarining vayron bo'lishi) etkazgan zarari tushuniladi.

Ijtimoiy zarar – favqulodda vaziyatlar yuz berishi oqibatlarida aholining turmush darajasining izdan chiqishi (bopanasiz qolishi, er-mulklarining barbod bo'lishi) tushuniladi.

Ma'naviy zarar – favqulodda vaziyatlar yuz berishi oqibatlarida aholining qo'rquvga, dahshat va vahimaga tushishi, qo'rquvning ortishi tushuniladi.

Ekologik zarar – favqulodda vaziyatlar natijasida landshaftlarning buzilishi, tabiiy go'zalliklarning vayron bo'lishi, favqulodda vaziyatlarning tabiatga keltiradigan zarari tushuniladi.



1-rasm. Favqulodda vaziyatlar keltiradigan zararlarning turlari

Ishlab chiqarish korxonasi hududida favqulodda vaziyatlarning ro'y berishi korxonaning ko'plab moddiy texnikalariga zarar yetkazadi.

Har qanday favqulodda vaziyat o'zining to'satdan yuz berishi mumkinligi bilan xavflidir. Favqulodda vaziyatlar korxonaning ishlab chiqarish jarayoni va uning elementlari mustahkamligiga turli darajada ta'sir qilib, moddiy zarar va talofat yetkazadi. Bunday holatda favqulodda vaziyatlarni keltirgan zarar va talofatni aniqlash muhim ahamiyatga ega [2].

Favqulodda vaziyatlarga moddiy zarar quyidagicha aniqlanishi mumkin:

$$M_z = B_q - I_q - K_q \quad (1)$$

bu yerda:

M_z – korxonaga yetkazilgan moddiy zarar, so'm;

B_k – korxonaga bino inshootlarining elementlarining umumiy balans qiymati yoki tannarxi, so'm;

I_k – korxonaga elementlarining ishlatilgani bo'yicha me'yoriy qiymati, so'm;

K_k – korxonaga elementlarining zarar yetmagan qismining qiymati, so'm.

Moddiy zarar (1) korxonaga elementlari kompleksi bo'yicha quyidagicha ham aniqlanishi mumkin:

$$M_{zu} = M_{zb} + M_{zm} + M_{ztb} + M_n + \dots \quad (2)$$

Bu yerda:

M_{zb} – bino va inshootlar bo'yicha zarar, so'm;

M_{zm} – mashina va mexanizmlar bo'yicha zarar, so'm;

M_{ztb} – tovar va boshqa moddiy boyliklarga yetkazilgan zarar va x.k.z, so'm;

Moddiy zarar korxonaga elementlari bo'yicha shu element tiklanishiga ketadigan mablag' qiymatiga (T_k) teng bo'ladi, ya'ni [4].

$$M_s \approx T_k \quad (3)$$

Tovar, mol yoki boshqa maxsulotlar bo'yicha zarar, ularning favqulodda vaziyatlar yuz bergan vaqtdagi, haqiqiy tannarxi qiymatiga teng bo'ladi.

Moddiy zarar korxonaga elementlariga yetkazilgan zarar bo'yicha quyidagicha ham aniqlanishi mumkin:

$$M_s = \alpha \cdot B_k \quad (4)$$

bu yerda:

α - zarar va talofat darajasi;

Favqulodda vaziyatlarda ishchi, xizmatchilarning ehtimoliy talofatini (n) quyidagicha aniqlash mumkin:

$$N = \frac{n}{R} \rightarrow n = R \cdot N \quad (5)$$

bu yerda:

R – favqulodda vaziyatdagi xavf-xatar turi bo'yicha odamlarning ehtimoliy talofati darajasi;

N - korxonada ishlayotgan ishlovchilarning soni, kishi

Xulosa

Ishlab chiqarish korxonalarida ishlaydigan ishchi-xodimlarni va yaqin atrofda yashaydigan aholini bu hududda qanday favqulodda vaziyatlar sodir bo'lishi mumkinligi bilan tanishtirib borish, ulardan qanday maqbul usullar bilan himoyalanişga o'rgatish, o'qitish va ayniqsasodda ommabop usullardan foydalanib tushuntirish ishlari olib borish ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mirziyoev Sh.M. O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakterlar strategiyasi. T.: O'zbekiston,2017, "Gazeta.uz"
- 2.Tojiyev M, Ne'matov I, Ilxamov M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. T. 2005.
- 3.Nigmatov I., Tojiyev M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. T.: 2012 y.
- 4.Axmedov I. Ishlab chiqarish jarayonlari xavfsizligi. T.: TIMI 2014 y.
- 5.Gazinazarova S., Axmedov I., Muxammadgaliyev B., Xojiyev A. Ekologik xavfsizlik. T.TIMI 2014 y.

Ilmiy rahbar

Djamalova X.

ҚИШЛОҚ ВА СУВ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИДА МЕХНАТ МУХОФАЗАСИ ХИЗМАТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ- ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ

Асқаров Ф. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада қишлоқ ва сув хўжалиги корхоналарида меҳнат муҳофазаси хизматларини ташкил этишнинг иқтисодий-ижтимоий аҳамияти, меҳнат муҳофазаси хизматларини ташкил этишдаги камчиликлар, меҳнат муҳофазаси хизматларини ташкил этишдаги айрим камчиликлар туфайли инсонларга келтирилган зарарлар таҳлил қилинди ва ушбу муаммоларни ҳал этиш чора-тадбирлари кўриб чиқилди.

Ўзбекистонда аҳоли бандлигини тўлиқ таъминлаш, ходимлар учун хавфсиз ва муносиб меҳнат шароити яратиш, улар меҳнатига муносиб ҳақ тўлаш йўналишларида тизимли ишлар рўёбга чиқарилмоқда. Кейинги йилларда иш жойларида қулай ва хавфсиз меҳнат шароитларининг яратилиши аҳамияти, бундай шарт-шароитни таъминлашда иш берувчилар ижтимоий масъулиятини ошириш масалаларига ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Мамлакатимизда инсонларни меҳнатини назарда тутувчи, кишиларнинг хавфсиз, юқори қулайликларга эга бўлган иш ўринларида фаолият олиб боришлари юзасидан бир қатор қонун ва қонун ости ҳужжатлари қабул қилинган. Жумладан Конституцияимизнинг 37-моддасида шундай дейилган: “Ҳар бир шахс меҳнат қилиш, эркин касб танлаш, адолатли меҳнат шароитларида ишлаш ва қонунда кўрсатилган тартибда ишсизликдан ҳимояланиш ҳуқуқига эгадир”. Бундан ташқари Ўзбекистон Республикасининг бир қатор қонунларида ҳам ишлаб чиқаришда инсонлар учун қулай, хавфсиз иш шароитларини

яратиш, ишчи-ходимларни зарарли ва заҳарли омиллар таъсиридан муҳофаза қилиш масалалари ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамлаб қуйилган [2].

Республикаимиз қасаба уюшмалари федерациясининг маълумотларига кўра 2018 йилда ишлаб чиқаришдаги оқибати оғир ва ўлим билан тугаган бахтсиз ҳодисалар сони 252 тани ташкил этган, 76 та ишлаб чиқаришдаги бахтсиз ҳодисада 89 нафар киши ҳалок бўлган ва 163та ходим оғир жароҳатланган. Бундан ташқари 6127 нафар киши 18 турдаги касб касалликларига чалинган. Аммо бу рақамлар кўпгина ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлган бахтсиз ҳодисалар ва касалликлар ўз ичига олмаган, бунинг сабаблари иқтисодиётнинг реал секторидагина содир бўлган бахтсиз ҳодисаларгина ҳисобга олинади, баъзи касалликлар ёш ўтгандан сўнг, ишчи нафақага чиққандан кейин (юррак, қон томир ва рак касалликлари) ривожланади ва булар ҳисобга киритилмаган [1].

Аграр секторда содир бўлган бахтсиз ҳодисалар асосий сабаблари қуйидагилар:

-ходимлар томонидан хавфсизлик техникаси қоидалари талабларига риоя қилмаганлиги-**40%**;

-ишлаб чиқариш жараёнида хавфсизлик техникаси қоидалари бузилиши-**22%**;

-ходимларнинг эҳтиёткорсизлиги оқибатида-**11%**;

-меҳнат интизоми ва ички меҳнат тартиби қоидаларига риоя қилмаганлиги-**9%**;

-технологик жараённинг бузилиши-**9%**;

-электр хавфсизлиги қоидалари бузилиши-**3%**;

-иш берувчилар томонидан ходимларни лавозим мажбуриятларида кўрсатилмаган ишларни бажариш учун жалб қилинганлиги-**3%**;

-йўл ҳаракати хавфсизлиги қоидалари бузилиши-**3%**.

Биз биламизки, ҳар қандай фаолият яширин хавфлидир. Шу билан бирга хавф даражасини бошқариш ҳам мумкин. Буфикр мутлақо хавфсиз фаолият йўқлигини асослайди. Чунки инсон турмушда ёки бирор бир ишлаб чиқариш тармоқларида қандай фаолиятни амалага оширмасин, унда доимо яшириш хавф мавжуддир. Шу нуқтаи назардан потенциал хавфларга таъсирини камайтириш учун ишлаб чиқариш тармоқларида инсонлар учун ҳар томонлама илмий асосланган қулай меҳнат шароитларни яратиш муҳим аҳамият касб этади.

Маълумотларга қараганда меҳнатга лаёқатли инсонлар ўлимининг сабаблари ўрганилганда, аксарият ҳолларда ўлиш сабаблари ишлаб чиқаришдаги бахтсиз ҳодисалар, жароҳатланишлар, ва зарарланишлар сабаб бўлганлиги аниқланган.

Қишлоқ ва сув хўжалиги ташкилотларида меҳнат муҳофазаси ишларини тўғри ташкил этиш ижтимоий, иқтисодий, ҳуқуқий ва техник жиҳатдан муҳим аҳамият касб этади [3].

Биринчидан: соҳадаги ишчи-ходимларининг ҳаётига ва соғлиғига ишлаб чиқаришда юзага келиши мумкин бўлган зарарли ва хавфли омилларнинг таъсири камроқ бўлади, уларнинг маънавий, маърифий ва маданий савиясининг оширилишига имконият яратади. Шунингдек, ишловчиларда ўз меҳнатидан қониқиш ҳиссини уйғотади;

Иккинчидан: ишловчиларнинг меҳнат унумдорлигини ошириш билан ишлаб чиқариш кўрсаткичлари ошади, ишлаб чиқаришдаги жароҳатланишлар ва касб касалликлари оқибатида ишлаш қобилиятининг вақтинчалик йўқолиши натижасида юзага келадиган иш вақтини йўқотиш ҳолатини камайтиради, ҳамда ноқулай меҳнат шароити туфайли юзага келадиган ходимлар қўнимсизлигини камайишига ва янги ходимларни тайёрлаш учун сарфланадиган маблағларни иқтисод қилади;

Учинчидан: ишловчиларнинг меҳнатни муҳофаза қилишга бўлган субъектив ҳуқуқларини ва иш берувчиларнинг бу ҳуқуқни амалга ошириш бўйича мажбуриятларини белгилайди, ишловчиларнинг меҳнат хавфсизлиги қонун ва қоидалари талабларини бажаришга мажбурлигини белгилайди ҳамда ишчиларни қобилияти бўйича ишга қабул қилиш имкониятини яратиб беради;

Тўртинчидан: ишлаб чиқаришда қўлланиладиган машина ва механизмларга, ускуналарга, қурилмаларга, асбобларга, бино ва иншоотларга, технологик жараёнларга ва

бошқаларга уларни лойihalашда, қуришда, синашда, ташишда, ўрнатишда, ишлатишда, техник хизмат кўрсатишда амал қилинадиган умумий ва хусусий хавфсизлик талабларини ва меъёрий техник ҳужжатлар тизимини ишлаб чиқиш, тадбик этиш ва назорат қилиш ҳамда хавфсизликни таъминлашнинг янги ва замонавий муҳандислик-техник воситаларини ишлаб чиқиш, ишлаб чиқарилаётган техникаларнинг хавфсизлигини ва мустаҳкамлигини ошириш, эргономик кўрсаткичларини юксалтириш, машиналар ишлашини назорат қилиш ва автоматик бошқарув воситаларини тадбик этиш имконини яратади.

Қулай меҳнат шароитини яратиш ёки яхшилаш нафақат инсонларнинг бахтсиз ҳодисалар туфайли жароҳатланишларнинг камайишига олиб келади, балки ижтимоий натижаларга, жумладан, меҳнаткашларнинг соғлиғини яхшилашга, ўз ишидан мамнунлик даражасини ошишига, меҳнат интизомини мустаҳкамлашга, меҳнат унумдорлигини ошишига ва ўз ўрнида иқтисодий самарадорликнинг ҳам ўсишига замин яратади.

Меҳнат муҳофазаси талабларига жавоб бермайдиган бирон бир янги машина ёки механизм ишлаб чиқаришга қабул қилинмаслиги керак. Шунингдек меҳнат муҳофазаси талабларига жавоб бермайдиган бирор цех ёки корхона эксплуатациясига туширилмаслиги керак. Шу билан биргаликда ишлаб чиқаришдаги бахтсиз ҳодисалар ва касб касалликларининг олдини олиш уларни келиб чиқиш ҳолатларини камайтириш учун қуйидаги тадбирларни доимий ва даврий равишда амалга ошириш зарур:

- ишчи-ходимларни касбий танловини ўтказиш.
- ишчи-ходимларни меҳнат муҳофазаси бўйича ўқитиш.
- меҳнат муҳофазаси бўйича тарғибот ишларини ўтказиш;
- қўлланадиган механизм, дастгоҳ ва ишлаб чиқариш воситаларинихавфсизлигини таъминлаш;
- технологик жараёнининг хавфсизлигини таъминлаш;
- ишлаб чиқариш бино ва иншоотларини хавфсизлигини таъминлаш;
- меҳнат шарт-шароитларининг санитар-гигиенасини меъёрлаш;
- ишчиларини шахсий химоя воситалари билан таъминлаш;
- ходимларни оптимал иш ва дам олиш режимини таъминлаш;
- ишчи-ходимларни даволаш-профилактика кўригидан ўтказиш;
- ходимларнинг санитар-маиший таъминлашини меъёрлаш.

Хулоса

Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш тармоқларида қулай меҳнат шароитларини яратиш, ишлаб чиқаришга янги замонавий хавфсиз техника технологияларни жорий этиш, жойларда меҳнат муҳофазасига маъсул инсонлар томонидан ишчи хизматчилар учун қулай ва хавфсиз иш шароитларини яратиш учун зарурий чора-тадбирлар белгилаш ва уни сифатли амалга ошириш, ишчи-ходимларни зарурий химоя воситалари билан ўз вақтида тўлиқ таъминлаш, меҳнатни муҳофаза қилиш масалаларини тарғиб қилиш ва ишчи-ходимларни техника хавфсизлиги бўйича йўриқномалардан ўтказиш натижасида содир бўлиши мумкин бўлган бахтсиз ҳодисалар ва жароҳатланишларни олдини олиш ва уларнинг таъсирини камайтиришга эришилади. Зеро меҳнат қилиш фақат яшаш воситаси бўлиб қолмасдан, балки ҳаёт талаби ҳам бўлиши керак.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Хожиев А, Абдусаматова Ф. Қишлоқ ва сув хўжалиги ташкилотларида меҳнат муҳофазаси ишларини яхшилашнинг аҳамияти. “Агро илм” журнали, 2018 й, махсус сон, 57 б.
2. Ахмедов И., Хожиев А. Ўқув лаборатория хоналарида хавфсизлик. “Муҳофаза +” журнали, 2013 йил. № 12, 47 б

3.Хожиёв А.А., Саидхужаева Н.С. Меҳнат муҳофазасининг таҳлили. “Ҳаёт фаолияти хавфсизлигининг замонавий муаммолари” мавзусидаги илмий-амалий анжумани материаллар тўплами. Тошкент 2012 й, 167 б.

4.www.genral-stat.uz

Илмий раҳбар

асс. Джамалова Х.С.

FAVQULODDA VAZIYATLAR TAHLILI VA ULARNING OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI

Abduraxmonov J., Asqarov F. - talabalar, TIQXMMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada yurtimizda sodir bo‘layotgan favqulodda vaziyatlar tahlili va ularni oldini olish chora tadbirlari ko‘rib chiqildi. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish sabablari va bu sabablarni o‘rganish kelajakda yuzaga kelish mumkin bo‘lgan xavflarni oldini olishda samarali natija berishi mumkinligi o‘rganildi.

Biz fan texnika rivojlanib inson turmush sharoiti tobora yaxshilanib borayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Ayni paytda inson hayotiga xavf soluvchi turli avariya, halokatlar, turli ofatlar terroristik xarakterli soni xam ortib bormoqda. Eng achinarlisi yetkazilayotgan moddiy va ma‘naviy zararlar bilan bir qatorda ushbu favqulodda vaziyatlarda insonlar qurbon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi geografik jihatdan shunday bir mintaqada joylashganki tabiatning biror bir turdagi injiqliklari respublika hududlarini chetlab o‘tmagan. Tabiiy ofatlar inson boshiga og‘ir kulfatlar soluvchi, ekologik muhitga, iqtisodiyot obyektlariga beqiyos zarar yetgazuvchi omil bo‘lib, ular har yili Respublikamizning turli hududlarida sodir bo‘lib turadi.

Sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning 80 % ga yaqini inson faoliyati bilan bog‘liq ekanligini guvohi bo‘lamiz. Qurbon bo‘lganlarning 40 % dan ortig‘i tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sharoitiga to‘g‘ri baho bera olmasligi, ayniqsa mazkur sharoitda to‘g‘ri harakatlanish yo‘llarini topa olmasligi oqibatida hayotdan ko‘z yummoqda.


Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jabrlanganlar sonini kamaytirishning asosiy yo‘llaridan biri aholining barcha toifalarini shu jumladan yoshlarni favqulodda vaziyatlar sharoitida to‘g‘ri harakatlanishga o‘rgatishdan iboratdir. Fikrimcha bunday tayyorgarlik doimiy, muntazam, uzluksiz tarzda oilada, mahallada, maktabgacha ta‘lim muassasalari hamda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida va oliy ta‘lim muassasalarida amalga oshirilmog‘i lozim.

O‘quvchi yoshlarni mustaqil fikirlash ko‘nikmasi bilan bilimlarini egallashga erishish “Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari” “mashg‘ulotini muhim qismidir.


Ishlab chiqarish ham tez fursatlarda o‘sib, shu bilan bir qatorda ekologiyamiz ham o‘zgarib bormoqda. Bular o‘sishi bilan favqulodda vaziyatlar ham ko‘payib bu vaziyatlar natijasida insonlar va tabiatimizga juda katta zarar yetmoqda. Insoniyat tarixiga nazar soladigan bo‘lsak o‘tgan 100 yil mobaynida global iqlim o‘zgarishi va favqulodda vaziyatlar yuzaga keldi. Bular insonlar o‘rtasidagi dolzarb muammoga aylandi.

Mamlakatimizda yuz bergan favqulodda vaziyatlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, 2016-yilning 2-choragida 65 ta, 2017-yil 2-choragida 73 ta, 2018-yil 2-choragida 75 ta favqulodda vaziyatlar yuz bergan. Ushbu favqulodda vaziyatlardagi jaroxatlanganlarni olsak 2016-yil 2-choragida 121 ta, 2017-yil 2-choragida 313 ta, 2018-yil 2-choragida 244 ta tashkil etadi [3]. Eng achinarli holat ushbu favqulodda vaziyatlar natijasida 2016-yilning 2-choragida 99 ta, 2017-yilning 2-choragida 147 ta, 2018-yilning 2-choragida 140 ta odam xalok bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin (1-rasm).

Respublikamiz hududida 2016-yilning 2 - choragida 41 ta, 2017-yilning 2-choragida 25 ta, 2018-yilning 2 - choragida 26 ta tabiiy tUSDagi favqulotda vaziyat sodir bo'lgan bo'lsa bunda jarohatlangan soni 2016-yilning 2-choragida 70 tani, 2017-yilning 2-choragida 207 tani, 2018-yilning 2-choragida 104 tani tashkil etgan (2-rasm). Tabiiy favqulotda vaziyatlar natijasida 2016-yilning 2-choragida 39 ta, 2017-yilning 2-choragida 45 ta, 2018-yilning 2-choragida 37 ta xalok bo'lganlar bo'lganligini ko'rishimiz mumkin [3].




1-rasm. 2016-2018 yillarning I - II choraklarida sodir bo'lgan FV lar soni va uning natijasida halok bo'lganlar hamda jarohatlanganlar diagrammasi



2-rasm. Tabiiy tUSDagi favqulotda vaziyatlarning solishtirma grafigi

3-rasmda ham 2016, 2017 va 2018 yilning 2 choragida sodir bo'lgan texnogen tUSDagi FV tahlili keltirilgan [3].



3-rasm. Texnogen tushdagi favqulotda vaziyatlarning solishtirma grafigi

Sodir bo'lgan favqulotda vaziyatlarni tahlil qiladigan bo'lsak, bizning oldimizda bitta katta savol turadi, bu nima uchun yildan yilga favqulotda vaziyatlar, jabrlanganlar, halok bo'lganlar ko'payib bormoqda. Insonlarni malakasizligimi yoki ishga bo'lgan loqaytligimi yoki insonlar texnikaga juda ham ishonib qolganligimi. Mamlakatimizda favqulotda vaziyatlarni oldini olish va kamaytirish uchun olib borilayotgan siyosat, bazi bir ishlab chiqarish sexlarida va zavordalarda amal qilinmay faqat qog'ozda bajarilayotganini kuzatishimiz mumkin. Bu ishlar natijasida insonlarga va tabiatimizga juda katta zarar yetmoqda. Yuz berayotgan favqulotda vaziyatlarni o'rganadigan bo'lsak ko'p hollarda malakasizligi, e'tiborsizligi, texnikalarni eskirganligi tufayli insonlar xalok bo'lmoqda. Bazi bir hodimlarimizga e'tibor bersak ular ishida o'sish yo'q ular qotib qolgan ular o'z ustida ishlashmay qo'yan. Har bir malakali kadr yoki ishchilarimiz o'z ustida ishlashlari va o'z kasbidan qoniqishlari zarur. Bular bo'lmaganidan loqaydlik va e'tiborsizlik yuzaga kelmoqda. Ishlab chiqarish sexlar va zavodlarni yangi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan taminlash, insonlarda favqulotda vaziyatlar to'g'risida immunitetni shakillantirishimiz kerak. Ularga shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanishni va o'z ishiga bo'lgan hurmatini va o'z ishini yetuk malakali kadri bo'lishini taminlashimiz kerak.

Xulosa

Xulosa qilib aytsak tabiiy ofatlar yangi yangi vaziyatlarni yuzaga keltirmoqda. Bunga bir sabab insonlarni tabiatga bo'lgan munosabati. Rivojlanish davri deb o'zimizni aldab yildan yilga qazib olayotgan qazilmalarimiz miqdori oshib bormoqda va qazilmalar olingan joylar bo'sh qolmoqda buning natijasida yerdagi rejim o'zgarishiga olib kelmoqda. Bularni oqibatini hozirgi kunda ko'rib turibmiz. Tarixga nazar soladigan va xulosa chiqaradigan bo'lsak "taroz" deb ham nomlasak bo'ladi. Bu bilan shunday demoqchi man "tarozini bir pallasida rivojlanish, qazilma boyliklarini haddan ziyot qazib olinishi, ikkinchi pallasida iqlim o'zgarishi, hayvonlarni keskin kamayib ketishi havodagi zaharli gaz miqdorini oshib ketishi o'simliklarni yo'qolib ketishi va boshqa yangi ofatlarni vujudga kelishi". Shunaqangi vaziyatda biz ikkita yo'ldan bittasini tanlay olmaymiz. Kuzatilayotga ishlarni tahlil qilsak ma'lum bir zanjir shaklidagi sxema tuzishimiz mumkin. Bunda korinib turibdiki tabiatga qilayotgan munosabatimizga yarasha javob olyabmiz, nimaki qilsak uning ortidan tabiatning ham bizga qaytaradigan javobi bor.

Adabiyotlar

- 1.O.R.Yuldashev va bosh., "Hayot faoliyati xavfsizligi", Darslik, T. "Iqtisodiyot", 2014 y., 268 bet.
- 2.O'R. Yo'ldoshev, O.D. Rahimov, "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" o'quv qo'llanma. 193 bet.
- 3.www.fvv.uz internet sayti.
- 4.www.ziyo.net internet sayti.

Ilmiy rahbar

Saidho'jayeva N.

AGRAR SEKTORDA MEHNAT SHAROITLARINING YAXSHILASHNING SAMARADORLIGI

Abdulxamidov J. - talaba, TIQXMMI

Аннотатсиya

Мақоллада мамлакатимизning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lgan agrar tarmoqdagi korxonalar va tashkilotlarda mehnat sharoitlarini yaxshilash natijasida korxonalar ishlab chiqarish faoliyatlarining samaradorligi ortishi bayot etilgan. Chunki ish o‘rinlari qulay va xavfsiz bo‘lsa u erda baxtsiz hodisalar sodir bo‘lmaydi, ishchi-xodimlarning jaroxatlanishi kamayadi va korxonada ijtimoiy va iqtisodiy yuksalish kuzatiladi.


O‘zbekistonda aholi bandligini to‘liq ta‘minlash, xodimlar uchun xavfsiz va munosib mehnat sharoiti yaratish, ular mehnatiga munosib haq to‘lash yo‘nalishlarida tizimli ishlar ro‘yobga chiqarilmoqda. Keyingi yillarda ish joylarida qulay va xavfsiz mehnat sharoitlarining yaratilishi ahamiyati, bunday shart-sharoitni ta‘minlashda ish beruvchilar ijtimoiy mas‘uliyatini oshirish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda insonlarni mehnatini nazarda tutuvchi, kishilarning xavfsiz, yuqori qulayliklarga ega bo‘lgan ish o‘rinlarida faoliyat olib borishlari yuzasidan bir qator qonun va qonun osti xujjatlari qabul qilingan. Jumladan Konstitutsiyamizning 37-moddasida shunday deyilgan: “Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir”. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi (1992 y.), “Mehnatni muxofaza qilish” to‘g‘risidagi qonun (1993 y.) larida ham ishlab chiqarishda insonlar uchun qulay, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, ishchi-xodimlarni zararli va zaharli omillar ta‘siridan muhofaza qilish masalalari huquqiy jihatdan mustahkamlab quyilgan [2].

Respublikamiz kasaba uyushmalari federatsiyasining ma‘lumotlariga ko‘ra 2018 yilda ishlab chiqarishdagi oqibati og‘ir va o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar soni 252 tani tashkil etgan, 76 ta ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisada 89 nafar kishi halok bo‘lgan va 163ta xodim og‘ir jarohatlangan. Bundan tashqari 6127 nafar kishi 18 turdagi kasb kasalliklariga chalingan. Ammo bu raqamlar ko‘pgina ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan baxtsiz hodisalar va kasalliklar o‘z ichiga olmagan, buning sabablari iqtisodiyotning real sektoridagina sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalargina hisobga olinadi, ba‘zi kasalliklar yosh o‘tgandan so‘ng, ishchi nafaqaga chiqqandan keyin (yurak, qon tomir va rak kasalliklari) rivojlanadi va bular hisobga kiritilmagan.

Biz bilamizki, har qanday faoliyat yashirin xavflidir. Shu bilan birga xavf darajasini boshqarish ham mumkin. Bu fikr mutlaqo xavfsiz faoliyat yo‘qligini asoslaydi. Chunki inson turmushda yoki biror bir ishlab chiqarish tarmoqlarida qanday faoliyatni amalaga oshirmasin, unda doimo yashirish xavf mavjuddir. Shu nuqtai nazardan potensial xavflarga ta‘sirini kamaytirish uchun ishlab chiqarish tarmoqlarida insonlar uchun har tomonlama ilmiy asoslangan qulay mehnat sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Ma‘lumotlarga qaraganda mehnatga layoqatlilarning o‘limi sabablari o‘rganilganda o‘rganilganda, aksariyat hollarda o‘lish sabablari ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, jaroxatlanishlar, va zararlanishlar sabab bo‘lganligi aniqlangan. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, jaroxatlanishlar, va zararlanishlar natijasida insonlarning o‘lishi to‘g‘risida ma‘lumotlar quyidagi 1-rasmda keltirilgan[1].



1-rasm. Mehnatga layoqatli insonlarning baxtsiz hodisalar sababli jaroxatlanish ko'rsatkichi

Qulay mehnatsharoitining yaratish yoki yaxshilash nafaqat insonlarning baxtsiz hodisalar tufayli jaroxatlanishlarning kamayishiga olib keladi, balki ijtimoiyatijalarga, jumladan, mehnatkashlarning sog'lig'ini yaxshilashga o'z ishidan mamnunlik darajasini oshishiga, mehnat intizomini mustahkamlashga, mehnat tunumdorligini oshishiga va o'z o'rnida iqtisodiy samaradorlikning ham o'sishiga zamin yaratadi.

Mehnat muhofazasi talablariga javob bermaydigan biron bir yangi mashina yoki mexanizm ishlab chiqarishga qabul qilinmasligi kerak. SHuningdek mehnat muhofazasi talablariga javob bermaydigan biror sex yoki korxonona ekspluatatsiyasiga tushirilmasligi kerak. Shu bilan birgalikda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarining oldini olish ularni kelib chiqish holatlarini kamaytirish uchun quyidagi tadbirlarni doyimiy va davriy ravishda amalga oshirish zarur [3]:

- ishchi-xodimlarni kasbiy tanlovini o'tkazish.
- ishchi-xodimlarni mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitish.
- mehnat muhofazasi bo'yicha targ'ibot ishlarini o'tkazish;
- qo'llanadigan mexanizm, dastgox va ishlab chiqarish vositalarini xavfsizligini ta'minlash;

- texnologik jarayonining xavfsizligini ta'minlash;
- ishlab chiqarish bino va inshootlarini xavfsizligini ta'minlash;
- mehnatshart-sharoitlarining sanitar-gigienasini me'yorlash;
- ishchilarinixaxsiyximoyavositari bilanta'minlash;
- xodimlarnioptimalishva dam olishrejimini ta'minlash;
- ishchi-xodimlarnidavolash-profilaktika ko'rigidan o'tkazish;
- xodimlarning sanitar-maishiy ta'minlashini me'yorlash va boshqalar.

Qishloq va suv xo'jaligi tashkilotlarida mehnat muhofazasi ishlarini to'g'ri tashkil etish ijtimoiy, iqtisodiy, xuquqiy va texnik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi [1,3].

➤ ishlovchilarning mehnatni muhofaza qilishga bo'lgan sub'ektiv xuquqlarini va ish beruvchilarning bu huquqni amalga oshirish bo'yicha majburiyatlarini belgilaydi, ishlovchilarning mehnat xavfsizligi qonun va qoidalari talablarini bajarishgama'jburiligini belgilaydi hamda ishchilarni qobiliyati bo'yicha ishga qabul qilish imkoniyatini yaratib beradi;

➤ ishlovchilarning mehnat unumdorligini oshirish bilan ishlab chiqarish ko'rsatkichlari oshadi, ishlab chiqarishdagi jaroxatlanishlar va kasb kasalliklari oqibatida ishlash qobiliyatining vaqtinchalik yo'qolishi natijasida yuzaga keladigan ish vaqtini yo'qotish holatining kamaytiradi, hamda noqulay mehnat sharoiti tufayli yuzaga keladigan xodimlar qo'nimsizligini kamayishigava yangi xodimlarni tayyorlash uchun sarflanadigan mablag'larni iqtisod kiladi;

➤ sohadagi ishchi-xodimlarining hayotiga va sog'lig'iga ishlab chiqarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararli va xavfli omillarning ta'siri kamroq bo'ladi, ularning ma'naviy, ma'rifiy va madaniy saviyasining oshirilishiga imkoniyat yaratadi. SHuningdek, ishlovchilarda o'z mehnatidan qoniqish hissini uyg'otadi;

➤ ishlab chikarishda qoʻllaniladigan mashina va mexanizmlarga, uskunalarga, qurilmalarga, asboblarga, bino va inshootlarga, texnologik jarayonlarga va boshkalarga tularni loyixalashda, qurishda, sinashda, tashishda, oʻrnatishda, ishlatishda, texnik xizmat koʻrsatishda amal kilinadigan umumiy va xususiy xavfsizlik talablarini va meʼyoriy texnik xujjatlar tizimini ishlab chikish, tadbik etish va nazorat kilish hamda xavfsizlikni taʼminlashning yangi va zamonaviy muhandislik-texnik vositalarini ishlab chikish, ishlab chikarilayotgan texnikalarning xavfsizligini va mustaxkamligini oshirish, ergonomik koʻrsatkichlarini yuksaltirish, mashinalar ishlashini nazorat kilish va avtomatik boshkaruv vositalarini tadbik etish imkonini yaratadi.

Xulosa

Qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarish tarmoqlarida qulay mehnat sharoitlarini yaratish, ishlab chiqarishga yangi zamonviy xavfsiz texnika texnologiyalarni joriy etish, joylarda mehnat muxofazasiga maʼsul insonlar tomonidan ishchi xizmatchilar uchun qulay va xavfsiz ish sharoitlarini yaratish uchun zaruriy chora-tadbirlar belgilash va uni sifatli amalga oshirish, ishchi-xodimlarni zaruriy himoya vositalari bilan oʻz vaqtida toʻliq taʼminlash, mehnatni muxofaza qilish masalalarini targʻib qilish va ishchi-xodimlarni texnika xavfsizligi boʻyicha yoʻriqnomalardan oʻtkazish natijasida sodir boʻlishi mumkin boʻlgan baxtsiz hodisalar va jaroxatlanishlarni oldini olish va ularning taʼsirini kamaytirishga erishiladi. Zero mehnat qilish faqat yashash vositasi boʻlib qolmasdan, balki hayot talabi ham boʻlishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Xojiev A., Abdusamatova F. Qishloq va suv xoʻjaligi tashkilotlarida mehnat muhofazasi ishlarini yaxshilashning ahamiyati. “Agro ilm” jurnali, 2018 y, maxsus son, 31 b.
- 2.Xojiev A., Saidxujaeva N. Mehnat muhofazasining tahlili. “Hayot faoliyati xavfsizligining zamonaviy muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallar toʻplami. Toshkent 2012 y, 162-163 b.
- 3.Xojiev A., Saidxujaeva N. Hayot faoliyati xavfsizligi faniga oid. “Muhofaza+” jurnali 2015 yil № 12 son. 23 b.

Ilmiy rahbar

Xojiev A.

QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBASINI ISHLAB CHIQRADIGAN ENERGIYA QURULMALARIDA TEXNIKA XAVFSIZLIGI

Xikmatov M - talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Maqolada mamlakatimizda soʻnggi yillarida energetikaning rivojlanitirish yoʻnalishlarida noanʼanaviy energiya manbalaridan foydalanish qurilmalarining xavfsiz ishlash ketma-ketligi keltiriladi. Maʼlumki, biogaz zaharli gaz boʻlmaganligi uchun uni koʻpchilik hollarda ekspluatatsiya davrida qurilmalardan chiqadigan gazni miqdori yoki uning hidi sezilmaganligi uchun odamlar zaharlanadi. Biogaz zaharli boʻlmaganligidan boʻgʻuvchi gaz hisoblanadi. Shuni inobatga olib, maqolada qanday chora tadbirlar koʻrish keltirilgan.

Kirish. Mamlakatimizda soʻnggi yillarda energetikani rivojlantirish yoʻnalishlarida noanʼanaviy energiya manbalaridan foydalanish keng yoʻlga qoʻyilmoqda. Chunki har qanday chiqindilardan ularga maʼlum turdagi ishlov berish orqali tiklanadigan energiya olish mumkin. Bu esa qishloq xoʻjaligining barcha sohalarini energiya bilan toʻliq taʼminlash imkonini berishi mumkin.

Butun dunyoda energiya resurslarining tanqisligi va narxning muntazam ravishda oshib borayotganligi hamda ulardan kelajakda foydalanish uchun jahonda neft zaxirasi 30-35, tabiiy

gaz 60-65, toshko'mir 155-165, qo'ng'ir ko'mir 450-500 yiliga va yadro yonilg'si esa nisbatan ko'proq yillarga yetishi to'g'risida ma'lumotlar bor[2].

Zamonaviy texnika va energetik jihozlarni muqobil yonolg'i bilan ta'minlash va jahon iqtisodiy krizisini chetlab o'tish maqsadida chiqindilardan olinayotgan yonilg'i manbalaridan foydalanish, shu bilan bir qatorda chiqindilardan chiqayotgan zararli antisanitar va issiqxona gazlarni kamaytirishga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan ishlar dolzarbligini hukumatimizning so'nggi vaqtlardagi bir nechta qarorlarida o'z aksini topdi.

Biogaz olish korxonasi va zavodlarida mehnat muhofazasini boshqarish, biogaz olish qurilmalarining katta -kichikligidan qat'iy nazar, ularni ishlatish jarayonining asosini tashkil etadi. Bunday korxonalarda mehnat muhofazasini boshqarish biogaz qurilmalarini ishlatuvchi asosiy ish jarayonining bir qismi hisoblanadi. Mehnat muhofazasini boshqarish biogaz olish qurilmalarining ish jarayonida ishlovchining (ishlovchilarning) xavfsizligini ta'minlash, ish qobiliyatini va sog'ligini saqlash bo'yicha tashkiliy, texnik, sanitar-gigiyenik, davolash-oldini olish va boshqa chora tadbirlarni tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirishdir[3].

Asosiy qism. Qayta tiklanadigan energiya manbasini ishlab chiqaradigan energiya qurilmalarida mehnat muhofazasini boshqarishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat[1]:

- ishlovchining (ishlovchilarning) mehnat xavfsizligiga o'qitish va mehnat muhofazasi masalalarini tashviqot qilish;

- bino va inshoot, ishlab chiqarish jarayonlari va asbob uskunalarning xavfsizligini ta'minlash;

- mehnat sharoitining sanitar-gigiyenik inik holatini me'yorlashtirish;

- ishlovchilarni shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash;

- ishlovchilar uchun maqbul ish va mehnat sharoitini yaratish;

- ishlovchilar uchun kasalliklarni davolash-oldini olish tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish;

- biogaz olish korxonasi yoki zavodiga joriy etiladigan har bir texnik va texnologik o'zgarishlarni ishlovchiga (ishlovchilarga) yetkazish uchun ularni mutaxassislar yordamida qo'shimcha o'qitish va bu yo'nalishda targ'ibot ishlari olib borib, kasbiy tanlov o'tkazish;

- ishlovchiga (ishlovchilarga) sanitar-maishiy xizmat ko'rsatish va hokazo.

Biogaz olish korxonasi yoki zavodlari ishlovchisi(ishlovchilarning) mehnat muhofazasi bo'yicha asosiy vazifalar:

- mehnat muhofazasi holatiga doimiy amal qilish;

- MHST me'yori va qoidalar yo'riqnomalarga amal qilish;

- mexanizatsiyalashtirilgan, avtomatlashtirilgan ilg'or texnologik jarayonlarni tadbir qilish;

- xavfsiz mehnat qilish uslublarini doimiy o'qib o'rganib, malakasini oshirib borish;

- ishlovchiga (ishlovchilarga) himoya shaxsiy himoya vositalarini doimiy shay holatdiligini ta'minlash;

- biogaz olish qurilmasining xavfli nuqtalarini vaqtida tekshiruvdan o'tkazib, tekshiruv nazorat daftarida ro'yxatdan o'tkazish;

- biogaz olish korxonasi yoki zavodi ish o'rinlarini attestatsiya va pasportizatsiya o'tkazishga tayyorlashni ta'minlash;

- mehnat muhofazasi bo'yicha kompleks va tezkor rejalar, shartnoma, kelishuvlarni tayyorlash va o'tkazishni ta'minlash;

Biogaz olish korxonasi yoki zavodi ishchisi (ishchilari) mehnat muhofazasi bo'yicha asosiy tashkilotchi hisoblanadi. U biogaz olish korxonasi yoki zavodida har bir qismning mehnat muhofazasi talablariga amal qilishini nazorat qiladi. Ish jarayonida qismlarning xavfli nuqtalarini tekshirishda qatnashadi, xavf sabablarini aniqlaydi va ular qayta takrorlanmasligi uchun takliflar kiritadi[2].

Biogaz olish korxonasi yoki zavod ishchisi (ishlovchilarni) quyidagi tartibda o'qitiladi:

a) Texnika xavfsizligi yo'riqnomalardan o'tkazish:

- kirish yo'riqnomasi;

- birlamchi yo'riqnoma
- takroriy yo'riqnoma
- rejadan tashqari yo'riqnoma
- joriy yo'riqnoma
- b) Kurs o'qitishlari
- har yili bir marta, yanvarda olib boriladi.
- v)malaka oshirish fakultetlarda o'qish.

Mehnat qilish jarayonida kishi organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan turli moddalar bo'lishi mumkin. Bu moddalarning o'zlari yoki ularning birikmalari ishlovchilar organizmiga ta'sir etish oqibatida, ular kasb kasalligiga chalinishi, mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki butunlay yo'qotishi mumkin.

Organik chiqindilarni qayta ishlovchi korxonalar va zavodlarda ishchilarga zararli moddalar ta'sirini bilish, moddalardan muhofazalanishda turli xildagi chora-tadbirlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda dunyoda besh milliondan ortiq kimyoviy moddalar ma'lum. Shundan 60 mingga yaqini ishlab chiqarishda qo'llanib kelinadi. Shu jumladan, biogaz olish uchun "iste'mol"ga yaroqli organik chiqindilarni ularning tarkibini aniq bilganda, anaerob jarayon uchun maqbul deb ruhsat berilganidan so'ng ishlatish lozim. Bular:

- dalalarda yig'ilgan organik chiqindilar tarkibidagi gerbetsit-pestetsidlar qoldiqlari;
- shahar oqava suvlarida uchraydigan kimyo va boshqa zavodlardan "qochib" chiqayotgan zaharli birikmalar;
- anaerob jarayondan hosil boladigan metan va boshqa gazlar.

Zaharli moddalar deb, inson organizmiga oz miqdorda tushib, unda to'qimalar bilan kimyoviy yoki fizik- kimyoviy o'zaro ta'sirga kirishadigan va muayyan sharoitlarda sog'liq buzulishiga olib keladigan moddalarga aytiladi[4].

Mehnat faoliyati sharoitlarida ta'sir etadigan ZM ishlovchi (ishlovchilar)ning ish qobiliyatini pasaytiradi, kasbiy kasalliklarga sabab bo'ladi.

Biogaz olish korxonalar yoki zavodlarida asosan zaharlovchi modda sirasiga metan gazi kiritiladi.

Zaharlar organizmga umumiy yoki mahalliy ta'sir qilishi mumkin. Umumiy zaharlanishlarda u qonga so'rilib, ayrim organlar, asab tizimi qon hosil qilish a'zolariga zarar keltiradi. Mahalliy zaharlanish, to'qimalar, terining yallig'lanishi kabi hodisalar ro'y beradi. Zaharlanishning quyidagi shakllari mavjud:

- o'tkir zaharlanish qisqa muddatda katta miqdorda ZM ta'siri natijasida ro'y beradi;
- surunkali zaharlanishlar organizmga nisbatan oz miqdorda tushadigan zaharlarning asta –sekin uzoq vaqt ta'siri natijasida paydo bo'ladi.

Organik chiqindilarga anaerob qayta ishlov berishda ZM juda ko'p bo'lganda salbiy oqibatlarga ham sabab bo'ladi. Ular organizmning immunobiologik qarshiligini pasaytiradi, yuqori nafas yo'llari qatori, tuberkulyo'z, buyrak, yurak- qon tomirlari tizimi kasalliklari kabilar rivojlanishiga imkon berishi mumkin.

Organik chiqindilarga anaerob qayta ishlov berishda hosil bo'ladigan mahsulotlar (organic chiqindi va biogaz)dan noto'g'ri foydalanish xavfli va odam a'zolari uchun zararli, shuning uchun ular bilan ishlaganda ma'lum qoidalarga rioya qilish kerak.

Eng muhim tadbirlar biogaz olish qurilmalari va gaz idishlari saqlash joylaridagi ishchilar bilan vaqti-vaqtida suhbatlar o'tkazish va texnika xavfsizligi hamda yong'inga qarshi kurash choralarining bajarilishini doimiy nazorat qilishdan iborat. Bu biogaz olish qurilmalaridan olinadiga mahsulotlardan foydalanish, organic chiqindilarni qayta ishlash korxonalarining uskunalari texnik xizmat ko'rsatishlar va servis xizmatlarini ko'rsatish, baxtsiz hodisalar ro'y berishining oldini oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, organic chiqindilarga anaerob qayta ishlov berish korxonalar va zavodlarida quyidagi asosiy talab va ko'rsatkichlar belgilanadi:

- biogaz oqib o'tuvchi quvurlardagi gazning bosimini 1,5 atm.dan oshirmaslik;

- biogaz oqib chiqish ehtimoli boʻlgan qismlarni nazorat qilishda faqat sovun koʻpigi yoki maxsus qurilmalarda tekshirishga ruxsat etiladi;
- biogaz oqib oʻtish quvurlaridan tirkak sifatida foydalanish taqiqlanadi;
- biogaz oqib oʻtish quvurlaridan yerlatish maqsadida foydalanish taqiqlanadi;
- elektr razetka va yoqib oʻchirgichlari biogaz oqib oʻtish quvurlaridan kamida 0,5 m uzoqlikda joylashtirilishi lozim;
- payvandlash ishlarini gaz uskunalaridan kamida 10.0 m uzoqlikda olib borish talab etiladi.

Xulosa

Biogaz qurilmalardan foydalanishda qulay mehnat sharoitlarini yaratish, ishlab chiqarishga yangi zamonaviy xavfsiz texnika texnologiyalarni joriy etish, joylarda mehnat muhofazasiga masʼul insonlar tomonidan ishchi xizmatchilar uchun qulay va xavfsiz ish sharoitlarini yaratish uchun zaruriy chora-tadbirlar belgilash va uni sifatli amalga oshirish, ishchi-xodimlarni zaruriy himoya vositalari bilan oʻz vaqtida toʻliq taʼminlash, texnika xavfsizligini targʻib qilish va ishchi-xodimlarni texnika xavfsizligi boʻyicha yoʻriqnomalardan oʻtkazish natijasida sodir boʻlishi mumkin boʻlgan baxtsiz hodisalar va jaroxatlanishlarni oldini olish va ularning taʼsirini kamaytirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Ibragimov E.I., Gazinazarova S, Yuldashev O.R., Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.- T.: TIMI, 2014.-536 b.
- 2.Imomov Sh.J, Hvang Sang Gu. Биогазовая установка с рекуператором тепловых отходов брожения. Международный конгресс БИОГАЗ-2008, Москва, 26-27 ноябр 2008 г.
- 3.Imomov Sh.J., Usmonov K.E Biogaz olish qurilmalarining unumdorligini oshirish usullari. Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi, 6-son, 2011 y.
- 4.Xojiyev A.A., Saidxoʻjayeva N.S. Mehnat muhofazasining tahlili. “Hayot faoliyati xavfsizligining zamonaviy muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallar toʻplami. Toshkent 2012 y, 162-163 b.

Ilmiy rahbar

Kimsanov Sh.

MEHNAT RESURSLARI VA MEHNAT UNUMDORLIGINING QISHLOQ XOʻJALIGIDAGI AHAMIYATI

Vafoyev R.S. – talaba TIQXMMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada foydalanilayotgan texnikalar, texnologiyalar yordamida bir birlikdagi mahsulotni yetishtirish, ishni bajarish uchun sarflanadigan vaqtning miqdorini nazarda tutish, «Mehnatni tejash» iqtisodiy qonunining amal qilishi, yaʼni sarflanayotgan bir birlikdagi vaqt ichida yaratilgan qiymat yoki ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish mehnatning unumdorlik darajasini ifodalaydi.

Mamlakatimizning qishloq xoʻjalik mahsulotlariga boʻlgan barcha talablarini qondirishda jonli va buyumlashgan mehnatning ahamiyati ulkan. Chunki u qiymatni yaratadi, qolaversa, insonning ongli-maqсадga yoʻnaltirilgan faoliyatidir. U bilan mehnat predmetlari hamda vositalari uygʻunlashgan holda ish jarayoni amalga oshiriladi. Bu jarayonning mahsuli qiymat hisoblanadi. Demak, talabni qondira olish qobiliyatiga ega boʻlgan mahsulotlarni etishtirish, xizmatlarni bajarish insonning jonli faoliyati (mehnati) bilan mehnat predmetlari va vositalarining maqsadga muvofiq bogʻlanishiga bogʻliq. Yaʼni, inson mehnati + yer + traktor + chigit (urugʻ) + yoqilgʻilar ijobiy bogʻlanishi natijasida paxta yoki bugʻdoy va boshqa qishloq

xo'jalik mahsulotlari etishtiriladi. Ularning miqdori, sifati bevosita yuqoridagi omillarga bog'liq. Lekin inson va uning ongli faoliyati bo'lmasa hech qanday mahsulot yaratilmaydi, ish yoki xizmat bajarilmaydi. Shunday ekan, faqat inson o'zining ongli faoliyati bilan mahsulotlarni yaratadi, ishlarni, xizmatlarni bajaradi [1].

Mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.

Mehnat resurslari qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ishlab chiqarish resurslarining eng faol omili sifatida katta ahamiyatga ega. Ular ishlab chiqarish jarayonida ongli ravishda qatnashib, ko'proq, sifatliroq mahsulotlarni talabni qondiradigan miqdorda etishtirishga, ish va xizmatlarni bajarishga harakat qiladi. Shunday ekan, ulardan yil davomida to'liq, samarali foydalanishga erishish lozim. Buning uchun mehnat resurslaridan foydalanilayotganlik darajasini aniqlash kerak. Uni aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi: a) Mavjud bo'lgan mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsiyenti. Uni aniqlash uchun ishlab chiqarish jarayonida haqiqatda qatnashgan mehnat resurslari miqdorini (kishi) xo'jalikda shartnoma (buyruq) bo'yicha mavjud bo'lgan mehnat resurslari miqdoriga taqsimlanadi [2].

U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$MK = 4 * \frac{Y_{ИМр}}{Y_{ММр}}$$

Bunda: M_k - mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsiyenti; $Y_{ИМр}$ - haqiqatda ishlagan jami mehnat resurslari, kishi; $Y_{ММр}$ - mavjud bo'lgan jami mehnat resurslari, kishi.

Bu ko'rsatkichning darajasi birga yaqin bo'lgani yaxshi. Shunda u mavjud mehnat resurslaridan foydalanish yuqori bo'lganligidan dalolat beradi. b). Mehnat resurslarining xo'jalik faoliyatida qatnashishi (1 oyda, 1 yilda). Uning miqdorini xo'jalik faoliyatida jami sarflangan vaqtni sarflangan mehnat resurslarining umumiy miqdoriga taqsimlash natijasida aniqlash, bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin [2].

$$Y_{ИМр} = \frac{MrXqk}{Y_{Мрсв}}$$

Bunda: $MrXqk$ - mehnat resurslarining ma'lum bir muddatda o'rtacha ishlagan ish vaqti, kishi- kuni, kishi-soati; $Y_{Мрсв}$ - mehnat resurslarining jami sarflagan vaqti, kishi-kuni, kishi-soat. Bu ko'rsatkichning mutlaq (absolyut) miqdori aniqlanayotgan davrdagi (oyda, yilda) bir kishining ish vaqti fondidan yuqori bo'lmaydi. Mehnat resurslarining har bir guruhi uchun amaldagi qonunlarda yillik yoki oylik ish vaqti fondi belgilanadi. Uning miqdorini bir yildagi kalendar kunlar miqdoridan barcha turdagi bayram (agar u qonun bo'yicha dam olish kuni hisoblansa), dam olish hamda ta'til (otpuska) kunlarini ayirish orqali aniqlanadi. Respublikada yillik ish vaqti fondi 276-286 kun miqdorida belgilangan. Bu iqtisodiy faol mehnat resurslarining yillik ish vaqti fondi hisoblanadi. O'smirlar uchun bu fond ularni ijtimoiy jihatdan himoya qilgan holda belgilangan. Xuddi shunday imtiyozlar inson salomatligi uchun zarur ishlarni bajaruvchilar uchun ham o'rnatilgan. d) Belgilangan ish vaqti fondidan foydalanish koeffitsiyenti ham aniqlanadi. U bir ishchi yoki xizmatchining ishlab chiqarishda haqiqatda ishlagan vaqtini (kishi-kuni, kishi-soatini) qonunda belgilangan miqdorda ishlashi lozim bo'lgan vaqtga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin [2].

$$IVfk = MrIv$$

Bunda: $IVfk$ - ish vaqti fondidan foydalanish koeffitsiyenti; $MrIv$ - mehnat resurslari hisoblangan bir kishining bir yilda ishlagan vaqti, kishi-kuni, kishi- soati;

$MrIn$ - bir kishi uchun qonunda belgilangan, ishlashi lozim bo'lgan vaqt, kishi-kuni, kishi-soat. Bu koeffitsiyentning miqdori birdan oshmasligi kerak. Agar u qanchalik kam bo'lsa, bu mehnat resursi foydali mehnat jarayonida kam qatnashganligidan dalolat beradi. g). Mehnatning mavsumiylik koeffitsiyenti. Uning miqdorini bir yil, bir oy mobaynida yeng ko'p ish kunini shu davrdagi yeng kam ish kuni miqdoriga taqsimlash natijasida hisoblash mumkin. Bunda quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir [2].

$$\kappa Mm = \frac{!oE1}{!oKlv}$$

Bunda: Mm -mehnatning mavsumiylik koeffitsiyenti; IoYeIk - bir yildagi yoki oydagi yeng ko'p ish kuni; IoKlv - bir yilda yoki oydagi yeng kam ish kuni. Uning miqdori ham 1-1,2 atrofida bo'lgani maqsadga muvofiqdir. Hozirgi vaqtda uning miqdori 2- 2,3 ga teng bo'lmoqda. Bu mehnat resurslarining ishlab chiqarish jarayonida bir me'yorda qatnashmayotganligidan dalolat beradi. Bu holni yumshatish zarur. Buning uchun kam mehnat sarflanadigan oylarda ishlab chiqarishning boshqa sohalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu masalani har bir korxonada o'zi ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishi mumkin. d). Mehnatning unumdorligi darajasi. Uning mutlaq (absolyut) darajasini aniqlash uchun haqiqatda sarflangan jami ish vaqti miqdorini shu davrda ishlab chiqilgan mahsulot miqdoriga, qiymatiga hamda bajarilgan ish hajmiga taqsimlash zarur. Bu mehnatni tejash iqtisodiy qonunining talabi. Amaliyotda esa u haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotning, bajarilgan ishning miqdori yoki qiymatini unga sarflangan ish vaqtiga taqsimlash natijasida aniqlanmoqda. Bunday usulda ular bir- birlarini inkor etmaydi, balki to'ldiradi. Ularni aniqlash uchun ushbu formuladan foydalanish mumkin [2].

$$Mu = Sv Y_{em}$$

Bunda: Mu-mehnatning unumdorlik darajasi, kishi-kuni, soati, so'm; Sv-mahsulot yetishtirish, xizmat ko'rsatish uchun sarflangan ish vaqti, kishi-kuni, soatda; Y_{em}-sarflangan vaqt ichida yetishtirilgan mahsulot, s, so'm. Bu ko'rsatkich yetishtirilayotgan bir birlikdagi (sen, tonna, so'm) mahsulot uchun qancha vaqt sarflanganligini yoki sarflangan bir birlikdagi vaqt yevaziga qancha mahsulot etishtirilganligining, xizmatlar bajarilganligining darajasini ifodalaydi. Mahsulot birligiga sarflangan jonli mehnat miqdori kamaysa yoki sarflangan bir birlik mehnat yevaziga etishtirilgan mahsulot birligi ko'paysa, mehnat unumdorligi oshganligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligida ayrim ish, mahsulot turlari, davrlari hamda xo'jalik miqyosida natura hamda qiymat ko'rinishida aniqlanadi. Uning darajasini qiymat ko'rinishida bir necha yillar davomida aniqlashda qiyosiy baholardan foydalanish lozim. Shunda qishloq xo'jalik mahsulotlari baholari o'zgarishining ta'siri bartaraf etiladi. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar yordamida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida qatnashayotgan mehnat resurslaridan qanday foydalanilayotganlik hamda sarflanayotgan mehnatning unumdorlik darajasi aniqlanib, chuqur tahlil etiladi. Bulardan tashqari qishloq xo'jaligida tarmoq sifatida band bo'lgan mehnat resurslari salmog'i ham aniqlanadi. Uning darajasi tarmoqda band bo'lgan mehnat resurslari miqdorini makroiqtisod darajasida, ya'ni respublika miqyosida band bo'lgan mehnat resurslari soniga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Aniqlangan raqam 100 ga ko'paytiriladi. Chunki u foizda ifodalanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin [2].

$$TBM_s = MBM_m - TBM_m * 100$$

Bunda: TBM_s-tarmoqda band bo'lgan mehnat resurslarining salmog'i, foiz; TBM_m-tarmoqda band bo'lgan mehnat resurslarining miqdori, mln.ishchi; MBM_m-makroiqtisod miqyosida band bo'lgan mehnat resurslarining umumiy miqdori, mln. kishi. Bu ko'rsatkichni qishloq xo'jaligi tarkibidagi tarmoqlar (o'simchilik, chorvachilik, paxtachilik) doirasida ham aniqlash mumkin. Bunda qishloq xo'jaligi asos qilib olinadi. Ichki tarmoqlarning shunga nisbatan salmog'i aniqlanadi. Tarmoq miqyosida mamlakat qishloq hududlarida yashayotgan aholining qanday salmoqqa egaligi, qishloq xo'jaligida bandligi ham aniqlanishi mumkin. Uning darajasini aniqlash uchun qishloq xo'jaligida band bo'lgan mehnat resurslarining umumiy miqdorini qishloq hududlarida yashayotgan umumiy aholi miqdoriga taqsimlab, 100 ga ko'paytirish kerak. Chunki bu ko'rsatkich foizda aniqlanadi. Shu ko'rsatkichlar yordamida makroiqtisod doirasida qishloq xo'jalik tarmog'ida band bo'lgan mehnat resurslarining salmog'i, ular mehnatning unumdorlik darajasi aniqlanib, tahlil qilinishi mumkin. Shuning natijasida tarmoqda mehnat resurslarining bandligiga oid chora-tadbirlar makroiqtisod doirasida ishlab chiqilishi mumkin. Tarmoqda band bo'lgan mehnat resurslari miqdori va salmog'ining pasayishi respublikada amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy siyosatning ma'lum darajadagi natijasidir.

Xulosa

Hozirgi davrda minimal ish haqi miqdori belgilangan. Lekin erkin bozor iqtisodiy sharoitida mehnatga to'lanadigan ish haqining eng kam miqdori belgilanadi. Yuqori darajasi esa xo'jaliklarning iqtisodiy imkoniyatlaridan hamda ishchi-xizmatchilarning qobiliyatlariga, imkoniyatlariga asoslangan holda belgilanadi. Bunday tartib xususiy korxonalarda, fermer xo'jaliklarida ma'lum darajada qo'llanilmoqda. Kelajakda mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilashga doimo e'tibor berish maqsadga muvofiqdir deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.A.Xojiev., G.Murtazaeva. Gidrotexnik-muhandislar uchun «Hayot faoliyati xavfsizligi» fanini o'qitishda innovatsion usullarni qo'llashning samaradorligi. “Gidrotexnika inshootlarining amaradorligi, ishonchliligi va xavfsizligini oshirish” mavzusidagi xalqro ilmiy-amaliy konferensiyaning maqolar to'plami. II tom, 2018 y, 537-541 b.

2.A.Xojiev., N.Saidxo'jaeva. Hayot faoliyati xavfsizligi faniga oid. “Muhofaza +” jurnali 2015 yil № 12 son. 23 b.

Ilmiy rahbar

Abdusamatova F.

АККУМУЛЯТОРЛАР, ЭЛЕКТР УСКУНАЛАРНИ ТАЪМИРЛАШ ВА СИНАШДА ХАВФСИЗЛИК ИШЛАРИ

Аскарлов Ф., Толипов Х. - талабалар, ТИҚХММИ

Аннотация

Маколада аккумуляторлар, электр ускуналари билан ишлашдаги хавфли ва зарарли факторлар тўғрисида тушунчалар келтирилган. Зарарловчи омиллар асосан одамнинг нафас йўли ва танаси орқали таъсир қилиши мумкинлиги кўрсатилган. Уларни таъмирлашда хавфсизликни таъминлаш учун бажариладиган ишлар очиқ берилган.

Замонавий ҳаракатланадиган машина механизмлар юргизиш механизмларисиз ишлаб чиқарилмайди. Юргизиш механизми электр токи, яъни аккумулятор ёрдамида ишга туширилади. Аккумулятор батареялари ва уни таъмирлашда хавфсизлик тўғрисида “Меҳнат муҳофазаси” китобида (А.В.Луковников) атрофлича маълумотлар берилган.

Аккумуляторлар хонасида батареяларни монтаж қилишни бошлашдан аввал иситиш, ёритиш ва оқим тортиш вентиляциясини монтаж қилишни тугатиш керак. Соатига камида бир марта ҳаво алмашинишига мўлжалланган табиий вентиляциядан фақат доимий зарядланиб туриш методи бўйича ишлайдиган батареялар учун мўлжалланган хоналардагина фойдаланиш билан чекланиш зарур. 24-48 В га мўлжалланган батареяларни махсус хоналарга эмас, балки шамоллатиб туриладиган шкафларга ўрнатиш мумкин. Вентиляцияни зарядлаш бошланишидан олдин улаш ва зарядлаш тугаганидан кейин камида 1.5 соат ўтгач тўхтатиш зарур. “Выключатель”, “штепсель”, “розеткалари” ва суюқланувчан саклагичларни улар ишлаган вақтда чиқадиган учкун портлаш келтириб чиқармаслиги учун аккумулятор хонаси ичига ўрнатиш мумкин эмас. Эшикларга “Аккумуляторлар хонаси”, “Ўтга хавфли”, “Олов билан кирилмасин” деган огоҳлантирувчи ёзувлар ёзиб қўйилиши керак, чунки кўрғошин кислотали батареяларни зарядлашда ҳаво билан қўшилиб портловчи аралашма ҳосил қиладиган водород ажралиб чиқади [1].

Кўрғошин – захарли модда. У организм ичига кирганида сурункали захарланиш ҳосил қилиши, кўзга тушганида эса уни зарарлаши мумкин. Кўрғошин оксидлари ёки ўювчан натрий ва ўювчан калийни қўл билан ушлаш ман қилинади. Кўрғошин пластиналардаги сульфатларни ёки ишқорий аккумуляторлар банкаларидаги зангларни

резина кўлқоплар кийиб ва химоя кўзойнаклари тақиб олиб, ҳавоси маҳаллий сўриб олинган хоналардан ёки хонадан ташқарида тозалаш зарур. Банклар орасидаги бирлаштирувчи кўрғошин кўприкчаларни кавшарлашда кавшарловчилар брезент куртка кийиб оладилар. Куртканинг енги боғлаб қўйилади ёки манжетидagi тугмаси қадаб олинади. Кўлқопсиз, химоя кўзойнаклари ва респираторларсиз кавшарлаш ман қилинади. Ремонт пайтида кавшарлашни батареяни зарядлаш тугганидан кейин камида 2 соат ўтгач бошлаш мумкин, бунда кавшарлаш тамом бўлгунча вентиляцияни ишлатиб қўйиш шарт.

Кислота билан эҳтиёт бўлиб ишлаш керак. Бунда албатта резина кўлқоплар, фартуклар, кўзойнаklar, этиклар кийиб олиш шарт. Кислота солинган шиша идишларни (бутилкаларни) “кучоқлаб”, судраб ёки елкада кўтариб ташиш ман этилади. Бутилкалар икки дастали корзиналарда бўлиши керак, агар узокроқ жойга ташиладиган бўлса, корзинанинг дастасини тутиб эмас, балки махсус замбилларда ташиш керак, бутилкаларни корзина билан бирга бу замбилларга баландлигининг 2/3 қисмига қадар тушиб туриши лозим. Кислотани бутилкадан қуйиб олишда бутилкани энгаштирадиган қурилмадан фойдаланиш зарур, уни бўғизидан ушлаб энгаштириш ярамайди. Энг яхшиси резина найчали сифондан фойдаланган маъқул. Бу сифон ёрдамида найча орқали бутилкага ҳаво ҳайдалади, бунда кислота бутилдан бошқа найча орқали қуйилади. Электролит тайёрлашда кислота сачрамаслиги учун уни 2 л дан ошмайдиган шиша колбада етарлича миқдордаги сувга (аксинча эмас) томчилатиб қўйиш керак. Агар сув кам бўлса, у кислота билан таъсирлашиб қайнаш даражасигача қизийди ва сачрайди. Кислота билан ишлашда кислота томчилари тушган терини ёки кийимни хўллаш учун яқинроқ жойда сода аралашмаси солинган икки литрли бутилка туриши керак. Кислота ёки ишқор қуйдирганда қуйган терини дарҳол крандан ёки челақдан сув оқизиб, 15 минут ёки ундан кўпроқ вақт давомида ювиш керак. Қуйган қўл-оёқни тоза сув солинган челақка тикиб, оёқ-қўлни сувда қимирлатиб туриш ҳам мумкин. Қуйган тери ювилганидан кейин у ерга қўйилади: кислота қуйдирганда сода эритмаси билан, ишқор қуйдирганида эса сирканинг кучсиз эритмасида ёки борат кислотанинг кучсиз эритмасида ювиш керак.

Тўкилган кислота ёки ишқор резина ноклар (сўргич) ёрдамида олиб ташланади. Агар кўп тўкилган бўлса, пол ювгичга қўйилган латтадан фойдаланилади. Булар тўкилган жойлар оҳак эритмаси ва сув билан ювиб нейтралланади.

Ишқорий аккумуляторлар учун электролит тайёрлашда ўювчан калийнинг терига ёки кўзга тушишига йўл қўймасдан, эҳтиётлик билан ишлаш керак. Ўювчан калий бўлақларини қисқич ёки пинцет билан ушланади. Улар тоза латтага ўраб майдаланади.

Электр ускуналарини таъмирлаш ва синаш жараёнлари ўзига хос хавфларнинг манбаи ҳисобланади. Сув хўжалигида электрдан кенг масштабда фойдаланилади. Электр двигателлар, автоматик қурилмалар, асбоб ускуналар мавжуд. Сув оқимини ростлашда ҳам электрлаштирилган қурилмалар кенг фойдаланилмоқда, алоқа тармоғи кенг жорий этилган.

Сув хўжалиги тармоғида ҳам электр ускуналарни таъмирлаш ишлари олиб борилади. Электродвигателларни таъмирлаш ишлари кенг масштабда амалга оширилади. Амалиётда электрдан жароҳатланишлар кам бўлсада ўлим билан тугаш ҳолатлари юқори ҳисобланади. Уларнинг миқдори 20-40% ни ташкил этади [2].

Электр ускуналарни таъмирлаш ишларини амалга оширишда хавфсизликни таъминлаш мақсадида ташкилий ва техник тадбирлар амалга оширилади.

Ташкилий тадбирларга таъмирлаш ишларида қатнашувчиларни ўқитиш, тайёрлаш, таъмирлаш режасини тузиш, таъмирлаш устахонасини яратиш, уни керакли асбоб ускуналар билан таъминлаш, синов стендларини барпо қилиш каби саволлар киради.

Ишлаб чиқаришда асосан 220В ва 300 В кучланишли электр асбоб ускуналари ишлатилади. Бу одамлар учун хавфлидир. Одамни ток уриши асосан уни электр занжирига уланиб қолиши сабаб бўлади. Бунда иккита сим орасида ёки сим билан ер орасида уланиб қолинади. Ҳар қандай ҳолатда ҳам электрдан фойдаланишда хавфсизлик техникасининг бузилиши сабаб бўлади. Электр ускуналари жойида ёки устахоналарда

таъмирланади. Электр ускуналари жойида таъмирлаш кичик қурилмалар, таъмирлаш ишлари ҳажми кам бўлганда амалга оширилади. Буни бажариш учун шу қисмга келадиган токни узиш керак, узиш жойига тармоқда таъмирлаш иши кетаётганлиги ҳақида кўрсаткич тахтача узгич ручка олдига яхши кўринадиган жойга ўрнатилиши керак. Таъмирлаш участкаси марказий ток келтирувчи тармоқдан узилгандан сўнг таъмирлаш ускунасида ток бор йўқлиги махсус асбоблар ёрдамида аниқланади. Сўнг таъмирлаш иши амалга оширилади. Ҳар қандай ҳолатда ҳам “нол” лаш улагичларни иш ҳолатида эканлиги текширилиши керак [1].

Ишлаб чиқариш бинолари электр хавфи бўйича қуйидаги синфларга (Э.Ибрагимов, 2008йил) бўлинади: хавфсиз хоналар, хавфли хоналар ва ўта хавфли биноларга бўлинади.

Электр ускуналарини таъмирлаш махсус хоналари, жиҳозларида химоя чоралари кўрилган бўлиши керак. Улар тездан ток узиш иш ускуналарида ток мавжудлигини кўрсатувчи ўлчов назорат мосламалари билан жиҳозланган бўлиши керак. Назорат ўлчов асбоблари меъёрий муддатда текширувдан ўтказилиши керак ва расмийлаштирилиши лозим. Электр ускуналарни таъмирлашда шахсий химоя воситаларисиз ишлаш қатъиян тақиқланади. Ишловчилар барча назорат ўлчов асбобларини мукамал билишлари шарт. Таъмирлаш устахоналарининг ҳар бир таъмирлаш жойида тегишли ускуна таъмирлашда техника хавфсизлиги бўйича йўриқномаси яхши кўринадиган, ўқиб бўладиган, ишловчининг эътиборини тортадиган жойга қўйилиши керак.

Электр ускуналарини таъмирлашда ишловчилар қатъий равишда белгиланган муддатда техника хавфсизлиги бўйича текширувдан ўтказилиши керак [1].

Таъмирланган аккумуляторни ва электр ускуналарни синаш махсус жойларда ва стендларда амалга оширилади. Синаш жойлари ва стендлардаги хавфсизлик таъминланиши керак. Бунинг учун бинонинг, жойнинг қуруқлиги, полнинг химояланганлиги, ёритилганлик, иссиқлик, совутиш, шамоллатиш ҳолатлари ГОСТ талаби даражасида бўлиши керак. Синаш столи, стенди ерга улаб ёки ноллаш билан химояланган бўлиши керак. Синов жойида токни автоматик узиш қурилмаси бўлиши ва ишлаши керак. Синаш столи ёки стендида синаш ишларини ва умуман ускуналарни таъмирлашда албатта камида икки киши ишлаши керак. Улар токни тез ўчириш қурилмасидан фойдаланишни билиши керак. Аккумулятор синаш жойида электрдан химояланишдан ташқари кимёвий моддалардан химояланиш чоралари кўрилган бўлиши керак.

Хулоса

Ҳар қандай ишлаб чиқариш жараёнида потенциал хавф борлиги мақола объектида кўрсатилган. Уни очиқ хавфга айланмаслигини таъминлаш фаолият унумдорлигини сақлаш билан бирга ишловчилар саҳит саломатлигини сақлашга хизмат қилади.

Адабиётлар

1. И. Ахмедов. Ишлаб чиқариш жараёнларида хавфсизлик. Т. 2015й. 197 б.
2. Ў. Ёўлдошев Мехнат муҳофазаси ва технотка хавфсизлиги. Т. 2013й. 200 б.

Илмий раҳбар

доц. Ахмедов И.

МЕЛОРАТИВ МАШИНАЛАРНИ ТАЪМИРЛАШ КОРХОНАЛАРИДА ҲОСИЛ БЎЛАДИГАН ЧАНГНИНГ ИНСОН ОРГАНИЗМИГА САЛБИЙ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ

Жўраев Қ., Алжанов Ф. – талабалар, ТИҚХММИ

Аннотация

Ишловчиларга хавфсиз иш шароитини яратиш ҳар бир корхона учун энг асосий вазифа ҳисобланади. Чанг одам организмига салбий таъсир ўтказиб турли хил касалликларни чиқиб келишига сабаб бўлади. Чанг ишлаб чиқариш биноларида пайдо бўлиш сабаблари ва уларни бартараф этиш учун зарур бўлган чора тадбирлар таъкидланади ва ҳаво таркибидаги чанг миқдорини камайтириш йўллари кўрсатиб ўтилган.

Ишлаб чиқаришда чангли муҳитда ишлашда ишловчиларга зарарли моддалар сифатида баъзи қаттиқ моддаларнинг заррачалари салбий таъсир кўрсатиб саломатлигига зарар келтириши мумкин.

Чанг деб, қаттиқ моддаларнинг майда заррачаларига айтилади. Ишлаб чиқаришда чанг қаттиқ моддаларни майдаланиши, баъзи моддаларни юқори ҳароратда қайта ишлашда ҳавога ажралиб чиқади.

Саноатда, транспорт воситаларини ишлатишда ва қишлоқ хўжалигида бажариладиган ишларнинг деярли ҳаммасида чанг ҳосил бўлиши ва ажралиши кузатилади. Умуман чангларнинг турлари уларнинг келиб чиқиш манбаларини ҳисобга олиб, уларни табиий ва сунъий чангларга бўлиб қаралади.

Таъмирлаш корхоналарида чангнинг ҳосил бўлиши қўймаларни тозалаш ва кесиш, чархлаш, маҳсулотга сайқал бериш ва силлиқлаш, деталларни кум оқими билан тозалаш ишларини бажарганда ҳосил бўлади.

Ишлаб чиқариш чангининг ишчилар саломатлигига зарарли таъсири кўп омилларга боғлиқ бўлади. Уларга биринчи навбатда чанг зарраларининг физик-кимёвий ҳоссалари, катталиги ва шакли, ҳаводаги чангнинг миқдори, смена давомида таъсир этиш муддаати ва касбда ишлаш даври, муҳит ва меҳнат фаолияти каби бошқа омилларнинг бир вақтда таъсир этиши киради. Масалан, ташқи ҳарорат кўтаришганда ёки киши жисмоний меҳнат билан шуғулланганда тез-тез нафас олиш натижасида организмга чанг кириш даражаси ошади. Бир вақтда чанг таркибида радиоактив аэрозолларнинг бўлиши ва ҳаводаги бошқа газлар таъсири чангнинг организмга зарарли таъсирини кучайтиради. Организмнинг чанг таъсирига кўрсатган зарарланишида шахсий фарқланиш бўлади, бу нафас йўлларидаги филтёрлаш хусусияти, биологик қаршилиқ ва бошқаларга боғлиқ [1].

Чанг ажралишнинг гигиеник таъсиридан ташқари яна бошқа салбий томонлари бор: у технологик жиҳозларнинг емирилишини тезлаштиради, қимматбаҳо материалларни ишдан чиқариб иқтисодий зарар етказиши. Бундан ташқари ишлаб чиқариш муҳитининг умумсанитария ҳолатини ёмонлаштиради, жумладан, дераза ва ёритувчи асбобларни ифлослантириши оқибатида ёруғликни камайтиради. Чангнинг баъзи турлари, масалан, кўмир, ёғоч чанглари ёнғин ва портлашнинг юзага келишига шароит яратади.

Чангларнинг кимёвий таркиби ва эрувчанлиги, чангларнинг катта-кичиклиги (дисперслиги), заррачаларнинг шакли, уларнинг қаттиқлиги тузилиши (кристалл, аморф), электр зарядланиш ҳоссалари организмга таъсир қилишда аҳамиятга моликдир.

Чангларнинг организмга таъсирининг кўп хил кўринишда бўлишини уларнинг кимёвий таркиби белгилайди. Чангнинг асосий таъсири энг аввало нафас олганда вужудга келади. Чангли ҳаво билан нафас олиш асосан нафас органларининг зарарланиши: бронхит, пневмокониоз ёки умумий зарарланиш (захарланиш, аллергия) ривожланишини вужудга келтириши мумкин. Баъзи бир чанглар қўшимча касалликлар туғдириш хусусиятига эга. Чангнинг бу асосий бўлмаган таъсири юқори нафас йўллари, кўзнинг

шиллик қавати, тери қоплами касалликларида кўзга ташланади. Чангнинг ўпка йўлига кириши пневмония, сил, ўпка ракиннинг келиб чиқишига шароит яратиши мумкин.

Кремний (II) оксид (айниқса унинг кристалл тури), силикатлар (кремний кислотасининг тузлари), кўмир, баъзи бир металллар (алюминий ва бошқалар) нинг чанглари, ҳамда ҳар хил чанглар аралашмаси масалан, минерал-металлар чанглари нинг аралашмаси, пневмокониоз ривожланишида кимёвий таркибига кўра хавфли бўлади. Бу чанглар амалда эримайдиган бўлиб, нафас олганда нафас тизимининг чуқур бўлимларида тутилиб қолади ва касалликни юзага келтиради, ўпкада бириктирувчи тўқималарини ривожланишига олиб келади. Шу нуқтаи назардан эркин кристалл кремний (II) оксиди, яъни кварц чанги ва унинг бошқа турлари энг хавфли чанг ҳисобланади. Қўшимча касаллик туғдирувчи чангларнинг хавфлилиги уларнинг эрувчанлиги билан тўғри пропорционал бўла олмайди. Масалан, кварцга қараганда аморф кремнийнинг эрувчанлиги юқори, лекин кварцнинг қўшимча касаллик туғдирувчи хавфи каттадир. [1].

Эрийдиган чанглар нафас йўлларида тутилиб сўрилади ва қонга ўтади, организмга кўрсатадиган кейинги таъсири уларнинг кимёвий таркибига боғлиқ. Масалан, қанд чанги зарарсиз, кўрғошин, мис ва бошқа металлларнинг чанги захарловчи таъсир кўрсатади.

Чангларнинг катта-кичиклиги, уларнинг ҳаводаги турғунлиги, нафас йўлларига кириш ва қанча чуқурликка кириб бориш имкониятини белгилайди. 10-20 мкм катталиқдаги заррачалар Ньютон қонунига бўйсинган ҳолда ерга тортилиш кучи таъсирида маълум тезлик билан ерга қўнади. Нафас олинганда улар нафас йўллари нинг юқори қисмларида ушланиб қолади. Микроскопик тавсивдаги заррачалар (0,25-10 мкм) ҳавода анча турғун бўлиб, бир хилда тезлик билан ерга тушади. Нафас олганда альвеолларга уларнинг асосан 5 мкм гача катталиқдаги заррачалари киради. Ультра микроскопик заррачалар катталиги 0,25-0,1 мкм ва ундан кичик бўлган заррачалар Браун ҳаракати қоидаларига бўйсинган ҳолда ҳавода узоқ вақт айланиб юради. Уларнинг бир-бирлари билан тўқнашишлари натижасида йириклашиб (коагуляция), ерга қўниши мумкин. Нафас олинган ҳаводаги ультра микроскопик заррачаларнинг 60-70% ўпкада ушланиб қолади. Бу заррачаларнинг физик-кимёвий активлигини белгилайдиган солиштирма юзасининг катта бўлишига қарамай, чангли шикастланишларнинг ривожланишида ҳал қилувчи рол ўйнамайди, чунки уларнинг массаси катта бўлмайди. Моддалар жуда юқори даражада майдаланганда уларнинг эрувчанлигининг ортиши ва ўпкада ушланиш вақтининг камайиши натижасида ўпка тўқимасига чангга ўхшаш таъсир этиши заифлашади, лекин захарли таъсири кучаяди.

Чанг зарраларининг шакли ҳар хил бўлиши мумкин: сферик, ясси, нотўғри. Аэрозоллар ҳосил бўлишида чанг зарралари микдорининг кўп қисми думалоқ шаклга эга бўлади. Дезинтеграция аэрозолларида эса нотўғри, кўп бурчакли, ясси шаклда бўлади. Заррачаларнинг шакли аэрозолнинг турғунлигига ва организмдаги ҳолатига таъсир этади. Четлари ўткир тишли чанг заррачалари ўпка тўқималарини жароҳатлайди деган тушинча нотўғри эканлиги исботланди, чунки улар ёпишқоқ лимфа муҳитида бўлади, бу уларнинг юқорида айтиб ўтилган ҳислатлардан маҳрум қилади. Бироқ шиша тола, слюда каби чанг турлари нафас йўлларига кирганда юқори нафас йўллари хужайраларини микро зарарлаш хавфи бўлади. Улар кўзнинг шиллик қаватини ва терига таъсир кўрсатишлари мумкин.

Чанг зарраларининг қаттиқлиги уларнинг зарарли таъсирида айтарли роль ўйнамайди. Масалан, корунд ва карборуундга ўхшаш жуда қаттиқ моддаларнинг чанги улардан анча юмшоқ бўлган кварц чангига нисбатан кам зарарлидир.

Чанг заррачаларининг электр билан зарядланган бўлиши аэрозолларнинг турғунлигига ва унинг биологик активлигига таъсир қилади. Қаттиқ материалларнинг чангиши вақтида чанг заррачаларининг 90-98% мусбат ёки манфий зарядланади. Анча йирик заррачалар кўп зарядли бўлади.

Чанг зарраларининг адсорбцион хусусиятлари баъзида таъсирлаш хусусиятига эга бўлган захарли газсимон моддаларнинг чанг билан киришига сабаб бўлади. Ҳаво

мухитининг чангли бўлиши, уни микроб ва бактериялар билан кўп уруғланишига сабаб бўлади.

Чангнинг зарарли таъсири пневмокониозлар деб аталувчи касб касаллигига олиб келади. Улар силикоз, силикатоз ва бошқа шаклларга ажралган. Силикоз-эркин кремний (11) оксиди чангининг таъсиридан ривожланадиган пневмокониознинг кўп учрайдиган ва характерли шаклидир. Силикатоз-кремний кислота тузларининг чанги нафас олиш йўллариغا кирганда вижудга келади, антракозкўмир чанги билан нафас олганда вужудга келадиган пневмокониоздир. Шунингдек нафас олиш органларига баъзи бир металлларнинг, масалан, алюминий, темир, аралаш таркибли чанглар кирганда ҳам пневмокониоз ривожланиши мумкин.

Чангли ҳаво билан нафас олганда анча йирик чанг зарралари юқори нафас йўлларида ушланиб қолади, асосан 5 мкм ва ундан кичик бўлган чанг зарралари нафас йўлларида чуқур бўлимларига тушади. Организмда ушланиб қолган чанглар миқдори чуқур нафас олганда, масалан оғир иш қилганда, шунингдек, ҳаводаги чанг миқдори ортиб кетганда кўпаяди.

Силикоз жуда чангли шароитда одатда кўп йил, кўпинча оғирчанг миқдорининг ўзгариш ҳолатини тегишли даврлар муддати хронометрик кузатишлар ёрдамида аниқланади.

Асбест чанги-асбестоз касалига дучор қилиши мумкин; кремний (SiO_2) ли чанг силикозга: оҳак, сода, кальций, карбид чанглари дерматитга олиб келиши мумкин. Узоқ муддат чанг ютилса нафас йўлларида сурункали шамоллашига, астмага, ўпка шамоллашига, организмда турли шишлар пайдо бўлишига сабаб бўлади [2].

Чанг организмга асосан нафас йўли ва тери орқали таъсир кўрсатади. Унинг таъсири куйидаги омилларга боғлиқ бўлади; чанг заррачаларининг физик-кимёвий хоссалари, катта -кичиклиги, шакли, чанг концентрацияси, таъсир муддати, касб тури, метеорологик омиллар, организмни шахсий реакцияси, нафас йўлларида филтрлаш хусусияти, иммунбиологик қаршилиги кабилар. Ишлаш зонасида ҳаводаги чангни ва унинг миқдорини назорат қилиб туриш муҳим аҳамиятга эга. Ишлаб чиқариш жараёни билан танишишда чанг манбалари ва чанг белгиланиши, маълум ҳажмдаги ҳавода бўлган чангнинг сифат таркиби ва унинг миқдорини ҳисобга олган ҳолда гигиеник баҳо берилиши зарур. Бунинг асосида ишчилар саломатлигини сақлаш, соғайтириш чоралари белгиланади.

Ҳаводаги чангни аниқлашда уни тортиш усули қўлланилади, яъни ҳавонинг ҳажм бирлигидаги миқдори мг ларда белгиланиб, фоиз ҳисобида ҳам топилади. Бундан ташқари унинг дисперслиги ҳам аниқланади ва безарар миқдори, концентрацияси билан солиштирилади.

Чангни салбий таъсирини олдини олиш ва камайтириш учун куйидаги тадбирларини ўтказиш лозим:

-қонуний характердаги чоралар: ишга киришдан олдин тиббий кўрикдан ўтиш, 20 ёшгача бўлган шахсларни кон-шахта ишларига қўймаслик зарарли чангли ишларда иш вақтини камайтириш ва ҳ.к.

-чангни ҳосил бўлиш ва тарқалишига қарши кураш: технологик жараёнларни автоматлаштириш, масофадан бошқариш, механизациялаш чангли хоналарни герметизациялаш, хоналарни вентиляция ускуналари билан таъминлаш ва ҳ.к.

-шахсий ҳимоя воситалари билан таъминлаш; респираторлар; скафандрлар кабиларни қўллаш.

-биологик усуллар ёрдамида чанг таъсирини камайтириш:

Бу усуллар организм реактивлигини оширишига ва ундан чиқарилишини, ультрабинафша нурлар орқали, тезлатишга қаратилган

Чанг миқдорини камайтириш учун зарарли моддалар ажралишини технологик жараёнларда бартараф этиш лозим. Бунда зарарли моддаларни зарарлилиги камроқ моддалар билан алмаштириш ёки умуман ҳавога зарарли моддалар ажралиши учун

шароитни қирқадиган янги технологияларни жорий қилиш мумкин: масалан, металлارни кўрғошин ванналари ўрнига юқори частотали тоқлар билан тоблаш ва бошқалар.

Шунингдек, технология ва ускуналарни такомиллаштириш лозим. Бунга бутунлай янги масалаларни ҳал қилиш йўли билан ҳам, узлуксиз жараёнлар ва автоматлаштириш йўли билан эришиш мумкин. Масалан, машинасозлик саноатида ҳавони эритувчиларнинг буғлари ва бўёқ аэрозоллари билан ифлосланадиган бўяш цехларида станоклар, машиналар ва бошқа ашёларни пуркаш йўли билан бўяш ўрнига, электростатик майдонларда бўяш жорий қилинмоқда, бу меҳнатни енгиллаштирибгина қолмасдан, балки иш зонасини соғломлаштиришга олиб келади ва зарарли моддаларни атмосферага чиқишини камайтиради. Вакуум шароитларида пайвандлаш ишларини бажариш цех ҳавосига зарарли газлар ва аэрозоллар ажралиб чиқишини олдини олади.

Ишлаб чиқариш жараёнларини механизациялаштириш, кўлда бажариладиган ишларни йўқотиб, меҳнатни осонлаштиради, аксари ҳаво муҳитини яхшилайти, ишчиларни зарарли моддалар билан мулоқотда бўлишини чегаралайти. Бунга кимё заводларида идишларни зарарли моддалар билан тўлдириш, фильтрациялаш ва қуришти жараёнларини механизациялаштириш, металлургияда эритиш печларини тўлдириш, машинасозлик саноатида занглашга қарши қатламларни ҳосил қилишнинг гальваник жараёнлари ва бошқалар мисол бўлади.

Ускуналар ва таъминот воситалари (газ ўтказиш қувурлари, транспортерлар ва бошқалар) тешиқ-тирқишларидан кўпинча газлар чиқиши мумкин, шунга кўра цехлардаги ҳаво муҳитини соғломлаштиришда эски ускуналарни бирмунча зич ёпилган янги ускуналар билан алмаштириш, механик жиҳатдан эскириши ва занглаши натижасида тешиқ-тирқишлар, ёриқларни ўз вақтида йўқотиш мақсадида уларнинг ҳолатини назорат қилиб туриш катта роль ўйнайти.

Замонавий техника тараққиёти ютуқларидан фойдаланган ҳолда кўпгина технологик жараёнларнинг бориши устидан назорат қилишнинг оддий усулларидан эмас, балки автоматик усуллардан фойдаланиш имконини беради, бу эса зарарли моддаларнинг ҳаво муҳитига тарқалаётганлигини билдиришнинг энг самарали усули ҳисобланади.

Хулоса

Ишлаб чиқаришда энг зарарли омиллардан бири ҳисобланган чанг миқдорини камайтириш инсон саломатлигини сақлашдаги энг зарур тадбирлардан бири ҳисобланади. Чанг миқдорини камайтиришда техник, ташкилий ва санитария-гигиеник тадбирлар ўтказиш ҳамда замонавий воситалардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Шу билан бирга ҳаво таркибидаги чанг миқдорини камайтириш техникани ишқаланиб ишлайдиган қисмларни ейилишни камайтириш имконини ва уларнинг иш ресурсини оширади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Гафиназарова С., Юлдашев О. Р., Ибрагимов Э. И., Асилова С. А. Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги. –Т.: 2012. –138 б
2. Охрана труда. Справочник. Составитель- Е. А. Арустамов.-Москва,-«Дашков и К⁰», 2008.-558 с.

Илмий раҳбар

доц. Ҳайдаров Т.А.

ТЕМИРЧИЛИК – ПРЕССЛАШ ИШЛАРИНИ БАЖАРИШДА ХАВФСИЗЛИК ТАЛАБЛАРИ

Асқаров Ф. - талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Мақолада темирчилик-пресслаш ишларини бажариш, ундаги хавфли ва зарарлифакторлар ҳамда хавфсизликни яхшилаш бўйича талаблар берилган.

Машинасозлик, автомобилсозлик, асбобсозлик, қурилиш, уйсозлик, йўлсозлик, авиация, қишлоқ хўжалиги ва бошқа соҳаларда, шу билан биргаликда сув хўжалиги корхоналарида турли хил, тузилмалар, деталлар, безак ишлари бажарилади. Уларни бажаришда ҳам темирчилик ва пресслаш цехлари фаолиятдан фойдаланилади. Буларга Сувмаш ОАЖ, Агрегат, қишлоқ хўжалиги техникалари каби заводларни кўрсатиш мумкин. Уларда жиҳозлар ва ускуналар ишлаб чиқарилади, қуёв, йиғув цехлари мавжуд (масалан насослар, кулфаклар, йиғма деталлар ва бошқа шунга ўхшаш). Улардаги мувофақиятлар ишловчиларнинг хавфсизлигини таъминлашга асосан боғлиқ.

Темирчилик пресслаш ишларини бажаришда куйидагиларни **хавфли ва зарарли** факторлар сифатида кўрсатиш мумкин:

- **зарарли ва захарли газлар.** Цехларидаги санитар гигиеник шароит ҳаводаги зарарли бирикмаларнинг мавжудлиги билан баҳоланади. Буларга мой аэрозоли, ёғлаш материалларини куйиш натижасида ҳосил бўладиган олтингугурт газли, углеводород оксиди ва бошқалар кирди. Одатда цехларда графитнинг ва бошқа жисмлардан кўтариладиган чангсимон зарралар миқдори 3,9 – 4,1 мг/м³, пресс атрофида эса 22-138 мг/м³ гача етиши мумкин. Зарарли захарли газлар иситиш печлари ва пресс зоналари ҳудудида 3-7г (СО) табиий газни ёққанда ва 2,2-5,2г (SO₂) мазутни ёққанда ҳосил бўлади.

- **нурланиш.** Темирчилик – пресслаш цехлари улардан ажраладиган иссиқлик билан характерланади унинг таъсирида нурланиш ва конвекцияланиш содир бўлиши мумкин. Иситиш печлари, пресс ва ёзишда 1,4-2,1кВт/м², бошқариш пултлари ва кран машинисти кабиналарида 1-1,95кВт/м², юқори частотали металл киздириш иш жойларида 0,24-0,3кВт/м², электр узаткичларидан ажраладиган иссиқлик 2,2мдж.ч 1кВт қувватга тўғри келади.

- **шовқин ва титраш.** Темирчи (ишчи) учун титрашнинг таъсири 7,5-10 титрашга тенг. Умумий таъсир вақти сменада амалга ошириладиган зарбалар сонига боғлиқ. Пневмо болғалар минутига 95-210 марта, штампловчи болғалар сменада 3000-5500 зарба беради. Зарбалардан фойдаланиш коэффиценти 0,25-0,75 атрофида бўлади. Темирчилик пресслаш цехларида шовқин ва вибрация ҳам жараённинг ажралмас қисми ҳисобланади.

Зарбалардан грунтда ҳам силкиниш ҳосил бўлади. Зарбанинг маълум масофага тарқалиши куйидагича ҳисобланади.

$$A_i = A_0 * \sqrt{c_0/c} * e^{-\beta(c - c_0)}$$

Бу ерда A₀-грунтнинг c₀ бошланғич радиусдаги силкиниш амплитудаси; c-A_c ни аниқлаш учун берилган масофаси; β –тўлқинни ютиш коэффиценти, унинг қиймати куйидагича:

Сувга тўйинган қумлоқ ва майда донадор қумлар, м ⁻¹	0,001-0,03
Ўртача ва йирик донадор қумлар, нам қумлоқ ва лой	0,040-0,03
Кам намли қумлоқ ва қуруқ лой	0,07-0,1

- **ёнғин.** Нефть мойлари 250-400⁰ С, мазут 380-420⁰С да ўз-ўзидан алангаланиши мумкин. Бу ҳарорат иситиш мосламали ва пресс қурилмаларида ҳосил бўлади. Ёнғин хавфсизлиги бўйича А категориясига кирувчи металл ва бирикмаларни эритишда ҳам ёнғин содир бўлиши мумкин. Газли иситиш қурилмаларидан фойдаланганда, газнинг қисқа муддат тўхташи натижасида газли майдон пайдо бўлиши ва ёнғин содир бўлиши

эҳтимоли бўлади. Ёғлаш материалларини тайёрлаш технологиясида ҳам ёнғин хавфи мавжуд бўлади.

-жароҳатланиш. Механик қурилмаларни ишлатишда асосан жароҳатланиш хавфи мавжуд бўлади. Механик заррачаларнинг ҳавода ўчиши, қурилмаларнинг эскириши, улардан нотўғри фойдаланишда жароҳатланиш хавфи юқори бўлади.

-магнит майдони.Цехларда қўлланиладиган электр иситиш асбобларида 350 кВт гача қувватли электр токидан фойдаланилади. Электр истемолчиларининг айрим турларида ток частотаси 300000 гц гача бўлади. Магнит майдонининг кучланганлиги 50гц да $8 \cdot 10^5$ а/м бўлиб, бу рухсат этиладиган қийматдан кўп ҳисобланади.[1]

Хавфсизлик талаблари.

-заҳарли ва зарарли бирикмалар миқдори иш ҳудуди хавосида рухсат этиладиган миқдордан (ПДК) ошмаслиги керак;

-темирчилик ва пресслаш цехлари ёнғин хавфсизлиги бўйича асосан Г категорияга мансуб бўлиб бинолар 2-синф (класс) ёнғинга чидамли бўлиши керак;

Бинога талаблар.

-ишлаб чиқариш ва маъмурий бинолар санитар нормалар талабларига тўғри келиши керак;

-ишлаб чиқариш бинолари асосан бир қаватли бўлиши лозим. Бино ичидаги жиҳозлар эркин ҳаракатланиши учун оралиқ масофалар етарли бўлиши керак. Ўлчамлар аниқ ҳисоблашлар асосида белгиланган бўлиши керак. Ишлаб чиқариш жиҳозлари ҳаракатланганда бир бири билан тўқнашмайдиган ва кесишмайдиган ҳолатга жойлаштирилиши ва жиҳозланиши керак.

Цех ёпилмалар оловга чидамли бўлиши лозим.

Ўтиш жойлари ўлчамлари.

Но возникают и проблемы, когда пользования новыми компьютерными технологиями не безопасны для человечества. Если время, проводимое за компьютером, превосходит допустимые пределы и возникает патологическое пристрастие в необходимость находиться за компьютером больше времени. В общем, термин «зависимость» определяет патологическое пристрастие субъекта по отношению к чему-либо [2]. На сегодняшний день известна зависимость по отношению к химическим веществам (токсикомания, наркомания, алкоголизм), азартным играм, еде, видеоиграм и пр.)

Термин "**интернет-зависимость**" предложил доктор АйвенГолдберг в 1996 году для описания патологической, непреодолимой тяги к использованию Интернет. Он исходил из предположения о том, что у человека может развиваться психологическая зависимость не только от внешних факторов, но и от собственных действий и эмоций. Диагностические критерии расстройства в целом соответствуют критериям DSM-IV для нехимических зависимостей:

- использование компьютера вызывает дистресс.
- использование компьютера причиняет ущерб физическому, психологическому, межличностному, семейному, экономическому или социальному статусу




Рис.1 Возрастная статистика компьютерной зависимости

Исследование показало, что в основном игровой зависимости подвержены мужчины в возрасте от 18 до 25 лет, студенты вузов технической направленности (рис.1,рис.2).




Рис. 3. Статистика по роду деятельности

Также, Голдберг характеризует интернет-зависимость как "оказывающую пагубное воздействие на бытовую, учебную, социальную, рабочую, семейную, финансовую или психологическую сферы деятельности". [3] Согласно исследованиям ученых опасными сигналами «интернет зависимости» являются:

- навязчивое стремление постоянно проверять электронную почту;
- предвкушение следующего сеанса онлайн;
- увеличение времени, проводимого онлайн;
- увеличение количества денег, расходуемых онлайн.
- пренебрежение семьей и друзьями;
- ощущения пустоты, депрессии, раздражения не за компьютером;
- ложь работодателям или членам семьи о своей деятельности;
- проблемы с работой или учебой.

В основном, эта новая болезнь поражает молодую часть населения, преимущественно подросткового возраста и молодых взрослых. Хотя это заболевание не имеет ничего общего с инфекцией, но распространяется по миру со скоростью эпидемии. Очень много сообщений в прессе о том, что тут и там агрессивное поведение подростка привело к трагическим последствиям. Многие помнят, как 14 февраля 2018 года, американский подросток расстрелял своих сверстников и учителей из автомата, другой пример, гибель китайской девушки, которая перед трагедией сообщила своим товарищам по игре «Синий кит», что очень устала. Сняла себя на видео и покончила жизнью. Многих шокировала смерть школьника в Екатеринбурге. Он 12 часов просидел в компьютерном клубе, после чего у него случился инсульт. На Дальнем Востоке — 16-летний подросток убил мать за то, что она не давала ему денег на компьютерные игры. И он сговорился с друзьями убрать «помеху». Подростки пришли к нему домой и задушили женщину. После чего отправились в компьютерный салон.

Психолог, предложил подросткам эксперимент, провести 8 часов дома без компьютера, без телефона, без радио и телевизора. В эксперименте принимали участие 60 человек, и только двое дошли до финала. Остальные ушли через полчаса, час.

Делая вывод, можем сказать, что необходимо разработать психологические тренинги для людей компьютерной зависимостью. Психологическую помощь направить на улучшение взаимоотношений с близкими и сверстниками, обучению саморегуляции и умению справляться с трудностями, воспитывать волевые качества, повышать самооценку, формировать новые жизненные увлечения.

Виртуальная реальность - это нематериальность воздействия, условность параметров и эфемерность, - не есть жизнь, это лишь ее вторичная часть, параллельный, но не основной процесс. Нет смысла игнорировать компьютерные возможности, необходимо их использовать по мере надобности, а развлечения в виде компьютерных игр совмещать с реальными активными действиями в реальном мире. Важнейший этап лечения компьютерной зависимости - это привлечение страдающего ею человека в процессы, не связанные с компьютерами, чтобы электронные игры и процессы не стали заменой реальности. Необходимо, показать человеку, что существует масса интересных развлечений помимо компьютера (боулинг, сноуборд, походы в гору, футбол и проч.). Они не только позволяют пережить острые ощущения, но также тренируют тело и нормализуют психологическое состояние. Разумеется, эти факторы влияют на степень зависимости и количество времени, проводимого за играми. Зачастую потеря контроля времени, потраченного на видеоигры, приводит за собой проблемы успеваемости у студентов, так как время на учебу или откладывается, или учеба не планируется вообще. В среднем, опрошенные проводят за игрой от двух часов в день, редко достигая отметки более пяти часов. На вопрос «можете ли вы отказаться от игр», большинство ответили «нет», что, в совокупности с остальными ответами, характеризует зависимость второй или третьей степени, на которых человек не может отказаться от игр, или это дается ему тяжело. Когда речь идет о «зависимости», как правило, указывают негативный эффект. Но

в ответах на опрос респонденты неоднократно упоминали о положительном влиянии, связанном с их увлечением. Большинство опрошенных не испытывают проблем из-за игр, ведут активную социальную жизнь и редко происходит подмена приоритетов, когда игры занимают место каким-то запланированным ранее важным делам. Чаще всего, плюсом от этого увлечения является повышение уровня владения иностранными языками.

Заключение

Таким образом, практически все любители компьютерных игр «вынуждены» развивать навык владения английским (реже японским) языком. Кроме того, опрошенные заметили, что видеоигры определенных жанров (квесты, тактики, стратегии) помогают в развитии логического мышления, памяти, внимательности. Многие завели новых знакомых, узнали что-то новое, получили стимул для самостоятельного творчества. Таким образом, по итогам проведенного исследования можно сделать вывод о том, что игровая зависимость, хоть и существует в определенном виде, однако для большинства не является чем-то большим, чем хобби, не идет вразрез со здравым смыслом.

Список литературы

- 1.Асмолов А. Г. Психологическая модель Интернет-зависимости личности. Дистанционное и виртуальное обучение. – 2004. - N 7. - С. 5-7.
- 2.Богданова Д. А. Внимание: Интернет! Открытое образование. - 2010. - N 2. - С. 89-99.
- 3.Войскунский А. Е. Развивается ли агрессивность у детей и подростков, увлеченных компьютерными играми? Вопросы психологии. - 2010. - N 6. - С. 133-143.
- 4.Вы без интернета проживете? Коммерсантъ Власть. - 2011. - N 15. - С. 6, 8.
- 5.Сидорова С. Н., Ельчанинов В. С., Габдулхакова Н. К. Особенности влияния компьютерных игр на личность // Молодой ученый. — 2014. — №7. — С. 294-296.
URL <https://moluch.ru/archive/66/10972/> (дата обращения: 04.03.2019).

Руководитель

асс. Мирхасилова З.К.,

11 –ШЎЪБА

Сув хўжалигида рақобатбардош кадрлар тайёрлашнинг ижтимоий, педагогик маънавий омиллари

ZAMONAVIY RAHBAR QIYOFASINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Qodirov S. – talaba, TIQXMMI

Аннотация

Rahbar bir qator talablarga javob berishi kerak. “Rahbarlik qilish” degan soʻzga izohli lugʻatlarda boshqarish, maslahat berish, kuzatish, yoʻnaltirish, koʻrsatma berish degan turli maʼlumotlar berilgan.

Rahbarlik uslubidagi salbiy qusurlarni bartaraf etish degani- bu boshqarishning barcha unsurlariga eʼtiborni kuchaytirish demakdir. Eng avvalo rahbar yuqoridagi nuqsonlardan xoli boʻlishi va ish uslubini quyidagi ijobiy fazilatlar zamirida tashkil qilishi lozim. Rahbar oʻz huquq va vakolatidan umumdavlat manfaatlarini jamoa va xodimlarning shaxsiy manfaatlarini bilan uygʻun olib borishda mohirona foydalanish zarur. Ammo davlat manfaatlariga putur etkazmasdan, shaxsiy manfaatlar umum manfaatlariga boʻysinishi lozim. Rahbardagi odamlarni boshqarish qobiliyati, odamlar haqida gʻamxoʻrligi, tashabbuskorlik, qatʼiyatlik, mustaqillik, talabchanlik, boʻysinuvchi xodimlar bilan maslahatlasha bilish, oʻz soʻzini ustidan chiqish kabi ijobiy fazilatlar undagi salbiy qusurlardan qutulishga yordam beradi [1].

Rahbarning ish uslubi - bu boshqaruv jarayonida u yoki bu masalalarni hal qilishda uning oʻziga xos yondashishidir. Rahbar qaror qabul qilganda, uning bajarilishini tashkil etganda va qoʻl ostidagi kishilar ishini nazorat qilganda u oʻz vazifalariga muvofiq ish koʻradi. Biroq har bir rahbar bunda oʻziga xos ravishda, boshqaruv jarayonida oʻzi uchun mos boʻlgan, oʻz rahbarlik uslubini belgilaydigan usullar bilan xarakter qiladi. Mutlaqo bir xil ikki kishi boʻlmaganidek, rahbarlikda ham mutlaqo bir xil uslub yoʻq. Rahbarlik uslubi rahbarlarning oʻz qoʻl ostidagilari bilan aloqasida, ularning oʻzaro munosabatlarida tarkib topadi. Rahbarlarning ishchanlik va maʼnaviy-madaniy xislatlarini baholash amaliyoti shuni koʻrsatadiki, bunda birinchi oʻrinda eʼtiqodlilik, topshirilgan ish uchun shaxsan javobgarlikni his qilish, hololik, vijdonlilik, kishilarga nisbatan mehribonlik va eʼtibor bilan munosabatda boʻlish turadi. Asoslangan qarorlarni mustaqil va tez qabul qilish qobiliyati, shaxsan intizomli boʻlish, mehnatsevarlik, tashkilotchilik qobiliyati, jamoada intizomni yoʻlga qoʻyishi va saqlay bilish qobiliyati juda yuksak baholanadi. Rahbar va xodim munosabatlari, guruhdagi psixologik muhit, mehnat jamoasi faoliyatining samaradorligi koʻp jihatdan rahbar qoʻllaydigan boshqaruv uslubiga bogʻliq. Boshqaruv uslubi – rahbarning oʻz xodimlariga nisbatan, ular orasida ishni tashkil etish boʻyicha qoʻllaydigan odatiy xatti-harakatlari majmuasidir. Hozirga kelib boshqaruv fanida boshqaruv uslubini farqlashga turli yondoshuvlar mavjud boʻlib, ularning hech biri boshqaruv vaziyatiga mos keluvchi mukammal bir uslubni tavsiya etolmaydi. Har bir uslub albatta bironta cheklanishga ega. Quyida rahbarlik uslubiga turli yondoshuvlar haqida qisqacha izoh berib oʻtamiz va bu matndan rahbar oʻz faoliyatida uchraydigan vaziyatdan kelib chiqqan holda, muvofiq keluvchi usullar majmuasidan birontasini qoʻllash haqida xulosa chiqarishi mumkin. Tizimli yondoshuv tamoyiliga asoslanish boshqaruv uslubi mavzusiga bir muncha toʻla tahlil berishi mumkin. Bunga binoan, qoʻllanilayotgan boshqaruv uslubi tashkilot hayoti, uning oldiga qoʻygan maqsad va birlamchi ravishda amalga oshirilayotgan vazifalariga mos kelishi kerak. Tizimli yondoshuvga binoan rahbar oʻzi boshqarayotgan tizimni yaxshi bilishi, uning holatini toʻgʻri baholashi, kelajakdagi qiyofasini tasavvur eta olishi hamda oʻzgarishlarni amalga oshirishda ishtirok etuvchi xodimlarni faollikka jalb eta olishi lozim. [2 Zamonaviy boshqaruvga oid fanlarda rahbarlik uslubini turli nuqtai nazarlarda turib yoritiladi. Quyida ularning qisqacha izohini berib oʻtamiz. Anʼanaviy yondoshuv. Boshqaruv uslubini farqlashdagi anʼanaviy yondoshuvlardan biri Kurt Levin tomonidan kiritilgan tipologiyaga asoslanib, bunda

rahbarlikning avtoritar, demokratik va liberal uslublari farqlanadi. Avtoritar uslubda rahbar hamma boshqaruv qarorlarini o'z qo'lga oladi, qaror ijrosini qattiq nazorat ostiga oladi va yo'l qo'yilgan xatolar yuzasidan beshafqat jazolash shahdini namoyish etadi, xodimga inson sifatida qiziqish bilan qaramaydi. Bunday sharoitda, doimiy nazoratning mavjudligi iqtisodiy jihatdan yuqori ko'rsatkichni ta'minlaydi. Lekin, psixologik nuqtai nazardan bunday uslubda qator kamchiliklar kuzatiladi: 1) xatoga yo'l qo'yish ehtimoli oshadi; 2) tashabbusni, xodimlarning ijodiy faoliyatini so'ndirish, ixtirolar joriy etishning sekinlashuvi, xodimlarning sustligi; 3) xodimlarning ishdan, jamoadagi mavqeidan qoniqmasliklari; 4) nosog'lom psixologik muhit natijasida jismoniy va ruhiy zo'riqishlar oshishi va sog'liqqa salbiy ta'siri. Bunday uslub rahbar va xodim orasidagi kasbiy malakalar farqi kattaligida, qattiq intizom va itoatgo'ylik zarur bo'lgan sharoitda maqsadga muvofiq va o'zini oqlashi mumkin (avariya holatlari, inqirozli, urush sharoitlari va h.k.). Yangi xodimlar ishlaydigan jamoada bunday boshqaruv uslubi moslashuv jarayoniga salbiy ta'sir etadi, yosh xodimda kasbiy malakalar sekin shakllanadi. Zamonaviy yondoshuvlar. Boshqaruv uslubiga an'anaviy yondoshuvdan tashqari qator zamonaviy g'oyalar ham kirib keldiki, ularni bilish rahbarlik uslubini yanada ixtiyoriy idora etish imkoniyatini beradi. 1. Rahbarning xodimlari bilan muntazam fikr almashuvi. 2. Rahbar va xodim munosabatidagi ochiqlik va sami-miylik. 3. Xodimlarning tashkiliy qarorlar qabul qilishga jalb etilganligi. 4. Rahbar o'z burch va huquqlarining ma'lum qismini xodim zimmasiga o'tkazishi. 5. Tashkilot vazifalarini rejalashtirish va amalga oshirishda xodimlarni jalb etish. 6. Mustaqil qaror qabul qila olish huquqiga ega bo'lgan maxsus guruhlar tuzish (masalan, "sifat nazorati guruhi"). Maqbul uslubni izlab. Umuman olganda, boshqaruv uslublari mavzusi doimo rahbar va xodim, rahbar va jamoa munosabatlarining tarkibiy qismi sifatida tushunilishi lozim. Shuning uchun ham rahbarning xodimlar bilan umumiy maqsad sari borishida nafaqat rahbar tanlaydigan uslub, balki xodimlarning xulq-atvori ham etakchi rol o'ynaydi. Bu degan so'z – rahbar biron uslubga moyilligini bildirib, uni qo'llashi boshqaruvga bir tomonlama qarashdir. Vaholanki, rahbar jamoa holati va vaziyatdan kelib chiqqan holda u yoki bu uslubga murojaat etadi. Uslub umumiy maqsad yo'lida borayotgan rahbar va xodim munosabatlarining o'zaro muvofiqlashuvi jarayonidir. U yoki bu boshqaruv uslubini qo'llashdan maqsad, tashkilot manfaatini qondiruvchi vazifani iloji boricha tez va samarali bajarishdan iborat. Qo'llanilayotgan uslub bundan keyingi shu kabi topshiriqning kay tarzda bajarilishiga zamin yaratadi va jamoaga vazifani bajarish imkonini beradi. Afsuski, ko'pchilik jamoalar va hatto rahbarlar biron vaziyatni bajarishda doimo eski namunaga murojaat etishga o'rganib qolganlar va bu holat shu kabi vazifani bajarish uslubi deb atalishi mumkin. Lekin yangi vazifa takrorlanmas bo'lib, uning doimo biron yangi jihatlari mavjud va bu vaziyatda eski namunadan, uslubdan foydalanish maqsadga erishishni to'la-to'kis ta'minlay olmaydi. Demak, uslubni qotib qolgan, doimiy vosita emas, balki o'zgaruvchan, rivojlanuvchan va dinamik jarayon sifatida tushunish o'rinlidir. Mavzu bilan tanishish davomida "qaysi uslub yaxshi?" degan savol ko'p tug'iladi. Bunga javoban aytamizki, rahbar uslubdan yuqorida turishi lozim, u uslublarni yuqoridan "tomosha" qila olishi va vaziyatga muvofiq keladiganini tanlab qo'llay bilishi lozim. Lekin, bunday ta'rif ham o'zining cheklanishiga ega. Rahbar u yoki bu uslubni qo'llar ekan, doimo guruh ustidan nazorat etish, uni "etaklash" vazifasini oladi. Bu esa jamoa faolligini, uning tashabbusini boshqarishdir. Beixtiyor, deyarli afsonaga aylangan voqea esga tushadi. Aytishlaricha, AQShning bir yirik kompaniyasi bir vaqtning o'zida hamma filiallaridagi yuqori bo'g'in rahbarlarini mehnat ta'tiliga chiqarib yuborgan. Oradan bir hafta o'tgach, ba'zi tashkilotlarda ishlab chiqarish hajmi o'zgarmay, oldin qanday bo'lsa shundayligicha davom etavergan. Ayrimlarida esa ishlab chiqish sur'ati birdaniga pasayib, rahbarning "yo'qligi" sezilib qolgan. Demak, zamonaviy boshqaruvning mahorati – jamoaning maqsadga intilishini ta'minlashdir. Ushbu fikrni pedagogik psixologiyadagi holat bilan qiyoslasak, quyidagi misol o'rinli bo'lardi. Bola o'z rivojlanishida hamma me'yorlar bo'yicha ulg'ayib borayotgan bo'lsa, ota-ona uning o'sishiga deyarli aralashmaydi va lekin ulg'ayishida biron muammo yuzaga kelsa, darhol kerakli choralar ko'riladi. Jamoani boshqarishda ham rahbar, birinchi navbatda, maqsadga erishish sharoitini yaratishi va xodimlar harakatiga kam aralashuvi yuksak boshqaruv mahorati belgisidir. Qo'l

ostidagi xodimlarga xos bo'lgan psixologik xislatlar ham u yoki bu uslubni qo'llashga asos yaratadi. Masalan, avtoritar tipga mansub shaxs an'anaviy qarashlarga moyilligi, xodimning hissiyotiga befarqligi, o'zgarishlarga qarshiligi va hokimlikka intiluvchanligi bilan ajralib turadi. Aynan shu tavsiflarga ega bo'lgan kimsa, o'z navbatida, avtoritar rahbar qo'li ostida ishlashga moyillik bildiradi. Demokratik boshqaruv uslubida jamoadagi do'stona munosabatlar rivojlanadi, rahbar guruh faolligi tarafdori, rasmiy tizimda shaxsiy manfaatlar xam nazarda tutilib, muloqot yuritishga keng yo'l ochib beriladi. Liberal boshqaruv uslubida esa rahbar jamoadagi norasmiy tizimni rivojlantiradi va muvaffaqiyatga erishishda rasmiy, ma'muriy shakldan ko'ra jamoaning norasmiy munosabatlari ustun qo'yiladi. Tashkilotda yangi kommunikaciya tarmoqlari yaratilishiga keng yo'l ochiladi va hatto bunday tashabbus ijobiy baholanadi. Xodimlar ish me'yorini o'zlari o'rnatishadi va uning bajarilgani uchun o'zlari mas'uldirlar. Xodimlar o'rtasida hamkorlik munosabati ustun turadi. Jamoa tavakkalga mushohada bilan bemalol boradi, har qanday qiyin vazifani ham engil bajaradi. Yuqorida aytib o'tilgan 1 boshqaruv uslubi jamoada turlicha muhitni yaratadi. Avtoritar rahbarlik uslubida guruhda hokimlikka intilish namoyon bo'ladi, mansabga ruju qo'yiladi, demokratik uslubli jamoada xodim uni tan olishlarini, hurmat va obro' qozonishni istaydi va nihoyat, liberal uslubli jamoada muvaffaqiyatga erishish istagi ustun bo'ladi. Sanab o'tilgan rahbarlik uslublari jamoadagi mehnat samarasi uchun turlicha asos yaratadi. Avtoritar uslub ta'siridagi jamoa doimo "tepadan" ko'rsatma kutib yashaydi va tashabbus ko'rsatolmaydi. Shuning uchun bunday guruh samarasi ham sust. Guruh a'zolarida ishdan ham, o'zaro munosabatlardan ham qoniqish past darajada. Demokratik rahbarlikka asoslangan jamoaning ish unumi o'rta, ixtiro va tashabbuslar soni ham o'rta me'yorda, guruh a'zolari ishdan va o'zaro munosabatdan qoniqqan. Liberal tamoyilga asoslangan jamoda esa unumdorlik yuqori, mehnatdan va o'zaro munosabatdan qoniqish baland, xodimlar o'zaro hamkorlikka boradi va yordam ko'rsatishga doimo tayyor. Jamoa faolligi korxonaga maqsadlariga mos ravishda borayotgan sharoitda, guruh mas'uliyatni o'ziga olib tashabbus ko'rsatayotgan paytda uning faoliyatiga aralashmaslik va xodimni guruh hayoti og'ushiga kiritib qo'yish, balki eng maqbul boshqaruv bo'lib hisoblanadi. Ongli ravishda olib borilgan liberal boshqaruv uslubi o'ta murakkab bo'lib, bu jarayonda rahbar maqbul yo'l tanlanishida barcha faollikni jamoaga topshiradi, rahbarning vazifasi to'g'ri maqsadni ko'rsatib berishi emas, balki shu maqsad guruh tomonidan tanlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat bo'ladi [3].

Xulosa

Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan rahbar kadrlar oldida o'ylanayotgan, qolaversa hayot taqozo etayotgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat deyish noto'g'ri bo'lmaydi. Ular "Rahbar ko'ngli ochiq" qalbi va qo'li toz aql zakovat sohibi, ma'naviy jihatdan shakllangan bolishi kerak. Rahbar o'zini tarbiya qilgan, bilim va mahorat bergan, ishonch bildirib, yuksak martabga munosib ko'rgan el yurt halol xizmat qilish zimmasidagi ma'suliyatni doimo his qilib yashashi lozim. Rahbar aqlli tajribali, o'z ishinin bilimdoni bo'lgan mutahassislariga tayanmogi lozim, ularning fikriga solmog'iva shnga asoslanib xulosa chiqarmogi lozim. Rahbarning barcha qilgan ishlari xalqimizning hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmog'i kerak. Kimlardir yaxshi ko'rinish maqtanish uchun qilgan ish rahbarning kelgusidagi faoliyatida salbiy iz qoldirishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Boshqaruvning avtoritar, demokratik va liberal usullari. N. Rahmatova
2. Каримов И. А. Юксакмалакалимутахассислар тарафиётомили. -Тошкент: «Узбекистон»
3. Р. С. Немов — Психология. В. 3—х книгах. М. 2000. 4. Г. М. Маришук — Методики психодиагностики в спорте. М. 1990. 5. Э. Ғозиев — Тафаккур психологияси 1990 й

Ilmiy rahbar

Yakubova B.A

ТА’ЛИМ ТИЗИМИДА БОШҚАРУВ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ YO’LLARI

Ibragimov Sh.E., Qudratov.N.X. – talabalar, TIQXMMI

Аннотатсиya

Ushbu maqolada harakatlar strategiyasi asosida yurtimizda davlat boshqaruvini isloh qilish va jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirishga katta e’tibor berilganligi haqida fikr yuritilgan. Ta’lim tizimida boshqaruv qarorlarining qanchalik samarali bo’lishi ko’p jihatdan muassasadagi boshqaruv jarayonini, uning natijalarini o’z vaqtida, har tomonlama ob’ektiv baholash bilan bog’liq. Buning uchun esa, zamon talablaridan kelib chiqib, ta’lim muassasalari boshqaruvi jarayoni, uning samaradorligini baholashda zamonaviy usul va uslublarni qo’llash ko’rsatib o’tilgan.

Kirish: Mamlakatimizda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan yutuqlarini amalioyotga keng tadbiiq etish, kadrlar malakasini oshirish hamda iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashda oliy ta’limning rolini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi taraqqiyotimizning yangi bosqichi bo’lgan 2017 yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O’zbekiston Respublikasini 2018 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlandi. Murojaatnomada avvalo yil davomida mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirish bo’yicha Harakatlar strategiyasida ko’zda tutilgan maqsad va vazifalarni bajarish uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlari safarbar etilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish Harakatlar strategiyasining muhim qismi hisoblanadi. Davlat boshqaruvi va davlat hizmati tizimini yanada takomillashtirish, uning amaldagi qonunlar doirasida samarali faoliyatini tashkil etish, davlat boshqaruvi markazlashtirishdan chiqarish, shuningdek, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarligi, boshqaruvchilik salohiyati, rahbarlik va tashkilotchilik qobiliyati nuqtai- nazaridan ularga yondoshish, moddiy va ijtimoiy ta’minoti darajasini mustahkamlash ishlarini amalga oshirish masalalariga e’tibor berilishi nazarda tutilgan. Milliy qadriyatlar va jahon davlatchiligidagi hozirgi zamon yutuqlari asosida davlat boshqaruvi yanada takomillashtirish va modernizatsiya qilishning asosiy yo’nalishlari Harakatlar strategiyasida aniq va ravshan ko’rsatilgan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni ta’kidlagan edi. “Oldimizga qo’yg’an maqsad va muddaolarga etishish uchun kadrlarning amaliy zaxirasini shakllantirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlashning muhim masalalarini o’z ichiga oladigan maqsadli dasturni ishlab chiqish vaqti keldi, deb o’ylayman. Asosiy vazifa – bu yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o’ylangan, har tomonlama to’g’ri qaror qabul qila olidigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan rahbarlar va mansabdor shaxslarning yangi tarkibini shakllantirishdan iborat” [1].

Ushbu talab bevosita kadrlar tizimini butunlay yangilash, kasbiy mahorati yuqori, rahbarlik iste’dodiga va boshqaruv salohiyatiga, zamonaviy bilimlarga ega bo’lgan qobiliyatli boshqaruvchi iste’dodli rahbarlarning yangi avlodini etishtirish bilan bog’liqdir. Davlatning turli sohalarini boshqaruvida esa bu muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimida boshqaruv qarorlarining qanchalik samarali bo’lishi ko’p jihatdan muassasadagi boshqaruv jarayonini, uning natijalarini o’z vaqtida, har tomonlama ob’ektiv baholash bilan bog’liq. Buning uchun esa, zamon talablaridan kelib chiqib, ta’lim muassasalari boshqaruvi jarayoni, uning samaradorligini baholashda zamonaviy usul va uslublarni qo’llashni taqozo etadi. Turli xarakterdagi muammolarni aniqlash, tahlil qilish va baholashga qaratilgan va eng maqbul qarorga kelishni ta’minlaydigan ko’p mezonli kompleks tahlil qilish va baholash metodlarini ta’lim tizimi boshqaruvi jarayonida samarali qo’llash o’zining imkoniyatlari kengligi va istiqbolligi bilan ajralib turadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlab o’tganlaridek, “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo’g’inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida

takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz". Respublikamiz Prezidenti tomonidan bildirilgan ushbu fikrlar ta'lim tizimida boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini anglatadi [1].

Ta'lim tizimida boshqaruv jarayoni samaradorligini baholash unda erishilgan amaliy natijalarni baholash ko'rsatkichlarini kompleks ishlab chiqish va bunda ichki omillarni ko'proq e'tiborga olishni taqozo qiladi. Shunga ko'ra ta'lim muassasalari samaradorligini baholashga bir necha xil yondashuvlar mavjud. Shunday omillar borki, ular istalgan ta'lim muassasasining boshqaruv samaradorligini universal omillar qatorida quyidagilarni kiritish mumkin: quyilgan maqsadlarning sifati;

Maqsadlarni real amalga oshirish imkoniyati, ya'ni, ularning qo'yilgan maqsadga erishish vositalari bilan muvofiq kelishi; joriy holatni to'g'ri baholash; muassasa rahbari va xodimlarini qo'yilgan maqsadlar yo'lida motivatsiyalash; o'quv muassasasi rahbarining salohiyati va saxsiy sifatlari; qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ajratilgan resurslarning miqdori va sifati; boshqaruv qarorlarini qabul qilishda davlat va jamiyat boshqaruv organlarining, kollegial boshqaruv organlarining ishtiroki. Ta'lim tizimi boshqaruv samaradorligini aniqlash va rivojlantirish bo'yicha mutaxassis olimlar tomonidan xulosalar berilgan. Ta'lim tizimlarida boshqaruv samaradorligi mezonlarini aniqlashda dinamik dasturlash usuli taklif qilinadi. Oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirgan abituriyentda bilimlarning hosil bo'lib borish dinamikasini matematik modellashtirib, ushbu jarayonning kechishini muassasa boshqaruvi jarayoni samaradorligi bilan bog'lash g'oyasini bildiradi [2].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarining faoliyat ko'rsatkichlari, samaradorlik mezonlari, optimal qarorlar qabul qilish usullari qat'iy matematik shaklda ifodalanishi, hisoblash uchun kerakli ma'lumotlarni olish esa avtomatlashtirilishi nazarda tutiladi. Harakatlar strategiyasi asosida yurtimizda davlat boshqaruvini isloh qilish va jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu bevosita O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, xalq hokimiyatchiligi bo'yicha eng muhim talabdir. Zotan, jamoatchilik boshqaruvi – davlat boshqaruvini erkinlashtirish va demokratlashtirishning asosiy sharti. Aholining davlat boshqarishidagi faol ishtirokini ta'minlash uni erkinlashtirishning asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// "Xalq so'zi", 2017 yil 23 dekabr. 144 bet. 129

2.Mirziyoev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma'ruzasi.

3.www.uza.uz

Ilmiy rahbar

kat.o'qit. Raxmanova M.Q.

ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ МАЛАКАЛИ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШДАГИ РОЛИ

Ерназаров.К.Б. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақола тобора ривожланиб бораётган дунё хамjamiатида муносиб ўрин эгалламоқ учун таълим соҳасини тубдан ислох этиш хақида. Бунинг учун инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиш лозим. Инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиш жахон талабига мос кадрларни тайорлаш демакдир.

Бугунги кунда ахборотлар шиддати ва янгиликлар оқими тобора кундалик ҳаётимизнинг ажралмас бўлагига айланиб бормоқда. Бу эса ўз ўрнида ҳар бир шахсдан фикрий етукликни, тўғри мушоҳада юрита олишни, ахборотдан фойдаланиш маданиятини шакллантиришни тақозо этади. Амалдаги таълим йўналиши Давлат таълим стандартларида бакалаврнинг тайёргарлик даражасига қўйилган умумий малака талабларида тайёрланаётган кадрлар ўз соҳасига оид қарорларни мустақил қабул қила олиши ҳамда мустақил ҳолда ўз билим ва малакасини ошириш каби хусусиятларга эга бўлиши қайд этиб ўтилган. Олий таълим тизимида бу хусусиятларга эга бўлган кадрларни тайёрлашда таълим алоҳида ўрин эгаллайди [1]. Янгилик ёки инновация инсоннинг турли хил профессионал фаолияти учун характерли ва шунинг оқибатида қизиқиш, ўрганиш ва қўллашга сабаб бўлади. Инновациялар ўз-ўзидан пайдо бўлмайди, балки илмий изланишлар ва малакали педагог ходимларнинг узок машакатли ишлари махсули сифатида пайдо бўлади.

Инновациянинг шу соҳада фаолият олиб боровчи кўплаб мутахассислар томонидан қўлланилиши педагогик инновациянинг баҳоланиш критерийси бўлиб ҳисобланади. Агар муҳим педагогик ғоя ёки технология тор қўлланилиш доирасида қолса, яъни ғоя фақат уни ўйлаб топган муаллифлари томонидан қўлланилиб, амалиётда кенг тадбиқ этилмаса, у ҳолда бу ғоя педагогик янгилик сифатида танила олмаслиги мумкин.

Инновацион ўқитиш технологияларига Симоненко В.Д. қуйидагиларни мисол қилиб олади: интерактив ўқитиш технологиялари, проект ўқитиш технологиялари ва компьютер технологиялар. Одатий ўқитиш жараёнида олий ўқув юрти талабаларга теоритик билимларни беради, лекин ушбу теоритик билимни маълум бир касбга боғлиқлиги эпизодик ҳолда руй беради, масалан малакавий амалиёт даврида ёки имтиҳоннинг амалий кўникма топшириш вақтида. Шу тариқа реал профессионал кўникмаларни ўқув жараёни мобайнида талабалар томонидан эгалланиши бироз мураккабдир. Билим олишнинг интерактив ўқитиш технологиясини қўллаш мобайнида билим берувчи ва билим оловчи орасида роллар алмашинуви содир бўлади, яъни билим берувчи информатор ролини менежер ролига, билим оловчи эса таъсир қилиш объекти ўрнига ўзаро таъсир субъектига айланади. Худди шундай билим олишда маълумот мақсад эмас, балки профессионал фаолият ва кўникмани эгаллаш учун керакли манбага айланади.

Муаммоли ўқитиш – бутакмиллаштирилган ўқитиш технологиясидир. Унинг вазифаси фаол билиш жараёнига ундаш ва тафаккурда илмий-тадқиқот услубини шакллантиришдир.

Муаммоли таълим дарсида бир вақтнинг ўзида ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ҳамкорликдаги ҳаракати бўлиб, у ўқувчи шахсидаги муҳим белги-ижодий фикрлаш қобилиятини ривожлантиради. Муаммоли ўқитиш жараёнида ўқитувчилар ҳам, ўқувчилар ҳам ўзларининг интеллектуал, жисмоний, маънавий имкониятларини ўқув ва амалий муаммоларни ечиш учун доим синовдан ўтказида. Бу жараёнда ҳосил бўлган кўникма ва малакалар ахборот жамияти шароитларида яшаш учун зарур сифатларни шакллантиришга олиб келади. Муаммоли таълим-ўқувчиларнинг эркин фикрлашлариغا,

Ўзининг фикрини эркин баён қила олишларига ва фикрларини янада ривожлантиришларигатаъсир этишдир. Бунда ўқувчи диққат билан тинглаши, мустақил ва ёлғиз фикрлаши, жамоа бўлиб фикрлаши, таҳлилқилиши, кўпчилик бўлиб муҳокама қилиши ва тўпланган фикрни баён қила олиши керак.

Муаммоли таълимнинг муваффақияти куйидаги омилларга боғлиқ:

Ўқув материални муаммоллаштириш.

Ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштириш

Таълим жараёнини ўйин, меҳнат фаолияти билан уйғунлаштириш

Ўқитувчи (педагог) томонидан муаммоли усуллардан ўз ўрнида самарали фойдаланиш кўникмасига эга бўлиш

Муаммоли вазиятни ҳал этиш юзасидан муаммоли саволлар занжирини тузиш ва мантикий кетма-кетликда ўқувчиларга баён этиш.

Муаммоли ўқитишнинг моҳиятини ўқитувчи томонидан талабаларнинг ўқув ишларида муаммоли вазиятни вужудга келтириш ва ўқув вазифаларини, муаммоларини ва саволларини ҳал қилиш орқали янги билимларни ўзлаштириш бўйича уларнинг билиш фаолиятини бошқариш ташкил этади. Бу эса билимларни ўзлаштиришнинг илмий-тадқиқот усулини юзага келтиради.

Муаммоли ўқитиш машғулотларини ташкил этиш ва ўтказишнинг муҳим томони шундаки, бунда ўқитувчи унинг ҳам таълимий, ҳам тарбиявий функциясини яхши англаб олган бўлиши талаб қилинади. Ўқитувчи ҳечқачон талабаларга тайёр ҳақиқатни ёки ечимни бериши керак эмас, балки уларга билимларни олишга туртки бериши, машғулотларда ва ҳаёт фаолиятларида зарур бўлган ахборот, воқеа, вақт ва ходисаларни онгида қайта ишлашларига ёрдам бериши лозим бўлади. Айрим ҳолларда ўқитувчи талабаларда нафақат қизиқиш уйғотиши керак, балки талабаларнинг ўқув муаммосини ечишдаги мустақил ишларига раҳбарлик қилиш лозим, натижада талабаларда билимларга мустақил эришиш қобилияти шаклланади ва талабаларнинг интеллектуал фаоллиги таъминланади [7].

Муаммоли маъруза- мавзуга боғлиқ ҳолда маълум бир муаммоли вазият ва унинг ечими билан боғлиқ булган маъруза қуриниши. Яъни мавзуга оид бир вазият ўртага ташланади ва ушбу мавзуга боғлаган ҳолда талабалар шу вазиятнингечимини топишади. Бунда мавзунинг ёритишда фақат ўқитувчи эмас балки талабанинг ҳам актив иштирок этишига эришилади. Ушбу маърузанинг асосий мақсади талабалар билимини бевосита уларнинг ўз иштироки ёрдамида ошириш. Бундай маъруза қуринишида ҳам талабанинг маърузага бўлган қизиқиши ортади, ҳам ушбу мавзу юзасидан керакли кўникма эгалланишига эришилади [4].

Ўқув дискуссияси – муаммоли ўқитишнинг бир қуриниши. У муаммоли ҳолатлар анализидан қўлланилади. Дискуссия жараёнига барча талабаларни жалб қилиш мақсадида кооператив ўқитиш методидан фойдаланиш (ўқув ҳамкорлиги) керак. Ушбу методика бўйича талабалар кичик гуруҳларга бўлинган ҳолда маълум бир муаммони ўзаро келишган ҳолда ечишга ҳаракат қиладилар. Ушбу ўқув ҳамкорлигининг асосий ғояси билим олувчиларни интеллектуал салоҳият ва ҳаракатларини бирлаштирган ҳолатда муаммоли ҳолат ечимини топишга йуналтиришдир. Талабалар гуруҳи ўқув ҳамкорлиги иши технологияси куйидагича булиши мумкин:

Муаммонинг қўйилиши

-кичик гуруҳларга бўлиш (микрогуруҳлар 3-5 киши), улардаги вазифалар тақсимоти, ўқитувчи дискуссиядан кутаётган натижаси билан таништириш.

Муаммонингечими билан барчани таништириш.

Дискуссияни давом эттириш ва хулосалаш [2].

Ҳар қандай интерфаол усул тўғри ва мақсадли қўлланилганда ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатади. Таълим тизимида содир бўлаётган ўзгариш ва янгиланишлар ўқувчиларга янги билим, кўникма ва малакаларни беради. Интерфаол ўқитиш усуллари таълим жараёнига таъсир кўрсатади. Интерфаол усулларнинг назарий

асослари педагог олимлар томонидан кенг ўрганилган. Ҳамкорликда ўқитиш методини таълим жараёнида қўллаш таълимнинг самарадорлигини оширади [6].

Хулоса

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, инновацион таълим талабада айнан профессионал кўникмалар ҳосил қилиш ва улар сифатини оширишга йуналтирилган бўлиб, ушбу таълим кўриниши ёрдамида маъруза ва амалий машғулот дарслари ўтказилганда фанлар бўйича билимнинг мустақамланиши билан бир қаторда талабаларда ўтилаётган мавзу бўйича келгуси профессионал фаолият билан боғлиқ билим ва тегишли амалий кўникмалар ҳосил бўлишига эришилади. Бу эса ўз ўрнида машғулотларнинг сифати ҳамда самарадорлигини оширишда ўзининг ижобий самарасини беради.

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Қаршибоев Х.Қ. —Олий таълимда талабалар мустақил ишларини ташкил этиш. Ж. Таълим муаммолари. №4, 2009 й., 26-29 бетлар.
- 2.Мавлянов И.Р ва бошқалар «Клиник фармакология кафедраси машғулотларини ўтказишда интерактив ўқитиш услубларининг қўлланилиши».Тошкент 2005 4 бет ва14 бет
- 3.Использование инновационных технологий в процессе преподавания педагогических дисциплин (электронный ресурс) <http://ntfmfonfz.ru>
- 4.Сластенин В., Исаев И и др. Педагогика: Учебное пособие (электронный ресурс) <http://www.gumer.info>
- 5.В.Т.Исақулов, Д.В.Тўлаганова, «Махсус фанларни ўқитишда илгор педагогик технологияларни индивидуал ёндашув асосида қўллашнинг самарадорлиги». Фан таълим ва ишлаб чиқариш интеграцияловчи шароитида инновацион технологияларнинг долзарб муаммолари Республика илмий-амалий конференцияси I-қисм Илмий маколалар тўплами 220-221 бетлар
- 6.Н.И.Содиқова, Ш.Қурбонов «Ҳамкорликда ўқитишда ўқитиш методининг таълим жараёнида қўлланилиши» Фан таълим ва ишлаб чиқариш интеграцияловчи шароитида инновацион технологияларнинг долзарб муаммолари Республика илмий-амалий конференцияси I-қисм. Илмий маколалар тўплами, 231-232 бетлар
- 7.М.Арипжанова «Касб –хунар коллежларида муаммоли ўқитиш элементларидан самарали фойдаланиш» Фан таълим ва ишлаб чиқариш интеграцияловчи шароитида инновацион технологияларнинг долзарб муаммолари Республика илмий-амалий конференцияси I-қисм. Илмий маколалар тўплами, 272-273 бетлар.

Илмий раҳбар

Химматалиев Д.О.

ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ МОДЕЛЛАРИ

Каримов А.Х. - талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада хорижий мамлакатларда олий таълим муассасаларини молиялаштириш усуллари, олий ўқув юртларини бошқариш муаммоларини қиёсий таҳлил қилиш асосида ўрганилган. Олий таълим муассасаларини халқаро таълим тизими билан боғлиқликда олиб боришни такомиллаштириш бўйича таклифлар берилган.

Олий таълим хизматлари ва меҳнат бозорларини самарали ривожланиши олий таълим хизматлари субъектлари бўлган олий ўқув юртлари томонидан тайёрланадиган юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш билан боғлиқ. Чунки бозор муносабатлари

шароитида эркин рақобатга асосланган ижтимоий иқтисодий ривожланиш ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаларида инновация янгиликларини киритиш асосидагина мамлакатни жаҳон хўжалиги бозорида рақобатбардошлигини таъминлаш республикамизни илмий салоҳиятидан фойдаланиш даражасига боғлиқ. Бозор иқтисодиётининг ривожланиши эркин рақобатга асосланиши ва ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш субъектларини қандай мулкчилик шаклларига асосланишидан қатъи назар эркин рақобат асосида ҳар бир мамлакатни жаҳон бозорида рақобатдош бўлишини таъминлаш мақсадида интеллектуал жараёни ривожлантириш уларнинг асосий муаммоларига айланади. Бу эса ўз навбатида бозор иқтисодиёти шароитида аҳолини интеллектуал даражаларини оширишни таъминлаш учун бозор талабларига асосланган ҳолда олий маълумотли малакали мутахассисларни тайёрлаш долзарб ҳисобланади. Бу борада Ўзбекистонда ҳам чуқур ислохотлар олиб бориляпти. Бунинг яққол мисоли сифатида президентимизнинг олиб бораётган сиёсатларини айтиб ўтишимиз мумкин.

Президентимиз Ш.Мирзиёев 2018-йил 21-декабр куни Олий мажлисга қилган мурожаатномаларида шу масалага алоҳида эътибор берганлар. Мурожаатномада куйидагилар таъкидлаб ўтилди: “Халқимизда “таълим ва тарбия бешиқдан бошланади” деган ҳикматли бир сўз бор. Фақат маърифат инсонни камолга, жамиятни тараққиётга етаклайди. Шу сабабли, таълим соҳасидаги давлат сиёсати узлуксиз таълим тизими принципига асосланиши, яъни, таълим боғчадан бошланиши ва бутун умр давом этиши лозим. Ривожланган мамлакатларда таълимнинг тўлиқ циклига инвестиция киритишга, яъни, бола 3 ёшдан 22 ёшгача бўлган даврда унинг тарбиясига сармоя сарфлашга катта эътибор берилади. Чунки ана шу сармоя жамиятга 15-17 баробар миқдорда фойда келтиради. Бизда эса бу кўрсаткич атиги 4 баробарни ташкил этади. Бинобарин, инсон капиталига эътиборни кучайтиришимиз, бунинг учун барча имкониятларни сафарбар этишимиз шарт. Шу йўлдаги муҳим амалий қадам сифатида болаларни мактабгача таълим билан қамраб олиш даражасини бугунги 34 фоиздан 2019 йилда 44 фоизга етказамиз. Умумий ўрта таълим тизимини бугунги кун талаблари асосида ташкил этиш, фарзандларимиз ҳар томонлама камол топиши учун, барча шароитларни яратиш лозим. Хусусий мактаблар ташкил этиш, давлат-хусусий шериклик имкониятларидан кенг фойдаланиш керак. Олий таълим тизимида таҳсил олиш учун тенг имконият яратишга қаратилган ишларни янада кучайтиришимиз зарур. Ўзбекистонда олий ва ўрта махсус таълим масканлари битирувчиларини олий таълим билан қамраб олиш ўтган даврда 9-10 фоиз даражасида бўлиб келаётган эди. Сўнгги икки йилда кўрилган чора-тадбирлар туфайли, биз бу рақамни 15 фоиздан оширишга эришдик. Лекин бу ҳали етарли эмас. Чунки дунёдаги ривожланган давлатлар тажрибасига қарайдиган бўлсак, бу кўрсаткич уларда 60-70 фоизни ташкил этади. Шунинг учун 2019 йилда мамлакатимизда битирувчиларни олий таълим билан қамраб олиш даражасини 20 фоизга етказиш ва келгуси йилларда ошириб бориш – муҳим вазифамиздир. Олий ўқув юртлари нуфузини ошириш, нодавлат таълим масканлари сонини кўпайтириб, соҳага юқори малакали кадрларни жалб этиш ва рақобатни кучайтириш лозим. Ёшларимизга бир вақтнинг ўзида бир нечта олий ўқув юртига ҳужжат топшириш имкониятини беришимиз, ўйлайманки, уларнинг таълим олиш ҳуқуқларини кенгайтиришга хизмат қилади. Олий таълим муассасаларига реал имкониятлардан келиб чиққан ҳолда, қабул квоталарини мустақил белгилаш тизимини жорий этиш керак. Бакалаврият йўналишида таҳсил олаётган талабаларга хорижда ўқишни давом эттириш имкониятлари янада кенгайтирилади. Чунки жамиятимизда олий маълумотга эга, юксак малакали мутахассислар қанча кўп бўлса, ривожланиш шунча тез ва самарали бўлади. Олий таълим муассасаларида илмий салоҳиятни янада ошириш, илмий ва илмий-педагог кадрлар тайёрлаш кўламини кенгайтириш – энг муҳим масалалардан биридир” [1].

Бундан кўриниб турибдики миллий иқтисодиётни ривожлантириш учун жавоб бера оладиган интеллектуал олий малакали мутахассис кадрларни тайёрлаш олий ўқув юртларида малакали профессор ва ўқитувчилар томонидан берилган ва талабалар,

магистрлар томонидан ўзлаштирилган билимлар республика инновация янгиликлари ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан жаҳон хўжалиги бозорида рақобатдошлигини таъминлайди. Демак, миллий иқтисодиётни инновациялаштириш асосида мамлакатимизни илғор мамлакатлар қаторига олиб чиқиш мумкин. Буни энг ривожланган АҚШ, Япония, Франция, Англия, Европа иттифоқи давлатлари мисолида кўриш мумкин. Жаҳон олий таълим тизимини кейинги 30-40 йиллар ичида уларнинг ривожланишини молиялаштиришни бир неча моделлари ташкил топди. Шулардан олий таълим тизимини биринчи молиялаштириш модели неолиберализм модели бўлиб, у М.Фидлин, Ф.Чаба ва Ф.Хаск томонидан ўрганилган бу моделга асосан АҚШ, Япония, Австралия, Жанубий Корея, Янги Зеландия ва Жанубий Африка мамлакатларида қўлланилади. Мисол учун ХХI асрда АҚШ олий таълим тизими харажатларини 42,5% бюджет маблағлари ҳисобига, шу жумладан федерал бюджет ҳисобига 27,5 % маҳаллий штат бюджети ҳисобига 2,6% қопланган. Давлат олий ўқув юртлари 50% молиявий маблағларни штат бошқарувидан молиялаштирилса хусусий олий ўқув юртлари бундай ҳукукга эга эмаслар. Бу модель вакиллари олий ўқув юртлари ва штатда жойлашган корхоналар ҳамкорликда олий таълим тизимида мавжуд муаммоларни ҳал этадилар. Аммо олий ўқув юртларини автоном ҳолда мустақил бўлиб фаолият юритишлари уларда штат бюджети маблағларини ишлатишни назорат қилишни талаб этади. Европанинг ғарб мамлакатларида бозор иқтисодиётини трансформацияланиши муносабати билан олий таълим хизматлари ўртасидаги муносабатларни барқарорлаштириш муаммосини ҳал этиш олий таълим инсон билмини фаолиятида асосий воситага айланиши билан боғлиқ Болон жараёни умумий муаммо бўлиб уни биргаликда ҳал этишни талаб этади. Олий таълим тизимини молиялаштиришнинг иккинчи модели бўлиб олий таълим соҳасида ижтимоий бозорни шаклланиши бўлиб, унинг назарий асосини гумонлашган халқпарвар капитализм ташкил этади. Унинг асосчилари Дж.Шумпетр, Дж. Гидденс ва Х.Майер ҳисобланади. Бу модель Канада, Ғарбий Европанинг Англия, Испания ва Италияда қўлланилади. Олий таълим тизимининг бу модель давлатнинг фаол ёрдами билан ва шахснинг таълим олишдаги, карьера қилишдаги жавобгарлигига асосланади. Бу олий таълим тизими модели қисман бозор муносабатларига асосланган бўлиб, давлат томонидан молиялаштириш даражасини камайиб боришига ва хусусий молиялаштиришни ўсиб боришига асосланади. Бу усулга асосланган ҳолда олий таълим тизимини ривожлантиришдаги молиялаштириш манбаларини ўзгаришини Англия олий ўқув юртлари мисолида кўриш мумкин. Ҳозирги даврда молиялаштиришнинг 33 % давлат бюджети ҳисобига бўлса қолган 67 % хусусий манбалар ҳисобига (фуқаролардан олий таълим олиш учун тушган тушумлардан, хусусий фирмалар ўз ходимларини ўқитиш учун тўлаган тўловларидан ташкил топмоқда).

Олий таълим тизимини молиялаштиришнинг учинчи модели бозор иқтисодиётига, олий таълим тизимида бозор муносабатларига қарши модель бўлиб уни назарий жиҳатдан Европа (Брюссель) ва Германия (Франкфурт) таълим ходимлари илмий тадқиқот касаба маркази томонидан ишлаб чиқилган. Бу таълим модели Ғарбий Европанинг Германия, Норвегия, Дания, Франция, Швеция, Филландия ва бошқа мамлакатларда қўлланилмоқда. Ушбу таълим тизими модели олий ўқув юртларини хусусийлаштиришга қаршидир. Шунинг учун ҳам Германияда кўпчилик олий ўқув юртлари давлатники бўлиб ўқитиш ва стипендия тўлаш давлат томонидан амалга оширилади. Талабаларнинг 30 % ёрдам пули оладилар ёки федерал бюджетдан 33 % ни, ер бюджетидан 44,6 % ни ва жамоадан 22,4 фоизни ташкил этади. Хорижий ривожланган мамлакатларда олий таълим тизимини ривожлантириш икки хусусиятга марказий бошқарувга ва олий ўқув юртларида мутахассислар тайёрлашни бозор муносабатлари талабларидан келиб чиққан ҳолда уларни диверсификациялаштиришга асосланади. Марказлаштирилган ҳолда олий ўқув юртларини бошқаришни амалга оширилишининг сабаби олий таълимни ҳар бир мамлакат миллий иқтисодиётини рақобатбардошлигини жаҳон бозорида таъминлашдан иборат.

Хулоса

Бизнинг фикримизча, Жаҳон олий таълим тизимини ўрганиш асосида:

-АҚШда жойлашган олий ўқув юртларида 50 фоизгача молиявий маблағларни штат бошқаруви ҳисобига қолган маблағларни эса университетлар билан ҳамкорликда ишловчи корхоналар ҳисобига қоплаш тажрибаларидан фойдаланиш;

- олий таълим тизимининг иккинчи моделида асосан давлат томонидан даражасини камайиб боришига молиялаштириш асосланган бўлиб шахсни таълим олиши ва келажақда карьера қилишни кафолатлаш;

- олий таълим тизимини ривожлантиришни нафақат ички балки ташқи жаҳон бозори талабаларидан келиб чиққан ҳолда зарурий йўналишларда ривожланишини таъминлаш;

- илм-фан тараққиётини олий маълумотли кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш мақсадида уларни боғлиқликда олиб бориш учун олий ўқув юртлари кафедраларида илмий тадқиқот ишларини олиб бориш;

- республикамизда олий таълим тизимини жаҳон даражасида ривожланган олий таълим тизимлари билан ўзаро ривожлантириш;

- олий таълим тизимида олий маълумотли мутахассисларни тайёрлашда уларнинг экспорти ва импортини ошириш;

- олий маълумотли мутахассисларни ўз ихтисосликлари бўйича илмий текшириш институтларида илмий лабораторияларида ва йирик ишлаб чиқариш корхоналарида ташкил этиш;

- олий таълим ўқув юртларини ишлаб чиқариш корхоналари билан биргаликда мутахассислар тайёрлашга эътибор бериш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Антошкина Л.И. Высшее образование в системе общественных интересов/монография/ Л.И.Антошкина – Донецк: ООО «Юго-восток», ЛТД 2008 г. С 54

2.Другов А. Проблемы и направления модернизации высшего образования в Украине/ А.Другов /Вестник КНЕТУ-2007-№5- с 127-134

3.Айдрус И.А., Филиппов В.М. Мировой рынок образовательных услуг: Учеб. пособие. – М.: РУДН, 2008. – с 66.

4. www.president.uz

Илмий раҳбар

кат.ўқит. Юлдашева И.

ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯНИНГ БАҲАМОЛ АВЛОД МАЪНАВИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ РОЛИ

Курбонова Ш. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада бугунги глобаллашув шароитида Ёшлар маънавиятини юксалтиришда таълим ва тарбия тизимининг ўрни алоҳида аҳамиятга эга эканлиги жамият ҳаётининг барча соҳаларида кенг кўламли ўзгаришларга сабаб бўлаётганлиги тадқиқ қилинган. Шунингдек, ёшлар маънавиятини юксалтиришда ва уларнинг дунёқарашларини оширишда миллий ва умуминсоний қадриятларнинг ўрни, ёш авлод онги ва тафаккурида миллий истиқлол мафқурасини сингдириш ҳамда уларни комил инсон бўлиб вояга етишларида таълим ва тарбиянинг узвий равишда олиб борилиши ниҳоятда муҳим роли ўйнаётганлиги ёритилган.

Маълумки, биз яшаётган давр ўта мураккаблиги, ўзгарувчанлиги, жараёнларга бойлиги, халқаро муносабатлардаги беқарорлик, айрим давлатлар томонидан зўравонликка асосланган ташқи сиёсат олиб боришдаги интилишларнинг кучайиб бораётганлиги билан характерланади. Айниқса бугунги мафкуравий жараёнларни илмий – амалий жиҳатдан атрофлича таҳлил қилиш ва баҳолаш, уларнинг устувор йўналишлари кимга ва нимага қарши қаратилганлигини аниқлаш, ёшларимизга таъсирини баҳоли қудрат ўрганиш, таълим – тарбия жараёнларида мафкуравий хуружларнинг моҳиятини очиб бериш, талаба – ёшлар қалбида миллий тафаккур ва соғлом дунёқараш асосларини мустаҳкамлашда муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2017 йил 20 апрелдаги Қарори[1]да олий таълимнинг маънавий-ахлоқий мазмунини ошириш, талаба ёшларга мустақиллик ғояларига, юксак маънавият ва инсонийликнинг миллий аъъаналарига содиқлик руҳини чуқур сингдириш, уларда ёт ғоя ва мафкураларга нисбатан иммунитет ва танқий мустаҳкамлаш бўйича кенг кўламли маърифий ва тарбиявий ишларни олиб бориш тўғрисида қатор вазифалар белгиланиб, маънавий-маърифий тарғибот ишларининг таъсирчанлигини таъминлайдиган замонавий информацион ва компьютер технологияларни жорий этиш, жамиятимизнинг мафкуравий иммунитетини кучайтиришга қаратилган самарали усул-услугаларни ишлаб чиқиш зарурлиги таъкидланган. «Биз фарзандларимизни нафақат жисмоний ва маънавий соғлом ўсиши, балки, уларнинг энг замонавий интеллектуал билимларга эга бўлган уйғун ривожланган инсонлар бўлиб, ХХІ аср талабларига тўлиқ жавоб берадиган баркамол авлод бўлиб етиши учун зарур барча имконият ва шароитларни яратишни ўз олдимизга мақсад қилиб қўйганмиз» [5].

Ҳар бир миллат ўз маданий меросига эга бўлишга интилиши билан бирга, айна чоғда, жаҳон ҳамжамияти маънавий хазинасидаги қадриятларни ўзлаштиришга интилади ва бошқа халқлар билан ҳамкорликда ўзининг моддий ва интеллектуал имкониятларини бойитишга ҳаракат қилади. “Бугунги кунда таълим ўз йўналишини ҳар доимгидан ҳам кўпроқ бошқаларнинг талабларини қабул қилиш, тушуниш ва инобатга олишга қаратиши керак, буларнинг ҳаммаси – бизнинг бошқаларнинг ҳуқуқларини ҳурмат қилишимизга оид бурчларимиздир. Бу ҳолда икки йўналиш ўртасидаги мувозанатни сақлай олишимиз лозим, яъни фаол фуқаролик хислатларимизни намоён этишимиз-қатнашимиз, фикр-мулоҳазаларимизни баён қила билишимиз, ўз овозимизни эшиттира олишимиз билан бирга сабр-қаноатли бўлишимиз, ўзлигимизни тута олишимиз, ҳурмат ва зўравонликдан тийилишимиз даркор. Ана шу ҳолдагина жамият аъзолари ўртасида ўзаро уйғунлик вужудга келади” [3]. Баркамол авлодни шакллантириш, тарбиялаб вояга етказиш *жамиятимизнинг стратегик мақсадидир*. Баркамол авлод – идеал моделдир. Баркамоллик шarti мустақиллик маънавий маданиятини ўзлаштириб олиш, ундаги ғояларни, бойликларни ўзининг маънавий мулкига айлантириш демакдир.

Ёшлар маънавиятини юксалтиришда таълим тизимининг ўрни алоҳида аҳамиятга эга. Чунки таълим тизимида онг ва тафаккурнинг ривожланиш жараёни кечади ва улар ўз навбатида ёшларга билим эгаллаш билан бирга, ватанпарварлик, миллатпарварлик ва умуминсонийлик каби қадриятларни ўзлаштириш ишига яқиндан ёрдам беради. Шунинг учун ҳам таълим билан тарбия уйғун ҳолатда ёшларнинг маърифат ва маънавиятини ривожлантиришнинг муҳим омили сифатида ҳар доим катта аҳамиятга эга бўлиб келган.

Таълим тизимида таълим ва тарбиянинг узвий равишда олиб борилиши нафақат мамлакатнинг интеллектуал жиҳатдан юксалишига, шунингдек маънавий баркамол бўлишини ҳам таъминлайди. “Шуни унутмаслик керакки, келажагимиз пойдевори билим даргоҳларида яратилади, бошқача айтганда, халқимизнинг эртанги куни қандай бўлиши фарзандларимизнинг бугун қандай таълим ва тарбия олишига боғлиқ” [4].

Шахс маънавиятини шакллантиришнинг механизмларидан бир энг замонавий информацион воситаларни вужудга келтириш ва улардан самарали фойдаланиш ҳисобланади. Албатта, информацион воситалар кенг тушунча, у фақат радио, телевидение,

оммавий ахборот воситалари, компьютер, интернет билан чегараланмайди. У кутубхоналар, музейлар, бадиий санъат асарларини намойиш этадиган кўргазма заллари, ҳужжатли ва бадиий кино асарларини ҳам ўз ичига олади. Улар орқали аҳолига маълумот берилади ва улар халқнинг маънавий камолотга эришувини таъминлайди.

Глобаллашувнинг бугунги кунда яна ҳам кенг миқёсда авж олиши шароитида таълим ва тарбия уйғунлигини таъминлаш долзарб вазифа даражасига айланди. Чунки, агар таълим-тарбиядан ажралган ҳолда, яъни ёшларга фақат билим бериш билан чекланадиган бўлсак, улар ана шу билимларни эгаллашлари мумкин, аммо уларда бугун учун ўта муҳим бўлган ватанпарварлик, миллатпарварлик, ота-она, маҳалла-қўй олдида масъулият каби қадриятлардан бебаҳра бўлиб қоладилар. Бундай ҳолатнинг юзага келиши эса истиқболда мамлакат тараққиёти ва шахс камолоти учун салбий заминларнинг шаклланишига олиб келиши мумкин.

Бундай жараённинг бугун дунёнинг юксак иқтисодий тараққийга эришган мамлакатлар тажрибаларида содир бўлаётганлиги ҳақида матбуотларда кўплаб хабарлар берилаётганининг гувоҳи бўлиб турибмиз. Иқтисодий юксакликка эришиш ҳали бу тараққиётнинг мезони бўла олмайди. Чунки, куни келиб маънавий қашшоқлик иқтисодиётнинг ҳам “ичдан”, ҳам “ташқарисидан” емирилишига олиб келади. Бунинг олдини олишнинг асосий омили таълим ва тарбияни узвий равишда олиб бориш ташкил қилади.

Бугунги кунда таълим ва тарбияни узвий тарзда олиб боришда уларнинг самарадорлигини ошириб бориш катта аҳамиятга эгадир. Уларни ҳаёт билан чамбарчас боғлиқ ҳолда олиб бориш, таълим тизимида янги педагогик технологиядан самарали фойдаланишга эътибор берилиши талаб этилмоқда.

Тарбия билан таълимни узвий равишда олиб боришда таълим тизимида ўқитилаётган ижтимоий-гуманитар фанларнинг ўрни ниҳоятда каттадир. Чунки, ана шу фанлар дунёқарашни шакллантириш ва ривожлантиришда етакчилик қиладилар. Улар ўқувчи, талаба ва бутун таълим тизимидаги ёшлар нафақат онги, тафаккурини ривожлантиради, шунинг билан бирга уларнинг маънавиятини ҳам бойитади. Ватан ва миллат тақдири, унинг истиқболи учун масъуллик туйғуларини шакллантириб боради. «Ҳар қайси давлат ҳар қайси миллат нафақат ер ости ва ер усти табиий бойликлари билан, ҳарбий қудрати ва ишлаб чиқариш салоҳияти билан, балки биринчи навбатда ўзининг юксак маданияти ва маънавияти билан кучлидир»[5].

Демак, шахс маънавиятини шакллантириш ва бойитиш бугун бутун таълим тизимида фаолият олиб бораётган тарбиячилардан чуқур билимга эга бўлишни ва ёшлар ўртасида таълим ва тарбияни узвий равишда олиб бориш салоҳияти ҳамда маънавиятга эга бўлишни талаб этади. Бугун олдимизга қўйилган юксак маънавиятли шахсни тарбиялаш мамлакатимиз тараққиёти ва унинг интеллектуал имкониятларини кенгайтиришга қаратилган. Бу вазифани амалга оширида таълим тизимининг мавжуд имкониятларидан кенг фойдаланиш долзарб вазифа бўлиб қолаверади.

Хулоса

Хулоса қилиб айтганда, маънавий таълим-тарбия бугунги куннинг энг долзарб масаласи. Бу ишга юртимизнинг барча зиёлилари – ўқитувчилар, журналистлар, ёзувчилар, врачлар, барча раҳбарлар бирдек масъулдирлар. Мамлакатимизда таълим-тарбияни ҳозирги замон талаблари даражасида олиб боришда мавжуд барча имкониятлар ва воситалардан самарали фойдаланганимиздагина маънавияти юксак баркамол ёшларни тарбиялашга эришиш мумкин бўлади. «Келажак авлод ҳақида қайғуриш, соғлом, баркамол насилни тарбиялаб етиштиришга интилиш бизнинг миллий хусусиятимиздир».

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2017 йил 20 апрелдаги Қарори.

2. Халқ сўзи, 2010 йил 30 январь.
3. Федериико Майор. Келажак хотираси. – Т.: «Ўзбекистон», 1998. – Б.161-162.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008. – 61 б.
5. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: «Шарқ», 1999. – 8-10 б.

Илмий раҳбар

Раҳмонбердиева Н.

МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИ АНГЛАШ – ВАТАННИ АНГЛАШ АСОСИ

Курбонназаров А., Майнисова С.- талабалар, ТИҚХММИ

Аннотация

Мазкур мақолада баркамол шахс тарбиясида миллий ва маънавий қадриятлар уйғунлиги, аждодларимиздан бизларга етиб келатган бу ноёб дурдона урф-одатларимиз, асори-атиқаларимиз, динимиздаги ҳалоллик ва ҳаловат туйғулари барчаси бугунги кунимизда янада сайқалланиб, ўзининг жилосини турли кўринишларда намоён этиб келатганлиги ҳақида сўз боради.

Инсонийлик – маънавий покланиш ва баркамолликка интилишдан иборат. Баркамол шахс тарбияси эса миллий ва маънавий қадриятлар уйғунлигида акс этади. Аждодларимиздан бизларга етиб келатган бу ноёб дурдона урф-одатларимиз, асори-атиқаларимиз, динимиздаги ҳалоллик ва ҳаловат туйғулари барчаси бугунги кунимизда янада сайқалланиб, ўзининг жилосини турли кўринишларда намоён этмоқда. Чунки ҳар қайси халқ ёки миллатнинг тафаккури, турмуш тарзи, маънавий қарашлари ўз-ўзидан бўш жойда шаклланиб қолмайди. Уларнинг вужудга келиши ва ривожланишида аниқ тарихий, табиий ва ижтимоий омиллар асос бўлади. “...эзгу фазилат ва интилишлар халқимизнинг қон-қони ва суяк-суягига сингиб кетган. Унинг табиатига хос бўлган юксак маънавият неча асрларки бизни не-не бало-қазолардан, тўфон ва бўронлардан соғ-саломат асраб келмоқда. Ҳар қандай босқин ва истилоларга қарамасдан, ҳар қандай оғир ва мураккаб шароитда ҳам ота-боболаримиз ўзлигини йўқотмасдан, маънавий ҳаёт мезонлари, одоб-ахлоқ қоидаларига амал қилиб, комиллик сари интилиб яшагани бугун ҳам барчамизга ибрат бўлиб, куч-қувват бағишлаб келмоқда” [1].

Республикамизда олиб борилаётган демократик жараёнларнинг мазмун моҳияти келажакимиз бўлган ёшларни ҳар томонлама етук бўлиб ўсишларига қаратилган. “...демократия тамойиллари миллий қадриятларимиздан воз кечиш ҳисобига эмас, аксинча, уларнинг янада такомиллашуви ва гуллаб-яшнашига хизмат қилмоғи даркор” [2]. Ёшларни ижтимоий қатлам сифатида манфаатлари давлатимиз томонидан қўллаб-қувватланмоқда. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисидаги”ги қонунида кўрсатиб ўтилганидек, “ёшларга оид давлат сиёсати – давлат томонидан амалга ошириладиган ҳамда ёшларни ижтимоий жиҳатдан шакллантириш ва уларнинг интеллектуал, ижодий ва бошқа йўналишдаги салоҳиятини камол топтириш учун шарт-шароитлар яратилишини назарда тутадиган ижтимоий-иқтисодий, ташкилий ва ҳуқуқий чора-тадбирлар тизимини [3] ташкил этади.

Ёшларни жамият ҳаётига интеграция қилишнинг изчил тизимлари шакллантирилди. Ёшлар ташкилотлари сон ва таркиб жиҳатидан кескин ўзгарди. Ёшлар ташкилотлари фаолияти кенг аҳоли қатламларини қамраб олиш, ёшлар ва болалар билан ишлаш методикасини янгиланиши, демократиялашуви замонавий интерфаол услублар билан бойитилиши нуқтаи назардан янги мазмунда қайта қурилди. Бу олиб борилаётган ишларни мазмунида ёшларни Ватанга бўлган муҳаббатини мустаҳкамлаш, миллий қадриятларни асраб-авайлаш, тарих ва келажак олдида ўзларини бурчларини англашга ўргатиш ётади.

Бир воқеани келтириб ўтмоқчиман: “Катта бувимларни кўргани қишлоққа бордим. Ёшлари саксондан ошган, лекин ҳали тетик. Кўзларига бир эмас иккита кўзойнак таққанларича кўрпача қавиб ўтирибдилар. Мени кўрганларида кўзларида қувончни кўриб дилим яйради. Бувижоним-ей, нима қиласиз ўзингизни қийнаб? Кимга қавияпсиз бу кўрпачани? Десам, Сенга, дедилар кўзлари ёшланиб. Мени эслаб юрасан, меники табаррук. Мени камчилигим йўқ, лекин азалий урф-одатларимиз қанчалик улуғлигини тушунгандай бўлдим. Бу кўрпача орқали бувим менга миллий ўзлигимизни, урфимизни, меҳрини, умрини бераётганлиги англадим”. Ахир шунинг ўзи Ватанга хурмат, миллий ўзлигимизни англаш эмасми? Бизнинг буваларимиз, бувиларимиз ўз фарзандлари, набиралари камолида ўзининг ҳаёт аксини кўрадилар. Бу бизнинг миллатимизни фақат ўзи учун эмас, фарзанди учун яшашлиги қадрият эканлиги кўрсатади. Бу қадриятлар инсон қалбида бўлади. Мутафаккирларнинг фикрича, одамларда турли хил қалб бор: “ўлик қалб – ҳеч нарсага интилмайдиган қалб; ҳаста қалб – янгиликка хаваси бор, лекин ёрдамга муҳтож қалб; ғофил қалб – хикмат (онглилик) нуридан бебахра қалб; уйғоқ қалб – нури бор, бироқ тарбияга муҳтож қалб; тирик қалб – ўз бахтини топган ва ўзгага бахт берувчи қалб” [4]. Биз бугун тарбияда қалблардаги туйғуларни ёмонликлардан асраш, уларни эзгулик нури билан ёритиш ва бу борада ўзлигимизни намоён этмоғимиз даркор.

Миллий ва маънавий қадриятлар туфайли одам ўз-ўзини англаб ва қадрлаб, чинакам инсоний фазилатлар мужассами сифатида ўз “Мени”га эга бўлса, жамиятда ўз ўрнини топади ва келажақ учун ўзидан албатта яхши ном қолдиради.

Ўз-ўзини англаб инсонга айланган одам албатта қайси миллат ва маданиятга мансуб эканлигини бошқалардан кўра яхшироқ хис қилади. “Миллий маданият ва миллий ўзликни англаш – ягона миллат ва элат маънавий дунёсининг қўш қанотидир” [5]. Бу қадриятлар албатта ёшларимизни Ватанпарварлик туйғуларини мустаҳкамлайди, уларни ҳаёт мазмунларига айланиб боради деб умид қиламиз. Олиб борилаётган барча чоратadbирлар ёшларимиз келажагига хизмат қилади.

Хулоса

Ҳар бир онгли инсон миллий қадирятларимизга хурмат ва эҳтиром билан қараши лозим ва келгуси авлод олдида муносиб ўрناق бўла олиши керак. Миллий қадирятларимиз бу ўзлигимиз ва ўзликни англашдир. Шундай экан ҳар биримиз бу қадирятларни эозлашимиз ва асрашимиз лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., Маънавият, 2008.
2. Каримов И. Маънавият, фалсафа ва ҳаёт. Т., Фан, 2007.
3. Умаров Б. Глобаллашув зиддиётлари: иқтисодий, ижтимоий ва маънавий жиҳатлари. Т., Маънавият, 2006.
4. Дўстжонов Т. ва бошқ. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантиришнинг долзарб муаммолари., Iqtisod-Moliya. 3-2006.
5. Каримов И. Маънавият, фалсафа ва ҳаёт. Т., Фан, 2007.

Илмий раҳбар

Мамадаминова Б.А.

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА, ФИЗИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ УСУЛЛАРИ

Тўлкинова М. – талаба ТИКХММИ

Аннотация

Мақолада, олий таълимда физика фани машғулотларни олиб боришда янги педагогик технология усуллари қўллашнинг самарали усуллари ёритилган.

Олий таълимнинг мақсади республикамизнинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ривожини таъминлашга, ўзи танлаган мутахассислик бўйича бозор иқтисодиёти мустақил ишлашга лаёқатли, юкори малакали, рақобатбардош кадрларни тайёрлашдан иборат. Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида олий таълим олдида қўйилган вазифаларнинг ижроси собик шўролар давридан колган, юкорида таъкидланган муносабатларга чек қўяди, мустақил Ўзбекистон таълим тизимини тамомила янги босқичга қўтаришга имкон яратади.

Хозирги кунда таълим жараёнида интерактив методлар, инновацион технологиялар, педагогик ва ахборот технологияларини ўқув жараёнида қўллашга бўлган қизиқиш, эътибор кундан кунга кўчайиб бормоқда.

Олий таълим тизимидаги анъанавий ва оммавий кўринишдаги таълим ва тарбия жараёнлари ўрнига таълим муассасалари ривожланишида ўзига хос янгилик бўлиб инновацион жараёнлар кириб келмоқда.

Ўқитувчи бу жараёнда шахсни ривожланиши, шаклланиши, билим олиши ва тарбияланишига шароит яратади ва шу билан бир қаторда бошқарувчилик, йуналтирувчилик функциясини бажаради. Шунинг учун олий ўқув юртлирида малакали касб эгаларини тайёрлашда замонавий ўқитиш методлари, инновацион технологияларнинг ўрни ва роли бенихоя каттадир. Педагогик технология ва педагогик маҳоратга оид билим, тажриба ва интерактив методлар биз каби талабаларнинг билимли бўлишларини таъминлайди.

Бу вазифаларни амалга ошириш узлуксиз таълим тизимида фаолият кўрсатаётган профессор-ўқитувчилар зиммасига юклатилади. Хар бир машғулотда замонавий педагогик ва ахборот технологияларидан фойдаланиш, талабаларда мустақил ва ижодий фикрлашни ривожлантириш, ватанпарварлик ва миллий ғурурни шакллантириш, мустақиллик тамойиллари ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялаш, ахборот технологияларидан фойдаланиш малака ва кўникмаларни шакллантириш масалаларига эътибор қаратилади. Мазкур фаоллик хар доим ҳам вужудга келавермайди, фақат ўқитувчининг мақсадга мувофиқ педагогик таъсир кўрсатиши ва қулай педагогик - психологик муҳитни ташкил этиш маҳорати туфайлигина вужудга келади [2].

ТИКХММИ, “Физика ва кимё” кафедраси профессор ўқитувчилари томонидан физика фанини ўқитишда қўлланилаётган замонавий педагогик технологиялар биз талабаларнинг физика фанини ўзлаштиришимизда катта аҳамиятга эгадир.

Бизга маълумки, олий ўқув юртлирида физика фанини ўқитишнинг шаклларида бири бу лаборатория машғулоти дир. Лаборатория машғулотида талабалар марузада олган билимларини мустахкамлайдилар, тажрибаларни ўз қуллари билан бажариб натижа олишади ва мавзу бўйича ўз қуникмаларини мустахкамлайдилар. Яъни, лаборатория ишлари талабага назарий билимларни қўллаш механизмини чуқур ва кўргазмали ўрганиш имконини беради.

Физика фанидан лаборатория машғулотларини олиб боришда “Блиц”, “Қандай”, “Ақлий хужум” методлари элементларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Бу методлар биз талабаларни лаборатория ишларини бажариш кетма-кетлигини тўғри ташкил этишга, талабанинг мавзу бўйича назарий билимларини мустахкамлашга ва гуруҳ талабаларини қисқа вақт ичида баҳолашга имконият яратади.

Дарсинг ташкилий қисмидан сўнг, ўқувчиларга ушбу технологияларни олиб бориш босқичлари хақида тушунча берилади ва баҳолаш мезонлари билан таништирилади.

Бугунги кунда, Тошкент ирригация ва қишлоқ хужалигини механизациялаш мухандислари институти, “Физика ва кимё” кафедраси профессор ўқитувчилари физика фанидан лаборатория машғулотларини олиб боришда замонавий педагогик технологиянинг шу методларини қўллаб дарс машғулотларини олиб боришмоқда ва самарали натижаларга эришилмоқда. Масалан: “Галилей тарновида думалаётган шарчанинг ишқаланиш думаланиш коэффицентини ва шар тўсиққа урилганда куч импульсини аниқлаш” мавзусидаги лаборатория машғулотини олиб боришда ушбу методлардан фойдаланилди.


1-илова “Блиц” технологияси методи

Талаба жавоби	Тўғри жавоб	Ишни бажариш тартиби
		Шарни тортиб, уни массасини (m) аниқланг.
		Секундомер ишлашини текширинг ва шар думаланиши учун кетган вақт (t) ни ўлчанг.
		Галилей тарновини ўқитувчи томонидан берилган узунликка (l) қўйинг. h_1 ва h_2 баландликларни ўлчанг ва h_2-h_1 қийматини жадвалга ёзинг
		Шарнинг тўсиққа урилиб қайтиш масофаси (l_1) ни ўлчанг
		Тўсиқ қўйиб шар думаланиши вақтида босиб ўтган масофани ўлчанг (l).
		Шар радиусини (r) ўлчанг.
		Хамма ўлчашларни камида 5 марта такрорланг ва уларни қийматини жадвалга ёзинг.
		Хисоблаш формулалари ёрдамида думаланиш ишқаланиш коэффицентини ва шар тусиққа урилгандаги куч импульсини хисобланг.
		$\frac{h_2 - h_1}{l} = \sin \alpha$, α қиймати бўйича $\cos \alpha$ ва $\operatorname{tg} \alpha$ лар топилади.

2-илова “Ақлий ҳужум” методи

№	Назарий саволлар
	Ишқаланиш кучлари нималарга боғлиқ?
	Тарновдан думалаётган шар тезланиши нималарга боғлиқ?
	Жисм импульси деб нимага айтилади?
	Куч импульси нима?

«Қандай?» методи 3-илова



Хулоса

Шундай килиб айтганда, биз талабаларнинг таълим олишимизда янги педагогик технологияларнинг қўлланилиши фанга, мавзунинг мазмунига бўлган қизиқишларини ва машғулотда фаоллигини оширади. Янги педагогик технологиялар асосида олган билимларни мустахкамлашга, ўз фикрларини мустақил баён этишга, фаол иштирок этишга, ўз тенгдошлари билан биргаликда вазифаларни бажариш, ўзгалар фикрларини хурмат қилишга ёрдам беради. Дарсни қизиқарли ва самарали бўлишини таъминлайди. Худди шундай педагогик инновациялар ҳар томонлама камол топган, биз ёшларни тарбиялаб бериш вазифасини ҳал этади [3].

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. – Т.: Ўзбекистон, 2005 й.
- 2.Абдурахмонов А. “Физика курси” 2011й. Т.
- 3.Зуннунов А. Педагогика тарихи /Олий ўқув юртлари учун дарслик.– Т.: **Фан, 2004.**

Илмий раҳбар

Бекназарова З.Ф.

МУТАХАСИСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДАГИ ШАКЛЛАР ВА УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Нажимова М.Х. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Бугунги кунда мамлакатимизнинг барча жабҳаларини ривожлантиришга, айниқса, келажак авлодни баркамол шахс, рақобатбардош кадрлар даражасида тарбиялашга жуда катта эътибор қаратилмоқда. Республикаимизнинг келажаги эса, ҳозирги кунда таълим олаётган ёшларимиздир. “Таълим тўғрисида”ги қонун, “Кадрлар тайёрлаш миллий

дастури” ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Касб-хунар коллежлари талабаларининг ишлаб чиқариш амалиётини ташкил этиш ва ўтказишни такомиллаштириш тўғрисида”ги 2009 йил 11 февраль, 40-сонли қарорига асосан, касб-хунар коллежларида ўқув ва ишлаб чиқариш амалиётини самарали ташкил этиш, унинг сифат ва самарадорлигини ошириш, малакали, рақобатбардош кичик мутахассислар тайёрлаш, уларда амалий кўникмаларни шакллантириш бугунги куннинг муҳим вазифаларидандир.

Касбий таълим педагогикаси таълим-тарбия олувчиларга аниқ йўналишдаги касбий маълумотларни ўргатувчи фан. Касб-хунар коллежларида ўқув-амалий машғулотларнинг сифат ва самарадорлигини ошириш махсус фан ўқитувчи ва таълим усталари хамда ишлаб чиқариш таълим устасининг педагогик маҳоратига, уларнинг касбий тайёргарлигига боғлиқ. Ишлаб чиқариш таълим усталари янги техника ва ишлаб чиқариш технологияларини чуқур билиши хамда фойдалана олиши, янгилик яратиш даражасига эга бўлиши жуда муҳим. Таълим жараёнида янги педагогик технологиялар ва фаол усуллардан фойдаланиш, янги ишлаб чиқарилаётган ўқитишнинг техник воситаларни татбиқ қила олиши, талабаларни кўпроқ мустақил ишлашга ундаш, билим ва кўникмаларини ривожлантириш мақсадга мувофиқдир. Баъзи амалий машғулотлар интеллектуал кўникмаларни эгаллашга қаратилган. Масалан, математика ёки физика фанидан мисол ва масалалар ечиш, чизмачиликдан машқлар бажариш, ҳисоб-китоб қилиш ва ҳоказо. Махсус фанлардан амалий машғулотлар ва ўқув амалиётларини ўтишда талабалар ишлаб чиқаришда бажариладиган жараёнлар бўйича пухта касбий кўникмаларни шакллантириши лозим.

Ҳозирги кунда Олий таълим тизимида талабаларни ўқитиш усуллари такомиллашиб бормоқда: ўқитишда янги педагогик, ахборот технологиялари, техник воситалар, рейтинг тизими, ёзма иш, ўқув назорати дастури, компьютер - тест усуллари кенг қўлланилмоқда. Бундай усуллар ўзининг ижобий томонлари билан бир қаторда маълум камчиликларга эга улардан бири: талабаларнинг ўзига хос индивидуал хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда ўқитувчи билан доимий бевосита мулоқоти камайиб бормоқда. Шунинг учун ҳам врач этикаси ва тиббиёт деонтологияси бемор ва врач орасидаги муносабат масалаларини ечиш билан бир қаторда, балки ўқитувчи билан талабалар орасидаги боғланиш, муносабатларни, "педагог-талаба" масаласини ҳал этиш ҳам ҳозирги кунда катта аҳамият касб этади. Бошқача қилиб айтганда, ҳар - бир кафедра, ҳар - бир гуруҳда, ўқитишнинг ҳамма босқичида врач этикаси ва тиббиёт деонтологияси ўз ўрнини топиши керак.

Асосий қисм. Муҳандислик кўникмаларига ўқитиш принциплари аниқлаш муҳим аҳамиятга эга бўлиб келмоқда. Талаба муҳандислик ўқишга тайёр бўлгандагина ўқитиш самарали бўлишини ҳисобга олиш муҳим аҳамиятга эга бўлади. Талабанинг билими ва малакасига асосланган ўқитишгина самара беришни тўғри тушуниш муҳим аҳамиятга эгаллиги мутахассислар томонида таҳлил қилинган. Мутахассисликни ўқиб ўрганувчи талабалар олдиндан қандай билимни эгаллаши лозимлигини билган тақдирдагина ўқитиш ўз самарасини кўрсата олишини алоҳида такидлашимиз мукин. Мутахассислик фанларини ўқитишда улардаги маълумотларни қабул қилишни осонлаштириш осонлаштириш мақсадида, турли хил ўқитиш усуллардан фойдаланиш зарурлигини алоҳида такидлашимиз мумкин. Ўқитиш жараёнида турли ўйинлар ва машғулотлар ўтказиш, билим ва кўникмаларни мустаҳкамлаб, уларни амалиётда қўллаш олиш учун зарурдир. Такрорлаш – бу кўникма ва малакага эришиш жараёнининг энг муҳим элементи. Ўқув вазияти қанчалик хаётий бўлса, ўқув жараёни хам шунчалик самарали бўлади.

Профессор ўқитувчиларнинг вазифаси талабаларнинг назарий билимларига асосланиб баҳолашдан иборат эмас, аксинча билим ва кўникмаларни тўла эгаллашини кўмаклашишдан иборат бўлиб қолмоқда деб ҳисоблаш мумкин. Мутахассислик фанларидан талаба билим ва кўникмаларни амалиётда тўла намоён этолмаган бўлса,

Ўқитувчи талабани билимсиз деб қабул қилмаслиги, аксинча, кўникмаларни эгаллашга қандай ёрдам бера олиши ва ўқитиш усуллари янада такомиллаштириш тўғрисида ўйлаб кўрмоғи зарур [1].

Ўз касбининг устаси, юкори малакали профессионали бўлиши керак. Дарс беришга қодир, педагогик маҳоратга эга бўлиши керак. Камтар, ўзига ва талабаларга нисбатан талабчан бўлиши керак. Таълим соҳасида жиддий ўзгаришлар юз берди: ўқув дастурларигина эмас, балки ўқитиш восита ва усуллари ҳам қайта кўриб чиқилмоқда. Олий ўқув юртлари таълим жараёнига ахборот технологияларини фаол қўлламоқдалар: Ушбу технологиялар нафақат ўқитувчи балки, ўқувчи учун ҳам ўзларига қулай вақтда компьютердан фойдаланиб, турли манбалардан ахборот олган ҳолда касб ва билим маҳоратини ошириб бориши мумкин. Мана шундай манбалар жумласига электрон дарсликлар (модуллар), аудио ва видеоматериаллар, ўқув роликлари киради. Интернет орқали ахборот олиш

Интернет глобал алоқа боғлаш орқали ахборот олишнинг арзон воситаси ҳисобланади. Шу билан бир қаторда илмий тадқиқотлар олиб бориш учун у зарур ахборот воситаси ҳисобланади. Ҳозирги илмий техника революцияси даврида ахборотлар сел каби ёғилмоқда. Агар муҳандис талабаларни ўқиш билан шуғулланса амалиётда фаолият кўрсатиш учун ҳеч қандай вақт топилмайди. Муҳандислик фанлари профессор ўқитувчилари томонидан видеофильм муҳандислик ишларини бажариш шароитдан келиб чиққан ҳолда суръатга олинганлигини такидлашимиз мумкин. Айрим тайёр видеофильмларни ижарага ёки сотиб олиш мумкин [2].

Видеофильмни томоша қилиш учун қатнашувчилари машғулотни мақсади, видеофильмнинг қисқача мазмуни билан таништириб бориш муҳим аҳамиятга эга бўлмоқда. Ахборот технологияларининг ютуқларидан бири бу мультимедиа дарсликларидан муҳандислар тайёргарлигида фойдаланишдир. Мультимедиа катта ҳажмдаги муҳандислик дарсларидан ахборотни талабаларга етказиб бериш демакдир. Мультимедиа бу шундай дарсликки, унинг ёрдамида ўқиш, тинглаш ва кўриш мумкин. Бундай дарсликлар одатда, матн, товуш ва графиканинг бирга қўшилганини, сўнги вақтларда эса анимация ва видеони англатади.

Ҳозирги пайтда Республикамиз ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларида кичик мутахассислар тайёрлаш сифатини яхшилаш бўйича қатор педагогик изланишлар олиб борилмоқда. Бу изланишларнинг аксариятида педагог олимлар, амалиётчи ва тадқиқотчиларнинг диққат эътибори ўқитиш мақсади ва унинг натижаларига эришишга, таълимни технологиялаштириш орқали сифатли ўқитишни ташкил этишга, шунингдек, илмий асосланган замонавий ўқитиш технологияларини ишлаб чиқиш ва уларни таълим-тарбия жараёнига жорий этишга йўналтирилган.

Муаммоли ўқитиш таълим мазмунининг барча тўртта (билим, кўникма, малака, ижодий фаолият) компонентларини ўзлаштиришга ижобий таъсир этади. Улар талабаларини махсус фанлар учун жуда муҳим бўлган ҳолатлар, яъни мустақил муаммони кўриш, уни ифодалаш, ечиш йўллари топиш ва ечишга имконият беради.

Хулоса

Касб - ҳунар коллежларида махсус фанларни ўргатиш жараёнида фойдаланиладиган муаммоли ўқитиш методикаси ўз ичига қуйидаги бешта босқични олади. Улар қуйидагилар:

- муаммоли вазиятни англаш;
- вазиятни таҳлил этиш асосида муаммони ифодалаш;
- муаммони ечиш усулини излаш;
- фарзани исбот қилиш;
- муаммоли масаланинг йечимини тўғрилигини текшириш.

Махсус фанларни ўқитишни ташкил этишда барча ўқув фаолият Касб ҳунар коллежи ўқитувчиси томонидан муаммоли вазиятни режали ва кетма - кет қўйиш ва

уларни талабалари томонидан ўқув ҳаракатлар орқали ечишдан иборат бўлиши мумкин.

Муаммоли таълим бу - ўқувчига бериладиган билимнинг қайси қисмини, қандай йўл билан бериш муаммосини самарали ҳал қилишга қаратилган ўқитувчи фаолиятидир. Муаммоли таълим дарсда бир вақтнинг ўзида ўқитувчи ва талабаларининг ҳамкорликдаги ҳаракати бўлиб, у ўқувчи шахсидаги муҳим белги - ижодий фикрлаш қобилиятини ривожлантиради. Дарсда ўрганиладиган мазмуннинг мураккаб қисмини ўзлаштиришда ўқитувчининг фаолияти қандай бўлса, ўқувчи фаолиятини ҳам шу даражага етказиш муаммоли таълимнинг асосий мақсадидир. Муаммоли таълим - талабаларининг эркин фикрлашларига, ўзининг фикрини эркин баён қила олишларига ва фикрларини янада ривожлантиришларига таъсир этишдир. Бунда ўқувчи диққат билан тинглаши, мустақил фикрлаши, таҳлил қилиши, кўпчилик бўлиб муҳокама қилиши ва тўпланган фикрни баён қила олиши керак.

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Тешаев О.Р., Маматқулов Б.ва бошқ. Ўқитувчилар учун презентация ва интерактив ўқитиш усулларидан кўникмаларни ҳосил қилиш бўйича қўлланма. Тошкент 2011. 91 бет.
- 2.Тешаев О.Р ва бошқ. Педагогик технологияларни тиббиётда лойиҳалаштириш ва режалаштириш. Ўқув - услубий қўлланма. Тошкент 2010. 133 бет.
- 3.Каримов Ҳ.Ё. Янги педагогик технологиялар. Тошкент -2001. 147 бет.

Илмий раҳбар

Бойтураев Т.Д.

ТАЛАБА-ЁШЛАРНИ ЖИСМОНИЙ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИНДИВИДУАЛ ЁНДАШИШ

Норматов Ш.Р. – талаба, ТИҚХММИ.

Аннотация

Бу мақолада баркамол авлодни тарбиялашдек муҳим вазифалардан бири бўлган ёшларни жисмоний такомиллашувига эришиш йўлидаги индивидуал ёндашиш хусусиятлари ёритиб берилди. Талабаларни жисмоний такомиллаштиришда уларнинг психологик хусусиятларни тарбиянинг асосий мақсади шахсни туб маънода тушуниш ҳисобланади. Талабага ижтимоий сифатга эга бўлган шахс сифатида қаралади, бу ўқув фаолиятида намоён бўлади.

Кириш. Талабаларни шахсий психологиясининг ўзига хос хусусияти ўзини тута билиши ҳисобланади. Уларни юриш-туришини кузатадиган бўлсак, билиб олиш унча қийин эмас, чунки улардан бири хотиржам, секин ҳаракат қиладиган ёки ланж, бошқалари ҳаракатчан, учинчиси ғамгин, маъюс, мулоҳаза қилишга, ёлғизликка мойил, тўртинчиси хушчақчақ, одамга эл бўладиган, киришимли ва ҳ.к. бўлади Инсонлар орасидаги ана шундай индивидуал фарқлар улар мижозларининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқади («темперамент» - лотинча сўз бўлиб, у аралашма ёки қоришма маъносини билдиради). Мижоз (темперамент) юриш - туриш (ахлоқ) ва психиканинг ўзгариши ёки ривожланишини билдиради. Қадимги юнон тиббиёт врачлари Гиппократ ва ўрта асрнинг буюк олими Абу Али ибн Синонинг фикри бўйича мижозни тўртга типга бўладилар: сангвиник (хушчақчақ) мижоз, холерик (серғайратлик, жўшқинлик) мижози, флегматик (оғир) мижоз, меланхолик (ғамгин) мижозлардир [1].

Сангвиник (хушчақчақ) мижозли талабани, агарда уни иши қизиқарли бўлса у яхши натижаларга эришади. У қийин ҳолатларда бошқаларга нисбатан тетик, ишончга эга бўлади, ўртқларига ижобий таъсир этади, уларнинг кайфиятини кўтаради. Улар ҳар бир фаолиятда пешқадам бўлиб, ҳар доим ўқитувчига ёрдам беришга қодир. Тарбиявий

жараёнда шундай талабалар намоён бўладики, бунда ўқитувчи мижозлар диагностикасининг психологик услубларини билиши шарт.

Холерик (серғайратлилик) мижозли талаба эса ўзига хос салга ловуллаб кетадиган, кучли ёки тўхтатиб бўлмайдиган тезлик реакцияси, жонли имо-ишораларга эга бўлади. И.П. Павловнинг баҳо бериши бўйича, холерик (серғайратлилик) - бу очикдан очик жасур тип, энгил ва тез аниқланадиган деб аталади. Ўзига хос ҳеч қандай қийинчиликларсиз у янги ҳаёт шароитларига кўникама ҳосил қилади, атрофдагилар билан энгил алоқа боғлаши мумкин, яхши жамиятда фаол иштирокчи бўлиши мумкин. Талаба шундай мижоз билан ишга киришиб кетадиган бўлса у жуда зўр фаоллик намоён этади, бироқ тез совиб қолади. Уни бир маромдаги ҳаракат, секин ва осойиштали меъёр (секин югуриш, юриш) тез зериктириб қўяди. У фаол, кескин ҳаракатларга мойилдир (спорт ўйинлари, 60-100 метр қисқа масофаларга югуриш).

Амалиёт шуни кўрсатадики, холерик (серғайратлилик) мижозли киши бирорта вазифани бажаришдан олдин ҳаддан ташқари ҳаяжонланади. Бу эса финал ва маъсулиятли мусобақалар олдидан салбий таъсир этиши мумкин. Бунақа ҳолатда ўқитувчининг роли шундан иборат бўлиши керакки, талабадаги ҳаддан ташқари ортиқча ҳаяжонланишни, тўлқинланишни пасайтиришда сўз ёрдамида ва хулқ-атвори билан шахсий намуна кўрсатиши керак. Муҳими, ўқитувчи шуни ҳисобга олиш керакки, яъни низоли ёки жанжалли ҳолатда холерик (серғайратлилик) мижоздаги талабалар одатда кучли салбий асабийлашган ҳолатни бошдан кечиради, у ҳақиқатан ҳам тарбиявий таъсир этишни пасайтиради. Бундай ҳолатда энг яхшиси уларни диққат эътиборини бошқа ҳаракатни бажаришга қаратиш керак, чунки талаба тинчлангунча кутиш керак, ундан сўнг керакли йўналишга таъсир этиш керак [2].

Флегматик (бўшанг ёки оғир) мижозли талаба - оғир вазмин, кам ҳаракатчан, хотиржам бўлади. Бироқ ўқув, меҳнат фаолиятида матонатли, бардошли, узоқ ўтириб ишлаш қобилиятини намоён қилади. «Флегматик бўшанг ёки оғир» мижоз-осойишта ҳар доим баб-баравар, кунт билан курашувчи ва зўр бериб кўп ишлайдиган» - деб айтганди И.И.Павлов. Флегматик (бўшанг ёки оғир) мижозли талабаларда психик жараёнлар меъёри секинлаштирилган. Шунинг учун уларга визуал, бутун тавсилотлари билан тушунтириш керак, унга бажариш вақти ҳақида эслатиб қўйиш, ҳаракатни бажаришда шоширмаслик керак. Талабаларга аста-секин ўзига мос вазифаларни бериб бориш, унга тез реакцияни талаб қолувчи, шартни қўйиш билан, ундаги сусткашликни, журъатсизлигини йўқотиш мумкин, унга соғломлаштириш машқларини бажариш шароитида ўзлаштиришга ёрдам бериш зарур.

Меланхолик (ғамгин) мижоздаги талабалар одамларга аралашмайдиган; одамови, кам ташаббускорликлари билан ажралиб турадилар. У маъюсликка, хафагарчиликка тез берилувчан, янги шароитга секин-аста кўникадиган, қийинчиликларни ўзига оғир оладиган, чунки унга озгина муаммо ҳам кўп бўлиб кўринади.

Ҳар қандай нарсанинг кучли таъсир этиши уни саросима ёки эсанкираб қолишга олиб келади, мувозанатдан чиқаради.

Бўш типдаги талаба (меланхолик) янги ҳаётга тушиб қолса, у ўзини томоман йўқотиб қўяди. Меланхолик ҳар доим фақат ёмонлик, хавф-хатарни кўради. Меланхоликнинг одатга кўра, сезги органлари яхши ривожланган, бу унга нозик ишларни бажаришга имкон беради (улар стол тенниси, баскетбол, қўл тўпини яхши ўйнайдилар). Юқори даражадаги ҳаяжонлашиш, таранглашиш меланхолик бошқалар мушқулига ниҳоятда сезгир бўлишига имкон беради.

Бундаги мижоздаги фазилатга эга бўлган талабалар олий ўқув юртидаги ўқиш шайоитига тезда кўникаиб кета олмайди, чунки арзимаган маваффақиятсизликларни бошидан оғир кечиради. Шунинг учун бундай талабалар тўғрисида ўқитувчилар уни яхши кайфиятда бўлишини қўллаб туриши, уларнинг ютуқларини сезиши ва қайд қилиб туриши, унга бериладиган вазифани мағзини тўлиқ тушунтириш, талабалар жамоаси муҳитига фаол киришиб кетиши тўғрисида қайғуришлари керак. Шунингдек, уларнинг

Энг яхши ўртоғи ва дўсти бошқа мижоздаги талаба масалан, сангвиник (хушчакчак) мижозли талаба бўлиши керак [3].

Хулоса

Ўқитувчи ҳар бир талабага мижозларини (темпераменти) ўзига хос хусусиятига қараб тўғри тушуниб етиши, барча яхши ва ёмон томонларини тўғри баҳолаши шахснинг типологик хусусиятини диагностика асосида такомиллаштириш имконини беради.

Ўқитувчининг муҳим вазифаларидан бири шуки, у гуруҳда талабаларни психологик жиҳатдан бир-бирига мос келиши ҳақида қайғуриши керак. Агарда ўқитувчи талабаларга таълим бериш ва тарбиялашда талабаларнинг мижозларини (темперамент) фарқини ҳисобга олса, бу эса шахсни кўпроқ мақсадга йўналтирилган ҳолда жисмоний такомиллаштиришга, психологик жиҳатдан бир-бирига мос келадиган саволларни ҳал этиш, яхши сифатларни шакллантириши уларнинг фаолиятини бошқаришга ва раҳбарлик қилишига ёрдам беради.

Талабани шахсини индивидуал психологик хусусиятини тадқиқот қилиш ўқитувчи жисмоний тарбияни ўйлаб ташкил қилишда ва ижодий ўсиш ҳолатини сақлашда ҳамда фаол ишлашдаги йўналишни ишлаб чиқади.

Далиллар билан тасдиқланганки, амалий машғулотлар талабалар учун мазмунли ташкил этилган бўлиб, у жисмоний ҳолатини яхшилашга йўналтирилган бўлиб, ҳаракатнинг фаоллиги асаб тизимини тонусини оширади.

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Нормуродов А.Н. “Жисмоний тарбия” Ўқув қўлланма Т:2011
- 2.Кошбахтиев И.А. “Талаба-ёшларда соғломлаштирувчи жисмоний тарбия асослари” Т:2014
- 3.Ғозиев Э.Ғ. “Умумий психология” Т:2010

Илмий раҳбар

Мирходжаева З.С.

КЕЙС ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРҚАЛИ КАСБ-ҲУНАР КОЛЛЕЖЛАРИДА ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Рўзиева Ш. – талаба, ТИҚХММИ,

Аннотация

Мазкур мақолада кейс технологиясининг таълим самарадорлигига таъсир этувчи омилларни тадқиқ этиш масаласи ва унинг ахамияти кўриб чиқилган.

Республика ижтимоий ҳаётига кенг қўламли ва шиддатли тезликдаги ахборотлар оқими кириб келмоқда. Ахборотларни тезкор суръатда қабул қилиб олиш, уларни таҳлил этиш, қайта ишлаш, назарий жиҳатдан умумлаштириш, хулосалаш ҳамда ўқувчига етказиб беришни йўлга қўйиш таълим тизими олдида турган долзарб муаммолардан бири ҳисобланади.

Таълим-тарбия жараёнига педагогик технологияларни тадбиқ этиш юқорида қайд этилган долзарб муаммони ижобий ҳал этишга хизмат қилади. Кейс технологияси таълимни ташкил этишнинг самарадор усулларида биридир.

Кейс технологияси илк марта Гарвард университетининг ҳуқуқ мактабида 1870 йилда қўлланилган эди. 1920 йилда Гарвард бизнес-мактаби (HBS) ўқитувчилари юристларнинг ўқитиш тажрибасига таяниб, иқтисодий амалиётдаги аниқ вазиятларни таҳлил этиш ва муҳокама қилишни таълимнинг асосий усули этиб танлашганидан кейин мазкур ўқитиш услуби кенг татбиқ этила бошлади.

“Case” сўзи, лотинча “casus”- “воқеа, ҳодиса” сўздан келиб чиққандир. Бошқача айтганда, бу тушунча ҳаётда юз берадиган қандайдир воқеа ёки ҳодисани, аниқ бир вазиятнинг тафсилотини англатади. Умуман олганда, кейс – стади (аниқ бир ҳолат ёки вазият), муайян жараёнида содир бўладиган ҳақиқий воқеъликни сўзлар, рақамлар, образларда ифода этишда намоён бўлади. Бундан ташқари, бу ифода таълим соҳасида, ҳодиса ёки вазиятни тадқиқ этиш учун ишлатиладиган ахборот, стенография сифатида қўлланилади. Кейс-стади ҳодиса ёки вазиятни оддий тафсилотидан фаркли ўларок, у ўқув материални ўзлаштириш учун кўмаклашувчи ахборотни ўз ичига олади, бунга дуч келган муаммони аниқлаш ва унинг ечим йўллариини излаш орқали эришилади. Кейс-стади, муайян ўқув мақсадли билим олиш воситаси сифатида ишлаб чиқилиши зарур. Ушбу мақсадлар кенг қўламли бўлиб, ахборотлар, маълумотлар ёки тафсилотлар билан таъминланишини назарда тутаяди, улар муайян қарашлар ёки методларни намойиш этишда қўлланилиши мумкин. “Кейс-стади” атамасини ўқитиш ва тадқиқ этиш йўналишларида қўллашда турлича ёндашиш зарурлигини алоҳида қайд этиш лозим.

Мутахассислар мазкур терминни ташкилотларни жадал ўрганиш, ифодалаш ва таҳлил этиш учун ишлатадилар, унинг натижасида янги назария яратилади мавжуд назария текшириб кўрилади, янги ечимлар аниқланади

Кейс метод биринчи марта Гарвард бизнес-актабида бўлғуси адвокатларни амалий малакаларга ўргатишда ишлатила бошланган эди.

Вазиятлар мазмуни ва тафсилотини ифодалашнинг турли хил кўринишлари мавжуд. Кейс-стади бор-йўғи бир неча иборалардан тортиб, юзлаб варақлардаги ҳажмгача эга бўлиши мумкин. Йирик ҳажмдаги кейс-стадига дуч бўлган таҳсил олувчилар, одатда кейс-стадининг тафсилоти қанчалик йирик бўлса улар шунчалик мураккаб деб ҳисоблайдилар. Бу нотўғри хулосадир – чунки кўпчилик қисқа кейслар чигалроқ бўлади. Кейсни тузишда муайян вазиятни ифодалаш учун унинг ёзма шаклидан фойдаланиш шарт эмас. Вазиятларни ифодалаш учун фотография, видеофильмлар, аудиоёзувлар ёки слайдлардан фойдаланиш мумкин. Барча ушбу воситалар таҳсил олувчиларга вазиятни ҳақиқатга яқинроқ гавдалантиришга ёрдам беради. Шу билан бирга ёзма шаклдаги ахборот масалан фотография шаклидаги ахборотдан кўра қайта ишлаш ва таҳлил этиш учун қулайроқдир. Бу ҳолларда фотографияларни ёзма шаклдаги ахборот билан тўлдириш зарур. Ёзма кейсларни ўрганиш тажрибаси бўлган таҳсил олувчиларни ўқитишда мультимедиялар ахборотларидан фойдаланилган кейсларни қўллаш мақсадга мувофиқдир.

Кейс-стади технологияси – объектив реал ёки сунъий ўйлаб топилган ҳаётий муаммонинг муаммоли-вазиятли таҳлил остида ечимини излаб топишга асосланади. Кейсда ўқувчилар учун муаммоли вазиятни ечишга бағишланган йўналтирувчи материаллар тўпланган бўлади.

Муаммоли вазият – бу субъектга ўз мақсадига эришишида тўсқинлик қилувчи ноаниқ ҳолатлар мажмуидир.

Таълим жараёнида, айниқса олий таълимда “Кейс-стади” технологиясининг қўлланилиши ўқувчилар томонидан қуйидаги кўникмаларга эга бўлишларига олиб келади:

- индивидуал ва гуруҳлар таркибида фаолият олиб бориш;
- амалий вазиятларнинг таҳлилий ечимини топиш;
- кейс материалларини туза олиш;
- келажакда ўзининг педагогик фаолиятини ташкил қилишнинг самарали йўллариини излаб топиш;
- педагогик фаолиятда учрайдиган муаммоли вазиятларга мустақил қарор қабул қилиш қабилар.

Кейс-стади - таълим, ахборотлар, коммуникация ва бошқарувнинг қўйилган таълим мақсадини амалга ошириш ва кейсда баён қилинган амалий муаммоли вазиятни ҳал қилиш жараёнида прогноз қилинадиган ўқув натижаларига кафолатли етишишни воситали тарзда таъминлайдиган ва бир тартибга келтирилган оптимал усуллари хамда

воситалари мажмуидан иборат бўлган таълим технологиясидир. Шу ўринда таъкидлаб ўтиш жоизки, хорижий ривожланган мамлакатларда кейслар ўқув дастурининг 25 фоизини ташкил қилади.

Кейсда берилган муаммоли вазиятни ечиш бир неча босқичларда амалга оширилиб, дастлаб ҳар бир ўқувчи индивидуал тарзда ўз кейсининг мазмуни билан танишиб чиқади. Бунда у қуйидагиларга аҳамият бериши керак:

- кейснинг мазмуни билан танишиш;
- кейсдаги муаммоли вазиятни ўрганиб чиқиш;
- муаммони ажратиб, муаммони саволларини шакллантириш;
- вазиятни таҳлил қилишнинг методларини танлаш;
- вазиятни таҳлил қилиш;
- муаммо ечимини аниқлашнинг воситаларини аниқлаб бериш;
- таклиф қилинаётган ечимнинг тўғрилигини исботлаш.

Кейинги иккинчи босқичда ўқувчилар гуруҳлар таркибида ҳамкорлик асосида фаолият олиб бориб, қуйидагиларни бажарадилар: - кичик гуруҳларда ишлаш:

- а) гуруҳ аъзолари томонидан таклиф қилинган ечимларни таҳлил қиладилар;
- б) энг долзарб ечимлар танланади;
- в) муаммоли вазиятни ечишнинг алгоритминини ишлаб чиқилади;
- г) тақдимотга тайёргарлик қўрадилар;

- кичик гуруҳларнинг натижаларини тақдим қилиш:

- а) муаммонинг гуруҳ ечимини таклиф қилишади;
- б) танланган таққот йўналишининг тўғрилигини исботлайдилар;
- в) бошқа кичик гуруҳларнинг саволларига жавоб берадилар;

- кейс устида жамоавий тартибда иш олиб бориш:

а) ҳар бир гуруҳ томонидан таклиф қилинган ечимларни жамоа билан муҳокама қилинади;

б) таклиф қилинган ечимларнинг ўзаро баҳолайдилар;

в) муаммоли вазият учун оптимал ечимни танлайдилар.

Кейс-стади (муайян вазиятлар) индивидуумлар, шериклар, гуруҳларда, корхоналарда, ҳаттоки бутун бир мамлакат миқёсида ўзининг таълим хусусиятига кўра назарга келувчи муаммоларни ифодалаш мумкин. Кейслар таълимнинг турли соҳаларида: бизнес, бошқарув, тиббиёт, архитектура, қурилиш, ҳамда ностандарт муаммолар мажмуаси ечимини қабул қилиш малакасини талаб этадиган барча фанларда қўлланилиши мумкин.

Кейс методни қўллаш билан машқлар бажаришни фарқлай олиш керак. Машқларни бажариш юзаки тафсилоти ҳақиқий ёки уйдирма бўлган воқеани эслатиши мумкин. Аммо, машқни бажариш мақсади билан кейс-стади таққотлари турлидир. Математик кўринишдаги мисол, масала, машқлар таҳсил олувчиларни махсус концепция, техника ёки принципни қўллашни ўрганиш учун материал ҳисобланадилар. Вазият эса, таҳсил олувчиларга кенг қамровли малакаларни эгаллашга ёрдам бериш учун қўлланилади. Машқ ёки масалани бажаришда битта ечим ва бу ечимнинг битта йўли мавжуд бўлади, вазиятда эса жуда кўп ечим ва ечимнинг муқобил йўлчалари мавжуддир.

Хулоса

Хулоса шуки, бу вазиятни шундай ифодалаш мумкинки у таҳсил олувчиларга махсус аналитик методни қўллаш ёки муаммога махсус метод билан яқинлашиш имкониятини яратсин. Кейс методнинг асосий вазифаси – бу таҳсил олувчиларни таркиблаштирилмаган муаммолар мажмуасини ечишни ўргатишдан иборат, ушбу турдаги муаммоларни муайян аналитик метод ёки йўл билан ечиб бўлмаслиги аниқ. Шунинг учун, ўқитувчи таҳсил олувчи олдида аниқ вазифа қўйиши лозим: ёки масалани ечиш ёки кейс-стадини бажариш. Бунинг учун берилган топшириқ бўйича ўқитувчи таҳсил олувчининг

нуқтаи назари билан ўзиникини солиштиради ва зарурият бўлса, таҳсил олувчи тушунчасига тузатиш киритади.

Бўлажак кичик мутахассисларнинг касбий кўникмаларини шакллантиришда кейс технологиясининг аҳамияти жуда каттадир. Бу метод орқали муаммоли вазиятларни ечимини топишга ўргатилади ва ижодий тафаккур шакллантирилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. - Т.: Ўзбекистон, 1999.
2. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. - Т.: Ўзбекистон, 2000.
3. Б. Зиёмухаммедов, Ш. Абдуллаева «Илғор педагогик технология: назария ва амалиёт» «Маънавият асослари» дарси асосида ишланган услубий кўлланма Т. «Абу Али Ибн Сино» 2001 йил.
4. Н. Сайидахмедов «Янги педагогик технологиялари» «Молия» Тошкент 2003 йил.
5. Сайидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003.

Илмий раҳбар

доц. Қалқонов Э.

ЭЛЕКТР ЭНЕРГЕТИК УСКУНАЛАР ЭКСПЛУАТАЦИЯСИ ВА ТЕХНИК СЕРВИС ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Салимова Н.Н., Тўхташева Г.О. – талабалар, ТИҚХММИ

Аннотация

«Электр энергетик ускуналар эксплуатацияси ва техник сервис» фани ўқув режадаги 4 та блокдаги асосий фанлар билимидан фойдаланиб мутахассислар учун ихтисослик фанларидан бири. Уни ўрганишда дарс турларига мос педагогик технологияларининг турли методларидан фойдаланиш лозимлиги кўрсатилган.

Ушбу мақолада мамлакатимиз таълим муассасаларида «Кадрлар тайёрлаш Миллий дастур»и бўйича таълим соҳасини тубдан ислоҳ қилишда малакали ва рақобатбардош кадрлар тайёрлашда фанларни ўқитиш жараёнини тўғри ташкил қилишда педагогик технологияларидан кенг фойдаланиш, интерфаол таълим методларининг ўрни ва аҳамияти масалалари, долзарб ҳисобланади [1].

Ҳозирги вақтда таълим жараёнида ўқитишнинг замонавий методлари кенг қўлланилмоқда. Ўқитишнинг замонавий методларини қўллаш ўқитиш жараёнида юқори самарадорликка эришишга имконият беради. Бу методларни ҳар бир дарснинг дидактик вазифасидан келиб чиқиб танлаш мақсадга мувофиқ. Анъанавий дарс шаклини сақлаб қолган ҳолда уни таълим олувчилар фаолиятини фаоллаштирадиган кўп турли хил методлари билан бойитиш таълим олувчиларнинг ўзлаштириш даражаси ўсишига олиб келади.

Интерфаол таълим методлари ҳозирги вақтда энг кенг тарқалган турларидан бири, таълим муассасаларида кенг қўлланилаётган методлардан ҳисобланади. Энергетик ускуналар эксплуатацияси ва техник сервис фанини ўқитишда интерфаол методларидан фойдаланиш, дарсларни янада қизиқарли, тушунарли бўлишини таъминлайди.

Интерфаол методлар деганда – таълим олувчиларни фаоллаштирувчи ва мустақил фикрлашга ундовчи, таълим жараёнини марказда таълим олувчи бўлган методлар тушинилади. Бу методларни қўллаганимизда таълим беручи ва таълим олувчининг фаол иштирокини таъминлаймиз. Таълим олувчи бутун жараён давомида иштирок этади [2,3].


Интерфаол методларига қўйидагилар киради «Кейс-стади» (бошқа ўқув кейслари), «Блитс-сўров», «Моделлаштириш», «Ижодий иш», «Муаммоли метод» ва бошқалар.

Интерфаол таълим стратегиялари кўйидаги методлар билан тавсифланади: «Ақлий хужум», «Бумеранг», «Галерея», «Зигзаг», «Зинама-зина», «Музёра», «Ратация», «Юмолақланган қор» ва бошқа таълим методлари таркибидан интерфаол таълим стратегиялари ажратишда гуруҳ ишларини ташкил қилишга ёндашув маълум маънода стратегик ёндашув қиёсланишига асосланади. Аслида бу стратегиялар ҳам кўп жиҳатдан интерфаол таълим методларга тегишли бўлиб, уларнинг орасида катта фарқи йўқ.

Интерфаол график органайзерлар кўйидаги кўринишда фойдаланилади: «Балиқ скелети», «БББ», «Концептуал жадвал», «Венн диаграммаси», «Т-жадвал», «Инсерт», «Кластер», «Нима учун?», «Қандай?» ва бошқалар. Интерфаол график органайзерларни қўллашда дарс машғулотларида асосий фикрлар турли график шаклда ёзма кўринишда ифодаланишига асосланади [4].

«Электр энергетик ускуналар эксплуатацияси ва техник сервис» фани фан дастуриган асосан маърузасида мисол тариқасида «Электр ускуналарнинг диагностикаси» мавзуси юзасидан фойдаланилган «Балиқ скелети» органайзери 1-расмда келтирилган.

«Электр энергетик ускуналар эксплуатацияси ва техник сервис» фанидан дарсларни ўқитишда Венн диаграммасидан фойдаланиб дарсларни ўтиш талабаларга дарс тушунарли бўлишини таъминлайди. Ушбу органайзердан фойдаланиб амалий машғулот дарс тури «Электр ускуналар ишончилиги» мавзусига тузилган Венн диаграммаси 2-расмда кўрсатилган.



1-расм. ЭУЭ ва ТС фани маърузасида «ЭУ нинг диагностикаси» мавзуси юзасидан фойдаланилган Балиқ скелети органайзери.



2-расм. ЭУЭ ва ТС фани «ЭУ ишончилиги» мавзусига тузилган Венн диаграммаси.

Айрим интерфаол таълим методларининг ЭУЭ ва ТС фанини турли шакллардаги ўқув машғулоти технологиялари билан қўллаш учун қулайлиги бир мунча шартли ва аслида муайян ўқув машғулоти технологиялари билан бошқа яна кўп интерфаол методларни қўллаш зарур. Жадвалда уларнинг ўзаро боғлиқликлари келтирилган.

Жадвал. Интерфаол таълим методларининг ЭУЭ ва ТС фанида турли шакллардаги ўқув машғулоти технологиялари билан боғлиқлиги

Ўқув машғулоти технологияси	Интерфаол методлар ва таълим стратегиялари	График органайзерлар
1	2	3
Маъруза машғулоти таълим технологияси	Эркин ёзиш. Асосланган эссе ва бошқ.	Кластер, БББ чизмаси, Т-жадвал ва бошқ.
Семинар машғулоти таълим технологияси	Ақлий хужум, ФСМУ, Блиц-сўров, Блиц-ўйин ва бошқ.	Венн диаграммаси, Концептуал жадвал ва бошқ.
Мустақил таълим технологияси	Тушунчаларни аниқлаш ва бошқалар	Тоифалаш жадвали ва бошқалар
Кейс стади таълим технологияси	Тушунчалар асосида матн тузиш	Балиқ скелети ва бошқ.
Лойиҳа таълим технологияси	Чалкаштирилган мантикий занжирлар кетма-кетлиги	Нилуфар гули
Амалий машғулоти таълим технологияси	Ўқитиш бўйича қўлланма ёзма ва оғзаки давра суҳбати ва бошқ.	Инсерт жадвали, Нима учун? жадвали, Қандай? диаграммаси ва бошқ.

Интерфаол таълим методларини кўпинча турли шакллардаги ўқув машғулотлари технологиялари билан бир вақтда қўлланилмоқда. Бу методларни қўллаш машғулот иштирокчиларининг фаоллигини оширади.

Хулоса

Дарс жараёнини оқилона ташкил қилиниши таълим берувчи томонидан таълим олувчиларнинг қизиқишини орттириб талабаларни таълим жараёнида фаоллиги муттасил рағбатлантириб турилиши ўқув материали мазмунини очишда ақлий хужум, кичик гуруҳларда ишлаш, бахс-мунозара, муаммоли вазият, йўналтирувчи матн, ролли ўйинлар каби методларни қўллаш ва таълим олувчиларни амалий машқларни мустақил бажаришга ундаши талаб этилади.

Интерфаол метод бирор фаолият ёки муаммони ўзаро мулоқатда, ўзаро бахс-мунозарада фикрлаш асосида, ҳамжиҳатлик билан ҳал этишдир. Бу усулнинг афзаллиги шундаки, бутун фаолият ўқувчи талабани мустақил фикрлашга ўргатиб, мустақил фаолиятга тайёрлайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А. «Баркамол авлод орзуси». – Т.: Ўқитувчи, 1999. – 126 б.
2. Азизхўжаев Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2006. – 228 б.
3. Толипов Ж., Нурманова Н. «Таълим тарбия жараёни ЗПТ». – Т.: Педагог, 2002. – 84 б.
4. Ҳасанбоев Ж., Сарибоев Н., Усмонбоева М. «Педагогика». Ўқув қўлланма. – Т.: «Иқтисод-молия», 2006. – 340 б.

Илмий раҳбар

Юнусов Р.Ф.

ОЧИҚ ЎЗАНЛАРДА (КАНАЛЛАРДА) СУВ ОҚИМИНИНГ ТЕКИС ХАРАКАТИНИ ЎРГАНИШДА ГРАФИК ОРГАНАЙЗЕРЛАР ТЕХНИКАСИДАН Фойдаланиш методикаси

Юлдошев Ш. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада қишлоқ ва сув хўжалигида амалга оширилаётган ислохотлар янги гидротехник иншоотларни яратиш, мавжудларини такомиллаштириш, сув ресурсларидан оқилона фойдаланишни талабларни тўлиқ ўзлаштиришда мақбул йўллар билан ўқитиш усулларини ўрганишга мўлжаллангандир.

Бу вазифаларни амалга ошириш учун очик ўзанлардаги оқимнинг текис ва нотекис ҳаракати билан боғлиқ бўлган жараёнларни ўрганиш ва гидравлик элементларини ҳисоблаш заруратини вужудга келтиради. Очик ўзанлардаги сув оқимининг текис ва нотекис ҳаракатларни ўрганишга мўлжалланган ўқитиш методикалари таълим берувчи ҳамда таълим олувчиларга қулай шарт-шароитларни туғдиради.

Кириш Оқимларнинг очик ўзанлардаги, гидротехник иншоотлардаги текис ва нотекис ҳаракатини ўрганиш, бу жараёнларни математик ифодалаш ва ҳисоблаш формулаларини келтириб чиқариш анча мураккаб бўлиб, талабалардан бу мавзунини ўрганиш учун етарли даражада кўникма талаб қилади [3]. Шу мақсаддан келиб чиққан ҳолда призматик ва нопризматик ўзанларда оқим сатҳининг эгрилигини куриш ва унинг таъсир доирасини аниқлаш усуллари турли органайзерлар орқали мисолларда келтирилган.

Инсерт усулидан фойдаланиш. Инсерт усули асосан ўқув материали (матн)ни мустақил ўқиб, ўзлаштиришда қўлланилади. Унинг мазмуни, ўқиш жараёнида матннинг ҳар бир сатр боши (ёки қисми)ни аввал ўзлаштирилган билим ва тажрибалар билан таққослаш ва унинг натижасини варақнинг чап қирғоғига махсус белгилар қўйиш билан акс эттиришдан иборат.

“V”- белги, агар ўқиётганингиз, сиз у ҳақда билганингиз ёки билишингиз тўғрисидаги фикрингизга мос, яъни ўқиётганингиз сизга таниш бўлса қўйилади;

« - » - белги, агар ўқиётганингиз, сиз билганга ёки билишингиз тўғрисидаги фикрингизга зид бўлса қўйилади;

« ! » - белги, агар ўқиётганингиз, сиз учун янги ахборот бўлса қўйилади;

« ? » - белги, агар ўқиётганингиз сизга тушунарли бўлмаса ёки сиз бу ҳақда батафсилроқ маълумот олишни шохласангиз қўйилади [1].


Кластер «ахборотни ёйиш» методи. Кластерларга ажратиш педагогик стратегия бўлиб, у кўп вариантли фикрлашни ўрганилаётган тушунча (ҳодиса, воқеа)лар ўтасида алоқа ўрнатиш малакаларини ривожлантиради, бирор мавзу бўйича талабаларни эркин ва очикдан-очик фикрлашига ёрдам беради. «Кластер» сўзи инглиз тилидан олинган бўлиб ғунча, боғлам маъносини англатади. Кластерларга ажратишни даъват, англаш ва мулоҳаза қилиш босқичларидаги фикрлашни рағбатлантириш учун қўллаш мумкин. Асосан, у янги фикрларни уйғотиш, мавжуд билимларга етиб бориш стратегияси бўлиб, муайян мавзу бўйича янги фикр юритишга чорлайди [2].

Бирор мавзу бўйича кластерлар тузишни, бу мавзунини мукамал ўрганмасдан олдин фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Кластерлар тузиш кетма-кетлиги.

- 1.Синф ёзув тахтаси ўртасига катта қоғоз варағига асосий сўз ёки гапни ёзинг.
- 2.Сизни фикрингизча бу мавзуга тегишли бўлган сўзлар ёки гапларни ёзинг.
- 3.Тушунча ва ғоялар тўғрисидаги ўзаро боғланишини ўрнатиш.
- 4.Эсланган вариантларингизнинг ҳаммасини ёзинг.

Венн диаграммаси. Бу усул тушунчаларнинг икки ёки ундан ортиқ тушунчаларни ўзига хос ва умумий жиҳатларин таҳлил қилиш ва умумлаштиришда қўлланилади. Бунда ўнг ва чап айланаларга тушунчаларнинг ўзига хос жиҳатлари, доираларнинг кесишган соҳасига эса, улар учун умумий бўлган жиҳатлар ёзилади. Масалан, «Барқарор техник ҳаракат» ва «Барқарор нотекис ҳаракат» тушунчалари учун Венн диаграммаси қуйидаги кўринишга эга бўлади:



Бу Венн диаграммасини жадвал кўринишида қуйидагича ифодалаш мумкин:

КУБИК УСУЛИ. Бу усул кўрилатган масалани турли томондан, қадамба-қадам, оsonдан қийинга томон ўналишда тасаввур этиш имкониятини беради. Кубикнинг ҳар бир томони муайян топшириқни ифодалайди:

• Бу нима? Кўраётган нарсани ранги, ўлчамлари, шаклини тасаввур этинг, эсланг ва ёзма равишда таърифланг?

• Таққосланг: У нимага ўхшайди, нимадан фарқ қилади?

• Ассоциация. Таъсуротингизни изоҳланг? У сизни нима тўғрисида ўйлашга мажбур қилди? Ҳаёлингизга нима келди?

• Таҳлил қилинг. Бу нимадан ва қандай ясалган? Нималардан ташкил топган? Нимага ўхшайди ёки нимадан фарқ қилади?

• Қўлланг: Бу нимага ярайди? Уни қаерда қўллаш мумкин?

• «Ҳа» ва «Йўқ» ларни асосланг. Бунда ишончли далиллар ва асословчи фикрларни айтинг.

1 зигзаг усули. Бу - ўзаро ҳамкорликда (биргаликда) ўқиш усули бўлиб ҳисобланади. Уни ўтказиш методикаси қуйидагича:

• Матн унинг ҳажмига боғлиқ ҳолда қисмларга бўлинади. Тингловчилар (талабалар) матн қисмларига боғлиқ бўлган ҳолда 4-6 кишидан иборат микрогуруҳларга бўлинади.

• Тингловчилар ўз рақамларига мос бўлган янги (корпорацион) гуруҳларга жамланадилар. Ҳар бир гуруҳ аъзоси матннинг ўз рақамларига тегишли қисмини (1 – рақамлилар биринчи қисмини, 2- рақамлилар иккинчи қисмини ва ҳ.к.) ўқиб чиқадилар ва ўқилган қисми баён этишнинг умумий стратегиясини ишлаб чиқадилар.

• Тингловчилар ўзларининг дастлабки «кадрдон» гуруҳларига қайтадилар ва уларнинг ҳар бири ўзи ўқиган матн қисмини шундай баён қилиши керакки, гуруҳ аъзоларида матннинг тўла мазмуни бўйича яхлит тасаввур ҳосил бўлсин.

• Айрим гуруҳ аъзолари ўз фикрларини баён қилишлари мумкин.

***Билимларни фаоллаштириш учун саволлар ва вазифалар
(савол-жавоб)***

1. Оқимнинг нотекис ҳаракати билан боғлиқ жараёнларини қандай аниқланади?

2. Критик чуқурлик қандай аниқланади?

3. Критик нишабликни қандай аниқлаймиз?

4. Ўзанда нормал чуқурликка мос келадиган сув сатҳини?
қандай усул орқали аниқланади?

Машғулотларда тинчлик сақлансин. Ўзаро муносабатда мулоим бўлинг. Ўзгача (ўта ноёб) фикрланг. Фаол иштирок этинг. «қўл кўтариш» қоидасига амал қилинг. Фикрингизни қисқа баён қилинг (вақтни кадрланг). Бошқаларни ҳам тинглашга ўрганинг, уларнинг сўзини бўлманг. Танқидингиз беғараз ва асосли бўлсин. Фақат мавзуга оид фикрларни баён қилинг.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Исмаилова З.К. Педагогика (дарслик). Т.: “Молия”, 2008.

2.Ходжабоев А.Р. Касб таълими методологияси. – Т.: ЎМКХТТКМО ва УҚТИ, 2009

3.А.Арифжанов, Қ.Рахимов, А.Ходжиев. Гидравлика фанидан ўқув қўлланма. – ТИМИ. 2015.-383б.

Илмий раҳбар

PhD. Рахимов Қ.

МУАММОЛИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Абдурахимова М.О., - магистрант, ТИҚХММИ, Эшонқулов Э.Б. – магистрант,
ТошТЙМИ

Аннотация

Маколада юкори салоҳиятли кадрлар тайёрлашда ва замонавий таълим жараёнини ташкил этишда муаммоли таълим технологияларидан фойдаланиш ва муаммоли вазиятларни юзага келиш омиллари ўрганиб чиқилган.

Мамлакатимизда таълим самарадорлигини ошириш, шахснинг таълим марказида бўлишини ва ёшларнинг мустақил билим олишларини таъминлаш мақсадида таълим муассасаларига яхши тайёргарлик кўрган ва ўз соҳасидаги билимларни мустаҳкам эгаллашдан ташқари замонавий педагогик технологияларни ва интерфаол усулларни биладиган, улардан ўқув ва тарбиявий машғулотларни ташкил этишда фойдаланиш қоидаларини биладиган мутахассислар керак. Бунинг учун барча фан педагогларини янги педагогик технологиялар ва интерфаол усуллар билан қуроллантириш ва эгаллаган билимларини ўқув–тарбиявий машғулотларда қўллаш малакаларини узлуксиз ошириб боришлари лозим.

Замонавий таълимни ташкил этишга қўйиладиган муҳим талаблардан бири ортикча руҳий ва жисмоний куч сарфламасдан, қисқа вақт ичида юксак натижаларга эришишдир. Қисқа вақт ичида муайян назарий билимларни талабаларга етказиб бериш, уларда маълум фаолият юзасидан кўникма ва малакаларни ҳосил қилиш. Улар томонидан эгалланган билим, кўникма ва малакалар даражасини баҳолаш ўқитувчидан юксак педагогик маҳорат талаб этади. Бу муҳим вазифани амалга ошириш олий таълим муассасаларида ўқитишнинг анъанавий методларини илғор педагогик технологиялар билан қўшиб олиб боришни тақазо этади.

Ўзбекистонда Кадрлар тайёрлашнинг Миллий дастурида таълим-тарбияни тубдан ислоҳ қилиш илғор педагогик технологияларни жорий этиш, шунингдек “Таълим беришнинг илғор педагогик технологияларини, замонавий ўқув-услубий мажмуалари яратиш ва ўқув-тарбия жараёнини дидактик жиҳатдан таъминлаш”га боғлиқлиги кўрсатилади [1]. Шахсни шакллантиришга нафақат таълим мазмуни, балки қўлланилаётган ўқитиш технологиялари ҳам муҳим рол ўйнайди. Ўқув жараёни ўқиш ва билиш фаолиятига ўзгартиришнинг имкониятларидан бири муаммоли ўқитиш технологиясини татбиқ этишдан иборат. Чунки муаммоли ўқитиш жараёнида ўқитувчилар ҳам, тингловчилар ҳам ўзларининг интеллектуал, жисмоний, маънавий имкониятларини ўқув ва амалий муаммоларни ечиш учун доим синовдан ўтказадилар. Бу жараёнда ҳосил бўлган кўникма ва малакалар ахборот жамияти шароитларида яшаш учун зарур сифатларни шакллантиришга олиб келади. Инсон тафаккури муаммоли вазиятларни яратиш, муаммони қўйиш ва уни ечишдек ноёб қобилиятга эга бўлганлиги сабабли инсоният томонидан илмий-техникавий кашфиётлар амалга оширилган. Педагогик тафаккурни ўқув жараёнида муаммоларни ечишга йўналтириш, яъни таълим жараёнига муаммоли ўқитишни жорий этиш тингловчиларига тайёр билимларни ўзлаштиришдан аста-секин мустақил фаолиятга ўтиш имкониятини беради.

Замонавий таълим жараёнини ташкил этишда муаммоли таълим технологияларидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Ушбу технологиянинг мақсади талабаларга ўқув фанининг мавзусидан келиб чиққан турли муаммоли масала вазиятларнинг ечимини тўғри топишларига ўргатиш, уларда муаммо моҳиятини аниқлаш бўйича малакаларни шакллантириш, муаммолар ечишнинг баъзи усуллари билан таништириш ва услубларни тўғри танлашга ўргатиш, муаммони келиб чиқиш

сабабларини, муаммони ечишдаги хатти-харакатларни тўғри аниқлашга ўргатишдан иборат.

Муаммоли таълим технологияси жуда қадим замонлардан буён шаклланиб келмоқда. Жумладан, қадимги Грецияда муаммоли савол-жавоблар, қадимги Хиндистон ва Хитойда муаммоли бахс-мунозаралардан кенг фойдаланилган. Муаммоли таълимни америкалик психолог, файласуф ва педагог ДЖ.Дьюи 1894 йилда Чикагода ташкил этган тажриба мактабида қўллаган. XX асрнинг 60-йилларида бу йўналишда тадқиқотлар олиб борилди. 70-80-йилларга келиб, амалиётга кенг жорий этилди. Муаммоли таълимнинг асосий ғояси билимларни ўқувчиларга тайёр ҳолда бериш эмас, балки улар томонидан дарс мавзусига тегишли муаммолар бўйича ўқув-тадқиқотларини бажариш асосида ўзлаштирилишини таъминлашдан иборат [2].

Муаммоли таълим талабаларнинг фикрлаш жараёнини ишга солиб, уларнинг мавҳум тафаккури, аналитик-синтетик фаолиятига ижобий таъсир кўрсатади, чунки, бу технология талабадан муаммо асосида баён этилган материалнинг ечимини топишни тақазо қилади. Педагоглар материални тайёр ҳолда эмас, балки ўзлари учун янги фактлар ва ҳодисаларни уларга маълум бўлган билимларга таяниб таққослаш йўли билан тушунтириб боришлари керак. Ўқув жараёнида талабалар тафаккурининг юксак фаоллигига эришиб, уларнинг мустақиллигини аста-секин ўстириб бориш йўли билан ўтади. Муаммоли вазият қуйидаги ҳолларда вужудга келади:

✓ талабаларнинг билимлари билан улар янги вазифаларни ҳал қилаётганларида уларга қўйиладиган талаблар ўртасида номувофиқлик сезилиб қолган пайтда муаммоли вазиятлар пайдо бўлади. Талаба ўз билимининг етарли даражада чуқур эмаслигига ёки ниҳоятда юзаки эканлигига ишонч ҳосил қилганида унда янги назарий ва амалий билимлар ҳамда кўникмалар ҳосил қилишга, улардан фойдаланиб усулларини ўрганиб олишга эҳтиёж туғилади;

✓ талаба ўз билимлари системасидан фойдаланганда вазифани тўғри ҳал қилиш имконини бера оладиган бирдан-бир зарур билимларни танлаб олишни билмай қолган вақтда муаммоли вазият пайдо бўлади. Агар вазифани тўлиқ бўлмаган маълумотлар билан ҳал этиш талабани мустақил билим олиш йўлига солса, талаба олдида ортиқча маълумотлар билан ҳал этиладиган вазифалар қўйиш – талабани билимларни танлаш ва баҳолашга мажбур этади, яъни унинг мустақил изланиш фаолиятини фаоллаштиради;

✓ талаба ўз билимларидан фойдаланишнинг янги амалий шарт – шароитларига дуч келиб қолганда муаммоли вазият вужудга келади ва бу ўз билимларини амалда қўллаш йўллари излашдан иборат бўлади;

✓ вазифани ҳал этишнинг назарий йўли билан танланган усулнинг амалиётда амалга ошириб бўлмаслиги ўртасида, шунингдек вазифани ҳал этишнинг амалда эришилган натижаси билан назарий жиҳатдан асосланганлиги ўртасида зиддият юзага келганда муаммоли вазият пайдо бўлади.

Ўзбекистонлик педагог-ўқитувчилар муаммоли вазиятларни ўқув жараёнида тадбиқ этиш ва уларни таҳлил этиш жараёнида муаммони ҳал этиш мақсадида уларни бир неча босқичларга ажратишган. Улар қуйидаги 3 та босқичга ажратишган:

✓ исботлаш – бу муаммони илгари тўғри деб тан олинган сабаблар билан боғлиқликларини топиш асосида амалга оширилади;

✓ текшириш – бундан танланган сабабнинг оқибатида ҳал этилаётган муаммо ҳосил бўлиши тўғрилини асослаш билан амалга оширилади;

✓ тушунтириш – бу муаммонинг ечими нима учун тўғрилигини тасдиқловчи сабабларни аниқлаш асосида амалга оширилади [3].

Муаммоли таълим технолологияларни ўқув жараёнида қўллаш педагог қўйган ва талабалар қабул қилган муаммоларни ҳал этиш муаммоли вазиятни таҳлил қилишдан, ундаги қарама-қаршилиқларни тушуниб олишдан ва ҳал этилиши талаб қилинаётган аниқ назарий ва амалий масалани аста-секин ифодалаб беришдан бошланган бўлса, натижада ҳар бир талаба бир қанча шундай саволларга дуч келиб қоладики, бу саволлар ундан

гипотезалар қилишни, уларни асослаб бериш, текшириш ҳамда олинган натижаларни баҳолашни талаб этади. Муаммони ҳал қилиш йўлини топиш учун шунчаки кўшимча фактлар тўплашнинг ўзи етарли бўлмайди. У ўқувчиларнинг ўз тажриба ва билимларини қайта ишлаб, қўллашга қаратилган шахсий фикрлаш қобилиятлари билан бевосита боғлиқдир. Муаммоли вазиятларни ўқув жараёнининг барча босқичларида амалга ошириш мумкин. Жумладан, янги мавзу баёнида, ўтилган мавзуни мустақкамлаш жараёнида ва албатта билимларни назорат қилишда ҳам муваффақиятли равишда фойдаланиш мумкин.

Хулоса

Талабалар муаммони ҳал этиш жараёнида ўзлари учун янги муҳит очадилар, яъни жавобларни мустақил қидириш уларни билим олишга бўлган қизиқиш ва эҳтиёжларини қондиришга ва ўстиришга олиб келади. Шу сабабли олий таълим муассасаларида талабаларга таълим бериб келинаётган мутахассислик фанларини олиб бориш жараёнида ҳар бир мавзу юзасидан муаммоли таълим технологияларини қўллаш юқори салоҳиятли кадрлар тайёрлашга замин яратибгина қолмай, уларни келажакда ўз фикр ва мулоҳазаларини мустақил равишда баён этишларига катта омил бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Кадрлар тайёрлаш миллий дастури (ЎЗР 29.08.1997 й. 463-І-ссон Қонуни билан тасдиқланган)
2. Йўлдошев Ж.Г., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари.-Т, 2001.
3. Аманов Р.Ў., Бойназаров Б.Р. Ўқув машғулотларида муаммоли таълим технологияларини ташкил этиш ва бошқариш, муаммоли таълим услублари. “Аграр соҳани барқарор ривожлантиришда фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграцияси” мавзусидаги профессор-ўқитувчилар ва ёш олимларнинг I илмий-амалий конференция материаллари тўплами. Тошкент, 2017

Илмий раҳбар

доц. Хошимова М.

ЎҚИТИШНИНГ МОДУЛ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН Фойдаланишнинг Афзалликлари

Миразамов Д. А. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Мақолада инновацион таълим технологияларини қўллаш, ўқитиш амалиётида қўлланилаётган илғор педагогик технологиялар ва таълим инновацияларидан бири модул таълим технологияси бўлиб, таълим жараёнининг самарадорлигини таъминлашда унинг қатор афзалликларга эгаллигини бугунги кунда республикамизнинг қатор олий таълим муассасаларида кенг жорий қилинаётганлиги ҳақида батафсил баён этилган.

Бугунги кунда инновацион таълим технологияларини қўллаш асосида ўқитиш самарадорлигини оширишнинг назарий асосларини ўрганиш ва уларни амалиётга тадбиқ этиш энг долзарб вазифалардан бири бўлиб ҳисобланади, шунинг учун ҳам бу масала таълимда асосий муаммо бўлиб қолмоқдаки, анъанавий ўқитиш турлари ўз фаоллигини бироз йўқотди, куруқ сўзлар ёрдамида ўқитиш яхши натижа бермай қолди. Бунинг ўрнига "Ахборотли ўқитиш", инновацион технологияларни таълим-тарбия жараёнида қўллаш кўпроқ самара бермоқда. Бундан ташқари илм-фан, техника таракқиёти жуда тез ривожланиши натижасида ахборотларни кескин ошиб бориши, улардан таълим-тарбия жараёнида фойдаланиш ҳозирги давр ўқитувчисидан илмий салоҳият, малака ва юқори даражада педагогик маҳоратни талаб қилмоқда.

Модулли таълим – ўқитишнинг истиқболли тизимларидан бири ҳисобланади, чунки у одам бош миясининг ўзлаштириш тизимга энг яхши мослашгандир. Модулли ўқитиш асоси инсон бош мияси тўқималарининг модулли ташкил этилганига таянади. У куйидагилардан таркиб топган бўлади(1-чизма).

Модулли-рейтинг таълим жараёнида талабаларнинг мустақил иши учун шарт-шароитлар таъминланади, уларни фаоллаштиришда ўзларининг ўқув фаолияти жараёни ва натижалари ортида рефлексив назорат амалга оширилади, таълимнинг ички ва ташқи мақсадларига эриши кафолатланади.

Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг ўқув-билиш компетентлигини такомиллаштириш модулли-рейтинг таълим таълим сифатини оширишга қаратилган таълим тизимининг яхлитлигини мақсадли ишлатилишини таъминлайди, унинг асосий элементларидан бири рейтингни назорат қилиш ва талабаларнинг эришган ютуқларини баҳолаш тизими ҳисобланади.

Замонавий шароитда Ўзбекистон Республикасининг узлуксиз таълим тизимида ривожланган хорижий мамлакатларнинг ўқитиш амалиётида қўлланилаётган илғор педагогик технологиялар ва таълим инновацияларидан фойдаланилмоқда. Улардан бири модул таълим технологияси бўлиб, таълим жараёнининг самарадорлигини таъминлашда унинг қатор афзалликларга эгаллигини бугунги кунда бу таълим технологиясининг республикамизнинг қатор олий таълим муассасаларида кенг жорий қилинаётганлигидан ҳам билса бўлади.

Модулли ўқитиш – ўқитишнинг истиқболли тизимларидан бири ҳисобланади, чунки у таълим олувчиларнинг билиш имкониятлари ва ижодий қобилиятларини ривожлантиришга хизмат қилади. Ўқитишнинг модул тизими мазмунидан унинг куйидаги афзалликлари аниқланди:

- фанлар ва фанлар ичидаги модуллар орасидаги ўқитиш узлуксизлигини таъминланиши;
- ҳар бир модул ичида ва улар орасида ўқув жараёнини барча турларининг методик жиҳатдан асосланган мувофиқлигини ўрнатилиши;
- фаннинг модулли тузилиш таркибининг мосланувчанлиги;
- талабалар ўзлаштириши мунтазам ва самарали назорат (ҳар қайси модулдан сўнг) қилиниши;
- талабаларнинг зудлик билан қобилиятига кўра табақаланиши (дастлабки модуллардан сўнг ўқитувчи айрим талабаларга фанни индивидуллаштиришни тавсия этиши мумкин);
- ахборотни - сиқиб бериш натижасида ўқитишни жадаллаштириш аудитория соатларидан самарали фойдаланиш ва ўқув вақти таркибини маърузавий амалий (тажрибавий) машғулотлар индивидуал ва мустақил ишлар учун ажратилган соатларни - оптималлаштириш.



Анъанавий таълимда ўқув мақсадлари педагог фаолияти орқали ифодаланган, яъни, билим беришга йўналтирилган бўлса, модулли ўқитишда таълим олувчилар фаолияти орқали ифодаланиб, касбий фаолиятга йўналтирилган бўлади.

Замонавий педагогик технологияларнинг модуллари қуйидаги даражаларга ажратилиши мумкин:


1. Бир ўқув машғулоти ўтказиш технологиясини ташкил қилувчи модуллар.
2. Ўқув фанининг бир мавзусини, бир бўлимини, бир қисмини ёки ҳаммасининг таркибий бўлақларини ҳамда ўқитиш технологиясини ташкил қилувчи модуллар. Уларни блоклар деб ҳам номланади.
3. Бир нечта турдош ўқув фанларининг таркибий бўлақларини ҳамда ўқитиш технологиясини ташкил қилувчи модуллар (блоклар).
4. Давлат таълим стандартининг таркибий бўлақларини ҳамда уларнинг бажарилишини таъминлаш технологияларини ташкил қилувчи модуллар.
5. Ўқув режа ва дастурларининг таркибий бўлақларини ҳамда уларнинг бажарилишини таъминлаш технологиясини ташкил қилувчи модуллар.
6. Таълим воситаларини ташкил қилувчи модуллар.
7. Замонавий педагогик технологиялар жараёнида қўлланиладиган усулларни ташкил қилувчи модуллар.

Қуйидаги 2-чизмада модулли ўқитиш технологиясининг анъанавий ўқитишдан фарқли хусусиятлари келтирилади.

Ушбу модуллар орасида бир ўқув машғулоти ўтказиш технологиясини ташкил қилувчи модуллар замонавий педагогик технологиялар жараёнининг асосий бўғинини ташкил қилиши билан ҳам аҳамиятли ҳисобланади. Улар қуйидаги турларга ажратилади:

- машғулот мазмунини ташкил қилувчи асосий тушунчалар;
- шу тушунчаларни ўқув-талабаларга тушунтириш жараёнининг таркибий қисмлари;
- шу таркибий қисмларнинг ҳар бирида қўлланиладиган таълим-тарбия воситалари ва усуллари;
- ўқитувчининг машғулот давомида бажарадиган фаолиятини ташкил қилувчи модуллар;
- ўқитувчиларнинг машғулот бошидан охиригача бўлган вақт давомида бажарадиган фаолиятларини ташкил қилувчи модуллар;
- ўқувчи-талабаларнинг ўзлаштиришини назорат қилиш ишларини ташкил қилувчи модуллар ва шу кабилар.

2-чизма.



Хулоса

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, замонавий педагогик технологиялар жараёнидаги модуллар таълим мазмуни, воситалари ва усулларининг ҳар бирига тегишли таркибий элементларни ташкил қилади. Бунда таълим мазмуни модуллари – ўргатилаётган ахборотнинг таркибини ташкил қилувчи бирликларни; таълим воситалари модуллари – шу воситаларининг бирликларини; таълим усуллари модуллари – шу усулларни амалга ошириш фаолияти давомида бажариладиган ҳаракатларни ташкил қилувчи бирликларни ифодалайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ишмухаммедов Р. “Тарбияда инновацион технологиялар”. Тошкент: “Фан”, 2010 й. 120 б.
2. Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С. “Илғор педагогик технологиялар”. Т.: “Ўқитувчи”, 2004 й. 105б.
3. Йўлдошев Ж, Хасанов С. “Педагогик технологиялар”. Т.: «Иқтисод-молия», 2009 й.
4. Исмаилова З.К. “Тарбиявий иш методикаси”. Тошкент: “Фан”, 2003 й. 153

Илмий раҳбар

п.ф.д., проф. Исмаилова З.К.

КАСБИЙ ФАОЛИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ШАХС ИҚТИДОРИ

Тўйчиев З.С., Махмуров Д.М. - талабалар, ТИҚХММИ

Аннотация

Мақолада шахс тизимида унинг қобилиятлари муҳим ўрин тутиши, ишлаб чиқариш жараёнида ҳам одамдан талаб қилинадиган нарса ҳам унинг ишга қодирлиги, лаёқати ва ишни яхши уддалашга имкон берувчи касбий хусусиятлар эканлиги масалалари, ишчи ёки ходимнинг ишга яроқлилиги меҳнатнинг унумдорлиги ва маҳсулотнинг сифатини белгиловчи асосий мезонлардан бири бўлса, касбий маҳорат унинг истеъмол қийматини белгиловчи янада аҳамиятли асослардан ҳисобланиши, шахсдаги табиий иқтидорнинг тўла ва мукамал намаён бўлишининг энг асосий ва бирламчи шартларидан бири - унинг ўз иқтидорини ва лаёқати йўналишини ёшлигидан аниқлай олиши ва тарбиялаб боришига хос мазмундаги масалалар ёритилган.

Мақсад: Шахснинг касбий маҳорат ва касбий фаолиятини шакллантириш, шахснинг меҳнат фаолияти жараёнида бажарган ишининг маҳсулига қараб бериладиган энг асосий тафсилот - унинг ишига қай даражада ижодий ёндаша олишига боғлиқлик масалаларини англай олишига хос бўлган билимлар билан қуроллантириш.

Мамлакатимиз раҳбари ҳар бир чиқишларида Ўзбекистонда рўй бераётган иқтисодий-ижтимоий, маънавий сиёсий ислохатлар ва уларни янада чуқурлаштириш борасида сўзлаб, бу ўринда ёш авлод, бўлғуси мутахассис кадрлар, улар салоҳияти ва жамият тараққиётида тутган ўрнига алоҳида диққатни қаратдилар. “Биз, - деб таъкидладилар йўлбошчимиз - мамлакатимизнинг истиқболи ёш авлодимиз қандай тарбия топишга, қандай маънавий фазилатлар эгаси бўлиб вояга етишга, фарзандларимизнинг ҳаётга нечоғли фаол муносабатда бўлишга, қандай олий мақсадларга хизмат қилишига боғлиқ эканлигини ҳамиша ёдда тутишимиз керак”. Юксак малакали кадрлар Ватан тараққиётининг пойдевори, ривожланишимиз кафолати эканлиги ғояси ҳам Президентимизнинг ҳар бир чиқишларида ўз аксини топди [1].

Иқтисодий муносабатлар-соф маънода инсонлараро муносабатлар бўлиб, унда инсон шахси марказий фигурадир. У бир вақтда ушбу муносабатларнинг ҳам объекти, ҳам субъектдир, зеро, ишлаб чиқаришнинг асл мақсади (предмети ҳамда мотиви) ҳисобланган меҳнат бир томондан одамнинг эҳтиёжлари, ички мотивацияси амалга оширувчи, ҳамда унинг

маҳсулларини ўзлаштируви ҳам айнан унинг ўзидир. Шунинг учун ҳам шахснинг ушбу тизимдаги асл моҳиятини билиши, унинг фаоллигини таъминловчи шарт-шароитларни ярата олиш ва меҳнати маҳсулини башорат қилиш тадбиркорлик ва ишлаб чиқаришдаги самаранинг бош омили ҳисобланади.

Шахс тизимида унинг қобилиятлари муҳим ўрин тутади. Ишлаб чиқариш жараёнида ҳам одамдан талаб қилинадиган нарса ҳам унинг ишга қодирлиги, лаёқати ва ишни яхши уддалашга имкон берувчи профессионал хусусиятларидир. Чунки профессионал маҳорат энг аввало қай турда бўлмасин маҳсулотнинг, умуман фаолият натижаларининг сифатини белгиловчи муҳим ижтимоий-психологик омилдир.

Агар ишчи ёки ходимнинг ишга яроқлилиги юқорида таъкидлаганимиздек, меҳнатнинг унумдорлиги ва маҳсулотнинг сифатини белгиловчи асосий мезонлардан бўлса, профессионал маҳорат унинг истеъмол қийматини белгиловчи янада аҳамиятли асослардан ҳисобланади. Бу иккала тушунчалар ўзаро боғлиқ бўлиб, бири иккинчиси учун замин вазифасини ўтайди.

Энг аввало касбий маҳорат тушунчаси шахсдаги у ёки бу турдаги меҳнат фаолиятига ундаги имкониятларнинг қай тарзда объектив шарт-шароитлар билан мос келганлигини билдирувчи мезондир. Демак, одам ўз маҳоратини кўрсата олиши, жамият томонидан тан олиниши учун бир томондан, унда шу фаолият турига туғма лаёқат бўлиши керак ҳамда ўз устида муттасил ишлаб келаётганлиги оқибатида ривожланган иқтидори сабаб бўлса, иккинчи томондан, ана шу лаёқатни намаён қилиш учун мақбул шарт-шароитлар ҳам керак бўлар экан [2].

Шахсдаги табиий иқтидорнинг тўла ва мукамал намаён бўлишининг энг асосий ва бирламчи шартларидан бири - унинг ўз иқтидорини ва лаёқати йўналишини ёшлигидан аниқлай олиши ва тарбиялаб бориши, яъни лаёқат кўрсаткичларини илк ёшлиқданок илғай олишидир. Чунки кейинги қадам ана шу лаёқат хусусиятига мос тарзда уни касбга йўналтириш бўлади. Кўпгина корхоналардаги меҳнат қилаётган одамларнинг ўзи машғул бўлган касбдан “совиб қолиши” ёки ўша ердаги кадрлар қўнимсизлигининг сабабларидан энг асосийси ҳам касбга йўналтиришда йўл қўйилган хатоликлардир. Чунки ўсмирлик давридан бошлаб бола кўплаб фаолият турларига иштиёқ, қизиқиш намоён эта бошлайди. Бунда оила муҳити, ўзи яшаётган ҳудуд учун салмоғлироқ касб корликнинг таъсири кучли бўлади. Лекин айрим ҳолда бола ўзидаги асл, яширин лаёқатни ажрата олмаслиги, шерикларига қизиғиб, ёки ўзи яхши тасаввур қила олмаган касбга “меҳр қўйиши” мумкин. Оқибатда у вақт ва маблағ сарфлаб, ё шогирдликка ёнланади ёки бирор ўқув даргоҳига ўқишга киради. Шу сабабли ҳам касбий маҳоратнинг бўлишида шахснинг ўз вақтида ва касбга тўғри йўналтирилганлиги катта роль ўйнайди. Бунда касбнинг барча нозик ва мураккаб томонлари ҳақида тўлиб маълумотга эга бўлиши катта аҳамият касб этади. Чунки кейинги қийинчилик ҳақидаги тасаввурлар шахс қалбига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Бозор иқтисодиёти шароитида жамият доимо ўз касбининг устаси, моҳир, маҳоратли касб эгаларига эҳтиёж сезади ва айнан шундайларгина ҳар томонлама раҳбатлантиради. Малака ва кўникмалари талабга жавоб бермайдиганлар, афсуски, ишсизлар армиясини тўлдириб боради ёки тасоддий дуч келган ишлар билан шуғулланаверади. Шунинг учун Ўзбекистонда бозор муносабатларига босқичма-босқич ўтиш шароитида малакали кадрлар тайёрлаш ишини ўрта мактаблардаёқ мақсадли амалга ошириш, бунда боланинг табиий зехни, лаёқати, қизиқишлари ва имкониятларини тўла аниқлаш - диагностика қилиш ўта долзарб масалага айланади. Диагностика натижаларига кўра мактаб оила билан ҳамкорликда болани ё касб-хунар коллежининг мос турига ёки академик лицейларга йўлланма бериши керак. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисидаги” қонуни, Кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг асл моҳияти ҳам айнан шу ишни ўз вақтида юқори савияда ўтказишни тақозо этади. Касбий таълим эса жамият, ишлаб чиқариш талаб эҳтиёжларидан келиб чиқиши ва бунда ўша ҳудуднинг ўзига хос имкониятларини ҳисобга олиниши зарур [3].

Демак, касбий маҳорат ва уни ривожлантириш масаласи бевосита шахснинг муттасил ўз устида ишлаши, тафаккуридаги барча имкониятларни ишлаб чиқариш такомиллашуви билан боғлай олиши қобилияти билан боғлиқ. Меҳнатга бўлган муносабат бугунги кунда энг аввало

билимлар салоҳияти, тафаккурининг ўткирлиги, ижодий қобилиятнинг мавжудлигига алоқадор бўлиб бормоқда. Шунинг учун ҳам ҳозирги кунда халқ хўжалигининг барча соҳаларида ҳам истеъдодли, ўзига хос мантиқан фикрловчи инсонларга эҳтиёж ортиб бормоқда. Бугунги иқтисодни ривожлантириш учун қайси тоифали шахслар керак, умуман, касбий маҳорат тушунчаси қайси бир тоифали одамларга хос? Шунини алоҳида таъкидлаш керакки, репродуктив қобилият эгалари берилган барча топшириқларни, иш – фаолият билан боғлиқ барча билим ва топшириқларни моҳирлик билан эслаб қолиб, уни ўрни қолганда, қайтара оладиганлар бўлса, ижодий қобилият соҳиблари ҳар бир ходиса ёки воқеа, иқтисодий жараённинг сабаб ва моҳияти хусусияти борасида ўз ижодий муносабатини билдира оладиган, тафаккур озод, мантиқан фикр эгаларидир. Бу ўринда яна бир нарсани ҳисобга олиш зарурки, ўзбек менталитети, яъни фикрлаш услуби, миллий урф-одатларимиз, муносабатлардиги анъаналарда катталар фикрига қарши бормаслик, раҳбарнинг мутлоқ ҳақлиги, унинг фикрини қўллаб-қувватлаш фикри ҳам мавжудки, бу ҳам кўп ҳолатларда, айниқса, ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, қайта қуриш жараёнларига одамлардаги инертлик сабабларидан ҳисобланади. Хўш, шундай шароитда янгича тафаккур, инновацияларни ишлаб чиқаришга олиб киришда қайси тамойиллар устивор бўлиши керак?

Ҳап, шундаки, иқтисодий жараёнлар, ўзгаришларни ўз вақтида тўғри идрок қилиш турли одатланиб қолинган нарсалардан кечишни, ёрқин, ассоциатив фикрлаш орқали нарсани ва ҳодисаларнинг моҳияти теран англаб етиш, дадил ҳаракат қилишни талаб қилади.

Психологик нуқтаи назардан янгича иқтисодий муносабатлар жараёни ҳам мантиқий, ҳам эвристик, ижодий фикрлашни тақозо этади. Чунки мантиқий тафаккур иқтисодий жараёнлари натижаларини таҳлил қилиш орқали унинг моҳиятини тушунишга имкон берса, эвристик тафаккур ўша жараён билан гўёки тўлиқ идентификация бўлиш орқали ўша жарённинг ички механизмларини, ҳар бир ижтимоий-иқтисодий ҳодисанинг туб сабабини аниқлашга ёрдам беради. Ижодий, ностандарт фикрлар шунга олиб келадикки, корхона ташвиши, дарди билан “оғриганлар”га рўй бераётган жараёнларни интуитив йўл билан идрок қилиш орқали уларнинг янгидан-янги қирраларини англаш, башорат қила олиш ва фойдага алоқадор барча иқтисодий стимулларнинг таъсирини таҳлил қилишга ёрдам беради. Демак, тараққиёт учун иккала тоифа ҳам керак ва бу одамларнинг ишлаб чиқариш билимдонлиги ва касб маҳоратининг ижтимоий-психологик шарт-шароитлари тўғрисида ҳап кетадиган бўлса, бунда инсоннинг ҳаёти мабойнида шаклландиган шахсий фазилатлари орасида ушбу асосийларни келтириш мумкин:

-қатъийят-шижоат, бу одамнинг ўз мақсадлари йўлида ярим йўлда қолиб кетмай, ишонч билан ҳаракат қилишнинг иродавий заминидир;

-фирқлашдаги журъат - ўз ҳамкорларига нисбатан ўзгача фикрлашдан чўчимаслик, ўз фикрларининг афзаллигини исботлаш, уни амалиётга тадбиқ этишдан қўрқмаслик учун зарур бўлган сифат;

-жасорат - кўпчилик эътиқодини енгиш ва керак бўлганда, оқимга қарши бора олиш учун керак бўладиган фазилат;

-ички интизом - ўз профессионал ривожини йўлида ўзининг барча имкониятларини фидоийларча сафарбар эта олиш қобилияти;

-маданият - одамлар ўртасида обрў-эътибор қозониш, ўз тараққияти савиясида қолиб кетмаслик, муоммоларнинг энг ўринли қоидаларини ўзлаштириш ва ўз шахси ҳамда ўзгалар бир хил ҳурмат қила олиш қобилияти;

-мутахассисликни эгаллаганлиги тўғрисидаги диплом ёки расмий сертификат эгаси ҳар бир мутахассис ишлаб чиқариш муҳитига тезроқ мослашиш ва ўз шахсий салоҳиятини ўқтириш учун қуйидаги йўللardan бориши мақсадга мувофиқ:

-ўз меҳнат фаолиятига алоқадор бўлган бирор нарсага ҳам лоқайд, эътиборсиз бўлмаслик яъни, синчков таҳлил қила олишга ўрганиш;

-ишлаб чиқаришга алоқадор айрим, аниқ мисол ёки ходиса ортида яхлит, умумий нарсани, муаммони кўра билиш ва уни ўз фаолияти натижасига боғлай олиш;

-масала ёки аниқ операциянинг асл моҳияти етиб бора олиш ва унинг бошқа йирик масалалар ва муаммолар, ходисалар билан боғлиқ томонларини кўра олиш;

-иш жараёнида “Нима учун?”, “Нега?” деган саволлардан қочмаслик, уларга жавобни ўзидан ва қолаверса, ҳамкасбларидан сўрашдан ийманмаслик;

-агар янги фикр пайдо бўлса, унинг қандай ва нима учун пайдо бўлганини таҳлил қилиш, тушунишга интилиш.

-ўз фаолиятини қандайдир янги, такомиллашган элементлар билан бойитиб боришга доимо интилиш, бунда касбдошлар тажрибаси, илми, иқтисодий билимлар манбаларидаги маълумотлардан эринмай фойдаланиш, уларни тўплаш.эришилган даражадан ҳеч қачон қониқмаслик, янги муаммо ва вазифаларни бажаришдан ўзини тиймаслик [4].

Хулоса

Хулоса қилиб, касбий маҳорат ва касбий фаолиятни шакллантиш шахснинг меҳнат фаолияти жараёнида бажарган ишининг маҳсулига қараб бериладиган энг асосий тафсилот - унинг ишига қай даражада ижодий ёндаша олишига боғлиқ бўлиши керак. Аммо ҳар қандай янгилик, ёки ижодий фикрлаш маҳсулини тўғридан-тўғри ишлаб чиқаришга жорий қилиб бўлмайди. Демак, мутахассис жамият манфаатига монанд маҳсулот ишлаб чиқаришга алоқадор қимматли фикр ва ғояларнинг астойдил, охиригача ҳимоя қилиши керак..

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Педагогик маҳорат ва педагогик технологиялар / Маърузалар матни. Туз.: А.Х.Қосимов, Ф.А.Ҳолиқова. – Т.: ТАТУ, 2004.133 б.
- 2.Сайидахмедов Н. Педагогик маҳорат ва педагогик технология. – Т.: ОПИ, 2003.-125 б.
- 3.Султонова Г.А. Педагогик маҳорат. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2005.-66 б.
- 4.Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши / Мет.қўл. Д.Рўзиева, М.Усмонбоева, З.Ҳолиқова. – Т.: Низомий номи ТДПУ, 2013.-98 б.

Илмий раҳбар

п.ф.д., проф. Исмаилова З.К.

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ ВОДНОГО ХОЗЯЙСТВА

Широв Ф.Ф., - студент, ТУИТ. Киличева Ф.Б - доц, ТИИИМСХ

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические аспекты конкурентоспособности среди студентов высшей школы. Рассмотрены факторы, влияющие на конкурентоспособность специалиста, определены взаимосвязи конкурентоспособности с личностными особенностями, выделены и теоретически обоснованы компоненты конкурентоспособности.

Проблемы подготовки специалистов, реформирования системы образования, разработки и внедрения рыночных механизмов регулирования ее взаимоотношений с реальной экономикой сегодня стоят в ряду важнейших общегосударственных проблем. В этих условиях конкурентоспособность будущего специалиста приобретает статус одного из важнейших показателей работы учреждений профессионального образования.

В настоящее время требуются создание новых механизмов, обеспечивающих качество образовательных услуг с позиции требований профессиональной деятельности; подготовка конкурентоспособного специалиста, владеющего комплексом компетенций, которые отвечают требованиям современного рынка труда. В связи с этим исследование

конкурентоспособности как свойства личности, динамики его развития в процессе профессионального становления приобретает особую значимость.

С целью реализации приоритетных направлений развития страны, была разработано и утверждено Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3003 от 24.05.2017 «О мерах по коренному совершенствованию системы подготовки инженерно-технических кадров для отраслей сельского и водного хозяйства».

«Анализ системы подготовки инженерно-технических кадров для отраслей сельскохозяйственного производства указывает на отсутствие сопряженности в работе между Министерством сельского и водного хозяйства, предприятиями отрасли и профильными высшими и средними специальными, профессиональными образовательными учреждениями в вопросах определения реальной потребности в подготовке специалистов, усиления взаимоувязанности учебного процесса и производства, межвузовской координации разработки научно-методической базы, повышения квалификации преподавательского состава, что отрицательно влияет на качество подготовки кадров, особенно в области механизации сельского хозяйства»¹.

Основными задачами и направлениями деятельности Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства является «осуществление подготовки высококвалифицированных, востребованных инженерно-технических кадров в сфере сельского и водного хозяйства, способных эффективно решать стратегические задачи по внедрению и широкому использованию в аграрном секторе современной сельскохозяйственной и мелиоративной техники, машин и механизмов, водосберегающих технологий...»¹.

В современных условиях развитие конкурентоспособной личности студента становится неотъемлемой частью профессиональной подготовки в учебных заведениях. Особенностью научной разработки понятия «конкурентоспособность» является неоднозначность его трактовки в психологической, социологической, педагогической литературе (способность, умение, свойство, основа личности), слабо изучены процессы формирования и развития конкурентоспособности личности молодых специалистов.

Сущность человеческого фактора выражается в повышенном интересе к интеллектуальному, творческому, нравственному и физическому потенциалу каждого, к характеру развития и саморазвития личности, к уровню теоретической и практической подготовки человека-профессионала. Сегодня решающее значение имеет то обстоятельство, какой тип специалиста готовит вуз для разрешения актуальных проблем, стоящих перед современным обществом. Проникновение рыночных отношений в систему всех уровней образования поставило педагогику перед необходимостью введения понятия «конкурентоспособность личности» как интегративной характеристики выпускника.

Конкурентоспособность человека в профессиональной деятельности зависит не только от наличия глубоких знаний и умений, но и, в первую очередь, от системы мотивов и ценностного отношения к выбранной профессиональной специальности. Конкурентоспособность – это сложное индивидуальное образование. Критерием конкурентоспособности выступает умение определить, а также быстро и эффективно использовать в конкретной борьбе свои преимущества, особые личные и профессиональные качества.

Под конкурентоспособностью специалиста понимается относительная и обобщенная характеристика выпускника профессионального учебного заведения, являющаяся интеграцией его профессиональной, социальной и личностной компетенций, обеспечивающая ему уверенность в своих силах и способность выдерживать конкуренцию на рынке труда в сравнении с выпускниками аналогичных учебных заведений.

В качестве сущностных признаков конкурентоспособности личности выделяются: интеллектуальный потенциал, самоактуализация, адекватная самооценка, самообучение, коммуникабельность, способность принимать ответственные решения, лидерские

качества, умение работать в команде, креативность, ценностно-ориентированная адекватность, готовность к профессиональному самоопределению.

Конкурентоспособность диктует, помимо собственно профессиональной, технологической подготовки, овладение личностью такими качествами, как самостоятельность, творческий подход к любому делу, умение доводить его до конца, желание постоянно учиться и обновлять свои знания, гибкость мышления; способность к диалогу и сотрудничеству в коллективе, общительность, знание языков. Сюда входит также и владение «сквозными» умениями: работа на компьютерах, пользование базами и банками данных, презентация технологий и продукции.

Необходимо создавать условия для развития целостной творчески активной личности, способной максимально реализовать себя в быстро меняющейся социально-экономической среде. В мире, где экономика, культура, профессиональный труд и другие сферы жизни постоянно изменяются, образовательная система призвана включать студентов в широкий спектр различных видов деятельности, развивать в них те человеческие качества, которые будут способствовать успешной социализации и адаптации за порогом учебного заведения.

Таким образом, подготовка конкурентоспособной личности играет важную роль в системе образования. Современная социокультурная ситуация требует изучения проблемы формирования конкурентоспособной личности.

Современное общество нуждается в конкурентоспособных специалистах с высокопрофессиональными характеристиками. Конкурентоспособность современных специалистов формируется под влиянием определенных факторов, которые представляют собой определенные конкурентные преимущества. Изучив понятие «конкурентоспособность» и приняв во внимание то, что сущность этого понятия носит объективно-субъективный характер, предлагается рассматривать факторы как совокупность конкурентных преимуществ и определенных условий, наличие которых обеспечивает специалисту гарантированное трудоустройство по полученной специальности.

Современными экономистами большое внимание уделяется факторам, влияющим на конкурентоспособность. На сегодняшний день наиболее часто экономисты делят данные факторы на внешние и внутренние. Анализ наиболее распространенных авторских подходов позволил систематизировать факторы конкурентоспособности специалистов.

Основные факторы конкурентоспособности специалистов

Внешние факторы:

1. *Социокультурные*- отражают роль человека в условиях рыночных отношений, стремление к повышению социально-профессионального статуса;

2. *Акмеологические*- направленность личности на достижение высоких результатов;

3. *Экономические*- изменение производственной ориентации в современном постиндустриальном обществе, появление конкурентной рыночной среды, организационные изменения в сфере управления производством и людьми;

4. *Социально-педагогические*- организация социального партнерства студентов и специалистов на основе комплекса видов деятельности в процессе профессиональной подготовки, а также реализация концептуально-методической модели процесса профессиональной подготовки, ориентированной на развитие конкурентоспособности специалистов;

5. *Организационные*- применение на практике организационных инструментов, способствующих повышению конкурентоспособности выпускников вузов на рынке труда;

6. *Нормативно-законодательные*- использование механизмов правовой и нормативно-законодательной базы для поддержки специалистов на рынке труда.

Внутренние факторы:

1. *Мотивационные* - установка личности на движение к успешной карьере;

2. **Психологические**- зависимость уровня успешности профессиональной карьеры специалиста от индивидуальных психологических способностей и возможностей личности;

3. **Поведенческие и стратегические**- отражают роль поведения человека в обеспечении собственной конкурентоспособности.

Вместе с тем эти факторы оказывают непосредственное влияние на конкурентоспособность, а профессиональная ориентация молодежи является базисом развития конкурентоспособности специалиста. Именно обоснованность профессионального выбора является необходимым условием для развития конкурентоспособности специалиста. Неправильно сделанный выбор профессии отражается на профессиональных характеристиках будущего специалиста, снижает качества конкурентоспособности личности.

Заключение

Принимая во внимание, что конкурентоспособность современных специалистов формируется под влиянием определенных факторов, которые представляют собой определенные конкурентные преимущества и сущность этого понятия носит объективно-субъективный характер, необходимо рассматривать факторы как совокупность конкурентных преимуществ и определенных условий, наличие которых обеспечивает специалисту гарантированное трудоустройство по полученной специальности.

Использованная литература

1. lex.uz/ Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3003 от 24.05.2017 «О мерах по коренному совершенствованию системы подготовки инженерно-технических кадров для отраслей сельского и водного хозяйства».
2. Горбашко Е.А. Менеджмент качества и конкурентоспособности: Учеб. пособие. - СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 2008. - 207 с.

МАХСУС ФАНЛАРНИ ЎРГАНИШ ЖАРАЁНИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Холова С.О. - магистрант, ТИҚХММИ

Аннотация

Мақолада талабаларнинг мустақил фаолиятини ташкил этиш масаласи таҳлил этилган. Мустақил фаолиятнинг мақсади, дидактик вазифалари, шакллари ва турлари ҳақида фикр юритилган. Махсус фанларни ўқитиш жараёнида магистрларни мустақил фаолиятни ташкил этишга оид мисоллар келтирилган.

Бугунги узлуксиз таълим тизимида эркин ва мустақил фикрловчи, ижтимоий-сиёсий ҳаётда онгли ва фаол иштирок этувчи шахсни шакллантириш ва малакали мутахассисларни етиштириш “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури”да устувор йўналиши сифатида белгиланган. Бўлажак мутахассисларда касбий билим ва кўникмаларни шакллантириш эса бевосита мустақил фаолият билан боғлиқ. Шу сабабали, таълим жараёнида талабаларнинг мустақил ишларини ташкил этишга биринчи даражали масала сифатида қаралиши бежиз эмас.

Мамлакатимизда таълим соҳасида бўлаётган ўзгаришлар, яъни қабул қилинган Қонун ва фармойишлар жамиятимиз равнақиға ижобий таъсир қилиши шубҳасиздир. Улар мамлакатнинг интеллектуал салоҳиятини оширишда, давлат таълим стандарти талабларига жавоб бера оладиган, етук, рақобатбардош кадрлар тайёрлашда муҳим омил ҳисобланади.

Мустақил таълим шахснинг ўзи томонидан бошқарилишини эътиборга олиб, бу фаолият билан инсон эркин ҳолда ва истаган вақтида манбалардан ўзи танлаб, мақсад, восита, мазмун нуқтаи назаридан фойдаланиши мумкин.

Мустақил таълим олиш етук мутахассис бўлиб етишишнинг муҳим омили ҳисобланади. Бу айниқса касбий тайёргарлик тизимида яққол намаён бўлади. Аждодларимиз ҳам ёш авлоднинг касб-хунар эгаллашига, етук, тарбияли, тараққиётга хизмат қилувчи инсон бўлиб етишишига аҳамият беришган.

Мустақил ишларни ўтказилиш жойига, вақтига, уни педагог томонидан бошқарилиш характериға ва унинг натижаларини назорат қилиш усулларига кўра қуйидаги турларға бўлинади:

- аудиторияда ўтказиладиган машғулотлар жараёнидаги мустақил ишлар (амалий ва семинар машғулотлар, лаборатория иши);
- режали маслаҳат (консультация), ижодий ўзаро муносабат, зачет ва имтихонлар шаклида, педагогнинг бевосита назорати остида ўтказиладиган мустақил ишлар;
- аудиториядан ташқари фаолият яъни талабаларнинг ўқув ва ижодий характерға эға бўлган топшириқларни аудиториядан ташқари шароитда бажариши [1].

Талабанинг мустақил иши – муайян фандан ўқув дастурида белгиланган билим, кўникма ва малаканинг маълум бир қисмини талаба томонидан фан ўқитувчиси маслаҳати ва тавсиялари асосида аудитория ва аудиториядан ташқарида ўзлаштиришға йўналтирилган тизимли фаолиятдир.

Махсус фанларни ўқитиш жараёнида магистрларнинг мустақил фаолиятни ташкил этиш келажакда олиб бориладиган педагогик фаолият давомида мутахассислик фаниға оид аудитория ва аудиториядан ташқарида талабаларда мустақил фаолиятни ташкил эта олиш кўникларини шакллантиришға йўналтирилган. Шу сабабли магистрлар ҳар бир ўтилган мавзу бўйича амалий фаолиятға жалб этилади. Улар мавзудан келиб чиққан ҳолда амалий машғулотларда турли жадваллар, схемалар ва диаграммаларни ишлаб чиқишға жалп этилади. Масалан дидактик тамойиллар билан танишгандан сўнг уларға қуйидаги жадвални тўлдириш тавсия этилади.

	Таълим тамойиллари	Мақсади ва вазифалари	Амалда фойдаланиш даражасига баҳо	Таклифлар
	Назария ва амалиёт бирлиги	Билим, малака ва кўникмаларни комплекс ривожлантириш, малакали мутахассисни етиштириш	Бугунги кунда таълимнинг мана шу жиҳатиға алоҳида эътибор қаратилмоқда. Айрим соҳаларда маълум муваффақияға эришилмоқда. Умуман етарли эмас.	Мавжуд илғор тажрибани оммалаштириш. Таълим ва ишлаб чиқариш ўртасидаги интеграцияни кучайтиришға йўналтирилган қарорлар тизимини қабул қилган ҳолда ишлаб чиқариш корхоналарининг мотивларини шакллантириш.

Таълим концепцияларини таҳлил этишда “Концептуал жадвал” дан фойдаланиш қулай. Концептуал жадвалда таҳлилий ахборотнинг анчагина қисми ихчам жойлаштирилган. Бундай жадвал машғулотнинг методик таъминоти (слайд, ўқув плакати ва ҳ.к.)ға жуда қўл келади. Муайян муаммо бўйича концептуал жадвалларни кичик гуруҳларда ақлий ҳужумдан фойдаланиб тузиш ва уни гуруҳ бўйича муҳокама қилиб, энг мақбул вариантни қабул қилиш – амалий машғулотларнинг англаш фазасида яхши натижа беради. Талабалар таққослаш жараёнида иккала концепцияни барча йўналишлари бўйича

таҳлил этар эканлар, уларнинг билимлари сайқаллашади, мустаҳкамланади ва мустақил фикрлаш қобилияти ривожланади [2].

Концепциялар	Тавсиф, тоифа, ажралиб турадиган белгилар			
	Тавсиф	Тоифа	Ажралиб турадиган белгилари	Натижа
1. Репродуктив таълим концепцияси	Қайтариш ва такрорлашга асосланади. Билим, кўникма ва малалкаларни ривожлантиради.	Билимларни тушуниш, ва қўллашга қаратилган Тизимли, Бихивиористик назарияга асосланади	Ахборотни идрок этиш орқали билимларни эгаллаш. Тайёр билимларни идрок этиш.	Талабалар билим, кўникма ва малалкаларни эгаллайди.
2. Муаммоли таълим концепцияси	Муаммони аниқлаш ва уни ечимини топиш. Янги мавзунини ўрганишда талабани фаол иштирокини таъминлаш.	Мустақил ва ижодий фикрни ривожлантиришга қаратилган. Талабанинг мустақиллигига асосланади	Маълум мавзудаги муаммоларни аниқлаш ва бартараф этиш асосида билимларни эгаллаш.	Талабаларда мустақил ва ижодий фикр ривожланади

Бирор объектни таҳлил этишда “Т” схемадан унумли фойдаланиш мумкин. Бунда талаба танлаб олинган объектни икки қарама-қарши жиҳатини ажратиб белгилаш вазифасини бажаради. Ушбу органайзер талабани объектни чуқур ўрганишга, уни элементларга ажратиб таҳлил қилишга ва ўз билимларини тизимлаштиришига ёрдам беради. Масалан тест назоратининг ютуқ ва камчиликларни аниқлаш жараёнида ушбу схемадан фойдаланиш мумкин [3].

Ютуқлари	Камчиликлари
<ul style="list-style-type: none"> • Ватқни тежалиши • Фронтал ҳолда иш олиб бориш имкони • Мантикий фикрни ривожлантириш. • Баҳолаш қулай 	<ul style="list-style-type: none"> • Нутқнинг ривожланмаслиги. • Мулоқотни йўқлиги. • Ҳамкорликда фаолиятнинг йўқлиги. • Педагогик муносабатнинг йўқлиги.

Талабалар ушбу вазифани бажариш жараёнида индивидуал ҳолда ва гуруҳларда фаолият кўрсатиши мақсадга мувофиқ. Юқорида қайд этилган мустақил фаолият турлари магистрларга нафақат “Махсус фанларни ўқитиш методикаси” фанини чуқур ўрганишга, балки ўз соҳаларига оид фанлардан дарс машғулотларини ташкил этишда ана шу ўрганган методларни бемалол қўллаш кўникма ва малакаларини шакллантиришга асос бўлади. Бу эса келажакда мутахассислик фанларини ўқитиш жараёнини самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Мустақил ўқиш жараёнида ўқилган материалларга ижодий, танқидий муносабатда бўлишга ўрганиш, олган билимларини ўзининг амалий фаолиятида қўллашга ҳаракат қилишда жуда муҳимдир. Бўлажак касб таълими бакалавр-ўқитувчиларини касбий фанлар бўйича ўқитиш жараёнида ўқув қўлланмалари билан ишлаш малакаларини такомиллаштириш керак [4].

Педагогик ҳамда техник-технологик муаммоли вазиятли топшириқлар дидактикада мустақил таълим даражасини оширувчи бошқарув, рағбатлантириш, ташкил этиш ва назорат воситалари сифатида қаралади. Талабанинг ўқув фаолиятига нисбатан ўқитувчи томонидан муайян талабаларнинг кўйилиши уларнинг мазмунини бойитади. Педагогик ҳамда техник-технологик муаммоли вазиятли топшириқларни берилиш шакли эса олдин ўзлаштирилган намуна бўйича хулосалар чиқаришни кўзда тутовчи бошқарув топшириқлари ва масалаларининг бажарилиши саналади. Педагогик ҳамда техник-технологик муаммоли вазиятли топшириқлар ва масалаларда автоном ҳолда мустақил билим олишга ўтиш учун катта имкониятлар мавжуд. Аксарият тадқиқотчилар педагогик ҳамда техник-технологик муаммоли вазиятли топшириқларнинг бир хил белгиларини аниқлаганликларини қайд этиб ўтадилар, лекин улар ўртасидаги фарқлар эса деярли ўрганилмаган.

Хулоса

Шуни таъкидлаш лозимки, “Махсус фанларини ўқитиш методикаси” фанини ўрганиш жараёнида магистрларнинг мустақил фаолиятини ташкил этишга алоҳида эътибор қаратиш, интерфаол методлардан фойдаланиш, мақсадли топшириқлар тизимини шакллантириш лозим. Бундай ёндашув магистрларда нафақат педагогик билимларни, балки ана шу билимлардан амалда фойдаланиш кўникма ва малакаларни шакллантиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- 1.Абдуллаева Қ.М. Махсус фанларни ўқитишда бўлажак ўқитувчиларнинг касбий билим ва кўникмаларини шакллантиришнинг методик асослари: Дисс. ... пед. фан. ном.-Тошкент: 2006.
- 2.Барышникова З.А. Организация самостоятельной познавательной деятельности студентов – заочников. – М.: 2000. – 196 с
- 3.Муслимов Н.А., Кўйсинов О.А. Касб таълими йўналиши бакалаврларини тайёрлашда мустақил таълимнинг аҳамияти //Мақтаб ва ҳаёт. – Тошкент, 2004. - № 1. – Б. 18-20.
- 4.Муслимов Н.А., Кўйсинов.О.А. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимни ташкил этиш. Методик қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2006. – 46 б.

Илмий раҳбар

доц. Хашимова М.К.

INGLIZ TILINI O‘RGATISHDA TURLI O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Sanayeva D.T. – talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchilarning ingliz tilini o‘rganishi uchun qulay va oson bo‘lgan, qiziqarli o‘yinlar o‘ynatish haqida usullar yoritilgan. Ushbu o‘yinlar orqali nafaqat o‘quvchi balkim butun auditoriyani jalb qilib, ularning bor e‘tiborini dars jarayoniga qaratish mumkin.

Bugungi innovatsion texnologiyalar taraqqiy etgan vaqtda ingliz tilini o‘rganish hamda o‘rgatishda kompyuter vositalaridan foydalanish juda samarali usul hisoblanadi. Ushbu kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali ingliz tilini o‘rganuvchilarning qiziqishi hamda e‘tibori to‘la-to‘kis jalb qilinadi. Shu bilan birgalikda yoshlarga ingliz tilini juda oson va qiziqarli qilib o‘rgatish uchun turli o‘yinlardan ham foydalanish o‘rinli. Bu holatda nafaqat o‘rganuvchi, balkim o‘rgatuvchi ham o‘zida ko‘tarinki kayfiyat his etadi. Albatta, a‘lo kayfiyat har qanday vazifani bajarishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ingliz tili fanini o‘qitishda turli xil o‘yinlar orqali o‘rgatishning o‘rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o‘yinlar o‘ynatib turish dars xonasida fanni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni

yanada oshiradi, passive o‘quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi, sinfda o‘quvchilar o‘rtasida raqobat, ayni paytda jamoadoshlik muhitini hosil qiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning ustozlariga bo‘lgan hurmatini oshiradi. Quyida sizga ingliz tili darslari davomida o‘qitish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi o‘yinlarni taqdim etamiz.

Last Man Standing (Oxirgi qolgan odam).

Bu o‘yin tezkor o‘yin hisoblanadi. Lekin o‘quvchilarga o‘ylash uchun biroz vaqt beradi. Bu o‘yin birgalikda o‘rganishga undaydi, ya‘ni boshqa o‘quvchilar so‘zlayotganida qolgan o‘quvchilar o‘zlari so‘z o‘ylayotgan bo‘lishadi. O‘yinni o‘ynash uchun sizga kopto‘kcha kerak bo‘ladi. Hamma o‘quvchilar doira shaklida turib olishlari kerak. Keyin birorta mavzu tanlashingiz kerak bo‘ladi. Masalan: Things found in a kitchen (oshxonada topiladigan buyumlar), food, profession va hokazo.

Biror o‘quvchiga to‘pni uloqtirish orqali o‘yin boshlanadi. O‘sha o‘quvchi mavzuga doir biror inglizcha so‘z aytadi va to‘pni keying o‘quvchiga uloqtiradi. To‘pni qabul qilgan har bir o‘quvchi shu mavzuga doir biror so‘z aytishi kerak bo‘ladi. Agar ular aytilgan so‘zlarni qayta aytsa yoki bir necha soniya ichida so‘z topa olmasa, ular o‘yindan chiqadi va o‘yinni o‘tirgan holda kuzatadi. Havotir olmang, ular baribir o‘rganayotgan bo‘ladi.

Bu o‘yinni biroz boshqacharoq qilib o‘zgartirsangiz ham bo‘ladi. Biror mavzuga so‘z aytish o‘rniga, har bir o‘quvchi keyingi o‘quvchiga biror boshqa mavzu aytishi mumkin. Masalan, siz “say something red” (biror qizil narsani ayting) deb o‘yinni boshlashingiz mumkin. Kopto‘kni ushlab olgan birinchi o‘quvchi “strawberry” deb keyin o‘zi biror mavzu tanlab koptokni boshqasiga uloqtirishi mumkin. Bu o‘yinni biroz murakkablashtiradi, sababi o‘quvchi biror so‘z haqida o‘ylashidan oldin, qaysi mavzuga doir so‘z o‘ylashi kerakligini ham bilishi lozim [1].

Pictionary

Ko‘pchilik ingliz tilida so‘zlashuvchilar Pictionary, rasm chizish o‘yini bilan yaxshi tanish. Rasm chizish uchun biz oddiy doska yoki oq magnit doskadan foydalanishimiz mumkin. Sinfni 2 guruhga bo‘lib olib, har bir jamoa uchun doskaning bir tomonida jadval chiziladi. Biz jamoalarning ballarini shu yerga yozib boramiz. A jamoadan bir kishi chiqadi va ko‘pgina teskari o‘girilgan so‘zlardan bittasini tanlaydi va shu so‘zni doskaga chizib beradi, boshqalar esa topishi kerak bo‘ladi. So‘zni birinchi bo‘lib to‘g‘ri topgan jamoaga ball beriladi. 10 ball olgan jamoa g‘olib hisoblanadi.

Charades

Charades o‘yini *Pictionary* o‘yiniga o‘xshash lekin asosiy farqi bunda so‘z ifodalash uchun rasm emas harakatlardan foydalaniladi. Bu o‘yin o‘quvchilar sust, zerikkan va uyqusi kelgan vaqtlarda juda qo‘l keladi. Ularni uyg‘otamiz va harakatlantiramiz! O‘quvchilar tanlashi uchun bir necha to‘rtburchak qilib qirqilgan qog‘ozlarga so‘zlar yoziladi. Fe‘llarni ifodalash ancha oson. Lekin biz biroz murakkabroq, shunday bo‘lsada hamma o‘quvchilar biladigan so‘zlardan foydalanishimiz mumkin. Sinfni ikki jamoaga bo‘lamiz va har bir jamoadan bir o‘quvchi so‘z yozilgan qog‘ozni tanlaydi va harakat bilan ifodalab beradi. Jamoadagilar esa uch daqiqa ichida o‘sha so‘zni topishi kerak bo‘ladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun bir ball beriladi. 10 ball to‘plagan jamoa g‘olib hisoblanadi.

Taboo words (Ta‘qiqlangan so‘zlar)

Taboo words o‘quvchilarga sinonim so‘zlar va so‘zlarni ta‘riflarini qo‘llashga yordam beradi. Sinf ikkiga bo‘linadi va jamoalar bir-birlariga qarama-qarshi holda o‘tiradilar. Har bir jamoa o‘z jamoasidan bir kishini ro‘parasidagi stulga o‘tirish uchun tanlaydi. O‘qituvchi esa o‘quvchilar ortiga o‘tib turadi va katta qog‘ozda yozilgan so‘z ushlab turadi. O‘rindiqda o‘tirgan o‘quvchilar bu so‘zni ko‘ra olmasligi kerak bo‘ladi. Jamoaning o‘rindiqda o‘tirgan a‘zosiga siz ushlab turgan so‘zni aytirish uchun 3 daqiqa vaqti bo‘ladi. Eng asosiysi ular shu so‘zni nima bo‘lganda ham ishlatmasligi kerak bo‘ladi.

20 objects (20 ta buyum)

Bir vaqtning o‘zida ushbu o‘yin orqali o‘quvchilarning xotirasini va so‘z boyligini tekshirib ko‘ramiz. Bizga faqatgina doska va 20 ta sinf xonada joylashgan buyumlar kerak

bo'ladi. Siz hattoki o'zingizning sumkangiz yoki yoningizdagi buyumlaringizdan foydalanishingiz mumkin. Buyumlarni hammasini stol ustiga qo'yib chiqasiz va o'quvchilarni hammasini chaqirib ularga qarashlarini aytasiz. Keyin hamma buyumlarni bir daqiqadan keyin qog'oz (yoki shunga o'xshash biror narsa) bilan yopasiz. Hamma o'quvchilardan joylariga qaytib bir varoq qog'ozga eslab qolgan buyumlarini ingliz tilida yozishlarini so'raysiz. Hamma tugatganidan so'ng esa buyumlar ro'yxatini doskaga yozasiz va o'quvchilardan o'zlarini tekshirishlarini so'raysiz. Muqobil variant sifatida so'zlarni birma-bir o'qib berib tog'ri topganlarini belgilab borishlarini so'rashingiz mumkin.

Categories (Kategoriyalar)

O'quvchilar bu o'yinni bir marta o'ynaganlaridan keyin har safar yana o'ynashlarini iltimos qiladigan bo'lib qoladi! Yana bu o'yin ortib qolgan daqiqalardan unumli foydalanish uchun ajoyib usul. Har bir o'quvchingizga qog'ozga 6 ta ustun chizishlarini so'rang. Siz kategoriya (so'z uchun mavzu) ni oxirgi o'tilgan mavzulardan tanlashingiz mumkin. Eng ko'p qo'llaniladigan kategoriyalar oziq-ovqat, ismlar, shaharlar yoki davlatlar, mebellar yoki jihozlar, ish harakat yoki kiyimlar hisoblanadi. Biror istalgan harfni tanlang va uni doskaga yozing. O'sha harf bilan boshlanuvchi so'zlarni ustunlarga yozib chiqishlari uchun o'quvchilaringizga biroz vaqt bering. Siz boshqa harflar bilan o'yinni istalgancha qaytadan boshlashingiz mumkin.

Letter Scramble (Tartibsiz harflar)

O'quvchilaringiz oxirgi marta o'rgangan so'zlarni ro'yxatini tuzing va biror so'zni harflarini chalkashtirib doskaga yozing. O'quvchilaringizga harflarni tog'ri tartibda qo'yib berilgan so'zni topishiga biroz vaqt bering. Kim birinchi bo'lib so'zni topa olsa o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi.

What Am I Thinking Of? (Men nima haqida o'ylayapman?)

O'quvchilarni juftliklarga ajratib chiqing. Har bir o'quvchi bir varoq qog'ozga biror buyumni tasvirlab 5-10 ta so'z yozishi kerak bo'ladi. Qachonki vaqt tugaganida, o'quvchilar varoqlarini almashtirishadi va sherigi nimani tasvirlaganini topishga harakat qiladi. So'zlarni tog'ri topgan birinchi jamoa g'olib bo'ladi.

Word Bingo

Bu o'yinni o'ynatish uchun biroz tayyorgarlik ko'rishingizga tog'ri keladi, lekin bu shunga arziydi. 4x4 shaklda bingo qog'ozlarini tayyorlang va har bir katagiga so'zlar yozing. Bularni o'quvchilarga tarqating (har biri takrorlanmas bo'lishi kerak) va siz so'zlarni o'qib berganida o'quvchilar bor so'zlarni belgilashlari kerak. Butun sahifadagi so'zlarni birinchi belgilagan o'quvchi g'olib bo'ladi.

Bingo o'yinining ba'zi turlari bor.

Rasmi Bingo: Bingo kartasida rasmlardan foydalaning va o'sha rasmlarga oid bo'lgan so'zlarni o'qing.

Sinonim Bingo: Bingo kartasidagi ma'nodosh so'zlarni aytish orqali o'quvchilaringizni o'ylashga majbur qiling.

Antonim Bingo: Bu ham sinonim kabi faqat o'quvchilar ma'nodosh emas, teskari ma'noli so'zlarni qidirishi kerak bo'ladi.

Xulosa

Turli xildagi qiziqarli o'yinlar orqali o'quvchilarni ongiga kirib borib, ularni ingliz tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirishimiz mumkin. Ularning tilni o'rganishga bo'lgan intilishi va qiziqishlari bu jarayonni yanada jadallashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanboy Rasulov "Ingliz tili darslarida qiziqarli o'yinlar"

2. **Saytlar:** referat.uz, ziyonet.uz

Ilmiy rahbar

Umarova F.N.

INSONLARDA AXLOQIY BA KOMILLIK MASALASI

Pirnazarova G. – talaba, TIQXMMI

Аннотатсия

Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta`lim va mutaxassislikka ega bo`lishning layoqatlilik darajasida uzoq muddatni talab etilishi, kadrlar tayyorlash tizimida tarbiyani to`g`ri shakllashtirish sifat samarasini tashkil etuvchi omillardan biridir. Maqolada ushbu masalalarning ayrim echimlari ochib berilgan.

Inson axloqiy kamolotini shakllantirishning muhim omillaridan biri tarbiya va axloqiy jihatlarni shakllantirish hisoblanib, o`z navbatida axloqiy barkamollik masalasi insonlarda maxorat, hunar, malaka va tajribaga tayanadi. Bu insonlardagi tarbiya masalasidagi kasbiy va axloqiy jihatlarni shakllantirishning natijasida ko`rinadi. Shu boisdan, talim va tarbiya masalalarida kishilarning axloqiy sog`lomligi, tarbiyani to`g`ri shakllantirish metodikasi va uning mazmuni to`g`risidagi umumiy xulosalarni shakllantirish hozirgi kundagi oliy ta`lim gurus rahbarlarining ijobiy ishlar samaradorligini oshirishning muhim xususiyatlarini o`zida aks ettiradi [1].

O`zbekiston Respublikasida ta`lim davlat siyosati sohasida ustuvor hisoblanib, ta`lim mutaxassisliklarida malakali kadrlarni etishtirishning ma`naviy-ma`rifiy ishlarini tashkil etish, tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishning dasturiy mexanizmlarini takomillashtirib borish ishlab chiqarishning sog`lom axloqiy muhitini shakllantirishning muhim asosini yaratib beradi. Jumladan, birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch” asarida yuksak ma`naviyatli insonlarning jamiyatdagi nufuzi va kamoloti to`g`risidagi fikrlaridan ham ko`rish mumkinki, tarbiya va ma`naviyat tushunchalari insonlardagi yuksak qadrlanadigan fazilat sifatida aytib o`tilgan. Ta`limda tarbiyaning har tomonlama shakllantirish masalasiga alohida e`tibor qaralilib, tarkibiy jihatdan rivojlantirish masalasi dolzarb masala sifatida e`tirof etilgan. Bu kabi dolzarb masalalar qatorida O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning “...bugungi kunda oldimizga qo`ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizni yangilanish, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimi, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog`liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz” – deb ta`kidlagan muloxazalaridan ko`rinib turibdiki, yoshlarning sog`lom tafakkuri va mutaxassislik madaniyatini shakllantirish ishlari hozirgi zamon kadrlar etishtirishning dolzarb masalalari qatoridadir.

Shu boisdan, oliy ta`lim tizimidagi tarbiyani shakllantirib borishning amaliy ahamiyati deganda quyidagilarni tushunish shart:

- tarbiyada shaxs siymosini aks ettirish;
- ta`lim va ishlab chiqarishda mutaxassislik etikasi mazmuni anglash;
- tarbiyaning umumiy xususiyatlarini yoritib borish;
- tarbiyani shakllantirishning umumiy masalasi nimalarni o`z ichiga olishi kabi jarayonlarni hozirgi kundagi tarbiya jarayoni bilan qo`shib shakllantirishni.

Oliy ta`lim tizimidagi tarbiyani shakllantirib borishning uslubiy jixatlari deganda esa quyidagilarni tushunish shart:

- ta`lim va ishlab chiqarishning tashkiliy va dasturiy uzviyigini ta`minlashning ijtimoiy, iqtisodiy, texnik omillari;

- ta`lim va ishlab chiqarishning tashkiliy va dasturiy uzviyigini ta`minlashda tarbiya jarayonining ma`naviy-ma`rifiy ishlarini to`g`ri tashkil etishning uslubiy jihatlari. Ta`lim sohasida mutaxassislik bo`yicha tayyorlanayotgan mutaxassislik etikasida ma`naviyat va ma`rifatni aks ettirish orqali tashkilot va ijtimoiy jamoadagi sog`lom, axloqiy munosabatlar, ijtimoiy

munosabatlarni aks ettirishga erishish ko`zda tutiladi. Hozirgi kunda oliy ta`lim muassasalarida malakali mutaxassislarni yetishtirishda ma`naviy-ma`rifiy ishlarni tashkil etishning quyidagi:

- ijtimoiy,

- ma`naviy,

-pedagogik omillarini nazarda tutish orqali ishlarni amalga oshirilishi natijasida kadrlarni ishlab chiqarish va faoliyatni boshqa sohalaridagi mehnat unumdorligini oshirishga erishiladi.

Masalan, ishlab chiqarish tashkilotidagi mahsulot va xizmatlar estetik ta`sir darajasi va ijtimoiy darajasi tashkilot ishchisini:

-ma`suliyat,

-iroda,

-g`ayrat va boshqa pedagogik sifatleri asosiga shakllanadi. [2].

O`z navbatida rivojlangan horijiy davlatlarning yirik iqtisodiy potentsialiga ega korxonalar va tashkilotlari ishlab chiqarish taraqqiyotining oltin qoidasi mahsulot sifatida xodimlarning sifatli ishini va maxoratini aks etishi, bu borada mahsulotlar iste`molida tashkilotlarning ijtimoiy manfaat ustidagi ijobiy natijalarga erishishganligini keltirib o`tish lozim. Shu boisdan, mutaxassislik tarbiyasida ma`naviyat, ma`rifatning pedagogik qiyofasini shakllantirishning:

- metodik,

-pedagogik,

psixologik omillarini keltirib o`tish bugungi kunning muhim dolzarb masalalaridan biridir. Mutaxassislik ma`naviyati va axloqiy sog`lomligini davomiyligi, iqtisodiy va ijtimoiy o`zgarishlar jarayonidagi bir xil ijtimoiy muhitni shakllantirib borish darajasini nazariy omillaridir.

Hozirgi kundagi mamlakatimiz oliy ta`lim va mutaxassislikka ega bo`lishning layoqatlilik darajasida uzoq muddatni talab etishi, shu vaqt mobaynida malakali kadrlar yetishtirishning davlat va tashkiliy harajatlarini miqdoridan kelib chiqib, kadrlar tayyorlash tizimida tarbiyani to`g`ri tashkil etishning sifat samarasini tashkil etuvchi omillarni ishlab chiqish, ishlab chiqarishning rahbar-xodimlar bilan bog`liq ijtimoiy masalalar va ziddiyatlarni bartaraf etish dolzarbdir. Oliy ta`lim o`quv jarayoni misolida mutaxassislik kafedralari talabalarning tarbiya va axloqiy sog`lomligini ta`minlovchi ma`naviy-ma`rifiy ishlarni tashkil etishning:

- metodikasi,

- rejasi,

- dasturiy ta`minoti,

- ta`lim texnologik omillari hamda ularning samarasini loyihaviy asoslarini yaratishlari dolzarb masalalaridan biri. Zero, oliy ta`limda kadrlarni tayorlashda olib boriladigan ma`naviy-ma`rifiy ishlar bu:

- shaxsni ma`naviy-axloqiy shakllantirish, Vatan mustaqilligi mustaxkamlash, jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi, intellektual salohiyatli, erkin fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan tarbiyaviy jarayonlar majmuidir;

- ma`naviy-ma`rifiy tarbiyaning asosiy maqsadi:

- Davlat va jamiyatga xizmat qiluvchi;

-Vatanga fidoiy farzand;

-Axloqiy barkamol intellektual kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdir [3].

Xulosa

Xulos qilib aytganda, har bir kishi o`z xayoti davomida iloji boricha ijobiy va go`zal inson bo`lishni, buning uchun yetarli muxit bo`lishini, barcha tabiiy, ma`naviy extiyojlarini optimal darajada qondirilishini xohlaydi. Donishmandalar «Xalqning baxt saodati ularni to`g`ri tarbiyalashga bog`liq», -degan ekanlar. Bugungi kunda oliy ta`lim talabalarining eng katta yutuqlari va ularga bo`lgan yuksak e`tiborning sababi, ular mustaqillik mafkurasi bilan o`sib, shu ruhda shakllanayaptilar, ularning ta`lim-tarbiyasiga, tafakkur va ma`naviy shakllanishi hamda ular zimmasiga O`zbekistonning buyuk kelajagi quruvchisi bo`lishdek ma`suliyat yuklanganligiga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Karimov I.A "Barkamol avlod orzusi" T: 1999 yil. 9 – bet.
2. Ziyomhammadov B. Pedagogika. Toshkent: Turon – Iqbol, 2006, - B. 112.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: "Маънавият" 2008 й

Ilmiy rahbar

Qalandarova S.T.

PROFESSIONAL - TECHNICAL THINKING OF STUDENTS OF TECHNICAL UNIVERSITIES

Ibrokhimov Kh.H. - student, TIAME

Annotation

This article talks about the necessary professional skills that require the current modern specialist technical universities, the term "professional thinking". And also how to find a teacher approach to the personality of the student.

The first President of the Republic of Uzbekistan, I.A.Karimov, emphasized: "We set ourselves the goal of creating the necessary opportunities and conditions for our children to grow up not only physically and mentally healthy, but also fully and harmoniously developed people with the most modern intellectual knowledge, people fully meet the requirements of the XXI century, in which they are to live and work. "[1] This means that today only a creative, thinking, humane school can form a thinking, creative, active, healthy person.

A modern young specialist needs professional and personal qualities for successful professional activity in a new information society, such as the ability to professionally approach the solution of technical problems and problems, the use of modern information technologies in developing new types of equipment, possession of graphic and computer culture, the ability to identify priority solutions taking into account the moral aspects of the activity, the ability to creative professional self-development [2].

The term "professional thinking" in practical and scientific use began to enter relatively recently in connection with significant intellectualization of all social labor caused by the scientific and technological revolution. The concept of "professional thinking" is used in two ways. In one sense, it is a high professional qualification level of a specialist, (particular thinking, expressing its "qualitative" aspect). In another sense, these are peculiarities of thinking due to the nature of professional activity. This refers to some peculiarities of the specialist's thinking, which allow him to successfully perform professional tasks at a high level of mastery: quickly, accurately, and in an original way solve both ordinary and non-ordinary tasks in a particular subject area. Such specialists are usually characterized as creative people in their professional field, as people who see the subject of their activity in a special way and are capable of innovation, innovation, and discoveries of the new.

Such an approach to professional intelligence requires that the development of special information models for the organization of vocational training be carried out by the phantom teacher. The purpose of this approach is the formation of systemic thinking as the ability to see the subject of study from different positions and solve the problems associated with its assimilation of the problem creatively, independently, at the level of orientation in the whole complex of relations and relationships.

Knowledge of the modern engineer should be fundamental, professional and practically oriented. It is these provisions that underlie the development of didactic principles of vocational education.

The basis of technical thinking can be associated with some common abilities of a person in their expression when solving technical problems, such as a wealth of concepts, the ability to

combine, reason, establish logical connections, abilities of attention and concentration, the transformation of objects, etc. Engineering thinking XXI century specialist is a complex system of education, which includes: logical, figuratively-intuitive, practical, scientific, aesthetic, economic, ecological, managerial and communicative, creative thinking.

Modern production requires competitive specialists with knowledge of information technologies, at the same time young people who associate the future with the industry of their specialty, are interested in becoming competent specialists, and the level of training meets the requirements of production and society [3].

The task of the teacher is to find an approach to the personality of the student taking into account the multidimensionality of his development, to create conditions for the formation of motivation for learning activities, which should proceed from the interests and needs of the students themselves, help each student develop their abilities. The student is transformed from an object of the educational process into a subject participating in training, implementing the type of activity assigned to him. There should be a shift in traditional pedagogical values towards a process of dialogue, communication and self-expression. A person is considered as a complex self-developing system, he recognizes the uniqueness and uniqueness of each personality and its development trajectory, its intrinsic value. As the analysis of scientific and methodical literature shows, modern production is constantly developing, and the knowledge gained by the student in an educational institution can gradually become outdated. In this regard, teachers are faced with the problem of the formation of students' ability to learn independently, the ability to self-knowledge, self-control, self-education, self-determination. This is facilitated by the development of trainees in the process of cognitive activity of such professional - personal qualities as an approach to solving problems from a professional point of view, responsibility, diligence, striving to achieve a goal, curiosity, flexibility of thinking, attentiveness, observation.

The basis of the pedagogical process of teaching future engineers is the principle of continuity. The essence of continuity is to improve the present and to design the future based on the past, on existing experience. Since each subsequent stage of development is a continuation of the previous one, the presentation of theoretical material on the discipline should be closely related to the content of laboratory and practical classes and out-of-school work of students. Such a quality of continuity as a difference in the conditions of various educational institutions makes it necessary to develop a continuity between different parts of the education system: the secondary school — a higher educational institution — production.

From education they expect knowledge and the formation of skills to solve the social, cultural and economic problems facing society; people want an individual approach in their education, so that it is flexible and meets the specific needs of students depending on their interests and abilities, a new type of training is spreading - constant training, improvement of their creative and professional abilities.

Conclusion

Thus, the main qualities of a modern technical profile specialist include: creative understanding of production situations and an integrated approach to their consideration, possession of ways of intellectual activity, analytical, design, constructive skills, several types of activity. The purpose of specialist training includes, in addition to knowledge, skills, the development of creative potential, also the formation of positive personal qualities.

The main thing is not to forget that a man is born to realize himself, to fulfill his vocation, to perfect himself, to perfect all of humanity.

References

1. Karimov I.A. Our main task is the further development of the country and the improvement of the people's welfare. Report at a meeting of the Cabinet of Ministers on January 29, 2010. - Tashkent, Uzbekistan, - P. 67-68.
2. Andreev V. I. Pedagogy of creative self-development. - Kazan, 1989
3. Weinzwieg P. Ten Commandments of a Creative Person. - M., 1990

Scientific adviser

Ziyaeva Sh.K.

QISHLOQ XO'JALIGIDA RAQOBABARDOSH KADRLAR TAYORLASH

Mirzamonov D.A. – talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Qishloq xo'jaligi bugungi kunning istiqbolli tarmoqlaridan hisoblanadi. O'zbekistonda soxaga raqobatbardosh kadrlar tayorlash hamda inavatsion texnologiyalarni joriy etish eng dolzarb masalaligicha qolmoqda.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning eng qadimiy tarmoqlaridan biri hisoblanib, uning kelib chiqishi tosh davrining oxiriga borib taqaladi. O'sha vaqtlarda inson xo'jalik ehtiyojlarini qondirish va boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun yerga oddiy qurollar bilan ishlov berish, bazi hayvonlarni honakilshirish boshlangan. Asrlar davomida dexqonchilik tizimi o'zgargan va takomillashgan, hayvonlarning yangi maxsuldor zotlari yaratilgan, bu o'z navbatida qishloq xo'jaligida ko'pgina yangi yo'alishlar paydo bo'lishiga olib keldi. Buning natijasida istemol tavarlari ishlab chiqarishni hajmini oshdi. Bunga sabab sifatida dunyo axolisining sonini ko'payishini keltirish mumkun. Dunyo axolisi oxirgi malumotlaega qaraganda 7 miliar 200 miliondan ortiqni tashkil etsa, o'tgan asirning boshilarida dunyo aholisi 1 miliard 617 milioni tashkil etgan. Bu o'z navbatida oziq ovqat maxsulotlariga bo'lgan talabning 4,5 barobarga oshishiga olib keldi. Ayni vaqtda qishloq xo'jaligi sanoatning istemol maxsulotlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarini xomashyo bilan taminlaydi. Masalan ip gazlama sanoatining 60%, qandolat sanoatida 70%, sut sanoatida 80% ni qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlash tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligining yana bir axamiyati shundaki dunyoda mexnat bilan band axolining qarib 45,2% (1 miliard 317 milion kishi) shu tarmoqda mexnat qiladi.

Qishloq xo'jaligi agrar ko'rinishdan industrial shakilga o'tishi bilan qishloq xo'jaligiga zamonaviy texnikadan foydalanib, kam energiya va mexnat sariflab sifatli mahsulot olish boshlandi. Bazi davlatlar bu borada ancha ilgirilib ketdi va natijada qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirishning butunlay yangi usullari paydo bo'ldi.

Bugungi kunda tomchilatib sug'orish, gidroponika usulida issiqxonalarda qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish, mineral o'g'itlarni to'g'ridan to'g'ri o'simlik ildiziga berish va boshqa tejamkor samarali usullarni qo'llagan holda maxsulot yetishtirish anchagina ommalashdi.

Chorvachilik sohasida quyidagi yangi istiqboli yo'nalishlar paydo bo'ldi:

1. Maxsuldor zotli hayvonlarni ko'paytirish;
2. Yangi ixtisoslashgan zotlarni yaratish;
3. Uy hayvonlarini intensive usulda boqishni yo'lga qo'yish;
4. Uy hayvonlari boqiladigan fermalarni avtomatlashtirish;

20 asr sanoat inqilobi tufayli ishlab chiqarishning keskin oshishi va tabiiy resurslardan ayovsiz foydalanish tufayli yer sayorasining ekologik holatiga zarar yetdi. Bu qishloq xo'jaligi soxasida xam qator muamolarni keltirib chiqardi. Masalan atmosfera havosining buzulishi qishloq xo'jaligi o'simliklarining kasalanishi ko'rsatkichlarini bir nech barobarga oshirdi. Suv resurslaridan foydalanish kolamining oshishi ekin maydonlarida suvning yetishmasligi, ekin

maydonlarining strukturasi o'zgarishiga olib kel di. Natijada ekin ekiladigan yer maydonlari dunyo axolisi soniga teskari ravishda kamayib bormoqda.

Sanoati korxonalari zich joylashgan hududlarda chorva hayvonlarini boqish bir qancha muamolarni keltirib chiqarmoqda. Aytaylik chorva hayvonlarining zotlari buzulishi, ulardagi kasalliklarning soni ortishi, sog'lom nasil olishdagi muamolarni keltirish mumkun.

Yuqorida keltirib o'tilgan muamolarda kelib chiqan holda qishloq xojaligi soxasini rivojlantirish, ilg'or texnologiyalar, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirishdagi yangicha ulublar, yangi maxsuldor tur va zotlarni kopaytirish, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish klasterlarini tashkil etish zamonning talabi hisoblanadi [1].

Bu borada esa qishloq xo'jaligi soxasida davlatlar aro integratsiyani yo'lga qo'yish, kadrlar almashinish, ilm fan yutuqlarini sohaga keng joriy etish talab qilinadi.

Yurtimizda qishloq xo'jaligi soxasiga katta etibor berilmoqda. Qishloq xojaligi istiqboli har jixatdan olib qaraganda malakali kadrlar qo'lida. Yaqin 2 yil ichida qishloq xo'jaligi soxasidagi oliy talim muassalari qaytadan tashkil etildi O'zbekiston Respublikasi prizidentining 2018 yil 8 maydagi qaroriga muvofiq qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlari, ularning ilmiy tadqiqot institutlari oliy va o'rta maxsus talim vazirligiga o'tkazildi. talim vazirligi.

Bundan kozlangan maqsad esa qishloq xo'jaligida kadrlar tayorlash tizimidagi bir qancha muamolarni bartaraf etishdan iborat. Eng avolo quyidagi chora tadbirlar amalga oshirilishi belgilandi:

1. Agrar soxada amalga oshirilayotgan islohotlar, jadalik bilan joriy etilayotgan zamonaviy intensive resurs tejamkor texnologiyalar xamda ilg'or tajribalarni fan dasturida o'zining aksini topmaganligi, talimyo'nalishlari bo'yicha zamonaviy talablar asosida yaratilgan metodik taminotlar bilan bog'liq taminklanmaganilgi hamda universitetning o'quv labarato'riya bazasi manan va jismonan eskirganligi natijasida talabalar zamonaviy bilim va konikmaga ega bo'mayotgani sabab bituruvchilar ning mutaxassislik bo'yicha ishga joylashishida muamolar mavjud;

2. Mutaxassislar tayorlash yuzasidan extijojlar chuqur taxlil qilinmaganligi tufayli soxada bazi yonalishlarda malakali kadrlar yetishmaydi;

3. Professor o'qituvchilarning ilmiy salohiyati, kasbiy bilim darajasi shuningdek, amaliy tajribalarni doimiy noshirib borish mexanizimi ni joriy etish, larning kasbiy salohiyatini oshirishda xorijiy ilmiy tadqiqot va oliy talim muassalarining ilg'or tajribalaridan foydalanish;

4. Fan talim va ishlab chiqarishning samaralarli integratsiyasini taminlash, ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayorlashdagi tizimni tashkil etish, sohada olib borilgan izlanishlarni soxadaji mavjud dolzarb muamolar yechimiga qaratish

5. Talabalarning ishlab chiqarish va malakaviy amaliyotlarini qishloq xo'jaligi ekinlarining agrotexnik tadbirlari mavsumiga mos ravishda tashkil etish

Ularda kadrlar tayorlash tizimi yangi ko'rinishga ega boldi.

Qishloq xojaligi soxasidagi rivojlangan davlatlar talim muassalari bilan kadrlar almashish, talaba va professor o'qituvchilarning malaka oshirishlari uchun horijdagi yetakchi talim muassalari va ilmiy tadqiqot markazlariga yuborish yolga qo'yildi [2].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda qishloq xo'jaligi soxasida raqobatbardosh kadrlar tayorlash soxaning eng zamonaviy avtomatlashtirilgan texnologiyalarni joriy etish qishloq xojaligi maxsulotlarini hajmi va sifatini oshishiga hamda mehnat samaradorligini oshishiga omil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "DARYO.UZ" internet sayti
2. "Ekologiya va atrof muhitni muxofaza qilish" Sh. M Avzalov

TEACHING FROM THE STUDENTS PERSPECTIVE IN HIGHER EDUCATION

Otakhanova O. – student, of TIAME,

Abstract

In this article I try to show how we can use the idea of different approaches to learning to explain the perplexing phenomenon of students' misunderstandings, and to learn how to tackle its causes. In my point of view we must do this by examining in detail the students' own experiences of learning and teaching- by looking, in other words, at learning from the student's perspective. Because its related to the quality of their engagement with learning tasks.

Nearly every subject has a shadow, or imitation. It would, I suppose, be quite possible to teach a deaf and dumb child to play piano. When it played a wrong note, it would see the frown of its teacher, and try again. But it obviously have no idea of what it was doing, or why anyone should devote hours to such an extraordinary exercise. It would have learnt an imitation of music. And it would have learnt to fear the piano exactly as most students fear what is supposed to be mathematics. So this we can use also in the water industry for Social and pedagogical spiritual factors of training competitive personnel

Here we can see that what is true of music is also true about other subjects

Teachers in higher education expect their students to develop intellectual abilities that go beyond the possession of technical skills and subject knowledge. There is nothing remotely new about concept of generalizable skills associated with specific knowledge. In all subject areas, the attributes involve combining and relating ideas so that students can use the knowledge effectively. Lecturer want their students to learn how to analyze what is unfamiliar to them, to access proposed solutions to problems critically, to recognize the style and persuasiveness of concepts that describe the physical or social world, and to be able to apply ideas learned in formal classes to the world outside the classroom. They expect students to change their interpretations of the world in which they live through developing their understanding of the subjects they have studied. With this facts I want to say that anyone serious about improving their teaching should think about the implications of the idea of an imitation subject carefully. Students who have learned imitation subjects have been involved in certain process that has enabled them to acquire factual knowledge which is useful in every limited range of situations. Much of what they have learned has no personal relevance to them or any connection with real world it is supposed to explain.

As I already indicated, one approach to improving university teaching involves concentrating on the various techniques of instruction

- Make structure of lecture,
- Prepare oneself to the lesson
- Organize laboratory class,
- Run a small group discussion,
- Using pedagogical methods
- Gaining the students' attention and establishing expectations.
- Reviewing relevant, previously-learned material.
- Presenting the new information by linking it to previous learning.
- Providing learning guidance or elaboration.
- Providing time for practice and feedback.
- Providing for spaced practice to enhance retention
- Using active learning in the Classroom

Much university teaching is still based on the teaching that students will learn if we transmit information to them in lectures or present to them online, or if we encourage them do things in class. Thus its not surprising that improving teaching is often seen as a process of acquiring skills- how to lecture, how to run small groups, how to use learning management

systems, how to set assignments, and so on. Effective teaching is not essentially about acquiring techniques like this. They are actually rather easily learned, its understanding how to use them that takes constant practice and reflection. And they are usefully only in so far as they are directed by a clear awareness of key principles- in particular that the content of student learning is logically prior to the methods of teaching the content, and that what students do, not what teachers do, is what really matters [2].

Conclusion

We shall find as we move through the book that the skills of selecting teaching methods, structuring and planning courses, assessing students, and discovering the effects of teaching on students through evaluation, may all be derived from a small number of essential teaching principles of this kind. No book can tell you how to approach a teaching problem only you learn how to do that, for yourself.

References

1. Paul Ramsden “Learning to teach in higher education”
2. Ashby E. “The structure of higher education: A world view”
3. W.W. Sawyer

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Musayev S.S. – talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Bugungi kunda yuqori kasbiy malakaning asosiy talablaridan biri chet tillarini mukammal bilish bo‘lib qoldi. Xalqaro muloqot tillar o‘rtasida yetakchi o‘rinni egallab kelayotgan ingliz tilini o‘rganishga alohida e‘tibor berilayotgani ham bejiz emas. Ushbu maqolada ingliz tilini samarali o‘rganishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida kerakli ma‘lumotlar berilgan.

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika-texnologiyalar shiddat bilan o‘sib bormoqda. Har bir sohada turli xil o‘zgarishlar, oldinga siljishlar sezilarli darajada ko‘zga tashlanmoqda. Xususan, ilm-fanda ham ulkan yutuqlarga erishmoqdamiz. Har bir fanni talabalarga yetkazib berishda yangi innovatsion texnologiyalar, o‘zgacha bir uslublar qo‘llash bugungi kundagi ta‘lim tizimimizning asosiy mavzularidan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning 2012-yil 13-dekabrda PQ 1875-sonli qarori qabul qilingandan so‘ng mamlakatimizda chet tillarni o‘qitishga, o‘rganishga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaydi. Chet tili darslarining o‘tilishi jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o‘qitilishi, chet tili o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini baholashning yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Qolaversa, umumta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari uchun yangi darsliklar ishlab chiqildi. Shu bilan birgalikda o‘quv xonalari ushbu tizimga mos ravishda turli texnologiya vositalari bilan jihozlanib chiqildi.

Hozirda chet tilini o‘rganishga bo‘lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. Ingliz tilini o‘rganish asosan to‘rt bosqichni o‘z ichiga oladi: o‘qish (reading), yozish (write), tinglab tushunish (listening) va gapirish (speaking). Ularning har biri bo‘yicha alohida tushuncha va ko‘nikmalar berib borilmoqda.

Til o‘rganishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta, komyuter, player, CD disklar, lingofonlar juda ham zarur hisoblanadi.

Hattoki monitorda biror videorolik, namoyish, kin ova multfilmlar ko'rilganda pastda uning subtitri turadi. Ushbu subtitrlarni biz o'zimizga kerakli tilga moslab olishimiz mumkin. O'quvchi ham eshitish, ham ko'rish orqali so'zlovchining talaffuziga, grammatik qoidalarga, uning ma'nosiga alohida e'tibor beradi. Bundan tashqari chet tilidagi radio eshittirishlar, televideniya dasturlarini eshitish va tomosha qilish, magnitafon, kasetta, lingofonlardan foydalanish o'rganuvchning e'tiborini butunlay jalb qilib, ushbu jarayonni yanada qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Hozirgi globallashtirish jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish juda qiyin. Chet tilini o'rganish va o'qitish jarayonida undan unumli foydalanish eng samarali usul hisoblanadi. Internet orqali chet davlatidagi insonlar bilan birga so'zlashuv, turli muloqotlar, xat almashuvlari bilan eshitish, gapirish va yozish mashqlarini takomillashtirib borish mumkin. Albatta, hozirda bu narsa juda ommalashib ketgan. Chunki, ingliz tilini biladigan ikki o'zbekning suhbatini bilan chet elliklarning suhbatini bir-biridan farq qiladi.

Ta'lim sohasiga, o'quv jarayoniga kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish, ulardan maqsadli va samarali foydalanish, ular orqali o'quvchi hamda o'rganuvchini chet tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu bilan innovatsion texnologiyalardan foydalanishga bo'lgan talab ortadi [1].

Dars jarayonida turli guruhlarga bo'linib ishlash raqobatni, ya'ni конкуренция ni oshirishga olib keladi. Bu esa dars jarayonini yanada qiziqarli va sarmazmunli o'tishini ta'minlaydi. Ular bilan har xil o'yinlar, ingliz tilidagi bahslashuvlar, turli bellashuvlar o'tkazish, o'quvchi qiziqishini oshirib, uning chet tilini o'rganishga bo'lgan xohish-istagini uyg'otadi.

Chet tili grammatikasini o'rgatishda ham o'qituvchilar turli strukturalar, sxemalardan foydalanishadi. Bu esa o'rganilayotgan predmetni inson ongida yaxshiroq qolishiga imkon beradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchigina ko'zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi bo'ladi. Agar shu nuqtai nazardan kelib chiqib qaraydigan bo'lsak, yangi pedagogik texnologiyalar va uning asosiy negizi bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyasini ta'lim tizimiga joriy etishda uning boshqaruvchisi bo'lmish o'qituvchining tayyorgarlik darajasini birinchi o'ringa qo'yish lozim. Shuningdek, biror pedagogik texnologiyani darsda qo'llashda auditoriyadagi talabalar bilim darajasini hisobga olish ham zarur. Shu sababli pedagogik jarayonlarning ijobiy yoki maqsadga muvofiq tarzda hal qilinishi ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy salohiyati va pedagogik mahoratiga bog'liqdir. Shu tufayli ular o'z mahoratlarini uzluksiz oshirib borishga, hozirgi kunning yuksak talablariga mos zamonaviy bilim va tajribalarni o'zlashtirishga, ijodiy mehnat qilishga intilmoqdalar.

Chet tilini o'rgatishda amaliy mashg'ulotlarda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Yangi pedagogik usullardan foydalanish nafaqat talabalarga, balki pedagogning o'ziga ham ta'lim berish jarayonini yengillashtirib bermoqda.

Har bir usul belgilangan muayyan maqsadni yechishda o'z o'rnida ishlatilsa, u shubhasiz faoldir. Pedagogik texnologiyalar talabalar faolligining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan.

Kompyuter texnikasining keng rivojlanishi va uning funksional imkoniyatlarining kengayishi kompyuterlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida foydalanishga imkon beradi.

Nutq va chet tilida virtual muloqot talabaga mashg'ulot davomida yoritilayotgan bilim asoslari orasidan eng muhimlariga e'tiborni jalb etish imkonini beradi. Auditoriya bilan bevosita aloqani tashkil etish orqali talabalarning chet tilidan o'quv materialini o'zlashtirishi mumkin bo'ladi. Shuningdek, chet tilida talabalarning o'zaro munosabatlari va ular tomonidan berilayotgan savollarning ham inobatga olinishi ta'lim jarayonini samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chet tilini o'qitishda pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati ta'limda talabalarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir [2].

Prezidentimiz tomonidan 2012-yil 10-dekabrda e’lon qilingan “Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi qarori chet tili ta’limini rivojlantirish, o’sib kelayotgan yosh avlodni zamon talablariga mos yetuk mutaxassis etib tayyorlash kabi ezgu maqsadlarga yo’naltirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o’qitishning ilg’or uslublarini joriy etish, o’sib kelayotgan yosh avlodning chet tillarga qiziqishini yanada oshirish va o’z navbatida, shu tillarda erkin so’zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, shu bilan bir qatorda ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko’lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun sharoit va imkoniyatlar yaratish ko’zda tutilgan. Chet tillarni izchil o’rganishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Aytish joizki, shunday vositalardan biri - interfaol elektron doskadir. Ushbu doskalar ijodkor o’qituvchilar uchun darslarni qiziqarli, noan’anaviy tarzda tashkil etish hamda har qanday murakkablikdagi mavzularni o’quvchilarga oson tushuntirish imkonini beradi. Undagi ko’plab tasvirli rolik va ovozli fayllar esa o’quvchilarga o’qish, yozish, sanashga oid ko’nikmalarini shakllantirish, nutqni soddalikdan murakkablik sari rivojlantirib borishga ko’maklashadi.

Navqiron avlodning mukammal bilim va salohiyatga ega bo’lishi, eng avvalo, o’quv muassasalarida tashkil qilinayotgan ta’lim jarayoniga bevosita bog’liq. 2013-2016-yillarda ta’lim muassasalari xorijiy tillar kabinetlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya hamda o’qitishning texnik vositalari hamda anjomlari bilan jihozlashning jadallashtirilishi, shuningdek, televideniya, mahalliy telekanallar orqali bolalar va o’smirlarni xorijiy tillarga o’rgatish bo’yicha ko’rsatuvlar tayyorlash, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyati, jahon ilm-fani va texnikasi yangiliklariga bag’ishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy hamda multiplikatsion filmlarni o’zbek tilidagi subtitr yordamida, muntazam ko’rsatib borishni amalga oshirish, “Ziyo.net” tarmog’i orqali ta’lim muassasalarining xalqaro ta’lim va bilim olish manbalariga kirish imkoniyatlarini orttirish, ingliz tilida o’quv va badiiy adabiyotlar, ixtisoslashtirilgan rasmlar bilan bezatilgan gazeta va jurnallarni chop etishni tashkil etish kabi jihatlar mamlakatimiz yoshlariga dunyo xalqlari tarixi, madaniyati ilm-fani bilan yaqindan tanishish imkonini berish bilan bir qatorda, o’z tariximizni, madaniyatimizni va yutuqlarimizni ham namoyon etish imkonini beradi.

Talabalarga ingliz tilini kompyuter orqali o’rgatish uchun birinchi navbatda o’qituvchining o’zi kompyuter texnologiyalaridan professional darajada foydalana oladigan bo’lishi kerak. Bu darajadagi foydalanishga nafaqat kompyuterning mavjud imkoniyatlaridan to’liq foydalana olish, balki u asosida yangi o’quv dasturlarini tashkil eta olish ham kiradi. Bunday darajadagi pedagog bo’lish uchun har bir chet tili o’qituvchisi zamonaviy texnologiyalar sohasi bo’yicha o’z ustida ko’proq ishlashi zarur.

Xulosa

Chet tilini o’rganish hozirgi davr talabi ekan, o’sib kelayotgan yosh avlodga til o’rganishning yangi uslublarini, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga asoslangan holda ishlab chiqib, o’qish jarayoniga tavsiya etish olimlar, mutaxassislar oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Iste’dodli yoshlarimizning o’z qiziqqan sohalarida yetuk mutaxassislar bo’lishlari uchun, avvalambor chet tilini jumladan, ingliz tilini mukammal bilishlari zarur. Buning uchun esa innovatsion texnologiyalardan foydalanish eng muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.N.Q.Xatamova, M.N.Mirzayeva “Ingliz tili darslarida qo’llaniladigan interfaol usullar”.
- 2.Z.Y.Abdurahmonova “O’qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarning o’rni”.
- 3.Referat.uz, ziyonet.uz

THE ROLE INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING

Saparova D.P., - student of TIAME, Karimova Sh.Z., - student of TMA

Abstract

The role and the effective usage of innovative technologies in teaching are considered in this article. The Internet links, which are effectively used during the lessons, are also shown here.

Today, our country dictates new tasks of social modernization, industrialization and accelerated innovation challenges in the new global economic integration. The main objective of the third decade of the XXI century of independent Uzbekistan is to move forward to joining the top 30 developed countries of the world. In this regard, there is a great responsibility on educated and highly qualified young people of Kazakhstan, such as the development of national competitiveness in the century, providing prosperity and universal recognition of the country all over the world. The role of innovation in education is great. The effective use of innovative technologies, such as computers, the Internet, multimedia resources in the educational process is the only way to show the quality of education. One of the innovative technologies of improving the students' communicative abilities is using multimedia in the process of teaching and learning in the classroom. Proper use of multimedia in classroom will provide the opportunity for interacting with diverse texts that give students a solid background in the tasks and content of mainstream courses.

Furthermore, because educational technology is expected to become an integral part of the curriculum, students must become proficient in accessing and using electronic resources. In terms of providing educational institutions with multimedia products, there are some problems to be solved so far:

- the virtual absence of domestic electronic textbooks (ET) in official language at educational institutions;
- lack of effectiveness of using the existing electronic textbooks;
- poor quality of teacher training in using electronic textbooks;
- insufficient implementation of new educational technologies in the educational process;
- low efficiency of automated assessment system in teaching.

The using of multimedia in classroom cannot be denied anymore. That will make possible for teachers giving more opportunity to students being happier and more enjoy during the learning course. Through their interactions with multimedia texts, students become increasingly familiar with academic vocabulary and language structures. As they pursue sustained study of one content area through focus discipline research, the students become actively engaged in the process of meaning construction within and across different media. Learners obtain most of the information from electronic devices, which has made such tools, a very essential component of their daily life [1].

Using innovative technologies in a classroom as a tool for language learning has many benefits. It gives stimulus to undertake the tasks, and could help in creating a long lasting impact on the learners. The role of teacher will change from an instructor's role to a coordinator. Self-paced independent learning methodology is what is being propagated with the help of innovative technologies in English Language Teaching. Using multimedia provides the students to gather information through media that encourages their imaginations, interests.

One of the main problems faced by the language teacher, especially newcomers to the profession, is that methodology refuses to stand still. As McCarthy puts it: the methodology of foreign language teaching has evolved dramatically over the past half century, with emphasis at different times being placed on a remarkable array of philosophies and approaches under banners such as grammar-translation, audio-lingual, structure-global audiovisual, inductive/deductive, functional, notional, situational, communicative, immersion, learning/acquisition, suggestopedia, directives/constructivist, etc. Although each approach has seen its share of zealous purists, it

would seem that, viewed from a distance, the abiding lesson to teachers has been that no one approach is a magic wand capable of transforming any class of foreign language learners into near-native speakers of the target language, and that each approach brings to the fore a previously neglected or forgotten facet [2]. As language teachers, we have a tradition of integrating new media into our teaching. We have embraced any new technology, which was likely to improve learning. Mindful of the need to bring native speaker voices into the classroom, teachers in the first half of the 20th century took gramophones into their classrooms. These were replaced by reel-to-reel tape recorders when the price was right and appropriate recordings became available.

Brave souls acquired microphones and encouraged students to record their own voices, to accustom them to hearing themselves speaking in another language. The next innovation was the language laboratory, coming as it did at a time when the audio-lingual method was to the fore and drills were considered central to successful language learning. Those entrusted with the maintenance of language laboratories heaved a sigh of relief when audiocassette recorders replaced reel-to-reel tape. Slide and filmstripprojectors, film projectors and television sets also found their way into language classrooms, followed by video players and video cameras. All of these innovations made their entrance as "bolt-ones". It was only when their characteristics were fully understood and their strengths identified in comparison with existing media that they become integrated into the delivery strategy of the teachers concerned, and into published courses [3].

So, why do I use multimedia materials in the classroom? First, it helps to enhance understanding. Valuable media materials boost student comprehension of complex topics, especially dynamic processes that unfold over time. At second, it increases memorability – rich media materials lead to better encoding and easier retrieval. The most important advantage is that media helps to improve their four language skills like listening, reading, speaking and writing. Moreover, information technology develops students' critical thinking. Furthermore, multimedia provides us with individualized learning, which means that multimedia resources can help you meet needs of many different types of learners. Like, Visual learners can watch a video, while auditory learners listen to streaming audio hands-on learners play and interactive game. Students who need extra practice can use online exercises to improve their grammar or vocabulary skills. In my opinion, multimedia resources can help our students to experience today's global community. With multimedia students can learn about new cultures and countries in immediate and authentic ways – and prepare to interact with that broader community. In addition, the last three points show that multimedia is oriented towards the learner's cultural background and addressing students' learning needs.

Information and communication technologies are the most important parameter of contemporary socio-cultural system. Online Resources are familiar and convenient means of exploring the culture of other countries and peoples, communication, information, inexhaustible source of educational process. That is why, based on a systematic approach to reforming the methods of learning a foreign language using the new information technologies based on the concept of information and learning environment, which is seen in close connection with the system of developmental education. Information -learning environment is a set of conditions that not only let us create and develop language skills, abilities and skills, but also promote the development of the individual student.

Computers increased students' opportunities for self-directed learning. In another study carried out by Vernadakis and colleague, they found that multimedia could help language learners' motivation, support their language skills, affect their learning attitude, and build their self-confidence through various communicative and interactive activities [4]. Their findings indicated that the multimedia language courseware, by providing the test items, allows every individual to assess their own learning components confidently. Participation in information-communication pedagogical activity promotes the integrated developmental aspects of communicative competence: linguistic, socio

- cultural, cognitive, linguistic;
- country study; as well as related cognitive;
- communicative abilities of pupils (search and selection of relevant information, its analysis, synthesis and classification).

Modeling of real authentic environment by attracting Internet -resources is not only a successful development of the language, but also allows you to understand the fundamental laws of the unity and diversity of culture. In additionally, we want to share with useful teaching Internet links for ELT:

- english TutorBournemouth The website provides free resources for teachers and students on a range of GCSE and 'A' Level texts. Key quotations, annotated poetry, character profiles, worksheets etc. The site has a second purpose, which is to offer private tutoring services;

- book Box from Channel Learning Features interviews with leading children's authors, poets, illustrators. Suggestions for reading with reviews and excerpts. Templates for pitching the film of the book;

- BBEC ENG DEPT An ever-growing collection of links for teachers of English and their students;

- easy Read Shakespeare Easy Read Shakespeare is a new version of Shakespeare's plays formatted in a way to make them easier to follow from the printed page. Character portraits are used to help the reader follow the conversations and location drawings help set the scene. A great resource for anyone studying Shakespeare who can't get to see the plays;

- hope Education Broad range of English teaching materials including books, speaking and listening tools, phonics and story packs;

- literary Connections links, books and resources for secondary English -mainly but not exclusively for literature;

- teacher's Pet Text Tool for Teachers isa free add-on for Microsoft Word that can help you transform any text into a fun classroom activity. Developed by a teacher, here are just some of the things the tool can do: Crosswords Flashcards Bingo CardsJumbles Gap-fill.

Conclusions

Thus, the innovative technologies that we reviewed today significantly enrich and diversify the teaching of foreign languages. In place of the monotonous work comes intelligent creative search, during which formed a new type of personality, active and purposeful, focused on constant self-education and development. Multimedia technology could significantly enhance student's capability in problem solving and in learning by doing.

References

- 1.G. Shadmanova, S.S. Mirzaev, Modern information and communication technologies. TIIAME, Tashkent, 2018
2. McCarthy B. "Integration: the sine qua non of CALL", CALL-EJ online 1, 2, September 1999.
- 3.Davies G. "Lessons from the past, lessons for the future: 20 years of CALL". 22.11.2016.
4. O.A. Golitsin, N.V. Maksimov, Information Systems.Forum, Moscow, 2014.

Scientific adviser

Karimova Kh.Kh.

MILLIY QADRIYATLARNI ANGLASH – VATANNI ANGLASH ASOSI

Sultonova Ch.R. – talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Mazkur maqolada milliy qadriyatlarimizni anglash ularni asrab avaylash, qadriyatlarimizni qanchalik durdona ekanligini yoshlarimizga singdirish va bu yo'lda olib borilayotgan ishlar to'g'risida, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo'lib qolishimizda qadimiy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ekanligi bayon etilgan.

Kirish. Insoniylik – ma'naviy poklanish va barkamolikka intilishdan iborat. Barkamol shaxs tarbiyasi esa milliy va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligida aks etadi. Ajdodlarimizdan bizlarga yetib kelayotgan bu noyob durdona upf-odatlarimiz, asori-antiqalarimiz, dinimizdagi halollik va halovat tuyg'ulari barchasi bugungi kunimizda yanada sayqallanib, o'zining jilosini turli ko'rinishlarda namoyon etmoqda. Chunki har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan bo'sh joyda shakillanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tapixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'ladi. Milliy ongni shakillanishi murakkab jarayon, milliy ong, milliy madaniyat zaminida shakillanishi va rivojlanishi mumkin. Milliy madaniyatning birlik va hamkorlikka, millat tarixini holisona anglashga, milliy til va madaniyatni qadrlashga, milliy urf-odat va an'analarni va boshqa ma'naviyat hislatlarini saqlashga xizmat qiluvchi tamoyillari milliy ong negizini tashkil etadi. Milliy madaniyati rivojlanmagan milliy birlikni, milliy birdamlik va milliy hamkorlik tuyg'ulari zaif bo'lgan xalqlarda milliy ong yuksak darajada bo'lmaydi. "...ezgu fazilat va intilishlar xalqimizning qon-qoni va suyak-suyagiga singib ketgan. Uning tabiatiga xos bo'lgan yuksak ma'naviyat necha asrlarki bizni ne-ne balo-qazolardan, to'fon va bo'ronlardan sog'-salomat asrab kelmoqda. Har qanday bosqin va istilolarga qaramasdan, har qanday og'ir va murakkab sharoitda ham ota-bobolarimiz o'zligini yo'qotmasdan, ma'naviy hayot mezonlari, odob-axloq qoidalariga amal qilib, kamollik sari intilib yashagani bugun xam axloq qoidalariga amal qilib, komillik sari intilib yashagani bugun xam barchamizga ibrat bo'lib, kuch-quvvat bag'ishlab kelmoqda" [1].

Respublikamizda olib borilayotgan demokratik jarayonlarning mazmun mohiyati kelajagimiz bo'lgan yoshlarni xar tomonlama yetuk bo'lib o'sishlariga qaratlgan. "...demokratiya tamoyillari milliy qadriyatlarimizdan voz kechish hisobiga emas, aksincha, ularning yanada takomillashuvi va gullab-yashnashiga xizmat qilmog'i darkor" [2]. Yoshlarni ijtimoiy qatlam sifatida manfaatlari davlatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'risida"gi qonunida ko'rsatib o'tilganidek, "yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakillantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimini tashkil etadi [3].

Yoshlarni jamiyat hayotiga integratsiya qilishining izchil tizimlari shakillantirildi. Yoshlar tashkilotlari son va tarkib jihatidan keskin o'zgardi. Yoshlar tashkilotlari faoliyati keng aholi qatlamlarini qamrab olish, yoshlar va bolalar bilan ishlash metodikasini yangilanishi, demokratiyalashuvi zamonaviy interfaol uslublar bilan boyitilishi nuqtai nazaridan yangi mazmunda qayta qurildi. Bu olib borilayotgan ishlarni mazmunida yoshlarni vatanga bo'lgan muhabbatini mustahkamlash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, tarix va kelajak oldida o'zlarini burchlarini anglashga o'rgatish yotadi.

Kuzatuvchilarning fikricha, XXI asrga kelib iqtisod, ilim-fan, umuman barcha sohalarda axborot texnologiyalari va informatsiyon resurislarning o'rni va ahamiyati oshib bormoqda. Ayni paytda xar bir davlat salohiyati va imkoniyati global miqyosda uning hududiy joylashuvi, kattaligi va aholisining sonini ko'pligi bilan emas, balki iqtisodiy qudrati, harbiy va

kommunikatsion imkoniyati bilan o'lchanayapti. Ana shu imkoniyatlar turli ko'rinishlarda mamlakatimiz yoshlari hayotiga xam kirip kelmoqda. Ko'pgina adabiyotlarda, nashrlarda, OAB ma'lumotlarida yoshlarni qiziqish va intilishlari hisobiga turli tahdidlar ta'siriga tushib qolishlari xaqida gapirilmoqda. Internet tarmog'idagi saytlar, turli guruhlar, diniy oqimlar, "ommaviy madaniyat" tahdidi, giyohvondlik, bularning nomini yanada oshirish mumkin. Bu ta'sirlarga kirip kelmasliklari uchun olib borilayotgan ishlar o'z samarasini bermocda. Aytishga oson, lekin shu jarayonga kirib qolganlarinichini-chi, nima qilish kerak? Olib chiqib keta olamizmi? Qaysi yo'l bilan?

Shu o'rinda qadriyatlarga, uning kuchiga tayanmoq kerak. Oilada, mahallada boshqa ta'lim-tarbiya maskanlarida faoliyat yuritayotgan el hurmatini qozongan insonlar bu holatlarni bartaraf etishga yordam bera oladi.

Bir voqeani keltirib o'tmoqchiman: "Katta buvimlarni ko'rgan qishloqqa bordim. Yoshlari saksondan oshgan, lekin xali tetik. Ko'zlariga bir emas ikkta ko'zoynak taqqanlaricha ko'rpacha qovib o'tiriptilar. Meni kamchiligim yo'q, lekin azaliy urf-odatlarimiz qanchalik ulug'ligini tushunganday bo'ldim. Bu ko'rpacha orqli buvim menga milliy o'zligimizni, urfimizni, mehrini, berayotganligini angladim". Axir shuning o'zi Vatanga hurmat, milliy o'zligimizni anglash emasmi? Bizning buvalarimiz, buvilarimiz o'z farzantlari, nabiralari kamolida o'zinini xayoti aksini ko'radilar. Bu bizning millatimizni faqat o'zi uchun emas, farzandi uchun yashashligi qadriyat ekanligi ko'rsatadi. Bu qadriyatlar inson qalbida bo'ladi. Mutafakkirlarning fikricha, odamlarda turli xil qalb bor: "o'lik qalb-xech narsaga intilmaydigan qalb; xasta qalb – yangilikka havasi bor, lekin yordamga muhtoj qalb; g'ofil qalb – hikmat (onglilik) nuridan bebahra qalb; uyg'oq qalb – nuri bor, biror tarbiyaga muhtoj qalb; tirik qalb – o'z baxtini topgan va o'zgaga baxt beruvchi qalb" [4]. Biz bugun tarbiyada qalblardagi tuyg'ularni yomomnliklardan asrash, ularni ezgulik nuri bilan yoritish va bu borada o'zligimizni namoyon etmog'imiz darkor.

Milliy va ma'naviy qadriyatlar tufayli odam o'z-o'zini anglab va qadrlab chinakam insoniy fazilatlar mujassami sifatida o'z "Meni"ga ega bo'lsa, jamiyatda o'z o'rmnini topadi va kelajak uchun o'zidan albatta yaxshi nom qoldiradi.

O'z-o'ini anglab insonga insonga aylangan odam albatta qaysi millat va madaniyatga mansub ekanligini boshqalardan ko'ra yaxshiroq his qiladi. "Milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglash – yagona millat va elat ma'naviy dunyoqarashining qo'sh qanotidir" [5].

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishishimiz mumkunki, Milliy o'zlikni anglash orqali, o'tmishda xalqimiz duch kelgan muammolarni va ularning qanday hal qilinganligini bilib olish, shubhasiz bugungi kundagi muaommolarni to'g'ri va tezroq hal qilishga yordam beradi va jamiyatimizning taraqqiyotini tezlashtiradi. Bu qadriyatlar albatta yoshlarimizni Vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlaydi, ularni hayot mazmunlariga aylanib boradi deb umid qilamiz. Olib borilayotgan barcha chora-tadbirlar yoshlarimiz kelajagiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008. 7-bet.
- 2.B.Umarov Globallashuv ziddiyotlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlari. T., Ma'naviyat, 2006. 93-bet.
- 3.Yoshlarga oid davlat siyosati. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 12 avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2016 yil 24 avgust ma'qullagan)
- 4.T. Do'stjonov va boshq. O'zbekistonda fuqorolik jamiyatini shakillantirishning dolzarb muammolari., Iqtisod-Moliya. 3-2006. 399-bet.
- 5.I.Karimov Ma'naviyat, falsafa va xayot. T., fan, 2007. 76-bet.

БЎЛАЖАК КАСБ ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ФАНЛАРАРО АЛОҚАЛАР

Жуманов А.А. - таянч докторант, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада бўлажак мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнида касбий компетенцияларини шакллантириш, умумкасбий ва ихтисослик фанларини ўқитишда назарий ва амалий билимлар интеграцияси, фанлараро алоқаларни ўрнатиш масалалари мазму-моҳияти очиб берилган.

Касб таълими ўқитувчиларни касбий фаолиятга тайёрлашда назарий ва амалий билимларни интеграциялаш муаммоси янги эмас. Республикамиз, МДХ мамлакатлари ва хориж педагогик назариясида назарий ҳамда амалий билимларни интеграциялаш жараёнини, жумладан, бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлашда, назарий-методологик таҳлил қилиш учун муваффақиятли фойдаланиш мумкин.

Адабиётлар таҳлили кўрсатадики, касб таълими ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнида назарий ва амалий психологик-педагогик билимлар интеграциясига маълум даражада эътибор қаратилади, бироқ шу билан бирга тадқиқотларнинг катта қисми педагогика олий таълим муассасалари талабаларини тайёрлаш, олий таълимдан кейинги таълим ва малака ошириш тизимига бағишланган, аммо бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлашга нисбатан мазкур муаммо махсус тадқиқ қилинмаган.

Тадқиқотчиларнинг кўпчилигини таъкидлашча, касб таълими педагогик таълимдан жиддий фарқ қиладиган ўзига хосликларга эга, бунинг натижасида бўлажак касб таълими ўқитувчисини касбий фаолиятга тайёрлашда назарий ва амалий, жумладан, педагогик-психологик, билимларни интеграциялаш мазмуни, методикаси ва технологиясига алоҳида ёндашувлар зарур. Шу билан бирга, таҳлиллар кўрсатадики, касб таълими муҳандис-педагогик факультетлари ва йўналишлари ўқув режаси фан-курсли бўлиб, таълимни ташкил қилиш ахборот-хабар берувчи ҳолда қолмоқда, ўқув (жумладан, умумкасбий (психологик-педагогик)) фанлари ишчи дастурларида эса назарий таркибий қисмга амалий қисмдан кўпроқ соат ажратилган.

Касб таълими, соф педагогик ва касбий соҳавий таълим ўртасида оралиқ ҳолат эгаллаб, бу соҳалар таъсирида бўлиб, қатор ўзига хосликларига эгадир. У политехник ва соҳавий (турдош) ОТМ лар томонидан амалга ошириладиган муҳандислик таълимидан ҳам, анъанавий тушунишдаги педагогик таълимдан ҳам фарқ қилади, зеро бир вақтнинг ўзида ҳам назарий, ҳам амалий (ишлаб чиқариш) таълимга бир эмас, балки бир неча фан бўйича, умуман эса мутахассислик бўйича ишлаб чиқариш соҳаси билан белгиланадиган касбий фаолият билан белгиланадиган (детерминацияла-надиган) (аспектли) ва касбий фанлар туркумлари (жумладан, политехник, умумкасбий, профил, тор мутахассислик фанлари) бўйича тайёргарликни кўзда тутуди [1].

Касбий фаолият билан боғлиқ турли хил вазифаларни талаба шахси фазилатлари ишлаб чиқилган мажмуаси сифатида белгиланиши мумкин. Н.А.Муслимов ва бошқа тадқиқотчилар компетентлик тушунчаларига риоя қилган ҳолда, ушбу соҳада фаолият олиб бораётганлар, техника олий таълим муассасалари талабалари касбий компетентлигини шахс фазилатлари бирлашмасини ташкил этиш сифатида, кейинчалик уларга муҳандислик фаолиятида ўз билим, кўникма ва малакаларини муваффақиятли амалга оширишда ёрдам беради, деб таъкидлашган.

Касб таълими ўқитувчиси касбий фаолияти мазмунини тадқиқ қилишга анъанавий ва инновацион ёндашувлар таҳлили кўрсатдики, касбий мактаб педагогларини тайёрлаш тизими ҳали-ҳамон ягона ривожланиш концепциясига эга эмас. Бўлажак касб таълими

Ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёргарлиги кўп жиҳатдан махсус технологик тайёргарликка йўналтирилган бўлиб, бунда психологик-педагогик тайёргарлик гўё “иккиламчи” тарзида намоён бўлади. Унга, масалан, педагогика олий таълим муассасаларидагидан анча кам вақт ажратилади. Шу сабабли бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёргарлиги сифатини бой бермаслик учун уларнинг умумкасбий (психологик-педагогик) тайёргарлиги самарадорлигини оширишнинг янги воситаларини излаб топиш зарур. Бундай воситалардан бири назарий ва амалий психологик-педагогик билимларни интеграциялаш бўла олади.

Педагоглар ўз тадқиқотларида назария билан амалиётни интеграциялашнинг турли усулларини таклиф қилади.

Бироқ таклиф қилинаётган усул ва ёндашувларнинг ҳаммасини “механик” деб тавсифлаш мумкин, яъни интеграциялаш муаммоси уларда ўқув жараёнини ташкил қилиш воситалари, методлари ва шакллари нисбатлаш даражасида ҳал қилинади.

“Назарий ва амалий психологик-педагогик билимлар интеграцияси” тушунчаси моҳиятини асослаш учун “интеграция”, “назарий билим” ва “амалий билим” категорияларини тушунишга мурожаат қилиш керак, деб ҳисоблаймиз.

Фалсафий энциклопедик луғатда “интеграция” деб ривожланишнинг аввал турлича бўлган қисм ва унсурларни бирлаштириш билан боғлиқ бўлган томони сифатида тушунилади. Интеграция жараёнлари давомида тизимда элементлар ўртасида ўзаро боғлиқлик ҳажми ва интенсивлиги ортади, жумладан, бошқарувнинг янги даражалари юзага келади.

Тадқиқотчи-педагоглар ишларида “назарий” ва “амалий” билим тушунчаларини таърифлашда ягона фикр мавжуд эмас. Биз ҳам ўз ишимизда қуйидагича нуқтаи назарга асосландик: *назарий билим* – педагогик воқеликни борича акс эттирадиган, яъни педагогик фактлар, педагогик объект ва ҳодисаларнинг моҳияти ва қонуниятлари ҳақидаги билимлар. *Назарий билимлар* педагогик воқеликни тавсифлайди ва тушунтиради. *Амалий билимлар* – амалий фаолият меъёрлари, регулятивлари, яъни педагогик фаолиятни қандай режалаштириш, амалга ошириш ва такомиллаштириш кераклиги ҳақидаги билимлар. *Амалий билимлар* – назарий тилдан амалий хатти-ҳаракатлар тилига ўгирилган билимлар [2].

Шу сабабли тадқиқотимиз контекстида назарий ва амалий психологик-педагогик билимларни интеграциялашни ўрганаётиб, биз қуйидаги қоидалардан келиб чиқдик.

Педагогикада интегратив ёндашув ва фанлараро алоқалар бўйича кўплаб таниқли олимлар тадқиқотлар олиб борганлар.

Таълим жараёнида фанлараро алоқадорликни амалга ошириш қуйидагиларга имкон беради:

- умумилмий ғоя ва тушунчаларни ўргатиш орқали талабаларда билимларни тизимли шакллантириш(фанлараро алоқадорликнинг таълимий функцияси);
- ўқувчиларнинг билиш фаоллиги ва қизиқиши, тизимли ва диалектик фикрлашини ривожлантириш(фанлараро алоқадорликнинг ривожлантирувчи функцияси);
- талабалар дунёқарашини кенгайтириш, уларда умуммаданий ва илмий билим ва кўникмаларни шакллантириш(фанлараро алоқадорликнинг тарбиявий функцияси);
- турли фан ўқитувчиларининг ҳамкорликда ишлашини таъминлаш.

Ўқув-тарбия жараёнида фанлараро алоқадорликни таъминлаш орқали қуйидаги масалалар ҳал этилади:

- дарснинг мақсад ва вазифаларини мажмуавий тарзда белгилаш;
- фанлар учун умумий бўлган тушунчаларни, ёндош фанларнинг этакчи ғояларини ўрганиш назарда тутилган машғулотлар мазмунини мажмуавий ишлаб чиқиш;
- ўқувчиларнинг билиш фаолиятини кучайтирувчи воситалардан, ўзаро алоқадорликда ўрганиладиган фанларни ўқитишда қўлланиладиган намунавий методлар, кўرғазмалар қуроллардан мажмуавий фойдаланиш;

- турли фан ўқитувчиларининг ўзаро ҳамкорлигини кўзда тутувчи дарсларни мажмуавий режалаштириш [3].

Касбий таълим мазмуни интеграциясининг асосий йўналишлари қуйидагилардан иборат: умумилмий, фанлараро, фанларнинг мавзулари, бўлимлари, боблари, қисмлариаро интеграциялар. Умумилмий йўналишда интегротив горизонтал алоқалар касбий-техник таълимнинг барча циклларида (учала циклида ҳам) кузатилади: умумтаълим, умумкасбий ва касбий. Фанлараро ва цикллариаро алоқаларни аниқлаш ҳамда уларга амал қилиш интеграциянинг горизонтал ташкил этувчиларини жорий этишнинг асосий воситасидир.

Вертикал интегротив алоқалар қуйидаги йўналишларда кузатилади:

- илмий ғояларни ишлаб чиқиш – умумтаълим циклдаги предметлар мазмуни – ўқувчиларнинг умумтаълим тайёргарлиги жараёнидаги интеграция;

- ғояларнинг амалиётда техник ва технологик мужассамланиши – умумтехник циклдаги предметлар мазмуни – ўқувчиларга умумтехник предметларни ўқитишдаги интеграция;

- моддий ишлаб чиқаришда илмий ҳояларни амалий жорий этиш – касбий циклдаги предметлар мазмуни – ўқувчиларни ишлаб чиқариш таълими ва фанлараро курслар дастурлари бўйича тайёрлашдаги интеграция.

Касбий-техник таълим мазмуни интеграциясининг фанлараро йўналиши яхлитликни, ўрганилаётган ишлаб чиқариш ҳақида тизимли тасаввурни назарда тутди. Бу касблар гуруҳи ва кенг ихтисосли касблар гуруҳи бўйича бир хиллаштирилган ўқув режалар ва дастурларни яратишда предметлараро алоқаларни аниқлаш имконини беради.

Фанлараро интеграцияни таъминлаш - ҳозирги вақтда объектив эҳтиёж, чунки охир-окибатда бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёргарлигини такомиллаштиришда умумкасбий ва фанлар бўйича тайёргарликни бирлаштириш керак бўлади.

Хулоса

Хулоса тариқасида шуни таъкидлаш лозимки, таълим соҳаси ва мазмуни жараёнларида интегротив ёндашув асосидаги вазифаларни янгича тушуниш шароитларида бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий компетенциясини шакллантиришда умумкасбий ва ихтисослик фанларини ўқитишга интегротив ёндашув, фанлараро боғланишларни ўрнатишни амалга ошириш таълим сифати ва самарадорлигини таъминланишига олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Исмаилова З.К. Маънавий-ахлоқий тарбиянинг назарий ва экспериментал-методик асослари: Дисс... пед. фан. д-ри. – Т.: 2006. – 345 б.
- 2.Измайлова Ю.М. Интеграция теоретических и практических психолого-педагогических знаний как средство совершенствования профессиональной подготовки будущих инженеров-педагогов: Дис. канд. пед. наук / Ю.М. Измайлова. - Саратов, 2006.- 173с.
- 3.Химматалиев Д.О. Интеграция научных знаний при подготовке к профессиональной деятельности будущих учителей профессионального образования // Школа будущего. - Москва, 2016. №6. -С.50-54. (13.00.00; №20).
- 4.Химматалиев Д.О. Касбий фаолиятга тайёргарлик диагностика қилишда педагогик ва техник билимлар интеграцияси. Монография. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 168 б.

Илмий раҳбар

п.ф.д., проф. Химматалиев Д.О.

ТАЛАБАЛАРНИ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМГА ЖАЛБ ҚИЛИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Абдунабиев Ж. - талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Мақола махсус фанларни ўқитишда бугунги кунда талаба шахсини барча имкониятларини юзага чиқариш учун албатта таълим шахсга йўналтирилган характерда бўлиши талаб этилади. Бунинг учун таълимни ташкил этиш жараёнида талабанинг қобилиятлари, эҳтиёжлари ва ўзига хос жиҳатларини ҳисобга олиш лозим. Ана шу элементларни ҳисобга олган ҳолда табақалаштирилган, ривожлантирувчи, ўқишга бўлган мотивларни кучайтирувчи “субъект-субъектга” концепциясига асосланган таълим тизими ривожланади.

Кириш. Кейинги йилларда таълим муассасаларида ўқувчиларнинг мустақил таълим олишига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Чунки эндиликда таълим олувчиларда мустақил фикр ва ижодий фикрни ривожлантириш масаласи таълимнинг долзарб вазифаларидан бирига айланди. Мустақил ишларнинг ажралмас қисми бу мустақил таҳсилдир. Ўқувчиларнинг мустақил таҳсили уларни ўз билимларини кенгайтириш, чуқурлаштириш, мавжуд малака ва кўникмаларни такомиллаштириш ҳамда уларнинг янгиларини ўзлаштиришга бўлган интилишидир.

Мустақил таҳсилнинг асосий мақсади ўқувчиларни шахсий ва касбий сифатларини шакллантиришда ўз устида ишлаш устунлигидир. Мустақил таҳсилнинг асосий методи адабиётлар устида индивидуал ишлашдир. Бу метод ахборотлар оқимида энг зарур ахборотни топиш, унга баҳо бериш, ушбу ахборотдан ўзининг касбий фаолиятида фойдаланиш малакасини шакллантиради [1].

Мустақил таълимда ўқитиш жараёнида ўқитувчи томонидан қўлланиладиган тарқатма материаллар, карточкалар, саволномалар, йўриқномалар, амалий ишни ташкил этиш буйича технологик хариталар киради.

Дидактик топшириқлар ва материалларни ишлаб чиқишда қуйидагиларга эътибор бериш керак:

1. Муаммоларни ҳал қилишга йўналтириш;
2. Тадқиқотлар олиб боришга йўналтириш;
3. Турли вазиятлар ва ҳолатлар таҳлилига қаратиш;
4. Тажрибалар ва машқлар ўтказишга мўлжаллаш;
5. Янгиликларни излаш ва топишга йўналтириш.

Мустақил ишлар жорий ўқув жараёни билан биргаликда ва узвий боғлиқликда олиб борилади. Мустақил равишда билиш доирасини кенгайтириш ҳамда қўшимча назарий ва амалий материални эгаллаш талаба эгаллаётган касбий малака ва ишлаб чиқаришда мустақил ишлай билиш кўникмасини орттириш билан чамбарчас боғланган. Адабиётлар билан мустақил ишлаши, уни ўқиб чиқиб тушуниш, эслаб қолиш нуктаи назардан эмас, балки маълум бир ўқув масалаларни (масалан, масала ечишни, курс лойиҳаси ва битирув иши лойиҳаларини) ҳал этиш учун зарур бўлган материалларни топиш ва уларни тизимлаштириш, таҳлил этиш нуктаи назардан қараш керак. Реферат, курс иши ва битирув ишларининг вазифаси махсус фанларидан олинган назарий билимларни мустақил билим орттириш йўли билан амалий мустаҳкамлашдан иборатдир [2].

Аудиториядан ташқарида бажариладиган мустақил ишлар лойиҳа ва кейс-стади усулидан фойдаланган ҳолда ўтказилиши бугунги кунда хориж тажрибасида кенг қўлланилади. Аудиториядан ташқарида талабаларнинг мустақил фаолиятни ташкил этишга оид юқоридаги фаолият тури билан танишиб чиқилгач тингловчиларга қуйидаги вазифани тақдим этиш мумкин.

Тингловчилар фаолияти индивидуал ҳолда ташкил этилиб, ўзалри дарс берадиган курс бўйича аудиториядан ташқарида мустақил фаолиятни ташкил этиш жадвалини тўлдириш таклиф этилади (1- жадвал). Ушбу фаолият натижаларини таҳлил этиш учун экспертлар гуруҳи тайинланади.

1-жадвал.

Фан бўйича мавзуларнинг номлари	Мавзуга ажаратилган соатлар миқдори	Мавзуга мос бўлган аудиториядан ташқарида бажариладиган фаолият тури	Мустақил фаолиятга ажаратилган вақт	Танланган мустақил фаолиятдан кутилаётган натижага изох

Мустақил таълимни ташкил этишда интерфаол ўқитиш методларидан фойдаланиш катта натижа бериши илмий тарзда асосланган. Қуйида интерфаол ўқитиш методларининг турлари келтирилган [3].

ИНТЕРФАОЛ ЎҚИТИШ МЕТОДЛАРИ

- Ижодий ишлар
- Кичик гуруҳларда фаолиятни ташкил этиш
- Жуфтликда ишлаш
- Дидактик ўйинлар
- Аудиториядан ташқари фаолиятни ташкил этиш
- Янги ахборотни ўзлаштириш ва мустаҳкамлаш
- Муаммоли вазиятлар

Мустақил ишларнинг ажралмас қисми бу мустақил таҳсилдир. Ўқувчиларнинг мустақил таҳсили уларни ўз билимларини кенгайтириш, чуқурлаштириш, мавжуд малака ва кўникмаларни такомиллаштириш ҳамда уларнинг янгиларини ўзлаштиришга бўлган интилишидир.

Мустақил таҳсилнинг асосий мақсади ўқувчиларни шахсий ва касбий сифатларини шакллантиришда ўз устида ишлаш устунлигидир. Мустақил таҳсилнинг асосий методи адабиётлар устида индивидуал ишлашдир. Бу метод ахборотлар оқидамида энг зарур ахборотни топиш, унга баҳо бериш, ушбу ахборотдан ўзининг касбий фаолиятида фойдаланиш малакасини шакллантиради [4].

Талабалар мустақил ишини ташкил этишда муайян фаннинг хусусиятларини, шунингдек, ҳар бир талабанинг академик ўзлаштириш даражаси ва қобилиятини ҳисобга олган ҳолда қуйидаги шакллардан фойдаланилади:

- айрим назарий мавзуларни ўқув адабиётлари ёрдамида мустақил ўзлаштириш;
- семинар ва амалий машғулотларга тайёргарлик кўриш;
- берилган мавзулар бўйича реферат, ахборот тайёрлаш;
- ўрганилаётган фаннинг энг долзарб муаммоларини қамраб олувчи рефератлар ёзиш;

- муаммоли вазиятларни ечимини топиш;
- кейс стади асосида мустақил фаолиятни ташкил этиш;
- касбга оид бўлган лойиҳаларани тайёрлаш;

Талабаларнинг назарий ва амалий билимларини ўзлаштириб бориш даражаси, амалий машғулотларга (амалиёт, лаборатория, семинар дарслари) тайёргарлик савияси ва уй вазифаларининг бажарилиш сифатини текшириш мақсадида, одатда, назорат ишлари олиш, савол-жавоб, суҳбат, мунозара, амалий топшириқларни бажартириб кўриш ва ҳ.к. [5].

Аудиториядан ташқарида ўзлаштирилиши белгиланган мавзу бўйича маълумот ва ахборотларни мустақил равишда излаб топиш, таҳлил қилиш, конспектлаштириш (ёки реферат тарзида расмийлаштириш) ва ўзлаштириш, ижодий ёндашишни талаб қиладиган амалий топшириқларни бажариш кўринишида амалга оширилади.

Хулоса

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш муминки, мустақил таълим талабаларнинг ижодий ишлари учун катта натижа беради, чунки талабалар мустақил тарзда ахборот излайдилар, уларни таҳлил қиладилар, қўшимча ахборот топадилар ва бир бирига солиштирадилар. Бу эса талабаларни инновацион фаолиятга ундаши, ахборотларни излашда таянч тушунчалар орқали креатив тафаккурини ошишига ижобий таъсир қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- 1.Хўжаев Н, Хасанбоев Ж,Мамажонов И, Мусахонова Г. Янги педагогик технологиялар.Ўқув қўлланма.Т,ТДИУ.-2007, 71-74
- 2.Хошимова М.К. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. (Маърузалар матни). Т.:ТДИУ.- 2012.- 50 бет.
- 3.Очилов М. Янги педагогик технологиялар, Қарши, 2000, 59 б.
- 4.Голиш Л.В. Замонавий педагогик технологиялар, М. 1999, 28 б.
- 5.Йўлдошев Ж, Хасанов С. Педагогик технологиялар.Т.: «Иқтисод-молия», 2009, 41б.

Илмий раҳбар

докторант Мустафоева Д.А.

ИСЛОМ КАРИМОВ АСАРЛАРИНИНГ БАРКАМОЛ АВЛОД ТАРБИЯСИДАГИ АҲАМИЯТИ

Акромова Н.Т. – талаба, ТИКХММИ

Аннотация

Ўзбекистоннинг Биринчи Президенти Ислон Абдуғаниевич Каримов она Ватанимиз мустақиллиги, халқимиз фаровонлиги йўлида умрини бахшида этган юрт фарзанди сифатида тарихимизда ўчмас из қолдирди. У зукко иқтисодчи ва моҳир сиёсатчи бўлиш билан бирга ўткир қалам соҳиби ҳам эди.

И.А.Каримовнинг 2015 йилда тўла асарларининг 23 жилди чоп этилди. Унинг барча асарларида халқимиз ташвиши ва орзу-истаклари ва инсонларнинг оғирини енгил қилиш билан боғлиқ ечимлар, одамзот учун ҳамма замонларда ҳам энг буюк бойлик бўлиб келган маънавиятнинг маъно-мазмуни унинг инсон ва жамият ҳаётидаги ўрни ва аҳамияти, бу мураккаб ва серқирра тушунчанинг назарий ва амалий томонлари ҳар томонлама кенг қамровли фикр ва хулосалар орқали таҳлил этилганини кўрсатиш мумкин. Айниқса, бугунги мураккаб глобаллашув даврида маънавият соҳасида вужудга келаётган долзарб муаммолар, халқимиз маънавиятини асраш ва юксалтириш, айниқса, ёш

авлоднинг қалб ва онгини турли зарарли ғоя ва мафкуралар таъсиридан саклаш ва ҳимоя қилиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилганини таъкидлаш мумкин.

“Ҳозирги пайтда рўй бераётган айрим салбий ҳолатлар, ножўя хатти-ҳаракатлар, ёвуз ишлар, аввало, мафкуравий бўшлиқ туфайли содир бўлмоқда” деб таъкидлаган эди. “Миллий истиқлол мафкураси халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир” асарида, шунинг учун ҳам “Фарзандларимизда мафкуравий иммунитетни кучайтиришимиз зарур” деган ғояни илгари сурдилар.

“Ғояга қарши фақат ғоя, фикрга қарши фақат фикр, жаҳолатга қарши маърифат билан кураш олиб бормоғимиз лозим” деб, “Баркамол авлод орзуси” асарида кўрсатиб бердилар.

Биринчи Президентимиз Ислом Каримов нафақат мустақиллигимиз асосичиси, балки мамлакатимиз танлаган тараққиёт йўлининг раҳнамоси, йирик ислохотчи, баркамол авлод тарбиясида янгича ёндошувнинг чинакам ташаббускори сифатида халқимиз қалбида абадий қолади. Улар томонидан илгари сурилган концептуал ғоялар, фикрлар ёшларни маънавий баркамол, мустаҳкам ирода ва фаол ҳаётий позицияга эга етук инсонлар этиб тарбиялашда муҳим дастуриламал бўлиб хизмат қилмоқда.

“Биз учун мустақиллик - ўз эркинлигимизни англашгина эмас, балки, аввало ўз ҳаётимизни ўз иродамиз билан ва миллий манфаатларимизни кўзлаган ҳолда ташкил этиш, ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қуриш демакдир” деб “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари” асарида таъкидладилар.

“... одамнинг қалбида икки куч – бунёдкорлик ва вайроналик ҳамини ўзаро курашади” ғоясини, “Таълимни тарбиядан, тарбияни эса таълимдан ажратиб бўлмайди – бу шарқона қараш шарқона ҳаёт фалсафаси” эканлигини асослаб бердилар.

Бугунги глобаллашув жараёнлари дунёнинг ғоявий-мафкуравий қиёфасини ўзгартириб, янгича тафаккур услубини тақозо қилмоқда. Шу боис Ўзбекистонда таълимнинг ижтимоийлашуви ва илм-фанни замон талаблари билан уйғунлаштиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Талаба ёшларни муайян мутахассислик, касб- ҳунарни чуқур эгаллаган кадрлар этиб тарбиялаш билан бирга, Ватан ва халқ манфаати йўлида фидойилик кўрсата оладиган, мустақиллигимиз моҳияти ва қадрини теран англайдиган, уни ҳар қандай хавф - хатардан асрашни муқаддас бурчи, деб биладиган шахслар қилиб улғайтириш энг муҳим вазифалардан ҳисобланади. Бу вазифаларни амалга оширишда Биринчи Президентимиз асарларида маънавий ҳақида билдирилган илмий- методологик фикрлар, ғоя ва тавсияларнинг аҳамияти жуда катта.

Инсоният жамияти тарихий тараққиёти жараёнида инсон омили ва шахсларнинг ўрни масаласи тўғрисида гап борса, буюк кишилар фаолияти тушунилади.

Бундай шахсларда даставвал уни ўзи орасидан етиштириб чиқарган халққа хос сифатлар бўлади.

Буюк шахс фаолиятида ўзлигини руёбга чиқариш, миллий ва давлат мустақиллигини ҳимоя қилиш, ўз халқини саодатли қилиш ҳамда тараққиётини юксак даражага кўтариш билан бир қаторда умуминсоний қадриятлар ва бутун инсоният жамиятининг ялпи тараққиётига баҳоли қудрат ёрдам беришда муҳим ўрин эгаллайди.

Ана шунинг учун ҳам бундай шахслар фаолияти ва асарларини тарғиб қилиш баркамол авлод тарбиясида ватанпарварлик, ташаббускорлик, бунёдкорлик, бағрикенглик каби юксак инсоний фазилатларни шакллантириш, уларни миллий одоб-ахлоқ меъёрлари билан тарбиялаш, кенг дунёқараш ва интеллектуал салоҳиятни ривожлантириш борасида амалга ошириладиган ишларимизнинг самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

“Кеча ким эдигу, бугун ким бўлдиқ?” Эртага қандай марраларни эгаллашимиз керак?” ғоясини “Она-Ватанимиз бахт иқболи ва буюк келажакка йўлида хизмат қилиш - энг олий саодатдир” асарида Биринчи Президентимиз ёш авлодни маънан етук инсонлар этиб тарбиялашнинг нафақат моддий-техник томони, балки назарий-методологик ҳуқуқий ва ташкилий асосларини ишлаб чиқишнинг ташаббускори, баркамол авлод тарбиясини

умуммиллий вазифа даражасига кўтарган буюк шахс. Унинг барча асарларида маънавият ва маданият муаммолари бўйича илмий асослаб берилган қоида ва хулосалар тамомила янгилиги, миллий ва умуминсоний руҳи мазмунан ҳамоҳанглиги, шарқ фалсафаси, ислом таълимотидаги илғор ғояларга асосланганлиги ҳамда мамлакатимиз истиқболини назарда тутгани билан алоҳида аҳамиятга эга.

Биринчи Президентимиз Ислон Абдуғаниевич Каримовнинг асарлари билан танишган, уни ўқиган ҳар бир талаба ёшларда юртимиздаги тинчлик-осойишталикни, мустақиллигимизни асраб-авайлашга дахлдорлик ва она Ватанга, ота-онасига садоқат, меҳр-муҳаббат хислатлари шаклланади.

И.А.Каримов ҳақли равишда таъкидлаганидек, Ватанимизнинг келажиги, халқимизнинг эртанги кунини, мамлакатимизнинг жаҳон ҳамжамиятидаги обрў-эътибори авваламбор фарзандларимизнинг униб-ўсиб улғайиб, қандай инсон бўлиб ҳаётга кириб боришига боғлиқдир. Биз ёшлар бундай ўткир ҳақиқатни ҳеч қачон унутмаслигимиз лозим.

Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти Ислон Абдуғаниевич Каримов замонамизнинг улуғ сиёсатчиси, узоқни кўрадиган ва стратегик фикр юритадиган инсон, дунёда ва турли мамлакатларда юз бераётган ўта мураккаб воқеа-ҳодисаларнинг моҳиятини давлатчилик нуқтаи назаридан кўра билиш қобилиятига эга бўлган, ўз юрти ва халқи учун, ҳар бир ватандошимизнинг тақдири, келажиги учун улкан масъулият туйғусини чуқур ҳис қилган атоқли раҳбар эдилар. Ислон Абдуғаниевичга ҳос бўлган букилмас ирода, фидойилик, мардлик, самимийлик ва меҳрибонлик каби олижаноб фазилатлар биз ёшлар учун ёрқин ибрат намунаси бўлиб қолди.

Ислон Абдуғаниевич сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий жиҳатдан стратегик аҳамиятга эга бўлган масалаларни ечиш билан бир қаторда, жамиятимиз ҳаётини, ёшларимизнинг онгу тафаккури ва дунёқарашини тубдан ўзгартиришга қаратилган кўпқиррали вазифаларга доимо катта эътибор қаратганлар.

Уларнинг “Фарзандларимиз биздан кўра кучли, билимли, доно ва албатта бахтли бўлишлари шарт” деган чуқур маъноли фикрлари ҳаммамизнинг қалбимизда муҳрланиб қолди.

И.А.Каримов мамлакатимизнинг бугунги ва эртанги кунини, ҳал қилувчи куч бўлиб майдонга чиқаётган ёшларимизнинг тафаккури ва дунёқарашини кескин ўзгартирган, мутлақо янги таълим ва тарбия тизимини яратиш ва ҳаётга татбиқ қилиш ишларига бевосита муаллифлик ва раҳбарлик қилдилар.

Улар халқимизнинг маънавий кадриятларига эҳтиром билан муносабатда бўлиш, мукаддас динимиз, анъана ва урф- одатларимиз, бебаҳо тарихий меросимизни сақлаб қолиш ва ривожлантиришни давлат сиёсати даражасига кўтардилар.

И.А.Каримовнинг ўлмас ғоялари, фикр, кўрсатмалари бизнинг қалбимиз ва онгимизга шундай чуқур сингиб кетганки, улар келажак сари қатъият билан боришимизда барчамизга доимо таянч ва суянч бўлиши муқаррар.

Ватанимиз мустақиллигини ҳар томонлама мустаҳкамлаш, мамлакатимизнинг барқарор иқтисодий ва ижтимоий ривожланишини, халқимиз фаровонлигини таъминлашга қаратилган ишларимизда Ислон Абдуғаниевич Каримовнинг “Она Ватанимиз ва халқимизга садоқат билан хизмат қилиш-олий саодатдир” деган сўзлари доимо бизга куч-қувват ва ғайрат бағишлайди.

Ислон Абдуғаниевич Ватанимизни буюк муҳаббат билан севиш, халқимизга садоқат билан хизмат қилиш, бу йўлда бор билим ва тажрибамиз, бутун борлигимизни сафарбар этиш борасида биз учун юксак ибрат мактабини яратиб кетдилар.

Жаҳон ҳамжамиятида “Ўзбек модели” деб тан олинган тараққиёт стратегиямизнинг ажралмас қисми бўлган замонавий таълим-тарбия тизимига асос солган, бу соҳани давлат сиёсатининг устувор йўналиши даражасига кўтариб, унинг ривожланиш йўлларини аниқ белгилаб берган, “Бутун Ўзбекистон болалари-менинг азиз фарзандларим” деб бизларни

ҳамиша эъзозлаган Ислом Абдуғаниевич Каримовнинг ўлмас тарихий хизматларини бугунги ва келгуси авлодлар доимо чуқур миннатдорлик билан ёдга олади.

Шуни ишонч билан айта оламанки, улуғ ва азиз инсоннинг бизга қолдирган бебаҳо мероси, ўлмас ғоя, дастурлари ва асарлари йўлимизни нурафшон қилиб, биз ёшларга доимо мададкор бўлади.

Хулоса

И.А.Каримовнинг асарларида халқимиз ташвиши ва орзу-истаклари ва инсонларнинг оғирини енгил қилиш билан боғлиқ ечимлар, одамзот учун ҳамма замонларда ҳам энг буюк бойлик бўлиб келган маънавиятнинг маъно-мазмуни унинг инсон ва жамият ҳаётидаги ўрни ва аҳамияти, бу мураккаб ва серқирра тушунчанинг назарий ва амалий томонлари ҳар томонлама кенг қамровли фикр ва хулосалар орқали таҳлил этилганини кўрсатиш лозим. Айниқса, бугунги мураккаб глобаллашув даврида маънавият соҳасида вужудга келаётган долзарб муаммолар, халқимиз маънавиятини асраш ва юксалтириш, айниқса, ёш авлоднинг қалб ва онгини турли зарарли ғоя ва мафкуралар таъсиридан сақлаш ва ҳимоя қилиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилганини таъкидлаш мумкин.

Адабиётлар

- 1.Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби / И.А.Каримов. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
- 2.Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият / И.А.Каримов; [нашр учун масъул К. Бўронов]. – Тошкент: Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч / И.А.Каримов. - Тошкент: Маънавият, 2008. - 123 б; Ўзбекистон, 2006.
- 3.Каримов И.А. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир / И.А.Каримов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.

Илмий раҳбари

доц. Раҳимова К.Н.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРИЕМОВ ТРКМЧП ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ.

Алленова И.В., Абдурахманов С. – студенты, ТИИИМСХ

Аннотация

В данной статье рассматривается проблема применения приемов ТРКМЧП на занятиях по русскому языку со студентами экономического профиля. Авторы обращают внимание на особенности применения этих приемов на разных этапах занятия, приводит примеры их использования, что позволит научить студентов читать и понимать литературу по специальности. Данные приемы способствуют эффективному формированию профессиональной компетенции будущих специалистов .

Современное общество выдвигает новые требования к обучению в вузе, к образовательной среде в целом. Наряду с сохранением единства образовательного пространства, преемственности ступеней образовательной системы и других, остро стоит вопрос формирования у учащихся универсальных учебных действий, определяющих способность личности к обучению, познанию. Новые социальные запросы определяют цели образования как общекультурное, личностное и познавательное развитие учащихся, обеспечивающие такую ключевую компетенцию образования как «научить учиться». Поэтому перед преподавателями стоит задача сформировать у студентов способность: навыки переработки информации, теоретическое, критическое и творческое мышление .

Такие требования времени пришли в противоречие с традиционной системой обучения или репродуктивным типом обучения. Передача (или трансляция) готовых знаний и алгоритмов для действия не обеспечивает формирования творческих возможностей и тех, кто учится, и тех, кто учит. «Традиционные технологии обучения и воспитания не на должном уровне решают стратегические цели и задачи, поставленные в Национальной программе по подготовке кадров, особенно в плане формирования современной личности обучающихся с новым сознанием, мышлением, личности духовно богатой, социально активной, творчески развитой.» Политика Республики Узбекистан, активно интегрирующей в мировое сообщество, направлена на формирование целеустремлённой и ответственной личности, способной успешно выполнять разнообразные жизненные роли в современном плюралистическом меняющемся мире.

Учитывая вышесказанное, мы можем сделать вполне обоснованный вывод что использование методов критического мышления на занятиях русского языка позволяет формировать у обучаемых такую междисциплинарную компетентность, благодаря которой будущий выпускник будет социально мобилен, адаптирован к требованиям современного общества.

Для разработки конкретного занятия были использованы следующие технологии развития критического мышления через чтение и письмо: «Кластер», «Интеллект карта», «Двухчастный дневник», «Поиск соответствий». Рассмотрим некоторые из них подробнее.

«Кластер» Понятие «кластер» переводится как «гроздь, пучок». Суть приёма - представление информации в графическом оформлении. В центре записывается ключевое понятие. Рядом записываются понятия, связанные с ключевым. Ключевое понятие соединяется линиями или стрелками со всеми понятиями "второго уровня". Кластер используется, когда нужно собрать у учащихся все идеи или ассоциации связанные с каким-либо понятием. Кластер - универсальный приём. Он отлично подходит для любой стадии занятия.

«Карта интеллекта» - Это инструмент, позволяющий: эффективно структурировать и обрабатывать информацию; мыслить, используя весь свой творческий и интеллектуальный потенциал.

Интеллект-карты –эффективный прием для решения таких задач, как проведение презентаций, принятие решений, планирование своего времени, запоминание больших объемов информации, проведение мозговых штурмов, самоанализ, разработка сложных проектов, собственное обучение, развитие, и многих других [2].

Интересным приемом является **«Двухчастный дневник»**. Этот прием дает возможность обучаемым увязать содержание прочитанного текста со своим личным опытом. Двойные дневники могут использоваться при чтении текста на занятии, но особенно продуктивна работа с этим приемом, когда учащиеся получают задание прочитать текст большого объема дома.

В левой части дневника учащиеся записывают те моменты из текста, которые произвели на них наибольшее впечатление, вызвали какие-то воспоминания, ассоциации с эпизодами из их собственной жизни. Справа они должны дать комментарий: что заставило записать именно эту цитату. Преподаватель знакомит учащихся с собственными комментариями, если хочет привлечь внимание учащихся к тем эпизодам в тексте, которые не прозвучали в ходе обсуждения.

«Поиск соответствий». При выполнении этого задания от учащихся требуется определить соответствие слова или выражения описанию, причем это задание рекомендуется сделать до того, как учащиеся начнут знакомиться с трудными текстами. Это хорошее задание для закрепления смысла понятий. Прием «поиск соответствий» дает возможность студентам почувствовать свою интеллектуальную состоятельность. Это делает продуктивным сам процесс обучения, позволяет получить новые знания в атмосфере доброжелательности и взаимной поддержки. Занятие, построенное по принципу развития критического мышления, и основанное на использовании приемов

технологии развития критического мышления должно включать три основные стадии: вызов, осмысление и рефлексию. На каждой стадии применяются различные приемы технологии критического мышления.

На этапе вызова можно использовать такие приемы, как «Кластер» и «Карта интеллекта». На этапе осмысления использована технология «Двухчастный дневник». Эффективно и наглядно в ходе занятия использование презентации учебного материала с помощью информационных технологий. Это способствует повышению интереса обучаемых. На третьем, завершающем этапе занятия – рефлексии, целесообразно использовать такие приемы как : «Поиск соответствий», «Круги по воде» [3].

Заключения

Особенность применения данных приемов состоит в организации работы в малых группах. Каждая группа получила разные задания и после выполнения обменивались результатами. Затем студенты, благодаря демонстрации слайдов с правильными вариантами решения, могли проверить правильность выполнения заданий. Данный прием позволяет обучаемым проверить понимание полученных знаний, а педагогу проверить степень и уровень освоения изложенного материала.

Список использованной литературы

- 1.Выготский Л. С. Педагогическая психология. - М.: Педагогика, 2011.
- 2.Загашев И.О., Заир-Бек С.И. Критическое мышление: технология развития. СПб.: Альянс «Дельта», 2003.
- 3.Михайличенко О.В. Методика преподавания общественных дисциплин в высшей школе: учебное пособие. – Сумы: СумДПУ, 2009. – 122 с.
- 4.См. ст. Кластера «Что такое критическое мышление?» в журнале «Перемена» 2001, №

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИ ФАОЛИЯТИНИНГ МАЗМУНИ ВА МУОМАЛА МАДАНИЯТИ

Асилова З. - талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

«Таълим туғрисида»ги Қонун ҳамда «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» асосида бугунги кун ўқитувчисига қўйилаётган замонавий талаблар, ўқитувчилик касби ва унинг педагогик маҳорати асослари ёритиб берилган. Педагогик фаолиятнинг асосий мазмуни, турлари, ўқитувчининг педагогик ва мулоқот маданияти муаммолари, педагогик техника масалалари таҳлил этилган. Таълим ислохотларининг ҳозирги босқичдаги вазифаларидан келиб чиққан ҳолда бўлажак ўқитувчилар дарс машғулотларида, илғор педагогик тажрибаларни ўрганиш, умумлаштириш, оммалаштириш ва амалиётга тадбиқ қилишда педагогик маҳорат ва муомала маданиятига эътибор бериш сирлари ёритиб берилган.

Педагогика оламида ўқитувчининг маҳорати унинг самарали натижаларга эришиши, педагогик фаолиятининг юқори даражаси сифатида тушунилади. Ўқитувчининг педагогик маҳорати - бу таълим-тарбия саъятининг юқори ва доимий равишда ривожланиб, такомиллашиб борадиган саъятидир. Маҳорат турли хил педагогик масалаларни самарали ечишда, шунингдек, ўқув-тарбиявий ишларни талаб даражасида ташкил этиш жараёнида намоён бўлади. Лекин бу маҳоратнинг мазмуни ушбу фаолиятларни вужудга келтирадиган ўқитувчининг шахсий сифатлари билан боғлиқ. Демак, педагогик маҳоратнинг мазмунини чуқур англаши учун даставвал педагогик фаолият нима эканлиги тушуниб олмоғимиз лозим.

Ўқитувчи шахсининг шаклланиши мураккаб ва турли хил зиддиятларга эга жараён бўлиб, бу ўқитувчининг ўз фани юзасидан билимларни эгаллаши ва

ўзлаштиришлари эмас, балки унинг узини ҳар томонлама, этик ва ахлоқий, касбий-педагогик сифатларини доимий равишда ривожлантириб боришидир. Унинг шаклланиш жараёни педагогик жараённинг барча иштирокчиларининг турли хил таъсири, ижтимоий муҳит, педагогика фанининг амалиётининг, умуман жамиятнинг ижтимоий талаблароига боғлиқдир.

Ҳар қандай фаолият сингари педагогик фаолият ҳам ўз компонентларига эга. Булар: мақсад, объект, субъект ва восита. Педагогик фаолиятнинг мақсади асосан жамият томонидан белгиланади, яъни унинг фаолияти жамиятнинг келажаги бўлмиш ёшларни ҳар томонлама етук шахс сифатида тарбиялашга қаратилмоғи лозим.

Педагогик моҳоратнинг объекти - бу инсондир. Инсон жамиятнинг фаол иштирокчиси бўлиб, уларнинг ҳар бири ўзига ҳос хусусиятга эга ва бу ўқитувчидан ҳар бир шахсга ўзига ҳос ёндошишни талаб этади. Шунингдек, жамият ривожини билан инсоннинг ва тафаккури ҳам ўзгариб боради. У эса ўқитувчидан доимий ижодий изланишни талаб этади. Педагогик фаолиятнинг субъекти - бу ўқитувчи, ота-оналар ва жамоадир. Ўқитувчи шахси, унинг билим ва кўникмалари тарбияланувчиларга маънавий-ахлоқий таъсир кўрсатади. Бу эса ўқитувчидан ўзини маънавий жиҳатдан бойитиб боришини талаб этади. Ўқитувчининг асосий тарбия қуроли эса унинг меҳнати, мулоқот маданияти, ўқиш, ўйин каби турли хил фаолиятидир.

Ҳақиқий ўқитувчи педагогик фаолиятнинг юқоридаги компонентларидан қандай фойдаланишни, яъни таълим-тарбия мақсадини туғри қуйиб, субъект ва объектни янги педагогик технологиялар асосида фаоллаштиради ҳамда шунга мос воситаларни туғри танлай ва қўллаш олади.

Бизнинг фикримизча, авваламбор ўқитувчида :

- педагогик билими; педагогик заковати; педагогик қобилияти; педагогик техника, болалар билан ишлашга бўлган эҳтиёжи, сиёсий-ғоявий ва маданий тафаккури, қатъиятлилиги, изланувчанлиги, янгиликка интилиши, педагогик такт, ўзига ва ўзгаларга бўлган талабчанлик каби шахсий хусусиятлар шаклланиган бўлиши керак.

Бундан ташқари ўқитувчи жамоада ўз урнини яхши билиши, билим, кўникма ва малакаларга эга булиши, ишини пухта режалаштириши, ўқувчиларнинг фикрлаш қобилиятини, қизиқишларини шакллантириши, таълимнинг педагогик-психологик асосларини билиши. Қолаверса: тарбиявий ишларни режалаштириш, тарбияда ўқувчига индивидуал ёндошуви, ота-оналар билан ҳамкорликни ташкил этиш, тарбиянинг педагогик психологик асосларини билиши, дарсдан тарбиявий иш методикасини билиши ва амалда қўллаш олиши лозим.

“КИЧИК ГУРУХЛАРДА ИШЛАШ”

методининг тузилмаси



1.расм. Кичик гуруҳларда ишлаш методининг тузилмаси

“Кичик гуруҳларда ишлаш” методи таълим олувчиларни фаоллаштириш мақсадида уларни кичик гуруҳларга ажратган ҳолда ўқув материални ўрганиш ёки топшириқни бажаришга қаратилган дарсдаги ижодий иш тушунилади.

Кичик гуруҳларда ишлаш методининг асосий афзалликлари гуруҳдаги барча ўқувчиларнинг иштироки таъминланади, вақтдан унумли фойдаланилади, гуруҳдаги тақдирот натижасида ўқувчиларда нутқ маданияти, вақтни тўғри тақсимлаш каби сифатларнинг шаклланишига олиб келади.

Бизнинг фикримизча бўлажак ўқитувчи ҳар бир мавзу бўйича, ҳоҳ у дарс назарий машғулоти бўладими, ёки дарсдан ташқари (мураббийлик соати) машғулотдами албатта интерфаоли таълим технологияларини қўллаган тарзда ноанъанавий дарсларни ташкил этсагина, дарсга қўйилган талаб, яъни дарснинг мақсадига тўлақонли эришиш мумкин деб ўйлаймиз.

Хулоса

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, педагогда нафақат кучли билим, балки шу билимларини етказа оладиган педагогик маҳорат, педагогик такт, муомала маданияти ва юксак инсоний фазилатлар бўлиши даркордир. Бўлажак ўқитувчига ҳос бўлган барча инсоний, тарбиявий, ватанпарварлик ҳисси, педагогик маҳорат ва касбий сифатларнинг шакллантиришда бизнинг институтимизда фаолият юритаётган “Педагогика, психология ва ўқитиш методикаси” кафедрасининг юқори малакали профессор-ўқитувчилари бизга бор билимлари билан намуна бўлмоқдалар.

Фодаланилган адабиётлар

1. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: ТДПУ, 2006, 148 б.
2. Ёўлдошев Ж., Усмонов С. Педагогик технология асослари. – Т.: Педагог, 2004, 34 б.
3. Педагогик технология ва педагогик маҳорат / С.А.Мадиярова ва б. – Т.: “Iqtisod- moliya”, 2009, 137 б.
4. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши / Услубий қўлланма Д.Рўзиева, М.Усмонбоева, З.Ҳолиқова. – Т.: Низомий номли ТДПУ, 2013, 27 б.

Илмий раҳбар

докторант. Мустафоева Д.А.

ТАЛАБАЛАРНИНГ КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ЎҚИТИШНИНГ НОАНЪАНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Муқимов Б.Р. – ассистент, ТИҚХММИ

Аннотация

Мақолада талабаларнинг касбий компетенциясининг таркибий қисми сифатида коммуникатив компетенциясини такомиллаштиришда ўқитишнинг ноанъанавий усулларида фойдаланиш ва уларнинг қисқача мазмун-моҳияти очиб берилган.

Республикамиз таълим тизими, жумладан ўрта махсус, касб-хунар таълим мазмуни ҳам “Таълим тўғрисида”ги қонун ҳамда “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” асосида босқичма-босқич янгилаб бормоқда. Амалга оширилаётган ислохотлар натижаси сифатида барча ўқув фанларини ўқитиш мазмуни Давлат таълим стандартлари асосида такомиллаштириб борилмоқда. Ушбу ислохотларни самарадорлигини оширишда ўқув муассасаларида таълим мазмуни янада такомиллаштириш мақсадида, таълим жараёнида ноанъанавий таълим технологияларни қўллаб дарс самарадорлигини оширган ҳолда ёшларимизга чуқур билим бериш муҳим аҳамият касб этади.

Талабаларда коммуникатив компетенцияларни такомиллаштиришда ўқитишнинг анъанавий ва ноанъанавий усул ва методлари фарқ қилинади. А. В. Хуторский ўзининг таснифларида коммуникатив компетенцияларни мулоқот, билимларни эгаллашга, билиш фаолияти методларини ўзлаштириш, таълим жараёнида муайян кўникма ва малакаларни, ижодий фикрлаш ва мустақилликни ривожлантиришга йўналтирилган асосий компетенция сифатида кўрсатиб ўтади [1]. Инсоният ўзини ва атроф-муҳитни англаб етиши жараёнида таълим ва тарбия учун асқотадиган хилма-хил технологияларни яратган. Уларнинг аниқ сон ва сифатини ҳеч ким аниқ белгилай олмайди. Бунга ҳозирги даврда мавжуд бўлган турли давлатларнинг таълим тизимларида амал қилинаётган турфа педагогик технологиялар мисол бўла олади. Гап уларнинг қайси биридан ким қандай самара билан фойдаланишидадир. Катта самара бермайдиган ёки ўзини оқлай олмаган технологиялар кун тартибидан тушиб қолаверади ва улар инсоният цивилизациясининг тарихий “сандиғига” жамланиб бораверади.

Ҳар қандай ўқув курси, маълумки, қуйидаги компонентларни ўзида жамлайди:

- курснинг давомлиги (муддати);
- ўқитишнинг мақсад ва вазифалари;
- ўқитишнинг мазмуни;
- мақсадли гуруҳнинг ташкил этилиши;
- ўқитиш жараёни;
- ўқитиш методикаси;
- ўқув қуввати;
- баҳолаш.

Ўқитишнинг мазмуни ўқув бирлигининг давомийлиги ва ўзлаштириш даражаси орасидаги узвий боғланишнинг графиги тарзида ифодаланиши мумкин. Бунда уч тоифадаги ўзлаштириш даражалари фарқ қилинади ва улар мажбурий (паст), зарурий (ўртача) ва мақсадга мувофиқ (энг юқори) кўрсаткичларга эга бўладилар [2].

Ҳар қандай педагогик технология қўлланилишида дидактиканинг асосий ва ёрдамчи тамойиллари (принциплари), албатта, амал қилади:

- маълумдан номаълумга;
- оддийдан қийинга ёки мураккабга;
- аниқдан мавҳумроққа (абстрактга);

Айрим фаол педагогик технологиялар тавсифи ҳақида маълумотлар келтирилганда уларнинг қиёсий баҳоси ойдинлашади. Биз қуйида инновацион педагогик технологияларнинг бир нечтаси билан танишиб ўтаемиз.

Мунозара методи. Кўпчилик ўқув предметлари ва уларнинг мавзулари таълим стандартлари, ўқитиш дастурлари, ўқув режаси ва таълим муассасасининг ўзига хослигига боғлиқ равишда ҳамда тингловчилар (билим олувчилар) контингенти билан алоқадорликда мунозара тарзидаги ўқув машғулотларини тақозо этади. Биринчилан, тингловчилар фаоллиги таъминланади. Иккинчидан, шубҳали вазиятларга ўрин қолдирилмайди. Учинчидан, билим олувчиларнинг истак-хоҳишлари тўла қондирилади. Энг муҳими, бундай шароитда ўқув материали тўла-тўқис ўзлаштирилади. Асослар, хулосалар, ҳукмлар ва тасаввурлар мукамал кўриниш ва мазмунда бўлади. Кўрсатма ва таъкидларнинг ишончлилиги юқори даражада бўлади.

Мунозара икки турли бўлади:

- бошқариладиган;
- эркин мунозара.

Мунозара машғулотлари учун қуйидаги шартларнинг бажарилиши муҳимдир:

- регламентга риоя қилиш;
- бошлашдан олдин чуқур фикрий таҳлил қилиш;
- иштирокчиларнинг максимал миқдордаги сонини қўлга киритиш;
- ўқитувчининг ўқувчиларига нисбатан ҳукмрон бўлмаслиги.

Пассив ўқувчиларнинг иштирокини таъминлаш-аксарият ўқитувчилар учун амалда бажариб бўлмайдиган жараёндир. Уларни жонлантириш учун:

- саволлар берилади;
- ҳар бир шахснинг хусусий фикри сўралади;
- тўғри жавоблар рағбатлантирилади;
- нотўғри жавоблар ва хатолар тўғриланади ва тўлдирилади.

Мунозаранинг муваффақияти ўқувчиларнинг кизиқиши, билими, аҳиллиги, хур фикрлилиги ва жамоадаги соғлом педагогик-психологик муҳитга кўп жиҳатдан боғлиқ бўлади.

Муаммоли топшириқлар методи. Назария ва амалиётнинг бирлигини таъминлашэнг мураккаб педагогик вазифадир. Аниқ вазият ва қўйилган масаланинг моҳиятидан келиб чиққан ҳолда муаммоли топшириқлар ёрдамида яхши натижага эришиш мумкин. Далиллар ва маъруза материаллари ўзлаштириш, топшириқлар ҳамда машқ ва масалалар ечимида муаммоли вазият яратилиши кўл келади. Бунда ҳам кам сонли иштирокчилардан иборат гуруҳлар шакллантирилади. Ўқув материали гуруҳларга алоҳида-алоҳида бўлиб берилади. Якуний хулосалар ва ечимлар топилгач мавзулар гуруҳлар орасида айирбошланади. Ечимлар ва фикрлар хилма-хиллиги юзага келса ўқитувчи бош ҳакам тарзида сўнгги ва ҳал қилувчи сўзни айтади. Ўқув материалининг ўқувчилар ёш хусусиятларига мослиги бунда ўта муҳим омилдир.

Муаммоли топшириқлар ўқитувчидан катта ва қийин меҳнатни талаб қилади. Шу боисдан, уларнинг синовдан муваффақиятли ўтган вариантларини топиш ва кўллаш мураккаб жараёндир.

Лойиҳавий топшириқлар. Бирор ўқув материални атрофлича ва чуқур ўрганиш учун бу ёндашув катта самара беради. Ўрганиш, таҳлил қилиш, баҳолаш, хулоса чиқариш ва якуний қарорга келиш учун узоқ муддатли лойиҳаланган режа зарур. Бу тадбирни ўтказиш учун базавий ва бошланғич таянч маълумотлар талаб қилинади. Ўқув предметини ўзлаштиришнинг босқичларида даврий равишда татбиқ қилинади. Бундай топшириқлар ўқув ижодкорлигини оширади, мустақиллик сари етаклайди.

Лойиҳалар мавзунинг тавсифини берувчи кириш қисми, мавзунинг мухтасар асосномаси, фактлар ва аргументларга асосланган маълумотлар йиғиндиси ҳамда хулоса ёки ечимдан иборат бўлади.

Ролли ўйинлар (ишчанлик ёки ишбилармонлик ўйинлари). Бундай ўйинлар муаммоли топшириқларнинг бир кўринишидир. Саҳналаштириш ва образли чиқишлар бундай машғулотларнинг асосий белгисидир. Ишбилармонлик, билимдонлик, топқирлик қувноқлик, ҳозиржавоблик, ижодкорлик, артистизм, ишчанлик ва яратувчанлик каби фазилатларни намоиш қилишга кенг имкон беради. Ўқитувчи ҳар бир ўқувчининг салоҳиятига мос вазифа топшириши жуда муҳимдир. Биринчи ва иккинчи даражали иштирокчилар бўлмаслигини таъминлаш ҳам талаб қилинади. Ўқув машғулоти ҳаётдаги аниқ вазиятга кўпроқ яқинлашади.

Ёриб ўтишлар технологияси ва В.Эрхард мактаби. Бу технология менежерларни қайта тайёрлаш ўқишларидан иборат бўлиб, унинг мақсади ҳар бир одамда мавжуд бўлган (лекин кундалик бир хилдаги ҳаёт ва иш билан бўғиб қўйилган) қобилиятлари ва интилишларини анъанавий муаммоларни янги муаммо сифатида ечиш учун кундалик изланишларга айнан уйғотиш ҳисобланади.

Бу курслар тингловчининг фикрлаши ва ҳулқидаги шахсий стереотипларни бартараф қилиш, ўз имкониятларини ва эскирган муаммоларни янгича ечиш йўллари кўра олишларини фаоллаштириш ва ўзгартириш бўйича ишлаб чиқилган кўп сонли машғулотлардан иборат.

Бу технология алоҳида йирик янгиликлар яратишга, ҳосил бўлган фавқулудда ҳолатлардан ноанъанавий чиқиш йўллари излашга ҳам қаратилганлиги билан фарқланади. Бундай йўналишдаги 50 дан ортиқ курслар ва семинарлар АҚШнинг юзга яқин шаҳарларида ва дунёнинг бошқа мамлакатларининг юздан зиёд шаҳарларида ташкил

этилган ва улар мунтазам фаолият кўрсатмоқда. Ушбу курсларнинг тингловчилари сони 60 минг нафар атрофидадир.

Ҳамкорлик педагогикаси. Мумтоз педагогик қарашлар нуқтаи назаридан ўқитувчи педагогик жараённинг субъекти, ўқувчи эса объекти, деб ҳисобланади. Ҳамкорлик педагогикасида эса ўқувчи ўз ўқув фаолиятининг субъекти тарзида қаралади. Бунда ўқитувчи ва ўқувчи педагогик жараённинг субъектлари сифатида тенглашиб, ҳамкорлик педагогикаси жараёни ташкил бўлади. Улар ўзаро ҳамкор, ҳамфикр, ҳамдўст, ҳамижодкор, ҳамшироқчи, ҳамдард ва ҳамбошқарувчи тарзида фаолият юритадилар.

Ҳамкорлик педагогикаси ўқувчининг таълим-тарбия олиш мотивларини ривожлантириб бориш орқали ҳамда ўқув-тарбия жараёнини инсонпарварлаштириш тамойилларини амалга татбиқ қилган ҳолда юқори сифат ва самарадорликка эришишни таъминлайди [3].

Ўқув материалнинг схемалар ва шартли белгилардан иборат бўлган таянч сигналлар конспектларидан фойдаланиш асносида турли ва ўзига хос усуллар ва методик воситалар ҳам ишлатилади.

Хулоса

Шуни айтиш жоизки, талабаларнинг коммуникатив кометентлигини такомиллаштиришда таълим тизими жараёнида анъанавий таълим технологияларидан биров чекиниб ноанъанавий таълим технологияларни қўллаб машғулотларни ташкил этилса, талабаларга ҳар томонлама мукамал билим беришнинг сифати таъминланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Хуторской, А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы [Текст] / А.В. Хуторской // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58-64.
2. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2003. – 174 б.
3. Ишмухамедов Р., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. – Т.: Адабиёт учкунлари, 2017. – 368 б.

Илмий раҳбар

п.ф.д., проф. Химматалиев Д.О.

РОЛЬ ДУХОВНОСТИ В ПОДГОТОВКЕ КАДРОВ В СФЕРЕ ВОДНОГО ХОЗЯЙСТВА

Бекибаев А.А., Аъзамов Ж.М. – студенты, ТИИИМСХ,

Аннотация

Статья посвящена проблеме подготовки высококвалифицированных и духовно-развитых кадров в сфере водного хозяйства.

Основная цель определить задачи духовности при подготовке высококвалифицированных и духовно-развитых кадров в настоящее время.

Модернизация нашей экономики и её главных отраслей возможна исключительно при условии новых и качественно подготовленных кадров, которые в полной мере должны отвечать требованиям сегодняшнего дня. За годы независимости в нашей стране проделана масштабная работа по модернизации и преобразованию системы высшего образования, внедрению в нее современных форм и технологий обучения специалистов на основе требований отраслей и сфер экономики. Для достижения этих целей были приняты Закон Республики Узбекистан “Об образовании” и Национальная

программа по подготовке кадров. На первом этапе исполнения этой программы была проведена широкомасштабная работа по реформированию и развитию системы подготовки кадров, улучшению научно-методических и экономических условий. На втором этапе осуществлены меры по совершенствованию системы образования в соответствии с изменениями и обновлениями в обществе, потребностями в кадрах для различных сфер.

Новый подход Республики Узбекистан к системе подготовки квалифицированных кадров ставит новые задачи перед государством. В частности, Президент Ш. М. Мирзиёев своим указом от 7 февраля утвердил «Стратегию действий по пяти приоритетным направлениям развития страны в 2017—2021 годах». В четвертом приоритетном направлении как раз сказано о дальнейшем совершенствовании системы непрерывного образования, подготовки высококвалифицированных кадров в соответствии с современными потребностями рынка труда, повышение качества и эффективности деятельности высших образовательных учреждений на основе внедрения международных стандартов обучения и оценки качества преподавания, поэтапное увеличение квоты приема в высшие образовательные учреждения, воспитание физически здоровой, духовно и интеллектуально развитой, самостоятельно мыслящей, преданной Родине молодежи с твердыми жизненными взглядами, повышение его социальной активности в процессе углубления демократических реформ и развития гражданского общества [1].

Далее, в целях кардинального повышения качества подготовки инженерно-технических кадров для отраслей сельского и водного хозяйства, дальнейшего укрепления материально-технической базы и научно-технического потенциала профильных высших образовательных учреждений, широкого внедрения в образовательный процесс современных педагогических и информационно-коммуникационных технологий, организации системного повышения квалификации и переподготовки научно-педагогических кадров и специалистов было принято Постановление Президента Республики Узбекистан от 24.05.2017 г. «О мерах по коренному совершенствованию системы подготовки инженерно-технических кадров для отраслей сельского и водного хозяйства. Настоящим постановлением в частности, были определены основные задачи и направления деятельности Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства, которые в основном направлены на осуществление подготовки высококвалифицированных, востребованных инженерно-технических кадров в сфере сельского и водного хозяйства, способных эффективно решать стратегические задачи по внедрению и широкому использованию в аграрном секторе современной сельскохозяйственной и мелиоративной техники, машин и механизмов, водосберегающих технологий и тд. Было отмечено, что «За последние годы высшими образовательными учреждениями республики подготовлено более 8 тыс. инженерно-технических кадров по специальностям «механизация сельского хозяйства», «механизация гидромелиоративных работ», «мелиорация и водное хозяйство», «эксплуатация гидротехнических сооружений» и другим направлениям отраслей сельского и водного хозяйства».

Следует сказать, что задачи подготовки высококвалифицированных кадров во всех сферах социально-экономической жизни, в том числе в сфере водного хозяйства должны включать в себя не только совокупность приобретенных знаний, умений и навыков, но и компетенции определенного объема и сложности в целях интеллектуального, духовно-нравственного, творческого, физического и профессионального развития человека.

После окончания вуза специалист, в перспективе будущий руководитель, сталкивается с задачами, связанными не только с его специализацией, но и с социальными, нравственными, а подчас и государственными аспектами, что требует иного типа мышления. «Мы являемся не только инженерами или медиками, но и гражданами Узбекистана, носителями его исторической памяти и ценностей» [2].

Поэтому с момента приобретения независимости Республика Узбекистан придает большое значение возрождению духовных ценностей и богатого духовного наследия

нашего народа, воспитанию гармонично развитого поколения. Особенно преподавание в вузах гуманитарных наук, приобретения студентами наряду основных знаний по истории нашего народа, философии и другим социально-гуманитарным дисциплинам имеет важное значение для подготовки духовно развитых кадров, которые будут служить интересам человека, общества и государства. Нашему обществу «нужен не просто специалист, а профессионал с широким мировоззрением, высокой нравственностью, пониманием своей ответственности, иначе говоря, личность. Теодор Рузвельт утверждал: «Воспитать человека интеллектуально, не воспитав нравственно, - значит вырастить угрозу для общества» [3].

Заключение

Подготовка интеллектуальных, высококвалифицированных, духовно-развитых кадров является важной задачей нашего государства. В связи с быстрым ростом объема обмениваемой информации глобального масштаба, необходимо иметь устойчивое мировоззрение, непоколебимые высокие духовные ценности в целях развития общества с сохранением исторического национального наследия любого народа.

Использованная литература

1. Указ Президента Ш. М. Мирзиёева «Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития страны в 2017—2021 годах», от 7 февраля 2017 год.
2. Алимова Д., Хан В. Гравитационная сила истории. Размышления об исторической науке. – www.gazeta.uz/ru/2017/07/26.
3. Алимова Д., Хан В. Гравитационная сила истории. Размышления об исторической науке. – www.gazeta.uz/ru/2017/07/26.

Научный руководитель

доц. Рахманкулова А. Х.

ТАЛАБАЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ ДАРСЛАРИДАГИ ФАОЛИЯТЛАРИНИ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Сулаймонов Ш. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Таълим муассасаларида ташкил этиладиган жисмоний тарбия тадбирлари қуйидагилардан иборат: Ўқув машғулотларгача ўтказиладиган эрталабки гимнастика-таълим муассасаларида ҳар куни дарслар бошлангунча ўтказиладиган жисмоний машқлардир. Машғулотларгача бўладиган гимнастика асосан тарбиявий ва соғломлаштириш масалаларини ҳал этади. Очиқ ҳавода ўтказиладиган машқлар талабалар организмидини чиниктиришга ҳам ёрдам беради. Танаффуслар талабаларнинг дам олишлари ва навбатдаги дарсга жуда самарали тайёрлана олишлари учун фойдаланилиши зарур. Таълим муассасаларидаги танаффуслардаги ўйинларни ҳар хил спорт тадбирлари ва уюшган ҳолда ўтказиш тадбирларга қуйидаги талаблар қўйилади: Улар болаларнинг ёш хусусиятларига мос бўлиши ва болаларни жуда толиқтирмаслиги ҳам кучли кўзғотмаслиги керак, Олийгоҳларда ҳам ушбу усуллардан фойдаланиш талабаларнинг ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади.

Таълим муассасаларидаги талаба-ёшларнинг дарсдан ташқари ишлардан бири оммавий жисмоний маданият ва спорт ишидир. Бу соҳада Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги”, “Туризм тўғрисидаги” қонунлари ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисидаги”, “Ўзбекистон болалар

спортини ривожлантириш жамғармасини фаолиятини ташкил этиш тўғрисидаги”, Оммавий спорт тарғиботини янада ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисидаги қарорлари муҳим аҳамиятга эгадир. Талаба-ёшларни ўқишдан кейинги бўш вақтларида спорт тугаракларига жалб қилишдан мақсад:

- Республикамиз ҳукуматининг жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги давлат сиёсатини амалга ошириш;

- спорт мусобақалари орқали талабаларни соғлом турмуш тарзига йўналтириш;

- кўрсатилган спорт турларини талабалар ўртасида оммалаштириш;

- спорт турлари бўйича талабаларнинг спорт маҳоратини кўриқдан ўтказиш ва терма жамоа аъзоларини шакллантириш;

- талабалар соғлигини мустаҳкамлашга, организмни чиниқтиришга, уларнинг ҳар томонлама жисмоний ривожланишига ёрдам бериш;

- талабаларнинг жисмоний маданият дарсларида олган билимлари, малака ва кўникмаларини чуқурлаштириш ҳамда кенгайтириш;

- талабаларни яхши дам олишларини ташкил этиш;

- олий таълим муассасаларида оммавий спорт-соғломлаштириш ишларини ривожлантиришга ёрдам бериш ҳамда Республика ҳудудларида ҳал йили ўтказиладиган “Универсиада” спорт мусобақаларига тайёргарлик ишларини олиб бориш.

Талабаларда жисмоний тарбия ва спорт билан мунтазам шуғулланишга иштиёқ уйғотиш ва уларда ҳаракат малакаларини шакллантириш дарсдан ташқари ишларга талабаларни ёппасига жалб қилиш учун турли спорт турларига ўқув-шуғулланув машғулотларни ташкил этиш ва ўтказишнинг хилма-хил шаклларида фойдаланиш лозим. Бунда уларнинг ёши, соғлиги ва жисмоний тайёргарлиги ҳисобга олинади.

Асосий қисм. Талабалар билан амалий иш олиб бориш учун тўғараклар тузилади. Биринчи навбатда бутун йил давомида ишлайдиган умумий жисмоний тайёргарлик ва спорт маҳоратини ошириш тўғараклари ташкил этилади. Умумий жисмоний тайёргарлик тўғарагига иложи боришча кўпроқ талабаларни, шу жумладан, жисмоний ривожланишда бир оз оқсаётган ёшларни ҳам жалб этиш лозим. Спорт тўғаракларининг раҳбарлари муайян спорт турининг машғулотларини ўтказиш услубиятини, талабалар билан олиб бориладиган машғулотларнинг ўзига хослигини яхши билишларива назарий билимларга чуқур эга бўлишлари шарт.

Сайрлар, экскурсиялар ва юришлар катта таълим ва тарбия аҳамиятга эгадир. Чунки бу жараёнда талабалар табиат, жонажон ўлка ва унинг диққатга сазовор жойлари билан танишадилар. Бу тадбирлар юриш, югуриш ва ўйин малакаларининг ҳосил бўлишга ва такомиллашишига ёрдам беради, организмни чиниқтиради ва талабалар соғлигини мустаҳкамлайди ҳамда юриш-туриш, ўз-ўзига хизмат қилиш, жойни мўлжалга олиш ва хоказо кўникмаларни эгаллашга имқон яратади. Шунингдек, улар талабалар жамоасини қарор топтириш ва мустаҳкамлашда, дўстлик, ўртоқлик хиссини тарбиялашда бебаҳо роль ўйнайди ва ҳаракат малакаларини шакллантиради [1].

Ўйинлар. Кўнгил очишлар. Талабалар билан олиб бориладиган дарсдан ташқари ишнинг энг оддий ва оммавий, шакли ўйин ҳамда кўнгил очишлардир. Ўйинлар талабаларнинг кичик гуруҳлари билан ҳам, икки-учта гуруҳ талабаларининг юқори курслари билан ҳам уюштирилади. Гуруҳ қанчалик катта бўлса, ўйин ташкилотчилари ва ўйинбоши талабалар унга шунчалик яхши тайёрланган бўлишлари керак, яъни инновацион педтехнология усулларида фойдаланиш.

Спорт мусобақалари Таълим муассасаларидаги жисмоний тарбияга оид дарсдан ташқари ишнинг энг қизиқарли шаклларида биридир. Улар талабаларни уйда ва жисмоний маданият жамоаларидаги доимий жисмоний-спорт машғулотларга жалб этишга ёрдам беради, талабаларнинг жисмоний тайёргарлигини оширади, талабалар жамоасини мустаҳкамлайди. Мусобақалар, дарсдан ташқари ишнинг бошқа турлари қатори, Таълим муассасаларининг умумий йиллик иш режасига киритилади. Ўқув йилининг бошида мусобақаларни ўтказиш муддати, қоидалари ва дастурлари аниқ белгилаб олинади. Бу

муддатларни ҳисобга олган ҳолда мусобақаларга олдиндан тайёргарлик кўрилади. Ҳар бир мусобақа муайян низомга мувофиқ ўтказилади. Низомда мусобақанинг мақсади ва вазифалари, вақти ва ўтказилиш жойи, қатнашувчилар, дастури, ўтказилиш шарти ва ҳисобга олиш, энг яхши иштирокчиларни ва командаларни мукофотлаш тартиби, аризалар шакли ва уларни тақдим этиш муддати кўрсатилади. Олийгоҳларда спорт маҳоратини ошириш бўйича гуруҳлар тузилади.

Жисмоний тарбияга оид таълим муассасаларидан ташқари ишларга Талабалар ва ўсмирлар спорт таълим муассасалари, Олимпиада Захиралари Спорт коллежи, спорт таълим муассасалари, Спорт Маҳоратини Ошириш таълим муассасаларида спорт турлари билан ўқув-шуғулланув машғулоти киради. Бу муассасаларда талабалар спорт турлари бўйича махсус тайёргарликлар ўтадилар. Спорт турлари бўйича ихтисосликка эришадилар ва юқори спорт мусобақаларига сараланадилар. Шунингдек, жисмоний тарбиядан таълим муассасаларидан ташқари ишларга таълим муассасалари ўртасидаги ҳар хил спорт мусобақалари ва байрамлардаги беллашувлар, ўртоқлик учрашувлари киради. Яшаш жойларида ҳамда Оилада жисмоний тарбия тадбирлари ўтказиш ҳам шу соҳа вазифаси ҳисобланади ва шунинг оқибатида улар ҳар хил, турли туман, қийин ва осон бажариладиган ҳаракат ва малакаларини шакллантирадилар [2].

Жисмоний тарбияга оид таълим муассасаларидан ташқари ишларга таълим муассасалари ректори, тарбиявий ишлар бўйича ректор ўринбосари ҳамда таълим муассасалари жисмоний тарбия жамоаси раҳбари бошчилик қиладилар. Улар ҳар бир талабани жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланишларини ташкил этишлари ва назорат қилиб боришлари ҳамда рағбатлантириб туришлари ва тиббий назорат остига олишлари шарт.

Жисмоний тарбия мутахассислари тайёрлашда қуйидаги талабларга амал қилинади. Ҳозирги вақтда Олий таълим тизимида муҳим тарихий вазифани амалда тўлароқ ҳал этиш-мамлакатимиз ҳалқ хўжалигига юқори малакали ва билимдон мутахассислар етказиб бериш масаласи ҳал этилмоқда. Бу соҳада мутахассислар тайёрлашни режалаштиришда яхши тажрибалар орттирилган, ҳозир ҳалқ хўжалигининг ҳамма соҳаларини фан, маданият ва санъат мутахассислари билан таъминлаш режали равишда амалга оширилмоқда.

Олий таълим ва ҳалқ хўжалигининг ўсиб бораётган талабини ва келажагини ҳисобга олиб иш кўрмоқда. Бунинг учун Олий ўқув юртларининг профессор-ўқитувчилари таркиби таълимнинг тўрт шартига; ўз фанини аъло даражада билиш, ўз касбини жону-дилдан севиш ва талабаларда ҳам шу фанга мухаббат уйғотиш, синаб кўриш ва амалий ишларни ҳозирги давр талаблари асосида уюштириш, чуқур билимга эга бўлишга риоя қилиб келмоқдалар. Эндиги асосий вазифа тайёрланаётган мутахассисларнинг сифатини янада яхшилашга, уларни ижодий фикрловчи ва ташаббускор мутахассислар қилиб тарбиялашга эришишдан иборатдир. Бу ўз навбатида талабаларда жисмоний тайёргарлик даражасини ошириш, кўплаб турли-туман ҳаракатларни бажара олишини таъминлайди. Ҳар бир жисмоний маданият дарси қуйидаги талабларга жавоб бериши керак:

1.) Муайян-умумий ва хусусий вазифага эга бўлиши лозим. Умумий вазифалар барча дарс ёки дарслар туркуми жараёнида, хусусий вазифалар эса алоҳида олинган бир дарс мобайнида бажарилиши керак; 2.) Дарс услубий жиҳатдан тўғри қурилган бўлиши лозим; 3.) Олдинги машғулотларни изчил давом эттириши ва яхлит ва тугалланган бўлиши керак шу билан бирга у маълум даражада бўлғуси дарснинг вазифалари ва мазмунини кўзда тутиши зарур; 4.) Дарс мазмунига кўра талабаларнинг муайян ёшига, жинси, жисмоний ривожланганлиги ва тайёргарлигига мувофиқ бўлиши керак; 5.) Дарс талабалар учун қизиқарли бўлиб, уларни фаол ҳаракатга жалб этиши лозим бўлиб уларни жисмоний ривожланишига таъсир этиши керак; 6.) Ҳар томонлама жисмоний ривожланишга, соғлиқни мустаҳкамлашга, қад-қоматни шакллантиришга ёрдам берувчи машқлар ва ўйинлар бўлиши лозим, ҳаракат

малакаларини шакллантириб боришини назарга олиши керак; 7.) Ўқув кун тартибидagi бошқа дарслар билан тўғри кўшиб олиб борилиши керак; 8.) Тарбиявий ҳарактерга эга бўлиши зарур. Жисмоний тарбиядаги педагогик жараён натижалари дарсларда олиб бориладиган ўқув ва тарбия ишининг сифатига боғлиқ. Бунга ҳар бир дарс мазмунидаги вазифаларни ҳал этибгина эришиш мумкин [3].

Хулоса

Таълим муассасаларида жисмоний тарбиянинг асосий шакли жисмоний тарбия дарслари ва спорт тўғрақларидир. Дарсларни тўғри ўтказиш жисмоний ривожланишнинг муваффақиятини ва талабаларнинг малака ва кўникмаларни шакллантириш ва такомиллаштириш топшириқларини бажаришларини таъминлайди. Дарсларда, талабаларни машғулот пайтигача ўтказиладиган гимнастика, танаффус ва жисмоний тарбия дақиқаларида фойдаланиладиган машғулотлар материали билан таништирилади. Шундай қилиб, дарслар ўқув кун тартибидagi жисмоний тарбия тадбирларининг ҳам асоси ҳисобланади. Жисмоний маданият дарслари ўз мазмуни ва ташкил этилишига кўра ўзига хос хусусиятларига эга. Улар залда, ёзги майдончаларда ўтказилади, бундай жойларда талабалар ҳаракати чекланмаган бўлиши керак, бу эса болаларни уюштириш ва дарс ўтказишда алоҳида шароит яратади.

Адабиётлар

- 1.Хужаев Ф. Ўзбекистонда жисмоний тарбия. Тошкент. 1997. 234.
- 2.Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва усулияти. Тошкент 2000 й. 156 б.
- 3.Ахматов М.С. Узлуксиз таълим тизимида оммавий спорт-соғломлаштиришишларини самарали бошқариш. Тошкент 2001й. 182б.

Илмий раҳбар

Махмудов В.

СУВ ХЎЖАЛИГИДА ИҚТИСОДЧИ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ БОШҚАРУВ ТУЗИЛМАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Ғуломов М.М. - талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Мазкур мақолада сув хўжалигида фаолият олиб борадиган иқтисодчи кадрлар тайёрлаш ва уларни бошқарув механизмини такомиллаштириш ва ривожлантиришнинг устувор йўналишлари, иқтисодий таълим хизматлари бозоридаги тенденциялар ва сув хўжалиги тизими ўртасидаги бевосита боғлиқлик ҳамда олий таълим муассасаларида кадрлар сиёсатининг мақсади, вазифалари ва тамойиллари ёритилган.

Иқтисодиётнинг асосий ва энг муҳим тармоқларидан бўлган сув хўжалиги тизимида мавжуд инновацион салоҳиятдан фойдаланишнинг илмий амалий ва иқтисодий жиҳатларини тадқиқ этиш, сув хўжалиги тизимининг инновацион таъминоти яъни тизим учун юқори малакали илмий кадрлар салоҳиятини шакллантириш, улар малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш тизимини ривожлантириш бугунги кун миллий иқтисодийотимизнинг асосий масалаларидан биридир. Умумий йондашган ҳолда ушбу масала юзасидан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 24 октябрдаги “Олий таълим соҳасини янада ривожлантириш, кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш, илм-фан ва ишлаб чиқариш интеграциясини кенгайтириш масалалари”га бағишланган йиғилишда бугунги кундаги олий таълим соҳасидаги бир қатор муаммо ва

камчиликларнинг борлиги ҳақида сўз боради. Бундан ташқари Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг 2018 йил 28-декабрдаги Олий Мажлисга қилган мурожатномасида ҳам юқори малакали кадрлар масаласи юзасидан кўп бора тўхталиб ўтди. Жумладан иқтисодий масалалар тўғрисида сўз юритганда қуйидагича фикр билдирди:

– очик иқтисодиёт, соғлом рақобат, ишбилармонлик ва инвестиция муҳитини тубдан яхшилаш учун зарур шароитларни яратиш;

– иқтисодиётда давлат иштирокини камайтириш, хусусий секторни жадал ривожлантириш орқали янги иш ўринларини кўпайтириш;

– иқтисодиётни модернизация ва диверсификация қилиш, меҳнат унумдорлигини ошириш орқали юқори иқтисодий ўсишни таъминлаш;

– “яширин” иқтисодиётга қарши курашиш, унинг ҳажмини кескин қисқартириш;

– валютани эркинлаштириш сиёсатини изчил давом эттириш, барқарор монетар сиёсатни амалга ошириш;

– иқтисодиётни ривожлантиришга доир стратегик вазифаларни рўёбга чиқаришга кодир малакали кадрларни тайёрлаш”.

Ўз навбатида Рақобат муҳитининг кучайиб бориши таълим муассасаларининг, бошқарув қарорларини ишлаб чиқиш ва қабул қилишда масъулияти ва мустақиллигини оширади. Бошқарув қарорларнинг қанчалик самарали бўлиши кўп жиҳатдан муассасадаги бошқарув жараёнини, унинг натижаларини ўз вақтида, ҳар томонлама объектив баҳолаш билан боғлиқ. Бунинг учун эса, замон талабларидан келиб чиқиб, таълим муассасалари бошқаруви жараёни, унинг самарадорлигини баҳолашда замонавий усул ва услубларни қўллашни тақозо қилади. Ҳозирги вақтда таълим муассаси ички муҳитида бошқарувнинг турли бўғинларида самарадорликни баҳолашда содда, қулай, эгилувчан услублар етарли бўлмаганлиги учун уларга эҳтиёж мавжуд. Турли характердаги муаммоларни аниқлаш, таҳлил қилиш ва баҳолашга қаратилган ва энг тўғри қарорга келишни таъминлайдиган кўп мезонли комплекс таҳлил қилиш ва баҳолаш усулларини таълим муассасалари бошқаруви жараёнида самарали қўллаш ўзининг имкониятлари кенглиги ва истиқболлиги билан ажралиб туради. Сув хўжалиги тизимида рақобатбардош иқтисодчи кадрлар тайёрлашнинг устувор йўналишларини белгилаш ва сув хўжалигидаги муассасалари бошқарув жараёни самарадорлигини баҳолаш бозор субъектларида қизиқиш уйғотади ва долзарблигини юқорида келтирилган мулоҳазалар асосида ифодалайди. Сув хўжалиги таълим тизимида малакали, замон талабларига жавоб берадиган, рақобатбардош иқтисодчи кадрларни тайёрлаш, олий таълим муассасалари фаолияти самарадорлигини ошириш ва такомиллаштириш жараёни билан чамбарчас боғлиқдир. Таълим тизимида рақобатбардош иқтисодчи кадрлар тайёрлаш тизимини шакллантириш ва ривожлантиришнинг устувор йўналишлари тўғрисида гапирилганда қуйидагиларга алоҳида тўхталиб ўтиш лозим:

Биринчидан, таълимнинг узлуксизлигини таъминлаш бўйича мактабгача таълим, умумий ўрта таълим ҳамда ўрта махсус, касб-хунар таълимини қамраб олувчи янги узлуксиз ва изчил тизим барпо этилганлиги кўзга ташланади. Мамлакатимизда олий таълим мазмуни давлат таълим стандартлари асосида ислоҳ қилинмоқда. Таълим олувчининг шахси, унда таълим олишга бўлган иштиёқни кучайтиришга, мустақил иш тутишни, ифтихор ва инсоний қадр-қиммат туйғусини шакллантиришга алоҳида эътибор берилади. Илғор педагогик технологиялар, таълимнинг янги шакл ва услублари, ўқув, шу жумладан дифференциялашган дастурлар амалиётга жорий этилди.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, тизимда иқтисодчи кадрларни тайёрлаш фаолияти учун узлуксиз таълим тизимининг асосий концептуалқоидаларини белгилашда қуйидаги устувор йўналишларга таянилади:

-узлуксиз таълим ҳар қандай, шу жумладан, иқтисодий таълим тизимини ташкилий жиҳатдан қайта кўришни назарда тутаяди;

-ўрта махсус, касб-хунар таълими ва олий таълим узлуксиз таълимнинг ажралмас қисми ҳисобланади;

-узлуксиз иқтисодий таълим тизимининг ривожланиши мавжуд таълим тизими ва узлуксиз таълимнинг ноинституционал элементларининг ягона мажмуага интеграциялашиш йўналишидан бориши керак.

Бундан ташқари, узлуксиз иқтисодий таълим тизимини шакллантиришда ва ривожлантиришда қатор устувор йўналишлар кетма-кетлиги ҳисобга олинади. Узлуксиз иқтисодий таълим тизимининг амалиётда Сув хўжалигига жорий этилиши, хусусан, қишлоқ хўжалиги йўналишида юқори малакали иқтисодчи кадрларни тайёрлаш, деҳқончилик махсулотлари ва аҳоли истемолига сув ресурсларини тўғри тақсимланиши, бозор муаммосини туғдириб, таълим жараёни ресурсларни ривожлантиришга катта эътибор бериш кераклигини кўрсатади. Бу эса талаб этиладиган таълим даражаси ва сифати, янги ижтимоий-иқтисодий шароитларда рақобатбардош кадрларни тайёрлаш барқарор тизимини кафолатлашни тақозо этади. Мамлакатимизда иқтисодий таълимни такомиллаштиришда хорижий омиллардан самарали фойдаланиш йўналишлари устувор аҳамият касб этади. Чунки бугунги кун иқтисодчи мутахасислари фақатгинф молия тизими билангина чекланиб қолмасдан мамлакат иқтисодийотининг барча тармоқларида хориж мамлакатлари йетакчи иқтисодчилари билан рақобатлаша оладиган мутахасис бўлишлари талаб этилади.

Шу ўринда алоҳида таъкидлаш лозимки, олий таълим муассасасида кадрлар бошқаруви муассаса кифасини, обрўсини, жозибдорлигини ҳамда жамиятнинг унга бўлган ишончини белгилайди. Олий таълим муассасасининг раҳбари муассаса обрўсини ошириш, бошқарув тузилмаси таркиби ва бошқа олий таълим муассасалари раҳбарлари орасида унинг мавқеини мустаҳкамлаш, шунингдек, жамоатчилик ва бошқарув тузилмаларининг олий таълим муассасаси имкониятларига нисбатан бўлган ишончини ошириб боришдан манфаатдордир. Олий таълим муассасасининг имиджи асосан унда фаолият юритиб келаётган кадрлар салоҳияти, шунингдек, уларнинг таълим беришдаги тажриба ва малакалари натижасида шаклланади. Олий таълим муассасасида кадрлар сиёсати, бошқаруви муассаса раҳбарияти олдида қўйилган асосий мақсад ҳисобланади.

Хулоса

Бутун иқтисодийот тизимида рақобатбардош кадрлар тайёрлаш, уларни Барча тармоқлараро хусусан сув хўжалиги тармоқи учун ҳам малакали йетук мутахасислар тайёрлаш ҳамда Олий таълим муассасасида асосий мақсадга эришиш учун ва кадрлар фаолиятини бошқариш жараёнида самарали натижаларни қўлга киритиш мақсадида кадрлар сиёсатининг назарий томонларига алоҳида аҳамият бериш, шунингдек, назарий жиҳатдан асосланган тартиб ҳамда тамойилларга қатъий риоя қилиш зарур. Олий таълим муассасаларида иқтисодий фанларни ўқитиш жамиятнинг қуйидаги эҳтиёжларига мувофиқ бўлиши талаб этилади:

-иқтисодиётни ривожлантиришда муҳим бўлган янги мутахасисликлар, яъни молия, банк ва суғурта ишлари, сув хўжалигиб, қишлоқ хўжалиги, корпоратив бошқарув ҳамда давлат бошқаруви бўйича малакали кадрларни тайёрлаш;

-бозор муносабатлари тамойилларини кенг тарғиб қилиш ва эркин иқтисодиёт тартиб ва қоидаларини инсонлар онгига чуқур сингдириш;

-таълим тизимида иқтисодчи олимлар, иқтисодчи педагоглар ва иқтисодчи тадқиқотчиларни тайёрлаш.

Юқорида келтирилган йўналишлар фаолиятига тескари таъсир кўрсатувчи омилларга институционал чекланишлар ҳамда маблағлар етишмовчилиги киради, шунингдек, моддий ва молиявий маблағлар, ўқув адабиётлари ва иқтисодчи кадрлар тақчиллиги институционал имкониятлар чекланишига сабаб бўлади. Иқтисодчи кадрларни тайёрлаш тизимини ривожлантиришда устувор йўналишлардан яна бири янги

маълумотлар ва янгиликлар ўқитиш усуллари ўзлаштириш ҳамда жорий этишдан иборатдир. Шунингдек, иқтисодий билимларни кенг тарғиб этишда ва иқтисодий таълим тизимини замон талаблари даражасига мослаштиришда рағбатлантирувчи воситалардан самарали фойдаланиш зарурлигини тақозо этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.- 46 б.
2. Генкин Б.М. Экономика и социология труда: Учеб. для вузов. 5-е изд., доп. М.: Норма, 2003г., -416с
3. Султонов А.С., Худайбергандов З.Д., Кўчқорова С.А. Сув хўжалиги иқтисодиёти. – Т., 2010 й. 27-28 Б
4. Арефьев А. Л. Российские вузы на международном рынке образовательных услуг. – М.: Центр социального прогнозирования, 2007. –26с
5. Другов А. “Проблемы и направления модернизации высшего образования в Украине Вестник” КНЕТУ-2007-№5 127-134с
6. Умурзоқов Ў.П., Абдурахимов И.Л. Сув хўжалиги менежменти. 2 –жилд. – Т.: Иқтисод ва молия, 2008йил, 3–Б.
7. www.president.uz
8. www.Lex.uz
9. www.Economics
10. www.Uznews.uz
11. www.iie.org

Илмий раҳбар

доц. Ходжимухамедова Ш.

МЕХАНИЗМ ВА МАШИНАЛАР НАЗАРИЯСИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА, ПЕДАГОГИК ИННАВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ АСОСЛАРИ

Муродов Д. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Бугунги кунда бутун дунёдаги таълим сифатини оширишга қаратилган глобал тенденциялар яратишга катта аҳамият қаратилмоқда. Шулар билан бир қаторда Республикамиз Олий таълим муассасаларида таълим самарадорлигини ошириш борасида ҳам аниқ мақсадга йўналтирилган, рақобат бардош тизимлар шакллантирилмоқда.

Таълимга бўлган катта эътибор бежиз эмас, зеро ёш давлатимиз жаҳонга юз тутиб, демократия, очиқ бозор иқтисодиётига асосланган жамиятни собитқадамлик билан боқичма-боқич кириб бораётган экан, бу ҳаракатларида шак-шубҳасиз улғайиб бораётган ёшларга таянади. Бу эса ўз навбатида ёшлардан Ватанни ардоқловчи, унинг мустақиллигини кўз қорачигидай асраб-авайлашга, керак бўлса, унинг учун жонини фидо қилишга тайёр, кенг тафаккурли, соғлом, маънавий ва маърифий жиҳатдан баркамол, иқтисодий ислохотларнинг моҳиятини тушунадиган ҳамда уларни янги ижтимоий муносабатларни шакллантириш орқали ҳаётга тадбиқ эта оладиган юқори малакали кадрлар бўлишини тақозо этади.

Педагогик технология терминини қарасак «техника» юнонча сўз бўлиб, «моҳир», «хунарманд», «хунар», «санъат» маъносини билдиради. Технология -хунар, логос – таълимот ёки маҳорат ҳақидаги таълимотдир.

Педагогик технология- бу ўқитувчи томонидан ўқитиш воситалари ёрдамида талабаларга таъсир кўрсатиш ва бу фаолият маъсули сифатида уларга муайян шахс сифатларини шакллантириш жараёндир.

Талабаларга билим беришда замонавий таълим технологияларининг аҳамияти тўғрисида сўз борганда Президентимизнинг “Ўқув жараёнига янги ахборот ва педагогик технологияларни кенг жорий этиш, болаларимизни комил инсонлар этиб тарбиялашда жонбозлик кўрсатадиган ўқитувчи ва домлаларга эътиборимизни янада ошириш, қисқача айтганда таълим-тарбия тизимини сифат жиҳатдан бутунлай янги босқичга кўтариш диққатимиз марказида бўлиши даркор” деган сўзларини таъкидлаш ўринлидир. Бу масала Давлат дастурида ҳам асосий йўналишлардан бири сифатида эътироф этилган.

Ҳаётимизни машиналарсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Мавжуд машина ва мосламаларни ҳаракатини, ишлашини таҳлил қилиш, янги машиналарни яратиш, фан техника тараққиётини асосини ташкил этади. Ушбу масаларни ҳал қилишда машина ва механизмлар назарияси фани асосий ўрин эгаллайди.

Механизм ва машиналар назарияси (ММН) фани механизмларнинг тузилишини, уларни кинематикасини ва динамикасини анализ ҳамда синтез қилиш масалаларни ўргатади.

ММН қуйдаги асосий масалаларни ҳал қилади ва текширади:

а) Механизмлар анализи – бунда мавжуд механизмлар структура схемаси, кинематикаси ва динамикаси жиҳатидан текширилади.

в) Механизмлар синтези. (Механизмларни лойиҳалаш)- берилган геометрик, кинематик ва динамик параметрлар бўйича талаб қилинган ҳаракат қонунини амалга оширувчи механизм лойиҳалаш (яратиш) масаласини ечади.

с) Машина ярим автомат ва автомат – системаларнинг бошқариш назарияси.

Механизмни ҳаракатига содир бўладиган кўзғалиш, тезлик, тезланиш ва ўзгариш қонунларини ўрганиш ва шу асосда янги механизмларни яратиш ММН фанининг асосий вазифасидир.

Ҳозирда компьютерда янги программаларни яратилиши турли машина ва механизмларни лойиҳалаш усулларини такомиллаштириш вазифасидир.

ММН фани механика фанига асосланади. Механика асосан икки қисмдан иборатдир. Умуммуҳандислик фанларини ўзаро боғлиқлиги қуйдаги схема орқали ифодаланган:

Машина – инсон ақилий ва жисмоний меҳнатини осонлаштирувчи ва меҳнат унумдорлиги ошириш, ишлаб чиқаришнинг ақлий ва физиологик вазифаларни бажариш йўлида ишлатиладиган ва инсон томонидан яратиладиган сунъий мосламадир.

Машина маълум тартибда тузилган бўлиб унинг қисмлари муайян ҳаракат қилади ва фойдали иш бажаради.

Машиналарга қуйдаги талаблар қўйилади:

1. Юқори унумдорлик ва сифат;
2. Иқтисодий тежамкорлик;
3. Соддалик, қулайлик, хавфсизлик;
4. Дидга мослик (ихчам ва чиройли-дизайин талаби).

Машиналар асосан уч қисмдан – юритувчи, узатувчи ва технологик жараёни бажарувчи (ишчи) механизмларда иборат.


Машинани асосини кўп ҳолларда ричагли, кулачокли, тишли механизмлар ташкил қилади.

1 – расм. Машиналарнинг куйидаги асосий турлари мавжуддир: Машиналар



Белгиланган ишни (харакатни) инсонни иштироксиз амалга оширадиган машиналарга автоматлар дейилади. Агарда машина ҳаракатида инсонни иштироки қисман бўлса, уна ярим автомат дейилади.

Инсонни ёки ҳайвонларни сунъий моделлари роботлар дейилади. Масалан, манипуляторни структуравий схемасини келтирамыз.



2 – расм


Машиналар турли механизмлардан иборат. Механизм деб, жисмларни (звеноларни) сунъий ҳолда боғланиб, бирининг ҳолатига боғлиқ қолганларининг ҳаракатининг таъминловчи системага айтилади.

Механизм воситасида маълум ҳаракат ҳосил қилиши ёки бирор ҳаракат ўзгартирилиши мумкин.

Умуман куйдаги механизм турлари мавжуд:

1. Ричагли механизмлар.
2. Мушт-ричагли механизмлар.
3. Тишли ғилдиракли механизмлар.
4. Винтли механизмлар.
5. Фрикцион (ишқаланиш) механизмлар.
6. Эгилувчан звеноли механизмлар.
7. Эластик звеноли механизмлар.

- 8. Гидравлик ва кинематик механизмлар.
- 9. Электрик (Эл. момент) механизмлар.
- 10. Электрон механизмлар



3 – расм


Механизмларда бир неча қўзғалувчан ва бита қўзғалмас звено бўлади. Қўзғалмас звенони таянч (устун) деб аталади. Қўзғалувчан звенолар улар механизм таркибида бажарадиган ҳаракатига қараб номланади. Тўлиқ айлана ҳаракат қилувчи звенога **кривошин**, айлана –тебранма ҳаракат қилувчи звенога **чайқалгич (коромысло)**, илгаринланма –қайтма ҳаракат қилувчи звенога **судралгич (ползун)**, мураккаб ҳаракат (текис -паралел) қилувчи звенога **шатун** дейилади. Агарда айланма-тебранма ҳаракат қилса уни тош йўналтирувчисига **кулиса** дейилади. Ричагли механизмларни номланиши асосан уларнинг таркибига звенолар номи билан белгиланади.

Механизм деганда, олдинда берилган ҳаракат қонунини қаноатлантирувчи нисбий ҳаракат қилувчи система тушунилади. Механизмда албатта кирувчи ва чиқувчи, етакловчи ва етакланувчи звенолар бўлади.

Кривошин судралувчи механизм схемаси:

- 1-кривошин
- 2- шатун
- 3-судралгич (ползун)
- 4-тянч (қўрсатилмаган)


Илова 2.4.



4 – расм

Кулисали механизм схемаси:

- 1 – кривошин
- 2 – кулиса
- 3 – тош
- 4- таянч (кўрсатилмаган)



5 – расм

Коромыслоли механизм схемаси:

- 1. Кривошин
- 2. Шатун
- 3. Коровисло

Фазода жисм 6 ҳаракат эркинлигига ега. Ўқлар бўйича – илгаринланма –қайтма ва айланма.

Эркинлик даражасини аниқлаш учун ҳаракатларга қўйилган боғланишлар ёки чекланишларни айириб ташланади.

$$S = 6 - H .$$

Боғланиш шартини “S” билан белгилаймиз.

6-фазодаги (максимал) эркинлик даражаси.

Масалан: $H = 6 - S = 6 - 1 = 5$ ёки $S = 2$ да $H = 6 - 2 = 4$ та эркинликка ега.

Мисол: Шар 5 та ҳаракатга (эркинлик) ега, $H = 5$; $S = 1$. Текисликдаги цилиндр 4 га эркинликка ега, $H = 4$; $S = 2$

3) Текисликдаги призма 3 та ҳаракатга ега. $H = 3$; $S = 3$

4) Вални таянчга нисбатан икки ҳаракати (эркинлик мавжуд). $H = 2$; $S = 4$

5) Ўқни таянчга нисбатан фақат айланма ҳаракати (эркинлиги) мавжуд,

$$H = 6 - S = 6 - 1 = 5 \quad 5\text{- синф } S = 5$$

4- звеноли шарнирли механизмда:

О -5 синф айланма кинематик жуфт

А -5 синф айланма кинематик жуфт

Б -5 синф айланма кинематик жуфт

Б₁ -5 синф айланма кинематик жуфт

Звеноларни кинематик жуфт билан боғлаш натижасида уларнинг эркинлик даражаси ўзгаради.

Агарда 2 таси боғланиб, ҳар бирининг эркинлик даражаси ўзгарса, бунда турли тоифадаги кинематик жуфтларни ҳосил бўлишини кўрсатиш мумкин.

Кинематик жуфтлар синфларга бўлиниши боғланишлар сони С билан белгиланади.

$$S_1 = 1 \text{ (1 синф) } - P_1$$


$$S_2 = 2 \text{ (2 синф) } - P_2$$

$$S_3 = 3 \text{ (3 синф) } - P_3$$

$$S_4 = 4 \text{ (4 синф) } - P_4$$

$$S_5 = 5 \text{ (5 синф) } - P_5$$

Икки звеноли кинематик жуфт орқали боғланишда тегиб турган ерларига **кинематик элемент** дейилади. Бунда кинематик жуфтлар **олий** ва **қуйи** турларга бўлинади. (Расм-6)



6 – расм

Боғланиш элементи нуқта ёки чизик бўлса, олий, юза ёки текислик бўлса, қуйи деб аталади.

Харакат турига қараб айланма ва илгаринланма кинематик жуфтлар бўлиши мумкин.

Адабиётлар

- 1.Х.Х. Усмонхўжаев. “Механизм ва машиналар назарияси” 1981 й. 3-20 бетлар.
- 2.К.В. Фролов ва бошқалар “Механизм ва машиналар назарияси”, Ўқитуви, 1990й, 4-17 бетлар.
- 3.Р.Х. Қодиров “Механизм ва машиналар назариясидан курсавий лойиҳалаш” Тошкент “Ўқитувчи”-1990й. 6-11 бетлар.

Илмий раҳбар

Рустамов К.

АДАПТАЦИЯ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ К ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ

Ёкубова Н. – студентка, ТИИИМСХ

Аннотация

В работе рассматривается феномен адаптации личности в быстроменяющейся внешней среде; приводятся определения понятия адаптации, предложенные различными учеными; анализируются ее виды и функции. Исследуется процесс адаптации педагога в системе его непрерывного профессионального образования, выделяются этапы этого процесса, факторы, влияющие на успешность адаптации преподавателя. Предлагается на основе

существующих институциональных форм подготовки преподавателя вести процесс адаптации более целенаправленно и эффективно.

Введение: Адаптация как процесс и адаптированность как свойство личности неразрывно связаны с информационными процессами, происходящими сегодня в природе, обществе, техносфере. Адаптация возможна только в сложных самоорганизующихся открытых системах, обменивающихся информацией с внешней средой. Наше общество вступило в постиндустриальную эпоху своего развития, которая характеризуется экспоненциально нарастающим потоком информации, быстрым количественным и качественным формированием ноосферы. В этих условиях как никогда важен процесс адаптации человека в обществе, в профессиональной деятельности, в личной жизни.

Изменения в социуме превосходят динамику личностной готовности к их адаптации. Адаптация как процесс и адаптированность как свойство личности становятся для преподавателя основополагающими в процессе его подготовки и профессиональной деятельности [2].

Первые научные представления о биологической адаптации были заложены Ч. Дарвином и его последователями. Адаптация рассматривалась ими как совокупность полезных для организма изменений, представляющих собой более или менее верное отражение окружающей среды. Исследования И. М. Сеченова, И. П. Павлова, расширив наши представления об адаптации, привели к пониманию того, что в основе биологической адаптации лежит одно из самых существенных свойств живой материи - стремление к равновесию. Сущность жизни и ее развития определяются внутренними противоречиями, единством и борьбой противоположных процессов, таких как устойчивость и изменчивость, ассимиляция и диссимиляция, действие (активность) и противодействие (реактивность), возбуждение и торможение. Адаптация выступает мерой единства этих противоположностей, результатом и средством разрешения внутренних и внешних противоречий жизни, а тем самым и одним из универсальных имманентных ее двойств [5].

С позиций биологии и физиологии приняты два контекста понятия адаптации: как механизма эволюции биологического вида, сообщества и как механизма приспособления отдельных индивидов к воздействию внешней среды. С позиции социальных наук предлагается несколько формулировок феномена адаптации и его характеристик. «Адаптация» (от лат. *adaptatio* - приспособлять, устраивать) - приспособление организма, личности, их систем к характеру отдельных воздействий или к изменившимся условиям жизни в целом. Адаптация компенсирует недостатки привычного поведения в новых условиях. Благодаря адаптации создаются возможности для оптимального функционирования организма, личности внеобычной обстановке.

Для индивидуума социальная адаптация является основополагающей по отношению ко всем другим видам адаптации. Социальная адаптация – это приобщение личности к определенным видам деятельности, которые происходят в данном социуме, иными словами, «усвоение личностью социального опыта общества в целом той среды (микросреды), к которой он принадлежит» (Медведев Г.П., Рубин Б.Г., Колесников Ю.С., 1969). Более емкая трактовка, принадлежащая А.Г. Морозу позволяет определить социальную адаптацию как многофакторный и многомерный процесс вхождения личности в новое социальное окружение с целью совместной деятельности в направлении прогрессивного изменения как личности и среды (Мороз А.Г., 1983).

Применительно к высшей школе социальной средой для начинающего преподавателя являются педагогические коллективы кафедр, факультетов, вузов, которые должны обеспечить "приобщение, взаимодействие, согласование" к ней каждого конкретного преподавателя. Ученые установили ряд особенностей социальной адаптации, в основе которых находятся следующие аспекты:

1. социальная адаптация имеет социально трансформированные способы и средства вхождения личности в социальную среду, отличающиеся от приспособительных механизмов в животном мире;

2. социальная адаптация личности является динамическим явлением, имеющим ряд этапов, последовательность развертывания которых различна у разных индивидов;

3. в общественной жизни адаптация личности выступает условием и предпосылкой эффективной человеческой деятельности

4. результатом адаптации личности, отражающим степень ее включенности в социальную среду и характер взаимоотношений с ней, является такое свойство как адаптированность.

Психологическая адаптация тесно связана с социальной и обусловлена общественным характером изменений окружающей среды, человеческого сознания. Психологическая адаптация представляет собой процесс, возникающий в ответ на значительную новизну окружающей среды, включающей мотивацию адаптивного поведения человека, формирование цели и программы его поведения. Психологическая адаптация придает динамике адаптивной деятельности индивидуально–эмоциональную окраску в соответствии с особенностями психики индивида [4].

Характер протекания психологической адаптации зависит от особенностей профессиональной адаптации, так как источником эмоциональной напряженности и дискомфорта могут стать ошибки и неудачи профессионального плана. Согласно теории А.Л. Венгер, причина дезадаптации индивида может заключаться в психологических особенностях адаптируемой личности; особенностях его деятельности; особенностях складывающихся в этой деятельности взаимоотношений с окружающими (Венгер А.Л., 1995). С еще более широких позиций подходят к рассмотрению профессиональной адаптации С.Л.Арефьев, Г.П.Баранова, В.В.Синявский, Г.М.Федосимов, Г.М.Чурекова и др. Авторы включают в понятие «профессиональная адаптация» и социальный компонент, отражающий процесс вхождения молодого специалиста в новую социальную среду, в систему межличностных отношений определенного коллектива, во время которого происходит выработка эталонов мышления и поведения в соответствии с системой ценностей и групповых норм данного коллектива. «Эти три компонента в профессиональной адаптации тесно взаимосвязаны и в практической деятельности взаимообуславливают друг друга, образуя единое целое» (Чурекова Г.М., 1989).

Подобной точки зрения придерживаются Н.З.Касаткина (Касаткина Н.Э., 1970), Г.И.Насырова, (Насырова Г.И., 1985), которые при определении профессиональной адаптации указывают на достижение соответствия профессиональной подготовленности не только требованиям конкретного вида профессиональной деятельности, но и требованиям, нормам, установкам определенного трудового коллектива. Профессиональная адаптация носит многофункциональный характер. Во-первых, она является необходимым условием и, одновременно, средством оптимизации взаимодействия человека с профессиональной деятельностью и профессиональной средой. Во-вторых, она способствует развитию человека и является составной частью профессионального развития личности. В-третьих, она является необходимой при овладении человеком любой профессиональной деятельностью. Профессиональная адаптация представляет собой овладение человеком ценностными ориентациями в рамках данной профессии, осознание мотивов и целей в ней сближение ориентиров человека и профессиональной группы на основе подготовленности к профессиональной деятельности.

Профессиональная адаптация представляет собой длительный последовательный процесс, включающий начальный или подготовительный период, который завершается выбором профессии и подготовкой к будущей профессиональной деятельности, и непосредственный период адаптации на рабочем месте. Подготовительный период играет

ключевую роль в успешности профессиональной адаптации и предоставляет эффективные средства управления данным процессом.

Первой ступенью адаптации к профессиональной деятельности, с точки зрения В.Сенашенко является этап профессионального образования (Сенашенко В., Казарин Л., Кузнецова В., Сенаторова Н., 1996). Следовательно, в первую очередь, необходимо рассмотреть адаптацию студентов – будущих преподавателей высшей школы [6].

Перечисленные виды адаптации студентов вуза существуют не изолированно, сами по себе, а входят в общую структуру процесса адаптации студентов, взаимообуславливают и дополняют друг друга на различных уровнях адаптации, обеспечивая интегративную характеристику этого процесса. На психофизиологическом уровне процесс адаптации связан с тем, что с поступлением в вуз юноши и девушки попадают в непривычные условия, в результате чего происходит ломка выработанного раннего динамического стереотипа, формируются новые установки, навыки и привычки.

На профессиональном уровне процесс адаптации связан с вооружением знаниями, формированием профессионального интереса, обеспечением успешной первичной профессиональной адаптации студентов. На педагогическом уровне процесс адаптации связан с особенностями приспособления к иной системе обучения, с формированием зрелой личности, подготовкой «человека умелого и мобильного», способного безболезненно вписаться в контекст современных общественных и профессионально-педагогических процессов. Цель образования - научить молодого человека жить в быстро меняющемся мире, носит по большей части обеспечивающий адаптационный характер.

Социально-педагогическая адаптация студентов - это процесс приспособления личности к образовательному процессу вуза, активного освоения норм, ценностей, особенностей педагогической профессии, приобретение умений и навыков будущей профессиональной деятельности, обеспечивающих принятие на себя новой социальной роли, гармоничное вхождение личности в систему социальных отношений. Ученые Б.Г. Ананьев, А.В. Дмитриев, З.Ф. Есарева, И.С. Кон, Н.В. Кузьмина, Ю.Н. Кулюткина, В.Т. Лисовский, П.А. Просецкий, А.А. Реан, В.А. Слостенин, В.А. Якунин изучали личность студента с социально-психологической и психолого- педагогической позиций. Они считают, что студенческий период является наиболее активным в развитии нравственных и эстетических чувств, становлении и стабилизации характера, овладении полным комплексом социальных ролей взрослого человека, преобразовании мотивации и системы ценностных ориентаций, формировании специальных способностей.[1]

Студенческий возраст является сензитивным периодом для развития основных социальных потенциалов человека. Высшее образование оказывает огромное влияние на психику человека, развитие его личности. За время обучения в вузе происходит развитие всех уровней психики, формируется склад мышления, который характеризует профессиональную направленность личности. Предпосылкой успеха адаптации студента является наличие у него соответствующих средств адаптации. Средства адаптации к педагогической деятельности у разных студентов качественно различны, они могут быть представлены отдельными приемами, способами действий, навыками, педагогическими способностями. Концепция «компенсаторного механизма» А.А.Реана и Я.Л.Коломинского

(Реан А.А., Баранов А.А., 1997) выражается в том, что недостаток педагогических способностей может компенсироваться развитием мотивационной сферы, т. е. формированием интереса и осознанием выбора профессии. Но значительное место в процессе адаптации принадлежит усилиям самого студента, его готовности к самосовершенствованию.

Адаптацию можно считать успешной, если в ходе приспособления молодого специалиста достигнуты положительные результаты в профессиональной сфере (в целом освоена педагогическая деятельность, осуществляется творческий подход к методикам преподавания, профессиональное мастерство высоко оценивается коллегами и

учащимися). В сфере отношений и взаимодействия с коллегами отмечается психологический комфорт, а психофизиологическое состояние не приводит к появлению нервно-психических заболеваний. В таком случае можно говорить об оптимальной адаптации. Совокупность профессиональных, социально-психологических и физиологических показателей (состояние здоровья) может использоваться для комплексной оценки качества адаптации молодого специалиста.

Заключение

Явление профессиональной адаптации было рассмотрено нами на разных этапах подготовки преподавателя к профессионально-педагогической деятельности: в вузе, в магистратуре и аспирантуре, в процессе стажировки начинающих преподавателей высшей школы, в начале самостоятельной профессиональной деятельности молодого преподавателя. Можно ли говорить, что адаптация преподавателя прекращается в первые три-пять лет после начала его трудовой деятельности? Конечно, нет. Процесс адаптации преподавателя должен продолжаться непрерывно, переходя на более высокий уровень своего развития, при котором основополагающими должны стать такие умения как самоанализ и коррекция собственной деятельности, саморазвитие личности. Непрерывной профессиональной подготовки преподавателя высшей школы, последним из которых является усвоение параллельно разных видов и разных направлений профессионально-педагогической деятельности, что позволяет преподавателю быть высокоподвижным в постоянно меняющихся внешних условиях среды. Здесь основным параметром выступает его разносторонняя профессиональная эрудиция и функциональная грамотность, а результатом – профессиональная мобильность. Мобильность преподавателя высшей школы – наиболее высокий уровень его адаптации к профессиональной деятельности, позволяющий педагогу непрерывно совершенствоваться как личности и как профессионалу.

Литература

1. Матушанский Г.У., Фролов А.Г. Проектирование моделей деятельности, личности и непрерывной профессиональной подготовки преподавателя высшей школы. – Казань: Казан.гос.энерг.ун-т, 2004. – 112с
2. Мороз А. Г. Адаптация молодого учителя. - Киев, 1990. - 52 с
3. Реан А.А., Баранов А.А. Факторы стрессоустойчивости учителей // Вопросы психологии. -1997.- №1.- С.45-54.
4. Сенашенко В., Казарин Л., Кузнецова В., Сенаторова Н. О подготовке педагогических кадров в магистратуре // Высшее образование в России. -1996.-№3.С.25.
5. Учитель: крупным планом. Социально-педагогические проблемы учительской деятельности /Под ред. С.Г.Вершловского.- СПб.: СПбГУПМ, 1994.-132 с.
6. Чурекова Т.М. Профессиональная адаптация выпускников университета к деятельности учителя средней общеобразовательной школы: Кемерово, 1989.- 208 с.

Научный руководитель

Phd. Мукумова Д.И.

ПЕДАГОГИК ЖАРАЁННИ ЛОЙИХАЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИНГ УМУМИЙ МОҲИЯТИ

Жуманазарова К.Ш. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Мақолада интерфаол усулларни ўқув жараёнида қўллаш, педагогик жараёни лойиҳалашда педагогик воситалар мазмуни ва имконияти, гуруҳларга аниқ йўл-йўриқ кўрсатиш, топшириқларни бажариш учун етарли вақт ажратиш, кучли гуруҳларни рағбатлантириб бориш кабиларга аҳамият бериш билан бирга кичик гуруҳлар билан ишлаш кенг қўлланиладиган интерфаол методлар тўғрисида атрофлича маълумотлар келтирилган.

“Таълим тўғрисидаги” Қонун, “Кадрлар таёрлаш миллий дастури” асосида таълим тизимини тубдан ислоҳ қилиш, таълим жараёнининг замонавий таълим усуллари, янги педагогик технологиялар асосида ташкил қилиш долзарб муммолардан бири бўлиб, бир неча йиллардан буён бу тадқиқот устида иш олиб борилмоқда.

Интерфаол усулларни ўқув жараёнида қўллаш таълим тизимида кенг тарқалиб бормоқда. Бу ўз навбатида ўқув жараёнини либерализация қилиш, демократлаштириш, ҳамкорлик ҳам ижодкорликда ташкил этишни тақозо этмоқда.

Лойиҳалаш педагогик жараёнини ташкил этиш ва унинг муваффақиятли кечишини таъминловчи муҳим шартлардан биридир. Педагогик жараёни лойиҳалашда:

- 1) Педагогик фаолият мазмуни таҳлил қилиш.
- 2) Натижаларни олдиндан кўра билиш.
- 3) Режалаштирилган фаолиятни амалга ошириш лойиҳасини яратиш каби вазифалар бажарилади [1].

Бу босқичда ўқитувчининг мустақил, шу билан бирга талаба билан ҳамкорликда ўқув жараёнини мазмуни, воситаларини белгилаш асосида лойиҳалаштирилган фаолият етакчи ўрин тутаяди. Демак:

Лойиҳа - мазмун - фаолият. Училиги асосида ташкил этилувчи фаолиятнинг умумий моҳиятини яхлит ифодалашга хизмат қилувчи лойиҳани яратишдир.

Лойиҳалар предмети ва унинг йўналишига кўра бир биридан фарқ қилади. Педагоглар томонидан кетма-кет амалга оширилувчи ва ташхиснинг қўйилиши билан яқунловчи таҳлилий фаолият, олдиндан кўра билиш ва лойиҳалаш ҳар қандай ҳолатда ижодий фаолиятларни намоён қилади.

Педагогик жараёни лойиҳалашда педагогик воситаларни қўллаш мазмуни ва имкониятигина ҳисобга олинмаслиги керак, у асосан алоҳида талабалар, гуруҳлар томонидан ташкил этилувчи фаолият мазмунини ёритиши зарур.

Лойиҳалаш таълимнинг ижтимоий, педагогик мақсадларга таянган ҳолда педагогик жараёни акс эттирувчи умумий стратегия ҳисобланади. Лойиҳалашда ўқув режаси, дастурлари, дарслик методик тавсиялар ва бошқа ўқув қўлланмалар муҳим манба бўлиб хизмат қилади.

Интерфаол метод технологиясининг моҳияти ўқучиларнинг ижодкорлигига таяниш ва дарсда эркин баҳс-мунозара шароитини туғдиришдан иборат. Бу методга кўра дарслар бир неча босқичга бўлинади.

1. Чақириқ босқичи. Бу босқичда талабаларни фаоллаштириш, мавзунинг мазмун-моҳиятига кириб бориш, уни англаб етиш жараёнига тайёрлаш мақсади кўзда тутилади.

2. Ақлий ҳужум. Бу усул дарснинг бошланишида ёки исталган жойида қўлланиши мумкин. Бу босқичда муаммо талабаларга ақлий ҳужум йўли билан берилади ва уларнинг фикрлари орқали очилади.

3. Англаш босқичи. Мавзуга оид хулосавий фикрлар эшитилади ва ўқитувчи томонидан янги фикрлар билан тўлдирилади.

4. Фикрлаш босқичи. Мавзу юзасидан ўзлаштирилган билим ва тушунчаларни қисқа жумлаларда талқин қилиш топширилади. Бу топшириқни бажариш учун гуруҳ кичик гуруҳчаларга бўлинади. Ҳар бир гуруҳ топшириқ бўйича ўз фикрини ёзади ва ҳар бир гуруҳ вакили бажарилган топшириқни бошқаларга маълум қилади [1].

Гуруҳлар билан ишлаш фақат фикрлаш босқичида эмас, балки биринчи босқичдан бошлаб йўлга қўйилиши мумкин. Талабаларни гуруҳларга бўлиб ишлаш учун куйидаги талабаларга амал қилиш зарур.

1. Гуруҳларга ажратиш ўқитувчи томонидан амалга оширилади.
2. Ҳар бир гуруҳга раҳбар тайинланади.
3. Ҳар бир гуруҳдаги талабалар билим даражасининг тенг бўлишига эришиш керак.

4. Гуруҳ доира шаклида ўтириши лозим.
5. Иш жараёнида ҳар бир гуруҳнинг фаолиятига, ғояларига эътибор берилади.

Булардан ташқари гуруҳларга аниқ йўл-йўриқ кўрсатиш, топшириқларни бажариш учун етарли вақт ажратиш, кучли гуруҳларни рағбатлантириб бориш ишнинг натижасини баҳолаш кабиларга ҳам аҳамият бериш мумкин ҳисобланади. Дарс жараёнида гуруҳ аъзоларини алмаштириб бориш ҳам мумкин. Интерфаол метод ўз ичига “Кичик гуруҳлар билан ишлаш”, “Бахс-мунозара”, “Гуруҳлар аро беллашув”, “Ақлий ҳужум”, “Танқидий фикрлаш” каби методларни қамраб олади.

Кичик гуруҳлар билан ишлаш кенг қўлланиладиган интерфаол методлардан бўлиб, бу метод талабаларнинг дарсдаги фаоллигини таъминлайди. Уларни мунозарада қатнашиш ва бошқалар фикрини кадрлашга ўргатади. Гуруҳлар билан ишлаш талабалар ўртасида вазифаларни аниқ тақсимлашга таянади.

I-гуруҳда ўтиладиган “Таълим методлари” мавзусини интерфаол метод асосида ўрганиш ҳақидаги фикрларимизни баён қиламиз.

Ўтилган мавзу таълим методлари ҳақида бўлиб, унга доир билимлар савол-жавоблар ва топшириқлар орқали мустаҳкамлангандан сўнг янги мавзу эълон қилинади. Ўқитувчи мавзунини эълон қилиб, бугунги ўтиладиган дарснинг мақсадини тушунтиради ва бу мақсадга эришиш учун синфнинг гуруҳларга бўлиниб ишлашини айтади.

I- гуруҳ талабалари ўқитувчи томонидан тўртта гуруҳга бўлинади. (Бу гуруҳлар сони бундан бошқача бўлиши ҳам мумкин, биз мавзунинг моҳиятидан келиб чиқиб тўртта гуруҳга ажратамиз).

- 1-гуруҳ “Зукко”
- 2-гуруҳ “Зиё”
- 3-гуруҳ “Ибора”
- 4-гуруҳ “Боғловчи”

Ўқитувчи гуруҳларнинг вазифасини тушунтириб, уларга куйидаги саволларни беради.

1. Таълим методлари деб нимага айтилади?
2. Интерфаол таълим деганда нимани тушунамиз?

Талабалар педагогика фанидан ўтилган “Интерфаол таълим” мавзуси бўйича олган билимлари асосида саволларга жавоб берадилар.

“Ақлий ҳужум” методи бирор мавзу юзасидан берилган муаммоларни ҳал этишда кенг қўлланилади. Мазкур метод талабаларни муаммо ҳусусида кенг ва ҳар томонлама фикр юритишга ундайди. “Ақлий ҳужум” методи ёрдамида қўйилган муаммо юзасидан бир неча ечимларни топиш имконияти юзага келади. “Ақлий ҳужум” методидан фойдаланишда куйидаги қоидаларга амал қилиш лозим:

- Берилган муаммо юзасидан талабаларнинг атрофлича ва чуқур мулоҳазалар юритишга ундаш ва шунга эришиш;

- Талабаларнинг фикрлари ва ғояларини рағбатлантириб бориш, танқид остига олмаслик, уларнинг эркин фикрлашларига шароит яратиш;

- Ҳар бир талаба фикри ва ғоясини баҳоламаслик;

- Бундай йўл тутилса, янги фикр ва ғоялари баҳоланса талабалар фикрларидан тўхтаб қолишлари мумкин.

“Ақлий ҳужум” методи асосида ташкил қилинган машғулотлар қуйидаги тартибда ўтказилади. Муаммо аниқланади ва талабаларнинг муаммо юзасидан фикрлари ёзув тахтасига ёки варақларга ёзиб борилади. Билдириладиган ғояларнинг муаллифлар томонидан асослаб беришга эришилади. Педагогика фанида кўплаб мавзуларни шу метод ёрдамида ўрганиш мумкин. Жумладан, айрим маърузаларни ўргатишни шу метод асосида ташкил қилиш мумкин [2].

Педагогика дарслигидаги “Таълим методлари” маърузаси илмий услубда берилган бўлиб, талабалар маърузаларни таққослаб, уларнинг ўхшаш ва фарқли томонларини аниқлайдилар, ҳамда мазкур маърузани “Ақлий ҳужум” методи ёрдамида ўрганиб, кўзлаган мақсадга эришиш йўллари топадилар. Бу метод асосида маърузани ўзлаштириш бир неча босқичда олиб борилади.

1-босқич. Талабаларни мавзунини тушунишга тайёрлаш. Ўтган машғулотларда берилган таълим методларига оид маълумотлар эсга олинади ва такрорланади, ҳар бир таълим методларининг ўзига хос хусусиятлари ёдга олинади. Чунки маърузаларни таққослаш учун талабаларда таълим методларига оид маълумотлар етарли бўлиши керак. Таълим методларига оид билимлар ёдга олингандан сўнг, ҳар икки маъруза талабалар томонидан мустақил ўқиб чиқилади. Талабалар маъруза мазмунини тушунишга ҳаракат қиладилар [1].

2-босқич. Берилган маърузаларнинг ўхшаш томонларини аниқлаш. Бунинг учун ўқитувчи талабаларга қуйидаги саволни беради: Ҳар икки маъруза қайси жиҳати билан бир-бирига ўхшайди?

Талабалар мазкур саволга шундай жавоб берадилар:

- ҳар икки маъруза ҳам таълим методлари ҳақида;
- мавзунинг мазмуни бир хил;
- ҳар икки маърузада ҳам таълим жараёнларида интерфаол методлардан фойдаланиш йўллари тўғрисида фикр билдирилган.

Ўқитувчи талабаларнинг таълим методлари ҳақидаги фикрларини умумлаштиради ва ўз муносабатини билдиради.

Хулоса

Шуни айтиш жоизки, интерфаол методлар энг самарали методлардан бўлиб, барча талабаларни мустақилликка ва ижодкорликка, таълим жараёнларида интерфаол методлардан фойдаланиш йўллари тўғрисида ўз фикрларига эга бўлишларига ундайди.

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Н.Н. Азизходжаева “Педагогик технология ва педагогик маҳорат”. Тошкент, 2005.
- 2.“Таълим ва технология” (Илмий-услубий мақолалар тўплами) Тошкент -2007.

Илмий раҳбар

кат., ўқит., Мадазизова Д.Р.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА МУАММОЛИ ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН Фойдаланишнинг ўрни ва афзалликлари

Имомалиева С. - талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада таълим муассасалари ўқув жараёнида муаммоли ўқитиш технологиясининг мазмун-моҳияти, ундан фойдаланишнинг аҳамияти, афзаллик ва камчиликлари ёритиб берилган.

Замонавий таълим стандартлари – фан ва техника тезкор ривожланаётган бугунги кун талабларига жавоб бера оладиган юксак малакали мутахассисларни тайёрлашни, талабаларнинг танлаган мутахассисликлари бўйича мустақкам билим, кўникма ва малакаларини шакллантиришни, мустақил равишда амалий фаолиятга ўргатишни таъминлаши лозим [1].

Ўзбекистоннинг “Таълим тўғрисида”ги қонуни, “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”да ва таълим тизимига таалуқли амалдаги қонун ҳужжатларида таълим жараёнига ўқитишнинг илғор шакллари, янги педагогик технологияларни, ахборот технологияларини кенг жорий этиш долзарб вазифалардан қилиб белгиланган [2].

Шунинг учун ҳам тадқиқотчилар ва илғор ўқитувчилар талабаларда ўқув фаолиятига ижодий ёндашишни ривожлантириш йўллари, технологиялари ва стандартларини яратиш борасида тадқиқотлар олиб бормоқдалар. Бугунги кунда таълим жараёнида ижобий самара бераётган илғор педагогик технологиялардан бири – муаммоли ўқитишдир.

Ҳозирги замон психологияси ва дидактикаси шунга асосланадики, фикр юритиш жараёнининг бошланғич вазияти, одатда муаммоли вазият бўлади. Инсонда бирор нарсани тушунишга эҳтиёж пайдо бўлгандагина у фикр юрита бошлайди.

Таълимдаги оғзаки, кўрсатмали ёки амалий методларнинг ҳар бири бола онгида муаммоли вазият яратиши мумкин. Шу муносабат билан педагогикада муаммоли таълим ҳақида ҳам сўз юритилади.

Таълимга муаммоли ёндашиш ўқув дастурларида ҳам, ўқувчиларнинг мустақил иши ва бошқаларда ҳам ўзининг ифодасини топиши лозим.

- Билимларни муаммоли баён қилиш;
- Баённинг айрим босқичларида ўқувчиларни изланишга ундаш;
- Таълимнинг тадқиқий методи.

Муаммоли таълимнинг учта турини бирлаштирувчи умумийлик муаммони ҳал қилиш воситасида ўқитишдир. Улар ўқитувчилар мустақил изланиш фаолиятининг даражаси билан фарқланади.

Муаммоли таълим деганда ўқув материални ўқувчилар онгига илмий изланишга ўхшаш билиш вазифалари ва муаммоларини вужудга келтирадиган йўсинда ўрганиш тушунилади. Ўқувчи (талаба)нинг фикрлаш фаолиятида муаммоли вазиятлар вужудга келади ва улар талаба (ўқувчи)ни объектив равишда изланишга ва мантиқан тўғри илмий хулосалар чиқаришни ўрганишга даъват этади.

Ўқувчи ёшларнинг фикрлаш фаолиятида муаммоли вазиятларнинг шаклланиши уларнинг шахсида қизиқувчанлик, ўткир зеҳнлилик мустақиллик, ўқишга қизиқиш ва ижодга интилиш каби фазилатларни тарбиялайди.

Муаммоли таълим – илмий билишни ривожлантириш зарурлигини ифодалашнинг субъектив шаклидир. У муаммоли вақтнинг, янги жамият ривожланиши жараёнида билиш ва билмаслик ўртасида объектив равишда вужудга келадиган вазият. Муаммоли вазият ўқувчининг маълум руҳий (психик) ҳолати бўлиб, бу ҳолат маълум топшириқни бажариш (масала эчиш, саволга жавоб топиш) жараёнида зиддиятни англаш туфайли вужудга келади. Ана шу зиддиятни англаш ўқувчиларда предмет тўғрисидаги, ишни бажаришнинг усули ёки шартлари тўғрисидаги янги билимларни излаш эҳтиёжини уйғотади [3].

Ўқувчиларда билишга ҳавас, излаш-қидиришга ундайдиган, масалани ҳал қилиш жараёни билан боғлиқ интеллектуал ҳислар ва руҳий кечинмалар ҳосил қиладиган муаммоли вазият яратиш лозим. Шунда у ўқув материални ўқиш, яхши баҳолар олиш ва ўқитувчиларнинг талабларини бажариш зарур бўлгани учунгина эмас, балки излаш-қидиришга ва қўйилган муаммони ҳал қилишга шахсан қизиққани ва интилгани учун ҳам ўзлаштишга ҳаракат қилади.

Муаммоли ўқитиш замонавий таълим беришнинг энг самарали усулларида бири бўлиб, у асосан илмий билимлар асосида муаммоли вазиятлар мантиқини намойиш этади. Муаммоли таълимни ташкил қилиш орқали талабанинг ўқув-билув фаолиятини йўлга

қўйиш ва шу орқали ўқув фанидаги маълумотларни, хулосаларни мустақил ўрганиб чиқиш жараёнлари амалга ошади. Ўқитувчининг фаолияти мазмуни шундан иборатки, у энг

мураккаб тушунчаларни, фактларни тушунтира бориб зарур дақиқаларда муаммоли вазиятни вужудга келтиради ва муаммони ҳал қилишга талабани йўллайди [4].

Муаммоли ўқитиш жараёнида ўқитувчи аввало муаммоли вазият яратади, саволлар қўяди, масалаларни, экспериментал топшириқларни таклиф этади ва вазиятни ечишга қаратилган муҳокама уюштиради. Талабалар олдинги билимлари ва тажрибаларига асосланиб муаммоли вазиятни ҳал қилиш йўллари тўғрисида ўйлайдилар ва таклифлар киритадилар. Олдин олган билимларини умумлаштириб, ҳодисаларнинг сабабларини аниқлаган ҳолда, уларнинг келиб чиқишини тушунтирадилар, муаммоли вазиятни ечишнинг энг оқилона вариантини қидирадилар. Бу услуб талабаларнинг фанга нисбатан қизиқишини оширибгина қолмай, уларнинг фикрлаш қобилиятини ҳам ривожлантиради.

Албатта, муаммоли ўқитиш методини ташкил этиш куйидаги босқичларда олиб борилади: тайёрлов, танишув, таҳлил ва якуний қарор қабул қилиш босқичларига бўлинади.

Тайёрлов босқичида ўқитувчи мақсадни белгилаб, керакли вазият режасини ишлаб чиқади, яъни:

- Яратиладиган муаммоли вазият назарий курснинг мантиқан давом эттириши ва талабаларнинг келгусидаги касбий эҳтиёжларига мувофиқ бўлиши керак;

- Қўйилаётган муаммо мураккаблиги даражаси талабаларнинг имконияти даражасида бўлиши керак, талаба бир томондан вазифани бажара олиши керак, иккинчи томондан уни бажариш иштиёқи ҳамда муваффақият ҳисси пайдо бўлиши керак;

- Талабаларга муаммо устида ишлаш бўйича йўл-йўриқлар берилиши лозим.

Танишув босқичида талабалар муаммони реал, яъни жонли муҳокама қилишга жалб этилади. Таҳлил ва якуний қарор қабул қилиш босқичида муаммоли вазиятни таҳлил этиш гуруҳий иш бўлгани учун муаммо очик баҳсмунозара шаклида ҳал этилгани мақсадга мувофиқ бўлади.

Муаммоли ўқитишда ўқитувчи аниқ ўқув мақсадларига йўналтирилган саволлар ва топшириқлар ишлаб чиқади. У муаммоли саволларни ҳал этишда ёки топшириқларни бажаришда талабаларнинг аниқ мақсадга йўналтирилган ҳаракатига туртки беради ва жараённи назорат қилади. Талаба эса ўз таълимнинг фаол иштирокчиси бўлиб қолади. Муаммоли ўқитишнинг моҳияти шундаки, талабалар қўйилган муаммони мустақил ечишлари керак.

Муаммоли ўқитишнинг якуний мақсади – талабаларни муаммоларни кўриш ва ечишга ўргатишдан иборат бўлиб, бу фақат фикрлаш фаолияти жараёнида амалга оширилади.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, муаммоли таълимнинг яққол кўриниб турган афзалликларига қарамадан, фаннинг талабаларга берилиши керак бўлган бутун материаллари тўлиқ муаммоли тузилиши мумкин эмас. Муаммоли ўқитишни амалга ошириш учун қисмларни ажратиб олиш лозим.

Кўриб ўтганимиздек, таълим жараёнида муаммоли ўқитиш технологиясини қўллашни амалга ошириш таълим муассасаси олдида турган қатор вазифаларни ечишга амалий ёрдам кўрсатади:

- талабаларни мустақил фикрлашга ўргатади ва ижодий қобилиятларини ўстиради;
- илмий билимларни мустақил қўлга киритиш ва амалда қўллаш усулларини ўзлаштириш имконини беради;

- эгаллаган билимлар асосида илмий дунёқараш асосларини шаклланишига имкон туғилади;

- билимларни ижодий ўзлаштириш, таҳлил қилиш ва амалда қўллаш кўникмалари шаклланади;

- ижодий фаолият тажрибаси таркиб топтиради.
 - талаба ўз таълимнинг фаол қатнашчиси бўлиб қолади.
- “Муаммоли вазият” методининг афзалликлари:**
- таълим олувчиларда мустақил фикрлаш қобилиятларини шакллантиради;
 - таълим олувчилар муаммонинг сабаб, оқибат ва эчимларни топишни ўрганадилар;
 - таълим олувчиларнинг билим ва қобилиятларини баҳолаш учун яхши имконият яратилади;
 - таълим олувчилар фикр ва натижаларни таҳлил қилишни ўрганадилар.
- “Муаммоли вазият” методининг камчиликлари:**
- таълим олувчиларда юқори мотиватсия талаб этилади;
 - қўйилган муаммо таълим олувчиларнинг билим даражасига мос келиши керак;
 - кўп вақт талаб этилади.

Хулоса

Хулоса қилиб, шуни айтиш мумкинки, таълим жараёнида муаммоли ўқитишнинг самарали қўллаш талабаларда касбга бўлган қизиқишларини янада ривожлантиришнинг муҳим омили бўлади. Муаммоли вазиятлар яратиш ўқувчиларнинг фикрий фаолиятини ташкил этиш йўлларида бири бўлиб, бошқа ўқитиш методлари билан биргаликда ўқув материални анча муваффақиятли ва мақсадга мувофиқ ҳолда ўрганишга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури”. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. – Б 20-29.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 20-29.
3. Исмаилова З.К. Педагогика. Дарслик. – Т.: Молия иқтисод, 2008 – 172 б.
4. Ишмухамедов Р.Дж. ва бошқалар. Таълимда инновацион технологиялар. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Истеъдод жамғармаси”, 2008.

Илмий раҳбар

п.ф.д., проф. в.б., Химматалиев Д.О.

ТАЪЛИМДА ТЕХНОЛОГИК ЁНДАШУВ ВА УНИНГ УЗЛУКСИЗЛИГИ

Искандарова Н.З.– талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Мақолада педагогик технологияга ўқитишнинг техник воситалари ёки компьютерлардан фойдаланиш соҳасидаги тадқиқотлардек қарамасдан, балки бу таълим самарадорлигини оширувчи омилларни таҳлил қилиш, ишлаб чиқиш ҳамда усул ва материалларни қўллаш, шунингдек қўлланилаётган усулларни баҳолаш йўли орқали таълим жараёнининг асослари ва уни мақбуллаштириш йўллари ишлаб чиқиш ёритилган.

Таълимни технологиялаштириш ғояси янгилик эмас. Бундан 400 йил аввал чех педагоги Ян Амос Коменский таълимни технологиялаштириш ғоясини илгари сурган. У таълимни “техникавий” қилишга ундаган, яъни ҳамма нарса, нимага ўқитилса, муваффақиятга эга бўлсин. Натижага олиб келувчи ўқув жараёнини, у “дидактик машина” деб атаган.

Бундай дидактик машина учун: аниқ кўйилган мақсадлар, бу мақсадларга эришиш учун, аниқ мослаштирилган воситалар, бу воситалар билан қандай фойдаланиш учун аниқ қоидаларни топиш муҳимлигини ёзган.

Таълим назарияси ва амалиётида ўқув жараёнига технологик хусусиятни бериш учун 50-йилларда биринчи уринишлар қилиб кўрилган. Улар ўз ифодасини анъанавий ўқитиш учун мажмуали техник воситаларни яратишда топган.

Ҳозирги вақтда педагогик технологияга «ўқитишнинг техник воситалари ёки компьютерлардан фойдаланиш соҳасидаги тадқиқотлардек қаралмайди, балки бу таълим самарадорлигини оширувчи омилларни таҳлил қилиш, ишлаб чиқиш ҳамда усул ва материалларни қўллаш, шунингдек қўлланилаётган усулларни баҳолаш йўли орқали таълим жараёнининг асослари ва уни мақбуллаштириш йўллари ишлаб чиқишни аниқлаш мақсадидаги тадқиқотдир» [1].

Барча таълим ва тарбия ишларини педагогик технология йўлига ўтказиш, мактаб амалиёти педагогик жараёнини ихтиёрий қуриш ва уни амалга оширишдан кескин бурилиши қуйидагиларни англатади:

- унинг ҳар бир қисм ва босқичларининг изчил асосланганлиги (таълим жараёнини тартиблаштириш - батафсил аниқланган ва асосланган, ишларни маълум тартибдан ташкил топган қисмлар - мулоқот, ахборот ва бошқарувнинг йўл ва воситаларини бўлиш орқали мумкин қадар расмийчилик нуктаи назаридан расмийлаштирилган);

- яқуний натижани ҳаққоний ташхис қила олишга йўналтирилганлигини;

- таълим жараёнига мавжуд шароит ва белгиланган вақт ичида кўйилган таълимий мақсад ҳамда ижобий натижага эришишни таъминлайдиган ишлаб чиқариш-технологик жараёнининг мукамал, аниқ йўлга кўйилган, изчил, мувофиқлашган хусусиятини бериш;

- унинг самарадорлиги ва инсон имкониятлари (куч, вақт)ни мақбуллаштириш мақсади билан бутун таълим жараёнини бошқарувчанлиги [2].

Услубиётчидан фарқли ўлароқ педагог-технолог тажриба ўтказмайди, у аниқ белгиланган натижа билан иш олиб боради, ажратилган вақт ва мавжуд шароитларда белгиланган мақсадларни амалга оширишда гумон ҳосил қилмайдиган асосланган ўқитиш моделига таянади, у ҳаракат қилади, таълимий мақсадлар кўйилганда, аниқ педагогик вазибалар белгиланганда ва кўзланаётган натижалар шакллантирилганда, таълим бериш жараёнининг бориш шароитлари аниқлангандан сўнг ҳаракат қилишни бошлайди.

Анъанавий таълимни замонавий таълим технологияларига асосланган таълимдан фарқи:

Анъанавий таълим бериш	Технологик ёндашувга асосланган таълим бериш
1. Концептуал асослар	
<p>1) Таълим олувчига ёндашиш бўйича назоратли-насиҳатгўй, эгаллаб бўлинган усул бўйича қайта тиклашли, таълим олувчиларнинг ташаббускорлиги ва мустақиллигини бостирувчи, қатъий ташкил этилган бўйсунуш асосидаги таълим</p> <p>2) Ўрта таълим олувчи имкониятлари, уларни ўзлаштириш ва билимларни қайта тиклашларига</p>	<p>1) Шахсга йўналтирилган таълим ва таълимга тизимли – ҳаракатли ёндашишга асосланади. Таълим олувчи шахси – таълим жараёнининг марказий эгаси. Муносабатларнинг инсонпарварлиги ва эркинлиги, ўқишга мажбурлашдан воз кечиш</p> <p>2) Табақалаштириш ва индивидуаллаштириш; умумий таълим олувчининг ақлий ривожланиш даражаси ва ушбу фанни улар томонидан</p>

<p>йўналтирилган таълим 3) Ўрганиш – эслаб қолиш вазифаси, дарс бериш эса – асосий фаолият 4) Таълим пирамидаси: таълим берувчи – китоб – таълим олувчи</p>	<p>ўзлаштирилишини ҳисобга олиш 3) Ўрганиш–ақлий ривожланиш, мустақил эгаллаш жараёни ва асосийси таълим олувчиларнинг эгаллаган билимларни қўллай олишлари; хусусияти бўйича муаммоли, изланувчан, ижодий 4) Таълимнинг янги пирамидаси, яъни: таълим олувчи – китоб – таълим берувчи</p>
<p>2. Таълим олувчининг тутган ўрни ва вазифаси</p>	
<p>1) Таълим берувчи таъсиридаги бўйсунувчи объект 2) Билим–бирдан-бир мақсад 3) Хато- жазоланади</p>	<p>1) Мустақил билиш фаолиятини олиб борувчи, таълим жараёнининг тенг ҳуқуқли субъекти 2) Билим-шахсий муаммоларни ҳал этиш воситаси 3) Хато қилишга ҳаққи бор – хатоларда ўрганади</p>
<p>3. Таълим берувчининг тутган ўрни ва вазифаси</p>	
<p>Китоб билан бирга, ягона ташаббускор шахс – билиш субъектини назорат қилувчи, асосий билим манбаи: бошқарув органларининг раҳбарлик буйруқларини бажарувчиси</p>	<p>Таълим олувчиларнинг мустақил билиш фаолиятлари ташкилотчиси, уларнинг масъул маслаҳатчиси ва ёрдамчиси. Таълим олувчиларнинг нафақат БМК назоратини, балки эҳтимолий четга чиқиш, ўз вақтида тўғрилаш мақсадида уларнинг таълим берганлик ташҳисини таъминлайди</p>
<p>4. Таълим бериш ва ўрганиш усуллари</p>	
<p>Тайёр билимларни оғзаки баён қилиш орқали билдириш. Оддийдан умумийликка индуктив мантиққа, механик эслаб қолишга, қайта тиклаш (ўзгаришсиз қайтариш) баёнига асосланган, намуна бўйича таълим бериш. Натижада таълим олувчиларни сусткашликка, нутқ фаолияти бўшашишигача олиб келади</p>	<p>Муаммоларни излаш, билимларни амалиётда қўллашга йўналтирилган, муаммоли вазиятларни яратиш, фаол билишнинг ижодий тадқиқотчилик фаолиятига асосланган фаол таълим бериш усуллари</p>
<p>5. Таълим бериш воситалари</p>	
<p>Таълим берувчи сўзлари, кўргазмалар ва техник воситалар. Мураккаб (техник) тилда ёзилган ўқув адабиётлар, шу боис қабул қилишга мураккаб; асосан уй вазифаси учун қўлланилади.</p>	<p>Анъанавий воситалар билан бир қаторда - ахборотли технологиялар. Ўқув материаллар таълим олувчилар томонидан билимларни мустақил излаш учун ишлатилади</p>

Ўқитувчи ва ўқувчи орасидаги кўринмас деворни олиб ташлаш тренингнинг асоси этиб олинган. Бу девор меҳнат қилинмаса, ҳар куни одам баробари ўсади, сўнгра ўқитувчининг ўқувчига нисбатан таъсир кучи ўз-ўзидан йўқолади. Таққосласак, бу девор бир неча ўн йиллар олдин оддий хом-ғишт «пахса девор» бўлса, ҳозирги шиддатли ривожланиш даври бу деворни ҳам четлаб ўтмаган. Аксинча, **интернет, уяли алоқа воситалари** каби кучлар бу деворни мустаҳкам «**темир девор**»га айлантирган. Энди биз эскича «Болта» ва «Болға»лар билан бу деворни қулата олмаймиз, шунинг учун БИЗга янги «УСКУНА», яъни **янги замонавий ахборот-коммуникация технологиялари** зарур! [2].

Технологиялаштириш асосида ифодаланган, ва бу билан албатта биз танишишимиз зарур бўлган қоидалар, шу заҳоти бизга тушунтириш бермайди, фақат кўзланаётган мақбул ва самарали натижага эришиш учун нима иш қилиш зарурлигини кўрсатади.

Ҳар бир йўл ва восита ўқитувчи-технолог томонидан, у интилайтган, якуний натижага эришишга кўринарли қўшиган ҳиссаси томони билан баҳоланиши зарур. Қоиданинг мақбуллигини талқин қила туриб, эътиборни нафақат унга, уни қўллашни назарда тутувчи вазият ёки шароитларга қаратиш зарур. Гап шундаки қоидалар одатда формула эмас, бошқарув хусусиятга эга бўлади, модомики уларни қўллаш мумкин бўлган таълим жараёни шароитида айрим ноаниқликлар бор. Барча турли-туманликдан мавжуд шароитда ва ўқув режасида берилган вақтда кўзланаётган натижага эришишни кафолатли таъминлайдиган, сўнгра эса ундан шу шароит учун мос келадиган, таълим бериш технологиясининг ягона мажмуини лойиҳалаштириш мумкин бўладиган, ахборот, мулоқот ва бошқарувнинг шундай йўл ва воситаларини баҳолаши, фарқлаши ва танлашни уддалаши муҳим.

Машҳур маркетолог Дж. О.Шонессининг «...*китоблар ҳеч қачон тажриба ўрнини боса олмайди*» деган фикрига қўшилиш мумкин. Маҳоратли ошпаз ошпазлик тўғрисида китоб ёзиши мумкин, уни тайёрлаш йўлига амал қилиб, худди шундай чиқишини кутмаслик керак, чунки унинг маҳорати билан таққослаб бўлмайди, берилган қоидани ишлатиб, муҳим кўникма ва малакалар эга бўлиш мумкин эмас, улар фақат амалиётда эгалланади ва «қўлланиладиган донишмандлик» деб аталувчи амалиётли донишмандлик билан мустаҳкамланади, яъни вазият билан мувофиқликдаги донишмандлик» (Дж. О. Шонесси, 2000). Агарда биз таълим жараёнини технологиялаштиришга ўтиш муҳимлигини англамас эканмиз, унда «биз янги технологияларнинг ютуқларини, пайдо бўлган мунтазамлик механизмининг билмаймиз, ё бўлмаса мажбур қилинган технологиялар зиёнли натижаларни кўпайтириши мумкин» [3]. Ниҳоят, шахсий таълим бериш технологиясини лойиҳалаштириш ва мавжуд таълим бериш технологиясини қўллаш «ўқитувчи, вазият маданияти, шунингдек шахсий ёки талабаларнинг шахсий хусусиятлари билан юзма-юз келиш йўналиши билан иш тутмоғи керак» (Е.С. Полат, 2000).

Хулоса

талабага таълим жараёнига мавжуд шароит ва белгиланган вақт ичида қўйилган таълимий мақсад ҳамда ижобий натижага эришишни таъминлайдиган ишлаб чиқариш-технологик жараёнининг мукамал, аниқ йўлга қўйилган, изчил, мувофиқлашган хусусиятини ўрганиш кўникмаларини ҳосил қилишга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Бершадский М.Е., В каких значениях используется понятие «технология» в педагогической литературе? //Школьные технологии - № 1. - С.3 - 18.
2. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика, 1989.
3. Голиш Л.В. Технологии обучения на лекциях и семинарах: Учебное пособие //Под общ. ред. Акад. С.С. Гулямова. - Т.: ТГЭУ, 2005.

ИНТЕГРИРОВАНИЕ СПОРТИВНО-ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЕКТЕ ПОДГОТОВКИ ГАНДБОЛИСТОВ

Курбаналиев З. – студент, ТИИИМСХ

Аннотация

В рамках разработки научно-методологических подходов к интеграции спортивно-профессиональных знаний в проектах подготовки гандболистов высшей квалификации, представлено описание комплекса действенных мероприятий, применяемых методов и необходимых моделей на каждый годовой цикл.

Введение. Выучка команды гандболистов высшей квалификации, которые способны достойно представлять Узбекистан на международной арене и составлять серьезную конкуренцию зарубежным командам, невозможна без полного и всестороннего научного обоснования системы их многолетней подготовки. Современный чрезвычайно высокий уровень спортивных соревнований мужских гандбольных команд требует применения системного подхода в управлении подготовкой в этом виде.

Не вызывает сомнения, что для этой цели как можно лучше подходит методология управления проектами и программами [1]. Именно поэтому процесс подготовки гандболистов высшей квалификации (ГВК) необходимо рассматривать, как уникальное явление – проект. Для эффективного управления им нужно применять инструментарий управленческой науки со всеми процессами, процедурами и функциями, которые ей присущие [6].

Основная часть. В специальной спортивной литературе уже накоплен достаточно развесистый материал, который касается совершенствования системы подготовки спортсменов в командных игровых видах спорта. Во многих научных исследованиях рассмотрены теоретические и научно-методические аспекты подготовки квалифицированных спортсменов в игровых видах спорта [5]. Вопросы подбора средств, методов и организационных форм подготовки квалифицированных спортсменов, на разных этапах становления спортивного мастерства хорошо теоретически проработаны в исследованиях [2,4,7]. Ведущие специалисты в отрасли гандбола отмечают, что на современном этапе его развития, как в Узбекистане, так и в мире, рост спортивных достижений команд гандболистов высшей квалификации связан, преимущественно, с решением проблемы управления процессом подготовки спортсменов [3].

Однако, существует ряд специфических особенностей в каждом виде командной спортивной игры, следовательно, и в гандболе. Поэтому определенные результаты исследований какой-нибудь из спортивных игр могут быть экстраполированы на многие другие виды. Некоторые из них, связанные с особенностями взаимоотношений между игроками, правилами, техникой и тактикой игры, не дают возможности механически переносить полученные данные на гандбол.

Кроме этого, в методологии подготовки гандболистов высокой квалификации еще недостаточно теоретически разработаны и требуют проведения дополнительных экспериментальных исследований такие вопросы как:

-соотношение между нагрузками различной интенсивности и направленности по периодам и этапам подготовки гандболистов в годовом цикле;

-изменение структуры и режимов их подготовки в процессе летнего цикла под влиянием дифференцированных нагрузок.

Особенно важно решить эту проблему еще и потому, что продолжительность соревнований у игроков высшей квалификации длится от 9 до 11 месяцев в году.

В программе целенаправленной подготовки квалифицированной команды гандболистов крайне необходима интеграция спортивно-профессиональных знаний в проектах подготовки на каждый годовой цикл.

Современный высокий уровень спортивных соревнований, в том числе и международного уровня, требует применения проектно-ориентированного подхода. Суть управления проектом подготовки ГВК заключается в изменении состояния управляемого объекта, системы или процесса в соответствии определенных заданных критериев эффективности. С целью интеграции спортивно-профессиональных знаний предлагаем применять следующий комплекс действенных мер:

- тестирование и контроль физических кондиций,
- психофизического состояния и подготовленности;
- моделирования характеристик и прогнозирования спортивных достижений;
- обоснованный отбор в сборные команды разного уровня;
- усовершенствования системы тренировки, соревнований и восстановления спортсменов;
- повышение квалификации тренеров и самосовершенствования спортсменов;
- улучшения лечебно-обслуживающего, бытового и материально-технического обеспечения тренировочного процесса и соревнований.

Однако, в общем, в целостной системе управления проектом подготовки ГВК должны быть представлены главные характеристики. Сначала объект или субъект управления в их первоначальном состоянии, а потом такие же характеристики в том состоянии, которое необходимо получить на определенный момент времени, чтобы достичь запланированного результата (индивидуального и командного).

Подготовка высококвалифицированных гандболистов трактуется не только как спортивная тренировка, а как весь плановый процесс подготовки спортсменов к высшим достижениям в течение многолетних циклов.

При таком подходе частичный процесс, базирующийся на использовании целенаправленной физической деятельности гандболистов, то есть собственно тренировки в узком понимании этого слова, есть хотя и ведущей, но лишь составной частью общего проекта подготовки ГВК.

Наряду с тренировкой, в проекте подготовки гандболистов, рассматриваются другие частичные процессы, такие как характер работы, место учебы, условия проживания, материальное положение, личную жизнь, а также транспортные и бытовые удобства на соревнованиях, медицинское обслуживание и гигиеническое обеспечение, экипировка команды и т. п.

Стремление превратить спортивную тренировку на управляемый процесс требует применения всех основных закономерностей проекта. В качестве управляющей системы здесь выступает тренер, а управляемой системой является, с одной стороны, спортсмен, его физическое и моральное состояние, а с другой – гандбольная команда в целом. Учитывая вышесказанное, приходим к выводу, что интеграция спортивно-профессиональных знаний в проекте подготовки гандболистов высокой квалификации требует применения таких методов, как:

- интуитивно-логического и статистического анализа полученной информации;
- принятия решений (программирование, планирование и моделирование цикла подготовки);
- реализации принятых программ и планов;
- контроль над реализацией принятых программ, планов, моделей и внесение, необходимых корректив.

В проекте подготовки ГВК постоянного контроля требуют, как тренировочные нагрузки каждого спортсмена, технико-тактических действий на соревнованиях, так и психологическое состояние, и материальное положение. Кроме этого, требуют внимания командные действия гандболистов, надежность и адаптивность работы всей команды в критических ситуациях на площадке во время ответственных игр.

Результаты анализа вышеназванных факторов в виде спортивно-профессиональных знаний интегрируют в проект годовой подготовки ГВК для внесения целенаправленных изменений, как в процесс спортивной тренировки, так и в другие частичные процессы.

Заключение

В проекте подготовки ГВК совокупность составляющих комплексного объекта управления с присущими ему причинно-следственными связями представляется, как управляемая интегративная система, то есть, как явление, существующее и изменяющееся как единое целое. В этой системе важное место отведено интеграции спортивно-профессиональных знаний в проект подготовки ГВК на каждый годовой цикл. Для этого в проекте подготовки ГВК для своевременной и эффективной коррекции тренировочного процесса необходимы следующие модели:

- планирование с учетом этапа подготовки, возраста, функционального состояния, бытовых условий, материального положения;
- организации и программирования тренировок в макро, мезо и микроциклах в течение года;
- сочетание специальных и общих методов подготовки;
- чередование тренировочных и соревновательных нагрузок;
- сочетание различных микроциклов для восстановления работоспособности;
- комбинации тренировок в различных условиях (на воздухе, в зале, летних горах и т. п.);
- применение эффективных средств для активного восстановления физических и психологических кондиций организма спортсменов;
- тренерского и врачебного контроля гандболистов и их самоконтроля;
- педагогическое и методическое построение каждого занятия.

Научно-методические подходы к интеграции спортивно-профессиональных знаний являются теоретическим обоснованием для применения комплекса необходимых мероприятий, методов и моделей в проектах эффективной подготовки гандболистов высокой квалификации на каждый годовой цикл.

Список литературы

- 1.Бушуев С.Д., Морозов В.В. Динамическое лидерство в управлении проектами: монография. К., 2000. 312 с.
- 2.Верхошанский Ю.В. Программирование и организация тренировочного процесса. М.: Физкультура и спорт, 1989. С. 176.
- 3.Зеленцов А.М., Лобановский В.В. Моделирование тренировки в футболе. К.: Здоров'я, 1985. С. 134.
- 4.Набатникова И.Я. Основы управления подготовкой спортсменов. М.: Физкультура и спорт, 1982. С. 266.
- 5.Портнов Ю.М. Теоретические и научно-методические основы подготовки квалифицированных спортсменов в игровых видах спорта: автореф. дис. ...канд. пед. наук. М., 1989. 16 с.
- 6.Руководство по управлению инновационными проектами и программами. К.: Наук. світ, 2009. 173 с.
- 7.Шустин Б.Н. Моделирование и прогнозирование в системе спортивной тренировки. М.: СААМ, 1995. С. 186–237.

Научный руководитель

Кудратова Л.А.

ТАЛАБАЛАРГА ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ БЕРИШ МАСАЛАЛАРИ

Қаландарова С.Т., - талаба, ТТЕСИ. Шодиева Ш. М. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Бугунги кунда жамиятнинг иқтисодий ва ижтимоий жиҳатдан тараққиёт даражаси ундаги халқ хўжалигининг турли жабҳаларига таъсир этиши ўзига хос глобал ва минтақавий экологик муаммоларни юзага келтирмоқда. Ушбу мақолада талабаларга экологик таълим тарбия беришда мустаҳкам дидактик асослар, атроф – муҳитни тоза сақлашга, озодаликка, покизаликка ва энг асосий соғлом турмуш тарзи муҳитини ташкиллаштириш масалари очиб берилган.

“Республикамиз мустақилликка эришгандан сўнг, экологик тарбияда халқ педагогикасидан фойдаланишга катта эътибор бериб келинмоқда. Бундан ташқари Ўзбекистон Республикасининг Экологик таълимни ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган вазифаларни сўзсиз амалга ошириш, Республикамиз ҳудудидаги экологик масалаларни жамлаган ҳолда таълим тизими томонидан ушбу масала ечимига ҳисса қўшиш, ўсиб келаётган ёш авлоднинг экологик саводхонлигини ошириш, уларнинг экологик онги ва экологик маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш, экологик таълим ва тарбия жараёнини самарали ташкил қилиш мақсадида қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Талабаларга экологик таълим ва тарбия беришда халқимизнинг ўзига хос миллий тарбиясидан ўринли фойдаланиши яхши самара беради. Халқимиз жуда қадим замонлардан сувга эътиқод қўйиб, ёзнинг энг жазирама кунларида “Сув сайли” ўтказган. Ота – боболаримиз “Сув табиат инъоми, ҳаёт манбаи”, деб бежиз айтишмаган. Ҳар томчи сувни гавҳардек қадрлаб, боғ – роғлар яратишган. Биз эса сувдан хўжасизларча фойдаланишимиз натижасида Орол муаммосининг туғилишига сабабчи бўлди. Сирдарё ва Амударёнинг белгиланган ерга тўла етиб бормаслиги натижасида бугун Ўрта Осиё учун аҳамиятли бўлган Оролнинг бутунлай йўқолиш хавфи бўлди”. [1].

Гарчи экологик таълим ва тарбия бугуннинг долзарб масалаларидан бири экан, ҳар бир инсонда ўзи яшаб турган уй, кўча, маҳалла, қишлоқ ва шаҳарни ифлосланишдан асраш, уни ободонлаштириш, кўкаламзорлаштириш, табиий масканларни асл холида сақлаш ва улардан унумли фойдаланиш, юртимиз табиатини муҳофаза қилиш сингари фазилатларни шакллантириш экологик тарбиянинг ажралмас қисмидир. Демак, талабаларга экологик тарбия беришда миллий қадриятлар, урф – одатлар, анъаналар, ушбу соҳага оид фаолиятлари мустаҳкам дидактик асос бўлиб, булар орқали уларни атроф – муҳитни тоза сақлашга, озодаликка, покизаликка ва энг асосий соғлом турмуш тарзи шакллантиришга ўргатилади.

Жамиятнинг иқтисодий ва ижтимоий жиҳатдан тараққиёти даражаси ундаги халқ хўжалигининг турли жабҳаларига таъсир этади. Бу борада ўзига хос глобал ва минтақавий экологик муаммолар ҳам юзага келаверади. Бунда глобал муаммоларга Орол фожиаси, Чернобил ҳалокати, Хиросима ва Нагасаки шаҳарлардаги бомбо портлашлар ҳамда шу кабилар мисол бўла олса, минтақавий муаммоларга завод ва фабрикалардан чиқадиган зарарли чиқиндилар ёки маълум ҳудуддаги тупроқ эрозияси, баъзи касалликларнинг кўпайиши ва шу кабиларни мисол қилиб олиш мумкин. Шу сабабли экологик тарбия йўналишлари ҳам турли хил бўлади, жумладан:

Талабаларни яшаб турган жойидаги табиатимиз бойликларини тежаб – тергашга, уни муҳофаза қилишга ўргатиш.

Талабаларни ўз ўқув муассасаларини ва унинг теварак – атрофларини кўкаламзорлаштириш ва ободонлаштириш, мевали ва манзарали дарахтлар экишга ўргатиш.

Талабаларни хиёбонларни, сув ҳавзаларини озода сақлаш кўникмаларини шакллантириш.

Экологик дунёқарашни ва саводхонликни юксалтириш.

Экологик маданиятни шакллантириш.

Талабалар онгида атроф – муҳит ва унинг шахс маънавий дунёсига таъсири ҳақидаги тасаввурларни шакллантириш.

Талабалар онгида табиат ва унинг жамият тараққиётидаги ўрни ҳақидаги тасаввурларни пайдо қилиш.

Талабаларга экологик тарбия беришда ўқув муассасалари ва оила ўртасидаги умумийлик ва хусусийлик.

Талабалар онгида атроф – муҳит муҳофазасида болаларнинг вазифаси ҳақида тасаввур ҳосил қилиш.

Талабалар онгида табиатни муҳофаза қилишда ота – она ибрат – намунаси ҳақидаги тасаввурларни ҳосил қилиш.

Талабаларга экологик тарбия беришда миллий анъана ва урф – одатларни тиклашга эътиборни қаратиш.

Талаба – ёшларга экологик тарбия беришда тўғарақлардан фойдаланиш ва уларда “Табиат ва инсон”, “Экология ва инсон”, “Орол мадад сўрайди”, “Табиатни эъзозлайлик”, “Сувни муқаддас деб билайлик” ва шу каби мавзуларда давра суҳбатлари уюштириш.[2].

Олий таълимда “Экология ва атроф муҳит муҳофазаси” фанида республикадаги маиший чиқиндиларни қайта ишлаш кластерлари ва утилизацияси, “Тоза ҳудуд” давлат унитар корхоналари ва ушбу соҳада фаолият кўрсатаётган хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятдан келиб чиқиб такомиллаштирилмоқда. Минтақа ва мамлакатимизда мавжуд экологик вазиятнинг мавжуд ҳолати, халқаро ташкилотлар тадқиқотларининг натижалари ҳамда чиқинди билан боғлиқ ишларни амалга ошириш соҳасидаги долзарб вазифаларидан келиб чиқиб, олий ва ўрта-махсус таълимда экология ва атроф-муҳит муҳофазаси соҳаси учун зарур ҳолларда янги йўналиш ва мутахассисликларни очиш юзасидан асосланган таклифлар тайёрланмоқда.

Ушбу йўналишлар бўйича иш олиб бориш орқали ота-боболаримизнинг азал-азалдан табиатга юксак меҳр ва эҳтиром кўрсатишганлигини талаба – ёшлар онгига сингдириш мумкин. Шунинг учун ҳам бугунги кунда таълим тизимида ўқитиладиган табиатшунослик, экология дарслари орқали табиатга, атроф муҳитга чуқурроқ мурожаат қилиш билан бирга, келажакка ишонч билан қарашимиз, ёшларимизни комиллик сари етаклашимиз ҳам бизнинг асосий вазифамиздир Инсоният тарихи шундан далолат берадики, муайян жамият тараққиёти жараёнида, бир босқичдан иккинчи босқичга ўтишида турмушнинг барча соҳаларида, хусусан, иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий соҳаларида бўлгани каби, экологик атроф-муҳитни соҳада ҳам муайян муаммоларни ҳал қилиши зарурати пайдо бўлади. Чунки ўзига хос янги давр шароит, вазият, анъанага айланиб қолган ғоялар, қарашлар, муносабатларни ўзгартирмасдан, маълум мафкурага асосланмасдан янги мақсадлар сари қадам ташлай олмайди.

“Буни ватанимиз, халқимиз учун ҳақиқий хизмат қилиш намунаси бўлган ўнлаб бобокалонларимиз фаолиятларида кўрсата олишимиз лозим. Бунинг боиси юртбошимиз сўзлари билан айтганда: “Ким бўлишидан қатъий назар, жамиятнинг ҳар бир аъзоси ўз ўтмишини яхши билса, ота боболаримиздан қолган ҳар қандай меросни, табиий бойликларни, атроф муҳитни умуман олганда борликни борлигича, асраб авайлашни ўз олдига мақсад қилмоғи даркор. Ушбу сабоқлари инсонни атроф муҳитни асрашга, ҳушёрликка ўргатади, иродасини мустаҳкамлайди”. “Биз халқни номи билан эмас, балки маданияти, маънавияти орқали биламиз, тарихининг таг-томирига назар ташлаймиз”, “Экологик тарбия ҳам, халқ маънавиятининг бир асосидир”.

Инсоният ўзининг кўп асрлик тараққиёти давомида муайян анъана ва урф-одатларини вужудга келтирди, даврлар ўтган сари баъзи анъаналари, урф-одатлар турмуш амалиётидан четда қолди, ўрнига янгилари пайдо бўлиб қамол топди. Лекин шундай юксак инсоний моҳиятга эга анъаналар ва урф-одатлар ҳам борки, улар ҳозир ҳам ўз аҳамиятини йўқотмай яшаб келмоқда. Бундай анъана, урф-одатлар моҳиятини бир мамлакат ёки ижтимоий-сиёсий тузумга боғлаб белгилаш мукин эмас. Бу умуминсоний цивилизация мевасидир. Ижтимоий кадриятларни давлат фойдасини эмас, балки инсон фойдасини кўзлаб ўзгартиришлар жамият томонидан тўла қўллаб қувватланди. Кадриятлар тушунчаси кўп қиррали ва чуқур маънога эга бўлиб, у ўз моҳияти ва намоён бўлиши жиҳатидан миллий хусусиятларга бориб тақалади. Мустақиллик шарофати билан кадриятлар тушунчаси эндиликда ҳақиқий моҳият ва мазмун касб этиб бормоқда. Шуни таъкидлаш жоизки, ҳар қандай воқеа-ҳодиса ёки предмет ҳам кадрият ҳисобланавермайди. У кадриятга айланмоғи учун ички баркамолликка эга бўлиши. Ижтимоий тараққиётда ўзининг қатъий ва муносиб ўрнини топиши, шу билан бирга, инсон қамолатига кучли таъсир эта олиши зарур. Масалан, инсон тафаккури, табиат, санъат, меҳнат ва инсоннинг ўзи энг олий кадриятдир. [3]

Кадрият инсон ҳаётига мазмун бағишлайди, унинг ривожланишини таъминлайди. тараққиётни юза келтиради, одамзодга бахт ва хотиржамлик ато этади. Талабаларнинг экологик саводхонлигини оширишда халқимизнинг табиатга муносабати: уруғ қадаш, қовун сайли, сув сайли, узум сайли, ҳосил байрами, Наврўз байрами, хирмон тўйи, ҳовли тўйи ва шу қабиларнинг аҳамияти катта.

Хулоса

Хулоса қилиб айтганда экологик таълим умумий таълимнинг таркибий қисми бўлиб, узлуксиз характерга эга. Экологияга оид материаллар ҳар бир предмет, фан таркибида, кўп вақт талаб этилмаган ҳолда талабаларга ўргатилиши зарур. Уларга бериладиган экологик таълимни такомиллаштирмасдан туриб, унинг бошқа муаммоларини ҳал этиб бўлмайди. Шу сабабдан ҳам экологик таълим-тарбияга эътибор бериш педагогика фанининг энг муҳим илмий муаммоларидан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони, 2017 йил 7 февраль
2. Anderson K and Braun B 2008, ‘Introduction.’ Environment: Critical Essays in Human Geography. In Anderson K and Braun B P (Eds). Ashgate. Aldershot.
3. Ziyomhammadov B. Pedagogika. Toshkent: Turon – Iqbol, 2006, - B. 112.

Илмий раҳбар

Қаландарова С.Т.

ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ИННОВАЦИОН ҒОЯНИНГ АҲАМИЯТИ

Қахрамонова М.З. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада таълим тизимини ривожлантиришда инновацион ғояларнинг ўрни ҳақида фикр юритилган. Ёшларда янгиликка бўлган интилишни таъминлаш, уни рўёбга чиқариш, амалиётга тадбиқ этишда ўқитувчининг инновацион фаолияти муҳимлиги кўрсатиб ўтилган. Мамлакатимизда таълим тизимини янада такомиллаштириш, илм-фан ютуқларини амалиётга кенг тадбиқ этиш, кадрлар малакасини ошириш ҳамда

иқтисодиётнинг барқарорлигини таъминлашда олий таълимнинг ролини оширишга алоҳида эътибор қаратилган.

Ҳар қандай халқ ёки муайян бир миллат шуурида, ҳамиша, ҳар қандай шароитда ҳам буюк орзулар, эзгу ниятлар, келажакка, ёруғ кунларга ишонч, буюк мақсадларга эришиш туйғуси яшаб келади. Мақсад ва муддаолар эса жамиятдаги ғоявий-мафкуравий жараёнларга у ёки бу даражада ўз таъсирини ўтказди. Чунки ҳар қандай мақсад замирида маълум бир ғоя мавжуд бўлади. Қисқаси, ҳар қандай мақсад, у шахсийми ё жамоатга тааллуқлими, миллийми ёки умуминсонийми, қандай бўлишидан қатъий назар, кишиларнинг онгида муҳокама қилинади, англанади ва ижтимоий фаолиятни белгилайди. Айнан жамиятни муайян мақсад сари ҳаракатга келтирувчи, сафарбар этувчи куч бу ғоядир. Жамият ғоясида кишиларнинг муайян мақсад ва манфаатлари ўзаро алоқада ривожланиб боради. Ҳар бир нарсанинг ўз ибтидоси ва интихоси бўлади. Ғоялар ҳам ўз «умри»га эга. Улар ҳам маълум маконда ва замонда пайдо бўлиши, жамият ривожига муайян хисса қўшиши, кишиларнинг онги ва калбидан жой олиши, ўз умрини яшаб, жозоба кучи ва қувватини йукотгач, тарихий хотирага айланиши ҳам мумкин. Модернизация ва интеграция жараёнида жамият ҳаётида эскирган ғоянинг ўрнини муайян инновацион ғоялар ўрин олади. Бу табиий ҳол албатта. Чунки соат сайин, дақиқа сайин кишилар онги, яшаш тарзи, дунёқараши ўзгариб боради. Инсон ҳамиша янгиликларга интилиб келган. Айнан мана шу янгиликка бўлган интилиш буюк ғоялар яратилишига олиб келади. Ёшларда янгиликка бўлган интилишни таъминлаш, уни рўёбга чиқариш, амалиётга тадбиқ этишда ўқитувчининг инновацион фаолияти муҳим рол ўйнайди [2].

Соғлом фикр юритувчи ва маънавий жиҳатдан мукамал, ақлан етук, фикран теран, ривожланган шахсни тарбиялаш таълимда ёш хусусиятларига эътиборли бўлиш, ўқитишда таълимнинг барча бўғинлараро алоқадорлигини таъмин этиш ва шахс онги ва тафаккурида янгича ғоя, тасаввурларни шаклланишига имкон берувчи замонавий фаол усуллардан фойдаланишни талаб этади. Мамлакатимизда таълим тизимини янада такомиллаштириш, илм-фан ютуқларини амалиётга кенг тадбиқ этиш, пухта билимга эга, соғлом фикрли мутахассисларни тайёрлаш, кадрлар малакасини ошириш ҳамда иқтисодиётнинг барқарорлигини таъминлашда олий таълимнинг ролини оширишга алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда. Олий таълимдаги ижтимоий, гуманитар фанлар доирасида таълимни ноанъанавий усулларини қўлланилиши талаба ёшларни ижодий тафаккурини шаклланишида, мулоқот доирасини кенгайтиришида, воқеа-ҳодисаларга нисбатан ҳолисона баҳолаш ва қарашларини шаклланишида, шунингдек, дарс жараёнида вужудга келган қизғин мунозара ва мантикий ечимларни бевосита иштирокчиси сифатида ўз фаолиятдан психологик қониқиш ҳиссини вужудга келишида муҳим аҳамиятга эга. Зеро, қанчалик таълим жараёнидаги берилаётган янги маълумотлар талабадаги мавжуд тасаввурлар ва тажрибаларга уйғунлашган бўлса, уни идрок этиш, билиш жараёнлари орқали таҳлил қилиш ва баҳолаш фаоллашади.

Ривожланиб бораётган юртимиз бугунги кунда педагог шахсига нисбатан янгидан янги талабларни қўймоқда. Бир тарафдан ёшларга эътибор кучайтирилиб, зарур шарт-шароитлар билан таъминланмоқда, шунинг баробарида замонавий педагоглар зиммасига хориж тажрибаси асосида шакллантирилган таълим дастури асосида инновацион фаолият олиб бориш, дарс самарадорлигини ошириш, кўзланган натижага эришишни таъминловчи янгича таълим методларидан дарс жараёнида фойдаланиш талаблари юкланмоқда. Ҳар бир жамиятимиз аъзосининг инновацион ғояларини ҳаётга тадбиқ давлат сиёсати даражасига кўтарилган масаладир. Ҳаракатлар стратегиясида илмий-тадқиқот ва инновация фаолиятини рағбатлантириш, илмий ҳамда инновация ютуқларини амалиётга жорий этишнинг самарали механизмларини яратиш, олий ўқув юртли ва илмийтадқиқот институтлари ҳузурида ихтисослаштирилган илмий-экспериментал лабораториялар, юқори технология марказлари ҳамда технопаркларни ташкил қилишга алоҳида эътибор қаратилган [1]. Бу борадаги ишлар кўламини кенгайтириш, илмий изланишларга кенг йўл

очиш ва иқтисодий тараққиётни жадаллаштириш мақсадида турли илмий-амалий конференциялар, халқаро тажриба алмашинувлари, олий таълим муассасаларининг ҳамкорликдаги истиқболли режаларини амалга оширишга қаратилган анжуманлар ва олимлар учрашувлари, турли хил танловлар мунтазам ташкил этиб келинмоқда. Масалан, Инновацион ривожланиш вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги ҳамда Ёшлар иттифоқи ўқувчилар ўртасида иқтидорли болаларни аниқлаш, уларни қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш мақсадида “Инновацион ғоя” танловини ўтказилиши ёшларнинг инновацион ғоясини рўёбга чиқаришда муҳим қадам бўлди. Ушбу танловнинг асосий вазифалари: – ўқувчиларнинг бўш вақтларини мазмунли ташкил этиш, улар онгига меҳнатсеварликни, инновацион фикрлаш, касб тайёргарлигининг дастлабки ўқув ва кўникмаларини сингдириш; – ўқувчилар ўртасида фан ва техникани интеграциясини ривожлантиришнинг истиқболли йўналишларига мувофиқ техник воситалар ва компьютер технологиялари ишини ўрганишни ташкил этиш ҳамда улар ўртасида техник ижодкорликни ривожлантиришдан иборат [3]. Бу каби танловларнинг ўтказилиши эса ёшларнинг инновацион фаолиятини ривожлантиришга, амалиётга тадбиқ этишда, жаҳонга юз тутишига хизмат қилади. Шу билан бирга, ҳар йили давлат дастури ижроси доирасида республика вилоятларида бўлиб ўтаётган халқ билан бевосита мулоқот пайтида мамлакатимиз Президенти томонидан барча ҳудудда илм-фан салоҳиятини тиклаш, ҳудудларнинг комплекс ривожланишини таъминлашда мавжуд интеллектуал салоҳиятдан самарали фойдаланиш, ёшларни илмий-тадқиқот фаолиятига кенг жалб қилиш бўйича аниқ вазифалар белгилаб берилмоқда [3]. Ушбу вазифаларни амалга оширишда илмий изланишларни ижтимоийиқтисодий соҳаларнинг реал муаммоларига йўналтириш, илм-фан ва ишлаб чиқариш ўртасидаги узвий интеграцияни таъминлаш, ўз навбатида, ишлаб чиқариш корхоналари томонидан олимларнинг илмий-технологик ишланмаларини амалиётга жорий қилиш самарадорлигини ошириш механизмларини яратиш масалалари ўта муҳим аҳамият касб этади. Талаба шахсини баркамол маънавий-руҳий олами мукамаллигини, теран интеллектуал салоҳиятини шакллантириш, етук камолот эгаси қилиб тарбиялаш аввало таълим жараёнида белгиланадиган аниқ мақсадлар билан баҳоланади. Тараққиёт сари юз тутиб бораётган бугунги ахборотлар асри эртанги кун ёшларидан турли муаммоли вазиятларда ўзини-ўзи тўғри баҳолай оладиган, мустақил фикрига эга бўлган, ақлий ва руҳий имкониятларидан юксак саъйи-ҳаракатлар йўлида фойдалана оладиган ижобий хусусиятлар соҳиби бўлишни тақозо этмоқда. Бу эса тўғри ташкил этилган таъсирчан, инновацион таълим ҳамда ўқитиш жараёнида таркиб топиб борадиган инсоний сифатлар, ахлоқий хусусиятлар, кўникмага айланиб борадиган ижодий фаоллик даражаси билан белгиланади. Ижодий фаоллик эса, таълим тизимига жаҳон андозасига мос келувчи инновацион ғояларни олиб киришдан иборат.

Хулоса

Хулоса қилиб айтганда, инновацион ғоя нафақат таълим тизимини ривожлантириш истиқболини белгилайди, балки бутун жамиятнинг барча соҳаларидаги интеграция ва модернизациялашуви жараёнида муҳим ўрин эгаллайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 6-сон, 70-модда.
2. Алиқулова М.М. Инновацион педагогика. Тошкент. 2012
3. Ишмухаммедов Р, Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. Тошкент. 2013

КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШ МОТИВИ ВА ИЖТИМОЙЛАШУВИ

Комилжоновна Э. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада бугунги кундаги таълим тизимидаги касбга йўналтириш тизими ва баркамол авлодларни тарбиялаш вазифалари келтирилган. Мулоқот ва унинг асосий хусусиятлари, самарали мулоқотнинг психологик аспекти, мулоқотга ўргатишга оид психологик машқлар, самарали мулоқотнинг психологик воситаларини ўрганиш ишбилармонлик фаолиятида асосий ўринда эканлиги кўрсатилган.

Ҳар томонлама етук ёш авлодни вояга етказиш ҳақида тўхталар экан, давлатимизнинг биринчи Президенти И.А.Каримов «...ўз ҳақ-ҳуқуқини танийдиган, ўз кучи ва имкониятларига таянадиган, ён-атрофида содир бўлаётган воқеа-ҳодисаларга мустақил ёндаша оладиган, аynи замонда шахсий манфаатларини мамлакат ва халқ манфаатлари билан уйғун ҳолда кўрадиган, ҳар жиҳатдан баркамол инсонларни тарбиялаш вазифаси истиқлол йилларида биз учун ҳал қилувчи масалага айланди», – деб таъкидлаган эди. Бевосита биринчи Президентимизнинг ибратли ўғитларини ҳаётга тўлақонли жорий этаётган муҳтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёев ҳам БМТ Бош Ассамблеясининг 2017 йил 19 сентябрдаги 72-сессиясида сўзлаган нутқида: «... Бизнинг асосий вазифамиз – ёшларнинг ўз салоҳиятини намоён қилиши учун зарур шароитлар яратиш, зўравонлик ғояси «вируси» тарқалишининг олдини олишдир. Бунинг учун ёш авлодни ижтимоий қўллаб-қувватлаш, унинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш борасидаги кўп томонлама ҳамкорликни ривожлантириш лозим, деб ҳисоблаймиз.

Шу муносабат билан Ўзбекистон глобаллашув ва ахборот-коммуникация технологиялари жадал ривожланиб бораётган бугунги шароитда ёшларга оид сиёсатни шакллантириш ва амалга оширишга қаратилган умумлаштирилган халқаро ҳуқуқий ҳужжат – БМТнинг Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро конвенциясини ишлаб чиқишни таклиф этади. Бизнинг назаримизда, мазкур ҳужжатни имзолайдиган давлатлар ушбу соҳани ўз ижтимоий сиёсатининг асосий ва муҳим ҳаётий устувор йўналишларидан бири даражасига кўтариш бўйича қатъий мажбуриятларни ўз зиммасига олиши керак» – деган фикрлари дунё ҳамжамияти томонидан кенг эътироф этилмоқда. Бу эса ўз навбатида ўқувчи-ёшлар ижтимоий фаоллигини қўллаб-қувватлаш йўналишида бир қатор аниқ вазифа ва чора-тадбирларни белгилаб бериши.

Ривожланиб бораётган жамиятимизда соғлом авлодни, комил инсонларни вояга етказиш масаласига катта эътибор берилмоқда. Комил инсоннинг муҳим сифатларидан бири мулоқот маданиятидир. Мулоқот инсон ҳаёти ва фаолиятининг муҳим шартидир. Айнан мулоқот ёрдамида инсонлар табиатни ўзлаштириш ва ўз эҳтиёжларини қондириш учун биргаликда ҳаракат қилиш имкониятларига эга бўладилар.

Ҳозирги кунда ижтимоий амалиётда мулоқот ва шахслараро муносабатлар муаммоси муҳим аҳамият касб этмоқда. Мулоқот ва унинг асосий хусусиятлари, самарали мулоқотнинг психологик аспекти, мулоқотга ўргатишга оид психологик машқлар, самарали мулоқотнинг психологик воситаларини ўрганиш ишбилармонлик фаолиятида асосий ўринни эгалламоқда. Ижтимоийлашувда мулоқот психологияси мулоқотнинг юқорида келтирилган ва бошқа жиҳатларини назарий ва амалий жиҳатдан чуқур ўрганишга ёрдам беради. Шунингдек талабаларда касбга йўналтириш ва ижтимоийлашувида мулоқотга тўғри ёндошув бўйича амалий кўникмаларни шакллантиришга хизмат қилади.

Мулоқот ижтимоий ёндошув психологик воқелик сифатида шахслараро муносабатларни ижобий ривож топишида мулоқот, мулоқот маданияти, мулоқот техникаси, коммуникация, интерактив, перцептив, шахслараро муносабат, алоқа ўрнатиш, ўзаро таъсир, рақобат, мураса, компромисстик ёндошувлар фақат инсонларга хос бўлган

жараёндир. Кишиларда фаолият жараёнида бир - бирларига ниманидир айтиш истаги туғилади.

Ижтимоийлашув мотиви одамлар ўртасида биргаликдаги фаолият эҳтиёжларидан келиб чиқадиган боғланишлар ривожланишининг кўп қиррали жараёнидир. Ижтимоий ижобий муносабат муносабатлар биргаликда фаолият кўрсатувчилар ўртасида ахборот айирбошлашни ўз ичига олади. Бунда муносабатнинг коммуникатив жиҳати ҳисобга олинади. Кишилар муносабатга киришишда аввало тилга мурожаат қиладилар. Мулоқотнинг яна бир жиҳати муносабатга киришувчиларнинг ўзаро биргаликдаги ҳаракати - нутқ жараёнида фақат сўзлар билан эмас, балки ҳаракатлар билан ҳам айирбошлашдан иборат. Масалан, муносабатга киришар эканмиз, у бизни қониқтирса имо-ишора билан мулоқотда бўламиз. Муносабатнинг кейинги жиҳати мулоқотга киришувчиларнинг бир-бирларини идрок эта олишларидир. Масалан, биз бир киши билан мулоқотга киришишдан аввал уни ҳурмат қилиб ёки менсимасдан муносабатда бўламиз.

Демак, мулоқот жараёнида коммуникатив (ахборот узатиш), интерактив (ўзаро биргаликда ҳаракат қилиш) ва перцептив (ўзаро биргаликда) идрок этиш амалга оширилади. Ижтимоийлашув мулоқот қонуниятларини билиш ҳамда уни ўрнатиш малакалари ва қобилиятларини ривожлантириш ҳар бир киши учун муҳимдир. Ҳар бир кишининг ўз “Мени” атрофдагилар билан бўладиган мулоқот жараёнида шаклланади, Шахснинг ҳаёт йўллари аввал оилада, боғча, мактаб, институт, ишхона, кексалар орасида, яъни гуруҳ ва жамоаларда ривожланади.

Бизнинг юксак маънавий эҳтиёжларимиздан бири - бу мулоқотга бўлган эҳтиёждир. Мослашиш мулоқотга бўлган эҳтиёжимиз қондирилмаса, онгимиз ҳам ривожланмайди. Шунинг учун биз доимо мулоқотга бўлган эҳтиёжларимизни қондиришимиз лозим. Кимлар биландир бўлган мулоқотдан қониқиш ҳосил қиламиз, лекин айрим ҳолларда эса биз қониқмасликни ҳис қиламиз. Педагогик мулоқот - бу мулоқот турларидан бири бўлиб, педагогик фаолиятда муҳим ўрин тутди. Биз гуруҳ ва жамоага кирар эканмиз, доим унда турли ролларни бажаришга тўғри келади. Расмий гуруҳда бошлиқ ролини ўйнаса, касалхонада бемор, дўконда харидор, оилада рафиқ ёки рафиқа, ота - она олдида эса фарзандлик ролини бажарамиз.

Ижтимоийлашув жараёни барча имконияти билан боғлиқ ҳолда ривожланади. Жумладан, педагогик психология билан узвий боғлиқ. Педагогик мулоқотда таълим психологияси, тарбиянинг психологик асослари, ўқитувчи ва ўқувчи муносабатлари, ўқитувчи педагогикаси, психологияси, таълим муассаларида - тарбия жараёнларини бошқариш муҳим ўринни эгаллайди. Ижтимоийлашув мотиви турли ижтимоий гуруҳлар, жамоанинг психик намоён бўлиши, катта гуруҳлар - жамоаларнинг кайфияти, тафаккури, рақобати кабиларни ўрганади. Бу масалаларни ҳал қилишда ижтимоий мулоқот ёндошуви катта аҳамиятга эга. Бошқарувда раҳбарларда нутқ қобилиятининг ривожланиши, шунингдек, ходимлар билан тил топа олиш учун мулоқот психологиясини билиш зарур. Сиёсатчиларда нотиклик маҳорати шаклланган бўлиши керак, бунда уларга мулоқот психологиясини яхши билишлари яқиндан ёрдам беради.

Ижтимоийлашувнинг асосий мақсади, аввало нутқ маданиятини ёшларда шакллантиришдир. Шунингдек, ўқитиш жараёнида бўлажак мутахассисларга мулоқот маданияти, муомала сирларини сингдириш, гуруҳ ва жамоаларда ўзаро муносабатларни мулоқот орқали яхшилашдир. Мулоқотнинг назарий ва методологик муаммоларини ҳал қилиш, мулоқотни нутқ билан биргаликда ривожланишини таъминлаш асосий мақсадини ташкил қилади. Асосий вазифалар: ҳамқорликдаги фаолият жараёнида шахслараро ўзаро таъсир ва мулоқот қонуниятларини ўрганиш; Шарқ алломаларининг мулоқот ҳақидаги қарашларини таҳлил қилиш; талабани фаолликка ундовчи муомалавий имкониятлари мавжудлигини таъкидлаб ўтиш; талабаларда касбий лаёқатни фаоллаштиришга қаратилган мулоқотни шакллантириш; шахслараро муносабатларни мувофиқлаштиришда мулоқотнинг ролини орттириш; ўзаро таъсир этишнинг айрим оқибатларини ҳисобга олиш. Касбий ижтимоийлашувда шахслараро муносабатларнинг шундай кўринишидирки,

унинг ёрдамида одамлар бир-бирлари билан ўзаро руҳий жиҳатдан алоқага киришадилар, ўзаро ахборот алмашадилар, бир-бирларига таъсир ўтказадилар, бир-бирларини ҳис қиладилар, бир-бирларини тушунадилар. Шунинг учун мулоқот ижтимоий психологик ҳодиса сифатида ижтимоий турмушнинг барча соҳаларида иштироқ этиб, ҳамкорлик фаолиятининг моддий, маънавий, маданий, эмоционал, мотивацион қирраларининг эҳтиёжи сифатида вужудга келади. Инсонда юзага келадиган ҳар хил эҳтиёжларни мақсадга мувофиқ равишда қондириш мулоқот маромига боғлиқ бўлиб, шахслараро муносабат, баркамол авлод, комил инсон ғояларини англатади. Мулоқот муваффақиятининг негизи шахснинг руҳий дунёси, эҳтиёжлари мотивацияси, ҳарактер ҳислати, индивидуал-типологик хусусияти, қобилияти, эътиқоди каби инсоннинг фазилатлари, сифатлари намоён бўлиши, ривожланиши ҳисобланади. Мулоқот жараёнида мулоқотдошларнинг тасаввурлари, қизиқишлари, ҳистуйғулари, кўникмалари, воқелик натижасини олдиндан сезиш, пайқаш, таъсир ўтказиш услуби таркиб топиши мумкин.

Хулоса

Хулоса қилиб айтганда, таълимда ижтимоий фаоллик ва унинг мазмунини ташкил этувчи қисм, табиат, жамият, фаолият усуллари, инсоннинг ўз атрофидаги одамларга, меҳнатга, мулоқот ва бошқа шу қабиларга ҳиссий-иродавий ҳамда қадрият нуқтаи назаридан муносабати ҳақидаги билимлар манбаи сифатида намоён бўлади.

Адабиётлар

1. Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг IX сессиясидаги сўзлаган нутқи. -Т, 1997.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисидаги Қонуни”, -Т, 1997.
3. Азизхўжаева А. Педагогик технология ва маҳорат. – Т, ТДПИ, 2003.
4. Алиев А. Педагогик маданият: метод ва маҳорат қирралари. //Халқ таълими, 1992. 4-сон
5. Ўзбек педагогикаси антологияси. - Т: Ўқитувчи, 2000.

Илмий раҳбарлар

Раҳманова М.Қ. Холиқова Н.А.

ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ СТУДЕНТОВ

Хатамов Б. – студент, ТИИМСХ

Аннотация

В данной статье рассматривается понятие о здоровье студентов, ее компоненты, особенности здорового образа жизни студенческой молодежи, современный подход в физическом воспитании и использование методов инновационных технологий в процессе формирования здорового образа жизни у студентов.

Студенчество - это самостоятельная социальная группа, которая всегда являлась объектом особого внимания. За последние десятилетия отмечается тревожная тенденция ухудшения здоровья молодых людей и их физической подготовленности. Это связано не только с изменениями, которые произошли в экономике, экологии, условиями труда и быта населения, но также с недооценкой оздоровительной и воспитательной деятельности происходящее в обществе, что и нашло отражение на гармоничном развитии личности молодежи. На сегодняшний день здоровье нации вызывает беспокойство в связи с увеличением количества потребителей наркотиков, алкоголя, табака, токсикомании, низким уровнем двигательной активности молодежи. А как мы знаем, в общем комплексе

условий, определяющих уровень здоровья современного студенчества, первостепенное значение имеет их здоровый образ жизни.

Анализ литературных источников по теме исследования позволяет утверждать, что актуальность проблемы физического воспитания молодежи, как составной части общей проблемы введение здорового образа жизни, усиливается. Это связано с тем, что нынешнее состояние здоровья и образ жизни студенческой молодежи Узбекистана не отвечает установленным стандартным требованиям современного общества и потребностям его дальнейшего социально-экономического развития. [1]

Целью работы является рассмотрение физической культуры как средство формирования здорового образа жизни студентов.

Задачи работы: выявить показатели здоровья студентов, его основных компонентов; проанализировать состояние здоровья современной молодежи; рассмотреть, что значит для студентов здоровый образ жизни и их отношение к нему.

Основная часть. Здоровье – это высокая работоспособность, хорошее настроение, уверенность в себе.

Здоровье человека - это очень сложный феномен общечеловеческого и индивидуального бытия. Сегодня не существует сомнений, что оно комплексное, так как зависит от взаимодействия многих сложных факторов физического и психического, социального и индивидуального порядка, а нередко и философских качеств человека. Физическое здоровье дает хорошее самочувствие, бодрость, силу. Психическое здоровье дарит спокойствие, хорошее настроение, доброту, веселость. Социальное здоровье обеспечивает успешность в обучении, социализации, развитии.

Здоровый образ жизни студентов - это совокупность ценностных сберегающих здоровье ориентаций и установок, привычек, режима, ритма и темпа жизни, направленных на оптимальное сохранение, укрепление, формирования, воспроизводства здоровья в процессе обучения и воспитания, общения, игры, труда, отдыха и передача его будущим поколениям.

Вопрос здорового образа жизни в 21 веке является очень важным, неотъемлемую часть в этом занимает инновационный подход к формированию здоровой личности.

Например, на западе во многих компаниях практикуют такой метод, как “спортивная пауза”. Суть этого метода в том, что кадрам данной компании, у которых в основном сидячий образ жизни на работе, даются мини-паузы, в которых они занимаются спортом с онлайн-тренером (это может быть soft, прямое соединение и т.п). После внедрения этого метода у кадров данных компаний наблюдались положительные изменения, такие как: улучшение состояния здоровья, повышение иммунитета, развитие физических и когнетивных навыков.

Итак, формирование здорового образа жизни - это сложный системный процесс, охватывающий множество компонентов образа жизни современного общества. Она включает в себя основные сферы и направления жизнедеятельности студента.

К составляющим здорового образа жизни относятся:

1. правильно организованный режим дня (в частности, труда, отдыха и полноценного сна), соответствующий индивидуальному суточному биоритму каждого студента;
2. двигательная активность (систематические занятия любыми видами спорта, статической и ритмической гимнастикой, ходьбой или оздоровительным бегом);
3. рационально выстроенное питание;
4. разумное использование каких-либо методов закаливания;
5. умение устранять нервное напряжение при помощи мышечного расслабления (различные аутогенные тренировки);
6. отказ от любых имеющихся вредных привычек [2].

Физическое воспитание в ВУЗах - это сложный педагогический процесс, целью которого является формирование физической культуры личности, способной

самостоятельно организовывать и вести здоровый образ жизни. Это единственная учебная дисциплина, которая учит студентов сохранять и укреплять свое здоровье, повышать уровень физической подготовленности, развивать и совершенствовать жизненно важные физические качества и двигательные умения и навыки.

Всестороннее развитие личности, то есть развитие физических и духовных сил, творческих способностей является важнейшей задачей высшей школы. Перед вузами стоит важная задача приобщения студентов к систематическим занятиям физическими упражнениями, повышение работоспособности, улучшение их подготовки к профессиональной деятельности, формирование двигательной активности и устойчивых привычек к занятиям физической культурой, воспитание у них коллективизма, патриотизма, целеустремленности.

Физическая культура является необходимым компонентом, чтобы обеспечить здоровый образ жизни студентов. Физкультурно-спортивная деятельность - это одна из эффективных механизмов объединения общественных и личных интересов, формирования общественно важных индивидуальных потребностей.

Физическая культура является сферой массовой самодеятельности важным фактором установление активной жизненной позиции, поскольку социальная активность, развивается на ее основе и переносится на другие сферы жизнедеятельности – социально-политическую, учебную, трудовую. Входя в физкультурно-спортивную деятельность, студент накапливает социальный опыт, что приводит к повышению его социальной активности.

Физические упражнения влияют не только непосредственно на тот или иной орган; но и на весь организм в целом через нервную систему как основной пусковой механизм жизнедеятельности. Поэтому, даже при небольших физических нагрузках, таких как ходьба, приседания и т.д., объективно замечается улучшение функций многих органов и систем организма. Углубляется и ускоряется дыхание, повышается частота сердечных сокращений, изменяется артериальное давление, улучшается функция желудочно-кишечного тракта, печени, почек, других органов и систем человека.

Под влиянием систематических занятий физическими упражнениями возникают заметные изменения в обмене веществ, повышается функция внутренней секреции. У человека улучшается аппетит и моторная, секреторная и химическая функция желудочно-кишечного тракта, улучшается психологический настрой студентов.

В процессе занятий физическими упражнениями студенты воспитывают в себе стойкость, выдержку, способность управлять своими действиями и эмоциональным состоянием, что характерно для здорового человека.

На мой взгляд, целью формирования здорового образа жизни в системе физической культуры и спорта в вузе могут быть такие виды физических занятий:

- сознательное, осмысленное участие в занятиях по физическому воспитанию;
- подготовка (тренировка) и сдача нормативов по физическому воспитанию;
- разработка и регулярное выполнение индивидуальной физической подготовки, с элементами закаливания;
- участие в спортивных играх (баскетбол, футбол, волейбол, гандбол, теннис и др.);
- система закаливания водой;
- плавание.

Глубокий анализ физической культуры дает понять то, что она имеет большие потенциальные возможности в формировании всесторонне развитой личности. Однако в реальной физкультурной практике эти богатые возможности используются далеко не полностью.

При формировании здорового образа жизни будущего специалиста должно осуществляться его развитие с учетом его личного отношения к содержанию занятий, усвоение норм и способов деятельности. Физическая культура является средством

формирования здорового образа жизни только в том случае, если она является любимым занятием каждого студента [3].

Заключение

Физическое воспитание в вузе является фундаментальной частью оздоровления студентов. Физическое воспитание, будучи составной частью процесса получения высшего образования, в то же время, направленное на решения проблемы улучшения состояния здоровья студентов.

Считается, что перспективным, доступным и эффективным направлением достижения максимально положительного результата в вопросах здорового образа жизни студентов вузов является всестороннее использование средств физического воспитания, как основного фактора ликвидации недостатков в физическом развитии этих студентов. Оно является наиболее перспективным, доступным и эффективным направлением для укрепления физического состояния студентов, ведущим компонентом здорового образа жизни.

Литература

1. Виленский, М. Я. Физическая культура и здоровый образ жизни студента: учеб.пособие. / М.Я. Виленский, А. Г. Горшков. – М.: КНОРУС, 2012. 158 с.
2. Белова, Н.И. Отношение студентов к здоровью и здоровому образу жизни / Н.И. Белова, С.П. Бурцев, Е.А. Воробцова, А.В. Мартыненко // Проблемы социальной гигиены, здравоохранения и истории медицины. 2009. № 1. С. 14-15.
3. Паначев, В.Д. Физическая культура и спорт – средство социально- педагогического развития личности // Мониторинг качества здоровья в практике формирования безопасной здоровье сберегающей образовательной среды: материалы всерос. науч. практ. конф., г. Волгоград, 25-27 нояб. 2011г. С. 28-32.

Научный руководитель

Норкобилов М.Н.

ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ ДАРСЛАРИДА ЎТИЛГАН МАТЕРИАЛНИНГ ТАЛАБАЛАР ТОМОНИДАН ЎЗЛАШТИРИШ ДАРАЖАСИ

Эрмаматов Ш. А. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Мақолада жисмоний маданият дарсларининг энг муҳим масалаларидан бири бўлган дарсни қандай ташкил этиш ва унинг таркибий қисмлари ёритиб берилди. Дарсинг ҳар қайси таркибий қисми учун танланган жисмоний машқлар турлари, уларнинг қўлланиш усуллари, бажариш тартиблари ва уларнинг организм учун аҳамияти ҳақида сўз боради. Ҳар бир машғулоти учун машқларни оқилона танлаш, материални тўғри жойлаштириш ва дарсдаги юкломани аниқлаш моҳияти кенг ёритиб берилди.

Кириш. Талабаларни яхши уюштириш дарсинг зарурий шартидир. Дарс бошланиши билан талабалар сафланишлари лозим. Ўқитувчи қаерда ва қандай сафланиш, қайси талаба қандай бошқариши ҳақида кўрсатма беради. Буларнинг ҳаммасини у биринчи дарсда тушунтиради, кейинги дарсларда эса белгиланган тартибга риоя қилинишига эришади. Умумривожлантирувчи машқлар умумий тайёргарлик ва дарсинг асосий қисмида ўрганиладиган машқ турларига тайёрлайдиган воситаси сифатида қўлланилади. Ёрдамчи машқлар, кириш қисм охирида ўтказилади.

Жисмоний маданият дарсларида дастлаб машқларни бажаришга тайёрлаш амалга оширилади, сўнг эса билимлар, малака ва кўникмалар ҳисобга олинади.

Асосий қисм Дарснинг кириш ва асосий қисми ўртасида аниқ чегара йўқ. Асосий қисмдаги машқлар кириш қисмидаги машқларнинг изчил давоми бўлиши лозим. Унда дарснинг асосий педагогик вазифалари ҳал этилади. Дарснинг асосий қисмида стурдаги ҳарқандай материални киритиш мумкин. Дарслардаги ҳаракатли ўйинлар дарснинг асосий қисмига киртилади.

Талабалар организмга нисбатан катта зўриқиш ва кучли эмоционал ҳолатдан вазмин ҳолатга бирданига ўтиши мумкин эмас. Шунинг учун дарс тузилишида хотиржам ҳолатга аста-секин ўтиш ва машғулоти ташкилий равишда тугаллаш акс этади. Ҳар бир дарс тузилиши уч қисмдан иборат бўлади: биринчиси, талабаларни дарснинг жуда қийин вазифаларини ҳал этишга тайёрлайдиган ташкилий қисм-кириш қисми деб аталади; иккинчиси-дарснинг асосий вазифаларини бажариш қисми-асосий қисм деб юритилади; учинчи-дарс якуни, у якунловчи қисм деб аталади.

Жисмоний тарбия дарсларининг асосий қисми талабаларда кўзғалишни вужудга келтиради, уларнинг томир уриши ва нафас олиши тезлашади. Талабаларни бошқа фаолият турига ўтишига қулай шароит яратиш учун талабалар организмни жуда вазмин ҳолатга келтириш зарур. Асосий қисм сўнггида бошланган машқларнинг енгилланиши дарс тугалланиши билан ниҳоясига етиши керак. Нисбатан хотиржам ҳолатга аста-секин ўтишга оддий сафланишлар, юришлар, ритмик ва чуқур нафас олиш машқлари, тинч ўйинлар орқали эришилади. Жисмоний тарбия дарсларининг таркибий қисмлари мазмуни дарс баёнларида акс эттирилади. Дарс баёнларида дарс мақсади ва вазифаси ҳамда жисмоний машқлар ва жисмоний ҳаракатларнинг таърифи баён этилади. Услубий тавсияномалар ва уйга вазифалар мазмуни келтирилади. Ўқитувчи чет тилини, ўзи билиш даражасига қараб инглиз атамаларидан қисман фойдаланса яхши бўлар эди [1].

Таълим муассасалари фаолиятида қуйидаги дарс турлари мавжуд:

- а) кириш дарслари;
- б) янги материал билан танишиш дарслари;
- в) ўтилган дарсларни такомиллаштириш дарслари;
- г) аралаш дарслар;
- д) якуний ёки назорат дарслари.

Кириш дарсининг бошида суҳбат бўлади. Унда ўқитувчи талабаларни бўлғуси дарсларнинг мазмуни, ўқитувчи ва талабаларнинг вазифалари, ўқув дастури уларга қўйилдиган талаблар билан таништиради. Кириш дарсида талабаларни дарсларнинг ўтиш тартиби билан таништирилади, уларга дарсларга тайёрланиш, майдончага ва залга келиш ҳақида, навбатчиларнинг вазифаси, машғулотларнинг уюшган ҳолда бошланиши ва тугалланиши ҳақида гапирилади. Такомиллаштириш дарсларида асосий вазифа олдин ўрганилган машқларни бажаришни яхшилашдан иборат. Бу дарсларда эътибор машқларнинг бажариш техникасига, кўникманинг шаклланишига қаратилади, ҳаракат малака ва кўникмаларини такомиллаштирувчи машқлар ҳамда ўйинлар қўлланади. Кўпроқ аралаш дарслар ўтилади. Уларда янги материал билан таништириш ва ўтилганларни бажаришни такомиллаштириш вазифалари бирга амалга оширилади. Бу дарсларнинг асосий қисмида янги материал машқлари бир тўрини бажариш ва унга нисбатан кўпроқ вақт ажратиш лозим. Дарснинг қолган материаллари, машқларни яхши бажаришга эришиш учун, такрорланади [2].

Якуний ва назорат дарсларида ўқув материалига якун ясалади, талабаларнинг билимлари ва малакалари назорат меъёрлари орқали текширилади ва баҳоланади. Бундай дарслар чорак охирида ўтилади, лекин улар чорак ўртасида ҳам йилнинг иккинчи ярми давомида ҳам ўтилиши мумкин. Назорат дарслар олдиндан режалаштирилади, талабалар бундан хабардор бўлишлари ва унга мунтазам тайёрланишлари лозим. Бундай дарсларда жисмоний машқларни таъсирини аниқловчи тестлар олинса ҳам яхши бўлади.

Ўзлаштиришни назорат қилиш: Ўрта мактабда ҳам, Олий таълимда ҳам фанларни тўла ўзлаштириш замон талаби бўлиб қолмоқда. Бунинг учун ҳамма ишларни илмий асосда ташкил этиш зарур. Ҳозирги вақтда профессор-ўқитувчилар, ўқувчи ва

талабаларнинг ўқув жараёнини жадаллаштириш борасида катта ишлар амалга оширилмоқда. Ўқув жараёнини муваффақиятли ва серунум ташкил этишда ўқитуви ваталабаларнинг меҳнат фаолиятларини чуқур ўрганиш муҳим роль ўйнайди. Шунинг учун ўқув режасини тузишда ва улардаги фанларни дарс жадвалларига жойлаштиришда ҳар томонлама ўйлаб иш юритиш мақсадга мувофиқдир. Ўқитиш жараёнинг турли шакллари орқали талабаларга чуқур ва пухта билим берилади, уларда онглилик шакллантириб борилади. Маърузалар ҳамда бошқа турли хил амалий машғулотлар вақтида асосий диққат-эътибор талабаларнинг мустақил фикр юритиш фаолиятини тўла шакллантириш ва ўстиришга қаратилади. Эндигина вазифа талабаларга турли фанлар бўйича берилган билимларни ўзлаштирилиш даражасини белгилаш, ҳисобга олиш, синаб кўриш ва баҳолашдир. Ўзлаштиришни ҳисобга олишнинг муҳим томони шундаки, у талабанинг у ёки бу маъруза ва амалий машғулотларда қайси материални қай даражада ўзлаштирилганлигини ва нима устида янада кўпроқ ишлаш лозимлигини аниқлаб олишда профессор-ўқитувчиларга яқиндан ёрдам беради [3].

Хулоса

Талабаларнинг ўтилган маъруза ва амалий машғулотларни яхши ва атрофлича ўзлаштиришининг гарови ҳар бир маъруза ва амалий машғулотга пухта тайёргарлик кўриш ҳамда унинг кўргазмалари куруллар воситасида қизиқарли ва жонли ўтилишидир. Бу эса ўқитувчининг илм-фан соҳасидаги билим бойлиги ва ўқитиш ишида орттирган тажрибасига боғлиқдир. Демак, ҳар бир маъруза ва машғулотдан олдин унга жиддий тайёргарлик кўрилиши, ушбу соҳадаги ахборот, сўнгги факт ва материалларнинг умумлаштириб борилиши, улардан илмий хулосалар ва умумлашмалар чиқарилиши талаб этилади. Ўтиладиган ҳар бир мавзу олдинги ва кейинги мавзулар билан боғланиши, уларнинг бири иккинчисини тўлдириши зарурлигини кўзда тўтилади.

Жисмоний тарбияда ҳисобга олиш икки хил шаклда олиб борилади. Дастлабки ҳисобга олиш. Бунда талабанинг дастлабки жисмоний тайёргарлиги текширилади. Доим ҳисобга олишда талабаларнинг жисмоний тайёргарлиги ҳар бир дарс ва ўқув машғулотларида ва ҳар бир чоракда ёки ўқув йили ярмида ва якунида назорат дарслари орқалитекширилади. Жисмоний тарбияда ўзлаштириш деганда жисмоний тарбия таъсирида жисмоний фазилатларни риволаниши ҳамда организм биологик функцияларини такомиллашувидир. Бунинг учун албатта шуғулланувчилар назорат меъёрлари орқали жисмоний тайёргарлик даражасини намоён этадилар. Назорат меъёрлари ёш ва жинс қобилиятларига мувофиқ тузилган бўлади. Ҳозирги кунда "Алпомиш ва Барчиной" тест синовлари ҳам жисмоний тайёргарликни текшириш назорат меъёрлари бўлиб хизмат хилади. Ҳозирги кунда умумўрта, ўрта махсус ва Олий таълим тизимида талабаларнинг амалий ва назарий билимлари Рейтинг назорати орқали текширилиб борилади ва баҳоланади.

Адабиётлар

1. Ачилов А.М. Акрамов Ж.А. Гончарова О.В. Болаларнинг жисмоний сифатларини тарбиялаш. Тошкент. 2004 й. 164 б.
2. Усмонходжаев Т. С. Ва бошқа. Талабалар ва ўсмирлар спорт машғулотлари назарияси ва услубиятлари. Тошкент. 2005 й. 238б.
3. Родионов А. В. Практика психологии спорта. Учебное пособие. Ташкент. 2001. 185с.

Илмий раҳбар

доц. Ходжанов А.Р.

ЎЗБЕКИСТОНДА КАСБ ТАЪЛИМИ ТИЗИМИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ВА МАДЕРНИЗАЦИЯ ҚИЛИНИШИ

Миразамов Д. А. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақола республикаимиз таълим тизими, унинг шаклланиши босқичлари ва истиқболи ҳақида. Таълим тизимидаги ислохотлар, янгиликдан ташкил этилган касб-хунар коллежлари ва касб-хунар ўргатувчи таълим муассаларини замон талабларига мослаб мадёрнизация қилиш бугунги куннинг асосий масаласи ҳисобланади.

Касб фаолият тури, билим даражаси, дунёқарашига боғлиқ ҳолда кишининг меҳнат фаолияти, доимий машғулот тури ҳисобланади. Касб эгасидан муаян иш турини малакали бажариш имконини билим, маҳорат, тажриба тала этилади. Ҳар томонлама етук, баркамол авлодни етиштиришда касбий тарбиянинг роли ва ўрни беқиёс каттадир. Инсоннинг кундалик турмуш тарзи касб фаолияти билан боғлиқдир. Шу сабабли касб бутун моддий ва маънавий бойликларнинг ижтимоий тарақиётнинг негизидир. Касб тарбияси, шахсни ҳар томонлама ривожлантиришнинг ажралмас қисмидир. Шунингдек, шахснинг ҳар томонлама шаклланиши воситаси, унинг шахс сифатида улғайиш омилдир. Мунтазам қилинган касбий фаолият жараёнидагина шахс ўз ақлини, иродасини, ҳиссиётларини, характерини ривожлантириши, шахс сифатида шаклланиши мумкин [1].

Касбларнинг вужудга келиши ва ривожланиши қуйидаги омиллар билан асосланади:

1. Меҳнат соҳаларининг бўлиниши, жисмоний ва ақлий касблар сонининг ошиши;
2. Урбанизатция, яъни жамият ривожланишида шаҳарлар ролининг ошиши;
3. Фан-техника тарақиёти ва илғор ишлаб чиқариш технологияларининг яратилиши ҳамда тезкорлик билан амалиётга жорий этилиши [2].

Бугунги кунда юртимизда етти мингга яқин касб турлари мавжуд. Иқтисодийнинг турли тармоқларига бир минг иккиюзга яқин касб-хунар коллежлари ва саксонга яқин олий ўқув юртлари мутахассис тайёрламоқда. 1997-йилда қабул қилинган „Кадрлар таёрлаш миллий дастури“га мувофиқ 1997-2001-йилларда юртимизда бир қанча ўқув юртлари ташкил қилинди ва касбий таълим бериш жараёни мадёрнизатция қилина бошланди.

Бу йилларда янги талаб доирасда педагог кадрлар таёрлаш, таълим стандартларини яратиш, ўқув дастурлари устида ишлаш, ўрта маҳсус билим юртлари ва касб-хунар билим юртларига замин яратиш ва узлуксиз таълим тизимига асос солиш даври бўлди.

2001-2005-йилларда бу миллий дастур тўлиқ амалга ошди. Ўн икки йиллик таълим тизими ишлай бошлади. 2005-йилдан бошлаб барча мактаблар тўққиз йиллик бўлди. 2017-2018-ўқув йилидан бошлаб тажриба сифатида мактаблар ўн бир йиллик бўлди. 2018-2019-ўқув йилидан бошлаб барча мактаблар ушбу ўн бир йиллик тизимга ўтди. Бунга бир қанча омилларни сабаб қилиб келтириш мумкин. Ҳудудларда касб-хунар таълимини тўғри йўлга қўйилмаганлиги, касб-хунар коллежлари моддий техник базасини йўқлиги, касбий таълим берувчи ўқитувчиларнинг етишмаслиги ва яна шунга ўхшаш бир қанча сабабларни келтириш мумкин. Эндиликда ўқувчилар мактабда ўқиш билан бирга бир қанча турдаги кичик мутахассисликлардан бири бўйича маҳсус сертификатга эга бўлиши мумкин.

Умумий ўрта мактабни тамомлагач ўқувчилар олий ўқув юртларига ёки баъзи бир ихтисосликлар бўйича кичик мутахассислик олиш учун янгиликдан ташкил қилинган икки юз олти мишга яқин касб-хунар коллежларида ихтисосликка қараб олти ойдан икки йилгача бўлган муддатда ўқишлари мумкин. Эндиликда касб-хунар коллежлари моддий техник базаси ўқувчилар тўлайдиган тўлов контракт ҳисобига бутунлай янгиликни кутилмоқда.

Ривожланишларнинг янги босқичида турар эканмиз, энг аввало касб-хунар таълимини замон талабига мослаб ташкил этиш лозим. Бу жараёнда касблар бўйича таълим берувчи ўқитувчиларнинг малакасини ошириш, уларни замонавий фан ютуқлари билан таништириш лозим. Бўлажак касб эгасида билим, кўникма, малака ва касбга бўлган лаёқатни шакллантириш малакали ўқитувчига боғлиқ.[3]

Дарсларни ташкил этишда замонавий таълим методларидан фойдаланиш, дарсларни амалий кўникмалар билан узвий олиб бориш талаб этилади. Машғулотларнинг 40% ни касбга оид таянч билим беришга, 20% ни амалий машғулот ва лаборатория ишларини олиб боришга, 40% ни эса мустақил тадқиқотларга ажратиш лозим. Шунда бўлажак касб эгасида янгиликка интилиш, мустақил фикрлай олиш каби ҳислатларни шакллантириш мумкин. Талабаларни илмий-ижодий изланишларини доимий рағбатлантириб бориш эса уларда касбига бўлган қизиқишларни ортишига сабаб бўлади.

Ўқитувчи талабаларни бор имкониятларидан фойдаланишга, касбга оид қобилиятларини очилишига етарлича имкон яратиши, уларни қобилиятларига қараб йўналтириши лозим. Ўқув жараёнини ташкил қилишда эса қуйидагиларни амалга ошириш лозим: Турдош таълим муассасаларининг ўзаро ҳамкорлигини йўлга қўйиш;

Касбга оид илмий тадқиқот марказлари билан бевосита ҳамкорлик қилиш;

Ҳорижий давлатларнинг соҳадаги ютуқларини ўрганиш ва амалиётга тадбиқ этиш;

Интенсив ўқув усуллари ва воситаларидан фойдаланиш;

Талабалар билимини баҳолаш жараёнида уларнинг касбий маҳорат ва кўникмаларини ҳисобга олиш зарур. Бу тажриба ривожланган давлатлар таълим тизимига аллақачон жорий этилган.

Хулоса

Республикамызда ўсиб келаётган ёш авлод тарбияси ва таълим олишига катта этибор берилмоқда. Юртимизнинг келажаги ўз касбининг етук мутахассиси бўлган янгиликка чанқоқ ёшлар қўлидадир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Комилжон Хошимов, Санобар Нишонова „Педагогика тарихи“ Т. 2005
2. Н.Ғайбуллаев, Р. Ёдгоров, Р. Маматкулова „Педагогика“ Маърузалар матни
3. Х.Рашидов, Х. Хабиб, Г. Йўлдошева „Касбий педагогика“ Т. 2007

Илмий раҳбар

кат. ўқ. Раупова Ш.А.

ЦЕННОСТНЫЕ ОРИЕНТАЦИИ КАК ФАКТОР АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ МЛАДШИХ КУРСОВ К ОБУЧЕНИЮ В ВУЗЕ

Мирзахалилова З – студентка, ТИИИМСХ

Аннотация

Статья посвящена адаптацию студентов младших курсов к обучению в вузе как сложное комплексное явление, включающее биологический, психологический, социальный, педагогический, аксиологический и другие аспекты. Приобщаясь к учебной деятельности в вузе, студент первого курса постигает не только знания, умения и навыки на новом, более высоком для себя уровне, но и начинает овладевать образованием как ценностью и как системой ценностей.

Под аксиологией мы понимаем философское учение о природе ценностей, их месте в реальности и о структуре ценностного мира, то есть о связи различных ценностей между собой, с социальными и культурными факторами и структурой личности. Под ценностью мы понимаем значимость объектов окружающего мира для человека, класса, группы,

Ўсмирлик даврида билиш жараёнларининг ривожини фаол равишда давом этади. Лекин, бу ривожланиш ўспириннинг ўзига ва унинг атрофидаги кузатувчиларга кам сезилади. Бу даврга келиб, ўсмирлар тўла равишда мантикий тафаккурга эга бўладилар, назарий фикр киритиб, ўзларини-ўзлари таҳлил эта оладилар. Улар энди бемалол ахлоқий, сиёсий ва бошқа мавзуларда баҳслаша олиб, ўз муносабатларини билдира оладилар. Ўсмирлик даврида болалар жуда кўп илмий тушунчаларни ўзлаштириб, улардан турли масала ва муаммоларни енгилда фойдалана оладилар. Болаларда англаш ва ўз-ўзини англаш сезиларли даражада ўсади [3]. Ўспириннинг гўз-ўзини англаши ўқув, меҳнат ва мулоқот мотивацияларини ўзгартиришида ўз аксини топади. Будаврда, болада янги фаолиятлар юзага келиб, психик ривожланишида янги босқич бошланади. Ўсмирлик ёши ўқиш, меҳнат, мулоқот сингари етакчи фаолиятлар асосида умумий ва махсус лаёқатларининг ривожланаётганлиги билан характерланади. Ўсмирлик даврида билиш жараёнларининг ривожланиши фаол кечади. Лекин, бу ривожланиш ўспириннинг ўзига ва унинг атрофидаги кузатувчиларга кам сезилади. Ўсмирлик даврига келиб, жуда кўп болаларда ўз фаолиятларини олдиндан режалаштириш лаёқати яхши ривожланган бўлади. Шунингдек, ўз-ўзини бошқариш ҳам ўспиринлик ёшидаги болаларда яққол кўзга ташланади.

Ёшнинг улғайиб бориши, психик жараёнларнинг инсон ривожланишидаги қонуниятлари, ундаги етакчи омиллар ҳамда инсон ҳаёт йўлининг турли босқичларида унинг шахсига хос хусусиятлар ёш давлари психология фанининг тадқиқот предмети ҳисобланади. Маълумки, шахс таркиб топиш жараёнининг психологик қонуниятларини, унинг илмий асосларини мукамал билмай туриб, таълим ва тарбиянинг назарий ҳамда амалий масалаларини муваффақиятли ҳал этиб бўлмайди. Ёш давлари психология фани бу борада ҳам ўз-ўзига тегишли масалаларни тор экспериментал равишда ўрганиш билангина чекланиб қолмай, балки ўз муаммоларини инсон ҳаёти ва фаолиятининг табиий шароитларида, болага бериладиган таълим ва тарбиянинг мазмун ва моҳиятидан келиб чиққан ҳолда ўрганса янада муваффақиятли ривожланиши табиийдир.

Хулоса

Хулоса қилиб айтганда, ўсмирларни мустақил ҳаётга тайёрлашнинг психологиядаги ўрнининг илмий, назарий жиҳатларини ўрганиш олий таълимда талабалардан ҳаракатчанликни, билимдонликни, ишбилармонликни, ташаббускорликни талаб қилади. Мустақил ҳаётда Шарқ ва Ғарб мутафаккирлари, фан ва маданият намояндаларининг мероси мутахассисларда миллий маданиятни кадриятлар асосида шакллантириш жараёнининг (айниқса, ижтимоий ёндашув доирасида) ажралмас қисми бўлиб ҳисобланади. Бу ўринда таълим-тарбия бериш, маданиятга ошно қилишнинг замонавий долзарб йўналишларига ҳамоҳанг ғояларни ажратиш мутафаккирлар илгари сурган ғоя ва қарашларнинг талабалар томонидан кадрият даражасида ўзлаштирилишига мустақил эришиш, айтиқса, муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори –Т.: «Ўзбекистон» 1997
2. Ғозиев Э.Ғ. Олий мактаб психологияси. «Ўқитувчи», Т.: 1997.
3. Давлетшин М.Ғ., Тўйчиева С.М. Умумий психология, Т. 2002.
4. Гальперин П.Я. Психология как объективная наука. Избр. психологические труды. М.: Воронеж, 1998.

Илмий раҳбар

Раҳманова М.Қ.

ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ДАРСЛАРИ ЖАРАЁНИДА ҲАРАКАТ ҲАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АСОСЛАРИ

Умаров С. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Жисмоний тарбия машғулотдан-машғулотга, босқичдан-босқичга узлуксиз ўзгариб бориш йўли билан доимий ҳаракатда, ўсишда бўлади. Бунда машқларнинг мураккаблиги ортиб, таъсир кучининг пасайиб бориши характерли ҳисобланади. Мақолада тараққиёт тамойили жисмоний тарбия жараёнида шуғулланувчиларга қўйиладиган талабларнинг умумий йўналишини ифода этади ва қийинлашиб борувчи янгидан-янги вазифаларни қўйиш ва бажаришни, шулар билан боғлиқ бўлган юкламалар ҳажми ва интенсивлигини аста-секин ошириб боришни ўз ичига олиши кўрсатиб ўтилган.

Кириш: Жисмоний тарбия жараёнида ҳаракат ҳаолияти шаклининг мураккаблашиши билан бир қаторда, жисмоний юкламанинг ҳамма компонентлари ҳам ортиб бориши керак. Бу куч тезлик ва чидамлилиқ каби жисмоний ҳазилатларни такомиллаштириш қонуниятларида кўринади. Жисмоний машқлар таъсири билан организмда бўлиб турадиган ижобий ўзгаришлар даражаси юкламанинг ҳажми ва интенсивлигига пропорционал эканлиги аниқланган. Жисмоний юкламанинг чарчашга олиб келадиган даражада бўлмаслигига риоя қилинса, юклама ҳажми қанча катта бўлса, мослашув жараёни шунча муҳим ва мустаҳкам бўлади; юклама қанча интенсив бўлса, тикланиш ва “ўта тикланиш” жараёнлари шунча зўр бўлади.

Жисмоний тарбия жараёнида талабларни оширишнинг асосий шартлари енгиллик, индивидуаллаштириш, тизимлилиқ тамойилларини таҳлил қилиш уларнинг ўзаро мувофиқ эканини кўрсатади. Талабларни ошириб бориш янги топшириқ ва юкламаларни бажаришга шуғулланувчилар тайёргарлиги мувофиқ келса, топшириқ ва юкламалар организмнинг функционал имкониятларга мос келса, ёш, жинс, индивидуал хусусиятларга мос бўлса ижобий натижаларга олиб келади. Машқларнинг алмашилиши ва

ўзаро алоқада бўлиши билан боғлиқ бўлган изчиллик, машғулотларнинг мунтазамлиги юклама ва дам олишнинг оптимал алмашинуви ҳам асосий шартлардан ҳисобланади [1].

Жисмоний тарбия амалиётида таълимнинг кўплаб турли услублари ва услубий шакллари қўлланилади.

Услубларни қуйидаги уч гуруҳга бирлаштириш мумкин:

- а) оғзаки;
- б) кўргазмали;
- в) амалий.

Оғзаки услуб жисмоний тарбия жараёнида машқларни тушунтириш, машқларни ўзлаштириш бўйича суҳбатлар, мунозаралар, муҳокамалар ҳамда таҳлил этиш шаклида бўлади. Тушунтириш услуби мактабнинг барча синфларида қўлланилади. У машқнинг моҳиятини очиб беради, ўқувчиларда ҳаракат ҳақида тасаввур ҳосил қилади. Кўргазмали услубда қиёслаш, тақлид қилиш кўп қўлланилади. Кўргазма давомида ўқувчилар ҳам машқлар ва ҳаракатларга оид бўлган янги сўзларни ўрганиб борадилар. Қийин машқларни кўрсатишда эса, болалар диққатини асосий мақсадга йўналтириш керак. Услубларнинг яна бири – амалий услуб бўлиб, у орқали оғзаки ва кўргазмали услубларда қайд этилган ҳолатлар янада мустаҳкамланади, шаклан ва мазмунан ўз маромига етказилади.

Ҳикоя болаларни машқларнинг янги турлари билан таништиришда; мазмун ва шаклга эга бўлган янги ўйинни ўрганишда қўлланилади. Ҳикоя усулида янги материал қизиқарли ривоят тарзида баён қилинади. Бунда ўрганиладиган материални яхши ўзлаштиришга ва машқларни яхши бажаришга замин яратилади. Ҳикоя услуби бошланғич синф ўқувчилари билан жисмоний тарбия дарслари ташкил этишда кўп қўлланилади. Ҳикояга қўйиладиган талаблар баёни қисқа, қизиқарли, ифодали ва ҳиссий бўлиши керак.

Суҳбат савол-жавоб шаклида ўтказилади. Ўқитувчи йўлловчи саволлар ёрдамида материални ўзлаштириш даражасини аниқлайди, шунингдек ўқувчиларда ўз фикрларини айтиш истагини кўзгайди. Суҳбат ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасидаги муаммоларнинг қулай шакли бўлиб, ўрганиладиган ўқув материални ўтилган ўқув материали билан боғлаш ва уни болалар тушунишлари даражасини аниқлаш, улар диққатини фаоллаштириш учун фойдаланилади. Суҳбат доимо мақсадли, ўз мавзусига йўналтирилган, қизиқарли бўлиши керак.

Буйруқ ва қарорлар жисмоний тарбия жараёнини бошқариш воситаси ҳисобланади. Бунинг асосида ўқитувчи жисмоний тарбия машғулотларида буйруқ бериб, ўқувчиларни бошқариш масалаларини ҳал этади. Буйруқ ва қарорлардан ўқувчилар жисмоний машқларни бажараётганларида ва дарсни ўтиш жараёнида ўқитувчи раҳбарлик қилиш учун буйруқ ва қарорларидан фойдаланади. Буйруқ усули болаларда ҳаракатларни бажаришга бўладиган таъсир сифатида шаклланади. Ўқитувчининг буйруғи аниқ, лўнда ва қисқа бўлиши керак. Шунингдек, оҳангдор бўлиши керак.

. Жисмоний тарбиянинг оғзаки услубига доир яна бир шакл –кўрсатма ва тавсиялардир. Улар жисмоний машқлар техникасини эгаллаш, хатоларни бартараф этиш ҳамда янги машқларни ўзлаштириш давомида бериб борилади [2].

Ҳосил қилинган малака ва кўникмалар мустаҳкамлиги, жисмоний юкламаларга мослашувчанлик даражасига қараб, янги мураккаб бўлган машқларга ўргатилади. Бу талабларга амал қилмаслик малаканинг тўғри шаклланмаслиги, жисмоний юкламаларда куч келиши ҳамда машқларни бажаришда тузатилмайдиган хатолар вужудга келишига олиб келади. Ўз ўрнида янги ҳаракатларда малака ва кўникмаларнинг шаклланишига тўсқинлик пайдо бўлади. Шунингдек, жисмоний юкламаларнинг оширилиши динамикаси билан организмнинг морфофункционал ривожланишида тафовутлар шаклланади.

Организм юкламага бирдан, бир пайтда кўникиб қолмайди, ҳар хил муддатлар талаб қилинади. Янги юкламалар таъсирига мослашиш учун ҳаммавақт маълум муддат талаб қилинади. Бунда функционал ва таркибий ўзгаришлар содир бўлади. Юклама динамикаси ўзининг изчиллиги билан характерланади. Бунда юкламани аста-секин

ошириб боришнинг ҳилма-хил шакллари: тўғри чизик бўйлаб ошиб борувчи, босқичма-босқич ошиб борувчи, тўлқинсимон шакллари бўлиши мумкин.

Юкламанинг тўғри чизикли ортиб боришида юклама ҳар ҳафтада бир ўлчовда ортиб боради. Аста-секинлик юкламанинг бир хил меъёрда ўсиши ҳамда машғулотлар ўртасидаги катта вақт билан таъминланади. Босқичли ўсиб бориш юкламанинг машғулотлар давомида бирхиллаштириш билан таъминланади. Юкламанинг сакраши пайтида, яъни бир босқичдан иккинчи босқичга ўтишида юкламалар кескин ортади. Ва сакрашга қадар улар барқарорлашиб боради. Юкламанинг тўлқинсимон ортиши талабларни секин-аста ҳамда кескин орттириб, сўнгра пасайтириб бориш билан характерланади. Бу шаклдаги юкламанинг миқдори интенсивлиги ва изчиллиги катта бўлади.

Жисмоний юкламаларнинг тўғри чизикли ва босқичма-босқич ортиб бориши жисмоний тарбиянинг унча узоқ бўлмаган жараёнларида фойдаланилса, катта самара беради. Юкламанинг тўлқинсимон ортиб бориши эса, малакали спортчилар машғулоти (тренировка) жараёнларида яхши натижа беради [3].

Хулоса

Жисмоний тарбия жараёнида ўқитувчилар талабаларни ҳаракатларга ўргатиш ва жисмоний машқлар техникасини эгаллашда таълим услублари ёрдамида таълим босқичлари вазифасини ҳал этадилар. Таълим даргоҳларида жисмоний машқларга ўргатиш жараёни таълим тамойиллари ва услубларини тўғри ташкил этилишига боғлиқ. Жисмоний тарбияда таълим жараёни талабаларни жисмоний тарбия ва спортга оид махсус билимлар билан қуроллантириш ҳамда жисмоний машқлар ва ҳаракатлар техникаси, малака ва кўникмасини ҳосил қилиш вазифаларини ҳал этади. Жисмоний тарбияда шуни кўриш мумкинки, машқларни кўп мартаба ҳар хил талаблар асосида такрорлаш ва мустақамлаш жисмоний машқлар техникасини бажаришда ҳеч бир қийинчилик бўлмаслигини таъминлайди. Бу билан ҳаракат малака ва кўникмалари такомиллашиб боради.

Жисмоний тарбия жараёнида фақатгина жисмоний фазилатлар эмас, балки ахлоқий сифатлар жамоатчилик билан ҳамкорлик, дўстлик, ботирлик, қатъийлик, ватанпарварлик хислатлари ҳам тарбияланиб боради. Шунингдек, ўқувчиларни тартиб-интизомга риоя қилиш, ташаббускорлик ва фаоллик каби сифатлар ҳам шаклланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ачилов А.М. Акрамов Ж.А. Гончарова О.В. Болаларнинг жисмоний сифатларини тарбиялаш. 2004 й. Тошкент.
2. Усмонходжаев Т. С. ва бошқа. Талабалар ва ўсмирлар спорта машғулотлари назарияси ва услубиятлари. 2005 й. Тошкент.
3. Родионов А. В. Практика психологии спорта. Учебное пособие. 2001 Ташкент.

Илмий раҳбар

кат., ўқит. Мирходжаева З.С.

РОЛЬ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ЭКОЛОГИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

Хайдаров А, - студент, ТИИИМСХ

Аннотация

Изобретения XX века, технологии XXI века, неизменно изменили облик современной цивилизации. Быстрый рост населения и развитие урбанизации в последние десятилетия оказали самое негативное влияние на экологию. Экологическое воспитание

молодого поколения и экологическое просвещение всего населения в настоящее время приобретает все большую актуальность.

Основная цель: Показать роль и влияние на экологическое воспитание молодого поколения исторических, национально-духовных ценностей

В настоящее время огромный интерес к изучению экологических процессов, вызванный резким ухудшением состояния окружающей среды, побуждает пересмотреть наши взгляды на взаимоотношения Человека и Природы. Стремление человечества максимально использовать природные ресурсы, отсутствие информации и слабое знание методов взаимодействия с природой, нарушение баланса воздействия на природу стали причиной появления глобальных экологических проблем. Глобальные перемены происходящие в обществе требуют пересмотра всей системы экологического воспитания и образования, так как без защиты окружающей среды невозможно сохранить здоровье людей [1].

Экологическое воспитание и просвещение – это формирование у человека сознательно-восприимчивости окружающей среды, убежденности в необходимости безупречного отношения к природе, к разумному использованию ее богатств, пониманию важности приумножения естественных ресурсов. Это единственное условие процесса гармонизации взаимодействия общества и природы. Экологические знания становятся основой адекватного нравственного поведения [2].

Но какое экологическое воспитание своим детям давали наши предки? В древности, до того как появилась «Авеста», вступление наших предков в активные общественные отношения, процесс рационального осознания ими происходящего, можно зафиксировать и научно обосновать благодаря работам археологов, анализу древних писем, каменных памятников, произведений устного народного творчества. Ценность рукописного сочинения наших предков в том, что эта книга наряду с религиозным, философским, политическим и общественно-историческим значением, имеет и большое образовательно-воспитательное значение.

Зороастризм — самая древняя из мировых религий откровения, и, по-видимому, он оказал на человечество, прямо или косвенно, больше влияния, чем какая-либо другая вера. Зороастризм был государственной религией трех великих Иранских империй, существовавших почти непрерывно с VI в. до н.э. по VII в. н.э. и господствовавших на большей части Ближнего и Среднего Востока. Власть и могущество Ирана обеспечили зороастризму огромный престиж, и некоторые из важнейших его доктрин заимствованы иудаизмом, христианством, исламом, а также гностическими сектами. Священное писание зороастризма «Авеста» является исторической ценностью народов Центральной Азии.

Р. Вохидов, Х. Эшонкулов высказывают о сущности и содержании «Авесты» следующую мысль: «Авеста, вместе с тем, что является священной книгой религии Заратустры, ещё и редкий энциклопедический источник, дающий сведения об истории, культуре, социально-экономической жизни, языке, обычаях, устном народном творчестве Турана и Ирана и других стран ближнего Востока». Обучение и воспитание детей в «Авесте» осуществляются следующим образом: религиозное и нравственное воспитание, экологическое воспитание, физическое воспитание, обучение чтению и письму. В систему воспитания включены знания о законах, укладе зороастризма, общественной жизни, структуре общества, материальном мире, месте профессии в деятельности человека, положительных и отрицательных сторонах общества, мышлении человека, почтение к женщинам, семье и конечно бережное, почтительное отношение к природе.

В зороастризме особое внимание уделялось экологическому воспитанию: природа считалась священным. Поэтому в «Авесте» рассматриваются некоторые экологические вопросы. Чистота как экологическая категория в Авесте связана с понятием красоты. Там, где царствует чистота, господствуют здоровье, счастья и богатство. Поэтому везде – в храмах огня, в домах, в помыслах, деяниях должна царить чистота. Свет, тепло, солнце и

огонь существовали как символы божества Ахура Мазды. Молодое поколение воспитывалось на принципах и символах, отражающих явления самой природы, тесно связанных с землей и ее обработкой, со скотоводством, то есть с практической деятельностью людей.

Согласно Авесте земля обещает человеку, который ее обрабатывает, «...рожать без устали... давать пропитание и обильный урожай», а человек, который не обрабатывает ее, «поистине вечно будет стоять, прислонившись к чужой двери, среди тех, кто попрошайничает». «Кто сеет хлеб, тот сеет праведность». Почитание хлеба и муки нашло отражение в свадебных обрядах (посыпание мукой), при родах ребенка («у хлеба широкая дорога, пусть ребенок не пугается»), молоко - «шир» - называли чаще словом «гандж» («сокровище», «богатство»); огонь считался основой земного бытия.

В яштах Авесты воспеваются уважение к труду, ко всякой деятельности человека:

Сколько долей получают
От жертвенного хлеба
Священник, и воитель,
И пахарь, и пастух.

С трудом в Авесте связаны экологические понятия. Если говорить о воспитании экологических представлений, прежде всего привлекает внимание, что экологические знания тесно связаны с повседневной жизнью людей и с различными предметами. Чистота, красота, добро и счастье понимаются как взаимосвязанные понятия. С этой точки зрения в Авесте солнце чистое, красивое, так как дарует людям тепло и свет и символизирует добро. Результаты экологических оценок всех явлений сводятся к тому, что все они используются в реальной жизни человека. Чистота и красота в Авесте имеют только практическое значение. Другими словами - чистота материальна, она видится и осознается.

Одной из главных идей зороастризма, является идея чистоты и здоровья человека. Болезни зороастрийцы связывали с наследием дэвов, с грязью, неблагополучием, властью и ложью. Они были обязаны содержать в чистоте свой дом, землю, почву и воду. Таким образом воспитывалась уважительное отношение а окружающей среде.

В Авесте говорится что нет разницы между человеком и миром животных и растений. В питьевой воде запрещалось стирать бельё и купаться. Так как вода считалась священной и категорически запрещалось её загрязнение отходами. Уважение и почитание света, огня, тепла, почвы, воды, так же чистоте окружающей среды, соблюдение личной гигиены было долгом каждого члена общества, и они все считались символами Ахура Мазды.

Наставление зороастрийцев о бережном отношении человека к окружающему миру веками передавались от поколения к поколению. Действительно экологическое воспитание – бережное отношение к природе, любовь к земле, сохранение чистоты воды имеет исторический характер и в воспитании подрастающего поколения духовные ценности нашего народа имеют очень важное значение [3].

Экологический кризис, в состоянии которого находится сейчас наша планета, является следствием не только роста населения, но и кризисом сознания. Человечество на долгом пути своего развития не только не достигло счастья, но и потеряло возможность жить ладу с природой и с самим собой. Если большая часть времени ХХ в. прошла под флагом эйфории от технологических успехов, то теперь человек понял, что он дитя природы, а не ее хозяин и властелин; сама возможность жизни человека на планете обеспечивается сложившейся в биосфере за тысячелетия скоординированной жизнедеятельностью всех биологических видов. В настоящий момент, для преодоления экологического кризиса и успешного практического решения возникших экологических проблем необходим переход к новой доктрине экологизации всего образовательного процесса на любом уровне, т. е. к экологически ориентированной цивилизации. А для этого нужна новая система знаний, построенная на единой теоретической основе.

Экологическое просвещение должно стать неотъемлемой приоритетной частью подготовки любого специалиста в области управления, экономики, техники, медицины, естественных и гуманитарных наук [4].

Список литературы

1. Степановских А.С. Охрана окружающей среды - М.: Юнити-дана, 2001.
2. Акимова Т. А., Хаскин В.В. Экология - М.: Юнити-дана, 2001.
3. Мери Бойс. Зороастрийцы. Верование и обычаи – М.: Наука, 1988.
4. Андреев М.Д. Экологическое воспитание и просвещение как эмоционально-ценностное отношение к природе // Современные проблемы науки и образования. – 2009. – № 7.;
5. URL: <http://www.science-education.ru/ru/article/view?id=217>

Научный руководитель

Алимухамедова Н.Я

МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТАШҚИ ДАВЛАТЛАР БИЛАН АЛОҚАЛАРИ ТАРИХИДАН

Холжигитов А.Р. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ўзбекистоннинг қадимдан дунё халқлари билан алоқалари, Буюк Ипак йўлининг асосий йўналишлари юртимиз орқали ўтганлиги, Марказий Осиё минтақасидаги қадимий савдо ва маданий алоқаларда юртимизнинг ҳиссаси йирик бўлганлиги қўл келган бўлса, қисқа фурсатда ташқи сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқаларимизнинг кенгайишида, Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашувида Президент И. А. Каримовнинг ўрни ва роли бекиёслигини.

Мустабид тузум ҳукмронлиги даврида собиқ иттифоқнинг бошқа республикалари қатори Ўзбекистон ҳам зоҳиран хорижий давлатлар билан мустақил муносабатлар ўрнатиш, жумладан ташқи фаолиятни амалга ошириш ҳуқуқига эга суверен республика ҳисобланарди. Аммо ҳақиқатда ҳаммаси аксинча бўлиб суверен республикаларнинг Конституцияда белгилаб қўйилган халқаро ҳуқуқлари шунчаки куруқ гап - тарғиботчилик хусусиятига эга эди, холос. Халқаро муносабатлар фақат марказнинг руҳсати ва қаттиқ назорати остида амалга ошириларди.

1990 йил 12 июлда Ўзбекистон ССР Ташқи савдо ва хорижий алоқалар давлат қўмитаси ташкил этилди. Мустақилликка эришганимиздан сўнг, 1992 йил 12-февралда бу давлат қўмитаси Ташқи иқтисодий алоқалар вазирлигига айлантирилди [1].

Ислом Каримовнинг мамлакатимиз раҳбари сифатидаги сиёсий фаолиятини кузатганда ҳали собиқ мустабид давлат таркибида бўлган иттифоқдош республикалар орасида Ўзбекистоннинг биринчи Президенти бўлиши биланок ўзбек халқининг содиқ фарзанди сифатида мустақил давлат тараққиётининг ғоявий асосларини ишлаб чиққанлигини яққол кўриш мумкин. Жумладан, ташқи фаолият соҳасида Ислом Каримов томонидан ҳаммадан аввал республикани хом ашё етказиб берувчи мамлакатдан иқтисодий жиҳатдан юқори даражада ривожланган, жаҳон андозаларига жавоб берадиган ва келгусида дунё иқтисодий майдонида интеграциялашув билан кенг қўламли иқтисодий ҳамкорлик қилишга қобил давлатга айлантиришга асосий эътибор қаратиш зарурлиги тўғрисидаги ғоя илгари сурилди. Ҳали тўла мустақилликка эришмай туриб, мустабид тузум шароитида И. А. Каримов ташаббуси билан 1991 йилнинг июнида “Ўзбекистон ССРнинг ташқи иқтисодий фаолияти тўғрисида” ва “Ўзбекистон ССРнинг чет эл инвестициялари тўғрисида” муҳим Қонунларнинг қабул қилиниши республика раҳбари кўтариб чиққан бу ғояларни ҳаётга тадбиқ этиш йўлидаги дастлабки қадамлар бўлди.

Иттифоқ давлат бирлашмаси ҳам мавжуд бўлишига қарамай, мазкур ҳужжатларда Ўзбекистон иқтисодига чет эл инвестицияларини киритишнинг ҳуқуқий, иқтисодий ва ташкилий асослари, шунингдек, уни амалга ошириш тартиби белгилаб берилди, Республика худудидаги хорижий сармояларнинг давлат томонидан кафолатланиши қонун йўли билан расмийлаштирилди. Кейинчалик улар бошқарувнинг маъмурий-буйруқбозлик усулидан секин-аста бозор усулига, жумладан, ташқи иқтисодий фаолиятни тартибга солишга ўтишни амалга оширишдан иборат иқтисодий ислохотларнинг биринчи босқичида муҳим рол ўйнади [2].

Умумиттифоқ ташқи савдо ва ташқи иқтисодий тузилмалар фаолиятининг тўхташи, бундай идораларнинг Ўзбекистонда бўлмаганлиги мустақилликнинг дастлабки босқичида ташқи сиёсатни амалга оширишда муайян қийинчиликларни келтириб чиқарди. Ўша даврда вужудга келган бундай вазият Ўзбекистонга ташқи иқтисодий мажмуанинг бошқарув тизими билан бирга, ташқи сиёсат бўйича ўзининг моделини жадал суратда шакллантириш, шунингдек, ташқи алоқаларни йўлга қўйиш принципларини ишлаб чиқиш ва Ўзбекистоннинг жаҳон иқтисодий тизимиغا интеграциялашув йўлини мустақил белгилашни зарур қилиб қўйди.

1991 йил 31 августда Олий Кенгашнинг VI сессиясида қабул қилинган “Мустақиллик ҳақидаги Баёнот”да “Халқаро ҳамжамиятнинг тўла ҳуқуқли аъзоси бўлган Ўзбекистон Республикаси халқаро муносабатларда мустақил давлат, халқаро ҳуқуқ субъекти сифатида қатнашади, унинг мақсадлари мустақам тинчлик, қуролисизланиш, ўз худудини қуро-яроғлардан ҳоли қилиш, ядровий қуроли ва бошқа оммавий қирғин қуролиларини йўқотиш, суверен давлатлар ўртасидаги низо ва зиддиятларни ҳал этишда куч ишлатиш ва тазйикқа йўл қўймасликдан иборат”, деб ёзиб қўйилди. Ўз ташқи сиёсатининг асосий йўлини белгилаб олган Ўзбекистон Республикаси 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган Конституциямизнинг 17-моддасида бу йўлни қонун билан мустақамлади.

Республикада 88 та хорижий мамлакат ваколатхоналари аккредитация қилинган, 24 ҳукуматлараро ва 13 ноҳукумат ташкилотлари фаолият кўрсатмоқда. Дунёдаги 30 дан ортиқ давлатда Ўзбекистоннинг элчихоналари ва консуллари ишлаб турибди[3].

Маълумки, бугунги кунда инсоният юксак тараққиёт йўлидан жадал ривожланиб, улкан натижаларни қўлга киритмоқда. Айни вақтда умумий ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жараёнида турли муаммо ва зиддиятлар вужудга келиб, глобал миқёсда кучайиб, кескин тус олиб бормоқда. Бу эса ўз навбатида Ер юзидаги барча давлатлар ва халқларнинг ўзаро ҳамкорлиги ва ҳамжиҳатлиги асосида уларни бор куч ва имкониятларини ана шу ғоят долзарб масалалар ечими йўлида бирлаштириш ва сафарбар этишни ўткир заруратга айлантirmoқда. Бу борада, ҳеч шубҳасиз, жаҳондаги турли халқаро ташкилотлар, биринчи галда энг нуфузли ва етакчи халқаро ташкилот - БМТнинг ўрни ва аҳамияти ҳар қачонгидан ҳам кўра ортиб бормоқда.

1992 йил 2 мартдан бошлаб БМТнинг Нью-Йоркдаги Бош Ассамблея бош қароргоҳида мамлакатимизнинг давлат байроғи ҳилпиради. Ушбу кундан эътиборан Ватанимиз глобал ва минтақавий муаммоларнинг муҳокамасида ҳамда муҳим халқаро қарорлар қабул қилиш жараёнида бевосита қатнашиш имкониятига эга бўлди. 1993 йил 24 августда Тошкентда БМТ ваколатхонаси иш бошлади. Ўзбекистон ўша кундан бошлаб БМТ билан ҳамкорлик қилишнинг устувор йўналишларини белгилаб олди. Булар, жумладан, бугунги кундаги хавфсизлик ва барқарорликка нисбатан таҳдидларга қарши курашиш, шунингдек, Афғонистонни қайта тиклаш, минтақада оммавий қирғин қуролиларининг тарқалишига йўл қўймаслик, экологик муаммоларни ҳал этиш, Орол денгизи фожеасининг оғир оқибатларини юмшатиш, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш, инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш каби масалалардир [4].

Ўзбекистон Президенти И. Каримовнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясини 48 ва 50-юбилей сессияларидаги нутқларида мустақил Ўзбекистон ташқи сиёсатининг бош йўналишлари белгилаб берилди.

Ўзбекистон раҳбарининг халқаро миқёсда манфаатли бўлган таклифлари жаҳон

ҳамжамияти томонидан кўллаб-қувватланди ва шунга асосланиб 1995 йил 16 сентябрда Тошкентда БМТнинг Марказий Осиёда хавфсизлик ва ҳамкорлик масалаларига бағишланган семинар-кенгаши иш бошлади. Дунёнинг кўп давлатлари иштирок этган бу семинарда Ўзбекистон раҳбарининг сўзлаган нутқи бош ҳужжат сифатида қабул қилинди.

Бу семинар йиғилиши “Тинчлик, барқарорлик ва ҳамкорлик” шиори остида ўтди.

Ўзбекистон Президенти Ислоҳ Каримовнинг 2000 йил сентябрда БМТ Бош Ассамблеясининг минг йиллик саммитидаги нутқи ҳам дунё жамоатчилигида катта қизиқиш уйғотди. Давлатимиз раҳбари халқаро терроризм, диний экстремизм ва нарқобизнесга қарши бир ёқадан бош чиқариб, самарали кураш олиб бориш, минтақавий хавфсизлик, жумладан, Марказий Осиё минтақасида барқарорлик ва хавфсизликни таъминлаш, жаҳон хавфсизлиги тизимини такомиллаштириш, БМТ фаолияти ва таркибий тузилишини ислоҳ қилишга оид таклифлар билан чиқди. Нарқобизнес ва экстремизмнинг ҳар қандай кўринишига қарши курашда барча БМТга аъзо давлатлар хатти-ҳаракатларини мувофиқлаштириш, Марказий Осиёда экологик вазиятни соғломлаштириш мақсадларини илгари сурди [5].

Ўзбекистон БМТнинг Тараққиёт дастури, ЮНИСЕФ, Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти, БМТнинг қочоқлар ишлари бўйича агентлиги ва бошқа халқаро институтлари билан Ўзбекистон ҳудудидаги қирғизистонлик қочоқларга ёрдам кўрсатиш борасида яқиндан ҳамкорлик қилди.

Ўзбекистон ва БМТнинг экология соҳасидаги ҳамкорлиги доирасида Орол бўйидаги вазият деградациясининг олдини олиш ва Орол фожеаси оқибатларини енгиллаштириш бўйича қабул қилинган тезкор чоралар устувор аҳамиятга эга. Ушбу масалани ҳал этиш борасида БМТнинг Ўзбекистонга кўмак беришга тайёрлиги баён этилди.

2010 йил апрель ойида БМТ Бош қотиби Пан Ги Мун Орол бўйи минтақасига ташриф буюрди. Унинг сўзларига кўра, кўрган манзаралари унда ўчмас таасурот қолдирган. Пан Ги Мун Орол муаммосини ҳал этишга кўмаклашишга, ушбу экологик фожеа оқибатларини бартараф қилиш учун БМТнинг эксперт салоҳияти, молиявий ва бошқа ресурсларини жалб этиш борасида барча саъй-ҳаракатларни сафарбар қилишга тайёр эканини билдирди. Ўзбекистон ва БМТ алоқалари тўғрисида катор ишлар амалга оширилган. БМТ фаолиятини ёритувчи “БМТни биласизми” рисоласида унинг халқаро тинчликни таъминлашдаги ўрни аҳамияти, жаҳон миқёсида олиб борган диққатга сазавор ишлари, турли соҳалар бўйича алоҳида ташкилотлари ҳақидаги қизиқарли маълумотларни олиш мумкин.

Айниқса, БМТнинг таълим, илм-фан ва маданият масалаларига ихтисослашган ЮНЕСКО ташкилоти билан республикамиз ўртасидаги ҳамкорлик муносабатлари юртимизни дунёга танитишда муҳим аҳамият касб этмоқда. Ўзбекистон Республикаси 1993 йил 26 октябрда ЮНЕСКОга аъзо бўлди.

ЮНЕСКО ва Ўзбекистон ҳамкорлиги натижасида Ўзбекистон халқаро ҳамжамиятга ҳар томонлама кенг танилмоқда, унинг жаҳонда тутган мавқеи янада ошиб бормоқда. Бу ҳақда А. Мўминовнинг изланишларини алоҳида қайд қилиш мумкин. У “жаҳон ҳамжамияти Ўзбекистоннинг интеллектуал салоҳияти ва маданий имконияти билан яқиндан танишмоқда,-деганда нақадар ҳақ эди.

Хулоса

Ўзбекистоннинг ЮНЕСКО билан ўзаро ҳамкорлигининг кенгайиши натижасида ЮНЕСКО иштирокида Марказий Осиё тадқиқотлари халқаро институти очилди. Амир Темур таваллудининг 660 йиллиги, Аҳмад Фарғоний таваллудининг 1200 йиллиги, Ж.Мангуберди таваллудининг 800 йиллиги, Камолиддин Бехзод таваллудининг 545 йиллиги, Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллиги, “Алпомиш” эпосининг 1000 йиллиги, “Авесто” яратилганлигининг 2700 йиллиги, “Термиз” шаҳрининг 2500 йиллиги,

Маъмун академиясининг 1000 йиллиги, Қарши ва Самарқанд шаҳарларининг 2750 йиллиги каби тадбирлар бевосита ЮНЕСКО ҳомийлигида ўтказилди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тарақиёти ва халқ фаровонлигини гарови. –Т.: Ўзбекистон, 2016, 48 б.
2. Каримов И. Бунёдкорлик йўлидан. –Т., Ўзбекистон, 1997, 359 б.
3. Каримов И. А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз мажбурмиз. –Т.: Ўзбекистон, 2001, 439 б.
4. Gazeta.uz
5. lex. Uz

Илмий раҳбар

асс., Элмуродова Ш.А.

МАЛАКАЛИ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШДА ТАЪЛИМ УЗЛУКСИЗЛИГИ ВА УЗВИЙЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ

Холиқова С.С. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада мамлакатимиз таълим муассасаларида малакали кадрлар тайёрлашда таълим узлуксизлиги ва узвийлигини таъминлаш, умумий ўрта таълим ва касб-хунар таълими ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик асосида олиб борилаётган ишларнинг ўрни ва аҳамияти масалалари ёритиб берилган.

Ўзбекистон Республикаси таълим ва кадрлар тайёрлаш тизимининг янги асослари ва йўналишларидан келиб чиқиб айтиш мумкинки, Республикада таълим-тарбия жараёнининг мазмунини бойитиш ҳар томонлама таълим ва ишлаб чиқариш имкониятларидан кенг фойдаланиш ва ишлаб чиқаришга жорий этиш ишлари амалга оширилмоқда. Шу боисдан таълимни узлуксизлигини ва узвийлигини таъминлаш ва бу борадаги камчиликларни бартараф этишнинг янги омилларини топиш ҳозирги кундаги таълим ва ишлаб чиқариш ўртасидаги боғлиқликни таъминлашнинг асоси сифатида эътироф этиш мумкин. Бу масала юзасидан мамлакатимиз биринчи Президенти Ислам Каримов таъкидлаганидек, “Таълимни тарбиядан, тарбияни эса таълимдан ажратиб бўлмади-бу шарқона қараш, шарқона ҳаёт фалсафаси” – деган мулоҳазаларидан ҳам кўриш мумкинки, таълимни тарбия жараёни билан боғлиқ ҳолда ташкил этиш таълимни инсонпарварлаштириш хусусиятини ўзида акс эттиради. Мазкур кадрлар тайёрлаш тизимида таълим узлуксизлигини таъминлашнинг Республикада умумий ўрта таълим ва касб-хунар таълими мисолида кўрадиган бўлсак асосий жамиятимизда таълимни инсонпарварлаштириш ва жамиятимиз фуқароларини касбга йўналтиришнинг мажбурий асослари орқали шахсларни жамиятнинг фаоли, иш билан таъминланиш даражасига эришишидаги давлатимизнинг ғамхўрлиги сифатида кўриш мумкин. Ҳозирда республикада мактаб таълими ва касб-хунар таълими ўртасидаги таълим узвийлигини таъминлашнинг йўналишлари сифатида қуйидагиларни кўриш мумкин:

- таълим турлари бўйича ўқув дастурларини ўхшашлиги;
- таълим турлари бўйича таълим-тарбия ишларини ҳамкорликда ташкил этилиши;
- таълим турлари бўйича дарс машғулотларини ўтилишидаги ўхшашликлар;
- таълим турлари бўйича ўқитишни ташкилий асосларидаги ўхшашликлар;
- таълим турлари ўқув предметлари билимларидаги ўхшашликлар;
- таълим турлари бўйича тарбия жараёнларидаги ўхшашликлар [1].

Юқоридагилардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, Республикамиз мактаб таълими ва касб-хунар таълими ўртасидаги узвийликни таъминлашнинг механизмлари таълимнинг маънавий-маърифий ишлар тадбирларини ўз ичига олмақда. Бунга қўшимча равишда ўқув предметлари таркибида ўқитиладиган фанлар блоки одатда касб-хунар таълим тизимида ҳам ўқитилади. Фарқли жихати шуки, касб-хунар таълими кўпроқ ишлаб чиқариш ва касбга йўналтиришдаги фанлар блокига кўпроқ соатлар ажратилган. Республикамизда кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан ислох қилишнинг давлат ва жамият ҳамкорлик муносабатларида барча иқтисодий, ижтимоий, моддий-техник шароитлар яратилган. Шу билан биргаликда ўқув жараёни ва кадрлар тайёрлаш тизими кўпроқ ўқитувчи-педагогларнинг маҳорати ва таълимдаги янгилаш иштироки ва ташаббусининг зарурати сезилмоқда. Ўқув жараёнини қай даражада ташкил этиш педагог шахсининг ўқувчиларни фан машғулотларига қизиқтириш, ўқувчиларни касбий кўникмаларини ошириш ва уларга касб-хунарли бўлиш ва жамиятдаги обрў-эътиборини ошириш тўғрисидаги ҳар қандай янги ва тўғри педагогик технологияни жорий этиш йўлидаги ишлари таълимда кадрлар тайёрлашнинг узлуксиз механизмини асосий омиллари сифатида эътироф этилмоқда. Ҳозирда Республикамиз ушбу таълим тизими турлари бўйича таълим узлуксизлигини оширишда бир қатор муаммо ва камчиликлар ҳам кузатилмоқда:

- мактаб таълимида ўқитувчиларни ўқувчилар психологияси, дунёқараши тўғрисидаги тасаввурларини етарли эмаслиги, яъни ўқувчилар билан ишлашнинг фақат расмий услубини амалга оширишлари;

- педагогларнинг мактаб ўқувчиларида касб-хунарга эга бўлиш жамиятдаги ўз даромади ва иқтисодий аҳволини ошириш ва ўзини турмуш тарзи имкониятларини оширишдаги омили сифатида тўла тушунтириш ва огоҳлантириш ишларини етарли даражада эмаслиги;

- мактаб педагогларининг фанга қизиқтиришларидаги ҳар қандай жазо ва рағбатлантириш ишларини етарли даражада ишлаб чиқилмаганлиги;

- касб-хунар таълимида мутахассислик таълимига оид педагогларнинг ўз фанидан етарли даражадаги илмий-ижод намуналари, илмий ишларини даражасининг камлиги;

- мактаб ва касб-хунар таълими ўқитувчиларининг ҳудудий жихатдан таълим ҳамкорлиги юзасидан янгиликларни жорий этилишининг камлиги;

Шунга ўхшаш мактаб таълими ва касб-хунар таълими ўртасидаги алоқаларни янгилаш асосда ташкил этишнинг ҳозирги кундаги долзарблиги Президентимиз Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, эски мактаб таълим тизими битирувчиларини қайси соҳа эгаси бўлиш ва қизиқиш каби ҳолатлар, ҳамда битирувчиларни кейинги таълим тури билан шуғулланишидаги узилишларни юзага келиши эски таълим тизими камчиликлари сифатида эътироф этилади [2].

Хулоса

тариқасида шуни таъкидлаш жоизки Республикамизда мактаб таълими ва касб-хунар таълими ўртасидаги узвийликни таъминлашнинг асосий омили сифатида ўқитувчи-педагоглар, таълим ва оила ҳамкорлигини таъминлаш, ўқувчиларни касб-хунар сирлари тўғрисидаги тасаввурларини шакллантириш ҳозирги кундаги доимий қилиниши лозим бўлган масалалар сифатида кўриш мумкин.

Республикамиз мазкур таълим тизими турлари бўйича ўқувчиларни таълим жараёнидаги иштирокини таъминлаш, ўқувчиларни доимий касбга йўналтириш ишларини олиб бориш жамиятимизда меҳнатга лаёқатли аҳоли қатламини доимий иш билан таъминлаш ҳамда ишсизликни олдини олишдаги таълим узлуксизлигининг заруратини ўзида акс эттиради. Кадрлар тайёрлаш тизимида таълим узлуксизлиги масаласи ҳозирги кундаги таълим ва ишлаб чиқаришнинг жамият учун биринчи даражадаги фойдаси ва унинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш омилларидан бири сифатида кўриш мумкин [3].

Фойдаланилган адабиётлар

1. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: ТДПУ, 2006.
2. Йўлдошев Ж., Усмонов С. Педагогик технология асослари. – Т.: Педагог, 2004.
3. Педагогик технология ва педагогик маҳорат / С.А.Мадиярова ва б. – Т.: “Iqtisod-moliya”, 2009.

Илмий раҳбар

п.ф.д., проф.в.б., Химматалиев Д.О.

ELEKTR TEXNIKA FANLARINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLAR AHAMIYATI

Xoliqova S.S., Rahimova Sh.R., Nazarova SH.B. – talabalar, TIQXMMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimiz ta'lim muassasalarida malakali kadrlar tayyorlashda fanlarni o'qitish jarayonini tog'ri tashkil qilishda didaktik o'yinlarning o'rni va ahamiyati masalarini yoritib berilgan.

O'zining mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanlab olgan O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini ham sobitqadamlik bilan isloh qilib bormoqda. Ayniqsa, “Ta'lim to'g'risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilingach, bu boradagi ishlar keng ko'lamga erishdi. Ushbu hujjatlarning talablari asosida bilim va kasb-hunar egallashga bo'lgan e'tibor kuchayib ketdi. Shu tufayli ta'lim-tarbiya tizimiga yangicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar kirib kela boshladi. Bu yondashuvlar, o'z navbatida, o'quv jarayonining turli tashkiliy va metodik jamg'armalarida muayyan ijobiy o'zgarishlarni sodir etadi, albatta. Ularning juda ko'pchiligi pedagogik texnologiyalar bilan uzviy bog'liq o'zgarishlardir.[2]

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratlashtirish va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqazo etmoqda [1].

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi [3].

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi, ya'ni kommunikativ muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi [3].

Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni talabalarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga qarab: syujetli-rolli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmonlar o‘yini, konferensiyalar, o‘yin-mashqlarga ajratish mumkin [3].

O‘qituvchi-pedagog avval talabalarni individual (yakka tartibdagi), so‘ngra guruhli o‘yinlarga tayyorlashi va uni o‘tkazishi, o‘yin muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng esa ularni ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki talabalar didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim [3].

Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarning o‘ziga xos xususiyatlari

Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlar	Mavzu mazmuni qanday bo‘lganda mazkur mashg‘ulotdan foydalaniladi	Mashg‘ulotlarning didaktik funksiyalari	Talabaning faoliyati
Syujetli rolli	Fanning turli sohalarida qo‘lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish, tabiatdagi va kundalik hayotdagi muammolarni hal etish imkoniyati bo‘lganda	Kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni, tabiat obyektlari va tabiiy hodisalar o‘rtasidagi aloqalar va bog‘lanishlarni adabiybadiiy tarzda yoritish	Muayyan rollarni bajarish orqali bilim, ko‘nikmalarni egallash
Ijodiy o‘yin	Avval o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyati bo‘lganda	Muammoli vaziyatlarni avval o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni ijodiy qo‘llash orqali hal etish	Ijodiy izlanish orqali yangi mavzuni o‘zlashtirish
Ishbilarmonlar o‘yini; Auksion	Turli obyektlarga tavsif berish, ularni taqqoslash imkoniyati bo‘lganda	Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, kasbga yo‘llash	Auksionda ishtirok etish orqali yangi mavzuni o‘zlashtirish
Konferensiya	Fanning turli sohalariga oid bilimlar mujassamlashgan va qo‘lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish imkoniyati bo‘lganda	Qo‘shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish, ilmiy, ilmiyommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, kasbga yo‘llash	«Olimlar» maqomini olib, muayyan mavzularda izlanishlar olib borish
Matbuot konferensiyasi	Fanning turli sohalarini qamrab olgan, talabalarning avval o‘zlashtirgan bilimlaridan foydalanish lozim bo‘lganda	Qo‘shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish, darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash	«Olimlar» va «Muxbirlar» maqomini olib mavzuni o‘zlashtirish

О‘қитувчи-pedagog didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘tkazishga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishi va uni o‘tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

1. Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo‘lishi.
2. Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag‘ishlanib, ular o‘yin davomida hal qilinishi.
3. Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi.
4. O‘yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo‘lishi.
5. Mashg‘ulotlar davomida didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak [3].

Xulosa

Shuni ta’kidlash joizki Respublikamizda o‘tilayotgan elektr texnika fanlarni o‘qitishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar jarayonini noan’anaviy shakllarda tashkil etish, ta’lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishida didaktik o‘yinlar muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rish mumkin

Foydalangan adabiyotlar

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –T.: TDPU, 2006.
2. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar asoslari. -T.: Pedagog, 2004.
3. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat / S.A Madiyarova va b. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2009.

Ilmiy rahbar

dots.v.b. Yunusov R.F.

МАЪНАВИЙ-МАРИФИЙ ТАРБИЯНИНГ ЁШЛАР КАМОЛОТИДА ҲАМДА ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ РОЛИ

Ҳакимова Ш. – талаба, ТИҚХММИ “

Аннотация

Ушбу мақолада бугунги кунда ёшларга бўлган эътиборнинг кучайиб бориши, қолаверса мамлакатимизнинг мустақиллик бошлаб берган ўзига хос ва ўзига мос тараққиёти йўлидан буюк келажак сари тезкорлик билан илгарилаб бориши учун халқ маданияти, маънавияти, маърифатини доимий равишда юксалтириб бориш зарурлиги, маънавий ривожлантиришга алоҳида эътибор бермоқ мақсадга мувофиқлиги, чунки жамият тараққиёти тақдирини маънавий жиҳатдан етук ёш авлод қўлида эканлиги ёритилган.

Бугунги мураккаб глобаллашув даврида маънавият соҳасида вужудга келадиган долзарб муаммолар, хусусан, дунёнинг айрим минтақаларида тобора кучайиб илдиз отиб бораётган маънавий инкироз хавфи халқимиз маънавиятини асраш баробарида уни юксалтириш, айниқса, ёш авлоднинг қалби ва онгини турли зарарли ғоя ва мафкуралар таъсиридан ҳимоя қилишни талаб қилмоқда. Албатта, бундай маънавий таҳдид ва мафкуравий хуружлар миллий ва диний томирларимизга болта уриши, улардан айниқса, фарзандларимиз кўпроқ азият чекиши мумкинлиги ёшларда мафкуравий иммунитет ва ғоявий курашчанлик руҳини янада кучайтириш лозимлигини тақозо этмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг «Юксак маънавият – енгилмас куч» асарида ёшлар ижтимоий-сиёсий фаолликни оширишда

маънавий тарбия ўрни масаласига алоҳида тўхталиши бу масаланинг бугунги кун учун ҳам ҳаёт-мамонт даражасида ўта муҳимлигидан далолат беради. Маънавий олам, маънавий борлиқ жамият ва инсон ҳаётининг энг муҳим жиҳатларидан бири ҳисобланиб, у жамият тараққиётининг барча жабҳаларида содир бўлаётган жараёнлар билан узвий алоқадорликдадир.

Жамият ҳаётининг ундан ҳоли бўлган биронбир соҳаси йўқ, бўлиши ҳам мумкин эмас. Жамиятнинг маънавий ҳаёти қамрови ниҳоятда кенг, мазмунан чуқур, шаклан хилма-хилдир. Маънавий ҳаёт инсон ақл-идроқи ва тафаккурининг барча маҳсуллари жамият томонидан тўпланган маданий бойликларида ифодаланган ютуқларини, ижтимоий онг шакллари, кишиларнинг ғояларини, қарашлари, тасаввурлари, дунёқараши, одоб-ахлоқи, бутун маънавий оламни қамраб олади. Инсонлар томонидан узоқ тарихий тараққиёт жараёнида яратилган ва ривожлантирилган маънавий бойликлар, ижтимоий онгнинг илмий, бадиий, ҳуқуқий, диний, ахлоқий, фалсафий ва бошқа шакллари, дунёқарашнинг бутун соҳасини ҳам, бадиий асарлар, эстетик қарашларни ҳам жамият маънавий ҳаётига киритиш мумкин. Жамият маънавий ҳаёти, бошқача айтганда, умуман маънавий ишлаб чиқаришни ўз ичига олади. Маънавий ишлаб чиқариш жараёнида инсон тафаккури мевалари - ғоялар, қарашлар, назариялар, таълимотлар, концепциялар, таълим-тарбия тизимлари, диний ва бадиий образлар, ижтимоий меъёр ва қонун-қоидалар, ясоқ ва тузуклар, панду насиҳатлар, йўл-йўриқлар, режалар, дастурлар яратилади. Маънавий ишлаб чиқариш маҳсуллари, қўлёзмалар, китоблар, тошлардаги битиклар, ёзувлар, расмлар, чизмалар, сингари ва бошқа шаклларда ҳам намоён бўлади.

Ёшларда ижтимоий-сиёсий фаолликни оширувчи, инсоннинг маънавий-ахлоқий жиҳатдан безайдиган ажойиб халқимиз маънавияти, маънавий ҳаёти шаклланиши ва ривожланиши тарихига назар солсак, унинг заминлари ниҳоятда мустаҳкам эканлигига ишонч ҳосил қиламиз. Маънавий тарбия ўзининг чуқур илдизига эга. Маънавий тарбиянинг илдизлари асрлар қаърига бориб тақалади. Дунёдаги қадимий цивилизацияларидан бири бизнинг минтақамизда, Турони заминда пайдо бўлган десак ҳеч муболаға бўлмайди.

«Ҳозирги Ўзбекистон деб аталувчи ҳудуд, яъни бизнинг Ватанимиз, - дейди И.А.Каримов, - нафақат Шарқ, балки умумжаҳон цивилизациясидан бири бўлганини бутун жаҳон тан олмоқда. Бу қадимий ва табаррук тупроқдан буюк алломалар, фозилу-фузалолар, олиму-уламолар, сиёсатчилар, саркардалар етишиб чиққан. Диний ва дунёвий илмларнинг асослари мана шу заминда яратилган, сайқал топган. Эрамизгача ва ундан кейин қурилган мураккаб сув иншоотлари, шу кунгача кўрку файзини, маҳобатини йўқотмаган асори-атиқаларимиз қадим-қадимдан юртимизда деҳқончилик, хунармандчилик маданияти, меъморчилик ва шаҳарсозлик санъати юксак бўлганидан далолат беради. Бешафқат давр синовларидан омон қолган, энг қадимги тош-ёзувлар, битиклардан тортиб бугун кутубхоналаримиз жавонида сақланаётган 20 мингдан ортиқ қўлёзма, уларда мужассамлашган тарих, адабиёт, санъат, сиёсат, ахлоқ, фалсафа, тиббиёт, математика, физика, кимё, астрономия, меъморчилик, деҳқончиликка оид ўн минглаб асарлар бизнинг беқиёс маънавий бойлигимиз, ифтихоримиздир. Бунчалик катта меросга эга бўлган халқ дунёда кам топилади. Шунинг учун ҳам бу борада жаҳоннинг санокли мамлакатларигина биз билан беллаша олиши мумкин, деб дадил айта оламан» [1].

Ҳамма ўз тарихини улуғлайди. Лекин бизнинг мамлакатимиздагидек бой тарих, боболаримиздек буюк алломалар ҳеч қаерда йўқ. Бу меросни чуқур ўрганишимиз, халқимизга, дунёга етказа билишимиз керак. Бу марказга келган одам тарихимиз ҳақида тўла тасаввурга эга бўлиши, катта маънавият олиб кетиши зарур[2], - деб таъкидлайди Шавкат Мирзиёев.

Ўзбекистонда илм-фан, маданият ва маънавиятга, инсон ақл-заковатининг ноёб ва гўзал бойликларига бундан бир неча асрлар илгари асос солинган. Ўзбекистон

Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек “Ислом цивилизацияси маркази умумбашарий цивилизация ривожига беназир ҳисса қўшган буюк аждодларнинг бой меросини ўрганиш, динимизнинг асл инсонпарварлик моҳиятини авваламбор халққа, дунё ҳамжамиятига етказиш, жамиятда “жаҳолатга қарши – маърифат” тамойилини кучайтиришда муҳим аҳамият касб этади” [2].

Мамлакатимиз фани, санъати, маданияти жуда қадим замонлардан юксала бошланганини, унинг илдизлари, заминлари чуқур, кудратли ва қадимийлигини яхши биламиз. Маънавий бойликлар, илм-фан, ақл-заковат асрлар давомида ўзбек миллатига, бутун инсониятга табиат сир-асрорларини ўрганишда, тиббиёт, фалсафа, ҳуқуқшунослик, илоҳиёт, адабиётшуносликда хизмат қилиб келмоқда. Илмлар хазинасини очган буюк аждодларимизнинг номларини бутун дунё билади. Бу бизлар учун чексиз фахр-ифтихордир.

Ёшларга бўлган эътиборнинг кучайиб бориши, қолаверса мамлакатимизнинг мустақиллик бошлаб берган ўзига хос ва ўзига мос тараққиёти йўлидан буюк келажак сари тезкорлик билан илгарилаб бориши учун халқ маданияти, маънавияти, маърифатини доимий равишда юксалтириб бормоқ, маънавий ривожлантиришга алоҳида эътибор бермоқ мақсадга мувофиқдир, чунки тараққиёт тақдирини маънавий жиҳатдан етук ёш авлод хал қилади.

Маънавият инсоннинг ҳаёт тажрибаси, меҳнати, билими, ахлоқ ва одоби, авлодлар тажрибаси асосида шаклланиб боради. Маънавият инсоннинг ҳаёти ва фаолиятига мақсад ва йўналиш беради. Маънавият инсоннинг ўз халқи тарихини, унинг маданияти ва вазифаларини чуқурроқ билиш ва тушуниб етишига ёрдамлашади. Инсон маънавиятсиз яшай олмайди. Маънавият алоҳида бир инсон учунгина эмас, жамики одамлар учун ҳам, халқ, элат ва миллат учун ҳам, жамият тараққиёти учун ҳам ўта зарур ва муҳимдир. Маънавиятсиз инсон бўлмаганидек, маънавий етук, ахлоқан пок ва мукамал инсонларсиз жамият ва миллат ҳам бўлмайди.

Тарих сабоқларидан шу нарса аниқ ва равшанки, қайси бир давлат ёки жамият ўзининг моддий бойликларига ишониб, асосий эътиборни фақат уни кўпайтиришга қаратиб, халқнинг маданиятини, инсоннинг маънавий эҳтиёжлари ривожланишини ўйламас экан, у албатта, инқирозга юз тутаяди.

Мустақил Ўзбекистон Республикаси эълон қилинган биринчи кунларданок инсоннинг одоб-ахлоқи, билими, дунёқараши, маънавияти ривожига катта аҳамият берилганлиги унинг келажаги буюк эканлигига яққол далилдир. Маънавий камолот, билим, одоб-ахлоқ, иймон-этикод, фалсафий дунёқараш инсон учун ҳам, жамият учун ҳам бебаҳо бойлиқдир. «Бугун олдимизга турган ўта муҳим, улкан вазифалардан яна бири – бизнинг ўрнимизга келаятган, ўз фикри, ўз дунёқараши, замонавий билим ва тафаккурга эга бўлган янги авлод тарбиясидир» [3].

Ўзбекистон мустақилликка эришган дастлабки кунларданок янги тарихий шароитларда ўзгариб бораётган жамиятга муносиб ҳар томонлама етук ва баркамол ёшларни тарбиялаш кун тартибидеги долзарб муаммолардан бири сифатида белгиланди. Бу муҳим вазифани амалга оширишда таълим-тарбия тизимизи зиммасига ҳам улкан масъулият юкланган бўлиб, бу борада ҳам муайян ишлар амалга оширилмоқда. Аммо шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, ёшларни комил инсон сифатида тарбиялаш машаққатли, аммо натижаси барчамизга юксак ифтихор бахш этувчи заҳматли вазифадир.

Адабиётлар

1. Каримов. И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Т.: “Шарқ”, 1998. –Б. 3-4.
2. Мирзиёев Ш. Ислоҳ цивилизацияси маркази қурилиши билан танишди. Халқ сўзи, 2018 йил, 12 декабрь.
3. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. 9-том. –Т.: Ўзбекистон, 2001. –Б. 102.

Илмий раҳбар

Ботирова Х.

КАСБ-ҲУНАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ЎҚУВ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦОН ФАОЛИЯТ ЁНДАШУВ

Мирмуस्ताқимов М.Қ. – талаба, ТИҚХММИ,

Аннотация

Ушбу мақолада бугунги кундаги таълим тизимини такомиллаштириш ва барқарорлаштириш ҳамда фуқароларнинг билим олиш ҳуқуқларини таъминлашда ривожланган хориж давлатларининг тажрибаси билан бир қаторда буюк аждодларимизнинг бебаҳо таълим-тарбия соҳасидаги меросларидан ҳам фойдаланиш давр талабидир. Мамлакатимиз таълим тизимида узокни кўзлаб олиб борилаётган ислоҳатлар бугун жаҳоннинг кўпгина ривожланган давлатлари томонидан ҳам эътироф этилмоқда.

Кириш: Бугунги кунда ўрта махсус, касб-ҳунар коллежларида касбий билим ва кўникмаларни шакллантиришни асосий мақсад қилиб қўйилган ҳолда, ишлаб чиқариш жараёнларида иштирок этишга қодир мутахассисларни тайёрлаш муҳим омил саналади. Шундай экан, ўқувчиларда дастлабки касбий билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш жараёнида амалга ошадиган ўқув амалиётини тўғри ташкил этмасдан туриб таълим сифатини таъминлаш ҳамда малакали кадрлар тайёрлашни амалга ошириш мумкин эмас, чунки таълим сифати тайёрланаётган мутахассиснинг қай даражада қабул қилувчилар талабига жавоб бериши билан белгиланади.

Ҳозирги кунда таълим-тарбия жараёнида интерфаол методлар, инновацион, педагогик ва ахборот технологияларини ўқув жараёнида қўллашга бўлган қизиқиш, эътибор кундан кунга кучайиб бормоқда. Бу эса ўқувчи-талабаларни эгаллаётган билимларини ўзлари қидириб топишларига, мустақил ўрганиб, таҳлил қилишларига, хатто хулосаларини ҳам ўзлари келтириб чиқишларига ўргатади. Ўқитувчи бу жараёнда шахснинг ривожланиши, шаклланиши, билим олиши ва тарбияланишига шароит яратади. Шу бир қаторда бошқарувчанлик, йўналтирувчанлик функциясини бажаради. Шунинг учун ўрта махсус касб-ҳунар таълими муассасаларида касб эгаларини тайёрлашда замонавий интерфаол методлар, инновацион технологияларнинг ўрни ва роли бениҳоя каттадир.

Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва ўқувчи-талаба фаолиятига янгилик, ўзгаришлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан интерфаол методлардан тўлиқ фойдаланилади. Бундай методлар - жамоа бўлиб фикрлаш деб юритилади, у педагогик таъсир этиш усул бўлиб, таълим мазмунининг таркибий қисми ҳисобланади. Бу методларнинг ўзига хослиги шундаки, улар фақат педагог ва ўқувчи-талабаларнинг биргаликда фаолият кўрсатиши орқали амалга оширилади. Ўқитиш жараёнида ўқувчи-талабаларга шахс сифатида қаралиши, турли педагогик технологиялар ҳамда замонавий методларни қўлланилиши уларни мустақил, эркин фикрлашга, изланишга, ҳар бир масалага ижодий ёндашиш, маъсулиятни сезиш, илмий тадқиқот ишларини олиб бориш, таҳлил қилиш, илмий адабиётлардан самарали фойдаланишга, энг

асосийси, ўқишга, фанга, педагогика ва ўзи танлаган касбига бўлган қизиқишларини кучайтиради. Бундай натижага эришиш ўқув жараёнида инновацион ва ахборот технологияларни қўллашни тақозо этади.

Ўқитиш тизимига инновациянинг кириб келишини таълим мазмунида, ўқитиш методларида, дарс шакли, ўқитиш турлари, ўқитиш воситаларида кўришимиз мумкин.

- таълим мазмунига инновация анъанавий, ноанъанавий ва масофавий ўқитиш турларининг кириб келиши билан изоҳланади.

- ўқитиш методларига инновация фаол, пассив ва интерфаол методларининг кириб келиши мисолида кўрамиз. Актив методни қўллаш талабаларни дарс жараёнидаги фаоллигини оширишга хизмат қилса, пассив метод талабаларни бир томонлама тушунча берилиши билан изоҳланади. Интерфаол методда биргаликда фаол ҳаракат қилиш (ўқитувчи билан талаба, талаба билан талаба) тушунилади.

- дарс шаклига инновация кириб келишини стандарт, ностандарт ҳамда вертуал дарс шакллари мисолида кўришимиз мумкин.

- ўқитиш турларидаги инновацияни муаммоли таълим, эвристик таълим, даражаланган таълим, интеграцияланган таълим, интерфаол таълим, информал таълим, расмий таълим, норасмий таълим турлари билан изоҳланади.

- ўқитиш воситаларига инновациянинг кириб келишини дарс жараёнида мультимедиа, электрон доскалар ва бошқа воситалар билан изоҳлаймиз.

Демак, инновацион фаолият янги ижтимоий талаблар билан анъанавий меъёрларнинг мос келмаслиги ёхуд амалиётнинг янги шаклланаётган меъёрининг юзага келган меъёр билан тўқнашувчи натижасида вужудга келган қатор муаммоларни ечишга йўналтирилган фаолият саналади. Педагогик инновацияларнинг изчил равишда педагогик фаолиятга янгиликларни олиб киришга имкон бериш орқали таълим тизими ёки жараёни мунтазам ривожланиб боради. Шу боис ҳар бир ўқитувчи инновацияларнинг моҳиятини тўла тушунган ҳолда ўз фаолиятига изчил татбиқ эта олса таълим жараёни ҳам сифат ҳам самарадорлик нуқтаи назардан тараққий этади. Бу эса ўз навбатида таълим тизимининг ривожини таъминлайди. Таълимнинг яна асосий мақсади ёшларни мустақиллик ҳаётга тайёрлаш яъни турли хил ҳаётий шароитларда ўз билим, малака ва кўникмаларини амалда қўллаш олиш даражасига етказишдир. Таълим жараёнида фақат илмий билимлар билан қуролланмай, балки ана шу билимларни амалиётда қўллаш олишларини таъминланиши ҳам керакдир. Ушбу, тамойил таълимнинг илмийлиги ҳақида тамойил билан боғлиқдир. Таълимнинг илмийлиги билимларни назарий жиҳатдан ўрганишга, мантикий боғлиқликларни тушунишга, фикрлаш қобилиятини ўстиришга хизмат қилади, амалий ҳаракатлар эса шу билимларни амалда қўллаб кўриш ҳамда кўникмаларни шакллантиришга ёрдам беради. Таълим тизимида назария билан амалиётнинг бирлиги ўқув жараёнининг мазмун ва ўзига хос хусусиятларини намоён қилади, бу эса ўз навбатида илмий билимларни пухта ўзлаштириш ва амалда қўллаш олиш, ўқув материалларини идрок қилиш, англаш, шунингдек, уни мустаҳкам эса сақлаб қолиш каби руҳий операциялар билан боғлиқ ҳолда бир бутун жараённи ташкил қилади.

Таълим жараёнида аниқ фанлар бошқа табиий фанлардан ўзлаштирилган назарий билим, кўникма ва малакалар меҳнат жараёнида қўлланилади.

Бу ўз навбатида келгусида мураккаб илмий назарияларни амалда қўллаш олиш учун зарур бўлган тажрибадир. Таълим жараёнида ўқув материални моҳиятини, табиат ва жамият тараққиёти қонунуниятларини илмий асосда тўғри, чуқур тушуниб олаш ва келажакда амалий фаолият учун зарур бўлган маҳорат, кўникма ва малакалар ҳосил қилинади. Шунинг учун ҳам билимларни мумкин қадар амалиёт билан боғлаш таълим жараёнини тамойили сифатида қабул қилинади. Таълимда онглилик, фаоллик ва мустақилликка эришиш, олинган билимларини амалда самарали қўллашдан иборатдир.. Онглилик янги материални идрок қилишда таърифлар, теоремалар, адабиятдан шеър ёдлаш ва ҳоказоларнинг ифодаланишинигина эмас, балки уларнинг ҳаётий ходисалар, жараёнлар билан боғлиқ бўлганлигини тушунтиришдан иборатдир, яъни билимларда

юзакичилик авж олади, материал автоматик тарзда ёдлаб олинган бўлади. Бундай билимлар тез унитилади. Бундан ташқари билимларни онгли равишда ўзлаштириш билимларга нисбатан маълум муносабат ҳосил қилишни, эмоционал кечинмалар уйғотишни ҳам ўз ичига олади.

Маълумки, таълим икки томонлилик хусусиятга эгадир. Таълим жараёнида мутахассис йўналтирувчи бўлиб майдонга чиқади ва ўрганиш жараёнини ўз ичига олади. Ўрганиш жараёни мураккаб психик жараён бўлиб маълум фаолликни талаб этади. Мутахассис қанчалик таълим жараёнини сермазмун, қизиқарли ва маҳорат билан ташкил этмасин қарама қарши томондан маълум фаоллик билдирилмаса, ўқув жараёнида самарага эришиш мумкин бўлмайди, яъни ўқув жараёнида маълум фаолликни уйғотиш зарурдир. Бу фаоллик билиш жараёнига таъсир этади, идрок қилиш, таҳлил қилиш, анализ ва синтез каби психик жараёнларни ишга туширади. Фаоллик ҳолатини вужудга келишда мотивациялар ҳам аҳамиятлидир.

Мустақил тафаккур турли усуллар билан ҳосил қилинади. Тафаккурни шакллантириш усулларида бири мустақил ҳал қилиш, муаммоли вазифалар қўйишдир. Аммо онглилик ва фаолликкина мустақил тафаккурни вужудга келишига сабаб бўлади. Бугунги кунда таълим олдида қўйилаётган энг катта талаблардан бири ҳам мустақил фикрлаш, муаммолар ечимини мустақил топиш каби хусусиятларни шакллантириш ва ривожлантиришдан иборатдир. Умуман олганда онглилик, фаоллик ва мустақиллик ўзаро бир-бирини тўлдириб турувчи психик ҳолатлардандир. Билимларни онгли ўзлаштириш, бир томондан, мустақил, фаол фикр қилишларини назарда тутса, иккинчи томондан айнан шу жараён давомида мутахассисларнинг мустақиллик ва фаолликларини ҳамда мантикий фикр қилиш фаолиятларини тарбиялаб, такомиллаштириб боришни назарда тутсади, яъни фаоллигини ривожлантириш, уларнинг мустақиллигини ошириш, онглилигини ўстиришда, ўқитишда юксак самарадорликка эришишга ёрдам беради.

Хулоса

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, касб-хунар таълим тизимининг ўқув –тарбия жараёнида инновацион фаолият ёндашуви талабалар билимларини онгли ўзлаштириш, бир томондан мустақил фаол фикр қилишлари назарда тутилган ва мантикий фикр қилиш фаолияти келтирилган.

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Очилов М. "Янги педагогик технологиялар",Қарши,2000.
- 2.Голиш Л.В."Замонавий педагогик технологиялар"., М. 1999.
- 3.Ишмухаммедов Р. Тарбияда инновацион технологиялар – Тошкент: «Фан», 2010.
- 4.Толипов Ў.К., М. Усмонбоева. Педагогик технологияларнинг назарий ва амалий асослари – Т.: “Фан ва технология”, 2006

Илмий раҳбарлар

Раупова Ш.А. Ҳолиқова Н.А.

ОСНОВНЫЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ ВОДНОГО ХОЗЯЙСТВА

Широв Ф.Ф. – студент, ТУИТ

Аннотация

В статье рассмотрены современные аспекты формирования компетенций в профессиональном образовании. Проанализированы сущностные характеристики компетентностного подхода и возможные механизмы овладения профессиональными компетенциями. Личностные характеристики человека и его способности являются основными факторами оценки будущего специалиста, а отбор на основе ключевых компетенций прогнозирует уровень исполнения работы человеком в будущем.

Обеспечение качества подготовки специалистов водного хозяйства в системе высшего образования является одной из самых актуальных научно-теоретических и практических проблем.

Какими качествами должен обладать молодой специалист водного хозяйства? Этот вопрос задает общество, а точнее руководители высших учебных заведений, потому что они выпускают этих самых специалистов, и, конечно же, работодатели на конкурентоспособном рынке труда. Общество сегодня – это постоянно меняющиеся информационные технологии и новые экономические условия развития жизни. Несомненно, прогресс и социальные изменения создали потребность в качественно новом образовании.

Качество человека проявляется в степени реализации его инновационного, творческого потенциала, в способности самостоятельно, собственными усилиями решать возникающие перед ним общественные, личные и профессиональные проблемы на основе их понимания, переживания, осмысления и поиска, безопасных для природы, окружающих людей и самого себя способов их продуктивного разрешения. Из этого следует, что современные образовательные технологии призваны инициировать и развивать, прежде всего, инновационные способности студентов. Формирование личностной сферы специалиста водного хозяйства осуществляется под влиянием не только целенаправленного образовательного процесса, но и специфической профессиональной среды, в которой он оказывается, приступая к учебе в высшей школе.

Сегодня востребуется специалист, который не только овладевает знаниями, умениями и навыками, но и реализует себя благодаря этим знаниям: развивает свой творческий потенциал, вступает в личностно-значимые коммуникации с окружающими людьми, культурой, проявляет охранительное отношение к природе и т.д. Повышается ценность личности, ее человеческих качеств, в связи с чем меняется и отношение к образованию. Оно гуманизируется, его содержание наполняется культурными ценностями и нормами, которые становятся востребованными в педагогической деятельности и теоретическим положением гуманной педагогики, и в соответствии с ними образовательные технологии становятся более мягкими, тонкими, щадящими, вариативными, индивидуализированными. Образование, получаемое в институте, должно помочь человеку не только стать специалистом водного хозяйства, готовым к профессиональной деятельности в быстро меняющемся мире, но и помочь реализовать творческие возможности, научить социальной ответственности.

И так сегодня необходимо глубоко осмысливать, что такое образованный человек, потому что нужен обществу высокообразованный человек – это не только безукоризненный специалист по своей области, но и человек, ориентирующийся в других сферах науки и культуры. Поэтому сегодня вместо понятия «профессионализм» все чаще начинают употреблять понятия «компетентность», «профессиональная компетентность». Профессионализм – это хорошее владение своей профессией (технологиями обучения).

Компетентность же подразумевает помимо технологической подготовки целый ряд других компонентов, имеющих в основном, высокопрофессиональный характер. Это, в первую очередь, такие качества личности, как самостоятельность, способность принимать ответственные решения, творческий подход к любому делу, умение доводить его до конца, умение постоянно учиться; это гибкость мышления, умение поддержать диалог, сотрудничество с окружающими, коммуникабельность и т.д. Компетентностный подход задает принципиально иную логику организации профессионального образования, а именно логику решения задач и проблем не только и не столько индивидуального, сколько группового, парного, коллективного характера.

Компетенции – это индивидуально-личностные характеристики (например, умение работать в команде, креативность, коммуникабельность), так и навыки (например, умение вести переговоры или умение составлять бизнес-планы).

Оценка компетенции производится по двум направлениям: личностные характеристики (поведенческие компетенции); оценка знаний и навыков в профессиональной области.

Каждая организация формулирует свои требования к будущим специалистам и группирует компетенции в зависимости от специфики конкретной должности. Разработка компетенций для сотрудников организации осуществляется на основе стратегии организации. В данном случае принято говорить о ключевых компетенциях организации.

Ключевые компетенции — это компетенции, разработанные на уровне организации, применяемые для характеристики и оценки ее сотрудников.

Чтобы считаться ключевой, компетенции должны соответствовать трём следующим критериям: представлять ценность для потребителей. быть отличительной, обеспечивать переход к завтрашним рынкам. Содержание ключевых компетенций следует из стратегии развития организации. Количество ключевых компетенций для разных организаций может варьироваться.

Профессионализм – это высокая подготовленность к выполнению задач профессиональной деятельности. Профессионализм дает возможность достигать значительных качественных и количественных результатов труда при меньших затратах физических и умственных сил на основе использования рациональных приёмов выполнения рабочих заданий.

В организационной психологии разрабатываются два подхода к оценке способностей, качеств личности и результатов деятельности.

1. *Раздельный анализ человека (способностей) и работы (задач, функций)*, то есть определение рабочих задач и тестирование навыков, которые необходимы для выполнения этих задач. Часто результаты тестирования не гарантируют уровень успешности выполняемой работы.

2. *Анализ «человека-в-работе»* (Дэвид Мак Клееланд). Основанный на компетенциях, такой подход фокусируется не на характеристиках работы, а на определении специфических развиваемых качеств человека, обеспечивающих успех в деятельности и одновременно удовлетворение индивида от работы. Акцент делается на выявлении именно тех качеств, которые действительно приводят к наилучшему исполнению работы.

Именно отбор на основе компетенций *прогнозирует* уровень исполнения работы человеком в будущем. Очень распространено использование компетенций при оценке персонала, т. к. применение этого инструмента позволило анализировать не только то, ЧТО было достигнуто сотрудником за прошедший период, но и то, КАК это было сделано.

Американский подход рассматривает компетенции как описание поведения сотрудника. *Компетенция* - это основная характеристика сотрудника, при обладании которой он способен показывать правильное поведение и, как следствие, добиться высоких результатов в работе. *Европейский подход* рассматривает компетенции как

описание рабочих задач или ожидаемых результатов работы. *Компетенция* - способность сотрудника действовать в соответствии со стандартами, принятыми в организации.

Европейская модель сосредоточена на определении стандарта-минимума, который должен быть достигнут сотрудником, а американская модель определяет, что должен делать работник, чтобы добиться наивысшей эффективности.

Специалисты выделяют следующие виды компетенций:

1. *Корпоративные* (или *ключевые*), которые применимы к любой должности в организации. Корпоративные компетенции следуют из ценностей компании, которые фиксируются в таких корпоративных документах, как стратегия, кодекс корпоративной этики и т. д.

2. *Управленческие* (или *менеджерские*), которые необходимы руководителям для успешного достижения бизнес-целей. Они разрабатываются для сотрудников, занятых управленческой деятельностью и имеющих работников в линейном или функциональном подчинении. Управленческие компетенции могут быть похожи для руководителей в разных отраслях и включают, например, такие компетенции, как: «Управление бизнесом», «Работа с людьми» и т.п.

3. *Профессиональные* (или *технические*), которые применимы в отношении определенной группы должностей. Составление профессиональных компетенций для всех групп должностей в организации является очень трудоёмким и долгим процессом.

Каждой организации необходимо пройти процесс разработки собственной модели компетенций, т. к. каждая компания уникальна и работает по «своим» правилам.

В соответствии с моделью компетенций Ричарда Бояциса демонстрируемые в поведении человеком *исполнительские* компетенции являются результирующими и интегрируют другие кластеры компетенций – природные, приобретенные и адаптивные.

Приобретенные компетенции – знания и умения, приобретенные на работе, а также в ходе обучения и повседневной деятельности. Оценка этих компетенций можно осуществлять, например, с использованием тестов способностей. *Природные компетенции* - базовые качества личности (экстраверсия и интроверсия, эмоциональная стабильность и тревожность, приятность и цинизм, добросовестность и спонтанность, открытость опыту и культурное несоответствие). Оценка природных компетенций производится на основе личностных тестов. *Адаптивные компетенции* – набор качеств, позволяющих индивиду достигать цели в новой рабочей среде. Оценка адаптивных компетенций осуществляется также с помощью личностных тестов. Источник адаптивных компетенций заключен в эмоциональных способностях личности, которые не являются врожденными, а могут быть приобретены и развиты.

Заключение

Таким образом, в поведении человека проявляются одновременно теоретические знания, накопленный опыт разрешения проблем, имеющих критическое значение для индивида, а также опыт адаптации и взаимодействия человека с социальным окружением. Причем, в процессе разрешения проблем человек преодолевает разрыв между накопленным опытом и поставленной целью путем обучения.

Использованная литература

1. Киличева Ф.Б. Формирование навыков компетентности у преподавателей ССПО // Материалы международной научно-практической конференции «Модернизация системы повышения квалификации и переподготовки кадров в условиях устойчивого развития». - Т.: Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизими кадрларининг малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш институти, 2016. – С.178-180.

Научный руководитель

доц. Киличева Ф.Б.

НЕОБХОДИМОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ПЕДАГОГИКИ И ПСИХОЛОГИИ В ТЕХНИЧЕСКИХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Якубова Б.А Рузматов А.Т. - студенты, ТИИИМСХ

Аннотация

Данная статья посвящена актуальности преподавания педагогики и психологии в технических высших учебных заведениях. Обоснованы причины и факторы раскрывающие основные аспекты этого вопроса. В наш век современных технологий люди теряют умение общаться в разных ситуациях. Именно эти аспекты мы попытались рассмотреть в нашей статье.

Психология и педагогика (как учебные дисциплины) появились в образовательных стандартах и учебных планах технических и других непсихологических специальностей. В настоящее время преподавание психологии и педагогики в технических и других вузах непсихологического профиля предусмотрено в образовательных государственных стандартах высшего образования. Какие учебные дисциплины включает психолого-педагогическая подготовка будущих инженеров? Какие цели и задачи они решают? Какова роль психологии и педагогики в организации образовательного процесса? Попробуем ответить на эти вопросы. Прежде всего рассмотрим значение психологических знаний в жизни современного человека, в том числе студента или специалиста. Психология – единственная научная дисциплина, изучающая внутренний мир человека, мир психических явлений, процессов, свойств и состояний. Овладение психологическими знаниями необходимо для самопознания и совершения рефлексивных действий [1]. Каждый молодой человек должен хорошо разбираться в особенностях своей психики – мотивационной сферы, психических процессов восприятия, памяти и мышления, эмоциональной сферы, темперамента, характера, способностей и др. Рефлексивное сознание и поведение человека предполагают реализацию таких действий, как самоанализ, самоконтроль, самооценка, самокритика, саморегуляция, саморазвитие и др. Думается, что самосознание личности не должно ограничиваться самовосприятием, пониманием своих индивидуальных психических свойств, то есть замыкаться на самом себе. Не менее важно определить свое место в группе, коллективе, осмыслить цели и задачи своей деятельности, продуманно построить свои отношения с людьми, выработать свое видение проблем, событий и ситуаций. Самосознание предполагает также знание своей национальности (национальное самосознание), владение родным языком, знание истории и культуры своего народа, чувство гордости за свою Родину и др. Психологические знания помогают лучше познавать внутренний мир другого человека, понимать особенности психики других людей – членов семьи, друзей, сокурсников и других, с которыми человек взаимодействует. Познание психики человека означает выявление и оценку его психических свойств, состояния, направленности, отношений и особенностей познавательной, эмоциональной и волевой сферы. На основе этих знаний он правильно строит свои отношения с людьми, выбирает линию поведения, тон разговора и др. Знания основ психологии и педагогики студентом позволяют лучше организовать учебную деятельность, проводить самоконтроль и оценку своих знаний, вовремя корректировать свои действия по выполнению домашних заданий. Знания их особенностей активизируют познавательную деятельность студентов и улучшают ее показатели. Каждый обучающийся должен хорошо представлять структуру своей учебно-познавательной деятельности (предмет, цели, средства, действия, операции и результат). Эти элементы должны быть запланированы и реализованы во всех формах обучения [2].

На аудиторных занятиях они раскрываются преподавателем, а при самостоятельной работе определяются и реализуются самим студентом на основе знаний о психологии деятельности. Обучение студентов основам психологии и педагогики в

нашем институте проводиться на мой взгляд, очень рационально. Учебная программа, рассчитанная на 36 часов аудиторных занятий, 36 часов практических занятий и 36 часов самостоятельной работы студентов, предусматривает изучение таких тем, как предмет и задачи дисциплин, педагогики, просветительской мысли, ценностей, современных способов образования, в разделе психологии, психология личности, группы, деятельность, общение, познавательные психические процессы, сущность и закономерности процесса обучения, методы и организационные формы обучения, психология руководителя, и т.д. В результате изучения психологии и педагогики студенты должны знать: значение этой области науки в жизни современного специалиста; сущность и структуру психики личности; особенности психических процессов восприятия, внимания, памяти и мышления; психологическую структуру и индивидуально-психологические особенности личности; сущность и структуру деятельности и общения; психические явления и процессы в малой группе; сущность, структуру и закономерности процесса обучения. Они должны уметь раскрывать их содержание, использовать психологические знания в рефлексивных действиях, улучшении качества учебы, общении с людьми, при решении конфликтных ситуаций и др. По результатам исследования проблемы психолого-педагогической подготовки будущих инженеров обоснована и экспериментально подтверждена гипотеза о том, что изучение психологии должно продолжаться на старших курсах, магистратуре и докторантуре. Дело в том, что специалисты, работающие в трудовом коллективе, общаются с руководителями различного ранга, коллегами, рабочими, совместно решают самые разнообразные вопросы. В этих условиях возрастает роль психологических факторов межличностного общения, умения специалистов взаимодействовать с людьми, совместно принимать решения, правильно распределять обязанности с учетом знаний, умений и индивидуально-психологических особенностей каждого. Многие молодые специалисты сразу после окончания вуза или через определенное время становятся руководителями, это особенно касается нашего института. Рыночная экономика требует от современных руководителей и менеджеров новой культуры управления. Главная задача руководителя заключается в создании условий для высокоэффективной деятельности и социального развития каждого сотрудника в отдельности и руководимой группы (организации) в целом. Для успешного решения этой задачи руководитель должен хорошо знать, с одной стороны, содержание, технологию самой трудовой или иной деятельности и все, что связано с ней (цели, средства, процесс и др.), а с другой – субъектов этой деятельности (сотрудников), их уровень подготовленности, способности, мотивы, черты характера и другие качества личности. Необходимость и практическая значимость улучшения подготовки специалистов к работе с людьми подчеркиваются в научных трудах, посвященных анализу деятельности специалистов и руководителей. В исследованиях А.И. Китова, Б.Ф. Ломова, А.В. Филиппова, В.М. Шепеля, Л.И. Уманского и других по вопросам деятельности и личности руководителя отмечается необходимость формирования у будущих специалистов психолого-педагогических и управленческих знаний и умений. Психологические знания руководителя позволяют ему лучше изучать (познавать) людей, понимать самого себя и других, прежде всего подчиненных [3]. Психологические знания помогают менеджеру лучше взаимодействовать с людьми, устанавливать с ними психологический контакт, а в случае необходимости оказывать на них воздействие, эффективно общаться, руководить персоналом (подчиненными), формировать благоприятный психологический климат в группе (коллективе) и развивать положительную мотивацию к трудовой и творческой активности. Педагогические и Психологические знания необходимы преподавателю для понимания психологических и возрастных особенностей студенчества, общения, сотрудничества и сотворчества со студентами, руководства студенческой группой и управления учебной деятельностью обучающихся. Педагогические знания используются каждым преподавателем при разработке методики преподавания и учебно-методического комплекса преподаваемой дисциплины. При этом возникают и решаются вопросы

построения методики обучения: определение целей обучения и воспитания студентов; отбор учебного материала в соответствии с учебной программой; выбор адекватных методов и средств обучения; планирование всех видов занятий (включая внеаудиторную самостоятельную работу студентов), предусмотренных учебной программой; разработка тестовых заданий для контроля и оценки знаний и умений обучающихся. Педагогизация образовательного процесса предполагает также систематическое повышение научно-педагогической квалификации профессорско-преподавательского состава вуза при активном участии профессиональных психологов и педагогов нашей кафедры. Эффективными методами и формам повышения научно-методической квалификации преподавателей относятся: – систематическая самостоятельная работа (самообразование), цель которой углубление знаний по преподаваемой дисциплине (психологии и педагогики), методике преподавания; – научно-методическая работа, направленная на создание учебно-методических комплексов по преподаваемым дисциплинам и совершенствование содержания, методов и организационных форм обучения; – организация семинаров педагогического мастерства для молодых преподавателей; чтение им лекций по психологии и педагогике высшей школы; – учеба молодых преподавателей на факультетах повышения научно-педагогической квалификации. В любом образовательном учреждении, в том числе в нашем вузе, проводится воспитательная работа с обучающимися, которая строится с учетом их возрастных и социально-психологических особенностей. Основой новой идеологии воспитания должна являться гуманизация образования. Это означает, что учебно-воспитательный процесс должен повернуться лицом к учащемуся, его внутреннему миру, его духовным потребностям и интересам, эмоциям, устремлениям. К задачам воспитания и развития личности относятся: физическое и духовное развитие (формирование мировоззрения, ценностных ориентаций, круга интересов и др.); развитие памяти и мышления, способностей, в том числе творческих (креативности). Гуманистический подход к образованию предполагает проявление уважительного отношения к студенту. Как личность, субъект учебной деятельности, он нуждается в равноправном отношении со стороны преподавателей, руководителей и родителей. В вузе надо создавать особый психологический климат, где каждый студент мог бы почувствовать социальную и психологическую защищенность, полностью проявить и развить свои способности, быть среди товарищей, с которыми интересно учиться, общаться и отдыхать. Для студентов-первокурсников возникает проблема социальной адаптации к условиям учебы в вузе, вузовской образовательной среде.

Психолого-педагогические знания в образовательном процессе вуза и в деятельности современного специалиста имеют огромное значение. В принципе, проектирование и функционирование всех элементов образовательного процесса должны опираться на современные достижения психологии и педагогики. Пришло время инновационно взглянуть на проблему обучения подрастающего поколения основам психологии. Повышение уровня психологического образования и психологической культуры подрастающего поколения, начиная со школьной скамьи, должно не только устранять негативные явления в сознании и поведении людей, но и создавать психологические условия для их психического и социального развития.

Список использованной литературы

1. Карандашев В.Н. Методика преподавания психологии: учебник. М.: Юрайт, 2014.
2. Шарипов Ф.В. Педагогика и психология высшей школы: учеб.пособие. М.: Логос, 2012.
3. Шарипов Ф.В. Проектирование процесса обучения студентов технического вуза социально-управленческой деятельности: дис. ... д-ра пед. наук. Казань, 1997.
4. Шарипов Ф.В. Профессиональная компетентность преподавателя вуза // Высшее образование сегодня. 2010. № 1. С. 72–77.
5. Шарипов Ф.В. Психологические основы менеджмента: учеб.пособие

ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ОЛАМИГА ТАЪСИРИ

Якупбекова З. Ч. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада бугунги замонавий глобаллашув жараёнларида ахборотлашган жамиятнинг шаклланиши давлат ва жамиятлар ҳаётининг барча соҳаларида кенг қўламли ўзгаришларга сабаб бўлаётганлиги тадқиқ қилинган. Шунингдек, ёшлар маънавиятини юксалтиришда ва уларнинг дунёқарашларини оширишда оммавий ахборот воситаларининг ўрни, ёш авлод онги ва тафаккурида миллий истиқлол мафқурасини сингдириш ҳамда уларни комил инсон бўлиб вояга етишларида оммавий ахборот воситалари ниҳоятда муҳим роли ёритилган.

Бугунги кунда бирон-бир халқ ёки мамлакат тараққиётини ахборот алмашинувисиз тасаввур этиб бўлмайди. Ахборотларнинг тез суръатларда ёйилишида телекоммуникация воситаларининг кундан-кунга ривожланиб бориши асосий роль ўйнайди. Глобаллашув жараёнларида ахборотлашган жамиятнинг шаклланиши давлат ва жамиятлар ҳаётининг барча соҳаларида кенг қўламли ўзгаришларга сабаб бўлмоқда. Ҳозирда ахборот нафақат инсонлар ва жамият ҳаётининг энг муҳим манбаига айланмоқда, балки ривожланган давлатларнинг иқтисодий тараққиётида ахборот технологиялари индустриясида энг йирик соҳани ташкил қилади. “Ахборотлашган жамият” иборасини япон олими Ю.Хаяши ва бир неча япон ташкилотлари илк бор қўллашган. Албатта, ахборотлашган жамият хусусиятлари, унинг инсон ва жамият ҳаётига кўрсатадиган таъсири хусусида ҳам кенг қўламли қарашлар мавжуд бўлиб, мутахассислар томонидан янги назариялар ишлаб чиқилди.

Ахборотлашган жамиятда инсонлар нафақат ўзаро мулоқотга киришиш, балки дунёнинг қайсики жойида содир бўлаётган воқеа-ҳодисалардан, ўзгариш ҳамда янгиликлардан, инсонлар турмуш тарзи, уларнинг яшаш шароитларидан тез хабардор бўлиш имкониятига эга бўлдилар. Албатта, “бугунги кунда мислсиз илмий кашфиётлар, улкан техникавий имкониятлар, универсал технологиялар, ахборот тарқатишнинг глобаллашуви, яъни уларнинг бутун курраи заминни қамраб олиш жараёни шиддат билан бормоқда... Аслида ахборот соҳасидаги глобаллашув инсоният учун, дунёнинг барча ҳудудларидаги одамларнинг ўзаро мулоқоти учун, илм-фан ва маданий бойликларни ўзлаштириш учун улкан имкониятлар яратадиган жараёндир” [1]. Глобаллашув жараёнида ахборот алмашинуви мислсиз даражада кенг авж олиб бормоқдаки, бу жараёндан ҳеч бир халқ ёки миллат четда қолмаяпти.

Ҳар қандай жараённинг яхши ва ёмон томонлари бўлганидек, жамиятни ахборотлаштиришнинг ҳам ижобий ҳамда салбий жиҳатлари мавжуд. Маълумки, ахборот хуружининг асосий нишони, объекти ёшлар ҳисобланади. Улар биринчи навбатда ёшларни ўз домига тортишга қаратилган. Бундай хатарлар, бошқа соҳа вакиллари қатори, оммавий ахборот воситалари олдида ҳам янги-янги талабларни қўйиб, журналистлар масъулиятини кучайтиришни тақозо этади. Бинобарин, ёшлар муаммолари билан нафақат, Оммавий ахборот воситалари, балки бутун бир тизим шуғулланмоқда, лекин шунга қарамасдан, ёшларнинг ёвуз ниятчилар тузоғига тушиб қолаётганлиги, “оммавий маданият” сари талпинаётганлиги кишида ҳақли равишда хавотир уйғотмоқда.

Вайронкор руҳдаги кучлар турли воситалар билан ёшларнинг қизиқувчанлиги, беқарорлигидан фойдаланиб қолишга уринмоқда. Шу ўринда, ёшларда “фикрга қарши фикр, ғояга қарши ғоя, жаҳолатга қарши маънавият билан курашиш ҳар қачонгидан кўра муҳим аҳамият касб этмоқда”. Муайян натижага эришиш учун уларда, аввало, ўз-ўзига ишонч ҳиссини уйғотиш керак. Ўзига ишонган кишида яхшиликка интилиш ва ёмонликни рад этиш, унга қарши курашиш туйғуси пайдо бўлади. Бу туйғу уларда соғлом

тафаккурни шакллантиради. Одамларга, давлатга, жамиятга ва келажакка бўлган улкан меҳрни уйғотади. Провард натижада, ёшларда мафкуравий ғанимлар билан ғоявий курашга киришиш иштиёқи шаклланади.

Ахборот ҳар доим ҳам эзгуликка, бунёдкор ғояларга хизмат қилаётгани йўқ. Баъзан ана шу восита муайян вайронкор сиёсий кучлар, жиноятчилар, террорчилар қўлидаги қуролга айланиб, айниқса, ёшлар онги ва қалбини нишонга олмоқдаки, ундан бутунлай ҳимояланиш имкониятлари тобора камайиб бормоқда. Шунинг учун ҳам кўплаб мамлакатлар ўз манфаатларига зид тарздаги шу каби ахборотларга нисбатан аҳолида иммунитет ҳосил қилиш мақсадида Оммавий ахборот воситаларининг таъсир кучини тўғри ўзанга солиш йўлини танламоқдалар.

Глобаллашув жараёнларининг авж олишига ўз навбатида оммавий ахборот воситалари ҳам таъсир кўрсатади. ОАВ бутун дунё бўйлаб кенг тарқалган алоқа воситаларидан бири ва етти ёшдан ётмиш ёшгача бўлган аҳолининг кенг кўламда фойдаланадиган воситасига айланиб улгурди. Шундай экан жамият аъзоларининг ахлоқий-маънавий қиёфасини шакллантиришда ОАВларининг ўрни бугунги кунда бениҳоят даражада муҳимдир. Оммавий ахборот воситаларининг шахс маънавий дунёсини бойитишидаги ролини кўриб чиқар эканмиз, шуни эсда тутиш керакки, ОАВ томонидан тарқатилаётган маълумот оммага йўналтирилган бўлса ҳам, у алоҳида шахс томонидан қабул қилинади ёки рад этилади. ОАВ томонидан тарқатилаётган маълумотлар ёрдамида ўзига хос сунъий рамзий дунё очилади, у орқали эса, ўзига хос намуналар шаклланади: ҳаракатлар, ахлоқ нормалари, бадиий дид ва табиийки буларнинг барчаси шахсга нима тўғри-ю, нима ёмон, ҳаракатларнинг қай бири улуғвор ва қай бири тубанлик эканлигини кўрсатиб туради, бошқача қилиб айтганда инсонга яшашни ўргатади, ҳаётда ўз йўналишини аниқлашга ёрдам беради.

Оммавий ахборот воситалари ва замонавий электрон технологиялар ёрдамида, бизнинг “маърифатли” асримизда улканлиги ва шиддатлиги билан тенгсиз бўлган ёвуз энергияларнинг отилиши содир бўлмоқда” [2].

Радио, телевидение орқали ҳам инсонга кучли таъсир кўрсатиш мумкин. Хўш, телевидениенинг кучи нимада? – деган саволга шундай жавоб бериш мумкин, албатта гипнозда. Нафақат болалар, ўсмирлар, балки катта инсонлар ҳам бунга бардош бера олмайдилар ва гипноз таъсири остида қолиб кетишлари мумкин. Телевидение инсонларни транс ҳолатига киритишнинг минг хил воситаларини ишга солади. Россиялик врач В.Чернышевскийнинг таъкидлашича: “Гипнознинг тиббиёт амалиётида кўп ҳолларда, ёрқин чакнаш, баланд овоз эффектларини қўллаш, улар оқибатида нерв системасининг тез қўзғалиши, қотиш ҳолатига айланади. Ушбу методни турли реклама роликларида ва телефильмларида кузатиш мумкин. Энг кенг тарқалган усул - бу фильмларнинг энг қизиқ жойида тўхтатиб қўйиш. Бу эса телетомошабинларда кейинги қисмни сабрсизлик билан кутишга олиб келиши аниқ. Видео ва компьютерларнинг махсус эффектлари инсонларни ўзига жалб этади ва психик ҳолатларига таъсир ўтказиб, уларни тубдан ўзгартириб юборади” [3].

Шунингдек, ахборот технологиялар орқали жамиятимизга ўрнашиб олаётган “оммавий маданият”нинг зарарли таъсиридан ёшларни ҳимоя қилиш масалалари тобора долзарб аҳамият касб этмоқда. Уларнинг ечимини топишда ижод аҳли, хусусан, оммавий ахборот воситалари ходимлари олдида турган вазифалар кўлами кенг. Негаки, миллий руҳимиз ва табиатимизга ёт бўлган ана шундай “маданият” намуналарини фақат танқид ва инкор этиш ёки таъқиқлаш билан бирон натижага эришиб бўлмайди. Бундай хатарлардан ёшлар онгини ҳимоялаш, маънавий бўшлиққа йўл қўймаслик учун, аввало, эзгу инсоний ғоялар ва юксак маҳорат билан яратилган ижодий маҳсулотлар халқимизга тақдим этилиши лозим. Шу маънода, Оммавий ахборот воситалари фаолияти муҳим ўрин тутаяди. Ўз навбатида Оммавий ахборот воситаларининг ахборотни ўқувчига қизиқарли кўринишда тақдим этиш усулларини ҳам ислоҳ қилиш зарур. Негаки, ёшлар психологиясида кўпроқ тасвирга ўчлик кузатилади. Шу нуқтаи назардан ёшлар

аудиториясига мўлжалланган ахборотларда нозик дид билан ишланган дизайн, мавзуга мос, киши эътиборини ўзига жалб этадиган сурат ва лавҳалардан фойдаланиш талаб этилади. Шундай экан, оммавий ахборот воситалари ўз зиммаларидаги бу масъулиятли вазифани астойдил адо этишдан чарчамасликлари керак.

Ёшлар бизнинг истиқболимиз, умид юлдузимиз. Мамлакатимизда амалга оширилаётган барча янгиланишлар, ислохотлар, бунёдкорликлардан кўзда тутилган мақсадлар замирида ҳам, аввало, уларнинг манфаатлари мужассам. Юртимизнинг турли ҳудудларида барпо этилаётган мухташам таълим муассасалари, мусиқа мактаблари, спорт иншоотлари ва бошқа яратилаётган имкониятларнинг барчаси фарзандларимизнинг жисмонан соғлом, маънавий юксак бўлиб камол топишига қаратилган. Бунга жавобан ёшларимиз эришаётган ютуқлар ҳам оз эмас. Бироқ шу билан бирга, ахборотлаштириш тизимидаги улкан янгилик ва ўзига хос “портлаш эффекти” ёшларни ўз атрофига ўраб улгурмоқда. Интернет тармоғидан бугунги кунда мамлакатимизнинг 9,1 миллионга яқин аҳолиси фойдаланмоқда. Энг замонавий ОАВ тури – интернет-журналистика тобора ривожланмоқда. Маълумотларга қараганда, мамлакатимиз ҳудуди учун мўлжалланган “uz” домени тизимида 15 мингдан ортиқ фаол сайтлар рўйхатдан ўтган. Худди шунингдек, глобал тармоқда бевосита ёшларнинг билим доираси, дунёқарашининг кенгайиши, ўзаро мулоқот олиб боришига қаратилган Ziyonet.uz, Kamolot.uz, Muloqot.uz каби қатор сайтлар фаолият олиб бормоқда. Шундай экан, соҳанинг ҳуқуқий асосларини янада мустаҳкамлаш интернет тизимида иш олиб боришнинг муҳим омилidir.

Бугун оммавий ахборот воситалари инсон маънавий дунёсига ўз таъсирини ўтказиб, шу дунёни маънавий озуқа, ахлоқий ҳаракатлар ва эстетик дид билан таъминлаб туради. Ҳар бир индивиднинг маънавий қарашлари мавжуд, шуни эътиборга олган ҳолда, ОАВ таъсир кўрсаткичларини маънавий ва ахлоқий намуналар, қадриятлар билан ўстириб бориш лозим. Таъсир этиш жиҳатидан жуда ҳам кучли бўлган ОАВ ғоявий жиҳатдан ҳам анчагина бой ва мустаҳкам бўлсагина, фойдаланувчи ундан ўзига ижобий ҳислатларни олади.

Хулоса

Шахс маънавиятини юксалтиришда ва уларнинг дунёқарашларини оширишда оммавий ахборот воситаларининг ўрни бениҳоя даражада катта. жамоатчилик фикрини шакллантиришда, айниқса, ёш авлод онги ва тафаккурида миллий истиқлол мафқурасини сингдириш ҳамда уларни комил инсон бўлиб вояга етишларида оммавий ахборот воситалари ниҳоятда муҳим ўрин тутди. Биз бугун оммавий ахборот воситаларидан фойдаланишни таъқиқлаб қўйа олмаймиз, фақат ундан фойдаланиш маданиятини ёшларимиз онги ва қалбига сингдиришимиз керак бўлади. Ҳар бир фойдаланувчида олаётган маълумотнинг қанчалик фойдали ёки зарарли эканлигини англашни шакллантириш муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т., Ўзбекистон, 2000. 23-бет.
2. Люблинская А.А. Очерки психического развития ребёнка. - М.: Просвещение, 1965. -стр 363.
3. Чернышевский А.В. О небесом и земном. Актуальные вопросы современной медицины, психологии и философии в свете прасловия. -М.: “Паломник”, 2001. стр 45.

Илмий раҳбар

Мамадаминова Б.

ЎЗБЕКИСТОН ТАЪЛИМИ ЖАҲОН ЭЪТИРОФИДА

Мирмуस्ताқимов М – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Ўзбекистонда бугунги кунда таълим соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар мамлакатимизни модернизация қилиш жараёнлари билан ҳамоҳанг тарзда олиб борилмоқда. Асосий йўналишлар сифатида олий ва ўрта махсус таълим тизимида ўқув, ўқув-услубий ва илмий фаолиятни модернизация қилиш, таълим ва илмий тадқиқот жараёнларидаги инновацион йўналишларни кучайтириш тадбирлари изчил амалга оширилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - биз учун демократик тараққиёт йўлидаги фуқаролик жамиятини барпо этишда мустаҳкам пойдевордир. Ёшларнинг малакали таълим олишларида давлатимизнинг ўрни бекиёслиги ҳақида тўхталиб ўтилган. Малакали кадрларни тайёрлаш давлат сиёсатининг муҳим устувор йўналишлари, ҳамда тадбиқ қилинаёганлигига тўхталиб ўтилган.

Кириш. Бугунги кунда Ўзбекистон таълим соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар кўп жиҳатдан мамлакатимизни модернизация қилиш жараёнлари билан ҳамоҳанг тарзда олиб борилмоқда. Бунда асосий йўналишлар сифатида олий ва ўрта махсус таълим тизимида ўқув, ўқув-услубий ва илмий фаолиятни модернизация қилиш, таълим ва илмий тадқиқот жараёнларидаги инновацион йўналишларни кучайтириш тадбирлари изчил амалга оширилмоқда. Мазкур тадбирлардан кутилаётган асосий мақсад юқори даражадаги интеллектуал салоҳиятга эга бўлган миллий мутахассис кадрларни тайёрлаш технологияси ҳамда таълим мазмунини янгича босқичга кўтаришдан иборатдир. Бу ўринда биринчи Президентимизнинг қуйидаги фикрлари ушбу жараёнларнинг аҳамиятини белгилаб берувчи ва мақсад сари йўналтирувчи дастуриламал бўлиб ҳисобланади: — Бугун ҳеч кимга сир эмаски, биз яшаётган XXI аср – интеллектуал бойлик ҳукмронлик қиладиган аср, кимки бу ҳақиқатни ўз вақтида англаб олмаса, интеллектуал бойликка интилиш ҳар қайси миллат ва давлат учун кундалик ҳаёт мазмунига айланмаса, бундай давлат жаҳон тараққиёти йўлидан четда қолиб кетиши муқаррардир.

Ўзбекистон Конституцияси - биз учун демократик тараққиёт йўлида фуқаролик жамиятини барпо этишда мустаҳкам пойдевордир. Мамлакатимизнинг нуфузли мутахассисликларга бўлган эҳтиёжлари асосида янги замонавий йўналишлар бўйича кадрлар тайёрлаш ишлари бошлангани ҳам эътиборга сазовордир. Юртимиз ва хориждаги ўқув масканларида юзлаб иқтидорли ёшлар таълим олмоқда ва ўз малакасини оширмоқда. Бунда хорижий таълим муассасалари билан икки томонлама тажриба алмашиш йўлга қўйилгани муҳим аҳамият касб этмоқда. Ёшларимизнинг минглаб иқтидорли вакиллари Япония, Германия, Жанубий Корея, Хитой, Буюк Британия, АҚШ, Франция ва бошқа мамлакатларнинг етакчи университетларида таълим олмоқдалар, бу эса уларнинг билим ва малакаларини оширишда кенг имкониятлар очиб бермоқда. Давлатимиз биринчи раҳбари ўзининг ёшларга бўлган ишончини қуйидагича баён қилади: “Замонавий билимларни эгаллаётган ёшларимизга катта умид ва ишонч билан қарайман. Чунки олдимизга қўйган ана шундай юксак мақсадларга эришиш учун ёшларимизда барча имконият, ақл-заковат, куч-ғайрат ҳам етарли. Энг муҳими, фарзандларимиз дунёда ҳеч кимдан кам бўлмайдиган инсонлар бўлиб вояга етиши учун давлатимиз, жамиятимиз барча шарт-шароитларни яратиб бермоқда. Жумладан, ЮНЕСКО халқаро ташкилоти ҳомийлигида Ўзбекистон маданияти ва санъати форуми жамғармасининг кўпгина лойиҳалари асосида, шунингдек, “Ёшлар иттифоқи”, “Камалак болалар ташкилоти” билан ҳамкорликда янги авлод, “Навқирон Ўзбекистон”, “Келажак овози” каби республика истеъдодли ёшлар танловлари, иқтидорли талабалар учун стипендиялар дастури,

фестиваллар, иқтидор эгаларининг интеллектуал беллашувлари, фанлар бўйича олимпиадалар, концертлар, бадиий кўргазмалар, таълим, педогогик йўналишдаги грантлар дастури кўрик- танловлари ўтказилиши мамлакатимиз ёшлари ўртасида тобора оммалашиб бормоқда. Таълим соҳасидаги буюк дастурларимизни ўз вақтида, узоқни кўзлаб ишлаб чиққанимиз ва амалга оширганимиз нақадар тўғри эканини бугун мамлакатимиз эришган юксак марра ва натижаларда яққол намоён этилмоқда.

Миллий таълим тизимини ислоҳ қилишнинг ижобий натижалари ёшларимизнинг халқаро майдондаги ютуқларида ёрқин ифодасини топмоқда. Франция ва Италияда бўлиб ўтган халқаро кўрик-танловнинг мусиқа йўналишида юқори поғоналарни эгаллади. Бу албатта, юртимизда таълим-тарбия ва илм-фаннинг қанчалик юқори салоҳиятга эга эканидан далолат беради.

Мамлакатимизда нуфузли халқаро ташкилотлар, чет эллик таниқли эксперт ва мутахассислар, таҳлилчи ва кузатувчилар иштирокида таълим сифатини оширишга доир кўплаб симпозиумлар, конференция ва семинарлар ўтказилмоқда. Унда кўплаб йирик халқаро ташкилотлар ва Олий ўқув юртлари, жумладан БМТ, Осие тараққиёт банки, Жаҳон банки, Ислон тараққиёт банки вакиллари, Буюк Британия, Германия, Италия, Хитой, АҚШ, Жанубий Корея, Япония, Россия каби дунёнинг 48 мамлакатидан таълим тизими раҳбарлари, олимлар, мутахассислар иштирок этиб келмоқда. Мамлакатимизда кадрлар тайёрлаш соҳасида хорижий давлатлар ва халқаро ташкилотлар билан ўзаро манфаатли ҳамкорлик ривожланмоқда. Ўтказилаётган тадбирлар узлуксиз таълим ва ёш авлодни баркамол этиб тарбиялашнинг миллий моделини яратишда Ўзбекистон тажрибасини ўрганишга бағишланган. Унда кадрлар тайёрлашнинг миллий дастури деб номланган “Таълим соҳасини ислоҳ қилиш” дастури мамлакатда янги жамият қуришнинг босқичма-босқич ва тадрижий принципларига асосланган иқтисодий ва сиёсий ислохотларнинг Ўзбекистон танлаган ўзбек моделининг ажралмас таркибий қисми экани алоҳида таъкидланган. Бу айниқса, мамлакатимизда демократия ва бозор иқтисодиётига оид ислохотларни амалга ошириш натижасида қўлга киритилаётган улкан ютуқлар халқаро ҳамжамият томонидан эътироф этилмоқда.

Ҳар бир мамлакатнинг келажак пойдевори билим даргоҳларида яратилади, бошқача айтганда, халқнинг эртанги куни қандай бўлиши бугунги ёшларнинг қандай таълим ва тарбия олишларига боғлиқ, деб таъкидланади.

Германиянинг Дортмунд техника университети профессори Габриеле Ментгес хоним —Ўзбекистонда илм-фан, таълим, маданият, санъат, маънавият ва маърифат соҳаларида эришилаётган ютуқлардан ўрناق олса арзийди, мамлакатингиз билан —Анъаналар модернизацияси: Ўзбекистон тўқимачилиги мероси маданий ва иқтисодий манба сифатида лойиҳа доирасида бир неча йилдан буён самарали ҳамкорлик қилиб келинмоқда, деб айтиб ўтган. Бу борада Миллий рассомлик ва дизайн институти, Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти, Андижон машинасозлик институти ҳамда Ўзбекистон табиий толалар илмий тадқиқот институти билан ўрнатилган яқин алоқалар яхши самара бермоқда. Ўзбекистонда кадрлар тайёрлаш масаласига қаратилаётган катта эътибор барча соҳалар, жумладан, ТИҚХММИ учун ҳам етук малакали мутахассислар тайёрлашда муҳим омил бўлмоқда.

Бу эса ўз навбатида Ўзбекистоннинг қуйидаги йўналишлар бўйича тажрибасини алоҳида эътироф этиб, уни чуқур ўрганиш лозимлигини таъкидланган:

1. Мактаб таълимини мамлакатда яшаётган асосий миллатлар эҳтиёжларини инобатга олган ҳолда 7 тилда- ўзбек, қорақалпоқ, рус, қозок, қирғиз, тожик, туркман тилларида олиб бориш.

2. Умумий бепул таълим тизимининг жорий этилиши. Бунда ҳар бир битирувчи мажбурий таълимдан сўнг ўз хошишига кўра олий ўқув юртларида ўқишни давом эттириши ва бакалавр ҳамда магистр даражасини олиши.

3. Ҳар бир коллеж малакали ишчи кучига буюртмалари бўлган муайян корхоналар билан яқин алоқани йўлга қўйиш.

4. Республиканинг ҳар бир ўқув юртида оптик толали алоқа линиялари асосида қурилган ягона Ziuo Net ахборот таълим тармоғига уланган ахборот-ресурс марказлари ташкил этиш.

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти раҳнамолигида ташкил этилган махсус жамғарма базасида болалар спортини ривожлантиришга устувор эътибор қаратиш.

Хулоса

Ёшларимизга яратиб берилётган шарт-шароитлар билан яқиндан таниш. Мустақиллик берган имкониятлар туфайли ёшлар ҳал қилувчи куч бўлиб, ҳаётга кирмоқда. Мамлакатимизда кадрлар тайёрлаш соҳасида хорижий давлатлар ва халқаро ташкилотлар билан ўзаро манфаатли алоқалар кундан-кунга ривожланмоқда ва ҳозирги кунда Кадрлар тайёрлаш миллий дастури бўйича ва таълим соҳасидаги барча саъй-ҳаракатларимизнинг дастлабки қувончли меваси сифатида бир неча хорижий тилларда эркин гаплаша оладиган ва шу билан бирга ўз фикрини она тилида раво, гўзал, аниқ, лўнда ифода эта оладиган янги мутахассислар авлодини кўрганда, ҳеч шубҳасиз ҳар бир эзгу ниятли инсоннинг қалбида ғурур ва ифтихор туйғулари тўлади.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, ҳозирда ёшларимизни илм-маърифат, интеллектуал тараққиётга интилиш, ёшларимизни айнан шу руҳда тарбиялаш масаласини ўзи учун энг устувор вазифалардан бири сифатида белгилаб олингани ва бу борада улкан амалий самараларга эришаётгани туфайли бугунги кунда Ўзбекистон тараққиётининг олдинги сафларига чиқиб бормоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. // Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т.: Шарқ 1997.
2. Ўзбекистон Республикасининг —Таълим тўғрисидаги Қонуни. —Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори| Т.: Шарқ 1997.
3. Холиқов А. —Педагогик маҳорат. Дарслик - Т. —Ўқитувчи нашриёти 2011й
4. Хасанбоев Ж., ва бошқалар —Педагогика. Дарслик - Т.: —Ўқитувчи нашриёти 2011й.

Илмий раҳбар

кат., ўқит., Раупова Ш.А.

ТАЪЛИМ СИФАТИ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА КЕЙС-СТАДИ МЕТОДИНИНГ ЎРНИ

Эшбоев.С.К. - талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Замонавий шароитда Ўзбекистон Республикасининг узлуксиз таълим тизимида янги ғояларга асосланган инновациялар ва улар борадаги илғор хориж тажрибаларини самарали қўллашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Етакчи хорижий мамлакатларнинг республика узлуксиз таълим тизими амалиётига самарали татбиқ этилаётган таълим сифати ва самарадорлигини таъминлашга доир тажрибалари орқасида кейс-стади методи алоҳида ўрин тутади. Мазкур метод муаммоли вазиятни ҳал қилиш таълим мақсадини амалга ошириш, ўқув натижаларига кафолатли етишишни таъминловчи усул ва воситалар тўпламидан иборат таълим технологияси ҳисобланади.

“Кейс - стади” илк маротаба Гарвард университетининг ҳуқуқ мактабида 1870 йилда қўлланилган эди. 1924 йилда эса Гарвард бизнес-мактаби (HBS) ўқитувчилари юристларнинг ўқитиш тажрибасига таяниб, иқтисодий амалиётдаги аниқ вазиятларни

таҳлил этиш ва муҳокама қилишни таълимнинг асосий усули этиб танлашганидан кейин мазкур ўқитиш услуби кенг татбиқ этила бошлади.

Кейс-стади (ингл. “case” – тўпلام, “stadi” – аниқ вазият) баён қилинган ва талабаларни муаммоли вазият моҳиятини ёритиш, унинг мақсадга мувофиқ ечимини излашга йўналтирадиган аниқ, реал, шунингдек, сунъий равишда яратилган вазиятнинг муаммоли-вазиятли таҳлил этилишига асосланадиган таълим усулли саналади.

Кейсда тавсифланган аниқ вазият ўрганишни воқеликка боғлаб қўяди. Яъни, талабага муаммоли вазиятни ҳал этишга доир тахминларни шакллантириш ва аниқлаштириш, уларни таҳлил қилиш, муаммонинг ечимини топишга хизмат қиладиган қўшимча маълумотни йиғиш, ечимни топиш йўлида бажариладиган ҳаракат (босқич)ларни лойиҳалаштириш имконини беради [1].

Ўз моҳиятига кўра кейс – ишлаб чиқаришда содир бўладиган аниқ муаммоли вазиятнинг тафсилоти саналади. Кейс усули ишлаб чиқариш масалаларини машғулотларда таҳлил қилиш ва ҳал қилиш бўйича талабаларга ҳақиқий ҳаётий вазият бўйича фикр юритишни таклиф этиш имкониятига эга. Қолаверса, муаммоли вазият баёнида амалий масалагина эмас, балки муаммони ечиш жараёнида ўзлаштирилиши зарур бўлган ўқув материали ҳам ифодаланади.

Муаммоларни бартараф этиш йўллари ишлаб чиқиш “Кейс стади”га асосланаган ўқитиш технологиясининг асосий мақсади ҳисобланади. Технология амалий вазиятларни ҳал этиш жараёнида ўрганилган ўқув мавзуси бўйича билимларни мустаҳкамлаш, муаммоларни таҳлил қилиш ва унинг ечимини якка тартибда ёки гуруҳларда еча олиш кўникмаларини эгаллаш, ижодий ва мантиқий фикрлаш қобилиятини ривожлантириш, қарорларни мустақил қабул қилиш ҳамда ўз-ўзини назорат қилишга ёрдам беради.

Моҳиятига кўра кейс ўқув методи сифатида қуйидагиларни таъминлайди:

- талабаларнинг ўрганилган ўқув мавзу (курси) бўйича назарий билимларини мустаҳкамлаш;

- уларда муаммоларни таҳлил қилиш, қарорларни якка тартибда ва гуруҳли қабул қилиш кўникмаларини шакллантириш;

- талабаларнинг ижодий ва танқидий фикрлаш қобилиятларини, мантиқий тафаккур юритиш қобилиятларини янада ривожлантириш;

- уларда янгиликларга ижобий муносабатни, мустақил равишда қарор қабул қилиш малакаларини шакллантириш;

- талабаларда ўзлаштириш кўрсаткичлари, сифатини мустақил баҳолаш қобилиятларини ривожлантириш [2].

Одатда муаммоли вазият баёни:

1. Муаммо қандайдир ҳаракатларни ташкил этиш учун тақозо этиладиган зарурат билан уни амалга ошириш шароитларининг мавжуд эмаслигини белгиловчи зиддият моҳиятини ифодалайди.

2. Муаммоли вазиятнинг муҳим таркибий қисмлари (асосий ва иккиламчи муаммолар)ни ажратади.

Хорижий мамлакатлар таълими амалиётида қўлланилаётган кейслар қуйидаги таркибий тузилмага эга бўлади:

1. Педагогик аннотация.

2. Кириш.

3. Кейснинг баёни.

4. Кейс ечимини топиш учун тақдим этиладиган адабиёт, манба ёки материаллар.

5. Муаммоли вазиятнинг таҳлили.

6. Кейснинг ечимини топиш юзасидан талабаларга бериладиган методик тавсиялар.

7. Кейсни ечиш жараёни.

8. Талаба ёки гуруҳ томонидан топилган кейс ечими.

9. Кичик гуруҳлар ёки академик жамоада ташкил этиладиган кейс ечими юзасидан муҳокама.

10. Ўқитувчи (кейсолог)нинг ечими.

Педагогик аннотация куйидаги элементларни ўз ичига олади:

1. Кейс (муаммоли вазият) мўлжалланган предмет, унинг бўлими, мавзуси ҳамда уни бажариш тавсия этиладиган таълим босқичи (курси) кўрсатилади.

2. Кейсдан кўзланган мақсад (таълимий мақсадни қафолатловчи ўқув натижалари).

3. Кейсни муваффақиятли ҳал этиш учун талабалар томонидан эгалланиши зарур бўлган билим, кўникма ва малакалар.

4. Кейсда реал ҳолат (воқеа, ҳодиса, жараён ёки фаолият) ёки кейсолог томонидан сунъий равишда шакллантирилган муаммоли вазият баёни ҳақидаги маълумот.

5. Талабаларнинг кейс ечимини топиш бўйича ахборот олиш имконига эга бўлган адабиётлар (манбалар) рўйхати.

6. Кейснинг ўзига хос белгиларини ифодаловчи тавсифнома (сюжет ҳамда кейс объектининг мавжудлиги, материални тақдим этиш шакллари, ҳажми, тузилмавий ўзига хослиги, ечимни тақдим этиш усуллари).

5. Кейсдан кўзланган мақсад ва унинг мавжуд ташкилий-услубий таъминоти ўзгарганида фойдаланиш мумкин бўлган ўқув предметларининг рўйхати.

Ўқув машғулотида кейсларни ҳал қилиш алгоритми куйидагича:

1. Топшириқни бериш (унга кўра бу жараёнда топшириқни бажариш муддатини белгилаш, талабаларни кейснинг ечимини баҳолаш тизими билан таништириш ҳамда дарснинг технологик моделини аниқлаш каби вазифалар ҳал этилади).

2. Кейсологнинг кириш сўзи (унда асосий саволлар аниқ кўрсатилади).

3. Талабаларни 4-6 кишидан кичик гуруҳларга ажратиш.

4. Талабаларнинг кичик гуруҳлардаги фаолиятларини ташкил қилиш (кичик гуруҳларни номлаш етакчиларни ва эксперт гуруҳини аниқлаш).

5. Микрогуруҳлардаги жавоблар билан танишишини ташкил қилиш.

6. Микрогуруҳлараро мунозарани ташкил қилиш.

7. Таълим берувчининг умумлаштирувчи сўзи унинг вазият ечими тўғрисидаги фикри.

8. Ўқувчиларни экспертлар томонидан баҳолаши.

9. Ўқувчиларнинг машғулоти ҳақидаги фикрлари.

10. Таълим берувчининг яқунловчи сўзи.

Кейсларни ҳал қилишда таълим берувчи ўқувчиларни йўналтириб туриши ва улардаги фаолликни қўллаши ҳал қилинаётган муаммога нисбатан қизиқиш уйғотиб туриши даркор [3].

Кейслардан таълим жараёнида фойдаланиш ўқувчилар шахсида куйидаги профессионал-педагогик зарурий сифатларни шакллантиради:

- мустақил ижодий фикрлаш қобилиятини ривожлантиради;
- мустақил ижодий фикрлаш қобилиятини ривожлантиради;
- назария ва амалиёт ўртасида узвий боғлиқликни шакллантиради;
- муаммоли вазиятни янгича шакллантиришга ёрдам беради;
- вазиятларни ҳал этишда унга таъсир этувчи омилларнинг мавжудлиги ва уларнинг таъсирини эътиборга олишга имкон беради;
- бошқалар фикрини ҳам қабул қила олиш малакасини шакллантиради;
- савол бериш маданиятини тҳаркиб топтиради;

Хулоса

Кейсларни ҳал қилишда куйидагиларга эътибор бериш зарур: асосий муаммони ва унга таъсир этувчи омилларни аниқлаш асосий ва иккинчи даражали омилларни ажратиш муаммони ҳал қилишнинг муқобил ечимини ҳам кўриб чиқиш энг мақбул қарор қабул қилиш. Кейсларни ҳал қилишда ёзма усулда таҳлил қилиш унда баён этилган муаммони

янада чуқурроқ англашга ёрдам беради ёхуд ёзма нутқ ҳам Халқаро RWCT дастурида мустақил ижодий фикрлаш қобилиятни ривожлантиришнинг энг самарали усулларида бири бўлиб ҳисобланади.

Талабаларнинг кейс-стадини ҳал қилишдаги қобилиятлар:

- илмий тадқиқот ва таҳлил усуллари ва воситаларини пухта эгаллаш;

- кичик гуруҳларда ишлаш ақлий ҳужум ва мунозараларда қатнашиш малакаларига эга бўлиш;

- муаммоли вазиятни таҳлил этиш режасини тезкор ишлаб чиқиш;

- муаммо ечимининг устувор ғоясини баҳолаш ва танлаш техникасини самарали ўзлаштиришда намоён бўлади.

Таълим фаолиятида кейс-стади методини қўллайдиган ўқитувчи машғулотга тайёрланишда куйидагиларга алоҳида эътибор қаратиши зарур:

- муаммоли вазиятни пухта таҳлил қилиш, вазиятни таҳлил этиш ва уни ҳал қилишга оид бир неча моделларни тайёрлаш;

- кейс ечими бўйича талабалар таклиф этадиган вариантларни баҳолаш кўрсаткич ва мезонларини ишлаб чиқиш;

Ўқитишда кейс-стади методидан фойдаланиш талабаларни фикрлашга, муаммоларни ҳал этиш кўникмаларини ҳосил қилишга, кашфиётларга интилиш ҳамкорлик ва шериклик сифатларини шакллантиришга, ўқитувчи томонидан берилган вазифаларни ҳал этиш режасини тузишга, қўйилган муаммони ҳал қилишга, уни мустақил муҳокама қилишга ўргатиш имкониятини яратиши зарур.

Адабиётлар

1. Педагогика / Нопедагогик олий таълим муассасалари учун дарслик. У.Иноятов, Н.Муслимов, Д.Рўзиева, М.Усмонбоева. – Т.: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2013.

2. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет. қўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. – Т.: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2012.

3. Педагогика фанидан изоҳли луғат / Тузувчилар Ж.Ю.Ҳасанбоев ва б. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2009.

Илмий раҳбар

п.ф.н. доц. Байтураев Т.Д.

МОДУЛЛИ ЎҚИТИШ – ПЕДАГОГИК ЖАРАЁННИ ИЛМИЙ ВА МЕТОДИК ЖИҲАТДАН ТАРТИБЛИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ АСОСИ СИФАТИДАГИ ЎРНИ

Курбанов Х.А. - талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Модулли ўқитиш – педагогик жараённи илмий ва методик жиҳатдан тартибли ва мақсадга мувофиқ бажаришга хизмат қилади. Ҳар қандай педагогик технологиянинг таркибий бўлаклари ўзаро жойлашуви ва педагогик технология жараёнларини амалга ошириш кетма-кетлигининг олдиндан белгиланган тартиб-қоидалари алгоритм дейилади. Энг кичик бўлак педагогик технологиянинг ўзига хос қисми бўлиб, бундай кичик модуллардан бирламчи модул ташкил топади.

Модуллаштириш ва ўқув жараёнини технологиялаш юзасидан кейинги йилларда илмий-педагогик тадқиқотлар ўтказилмоқда. Лекин бу борада ўқув тарбия жараёнини модуллаштириш ва алгоритмлаштириш ишлари ниҳоясига етказилган эмас. Таълим-

тарбия жараёнларига модуллаштириш ва алгоритмлаш маданияти тўла кириб борганида педагогик технологияларнинг яратилиши ва уларнинг амалда қўлланилиши борасида сезиларли ютуқларга эришиш имконияти кучаяди.

Модул – педагогик технологияни ташкил этувчи, унинг таркибий бўлаklarини ифодаловчи тушунчадир. Бундай бўлаklar кичик модул, бирламчи модул, модуллар тўплами, модуллар даражаси ва модулларнинг мажмуавий тузилмаси каби турлардан иборат бўлади.

Модуллар ўз кўламига кўра майда, ўртача ва йирик бўлиши мумкин. Уларнинг бири-бирига нисбатан пропорционаллиги қатъий бўлмаслиги, уларнинг ўзаро таъсири умумий жараёнда турлича бўлиши мумкин.

Модулли ўқитиш – педагогик жараёни илмий ва методик жиҳатдан тартибли ва мақсадга мувофиқ бажаришга хизмат қилади. Ҳар қандай педагогик технологиянинг таркибий бўлаklари ўзаро жойлашуви ва педагогик технология жараёнларини амалга ошириш кетма-кетлигининг олдиндан белгиланган тартиб-қоидалари алгоритм дейилади. Энг кичик бўлак педагогик технологиянинг ўзига хос қисми бўлиб, бундай кичик модуллардан бирламчи модул ташкил топади [1].

Модуллар тўплами ўқитиш жараёнини илмий ташкил этишга ва унинг сифат ҳамда самарасини таъминлаш учун қўлланилади. Модулларнинг ўзгарувчан ва модернизацияланадиган табиати туфайли улардан динамик равишда фойдаланилади.

Модулли ўқитиш – тартибли ўқитиш демакдир. Бунда ўқув материали битта ўқув машғулоти ҳажмида, ўқув предметининг бирор мавзуси ёки бирор бўлими даражасида, баъзан эса ўқув фанининг йирик таркибий қисми ўлчамида, яъни блоклар тарзида ҳам модуллар ёрдамида ўқитилиши мумкин. Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларида бир неча турдош ўқув фанларининг таркибий бўлаklarини ҳамда айрим фанларни ўқитиш технологиясини ташкил қилувчи модуллар (блоклар) тарзида ўқитиш кенг қўлланилмоқда. Давлат таълим стандартларининг таркибий бўлаklarига мос келадиган блоклардан ҳам фойдаланилмоқда. Ўқув режа ва дастурларнинг таркибий бўлаklarини ҳамда уларнинг бажарилишини таъминлайдиган технологияга хизмат қилувчи модуллар ҳам мавжуд. Таълим усуллари, методлари ва воситалари учун қўлланиладиган модуллар ҳам яратилмоқда [2].

Модуллар, биринчи навбатда, таълим мазмунига дахлдор тушунчалар, қоидалар, назариялар, қонунлар ва улар орасидаги умумий боғланишни ифодаловчи қонуниятларни тушунтиришга самарали хизмат қилади. Билим олувчиларнинг ўқув-билиш фаолиятлари ҳамда уларнинг ўзлаштиришини назорат қилишда ҳам модуллардан фойдаланилади.

Модуллаштириш ва ўқув жараёнини технологиялаш юзасидан кейинги йилларда илмий-педагогик тадқиқотлар ўтказилмоқда. Лекин бу борада ўқув тарбия жараёнини модуллаштириш ва алгоритмлаштириш ишлари ниҳоясига етказилган эмас. Бу ҳолатнинг генезиси ва такомиллашувини атрофлича тадқиқ этиш орқали ва тажриба-синов ишлари ҳамда педагогик экспериментнинг қатъий хулосаларига таяниб таълим жараёнига модулли ёндашувни кучайтириш мумкин. Таълим-тарбия жараёнларига модуллаштириш ва алгоритмлаш маданияти тўла кириб борганида педагогик технологияларнинг яратилиши ва уларнинг амалда қўлланилиши борасида сезиларли ютуқларга эришиш имконияти кучаяди.

Одатда модул 3-6 соатли маърузавий машғулотлар ва шу билан боғлиқ бўлган амалий (семинар), лаборатория машғулотларидан иборат бўлади.

Фаннинг тушунтирув аппаратининг қатъий тизимли (кўп қиррали) таҳлили асосида, энг самарали модул тузилади. Бу эса фундаментал иборалар гуруҳини ажратиш, материални мантиқан ва компакт гуруҳлаш имкониятини беради. Модул – мустақил таркибий бирлик бўлгани учун, баъзи ҳолларда, алоҳида талабаларга фанни тўлалигича эмас, балки фақатгина бир қатор модулларини тинглаш имкониятини беради. Бу эса иқтидорли талабаларнинг индивидуал ва мустақил ишларини оптимал режалаш имкониятини туғдиради [3].

Модулли ўқитишда, ўқув дастурларини тўла, қисқартирилган ва чуқурлаштирилган табақалаш орқали, ўқитишни табақалаш имконияти яратилади, яъни ўқитишни индивидуаллаштириш мумкин бўлади.

Модулли ўқитишга ўтишда қуйидаги мақсадлар кўзланади.

- ўқитишнинг (фанлар орасида ва фаннинг ичида) узлуксизлигини таъминлаш;
- ўқитишни индивидуаллаштириш;
- ўқув материални мустақил ўзлаштириш учун етарли шароит яратиш;
- ўқитишни жадаллаштириш;
- фанни самарали ўзлаштиришга эришиш.

Шундай қилиб, модулли ўқитишда талабаларни ўз қобилиятига кўра билим олиши учун тўла зарур шарт-шароитлар яратилади.

Ўқитишнинг модул тизимида ўтиш самарадорлиги қуйидаги омилларга боғлиқ бўлади:

- ўқув муассасасининг моддий-техникавий базиси даражаси;
- профессор-ўқитувчилар таркибининг малакавий даражаси;
- кўзланган натижаларни баҳолаш;
- дидактик материаллар ишлаб чиқиш;
- натижаларнинг таҳлили ва модулларни оптималлаштириш.

Модулли ўқитишга ўтишда қуйидагиларни амалга ошириш кўзда тутилади:

- ишчи ўқув режани чуқур таҳлили асосида, ўзаро чамбарчас боғлиқ фанлар гуруҳи аниқланади, яъни бутун ўқув режаси алоҳида макромодуллар тўплами сифатида қаралади.

Кўпчилик ҳолларда қуйидаги уч турдаги макромодуллар тузилиши мумкин:

- а) гуманитар фанларни ўз ичига оладиган;
- б) иқтисодий фанларни ўз ичига оладиган;
- в) умумтаълим, умумтехник, умумкасбий ва махсус фанларни ўз ичига оладиган.

Ҳар қайси макромодулнинг мутахассисни шакллантиришда ўз мақсади ва вазифаси бўлади.

Маълум макромодулни ўрганиш мақсади, унга кирадиган фанларнинг ўрганиш мақсадларидан келиб чиқади [4].

Хулоса

Ҳар қайси макромодулнинг ўрганилиш мақсадлари тўплами, давлат таълим стандартларида акс эттирилган, мутахассис кадр тайёрлашнинг бош мақсадини ташкил этади. Ҳар қайси макромодулнинг мақсади аниқ тузилган бўлиб, унинг биринчи фани ўрганила бошлаганида, талабаларга етказилиши лозим.

Модул ўз ичига 2-3 маъруза ва шу маърузалар билан боғлиқ бўлган амалий дарслар ва лаборатория ишларини қамраб билан боғлиқ бўлган амалий дарслар ва лаборатория ишларини қамраб олиши мумкин.

Ҳар қайси модул бўйича қуйидаги материаллар тайёрланади:

- талабаларнинг билимини назорат қилиш учун тестлар;
- индивидуал ишлар учун топшириқлар;
- мустақил ишлар учун топшириқлар;
- ўқув-услубий тарқатма материаллар;
- ўқув-илмий адабиётлар рўйхати;
- ишчи ўқув дастур.

Ҳар бир модул тест-синовлари билан тугалланиши лозим: жорий модул учун бу ўтилган материалнинг назорати бўлса, кейинги модул учун эса бу кириш (бошланғич) назорати бўлади.

Ҳар қайси модул учун тарқатма ва тасвирли материаллар тўплами тузилади ва улар талабага машғулотдан олдин берилади. Модул тавсия қилинадиган адабиётлар билан таъминланади. Ҳар бир талаба материалларни ўзлаштира бориб, бир модулдан иккинчи

модулга ўтади. Иқтидорли талабалар бошқаларга боғлиқ бўлмасдан тест синовларидан ўтишлари мумкин.

Модулли ўқитиш, фаннинг асосий масалалари бўйича умумлаштирилган информациялар берувчи муаммоли ва йўриқли маърузалар ўқилишини тақозо этади. Маърузалар талабаларнинг ижодий қобилиятини ривожлантиришга қаратилмоғи лозим.

Модулнинг амалий ва лаборатория машғулотлари маърузалар билан бирга тузилади, улар маърузалар мазмунини ўрганиладиган янги материал билан тўлдиради. Талабалар маълум амалий кўникмаларга эга бўладилар.

Адабиётлар

1. Саидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. -Т.: Молия, 2003.
2. Тожиев М., Салахутдинов Р., Баракаев М., Абдалова С.. Таълим жараёнида замонавий ахборот технологиялари. -Т.-2001.
3. Ишмухамедов Р. Таълимда инновацион технологиялар. –Т.2008. 180 б.
4. Толипов У., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари. –Т.:2006.

Илмий раҳбар

к.п.н., доц. Байтураев Т.Д.

СОВРЕМЕННОЕ ОБЩЕСТВО И ИНФОРМАЦИОННАЯ СРЕДА

Абулжасимова Г.К – студентка, ТИИИМСХ

Аннотация

В данной статье рассмотрены о существование определенных различия в понятийном аппарате, в подходах к выделению структуры и основных составляющих информационного поля у различных авторов. В то же время анализ существующих подходов которые позволяет выделить основные положения и которые могут быть достаточно эффективно использованы при рассмотрении проблематики информационно-психологической безопасности и психологической защиты личности.

Отличительная особенность нашего времени состоит в переходе к новому качественному состоянию общества, характеризующемуся резким повышением роли информационных процессов и, в частности, созданием целой индустрии производства информации. Современное общество находится на переходе к качественной форме своего существования — информационному обществу и в более широком контексте — к информационной цивилизации.

Работы современных исследователей, развивающих взгляды Циолковского, Вернадского, Винера и ряда других ученых, закономерно подводят к выводу о необходимости перевода философско-теоретического осмысления идеи всеобщего информационного поля в область прикладных научных исследований, имеющих непосредственное практическое значение для человека.

Существуют определенные различия в понятийном аппарате, в подходах к выделению структуры и основных составляющих информационного поля у различных авторов. В то же время анализ существующих подходов позволяет выделить некоторые основные положения, разделяемые по своей сути многими специалистами в этой области, и которые могут быть достаточно эффективно использованы при рассмотрении проблематики информационно-психологической безопасности и психологической защиты личности. Жизнь человека разворачивается не только в физической среде, мире природы, но и в мире искусственном, им же самим созданном. Его можно разделить на две

основных составляющих части — техносферу (мир техники, технологий и т.п.) и информационную среду.

Жизнедеятельность человека реализуется одновременно с миром природы и в специфической для человеческого общества информационной среде, имеющей свои закономерности развития и функционирования.

Первая характерная особенность информационной среды общества, а в более широком контексте — всей человеческой цивилизации, присущее ей постоянное и стремительное расширение, осуществляемое самим же человеком (отдельными личностями, группами людей, организациями, определенными социальными институтами). Особенно бурно расширение информационной среды общества происходит в последнее время и темпы его постоянно растут.

Вторая характерная особенность одновременное функционирование информации, которая адекватно отражает существующий мир, и деформированной, искаженной информации в информационной среде в интегрированном виде и разнообразных, зачастую довольно причудливых сочетаниях.

Это обусловлено как сложностью самого процесса познания и неполнотой наших знаний о мире, так и пристрастностью, субъективностью людей, ее порождающих, а зачастую — целенаправленным использованием информационных процессов для введения окружающих в заблуждение при достижении собственных целей и игнорировании наносимого своими действиями ущерба другим людям.

Подтверждением данного подхода могут служить результаты анализа информационных потоков в функционировании политической системы общества, в которой дается системное описание политической психологии. Рассматривая роль и значение информации, а также ее искажений, в частности, в ходе политической борьбы, были выделены восемь основных ее разновидностей, негативно воздействующих на функционирование политической системы общества. По сути выделенные разновидности отражают действие определенных способов трансформации и искажение информационных потоков, в результате чего происходят качественные изменения информации, превращающие ее в реальную силу, негативно воздействующую на политическую систему общества. В информационном веке, отмечается, об "информационной экологии", защищающей психику человека от избыточной и ложной информации. Рассмотрим выделенные разновидности информации, искажающей адекватность политической реальности и выступающий как антиподы — противоположные полюса информации, необходимой для нормального функционирования конкретных структурных элементов политической системы общества.

"Объективная — фальсифицированная информация"

В политической борьбе объективная информация часто сознательно или непроизвольно "фальсифицируется" — подделывается, искажается, подлинное подменяется ложным, что порождает бредовые политические идеи.

"Системная — дезориентирующая информация"

Под видом системной политической информации может функционировать ее подобие — "информация дезориентирующая", неправильно определяющая положение общества в историческом процессе: экономическом состоянии, отношениях с иными народами и государствами. Она может порождать сверхценные политические идеи, объективно не заслуживающие такого внимания, которое субъективно они вызывают.

"Организованная — деморализующая информация"

Организованность информации способствует упорядочиванию нравственных принципов экономических требований, поведения в нечто целое и гармоничное. Может происходить подмена организованной информации "деморализующей", которая трансформирует нравственные ценности и провоцирует "скачок политических идей", вытекающий из нарушения последовательности умозаключений, утверждений, хаотичности и незавершенности мыслей, непоследовательности и поведения.

"Достаточная — энтропийная политическая информация"

Вместо краткой, убедительной и доказательной информации в средствах массовой коммуникации появляются всевозможные точки зрения от самых примитивных до самых фантастических и невероятных. Множество газет, политических партий, авторитетов на тысячи ладов толкуют элементарные вещи, делая известное — неизвестным, понятное — непонятым, уродливое — красивым, нравственное — безнравственным, ясное — неясным. Причем доминируют наиболее примитивные, мистические и просто бредовые объяснения.

"Социализирующая политическая информация" — "политическая дезинформация".

В "социализирующей политической информации" (А. И. Юрьев использует выражение "читабельная политическая информация", выполняющая, по его мнению, воспитательную роль) отражаются результаты трансформации исходных сведений о социально-политической ситуации и направлениях ее развития в форму ясных, понятных и убедительных для большинства населения новых алгоритмов и стереотипов социального поведения, адекватных социальной действительности. В то же время "социализирующая политическая информация" может подменяться "политической дезинформацией" — ложными сообщениями, которые вводят общественное мнение в заблуждение под видом истинных. Начинается с уничтожения книг и издания новых с принципиально иными фактами и их трактовкой. В результате действия таких информационных процессов развивается "бессвязность политического мышления", при котором возможно правильное восприятие частных фактов, но с утратой способности к логическим выводам и синтезированию частных фактов в целом. Известные представления, понятия, мысли утрачивают их истинную историческую связь, разрываются. Информационная ткань распадается на бессмысленные фрагменты, из которых составляется новая деформированная картина мира.

"Конкретная политическая информация" — "дезорганизующая политическая информация".

"Практичная информация" — "развращающая политическая информация"

Побуждает к запрещенным действиям: цель становится всем — не благие средства используются для достижения результата, право истины замещается правом силы и т.д. Распространение развращающей политической информации порождает феномен "разорванности политического мышления", что с точки зрения психологии является признаком патологии мышления. В этом случае понятия и представления сочетаются друг с другом на основе случайных или формальных признаков.

"Необходимая информация" — "дезинтегрирующая политическая информация", под воздействием целостное общество разъединяется на соперничающие, противоборствующие части. Люди вдруг обнаруживают под влиянием такой информации неразрешимые противоречия в отношениях со своими недавними соратниками, коллегами, даже родственниками. Крайним следствием результатов воздействия этого вида информации может выступать гражданская война (брат против брата, сыновья против отцов и т.д.).

Для рассуждений наиболее значимым фактором является их наличие в информационных процессах, зачастую вызываемое политической борьбой.

Заключение

Таким образом, трансформация и изменение информации или процессов ее функционирования используются некоторыми субъектами для оказания воздействия на психику людей и изменение их поведения для оказания воздействия на психику людей и изменения их, для психологических манипуляций и оказания манипулятивного воздействия на личность. Следовательно специфически организованное изменение информационной среды выступает как своеобразное информационное оружие, которое, в частности, достаточно активно используется в политической борьбе.

Используемая литература

1. Бабаева Ю.Д., Войскунский А.Е. Психологические последствия информатизации // Психологический журнал: 1998г-Т-9 №1 с.89-100.
2. Войскунский А.Е. Психологические аспекты информационной безопасности, Глобальная информатизация и безопасность России – М: Изд-во Московского Университета, 2004г.с.161-175
- 3.Зимбардо Ф. Социальное влияние.–СПб.:Питер,2003г.

Научный руководитель

стр.,преп. Раупова Ш. А.

КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШ МОТИВИ ВА ИЖТИМОЙЛАШУВИ

Рахманова М.Қ. асс., Холиқоа Н.А., Комилжонова Н Э. - ўқувчилар, ТИҚХММИ

Аннотация

Ушбу мақолада, ўқитиш жараёнида бўлажак мутахассисларга мулоқот маданияти, муомала сирларини сингдириш, гуруҳ ва жамоаларда ўзаро муносабатларни мулоқот орқали яхшилашдир. Мулоқотнинг назарий ва методологик муаммоларини ҳал қилиш, мулоқотни нутқ билан биргаликда ривожланишини таъминлаш асосий мақсадини ташкил қилади.

Ҳар томонлама етук ёш авлодни вояга етказиш ҳақида тўхталар экан, давлатимизнинг биринчи Президенти И.А.Каримов «...ўз ҳақ-ҳуқуқини танийдиган, ўз кучи ва имкониятларига таянадиган, ён-атрофида содир бўлаётган воқеа-ҳодисаларга мустақил ёндаша оладиган, айна замонда шахсий манфаатларини мамлакат ва халқ манфаатлари билан уйғун ҳолда кўрадиган, ҳар жиҳатдан баркамол инсонларни тарбиялаш вазифаси истиқлол йилларида биз учун ҳал қилувчи масалага айланди», – деб таъкидлаган эди. Бевосита биринчи Президентимизнинг ибратли ўғитларини ҳаётга тўлақонли жорий этаётган муҳтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёев ҳам БМТ Бош Ассамблеясининг 2017 йил 19 сентябрдаги 72-сессиясида сўзлаган нутқида: «... Бизнинг асосий вазифамиз – ёшларнинг ўз салоҳиятини намоён қилиши учун зарур шароитлар яратиш, зўравонлик ғояси «вируси» тарқалишининг олдини олишдир. Бунинг учун ёш авлодни ижтимоий қўллаб-қувватлаш, унинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш борасидаги кўп томонлама ҳамкорликни ривожлантириш лозим, деб ҳисоблаймиз.

Шу муносабат билан Ўзбекистон глобаллашув ва ахборот-коммуникация технологиялари жадал ривожланиб бораётган бугунги шароитда ёшларга оид сиёсатни шакллантириш ва амалга оширишга қаратилган умумлаштирилган халқаро ҳуқуқий ҳужжат – БМТнинг Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро конвенциясини ишлаб чиқишни таклиф этади. Бизнинг назаримизда, мазкур ҳужжатни имзолайдиган давлатлар ушбу соҳани ўз ижтимоий сиёсатининг асосий ва муҳим ҳаётий устувор йўналишларидан бири даражасига кўтариш бўйича қатъий мажбуриятларни ўз зиммасига олиши керак» – деган фикрлари дунё ҳамжамияти томонидан кенг эътироф этилмоқда. Бу эса ўз навбатида ўқувчи-ёшлар ижтимоий фаоллигини қўллаб-қувватлаш йўналишида бир қатор аниқ вазифа ва чора-тадбирларни белгилаб берди.

Ривожланиб бораётган жамиятимизда соғлом авлодни, комил инсонларни вояга етказиш масаласига катта эътибор берилмоқда. Комил инсоннинг муҳим сифатларидан бири мулоқот маданиятидир. Мулоқот инсон ҳаёти ва фаолиятининг муҳим шартидир. Айнан мулоқот ёрдамида инсонлар табиатни ўзлаштириш ва ўз эҳтиёжларини қондириш учун биргаликда ҳаракат қилиш имкониятларига эга бўладилар.

Ҳозирги кунда ижтимоий амалиётда мулоқот ва шахслараро муносабатлар муаммоси муҳим аҳамият касб этмоқда. Мулоқот ва унинг асосий хусусиятлари, самарали мулоқотнинг психологик аспекти, мулоқотга ўргатишга оид психологик машқлар, самарали мулоқотнинг психологик воситаларини ўрганиш ишбилармонлик фаолиятида асосий ўринни эгалламоқда. Ижтимоийлашувда мулоқот психологияси мулоқотнинг юқорида келтирилган ва бошқа жиҳатларини назарий ва амалий жиҳатдан чуқур ўрганишга ёрдам беради. Шунингдек талабаларда касбга йўналтириш ва ижтимоийлашувда мулоқотга тўғри ёндошув бўйича амалий кўникмаларни шакллантиришга хизмат қилади.

Мулоқот ижтимоий ёндошув психологик воқелик сифатида шахслараро муносабатларни ижобий ривож топишида мулоқот, мулоқот маданияти, мулоқот техникаси, коммуникация, интерактив, перцептив, шахслараро муносабат, алоқа ўрнатиш, ўзаро таъсир, рақобат, мураса, компромисстик ёндошувлар фақат инсонларга хос бўлган жараёнлардир. Кишиларда фаолият жараёнида бир - бирларига ниманидир айтиш истаги туғилади.

Ижтимоийлашув мотиви одамлар ўртасида биргаликдаги фаолият эҳтиёжларидан келиб чиқадиган боғланишлар ривожланишининг кўп қиррали жараёнидир. Ижтимоий ижобий муносабат муносабатлар биргаликда фаолият кўрсатувчилар ўртасида ахборот айирбошлашни ўз ичига олади. Бунда муносабатнинг коммуникатив жиҳати ҳисобга олинади. Кишилар муносабатга киришишда аввало тилга мурожаат қиладилар. Мулоқотнинг яна бир жиҳати муносабатга киришувчиларнинг ўзаро биргаликдаги ҳаракати - нутқ жараёнида фақат сўзлар билан эмас, балки ҳаракатлар билан ҳам айирбошлашдан иборат. Масалан, муносабатга киришар эканмиз, у бизни қониқтирса имо-ишора билан мулоқотда бўламиз. Муносабатнинг кейинги жиҳати мулоқотга киришувчиларнинг бир-бирларини идрок эта олишларидир. Масалан, биз бир киши билан мулоқотга киришишдан аввал уни ҳурмат қилиб ёки менсимасдан муносабатда бўламиз.

Демак, мулоқот жараёнида коммуникатив (ахборот узатиш), интерактив (ўзаро биргаликда ҳаракат қилиш) ва перцептив (ўзаро биргаликда) идрок этиш амалга оширилади. Ижтимоийлашув мулоқот қонуниятларини билиш ҳамда уни ўрнатиш малакалари ва қобилиятларини ривожлантириш ҳар бир киши учун муҳимдир. Ҳар бир кишининг ўз “Мени” атрофдагилар билан бўладиган мулоқот жараёнида шаклланади, Шахснинг ҳаёт йўллари аввал оилада, боғча, мактаб, институт, ишхона, кексалар орасида, яъни гуруҳ ва жамоаларда ривожланади.

Бизнинг юксак маънавий эҳтиёжларимиздан бири - бу мулоқотга бўлган эҳтиёждир. Мослашиш мулоқотга бўлган эҳтиёжимиз қондирилмаса, онгимиз ҳам ривожланмайди. Шунинг учун биз доимо мулоқотга бўлган эҳтиёжларимизни қондиришимиз лозим. Кимлар биландир бўлган мулоқотдан қониқиш ҳосил қиламиз, лекин айрим ҳолларда эса биз қониқмасликни ҳис қиламиз. Педагогик мулоқот - бу мулоқот турларидан бири бўлиб, педагогик фаолиятда муҳим ўрин тутаяди. Биз гуруҳ ва жамоага кирар эканмиз, доим унда турли ролларни бажаришга тўғри келади. Расмий гуруҳда бошлиқ ролини ўйнасақ, касалхонада бемор, дўконда харидор, оилада рафиқ ёки рафиқа, ота - она олдида эса фарзандлик ролини бажарамиз.

Ижтимоийлашув жараёни барча имконияти билан боғлиқ ҳолда ривожланади. Жумладан, педагогик психология билан узвий боғлиқ. Педагогик мулоқотда таълим психологияси, тарбиянинг психологик асослари, ўқитувчи ва ўқувчи муносабатлари, ўқитувчи педагогикаси, психологияси, таълим муассаларида - тарбия жараёнларини бошқариш муҳим ўринни эгаллайди. Ижтимоийлашув мотиви турли ижтимоий гуруҳлар, жамоанинг психик намоён бўлиши, катта гуруҳлар - жамоаларнинг кайфияти, тафаккури, рақобати кабиларни ўрганади. Бу масалаларни ҳал қилишда ижтимоий мулоқот ёндошуви катта аҳамиятга эга. Бошқарувда раҳбарларда нутқ қобилиятининг ривожланиши, шунингдек, ходимлар билан тил топа олиш учун мулоқот психологиясини билиш зарур.

Сиёсатчиларда нотиклик маҳорати шаклланган бўлиши керак, бунда уларга мулоқот психологиясини яхши билишлари яқиндан ёрдам беради.

Ижтимоийлашувнинг асосий мақсади, аввало нутқ маданиятини ёшларда шакллантиришдир. Шунингдек, ўқитиш жараёнида бўлажак мутахассисларга мулоқот маданияти, муомала сирларини сингдириш, гуруҳ ва жамоаларда ўзаро муносабатларни мулоқот орқали яхшилашдир. Мулоқотнинг назарий ва методологик муаммоларини ҳал қилиш, мулоқотни нутқ билан биргаликда ривожланишини таъминлаш асосий мақсадини ташкил қилади. Асосий вазифалар: ҳамқорликдаги фаолият жараёнида шахслараро ўзаро таъсир ва мулоқот қонуниятларини ўрганиш; Шарқ алломаларининг мулоқот ҳақидаги қарашларини таҳлил қилиш; талабани фаолликка ундовчи муомалавий имкониятлари мавжудлигини таъкидлаб ўтиш; талабаларда касбий лаёқатни фаоллаштиришга қаратилган мулоқотни шакллантириш; шахслараро муносабатларни мувофиқлаштиришда мулоқотнинг ролини орттириш; ўзаро таъсир этишнинг айрим оқибатларини ҳисобга олиш.

Касбий ижтимоийлашувда шахслараро муносабатларнинг шундай кўринишидирки, унинг ёрдамида одамлар бир-бирлари билан ўзаро руҳий жиҳатдан алоқага киришадилар, ўзаро ахборот алмашадилар, бир-бирларига таъсир ўтказадилар, бир-бирларини ҳис қиладилар, бир-бирларини тушунадилар. Шунинг учун мулоқот ижтимоий психологик ҳодиса сифатида ижтимоий турмушнинг барча соҳаларида иштироқ этиб, ҳамқорлик фаолиятининг моддий, маънавий, маданий, эмоционал, мотивацион қирраларининг эҳтиёжи сифатида вужудга келади. Инсонда юзага келадиган ҳар хил эҳтиёжларни мақсадга мувофиқ равишда қондириш мулоқот маромига боғлиқ бўлиб, шахслараро муносабат, баркамол авлод, комил инсон ғояларини англатади. Мулоқот муваффақиятининг негизи шахснинг руҳий дунёси, эҳтиёжлари мотивацияси, ҳарактер ҳислати, индивидуал-типологик хусусияти, қобилияти, эътиқоди каби инсоннинг фазилатлари, сифатлари намоён бўлиши, ривожланиши ҳисобланади. Мулоқот жараёнида мулоқотдошларнинг тасаввурлари, қизиқишлари, ҳистуйғулари, кўникмалари, воқелик натижасини олдиндан сезиш, пайқаш, таъсир ўтказиш услуби таркиб топиши мумкин.

Хулоса

Хулоса қилиб айтганда, таълимда ижтимоий фаоллик ва унинг мазмунини ташкил этувчи қисм, табиат, жамият, фаолият усуллари, инсоннинг ўз атрофидаги одамларга, меҳнатга, мулоқот ва бошқа шу қабиларга ҳиссий-иродавий ҳамда қадрият нуқтаи назаридан муносабати ҳақидаги билимлар манбаи сифатида намоён бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг IX сессиясидаги сўзлаган нутқи. - Т, 1997.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисидаги Қонуни”, - Т, 1997.
4. Азизхўжаева А. Педагогик технология ва маҳорат. – Т, ТДПИ, 2003.
5. Алиев А. Педагогик маданият: метод ва маҳорат қирралари. //Халқ таълими, 1992. 4-сон
6. Ўзбек педагогикаси антологияси. - Т: Ўқитувчи, 2000.

Илмий раҳбар

PhD. Холиқова Н.А.

QIMMATBAHO METALLARGA ISHLOV BERISH,UNI TALABALARGA O'RGATISH VA BU BORADA ULARNI KASBIY-HUNARGA TAYYORLASH.

Raximov Sh.A., Tojiboyeva Z.F. – talabalar, TIQXMMI

Anatatsiya


Zargarlik sanoati - yuksak badiiy ishlov berish yo'li bilan nodir metallar va qimmatbaho toshlardan, shuningdek, boshqa metallardan buyumlar, taqinchoqlar ishlab chiqaradigan sanoat tarmog'i. Zargarlik sanoatida xom ashyo sifatida qimmatbaho va rangli metallar (platina, oltin, kumush va boshqalar), ularning qotishmalari, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar (feruza, fionit, olmos, aqiq, zumrad, yoqut), tabiiy toshlar, plastmassa, suyak, emal, shisha va boshqalar ishlatiladi. Biz ushbu maqolada zargarlik san'atining o'ziga xosligini va albatta o'z davrida mukammal ishlangan zargarlik buyumlarini ishlash, ular ustida tajribalarni o'tkazish to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tdik. Bu orqali osib kelajakdanavlodlarga xoso'ziga kichik mahorat darsi sanaladi.

Kirish: “O‘zbekzargarsanoati” uyushmasi Prezidentning 2017-yil 15-noyabrda qaroriga asosan tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy vazifasi Respublikamiz hududida zargarlik san'atining ko'p asrlik an'analarini saqlash va rivojlantirish hisoblanadi. “O‘zbekzargarsanoati” uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalar 2020 yilgacha O‘zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan uskunalari, xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlar uchun bojxona to'lovidan ozod qilingan. O‘zbekistonda zargarlik sanoati korxonalari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar qo'mitasi huzuridagi "Fonon" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi tarkibida. Ularning yiriklari: "1-Toshkent zargarlik korxonasi", "2-sonli zargarlik zavodi", "Hyp" davlat badiiy zargarlik markazi, "3-sonli zargarlik zavodi", "Kumush" O‘zbekiston-AQSH qo'shma korxonasi, "EyshnReyz" O‘zbekiston-AQSH qo'shma korxonasi (Toshkent shahar), Shaxrisabz zargarlik korxonasi (Shahrisabz shahar), Burchmulla zargarlik zavodi (Burchmulla qishlog'i) [11]. 1992 yilda ishga tushgan Zarafshon shahridagi Navoiy zargarlik zavodi (avvalgi "Zarisark" O‘zbekiston-AQSH qo'shma korxonasi) respublikadagi yetakchi zargarlik korxonasi hisoblanadi. Bu korxonalar 585 va 750 asillik darajali (probali) tilla qotishmasi, 925 asillik darajali kumush qotishmasidan turli xildagi zargarlik buyumlari (sirg'a, uzuk, zargarlik zanjirlari, sovg'abop mahsulotlar, kumushdan yasalgan oshxona anjomlari, yuqori badiiy sifatga ega bo'lgan zargarlik buyumlari, yakka buyurtmalar, yangi zargarlik buyumlarining modellari) ni ishlab chiqaradi. Shaxrisabz va Burchmulla zargarlik korxonalarida zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish bilan birga qimmatbaho va qimmatbaho bo'lmagan toshlarga qirrali ishlov beriladi. "Fonon" IIB ilmiy texnika laboratoriyalarida zargarlik sohasida ishlatiladigan turli rangdagi sun'iy kristallar o'stiriladi. Zargarlik sanoati korxonalari bilan bir qatorda Respublikada buyurtmachining ashyosidan zargarlik buyumlari tayyorlash va ularni ta'mirlash bilan shug'ullanuvchi zargarlik ustaxonalari va yakka tartibda ishlovchi zargarlar ham faoliyat ko'rsatmoqda (qarang Zargarlik). Respublikada ishlab chiqariladigan va chetdan keltiriladigan Zargarlik sanoati mahsulotlari sifati va asillik darajasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 8-fevraldagi farmoni bilan tashkil qilingan Davlat asillik darajasini belgilash palatasi nazorat qiladi. 2001-yil 7-dekabrda "Qimmatbaho metallardan yasalgan buyumlarning asillik darajasi va tamg'alanishi to'g'risida" O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. 1999-yilning 4-iyunida O‘zbekiston Respublikasining Davlat asillik darajasini belgilash palatasi Asillik darajasi palatalarining Yevropa uyushmasiga to'la huquqli a'zo bo'ldi. Davlat asillik darajasini belgilash palatasi qimmatbaho metallardan yasalgan buyumlarning sofligini tekshirish va tamg'alash Xalqaro konvensiyasiga kirish masalalari bilan 1996 yildan shug'ullanib keladi va kuzatuvchi mamlakat maqomida uning barcha kengashlarida qatnashadi [12]. O'zbekiston zargarlik uyushmasi O'zbekistonda zargarlik sanoati ko'plab xususiyatlarini tan olishi asosida xaridorlar,

hukumat va biznes uchun resurslar taqdim etadi. Uyushma maqsadlari: O'zbekistonda milliy zargarlik sanoati rivojlanishiga ko'maklashish.



Uyushmaning asosiy maqsadi O'zbekistonda zargarlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdir. Zargarlik buyumlari ishlab chiqarish va savdo sohasida tadbirkorlik faoliyati faol, sog'lom va vijdonli yuritish uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish. O'zbekistonda yangi ish joylari, qo'shimcha xizmat turlari va zargarlik sanoati rivojlanishi uchun xalqaro tashkilotlar, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish [10].



O'zbekistonlik zargarlik buyumlarini tashqi bozorga eksport qilish uchun qulay sharoit yaratish. Zargarlik sanoati sohasida mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish konferentsiyalar tashkil etish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash uchun shart-sharoitlarni shakllantirish. Asl metallar probasi — (lit. proba — sinab ko'rish, baholash) — ishlanadigan va tanga zarb qilinadigan qotishma tarkibidagi sof oltin, kumush, platina va boshqa qimmatbaho metallar miqdorini ifodalaydigan mezon. Ko'pchilik mamlakatlarda Asl metallar probasi metrik tizim bo'yicha 1000 gr qotishma tarkibidagi nodir metallning grammlar miqdori bilan ifodalanadi. Odatda asl metallar yumshoqroq bo'lib, bu metallarga legirovchi metallar (mis, rux, nikel va hokazo) qo'shilmasa, ulardan tayyorlangan buyumlar puxta bo'lmaydi. Ilgari (1917-yilgacha) O'zbekistonda proba tizimi 96 misqoldan (har misqol 4,25 gr) iborat qadoqqa (409 gr) asoslangan. Unda eng yuqori darajadagi Asl metallar probasi 96 ga teng edi. Hozir O'zbekistonda oltin buyumlar uchun 375, 500, 583, 750, 958 probalar, kumush buyumlar uchun 800, 875, 916, 960 probalar, platina buyumlar uchun 950 proba, palladiy buyumlar uchun 850 proba mavjud [9]. O'zbekistonda asl metallardan yasalgan buyumlarning qonunlashtirilgan probalarga muvofiq kelishini O'zbekiston Moliya vazirligi nazorat qilib boradi. Buyum probasini tasdiqlash uchun unga davlat tamg'asi urib kafolatlanadi. O'zbekiston Zargarlik sanoatida xom-ashyo sifatida ishlatiladigan rangli metallar, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar respublikaning o'zidagi sanoat korxonalarida ishlab chiqariladi va konlardan qazib olinadi [12].

Xulosa

Xorijda Zargarlik sanoati rivojlangan mamlakatlar qatoriga AQSH, Italiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Ukraina, Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlar kiradi. Asl metallar — Oltin, kumush, platina va platina guruhidagi metallar (ruteniy, rodiy, palladiy, osmiy, iridiy). Kimyoviy jihatdan turg'un, qiyin eruvchan (oltin, kumushdan tashqari), zanglamaydi, ulardan yasalgan buyumlar ko'rkamligi bilan ajralib turadi. Oltin, kumush va

platinaning plastikliги yuqori. Bu metallarning shu xususiyatlari texnikada va hayotda keng ishlatiladigan qotishmalarida ham namoyon bo'ladi. Haqiqiy uyg'unlashuvchilar o'zlarini isitish elementini o'zlari qilishni afzal ko'rishadi, va bu ishni orqaga qaytarish uchun yuqori sifatli tel muvaffaqiyatli bo'lishning kalitidir. Biz ushbu maqolamiz orqali o'sib kelayotgan avlod tarixni o'zligicha saqlash imkonlarini beruvchi imkonlar haqida qisqacha to'xtalib o'tdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Schumann Walter. Hardcover "Qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar", 312 sahifa. Format: 130x200. Nashr qilgan: Bertelsmann
2. Voyo Patrik "Olmos va toshlar". Moskva: Ast, Astrel, 2003. - 128 sahifa.
3. Batyreva E., Mikheeva I., Shikalovich T. "Biz zargarlik buyumlari aniqligi" Moskva: "6 karat" nashriyoti, 2006 y. - 288 bet.
4. S. Kinsley. Sh. "Zargarlik sohasida gidravlik zichlash" Omsk: "Daedalus-Press", 2007 - 96str., A4 formati.
5. Smit G. "Qimmatbaho toshlar" Moskva: AST, Astrel, 2006. - 511 sahifa.
6. Star Gen Raist "Klassik zanjir bilan bog'lanish va ularning navlari". Omsk: "Daedalus-Press", 2007 - 210str., Format 210 x 280mm,
7. Robert R "Pave Wooding texnikasi, shu jumladan olmosni burchakka o'rash". Omsk: "Daedalus-Press", 2005. - 234 sahifa, format 146x220.
8. Fachhend V. "Erigan modellarga quyish" qo'llanma, Omsk: "Daedalus-Press", 2005. - 102 sahifa.
9. <http://zargarlar.uz/uz/adabiyot/>
10. <http://zargarlar.uz/uz/kompaniyalar/>
11. <https://pro-men.ru/uz/fittings-in-the-creation-of-jewelry/>
12. <https://uznews.uz/uz/article/9663>

Ilmiy rahbar:

ass., Ibragimova G.N.

ХУҚУҚИЙ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ - ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ АСОСИДИР

Меликузиев С.М. - магистрант, Мирнигматов Ш.Б. – талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Мақолада инсон ҳуқуқий жиҳатдан қанча чуқур билимдон, юксак ҳуқуқий маданиятли ва маънавиятли бўлса маърифий мафкуравий жиҳатдан шунчалик мукаммал шакланган бўлади. Ана шу мафкуравий омилга бевосита боғлиқ равишда жамият тараққиёти тезлашади, миллат ғоявий-сиёсий жиҳатдан ўсиб, етилиб, такомиллашиб боради. Ёш авлоднинг илмий - маданий савияси, билимдонлик даражаси, дунёқараши ва тафаккури ўзининг ривожланиш ҳолатига қараб дунёвий мезонларга тўла жавоб бериши тўғрисида маълумотлар келтирилган.

Кириш: Мамлакатимизда мустақилликнинг дастлабки кунлариданоқ кучли демократик ҳуқуқий давлат ва кучли фуқаролик жамиятини шакллантириш масаласи давлатимиз томонидан асосий вазифа этиб белгилаб берилди. Ўтган йиллар давомида юртимизда ҳуқуқий давлат қуриш йўлида муайян натижаларга эришилганини эътироф этган ҳолда, бу борада ҳали олдимизда жуда кўп ишлар турганини ҳам қайд этиш жоиз.

Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А. Каримов бу йўлда қўйилган дастлабки қадамларга тўхталар экан, "Биз, энг аввало, ҳуқуқий асосни тайёрладик. Жамиятимизнинг асосий ақидалари, унинг сиёсий, иқтисодий ва маънавий йўналишлари

белгилаб берилган Конституциямиз ҳам ана шу асосга қурилган. Биз қонунчилик базасини барпо этиб, бутун давлат тузилмасини ўзгарттирдик” -деб қайд этади [1].

Хуқуқий давлат сари қадам қўяётган эканмиз, талаба ёшларимиз қонунларни, давлат ошқарувидаги улкан ўзгаришларни, инсон, фуқароларга берилган эркинликларни мукамал билишлари керак. Бу эса ўз навбатида фуқаролик жамиятини қуршда, ислохотларни амалга оширишда улардан ўз хуқуқларини, эркинликларини, бурчлаини билибгина қолмасдан, балки уларни амалда қўллаб билишларини ҳам талаб қиади. Мамлакатимизда фуқаролик жамиятини барпо этиш ва мустаҳкамлаш, демокртик ислохотларни чуқурлаштириш, унинг қонуний заминлари, хуқуқий асосларни такомиллаштириш, фуқаронинг сиёсий-хуқуқий фаоллигига, онглилик, билимдонлиик даражасига узвий алоқадорликдадир. Бугунги кунга келиб юртимизда хуқуқий билимва маданиятга бўлган талаб ва эҳтиёж тобора ортиб бормоқда. Хуқуқий билим ва маданиятни шакллантириш оиладан бошлансада, асосан таълим муассасаларида назарий ва амалий жиҳатдан ўргатилади, ривожлантирилади, барқарорлаштирилади. “Таълим инсон шахсини тўла баркамол қилишга ва инсон хуқуқлари ҳамда асосий эркинликларига нисбатан ҳурматни кучайтиришга қаратилмоғи лозим” - деб халқаро ҳужжатларда бекорга эътироф этилмаган [2]. Инсон хуқуқий жиҳатдан қанча чуқур билимдон, юксак хуқуқий маданиятли ва маънавиятли бўлса маърифий мафкуравий жиҳатдан шунчалик мукамал шакланган бўлади. Ана шу мафкуравий омилга бевосита боғлиқ равишда жамият таракқиёти тезлашади, миллат ғоявий-сиёсий жиҳатдан ўсиб, етилиб, такомиллашиб боради. Ёш авлоднинг илмий - маданий савияси, билимдонлик даражаси, дунёқараши ва тафаккури ўзининг ривожланиш ҳолатига қараб дунёвий мезонларга тўла жавоб берадиган бўлади.

Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислон Каримов таъкидлаганидек, “Хуқуқий давлатнинг асосий белгиси барча фуқароларнинг қонун олдида тенглиги, Конституция ва қонунларнинг устунлиги таъминланишидир. Конституция ва онунларнинг устунлиги принципи шуни англатадики, бунда барча жорий қонунлар ва меъёрий-хуқуқий ужатлар Конституция асосида ва унга мувофиқ бўлиши талаб этилади. Улуғ бобоқалонимиз Амир Темур айтганларидай: “Қаерда қонун ҳукмронлик қилса, шу ерда эркинлик бўлади” [3].

Хуқуқий маданият деганда, жамиятнинг қонунчилик даражаси, мавжуд қонунлардан аҳолининг хабардорлик даражаси, халқнинг хуқуқ нормаларига риоя қилиши ва уларни бажармаган шахсларга нисбатан мурасасиз бўлиши тушунилади.

А. Саидов ва У. Тожихоновнинг ёзишича “Хуқуқий маданият жамият ва шахснинг хуқуқий ҳолати тимсолида қабул қилиниши мумкин бўлган алоҳида ижтимоий ҳодисадир. Жамиятнинг хуқуқий маданияти хуқуқий онгнинг, қонунийликнинг, қонунларни такомиллаштиришнинг ва хуқуқий тажрибанинг муайян даражасини акс эттирадиган ҳамда инсоният хуқуқ соҳасида яратган бутун бойликларни қамраб оладиган ижтимоий маданиятнинг бир тури сифатида кўрилади. Жамиятнинг хуқуқий маданияти шахс эркинлиги ва хавфсизлиги, инсон хуқуқларини таъминлаш, унинг хуқуқий ҳимоя этилишини ва ижтимоий фаоллигини қафолатлаш учун замин бўлиб ҳисобланади” [4]. Олимлар хуқуқий маданиятни позитив хуқуқнинг даражаси билан боғлайдилар ва шахснинг хуқуқий маданияти ҳам ушбу позитив хуқуққа мос келгани билан ўлчанади деб кўрсатадилар. “Шахснинг хуқуқий маданияти - жамият хуқуқий маданиятининг, зарурий шарт-шароити ва илк бунёдкори, унинг мақсади ва таркибий қисмидир. Шу билан бирга у шахснинг ўзининг қонуний фаолият даражасида акс этувчи хуқуқий ривожланишининг жиҳати ҳамдир. У жамият хуқуқий ҳолати муайян даражасига боғлиқ ҳолда унинг муҳим негизини ташкил этади ва унинг асосида ётади. Шахснинг хуқуқий маданияти амалиётда унинг ижобий хуқуқий онгини тақозо қилади. У хуқуқ соҳасида жамиятнинг прогрессив ютуқларига мос келувчи ижодий фаолиятни ташкил этиб, натижада шахснинг доимий хуқуқий бойиши рўй беради”[4]. Демак, жамият билан инсон (шахс)нинг хуқуқий маданияти, диалектик шаклландиган ва юксаландиган ижтимоий-хуқуқий воқеликлардир.

Хукукий маданиятнинг юқори даражада бўлиши хукукий давлатнинг ўзига хос хусусиятидир. Бозор иқтисодиётини шакллантириш шароитида хукукий маданиятни ошириш муҳим иш ҳисобланади. Шу билан бирга, хукукий маданият савияси қабул қилинган қонунлар сони билан эмас, балки ушбу қонунларнинг барча даражаларда ижро этилиши билан белгиланади. Ушбу муҳим ишда одамларда қонунларга ва норматив-хукукий ҳужжатларга нисбатан чуқур ҳурмат ҳиссини тарбиялаш алоҳида аҳамиятга эгадир. Зеро, хукукий нормалар одамлар онгига сингган ва улар орқали амал қилган тақдирдагина яшайди ва рўёбга чиқади. Юқоридаги фикрлардан яққол кўриниб турибдики, хукукий давлат ва хукукий маданият – ўзаро узвий боғлиқ. Аҳолининг хукукий саводхонлигини йилдан-йилга ошириб бориш хукукий давлатнинг барпо этиш жадаллик билан амалга ошади.

Шунингдек, хукукий таълим-тарбия демократик давлат ва фуқаролик жамияти барпо этиш ва мустақкамлаш учун жуда муҳим. Чунки таълим - тарбияни ислоҳ, қилмасдан, хукукий маданият, хукукий маънавият ва маърифат ютуқларини кишилар онгига етказмасдан туриб комил инсонни шакллантириб бўлмайди. Шу ўринда Биринчи Президентимизнинг қуйидаги сўзларини эслаш мақсадга мувофиқ бўларди: “Ислоҳот - ислоҳот учун эмас, аввало инсон учун, инсон манфаатларини таъминлаш учун”[4]. Мамлакатимизда ўқув юртларида хукукий таълим-тарбиявий ишларни такомиллаштиришда айниқса 1997 йил 29 августда қабул қилинган, “Жамиятда хукукий маданиятни юксалтириш миллий дастури” катта аҳамиятга эга. Миллий дастур ва хукукий таълим - тарбия, хукукий маданиятга оид меъёрий ҳужжатлар асосида ўқув муассасаларида таълим ва тарбия, маънавий-маърифий ишлар ташкил этилган [5].

Жамиятда хукукий маданиятни юксалтириш миллий дастурни ҳаётга татбиқ этишда маҳаллий давлат ҳокимияти органлари билан алоқалар йўлга қўйилган. Ҳамкорлик таълим муассасалари орқали амалга оширилмоқда. Уларнинг иш режаларида маҳаллий суд, прокуратура ва ички ишлар органлари билан ҳамкорликда олиб бориладиган тадбирлар белгиланган. Бундан ташқари ёшлар тарбияси бўйича қўшма иш режалари ишлаб чиқилиб, шу асосда тадбирлар ташкил этилмоқда. Умумий ўрта таълим, академик лицей ва касб-хунар коллежлари, олий ўқув юртлари ва бошқа таълим муассасаларида хукукий таълим ва хукукий тарбия олиб борилиши назарда тутувчи ўқув дастурлари ҳамда норматив ва ўқув-услубий мезонлар ишлаб чиқилган. Буларнинг барчаси ёшларнинг хукукий онгини шаклланишига, уларни жамият талабларига, давлатнинг қонун-қоидаларига, миллий урф - одатларимиз ва кадриятларимизга чуқур ҳурмат-эҳтиромли бўлишга ўргатиш хукукий таълим-тарбиянинг асосий мақсадларидан биридир.

Шуларни ҳисобга олган ҳолда, жамият тараққиёти йўлида хукукий таълим-тарбияни юксалтириш борасидаги қуйидаги тақлиф-мулоҳазаларни билдириб ўтсак мақсадга мувофиқ бўларди:

Биринчидан, таълим муассасаларини хукуқшунос мутахассислар билан таъминлашда муаммолар мавжуд. Бу масалани ҳал этиш учун олий ўқув юртлари билан ҳамкорликни кучайтириш ва уларни битирган мутахассисларни муассасаларга жалб қилиш механизмини шакллантириш зарур.

Иккинчидан, хукукий таълим - тарбияга оид ўқитувчилар учун методик қўлланмалар кам. Ўқитувчиларнинг машғулотларни самарали ташкил этишлари учун зарур методик қўлланмаларни шу соҳанинг етук олимлари, хукуқшунослар ва тажрибали хукуқшунос ўқитувчиларни жалб қилган ҳолда яратиш лозим.

Учинчидан, хукуқни муҳофаза қилувчи идоралар билан таълим муассасалари ҳамкорлигида ўқувчилар, талабалар ўртасида хукукий тарбиявий тадбирлар уюштирилмоқда. Лекин, бу тадбирларда ўқувчиларнинг, талабаларнинг ўз мустақил фикрлари ва ташаббуслари билан қатнашувига кам эътибор қаратилмоқда.

Хулоса

Юқорида билдирилган фикрларга хулоса тариқасида шуни таъкидлаш лозимки, мамлакат равнақи, унинг эртанги порлоқ келажагини яратадиган ёшлар қалбига миллий қадриятлар, халқимизнинг бой тарихи ва маънавий мероси анъаналарини чуқур сингдириб, уларни ватанпарварлик, фидойилик ҳамда умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялаш ҳар бир ўқитувчи, ҳар бир ота-она қолаверса, ҳар бир фуқоранинг бурчи. Ҳаётнинг ўзи, тараққиёт қонуниятлари, эришилган марралар, истиқболдаги мақсад ва вазибалар ҳуқуқий демократик ислохотларни қатъият билан давом эттиришни тақозо этмоқда. Биз ҳеч қачон ҳеч кимдан кам бўлмаганмиз, кам эмасмиз, кам бўлмаймиз ҳам! Ёшлар, қайси соҳада бўлмасин, замонавий билимларни эгаллашга, илм чўққиларини забт этишга, энг илғор техника ва технологияларни жиловлашга бел боғлар экан, аввало, ана шу даъватга таяниб иш кўриши айни муддаодир. Бунинг учун имкониятлар етарли, фақат ҳар биримиз бу маъсулиятни чуқур ҳис этиб, куч-ғайратимизни сафарбар этишимиз лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- 1.Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996. – Б. 135.
- 2.Инсон ҳуқуқлари бўйича бутун жаҳон декларацияси. Т., 1948 йил, 10 декабрь.
- 3.Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996.- Б.125.
- 4.Таджиханов У., Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси. Т.1. - Т.: ИИВ Академияси, 1998. 30-36 бетлар.
- 5.Каримов.И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари - олий қадрият. Т. «Ўзбекистон», 2006. 62-63 бетлар.

Илмий раҳбар

кат., ўқит., Норматов О. М.

МУЛЬТИМЕДИЯЛАНГАН ЭЛЕКТРОН ҚЎЛЛАНМАДАН ФОЙДАЛАНИШ УСЛУБЛАРИ

Имомалиева С. Ғ - талаба, ТИҚХММИ

Аннотация

Таълим тизимларида электрон қўлланмалардан тўғри ва самарали фойдаланиш ўқитиш сифатини яхшилашнинг муҳим омилларидан биридир. Бинобарин, ҳар бир физика ўқитувчисининг кундалик фаолиятида электрон қўлланмаларидан тўғри ва моҳирлик билан фойдаланиш талаб қилинади. Бунинг учун физика ўқитувчиси электрон қўлланмалардан маърузада фойдаланиш усули билан таниш бўлиши, олдиндан тайёргарлик кўриши шарт.

Электрон қўлланмаларнинг қўлланилиши ва умумий ўрта ҳамда ўрта махсус таълим дастурларига киритилган лазер нурланишини ўрганиш мавзусини ўтишга доир услубий материалларни ёритишда “Лазер нурланиши” номли электрон қўлланмадан фойдаланиш услублари ва унинг мазмуни ҳақида фикр юритамиз. Лазерлар олимларимизнинг тинимсиз изланишлари туфайли лаборатория шароитларида ҳосил қилинди [1].

Лазер нурланиши оптик диапазондаги бошқа нурланишлардан қатор афзалликларга эга. Юқори манохроматиклиги, когерентлик ва қатъий йўналишга, шунингдек нурнинг катта энергия зичлигига эгаллиги шулар жумласидандир. Лазер нурларининг алоҳида хусусияти унинг халқ хўжалигида қўлланилишидир. Ҳозирги кунда лазерларнинг 250 дан ортиқ соҳаларда муваффақият билан фойдаланилаётганлиги аниқланган. Масалан, узоқ

масофага ахборот узатиш тармоқлари, телевидение, спектроскопия, металлларни ва қаттиқ материалларни қайта ишлаш, кимёда, электрон ҳисоблаш техникасида, компьютерларда, тармоқлараро жараёнларни бошқаришда, геодезияда, биологияда, медицинада, ҳарбий куролларда, портлаш воситаларини бошқаришда, алоқада ва бошқаларда ишлатилади.

Лазерларнинг қўлланилиш чегараси чекланмаган. Йилдан йилга лазер нурлари кўплаб ишлаб чиқарилмоқда. Шу боисдан, лазернинг инсон организмга, турли модда ва материалларга таъсирини ҳамда ундан ҳимояланиш воситаларини ўрганиш зарур.

Барча қаттиқ жисмли лазерлар ёруғлик ёрдамида ғалаёнлаштирилади. Рубинли лазерлар дастлабки қурилмаларида импульсли нурланиш энергияси 0,1 м бўлиб кейинчалик такомиллаштирилиб, юзлаб жоульгача энергияга эришилади. Рубинли лазер кўк-яшил тўлқин узунлиқда бўлиб, нурланиш учун 10 % энергия сарфланади. 90 % энергия ғалаёнлаштиришда бефойда сарфланади. 10 % энергиядан ҳам фаол моддани иситишга, ионларнинг юқори сатҳдан оралиқ сатҳга ўтишига, фаол модда резанаторига сарфланади. Натижада рубинли лазерда ФИК 1-2 % дан ошмайди. Қаттиқ жисмли лазернинг характерли хусусиятларидан бири нурланишнинг таркоклигидир. У 25-30⁰ бурчак чегарасида оғиш хусусиятига эга.

Яримўтказгичли лазерлар квант электроникасининг ютуқларидан бири ҳисобланади. Яримўтказгич лазерларининг устунлиги шундан иборатки, уларнинг конструкцияси ясси ва ихчам бўлиб ярим ўтказгичли материаллардан ўтганда тож функцияланади. Яримўтказгичли лазер конструкциясининг ясси диод конструкциясидан фарқи бўлмайди. Шу сабабли бу генераторларни диодли лазерлар ҳам деб юритилади. Бундай генераторлардан атом ёки ионларни ғалаёнлаштириш жуда осон бажарилади. Фаол модда сифатида арсенид, гелий, кремний, индий аралашмаси билан фосфат, гелий, арсенид, индий сингари элементлардан фойдаланилади. Яримўтказгичли лазерлар ФИК назарий ҳисоблашларда 100 % бўлиб, амалда 40-50 % ни ташкил этади ва узлуксиз ҳамда импульсли режимларда ишлай олади [2].

Монохроматик нурланиш бир жинсли нурланиш бўлиб, чизиқли спектрни ҳосил қилади. Газсимон ва суяқ жисмлар нурланишида йўл-йўл спектр, иссиқ нурланишда эса туташ спектр вужудга келади. Бу нурланиш монохроматик нурланишга эквивалентдир. ОКГ да нурланиш жуда қисқа энли спектр ҳосил қилиши билан характерлидир. Масалан, чизиқли спектрлар лазер нурланишини 10⁻⁶ см кенгликда бўлади. Лазер нурланиш бир хил тўлқин узунлиқдаги нурлардан иборат бўлиб, монохроматик нурларни ҳосил қилади. Унинг қуввати 100-1000 жоулларга тенг бўлади. Гелий-нионли лазер генерацияси туфайли спектрал чизиқлар эни 2 · 10⁻⁴ см га етади.

Нурланиш когерентлиги лазер нурларининг монохроматиклигига боғлиқ бўлиб, электромагнит тебранишларни фазолар фарқининг ўзгармас бўлишини таъминлайди. Синусоидда тебраниш фазалари $\pi/2$ дан кичик қийматгача аниқ бажарилади. Тебранишнинг турли вақтларда тебраниш фазосининг бир хил такрорланиши содир бўлади. Агар идеал электромагнит тебраниш табиатда бўлганида бир хил частотага эга бўлар эди. Реал шароитда ҳар қандай электромагнит тебраниш генератори оптик частоталарда атом (ион, молекула) ν частота $\Delta\nu$ миқдорга четланганлик кузатилган.

Частота четланишига $\Delta t = 1/\Delta\nu$ вақт интервали мос келади ва когерентлик вақти деб айтилади. Агар $\Delta\nu \rightarrow 0$ бўлса, Δt чексизликка интилади. Δt вақт интервали қанча катта бўлса, когерентлик ҳам шунчалик стабил бўлади, тўлқин фазолар айирмаси эса ўзгармас миқдор бўлади. Фазовий когерент манбалар деб, нурланиш бир хил фазоли тўлқинлардан ёки фазолар айирмаси ўзгармас бўлган манбаларга айтилади. Буни нурланиш фазо корреляцияси воситасида нурланаётган жисмнинг турли нуқталаридан чиққан нурнинг бир хил фазода тўлқин фронтини етиб келиши билан характерланади. Демак, нурланиш кесим юзи билан таққосланганда ясси тўлқинларга яқин бўлса барча тўлқин фронтини ясси бўлиб, тўлқин йўналишига перпендикуляр бўлса бундай нурланишни фазовий когерент электромагнит тўлқинлари дейилади. Агар нурланиш юқори монохроматик бўлса исталган вақт тўлқин қисмларида фазолар бир-бирига аниқ мос келади ва вақтди

когерентлик деб аталади. Когерент нурланиш энергияси билан когерент бўлмаган (одатдаги нурланиш) нурланиш энергияси бир-биридан қандай фарқ қилади?-деган саволга жавоб бериш учун қуйидагилардан фойдаланамиз.

1. Маълумки, когерент бўлмаган нур манбаси жуда кўп сондаги ион молекулаларининг генерация тўлқинларидан вужудга келади. Шунингдек, ҳар бир зарра нурланишга мос ҳолда фаза, частота, амплитуда сингари тебраниш параметрлари тасодифан тартибсиз ўзгаради. Когерент бўлмаган нурланиш шаҳарда содир бўладиган товуш тўлқинлари сингари даврий бўлмаган тебранишлардан иборатдир. Шу сабабли когерент бўлмаган нурланишдан ахборот узатиш учун частотали ёки фазали модуляцияни амалга ошириб бўлмайди.

2. Когерент нурланиш электромагнит тўлқинлари нур энергиясини кесим концентрациялаш имконини беради. Вақтли когерентлик эса монохроматик нурланишдан ахборот узатиш ва уни қабул қилиш системасини амалга ошириш мумкин. Катта қувватли қурилмалар ва катта қувватли нурланиш ҳосил қилувчи лазерларни қуриш ва ундан фойдаланишни таъминлайди. Когерент ҳамда когерент бўлмаган манбаларни бир-бирига таққосласак, нурланиш энергияси $E_{\sigma}/E_0 = 10^{23} P Q / v^2$ билан ифодаланади.

Агар ўқитувчи электрон қўлланмага ижодий равишда ёндошиб, электрон қўлланмадаги материалларни талабалар англаб олиши учун барча билим ва тажрибаларни ишга солса, талабаларга электрон қўлланмада кўрсатилганлардан ташқари янги тушунчалар бериши ҳам мумкин [3].

Мультимедияланган электрон қўлланмаларни маърузаларда қўллашдан олдин уни ўқитувчи томонидан услубий таҳлил қилиниши зарур, бунда қуйидагиларга эътибор бериш керак:

1. Мультимедияланган электрон қўлланмадан фойдаланишни қисқача мазмуни;
2. Электрон қўлланманинг афзаллигини таъминловчи саҳифалар ва уларнинг ижобий характери;
3. Керак бўладиган тажрибалар ва кўргазмали қуроллар;
4. Дарсликдан ташқари қўшимча адабиётлар;
5. Электрон қўлланма қўлланилган машғулотда ўқитувчининг роли;
6. Электрон қўлланмани қўллаш юзасидан ўқитувчининг фикри;
7. Электрон қўлланма ёрдамида берилиши мумкин бўлган янги тушунчалар;
8. Ўқитувчининг аудиторияни маърузага тайёрлаши, уй вазифаси, аудиториядан ташқари иш, талабалар билимини ҳисобга олиш тўғрисидаги фикрлари.

Хулоса

Шундай қилиб, мультимедияланган электрон қўлланмадан фойдаланиш ҳар бир физика ўқитувчисининг ижодий маҳорат ва фаолиятига боғлиқдир. Замонавий ахборот технологияларидан маъруза жараёнида фойдаланиш қисқа муддатда маъруза мазмуни кўргазмалилик асосида талабаларга етказилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Гинзбург В.Л. Успехи физических наук.–Том.–169.–№4.–апрель, 1999 212-215-ст.
2. Назиров Э.Н., Курбонов М. Ярим ўтказгичлар физикасидан дастурланган ўқув қўлланма. –Т.: Университет, 2000. 144-148-бет
3. Пёришкин А.В., Разумовский В.Г. Физика ўқитиш методикаси асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1990. 186-187-бет.

Илмий раҳбар

к.ф.н., доц. Ахмедов А.

TA'LIMNI TEXNOLOGIYALASHTIRISH VA UNI O'QUV-TARBIYA JARAYONI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Murodova Sh. - talaba TIQXMMI

Annotatsiya

Maqolada ta'limni texnologiyalashtirishda pedagogik texnologiya, innovatsiya, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlarning qisqacha mazmun mohiyati ochib berilgan. Ta'limni texnologiyalashtirish orqali o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligiga erishish yo'llari yoritib berilgan.

Ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida maxsus ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borishni ko'zda tutadi. Shuni alohida aytish lozimki, ta'lim texnologiyalari pedagogika ilmining tadqiqot ob'ekti sifatida, aniq fanlarni o'qitish uslubi bo'libgina qolmay, ijtimoiy fanlarni o'qitishda ham yangicha yondashuvni taqozo etadi.

Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, texnologiya- bu sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayondir. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Pedagogik texnologiya (PT) - bu o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisadir. Pedagogik texnologiya ijtimoiy zaruriyat bo'lganligidan, dastavval AQShda XX asrning 70- yillarida paydo bo'lib, keyinchalik boshqa rivojlangan mamlakatlarda ta'lim jarayonida keng qo'llanila boshladi.

Mustaqillikka erishgach O'zbekiston olimlari xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma'rifiy aloqalar o'rnatish boshladilar. Natijada yurtimizga ilg'or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. Shular qatori jahondagi progressiv pedagogik texnologiya degan tushunchalar ham kirib keldi. Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDHga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar qatorida V.P.Bespalko «PT – bu o'qituvchi mahoratiga bog'lik bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir», - deb ta'riflagan.

Rossiya olimlaridan V.M.Monaxov «PT-avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir», - degan qisqacha ta'rifni berib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratadi. Uning ta'rif bo'yicha, «PT-o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi». M.V Klarin fikricha, PT - o'quv jarayoniga texnologik yondoshgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chiqib o'quv jarayonini loyihalashdir.

O'zbekistonlik pedagog olimlar Nurali Saidaxmedov va Abduraxmon Ochilovlarning fikricha, PT - bu o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

Pedagog olim B.L. Farberman esa pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: PT ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'lik ijtimoiy hodisadir. Bu ta'riflarni uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan solishtirib ko'rish uchun yapon pedagog olimi T.Sakomoto bergan ta'rifni keltirin o'tamiz: PT- bu tizimli-majmuli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir majmuga keltirishdir.

Birlashgan millatlar tashkilotining nufuzli idoralaridan YuNESKO ning ta'rif buyicha, «PT - bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda

qurib, butun ta'lim jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda tizimli yondashuv usulidan foydalanishdir».

Keltirilgan ta'riflarni ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan MDH mamlakatlari olimlarining bergan ta'riflari bir-biriga yaqin bo'lsada, farqi ham anchagina bor. Jumladan, Sakomoto va YuNESKO ta'riflarida majmuaviy yondashuv tamoyiliga alohida urg'u berilgan. MDH olimlarining PT ga bergan ta'riflarida tizimli yondashuv eslatib o'tilgani bilan, o'quv jarayonining loyihasi tuzilayotganda uni mutloq unutib, tizimli yondashuv tamoyilining qonun va qoidalariga sira ham amal qilinmaganini ko'rish mumkin.

Haqiqatan ham, ob'ektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilini yaxshi bilgan kishiga, Sakomoto aytganidek, «PT – o'quv jarayonini muayyan bir tizimga keltirishdir», degan tushuncha kifoya qiladi. Bu tushuncha orqali PT ning boshqa hamma xususiyatlarini, ya'ni maqsadga yo'naltirilganini, bir necha o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan tashkil topganligini va boshqalarni anglab olsa bo'ladi. Chunki bu xususiyatlarning hammasi, tizimlar nazariyasiga binoan, tizim deb nom olgan narsa va hodisalarning ajralmas sifatlaridir.

Hozirgi ta'lim tizimida bilimlarni egallashning yangi konsepsiyasi– zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli uslublarini qo'llashni taqozo etadi. Ta'lim jarayoni – bir tizim. Uni tashkil etuvchi elementlar – o'quv maqsadi, kutilayotgan natija, o'qituvchi, talaba, ta'lim mazmuni, ta'limning metodi (usuli), ta'lim shakli, ta'lim vositalari, nazorat va baholash. Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda yuqoridagi elementlar to'g'ri tanlanishi kerak. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi – o'qituvchining tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'quvchi va o'qituvchidan – mustaqillik, ijod, irodaviy sifatlarni talab etadi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar – pedagogik jarayonga, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatlariga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosli interfaol usullardan foydalaniladi.

Interfaol – (“Inter” – bu o'zaro, “act” – harakat qilmoq) o'zaro harakat qilmoqdir. Bu usublarning o'ziga xosligi shundaki – o'qituvchi va o'quvchining birgalikda faollik ko'rsatishidir. Pedagogik hamkorlik jarayoni yuzaga keladi:

1. O'quvchi dars davomida befarq bo'lmaydi, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga yo'l oladi.
2. O'quvchining o'quv jarayonida fanga nisbatan qiziqishining davomiyligi ta'minlanadi.
3. O'quvchi mustaqil ravishda masalaga ijodiy yondoshadi.
4. Pedagog va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatining doimiyligi ta'minlanadi.

O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talabani (o'qituvchining) ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O'qituvchi – jamiyatning ijtimoiy topshirig'ini bajaradi, yetuk mutaxassislarni tayyorlaydi. Shu sababdan o'qituvchi – ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim. Yana u mustaqillik nomiga e'tiqodli, har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkurga ega, kasbiga tegishli ma'lumoti bor, o'z faning chuqur bilimdoni, pedagogik mahorat ustasi, pedagogik, psixologik va uslubiy bilim, malakalarni egallagan, pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Maxsus fan o'qituvchining pedagogik shakllanish jarayoni oliy o'quv dargohida ta'lim olish jarayonidan boshlanadi. OTMlarning o'quv reja va dasturlarida bo'lajak mehnat ta'limi fan o'qituvchilarga shu kasbning siru asrorlarini o'rgatish, ilmiy bilimlar berishda umumtexnika fanlarini o'rni muhimdir. Umumtexnika fanlari mehnat ta'limi o'qituvchilarining texnologik tayyorgarligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Mehnat talimi o'qituvchisi qanchalik mahoratli bo'lmasin, texnika - texnologiya fanlarini yaxshi o'zlashtirmagan bo'lsa, o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Chunki, mehnat ta'limi o'qituvchisining kasbiy faoliyati texnologik tayyorgarligi bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham texnika – texnologiya

fanlari maxsus fan o'qituvchilarini tayyorlash tizimida muhim amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'kidlanganidek, «Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish mamlakatni taraqqiy ettirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Tizimning amal qilishi kadrlarning istiqbolga mo'ljallangan vazifalarini hisobga olish va hal etish qobiliyatiga, yuksak umumiy va kasbiy madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda yo'nalish olib bilish mahoratiga ega bo'lgan yangi avlodni shakllantirishni ta'minlaydi». Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga jadal sur'atlar bilan kirib borish jarayoni respublikamiz aholisi uchun ta'lim darajasini oshiruvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu birinchi navbatda bozor munosabatlarining rivojlanishiga bog'liq bo'lib, u jarayon bilim darajasiga, iqtisodiyot va ekologiya, kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalari ustuvor bo'lgan va xalq xo'jaligining rivojlangan tarmoqlariga, ta'lim tizimining takomillashuvi va kadrlar tayyorlashga bog'liq bo'ladi.

Xulosa

Kadrlar tayyorlash muammosining samarali yechimi birinchi navbatda bugungi kun talablariga javob bera oladigan psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot, ekologiya, madaniyat, huquqshunoslik va shunga o'xshash boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqur biladigan professional malakaga, har tomonlama chuhur bilimga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar tayyorlanishi bilan bog'liqdir. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning IX sessiyasida ta'kidlab o'tganidek: «O'qituvchilar, professorlar, kafedra mudirlari o'z ustida ishlamasa, o'z sohasi bo'yicha chet mamlakatlarga ilmiy safarlarga borib kelmasa, tajriba almashtirilmasa, albatta, bunday ahvol o'quv jarayoniga va uning samarasiga salbiy ta'sir qiladi».

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tog'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq NMIU, 20-29 betlar.
- 2.Ismailova Z.K. Pedagogika. Darslik. – T.: Molya-iqtisod, 2008.
- 3.Ishmuxamedov R. va boshqalar. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasi.
- 4.Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari. – Toshkent, 2006.

Ilmiy rahbar

п.ф.д., доц. в.б. Химматалиев Д.О.

NEGATIVE INFLUENCE OF GLOBALIZATION PROCESSES ON STUDENTS

Hokimov A. – student, of TIAME

Abstract

This topic is considered to be one of the most essential nowadays. To achieve this goal it is necessary to identify the harm of it.

For the protection of our children and adolescents from the negative influence of popular culture and the globalization processes, it is necessary at an early age to instill in them a love and respect for our culture and history, to create conditions for learning various crafts and traditions of our people.

Also in the early grades in school must teach our children in conjunction with the universal values of peace, justice and goodness, to inculcate in them the basics of Islamic spirituality, morality and ethics. So we can solve two problems at once:

1. Countering the negative influence of popular culture and globalization processes on children and adolescents

2. Responses to the introduction and planting in the fledgling teenage consciousness alien to our culture and society religious views and ideas!

Instead of TV and radio channels broadcasting around the clock for the most part useless and not enlightening pop music, movies and TV series we need to create high-quality multimedia product (television and radio channel, educational magazine for young people, such as Technology of Youth) it is aimed at raising the younger generation healthy and harmoniously developed in all respects.

It is necessary to carry out organized and targeted seminars and meetings masters of their craft in various fields of modern human life (engineers, doctors, managers, athletes, etc.), so they told them about their profession, life and work experience. As a result, young people will be able to see the representatives of various professions and to begin to determine their future path in life. They will be motivated to master a particular profession that they like, and then no different computer games or popular culture will not be able to lure them and make their slaves.

At this time and again pointed our President Islam Karimov: "Do not be worthy subjects for books, movies, life and work of many of our compatriots who are gaining credibility with their knowledge, the results achieved in the most famous universities of the world, dozens of our sons and daughters Because the example of the life and activities, achievements of people clearly demonstrate the presence of our great features, what heights we can achieve. "

It is necessary to equip all schools with modern teaching methods and the necessary equipment for effective student learning. And also to provide students with modern IT tools for self-education, e-book reader for example. Turkey has provided a modern tablet of their students in the amount of \$ 10.6 million. Our children are worse? As our President Islam Karimov say: "Our children have never been poorer (less affluent) and the other will never be poor (less well)!

Since adolescence boys tend to quickly become a "real man" and seek to imitate the adult males in the first place they need to form an image of the real man, is necessary for the culture of our people and society, ie, honest, courageous, responsible, intelligent and strong in all respects defender of the motherland without bad habits and abnormal addictions. How to achieve this?

Instead of the competition on skill games computer games create specialized training games. For example, instead of racing computer games without rules and survival training game on traffic rules and driving skills of different types of vehicles in the same interactive and entertaining fashion as in those games. Instead of computer games in which the characters are trying to kill each other, or tell a friend, you must create a game for the development of adolescent boys as future military service officials and defenders of the Motherland.

It should be based on a specific part of computer clubs (internet cafe) to create specialized training centers for teenagers on computer literacy and programming, as teens have the desire to computers in the classroom and in the school in 45 minutes sessions they cannot catch all the necessary training material. To accomplish this, in addition to government regulations, it will be necessary entrepreneurial responsibility and the will of the business community, as well as demand from parents.

To implement these solutions to the problem will need to throw all the power (economic, political, and scientific) of our people, to collect the most professional managers, IT professionals, psychologists and teachers! All this will be very very expensive for the state budget. But I think you can save on not very important ways. For example, in the financing of the football team, from the victories which our children smarter, stronger and healthier will not!

I.A. Karimov: "Our next goal is to force the general public, intellectuals, scientists and artists, especially workers spiritual and educational sphere, for new levels of activities aimed at

improving and approval of the basic principles of national independence ideology in people's minds".

In circumstances where the amount of accumulated human knowledge is growing and doubling every year, it is necessary from the very first years of teaching the pupils to develop the skills of effective learning and most importantly – self-learning. It is impossible to make a person, a fortiori a child to do anything if he does not want or is not aware for what is to be done. There is only one the kind method to make a man to do anything and is to make it so that he wanted to do it.

Life example. Father explained to her child, who "studied" only when he was forced to learn, that he had to study only for himself and that education is necessary only to himself. After that, the child no longer forced to make do homework, teach poetry, etc. He stubbornly and self-started, and when he could not understand something he asked for help from their parents!

But even more power than the power of the teacher belongs to the parents. First of all, it is in the family, by the meaningfully efforts of parents in early childhood form the basis upon which then teachers will continue to build and develop the child.

This tells us that the education of the younger generation must first be given a lot of attention to their spiritual and moral education. After all, the spiritual and moral healthy generation can protect their homeland and make a huge contribution to its development and prosperity.

Since adolescence boys tend to to quickly become a "real man" and seek to imitate the adult males in the first place they need to form an image of the real man, is necessary for the culture of our people and society, ie, honest, courageous, responsible, intelligent and strong in all respects defender of the motherland without bad habits and abnormal addictions. How to achieve this?

Instead of the competition on skill games computer games create specialized training games. For example, instead of racing computer games without rules and survival training game on traffic rules and driving skills of different types of vehicles in the same interactive and entertaining fashion as in those games. Instead of computer games in which the characters are trying to kill each other, or tell a friend, you must create a game for the development of adolescent boys as future military service officials and defenders of the Motherland, ie in the same manner fun to teach them the basics of military service, the skills of defense against potential enemy and the strategic and tactical thinking on the battlefield!

Conclusion

To implement these solutions to the problem will need to throw all the power (economic, political, and scientific) of our people, to collect the most professional managers, IT professionals, psychologists and teachers! All this will be very very expensive for the state budget. But I think you can save on not very important ways. For example, in the financing of the football team, from the victories which our children smarter, stronger and healthier will not!

Reference

- 1.IA Karimov .: Our path - the deepening of democratic reforms and consistent continuation of the country's modernization
- 2.IA Karimov : For the prosperity of the country - all of us in the response. Tashkent, 2001. (c 170-17)
- 5.T. and B. Buzan Supermyshlenie / Trans. from English. EA Samsonov; Mn .: LLC "Potpourri", 2003
6. Shlimovich B. Computer and children // Science and zhizn.- 1998. - №11- C.12.
- 7.Article: Students Turkey will buy tablets on open source software. Author: Love Kasyanov. <http://www.cnews.ru/news/top/?2013/04/08/525136>

ОСНОВНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ОТНОШЕНИЯМ «ПРЕПОДАВАТЕЛЬ – СТУДЕНТ», «СТУДЕНТ – ПРЕПОДАВАТЕЛЬ»

Ботирова А – студентка, ТИИИМСХ

Аннотация

В работе рассматриваются методические задачи: подобраны и апробированы коррекционные и развивающие программы целенаправленного сопровождения личностной адаптации студентов как условия адекватного формирования смысловой сферы личности, а также содержится описание активных методов социально-психологического обучения и программа создания эмоционально комфортной среды в вузе. Именно в этом смысловом направлении создано и данная статья, частично содержащее описание новых образовательных и психологических технологий, способствующих психолого-педагогической поддержке и развитию личности, повышению ее устойчивости к дестабилизирующим внешним и внутренним факторам.

Основные требования к отношениям «преподаватель – студент», «студент – преподаватель» можно сформулировать следующим образом:

- взаимодействие факторов сотрудничества и ведомости при организации воспитательного процесса;
- формирование духа корпоративности, коллегиальности, профессиональной общности с преподавателями;
- ориентация системы педагогического общения на взрослого человека с развитым самосознанием и тем самым преодоление авторитарного воспитательного воздействия;
- недопустимы поучения и нравоучения, но нельзя и льстить аудитории;
- не надо стесняться выражать студентам одобрение. Compliment, если он искренен, всегда вызывает ответную благожелательную реакцию. Повод для комплимента всегда найдется: компетентность, внимание, заинтересованность, любознательность и т.п. студентов;
- использование профессионального интереса студентов как фактора управления воспитанием и обучением и как основы педагогической и воспитательной работы.

Такой стиль формируется под влиянием двух важнейших факторов: – увлеченности наукой, предметом;

- стремления превратить область научного поиска в материал педагогического воздействия, так называемого педагогического чувства.

К сожалению, обычно преподавателю приходится решать проблемы, исходя из реальных условий, когда напряженность обстановки, ограниченность времени, отсутствие соответствующих навыков не способствуют поиску оптимальных, эффективных решений.

Иногда преподаватель пытается решить конфликт в свою пользу «силовым» авторитарным методом и порой достигает успеха. Однако этот успех – лишь видимость, так как конфликт с неустранимой причиной переходит в скрытую форму, а преподаватель теряет авторитет в глазах студентов [1].

Итак, при разрешении конфликтов и проблемных ситуаций преподаватель может предпринять следующие действия:

- «репрессивные» (публичная негативная оценка действий или уровня знаний студента, высмеивание студента, жалобы в деканат и другие административные воздействия) ;
- неконструктивные (отложение решения возникшей проблемы, угроза негативных для студента последствий в будущем и т.п.) ;
- конструктивные действия по изменению негативной ситуации (переключение внимания студентов, самоирония и все другие описанные выше приемы).

Очевидно, что лишь третий вариант действий позволяет переломить конфликтную ситуацию и способствовать ее нормализации.

Как правило, студент нарушает дисциплину, если единственным, что он должен делать, является пассивное восприятие информации (кому не надоест по 5–6 часов в день сидеть и слушать?!). И наоборот, студенту не придет в голову ее нарушать, если на каждом этапе занятия он активно участвует в работе: отвечает на вопросы, проводит эксперимент, обрабатывает его результаты, отвечает на вопросы тестового контроля, решает задачи и т.п.

Поэтому, видимо, и следует увеличивать удельный вес активизирующих форм занятий, стараться применять их и в процессе лекций. Сегодня же преподаватель (особенно начинающий) предпочитает не ввязываться в дискуссии со студентами, а «отбарабанить» материал и считать себя свободным – дескать, кто хочет научиться, тот научится, кто хочет понять материал – поймет сам, а беседа со студентами, направленная на усвоение ими материала, – школярство, недостойное вуза [3].

И эта точка зрения имеет исторические корни. Приведем выдержку из статьи профессора П. С. Кудрявцева (Кудрявцев П.С. Преподавание физики в Московском университете в 1922–1926 гг. // Методология и история естественных наук. – 1987. – Вып. XVII. – С. 120–123).

«В 1925 г., когда я был членом студфракции предметной комиссии по физике, произошли два важных события, оказавшие большое влияние на преподавание физики в университете. Студенты, которые все в большем количестве приходили из рабочих факультетов, тяготились лекционным методом преподавания. Они обратились в Наркомпрос с просьбой ввести для них семинарские занятия.

Наркомпрос предложил предметной комиссии разобрать просьбу студентов. Однако все преподаватели без исключения восстали против требования студентов, они утверждали, что такие занятия снижают уровень преподавания, превращают университет в гимназию, и наотрез отказались вести подобные занятия. Тогда в качестве компромисса было решено поручить все эти занятия студентам старших курсов. В числе студентов, отобранных для этой работы, был и я. Теперь семинарские занятия (упражнения) фигурируют во всех учебных заведениях».

Будучи горячими приверженцами активизирующего обучения в вузах, авторы «данной книги стараются всемерно пропагандировать эти идеи среди коллег» и твердо убеждены в том, что единственным залогом хорошей дисциплины на занятии является активное включение студентов в работу.

Многообразие в построении и методике чтения лекций определяется не только особенностями научной дисциплины, но и профилем вуза, факультета, кафедры. Лекции по гуманитарным наукам всегда будут отличаться от лекций по естественно-математическим наукам, несмотря на то, что в тех и других соблюдаются одни и те же дидактические принципы. На одном и том же факультете, по одной и той же научной дисциплине лекции методически различаются в зависимости от того, читаются ли они для студентов младших или старших курсов, для студентов дневного или заочного отделения. Во всех этих случаях приходится учитывать особенности студенческой аудитории. [2]

Примерная консультация для родителей «Деадаптация и связанные с ней трудности у студентов первого курса»

Адаптация к вузу – довольно длительный процесс, связанный со значительным напряжением всех систем организма. Не день, не неделя требуется для того, чтобы первокурсник освоился в вузе по-настоящему. Его организм приспособляется к изменениям, новым факторам, мобилизуя систему адаптационных реакций.

Выделяют три фазы адаптации:

1) генерализованная реакция, когда в ответ на новое воздействие практически все системы организма человека отвечают бурной реакцией и значительным напряжением. Эта «физиологическая буря» длится две-три недели;

2) неустойчивое приспособление, когда организм ищет и находит какие-то оптимальные (или близкие к оптимальным) варианты реакций на непривычное воздействие;

3) относительно устойчивое приспособление, когда организм находит наиболее подходящие, адекватные новым нагрузкам, варианты реагирования, то есть собственно адаптация. Наблюдения показывают, что относительно устойчивое приспособление к вузу у большинства студентов происходит на 5–6-й неделе обучения.

Адаптация к вузу далеко не у всех студентов протекает безболезненно. У некоторых она не наступает совсем, и тогда приходится говорить о социально-психологической дезадаптации, которая ведет к серьезным последствиям (вплоть до невозможности получить полноценное высшее образование и найти свое место в жизни).

Какие же причины лежат в основе дезадаптации к вузу?

Одной из главных причин многие исследователи называют несоответствие функциональных возможностей вчерашних школьников требованиям, предъявляемым существующей системой обучения. В числе других причин можно назвать недостаточный уровень интеллектуального развития студента и его базовой школьной подготовки, его социальную незрелость, неумение общаться с окружающими, неудовлетворительное состояние здоровья. Все это – комплекс внутренних причин, так называемые «проблемы первокурсника» [4].

Однако существуют и внешние причины дезадаптации к вузу – «проблемы преподавателя»: несоответствующие возможностям ребенка содержание обучения и методика преподавания и т.п. Чаще всего эти факторы существуют взаимосвязано, вытекают один из другого, а в целом приводят к вполне определенным трудностям обучения.

Все многообразие трудностей обучения в вузе можно условно разделить на два типа:

- специфические, имеющие в основе те или иные пробелы в школьных знаниях и несформированность учебных навыков;
- неспецифические, вызванные общей ослабленностью организма, низкой и неустойчивой работоспособностью, повышенной утомляемостью, низким индивидуальным темпом деятельности и т.д.

В результате социально-психологической дезадаптации можно ожидать у студента проявления всего комплекса неспецифических трудностей, связанных, прежде всего, с нарушениями в деятельности. На занятиях такой студент отличается неорганизованностью, повышенной отвлекаемостью, пассивностью, замедленным темпом деятельности, непониманием объяснений преподавателей. Он не умеет работать обдуманно, по плану.

Несомненно, главная роль в создании благоприятного психологического климата в группе и формировании положительной учебной мотивации принадлежит преподавателям вуза. Однако эффективная адаптация возможна лишь при условии совместных усилий преподавателей, куратора и родителей, объединенные усилия которых способны снизить риск возникновения у первокурсника дезадаптации к вузу и трудностей обучения.

Интересуйтесь успехами Вашего ребенка в вузе, общайтесь с куратором и эмоционально поддерживайте первокурсника! Психологическая поддержка Вами собственных детей – это главное, что Вы можете сделать для них в этот сложный период.

Психолого-педагогический тренинг – это практика психологического воздействия, основанная на активных методах групповой работы. При этом подразумевается использование специфических форм сообщения знаний, обучения навыкам и умениям в сферах общения, деятельности, личностного развития и коррекции.

Приведем примеры содержания лишь некоторых тренингов, которые могут быть использованы как на кураторских часах, так и в ходе специально организованной внеучебной профилактической и коррекционной работы [4].

Занятие

ЦЕЛЬ: создание благоприятных условий для работы в группе, ознакомление с основными принципами работы социально-психологического тренинга, первичное освоение приемов самодиагностики и способов самораскрытия, а также активного стиля общения и способов передачи и приема обратной связи.

1. **ЗНАКОМСТВО:** Давайте познакомимся и сделаем это так. Каждый по очереди будет называть свое реальное имя, а потом тренинговое, а также одно из своих реальных хобби, увлечений и одно желаемое хобби, то, которое вы хотели бы иметь, но которое пока по той или иной причине не осуществилось. Тот, кто будет представляться вторым, прежде чем рассказать о себе, повторит сказанное первым. Начиная с третьего, все будут повторять то, что расскажут о себе два предыдущих человека.

2. **РИТУАЛ ПРИВЕТСТВИЯ:** Встать в круг. Положите руки друг другу на плечи, приветливо улыбнитесь, посмотрите друг на друга и поздоровайтесь.

3. **РАЗМИНКА.** «Поменяйтесь местами»: Участники садятся в круг, ведущий в центре. Участникам надо поменяться местами с теми, у которых, например, одинакового цвета волосы или есть наличие какого-нибудь предмета (ситуации дает ведущий). Задача ведущего – занять свободное место, тот, кто остался, становится ведущим.

4. **ЗЕРКАЛО:** Участники образуют два круга – внутренний и внешний. По сигналу психолога тот, кто стоит во внутреннем круге, должен изобразить без слов, с помощью жестов, позы, мимики, уверенного или неуверенного человека, а стоящий во внешнем круге, должен догадаться, кого он изображал. Если он угадал правильно, оба участника поднимают одну руку вверх. Психолог фиксирует, кто угадал, кто нет. Затем, участники меняются, таким образом, каждый участник и показывает, и угадывает. После выполнения упражнения, проводится краткое обсуждение.

«Какие позы загадывались, почему?»

«Какие легче угадывались, почему?»

5. **АССОЦИАЦИЯ:** Один из участников тренинга выходит за дверь. Остальные выбирают кого-нибудь из группы, которого он должен угадать по ассоциациям. Ведущий входит и пытается угадать, кого именно загадали, задавая вопросы по ассоциации: «на какой цветок он похож?», «если был бы деревом, то каким?» и т.п. При этом ведущий показывает, кто именно должен ему ответить (либо спрашивает у каждого ответ на один и тот же вопрос). После того как он получил достаточно информации, он должен назвать «загаданного». Если угадывает, то «названный» становится водящим, если нет, то остается еще раз. После выполнения упражнения проводится обсуждение. «Когда легче было угадывать: когда отвечал тот, кого загадали, или кто-нибудь другой?» – «С чем это связано?»

6. **РИТУАЛ ПРОЩАНИЯ.** Встать в круг. Положите руки друг другу на плечи, приветливо улыбнитесь, посмотрите друг на друга и попрощайтесь.

Используемые литературы

1. Психологические тесты / Под ред. А. А. Карелина: В 2 т. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2001. – Т. 1. – 312 с.
2. Психологические тесты. / Под ред. А. А. Карелина: В 2 т. – М.: ВЛАДОС, 2000. – Т. 1.
3. Райс Ф. Психология подросткового и юношеского возраста. СПб.: СПб, 2000. – 624 с.
4. Ратанова Т. А., Шляхта Н. Ф. Методы изучения и психодиагностика личности: Учебное пособие. – 2-е изд., испр. – М.: Московский психолого-социальный институт: Флинта, 2000. – 264 с.
5. Лобейко Ю. А. Психолого-педагогическая поддержка первокурсников в вузе: учебное пособие / Ю. А. Лобейко, Е. В. Таранова, С. В. Русинова. – Ставрополь: АГРУС, 2007. – 236 с.

**ТОШКЕНТ ИРРИГАЦИЯ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ
МЕХАНИЗАЦИЯЛАШ МУҲАНДИСЛАРИ ИНСТИТУТИ**

**“ҚИШЛОҚ ВА СУВ ХЎЖАЛИГИНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ”
мавзусидаги анъанавий XVIII – ёш олимлар, магистрантлар ва иқтидорли
талабаларнинг илмий-амалий анжумани**

МАҚОЛАЛАР ТЎПЛАМИ

/III-ҚИСМ/

**ЭСЛАТМА: АНЖУМАН МАТЕРИАЛЛАРИ БЕВОСИТА МУАЛЛИФ ТАҚДИМ
ЭТГАН НУСҲАЛАРДАН ТАҲРИРСИЗ ВА ТУЗАТИШЛАРСИЗ ЧОП ЭТИЛДИ!**

Bosishga ruxsat etildi _____ Qog'oz o'lchami 60x84 – 1/16
Hajmi _____, bosma taboq. _____ nusxa. Buyurtma № _____
TIQXMMI bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent – 100000. Qori Niyoziy ko'chasi 39 uy.